JOSH MAKDAUELL
BOB XOSTETLER

TO‘G‘RI QARORLAR IZLAB

O‘smirlarning har kungi o‘qishlari uchun

366 jozibakor lavhalar

ANNOTASIYA

Mazkur kitob biz har kuni duch keladigan hayotiy muammolarga to‘g‘ri qarorlarni topgan holda, ularni oqilona hal etish uchun Muqaddas Kitobdan qanday foydalanish kerakligini ko‘rsatadi. Siz ega bo‘lgan narsalaringiz uchun o‘zingizda Xudoga minnatdorchilik hissini uyg‘otgan holda imkon qadar ko‘proq ibodat qilish, o‘z harakatlaringizni tahlil qilish, itoatkorlik ruhida ish tutib odamlarga xizmat qilishning imkoniyat va usullarini izlash zarur ekanligini tushunib olasiz.

KIRISH. To‘g‘ri qarorlar izlab: har bir kun uchun vazifa

DINOZAVRLAR VA KINOYULDUZLAR.
Teleo‘yin.
Misha aka va Masha singil.
To‘lin oy va uchayotgan kometalar.
Televizion yangiliklar dasturi
“Iyerixon uchun kurash: bir kundan so‘ng”.

Jinlar va shaytonlar; o‘yinlar va hazillar; olimlar va fermerlar; qarg‘a va kanareyka; testlar va savolnomalar va hattoki g‘aroyib kaltakesak Mikatu – siz bularning barchasini ushbu kitobning sahifalaridan topasiz. Josh Makdauellning “O‘smirlar uchun har kungi mutolaa” kitobi bu har bir kunda to‘g‘ri qarorlarni izlash va mulohaza yuritish uchun ozuqadir. Birinchi yanvardan boshlanadigan “Andreyning kurtkasi” nomli maftunkor sayohat toki 31 dekabrdagi “Foydali orzular” nomli mutolaagacha jami 366 jozibakor lavhalarni qamrab oladiki, ular sizni to‘g‘ri qarorlarni nojoizlaridan farqlab olishingizga hamda doimo to‘g‘ri tanlov qilishingizga yordam beradi.

Har kungi mutolaa shu kungi hayotingizda haqiqatni qo‘llashda yordam beradigan Muqaddas Kitobdan qisqa parchalarni, asosiy oyatlarni, bir qancha masala va maslahatlarni, shuningdek, qisqacha ibodatlarni o‘z ichiga oladi. Ammo harqalay hech bir kun boshqasiga o‘xshamaydi. Ayrimlari qisqacha hikoyani taqdim etsa, boshqasi testni tavsiya etadi; nimadir sizni kulishga undashi yoki dilingizni o‘rtashi mumkin; ba’zi hikoyalar o‘ylab topilgan, boshqalari esa haqiqatga mutlaqo to‘g‘ri kelmaydi. Shu bilan birgalikda, har kungi mutolaa sizni mulohaza yuritishga va “mana shu buzuq va egri nasl orasida Xudoning nuqsonsiz, aybsiz va pok farzandlari bo‘lishingiz”ga undaydi (Filippiliklarga 2:15).

1 YANVAR. ANDREYNING KURTKASI

Kalomdan o‘qish: Hakamlar 17:1-6

O‘sha davrda Isroilda shoh yo‘q edi. Har bir odam bilganini qilar edi. (Hakamlar 17:6)

– “Zamonaviy madaniyat” tok shousining oxirgi soniga XUSh KELIBSIZ! Men uning boshlovchisi Dmitriy bo‘laman! Bugun biz mehmonlarimiz eng oddiy odamlar bilan axloq va odob qadriyatlari haqida suhbat o‘tkazib, nima to‘g‘riyu nima noto‘g‘ri ekanligi haqidagi fikrlarini bilib olamiz. Bizning birinchi mehmonimiz – bu yuqori sinf o‘quvchisi Andrey!

Dmitriy jiddiy qiyofada kameraga qarab bosh irg‘aydi, so‘ngra o‘girilib qora kiyimdagi o‘smirga mikrofonni uzatadi. Toki Andrey studiya bo‘ylab shaxdam qadamlar tashlab yurganida, boshlovchi undan orqada qolmaslikka urinib savollar beradi:

– Nazarimda, sen aqlli bolaga o‘xshaysan, – deydi u, – aytchi, sen qanday qilib to‘g‘rini noto‘g‘ridan ajratasan?

Andrey to‘xtab, kameraga tik qaraydi:

– To‘g‘rini noto‘g‘ridan ajratishmi? Dunyoda to‘g‘ri ham, noto‘g‘ri ham yo‘q. Makiavellini o‘qib chiq, og‘ayni! Nitsshe nimalar deganini eslab ko‘r! Bu so‘zlar hech nimaga arzimaydi! Bu hammasi yuksak axloqiy haqiqat mutlaqo yo‘qligini va xudosiz dunyoning haqiqatini tan olishga jur’at etolmaydigan ojizlar jamiyatining o‘ylab topganlari, xolos! Mana, Makiavelli nimalar haqida gapiradi! Uning so‘zlarini eshitib ko‘rgin!

Andrey yana oldinga yuradi. Dmitriy yosh yigitdan orqada qolmaslikka urinadi. Andrey to‘satdan hayron qolgan ahvolda kiyim ilgich yonida to‘xtaydi.

– Nimadir bo‘ldimi? – deb so‘raydi boshlovchi. – Hammasi joyidami?

– Mening kurtkam qani? U yo‘qolibdi! Kimdir mening kurtkamni o‘g‘irlab ketibdi.

Andrey boshini ushlaganicha kiyim ilgich atrofida aylanadi.

– Xo‘sh, og‘ayni, bu noto‘g‘ri! Bu umuman noto‘g‘ri!

– Biroq uylashimcha, Makiavelli aytadiki...

– Jim bo‘lasanmi, a?! Sening Makiavellingda suv o‘tkazmaydigan, hamyon va kalitlar kabi bir talay foydali buyumlar solinadigan cho‘ntagi bor zamonaviy kurtka bo‘lmagan! Bu mutlaqo noto‘g‘ri!!!

Bir o‘quvchi yaqinlashadi.

– Hoynahoy, sen kurtkangni ryukzakka solganding, – deydi u.

Andrey tag‘in tezlik bilan to‘xtab kameraga qaraydi.

– Aniq! – u yengil tin oladi. – Naqadar ajoyib!

Andrey o‘rtog‘i bilan ketadi. Boshlovchi kameraga o‘giriladi va barmog‘ini qayirib boshiga urib qo‘yadi.

MULOHAZA QILGIN: bu voqeada Andrey Makiavelli va Nitsshega tayanadi. Bu faysasuflar “to‘g‘ri” va “noto‘g‘ri” hech narsa mavjud emasligini uqtirishgan. Ularning o‘ylab topganlari Adolf Gitler va yigirmanchi asrning boshqa diktatorlariga kuchli ta’sir qilgan. Sening fikringcha, Andrey o‘zining aytganlariga chindan ham ishonadimi? Nega sen shunday deb o‘ylaysan? “To‘g‘ri” va “noto‘g‘ri” nima ekanligini sen o‘zing qanday tushunasan?

IBODAT: “Xudoyim, men ba’zan “to‘g‘ri” va “noto‘g‘ri” tushunchalari yo‘qdek ish tutaman. Biroq men *o‘zimning* to‘g‘ri deb bilganimni qilmoqchi emasman; men *Sening* nazaringdagi to‘g‘rini amalda qo‘llamoqchiman. O‘tinaman, menga _____ da yordam ber”.

2 YANVAR. MEN QAYSI YO‘L BILAN BORAYAPMAN?

Kalomdan o‘qish: Hikmatlar 14:12

Shunday yo‘l borki, insonga to‘g‘ri bo‘lib ko‘rinadi, ammo oxiri o‘limga olib boradi (Hikmatlar 14:12).

SEN ODATDA qaysidir hukm yoki harakatning to‘g‘ri ekanligini QANDAY ANIQLAYSAN? Sen buni qanday qilasan?

1. Tanga tashlaysan: raqamli tarafi to‘g‘ri, tasvir tomoni noto‘g‘ri.

2. Diqqat bilan buning to‘g‘ri ekanligini aql tarozisida tortib ko‘rasan

3. Ko‘pchilik bu haqda nima fikrda ekanligini taqqoslab ko‘rasanmi? (Mabodo sening jamoatingda, oilang yoki o‘zing bo‘ladigan davrada buni qabul qilishsa, demak, hammasi to‘g‘ri).

4. Nimanidir boshqacha qilasan.

Birinchi variantni tanlasang, sen harholda yakkalanib qolmaysan. Bugungi kunda ko‘pchilik aynan shunday qarorga kelmoqda. Ehtimol, ular tanga tashlab ko‘rishmas, ammo harqalay o‘z qarorlari ustida uyqusiz uzun tunlarni boshlaridan o‘tkazishmaydi. Ular qaysidir ishlari to‘g‘ri yoki noto‘g‘ri bo‘lishi haqida bosh qotirishdan ko‘ra itlariga qanday ozuqa olishga taalluqli muammo ustida jiddiyroq fikr yuritishadi.

Mabodo sen 2 variantni tanlagan bo‘lsang, demak, “to‘g‘ri” yoki “noto‘g‘ri” nima ekanligini farqlaydigan anchayin taniqli usulni ma’qul ko‘ribsan. Bunday qarorga keladigan odamlar odatda o‘z tuyg‘ulariga tayangan holda nima to‘g‘ri-yu, nima noto‘g‘ri ekanligini hal qilishga urinishadi.Ular shunday deyishadi: “mening fikrimcha, boshqa odamga zarar yetkazish noto‘g‘ri” yoki “nazarimda, bunga uzrli sabab bo‘lsa, o‘zimni bu vaziyatda boshqacha tutishim mumkin”.

Agarda sen 3 variantni tanlagan bo‘lsang, nima to‘g‘riyu nima noto‘g‘ri ekanligi haqidagi ko‘pchilikning fikriga suyanadigan odamlar toifasiga mansub bo‘lib qolasan. Ular mabodo boshqalar mug‘ombirlik qilayotganini yoki qonunbuzarlik sodir etayotganini ko‘rishsa, o‘zlari ham shunday qilishga haqli deb hisoblashadi.

4 variantni tanlagan holda ozchilik orasiga tushib qolishing mumkin. Vaholanki, haqiqat shundan iboratki, biz nimani his qilayotganimiz yoki boshqalar nimalar qilayotganiga qarab to‘g‘ri qarorlar qabul qila olmaymiz. Nima to‘g‘riyu nima noto‘g‘ri ekanligi haqidagi fikr yoki harakat hukumat yoxud jamiyat nimanidir ma’qullashi yoki ta’qiqlashiga emas, balki kimningdir fikri yoki tuyg‘usiga bog‘liq bo‘ladi. Nima to‘g‘riyu nima noto‘g‘ri ekanligini Xudo belgilab bergan. Xudo ibtido, har ishga qodir, Xudo nima to‘g‘riyu nima noto‘g‘ri ekanligining mutlaq mezonidir.

Misol uchun, yolg‘on gapirish noto‘g‘ri, negaki Xudo haqiqatning o‘zidir. O‘g‘irlik noto‘g‘ri, boisi Xudo adolatlidir. Nafrat noto‘g‘ri, negaki Xudo bu sevgidir. Bu tushunchalar sen nimani o‘ylashing yoki his qilishingdan yuqori baholanadi. Ular ko‘pchilik shunday hisoblagani uchun va jamiyat bunday harakatlarni qabul qilmasligi bois noto‘g‘ri emas, balki Xudo shunday deb o‘ylagani uchun noto‘g‘ridir.

MULOHAZA QILGIN: Hikmatlar kitobining 14-bob, 12-oyatida shunday yozilgan: “Shunday yo‘l borki, insonga to‘g‘ri bo‘lib ko‘rinadi, ammo oxiri o‘limga olib boradi”. 1, 2 va 3 variantlar shunday oqibatlarga olib kelishi mumkinmi? Sen odatda qandaydir fikr yoki harakating to‘g‘ri yoki noto‘g‘ri ekanligi borasidagi qaroringni qanday qabul qilishing haqida eslab ko‘rgin. Endi esa yuqorida keltirilgan oyat haqida mulohaza yurit. Sen tutgan yo‘l qanday natijaga olib boradi?

IBODAT: “Xudoyim, men to‘g‘ri qarorga kelishim qiyin bo‘lgan damlarda nimani xohlashingni tushunishimga yordam ber, misol uchun, mana bunday paytlarda _____”.

3 YANVAR. TO‘G‘RILIK RESEPTI

Kalomdan o‘qish: Qonunlar kitobi 32:1-4

U suyangan Qoyam, Uning ishlari komil, Hamma yo‘llari adolatlidir, Xudo sadoqatlidir, Unda yolg‘on yo‘q, U haq va odildir (Qonunlar 32:4).

BUGUN – VOLIDANG TUG‘ILGAN KUN, sen esa unga sovg‘a hadya qilmoqchi bo‘layapsan. Sen singilchangni volidang uchun tort tayyorlash maqsadida chaqirasan.

– Kel, shokoladli tort tayyorlaymiz! – deya quvonch bilan hayqiradi Sonya.

– Mayli, – sen rozi bo‘lib bufetdan shokolad qorishmasi solingan qutichani chiqarasan. – Mana bu yerida bizga yarim piyola suv, yarim piyola o‘simlik yog‘i va ikkita tuxum kerak bo‘lishi yozilgan.

Sonya qichqirib yuboradi:

– Men quyib turay, iltimos!

Sen “Ha, mayli” deya yelkalaringni qisib qo‘yasan va shokolad qorishmasini katta idishga quyasan. So‘ngra esa Sonya qay tariqa o‘zining o‘yinchoq idishidan piyolaga suvni qanday quyayotganini kuzatib turasan.

– Sonya! – deysan sen, bizga boshqa piyola kerak.

– Lekin bu yerda “yarim piyola” deb yozilgan-ku! Mana u! – deydi qizaloq suv to‘ldirilgan kichkinagina idishchani ko‘rsatib.

– Biroq biz mana bu piyoladan foydalanishimiz kerak! – deysan risoladagi maxsus piyolani ko‘rsatib..

– Men esa o‘z piyolamni xohlayman! – Sonya go‘yoki og‘ziga bir bo‘lak limonni solgandek aftini bujmaytiradi. Qizaloq yig‘lab yuboray deb turibdi.

Xo‘sh, sen nima qilishing kerak? Agar Sonyaning piyolasini ishlatsang, albatta, tortni tayyorlab bo‘lmaydi. Nima uchun? Negaki, retseptda aniq o‘lchov belgilab qo‘yilgan. Sen birinchi duch kelgan piyoladan foydalana olmaysan. Shuni bilasanki, agar retseptda bir qoshiq un yoki bir choy qoshiq dolchin qo‘shilishi yozilgan bo‘lsa, demak, bunga qat’iy amal qilish lozim.

To‘g‘ri va noto‘g‘rini anglash ham xuddi shunga o‘xshaydi. Ko‘pchilik odamlar nimani his qilayotganlari yoki o‘ylayotganlariga ko‘ra yoxud atrofdagilar fikriga asoslangan holda qandaydir harakatning “to‘g‘riligini baholash”ga urinishadi. Ammo to‘g‘rilik va noto‘g‘rilik retsepti xuddi tort retseptiga o‘xshab o‘z o‘lchoviga ega. Faqat to‘g‘rilikning aniq o‘lchovi piyola yoki choy qoshiq emas; balki Xudoning o‘zidir.

Boshqacha qilib aytganda, Xudo to‘g‘ri yoki noto‘g‘rining o‘lchovidir. Xuddi Qonunlar kitobida aytilganidek, “Xudo sadoqatlidir, Unda yolg‘on yo‘q”. Xudo har qanday holatda ham haqdir. Xudo nohaq bo‘lmaydi. Misol uchun, haqiqatni aytish to‘g‘ri, yolg‘on gapirish noto‘g‘ri, demak, Xudo sadoqatli va ishonchga sazovor.

Qachonki nima to‘g‘riyu nima noto‘g‘ri ekanligini tushunmoqchi bo‘lsang, senga eng keraklisi mana shu retseptga amal qilishing, xolos. Xudo bilan taqqosla: “Xudo sadoqatlidir, Unda yolg‘on yo‘q”.

MULOHAZA QILGIN: “Xudo har qanday holatda ham haq” va “Xudo nohaq bo‘lmaydi” jumlalari ustida mulohaza qilgin. Sen bu ikkala jumlani ham tasdiqlaydigan misollar (yuqorida keltirilgani kabi haqiqat va yolg‘onning qarama qarshiliklari)ni o‘ylab topishing mumkin.

IBODAT: “Xudoyim, Sen mukammal, adolatli va sadoqatli bo‘lganing uchun Senga rahmat. Senga ko‘proq o‘xshashim uchun nima qilishim kerakligini menga ko‘rsat, ayniqsa_____”.

4 YANVAR. QOBIQ HAQIDA SUHBAT

Kalomdan o‘qish: Yuhanno 8:31-32

Sizlar haqiqatni bilib olasizlar, haqiqat esa sizlarni ozod qiladi (Yuhanno 8:32).

QISQICHBAQA GERMAN dengiz tubiga sho‘ng‘ib qadrdon tosh ostiga kirib oldi.

– Men erkin bo‘lishni istayman! – deya qichqirdi u otasiga. – Mana bu la’nati qobiqni sutkasiga yigirma to‘rt soat ko‘tarib yurishimni talab qilayotganingizni tushuna olmayman! U mening qomatimga to‘g‘ri kelmaydi.

Uning otasi Fyodor chuqur tin olib og‘ir changalini o‘g‘lining yelkasiga qo‘ydi.

– O‘g‘lim dedi u senga bir voqeani aytib berishimga ijozat etgin.

German ko‘zlarini olaytirdi:

– Ota, yana gap kerak emas!...

– Bu voqea maktabga oyoqyalang borish uchun oyoq tirab olgan Garri ismli bir yigitcha haqida. U botinkasi oyoqlarini qattiq qisganidan va shuningdek, u yoqtirgan urfga to‘g‘ri kelmasligidan shikoyat qilardi. U erkinlikka intilardi, xususan, dala va soylar yoqalab oyoqyalang yugurishni istardi. Oxir-oqibat, onasi uni o‘z holiga qo‘ydi. U uyidan oyoqyalang yugurib chiqdi. Va bilasanmi, nima bo‘ldi?

German endi javob bermoqchi edi, otasi gapida davom etib, uning so‘zlashiga imkon bermadi.

– Garri butilka siniqlarini bosib oldi. Uning oyog‘iga yigirmata chok qo‘yishdi, u jarohat olib uyida yotganida esa uning sevgan qizi bilan boshqa yigit ko‘ngilxushlik qilib yurdi.

– Bu yoqimsiz voqea ekan, dada!

– Bo‘lishi mumkin, ana shunaqa. Mana men senga nima demoqchiman: o‘z vaqtida bu tuyg‘uni his qiladigan har bir qisqichbaqa ham agar qobig‘idan ayrilsa, hayoti ancha yaxshi bo‘lishi haqida o‘ylaydi. Xuddi shuningdek, kemadagi tutqunlikdan adoi tamom bo‘lgan dengizchi ham dengiz to‘lqinlariga ozodlik ilinjida o‘zini tashlaydi. Ehtimol, u buni ozodlik deb bilar, ammo agarda u kemaga yoki sohilga qaytmasa cho‘kib ketadi, uning jasadi esa baliqlarga yem bo‘ladi. Bu qanday ozodlik bo‘ldi?

Garrini otasining so‘zlari o‘ylantirib qo‘ydi.

– Yaqinda sen o‘z qobig‘ingni tashlaysan! – Fyodor o‘g‘lini yupatdi. – Tez orada *qobiq almashtirish* davri keladi. Barcha qisqichbaqalar ham voyaga yetishgach, bu jarayondan o‘tishadi. Ammo – dedi u ogohlantiruvchi ohangda – bu jarayon yuz berganidan so‘ng sen har qachongidan ham ko‘ra himoyasiz qolasan. Toki qobig‘ing qotmagunicha, – u o‘g‘lining baquvvat yelkasiga qoqib qo‘ydi, – sen odatdagidan ko‘ra ehtiyotkor va e’tiborli bo‘lmog‘ing kerak. Sen qobiqsiz kamroq ozodlikka ega bo‘lasan.

– G‘alati, – dedi German, – men hech qachon bu haqda o‘ylamagandim. Siz bizga yuk bo‘lib tuyuladigan ba’zi narsalar aslida bizni ozod etishini nazarda tutayapsizmi?

Fyodor yoyilib jilmaydi va o‘zining ulkan panjalari bilan o‘g‘lining yelkasiga qoqib qo‘ydi:

– Mana sen qanday aqlli bola bo‘libsan-a, o‘g‘lim?

MULOHAZA QILGIN: Yuhanno Xushxabarining 8 bob 31 oyatiga binoan, sen haqiqatni anglashingdan avval nima yuz berishi lozim? 31-32 oyatlarni xuddi matematik formula kabi nazaringdan o‘tkaz: Isoning o‘gitlariga amal qilish + haqiqatni anglash = OZODLIK.

IBODAT: “Xudoyim, men chindan ham ozod bo‘lishni xohlayman. Menga O‘z amrlaringni anglashim uchun yordam ber, toki men ularga amal qila olay”.

5 YANVAR. BIRINCHI RITSAR

Kalomdan o‘qish: Efesliklar 6:11-18

Iblisning hiylalariga qarshi tura olishingiz uchun Xudo bergan barcha qurol aslahalar bilan qurollaning (Efesliklarga maktub 6:11).

Sen qordek oppoq otlarda o‘tirgan ikkita ritsarni tasavvur qilib ko‘rgin-a. Ular baland tosh devorlar va keng handaqlar bilan o‘ralgan ulug‘vor qal’aga qarab turishibdi. Kamonchilar pastda turgan ritsarlarga ajal o‘qlarini yog‘dirmoq uchun devor tepasida ishorani kutib turishibdi.

Birinchi ritsar yaltiroq aslahalarga burkangan: og‘ir dubulg‘a boshni himoya qiladi, badanni to‘lig‘icha zirh yopib turibdi, oyoq va qo‘llar metal plastinalar bilan yopilgan. Bu aslaha-anjomlar purviqorligini og‘ir etiklar va bukilmas qo‘lqoplar yanada to‘ldirib turibdi.

Ikkinchi ritsar ham o‘z otida xuddi birinchi ritsar kabi o‘tiribdi, biroq undagi yagona metall - tishlaridagi briketlari, xolos. Bosh kiyimini teskarisiga kiyib olgan va qora ko‘zoynagi uning ko‘zlarini quyosh nurlaridan himoya qilib turibdi; firma belgisi tushirilgan futbolka, shortik va “Reebok” krossovkasi - mana shu uning bor anjomi.

Birinchi ritsar ikkinchisiga o‘girilib shunday deydi:

– Mening ishoram bilan hujumga o‘tamiz va o‘z nomimizni shon-shuhratga burkaymiz! – U o‘ng qo‘lida mahkam tutgan qilichini baland ko‘taradi va qala tomonga to‘g‘rilaydi.

– Mayli, olifta do‘stim! – deya javob qaytaradi ikkinchi ritsar tayog‘ini qo‘liga olib.

Sen qaysi ritsardan biri bo‘lishni istaysan? Birinchisi o‘z harakatlarini yengil bajara olmaydi, u og‘ir kiyimlaridan ezilib qisilgan, yelkasini qashiy olmaydi va burnini ham artishning iloji yo‘q. Ikkinchi ritsar esa bunday noqulayliklardan tamomila xoli. Shunday bo‘lishi ham kerak, to‘g‘rimi? Noto‘g‘ri! Ehtimol, og‘ir kiyimlari

o‘z harakatlarini cheklab qo‘yayotganini birinchi ritsar sezib turadi, ammo u bularni o‘z foydasi uchun kiygan. Ikkinchi ritsar balki o‘zini qulayroq “erkinroq” his qilar, biroq u mutlaqo himoyasiz turibdi.

Xudoning qonunlari ham xuddi shunday aslaha-anjomlar kabi ta’sir ko‘rsatadi. Ular seni “yovuz shaytonning hamma alangali o‘qlari”dan (Efesliklarga 6:16) himoya qilish uchun yaratilgan. Misol uchun, o‘g‘irlikni ta’qiqlash seni jinoyat va jazo qo‘rquvidan, shuningdek, mabodo qo‘lga tushsang seni muqarrar kutadigan jazo va sharmandalikdan himoya qiladi. Yolg‘on gapirishni ta’qiqlash o‘z yolg‘onlaring to‘rida o‘ralashib qolmaslikka hamda eski aldovlaringni yashirmoq maqsadida yangi yolg‘onlarni o‘ylab topmaslikka yordam beradi. Shuningdek, yaqinlaring va do‘stlaring tomonidan senga bo‘lgan ishonchni asraydi. Kechirish amri ozor yetkazganlarga nisbatan alamzada va xafagezak bo‘lmasliging uchun senga ko‘mak beradi.

Xudoning amrlari sening rusuming yoki quvonchingni barbod qilish uchun o‘ylab topilmagan; ular xuddi aslaha-anjomlar kabi seni yovuzlikdan himoya qiladi.

MULOHAZA QILGIN: Sen o‘zingni Xudo amrlari bilan siqib qo‘yilgan kabi his qilganmisan? Sen qachonlardir bu amrlar erkinligingni cheklab qo‘yganini sezganmisan? Xudoning amrlari seni shaytondan qay tariqa himoya qilishini qanday qilib kengroq bilish mumkin? Yodingda tut, “dushmaningiz bo‘lgan iblis sherday bo‘kirib, birovni yutib yuborish uchun izg‘ib yuribdi” (1 Butrus 5:8).

IBODAT: “Xudoyim, Sening Sevging uchun va O‘z amrlaringa bo‘ysunishimni talab qilib meni himoya qilganing uchun Senga rahmat. O‘tinaman, himoyamning zaif tomonlariga O‘zing yordam ber, ya’ni bu zaifligim quyidagilardir_____”.

6 YANVAR. MO’JIZALAR MAYDONI

Kalomdan o‘qish: Ibroniylarga11:24-25

Muso voyaga yetganda imoni tufayli fir’avn qizining o‘g‘li deb atalishni rad etdi. U gunoh qilib, vaqtinchalik huzur-halovatda yashashdan ko‘ra, Xudoning xalqi bilan birga azob-uqubat chekishni o‘ziga ravo ko‘rdi (Ibroniylarga11:24-25).

“Barchaning sevimli shousiga XUSH KELIBSIZ! “Mo’jizalar maydoni” boshlovchisi – Leonid Yakubovich!”

Toki boshlovchi shoshilmasdan yo‘lakdan o‘tib baraban oldiga borayotganida, zalda quvonchli qiyqiriqlar va qarsaklar ko‘tariladi.

– Rahmat! Endi esa sizlarga birinchi ishtirokchilarni tanishtirmoqchiman: Pavel va Yelizaveta!

Yigit yonidagi qiz bilan o‘z joyidan qo‘zg‘alib sahnaga chiqadi va boshlovchining oldiga borishadi.

– Demak, boshlaymiz! Birinchi o‘yinimizda siz tanlashingiz mumkin: qizil qutichada va ko‘k qutichada sovg‘alar bor. Men hatto unda nima borligini ham aytaman!

Barabanlar dumbirlaydi.

– Qizil qutichada rok konsertga ikkita chipta. Siz axir do‘stlaringiz bilan konsertga bormoqchi edingiz, ammo chiptaga pulingiz bo‘lmagan, to‘g‘rimi?

Pavel va Yelizaveta bosh irg‘ashadi. Gulduros qarsaklar chalinadi.

– Ko‘k qutichada esa filarmoniyaga chipta solingan. Bu ota-onangiz bilan birgalikda mumtoz musiqani o‘tirib eshitishingiz uchun imkoniyat, axir.

– Men qizil qutini tanlayman! – *Pavel va Yelizaveta bir ovozdan javob berishadi.*

Yakubovichning yuzi tabassumdan yorishib ketadi.

– Bunchalik tez emas-da! Qizil qutichani ochishingiz uchun onangizning hamyonidan “bir muddat”ga ming so‘m olishingiz kerak. Oxir-oqibat, biz sizlarga bilet sotib olganimiz haqida o‘ylamagandirsiz? Bundan tashqari, siz bu pullarni keyin berishingiz mumkin. Ko‘k qutichani ochish uchun esa “ bir muddat”ga pul olishingiz shart emas. Xo‘sh, endi nima bo‘ladi: do‘stlar bilan rok-konsertmi yoki ota-onalar va mumtoz musiqa bilan birgalikda oqshommi?

Tanlov qiyin bo‘layaptimi? To‘g‘ri ish tutish murakkab bo‘ladigan vaziyatlar uchrab turadi: noto‘g‘risini tanlasang qiziqarliroq bo‘ladi, shunda to‘g‘ri deb bilganing zerikarli bo‘lib tuyuladi. Misol uchun, Musoni olib qaraylik. U murakkab qaror bilan to‘qnashdi: Xudoga va o‘z xalqiga yuzlanib farog‘atda yashash yoki sahroda bir to‘da nochor odamlar bilan birgalikda hayot kechirish. Tanlov aniq, to‘g‘rimi? Biroq Muso gunohdan bir muddat rohatlanishdan ko‘ra, Xudoga itoat etib, uzoq davom etadigan mukofotni afzal ko‘rdi.

Odatda ham shunday bo‘ladi. Ko‘pgina noto‘g‘ri yo‘llar tez foyda ko‘rishni taqdim etadi, vaholanki to‘g‘ri yo‘l esa qisqa muddatga bo‘lsada qiyinchiliklarga sabab bo‘ladi. Agar ochig‘ini aytsak, biz faqat foyda va ziyonni ko‘zlab tanlov qilganimizda bu odatda noto‘g‘ri qaror bo‘lib chiqadi. Ammo biz to‘g‘ri qaror qilishga tayyor bo‘lganimizda, o‘zimiz uchun uzoq vaqtlar mobaynida, bu ko‘proq yaxshiliklarga olib boradi. Haqiqat ham aynan ana shundadir.

MULOHAZA QILGIN: E’tibor bering, Ibroniylarga maktubning 11-bob 24-oyatida aytilishicha, Muso imoni tufayli to‘g‘ri qaror qabul qilgan. Qaror qabul qilishingizda imondan qanday foydalanish mumkin? Keyingi paytlarda qabul qilgan qarorlaring haqida o‘ylab ko‘rgin. Sen bu qaroring osonroq bo‘lishi mumkinligi yoki qanday tanlov to‘g‘ri bo‘lishi mumkin ekanligiga asoslanganmisan? Nima to‘g‘ri ekanligini qay tariqa bilib olding?

IBODAT: “Xudoyim, menga noto‘g‘ri qaror qabul qilish osonroq bo‘lib tuyulganida to‘g‘ri qarorga kelishimga yordam ber”.

7 YANVAR. MUSTAHKAM ASOS

Kalomdan o‘qish: Zabur 110:1-10

Egamizdan qo‘rqish donolikning boshidir, Bunday yo‘l tutganlarning aqli rasoldir, Uning hamdu sanolari to abad davom etadi (Zabur 110:10).

BU XUDDI AMALGA OSHMAGAN ilmiy tadqiqotga o‘xshaydi. Bu qurilish 199 yil davom etgan. U bukchayib qolgan va har yili tobora qiyshayib bormoqda. Mabodo kerakli tadbirlar qo‘llanilmasa, barcha sakkizta qavat, o‘ttizta zinapoya va jamoat qo‘ng‘irog‘i yerga qulab tushadi va bir uyum toshlarga aylanib qoladi.

Bu nima o‘zi? Siz axir uning nima ekanligini bilib oldingiz-a? Bu – Piza (Italiya) shahridagi butun dunyoga mashhur Piza minorasidir. Minoraning qurilishi 1173 yilda boshlangan. Uning uch qavati qurilgan paytidanoq minora qiyshaya boshlagan. Nima uchun? Negaki uning tagidagi tuproq cho‘ka boshlagan. Uning asosi mustahkam bo‘lmagan.

Tasavvur qilgin: me’moriy durdona asar noto‘g‘ri asos tufayli xavf yoqasida turibdi.

Bunday holat har kuni yuz beradi. Odamlar maktabga borib kitoblarni suv qilib ichib yuborishadi, imtihonlar topshirishadi, imtiyozli dimlom bilan oliy ma’lumotga ega bo‘lishadi. Ammo baribir, barcha olingan ta’lim va bilimlarga qaramasdan, ular shunchalik ahmoqliklar qilib noto‘g‘ri qarorlar qabul qilishadi va o‘z hayotlarini barbod qilishadi. Nima sababdan? Noto‘g‘ri asos tufayli. Ehtimol, ular ko‘p o‘qishar. Ular ma’lumot olishgan, biroq aqlli emaslar. Negaki “Egamizdan qo‘rqish donolikning boshidir: bunday yo‘l tutganlarning aqli rasodir”. (Zabur 110:10)

“Egamizdan qo‘rqish” odatda “Xudo oldidagi qo‘rquv” tariqasida tushuniladi. Biroq ushbu jumladagi *“qo‘rquv”* bizning Xudodan qo‘rquvimiz, xuddi Freddi Kryuger yoki Frankenshteyndan qo‘rqganimizdek tishlarimiz taqillab tun bo‘yi uyqusiz o‘tirishimiz ma’nosidagi qo‘rquvni anglatmaydi. Bu *qo‘rquv* Xudoga hurmatni, Uning qudrati va sevgisini aks ettiradi.

Agar haqiqatdan ham dono bo‘lishni va to‘g‘ri qaror qabul qilishni istasang, Xudoni hurmat qilishni boshlash lozim. Xudoga hurmat bu o‘zida Unga nisbatan chuqur hurmatni rivojlantirish demakdir. Bu Uning kimligi va nimalarga qodir ekanligi uchun hurmat bajo keltirish deganidir. Bu Unga itoat etish demakdir. Bu Uning ne’matlari va marhamatini o‘z o‘zidan bo‘ladigandek qabul qilmaslik deganidir. Bu U ezgulik va yovuzlikning, to‘g‘ri va noto‘g‘rining hakami ekanligini yodda saqlash lozim deganini anglatadi.

Haqiqiy donolik bu qudrat, go‘zallik va nafosat uyg‘unlashgan ulug‘vor minoradir. Va bu minorada barcha mustahkam inshootlarda bo‘lgani kabi asos – Xudodan qo‘rquv mavjud.

MULOHAZA QILGIN: Sening asosing qanchalik mustahkam? Sen Xudoga itoat qilib Uni hurmat qilasanmi yoki bunday asoslarsiz donolikka ega bo‘lmoqchimisan?

IBODAT: “Xudoyim, ba’zan men o‘zimdagi asos bo‘sh ekanligini his qilaman. Men yetarlicha dono emasman, ammo donolikning Senda bor ekanligi naqadar yaxshi.O‘zingga nisbatan yaqin bo‘lishimga yordam ber, toki o‘sha paytda men yerga yuz tuban yiqilib _____”.

8 YANVAR. SEVGI BILAN

Kalomdan o‘qish: 1 Yuhanno 5:1-5

Xudoni sevish Uning amrlarini bajarish demakdir. Xudoning amrlari esa qiyin emas, chunki Xudoning har bir farzandi dunyoni yengishga qodir. Biz imonimiz orqali dunyo ustidan g‘alaba qozonamiz (1 Yuhanno 5:3-4).

O‘n besh yoshli Shennon Miller 1992 yilda Barselonada o‘tkazilgan Olimpiadada kumush medal olgan bo‘lsada, uyiga dilixufton bo‘lib qaytdi: u birorta ham oltin medal ololmadi. Ammo oradan to‘rt yil o‘tib, Shennon o‘n to‘qqiz yoshga to‘lganida Atlantada ikkita oltin medalni qo‘lga kiritdi: sport gimnastikasi bo‘yicha jamoa hisobidagi g‘alabasi va xoda ustidagi chiqishi uchun.

Shennonning xoda ustidagi ajoyib g‘alabasidan so‘ng oradan bir necha kun o‘tgach telemuxbir undan olimpiadalar orasidagi tanaffuslar chog‘ida shug‘ullanish qanchalik qiyin bo‘lganligi haqida so‘radi.

Shennon javob o‘rnida yelkasini qisib gimnastikani yaxshi ko‘rishini aytdi. Shu bois u mashq qilish uchun og‘ir mas’uliyatga ega ekanligini hech qachon unutmaganligi haqida aytdi. Kimgadir og‘ir va noxush tuyuladigan bu mashg‘ulotlar uning uchun sportga bo‘lgan sevgisi bois unchalik mashaqqatli bo‘lib tuyulmagan.

Xuddi shunday holat Xudoning amrlariga itoat etish bilan ham yuz beradi. Xudoni bilmaydigan odamlar aksariyat holda Uning O‘z xalqigabergan amrlariga qarab, *“Unday qilmagin!”* va *“Bunday qilmagin!”* deya mulohaza yuritishadi. Balki ular “turlicha ta’qiqlar juda ko‘p-da” deb o‘ylashar. Men masihiylar barcha bu qonunlarga qay tariqa amal qila olishlari va umuman ularning hammasiga qanday itoat etishlari mumkinligini bilmayman. Ular shunday deyishadi: “Bu men uchun nihoyatda og‘ir” yoki “Men bu amrlarni hech qachon ado eta olmayman!”

Ammo bunday fikr va mulohazalar bu odamlar masihiylar aslida nima bilan yashayotganlarini tushunmasliklaridan dalolat beradi. Shennon Millerga gimnastikaga bo‘lgan sevgisi mashg‘ulotlarni davom ettirishi uchun kuch bag‘ishlagan bo‘lsa, masihiylar Xudoga bo‘lgan sevgilari bois Xudoning amrlariga amal qilishadi. Xudoning amrlari Uning farzandlari uchun og‘ir emas. Ular uchun amrlarga amal qilish azob emas. Bu Muqaddas Ruhning qudratiga tayanadiganlar uchun og‘ir emas, negaki Ruh barcha to‘siqlarni yengib o‘tadi biz faqatgina hayotimizning har bir lahzasida Unga ishonishimiz kerak.

MULOHAZA QILGIN: Yuhannoning birinchi maktubidagi 5-bob 3-oyatining turlicha tarjimalarini taqqoslab ko‘r:

“Xudoni sevish – Uning amrlarini bajo keltirish demakdir. Xudoning amrlari esa og‘ir emas” (O‘zbek tilidagi Injil, 2008)

“Xudoni sevish Uning amrlarini bajarish demakdir. Xudoning amrlari esa qiyin emas” (Muqaddas Kitob, 2016)

Xudoga bo‘lgan sevging senga qay tariqa Xudoga itoat etishingga doimo yordam beradi? Xudoga bo‘lgan sevging Unga bo‘ysunishing uchun qanday ko‘mak beradi?

IBODAT: “Sevuvchi Xudo, bugun Senga sevgimni namoyon etishim uchun yordam ber _____”.

9 YANVAR. QOIDALAR, QOIDALAR, QOIDALAR

Kalomdan o‘qish: Chiqish 20:1-17

Egang Xudoga sajda qil, faqat unga xizmat qil (Matto 4:10).

“GUGURT BILAN O‘YNAMA!”

“Yo‘lni kesib o‘tishdan avval birinchi navbatda chapga, so‘ngra esa o‘ngga qaragin!”

“Issiq plitaga tegma!”

“Rahmat” va “marhamat” degin”

“Televizorga juda yaqin o‘tirma!”

“Burningni chuqilama!”

“Singlingning sochini yashil rangga bo‘yama!”

Qoidalar, qoidalar, qoidalar! Ba’zan go‘yoki sen uchun hech narsaga ijozat berilmagandek tuyuladi. “Mana bunday qilgin!” deb aytishadi ota-onalar. “Bunday qilma!”, “Bu sabzavotlarni yeysan!”, “Tishingni tozala!”, “Tugmangni o‘tkazib, bosh kiyimingni kiy!”

Gohida bu qoidalar sening joningga tegadi. Biroq, mulohaza qilgin: nima uchun ota-onalar “qo‘lingdagi qaychi bilan yugurma” kabi qoidalarni o‘ylab topishadi? Bu qoidalarning ko‘pchiligi seni himoya qilish uchun yo‘naltirilgan. Agar ular bolaligingdan boshlab gugurt bilan o‘ynashni ta’qiqlagan ekanlar, sen ular bilan ilmiy tadqiqot uyushirishing mumkin. Mabodo seni singlingning sochini yashil rangga bo‘yash nojoiz ekanligi haqida ogohlantirgan bo‘lsalar, albatta, buning oqibati anchayin yoqimsiz bo‘lishi mumkin edi. Men nima haqda gapirayotganimni tushunayapsanmi?

Yana bir narsa haqida mulohaza qilgin: Xudo nima uchun “Yolg‘on gapirma” va “O‘ldirma” degan amrlarini bergan? Seningcha, U bularni kayfiyati yomon bo‘lgan paytida o‘ylab topganmi? Yoki bu amrlar qanday yangrashi Unga yoqqanligi bois aytdimikan? Sening fikringcha, U O‘z qonunlarini Kim bu yerda zo‘rligini ko‘rsatish uchun o‘rnatganmi? Albatta, yo‘q. Xudo bizni himoya qilishni va bizga yordam berishni istagani uchun bu amrlarni bergan. U halovat va biz o‘zimizni takomillashtiradigan eng ishonchli, eng xavfsiz yo‘lni biladi va Uning amrlari bizning shunga erishuvimiz sari yo‘naltirilgan.

Mana, Muso Xudoning amrlari haqida nima degan: “Mana shu farmonlarning hammasiga rioya qilinglar, Mendan qo‘rqinglar, *shunda bugungiday tirik bo‘lasiz, baxtli hayot kechirasiz*... Ey Isroil xalqi! Egangiz Xudo sizlardan bitta narsani talab qiladi. Egangiz Xudodan qo‘rqing, Uning yo‘lidan yuring, Egangiz Xudoni seving, butun qalbingiz bilan, jonu dilingiz bilan Unga xizmat qiling. Men bugun sizlarga berayotgan Egamizning amru farmonlariga rioya qiling, *shunda baxtiyor bo‘lasiz*” (Qonunlar 6:24; 10:12-13, *kursiv muallifniki*).

MULOHAZA QILGIN: Qonunlar kitobining 6:24 va 10:12-13 oyatlarni o‘qigin, Xudo bu amrlarni nima uchun bizga bergan? Bizning ota-onamiz aksariyat holatda bor kuchlari bilan bizni himoya qilishga urinishadi. Ular buning asosli ekanligiga tayanishadi. Albatta, Xudo hammasini va hatto kelajakni ham biladi, Uning amrlari esa Uning donoligi va bilimdonligining natijasidir. O‘ylab ko‘rchi: Uning amrlari seni qay tariqa himoya qilishi mumkin?

IBODAT: “Xudoyim, men seni dono va sevuvchi Xudo bo‘lganliging uchun, menga yaxshi bo‘lishi uchun bu amrlarni menga berganing uchun ulug‘layman”.

10 YANVAR. DETEKTIV

Kalomdan o‘qish: Chiqish 33:7-13

Shunday keyin Muso Egamizga aytdi... agar men Sendan marhamat topgan bo‘lsam, iltijo qilaman: menga yo‘llaringni ko‘rsatgin. Sendan marhamat topib yurishim uchun Seni bilayin (Chiqish 33:12-13).

DOKTOR VATSON buyuk detektiv Sherlok Xolmsga yaqinda uylanganini aytmadi. Biroq Xolms allaqachon hammasini bilgandek uni kutib olganini ko‘rib hayron qoldi.

– Oilaviy hayot sizga yoqibdi, – dedi u, – ko‘rib turibmanki, siz yana tibbiy tajribalar bilan shug‘ullana boshlabsiz-a.

Vatson hayratda edi. Buni u qanday bilishi mumkin?

– Bu juda oddiy, Vatson! – deya javob qaytardi Xolms. – Sizni oxirgi marta ko‘rganimdan buyon uch yarim kilogrammmga to‘lishibsiz.

– Uch kilo, – deya do‘stining so‘zini to‘g‘riladi Vatson.

– Bu to‘g‘ri, men sal ko‘proq deb o‘ylabman. Siz mening xonamga yodoform hidini anqitib, o‘ng qo‘lingizning bosh barmog‘ida kumush nitratning qora dog‘i va shlyapangizning qavariq yonboshiga stetoskopni yashirganingizni ko‘rsatgan holda kirib keldingiz. Men axir sizning uylanganingizni va tibbiy tajriba bilan yana faol shug‘ullana boshlaganingizni payqamasam, shunchaki bir ahmoq bo‘lardim, xolos.

– Qadrdonim Xolms, siz hayratomuz insonsiz! – deya hayqirib yubordi Vatson*.

Sen g‘aroyibmisan yoki yo‘qmi, oddiygina xulosalar chiqarishing uchun Sherlok Xolms bo‘lishing shart emas. Sen ota-onang haqidagi ko‘p tafsilotlarni ular o‘rgatgan qoidalarga asoslangan holda gapira olishing to‘g‘risida o‘ylab ko‘rganmisan? Yo‘qmi? Afsus!

Ota-onang senga o‘rgatayotgan qoidalar aslida ularning kim ekanligini ko‘rsatib beradi. Misol uchun, ular seni “rahmat” va “marhamat” deyishga undashadigan bo‘lishsa, bu ularning tarbiyaga urg‘u berayotganlaridan dalolat beradi. Ota-onang mabodo sendan uyni tozalashga yordam berishingni talab qilishsa, bu ularning saranjom sarishtalikka asosiy e’tibor qaratishlarini ko‘rsatadi. Agar ular sendan doimo haqiqatni aytishingni talab etishsa, demak, bu ularning halolligini ko‘rsatib turibdi.

Ilohiy amrlar ham Xudoning fe’l-atvorini ochib beradi. Mana nima uchun Muso Sinay tog‘ida ularni qabul qilganida Xudodan shunday deb so‘ragan: “Agar men Sendan marhamat topgan bo‘lsam, iltijo qilaman: menga yo‘llaringni ko‘rsatgin. Sendan marhamat topib yurishim uchun *Seni bilayin*” (Chiqish 33:13 – *kursiv muallifniki*). Muso Xudoning yo‘llarini o‘rganish – Uning amrlarini tushunish – Xudoning fe’l-atvorini anglash sari uni yaqinlashtirishini anglagan.

Xudoning fe’l-atvori Uning amrlarida aks ettirilgan. Va bularni tushunish uchun albatta Sherlok Xolms bo‘lish shart emas. Bu nihoyatda oddiy!

MULOHAZA QILGIN: Xudoning fe’l-atvori Uning amrlarida ochib berilgan. Bu o‘zlikning qanday sifatlarini sen ko‘ra olding? Har bitta amr ustida o‘ylab ko‘r va unda Xudoning fe’l-atvori qanday aks etishi haqida mulohaza qilib ko‘r.

IBODAT: “Xudoyim, men xuddi Muso kabi Seni anglashim uchun Sening yo‘llaringga o‘rgatishingni so‘rayman”.

_____

*Artur Konan Doyl. «Bogemiyadagi mojaro».

11 YANVAR. O‘ZIGA XOS YAGONA XUDO

Kalomdan o‘qish: Chiqish 20:1-3

Keyin Xudo quyidagi so‘zlarni aytdi: “Men sizlarni Misrdagi qullikdan olib chiqqan Egangiz Xudoman. Mendan boshqa xudolarga sajda qilmang” (Chiqish 20:1-3).

DUNYODAGI ENG MASHHUR SURAT QAYSI? Ehtimol, “Mona Liza” bo‘lsa kerak.

Leonardo da Vinchi badavlat savdogarning yoshgina xotini Liza del Jokondoning siymosini 1503 yilda Florensiya (Italiya)da tasvirga tushirgan. Ayolning qiyofasiga muhrlangan tabassum surat yaratilgan paytidayoq odamlarni hayratga solgan. Ayol baxtiyormi yoki qayg‘udami? Bu tabassum paydo bo‘ladimi yoki g‘oyib bo‘ladimi? Yoki bu ayolning ovqat hazm qilish a’zolarida muammo bormikan?

Sen bu suratni ko‘rgansan, to‘g‘rimi? Harholda, ko‘rmagan bo‘lsang kerak. Sen nusxasini ko‘rgansan, ya’ni, ensiklopediyalarda, albomlarda, darsliklarda, televizor orqali, ammo Parijdagi Luvr muzeyida bo‘lmagansan, haqiqiy “Mona Liza”ni ko‘rmagansan.

“Mona Liza” *nodir asar*. U o‘ziga xos yagona. Bunaqangi surat boshqa yo‘q.

Mona Lizaga nisbatan nima haqiqat bo‘lsa, bu Xudoga nisbatan yanada ulug‘roq va chuqurroq tarzda haqqoniydir. Xudo noyobdir. U O‘z kelib chiqishiga ko‘ra yagona. Unga o‘xshash hech kim yo‘q. Muso qachonlardir Sinay tog‘iga ko‘tarilganida, Xudo unga o‘nta amrni topshirgan edi:

“Keyin Xudo quyidagi so‘zlarni aytdi: Men sizlarni Misrdagi qullikdan olib chiqqan Egangiz Xudoman. Mendan boshqa xudolarga sajda qilmang.” (Chiqish 20:1-3)

Xudo Musoga bergan birinchi amr Uning noyob va Unga o‘xshash hech kim yo‘qligini ko‘rsatadi. Biroq Uning noyobligi “Mona Liza”ning noyobligidan ko‘p marotaba ziyoddir. “Mona Liza” dunyoda yagona, ammo boshqa suratlar ham ko‘p. Butun borliqda Xudo yagonadir, boshqasi yo‘q. U kelib chiqishi bo‘yicha noyob emas, U yagona. Faqat U – Xudo. U shunday deydi: “Ey zaminning barcha chetlari! Ha, Men Xudoman, boshqasi yo‘q” (Ishayo 45:22)

Mana nima uchun Xudo bizga o‘zidan boshqa hech kimga itoat etmaslikni buyuradi. Va mana nima uchun biz Undan boshqa biror kimga yoki biror nimaga sajda qilmaylik, hech qachon qoniqish hosil qila olmaymiz.

MULOHAZA QILGIN: Sen faqat Xudoga sajda qilasanmi? Sen boshqa kimgadir yoki nimagadir o‘zingni bag‘ishlaganmisan? Sen buni qayoqdan bilasan? Yana nima narsalar noyob hisoblanishi mumkin? Ulardan hech bo‘lmasa bittasi Xudo kabi noyob bo‘la oladimi?

IBODAT: “Xudoyim, men qutqarilishim uchun yana qayoqqadir murojaat qilishimga hojat yo‘qligi bois nihoyatda xursandman. **Men Sen yagona shunday Xudo ekanliging uchun minnatdorman”.**

12 YANVAR. XUDO XUDDI RUH KABI

Kalomdan o‘qish: Chiqish 20:4-6

O‘zlaringizga hech qanday butni yasamang. Osmonda yo yerda yo yer ostidagi suvda mavjud bo‘lgan biror narsaning shaklini yasamang (Chiqish 20:4)

– XO‘SH, BUNING NIMASI noyob ekan? – deb so‘radi Abram do‘sti Omridan. Do‘stlar sahroda Abramning chodiri ortida o‘tirishardi; bu yerdan uncha uzoq bo‘lmagan masofada Sinay tog‘i ko‘rinib turardi.

– Nima deysan? – deb so‘radi Omri qumdan himoyalanish uchun mo‘ljallangan bosh kiyimini to‘g‘rilar ekan.

Abram mahalliy “Sinay mahmadonasi” gazetasining bosh sahifasini ko‘rsatdi: “Muso Xudo tomonidan berilgan o‘nta amrni olib, tog‘dan pastga tushib kelmoqda”.

– Tushunmadim, buning nimasi qiziq ekan, – deya tushuntirdi Abram sandal kiygan oyog‘i bilan tayoqni tepib. – Men amrlardan bir qanchasi muayyan mazmunga ega ekanligini nazarda tutayapman. Biroq ikkinchisini ham eshit: “O‘zlaringizga hech qanday butni yasamang. Osmonda yo yerda yo yer ostidagi suvda mavjud bo‘lgan biror narsaning shaklini yasamang. O‘sha xudolar yoki butlarga sajda qilmang”.

– Xo‘sh, endi nima bo‘ladi? – deb so‘radi Omri.

– Men aslo tushunmayapman – dedi Abram osmonga ishora qilib, – Xudoni tasvirlash uchun biz qushning yoki sigirning kichikroq o‘yma shaklidan foydalansak, Unga buning nimasi yoqmaydi?

– Nima, U qush yoki sigirmi? – Omrining yuzida taajjub paydo bo‘ldi.

– E-e-e... Yo‘q...

– Balki, U baliqdir?

– Yo‘q, – deya javob berdi Abram.

– Xo‘sh, bu holda U kim?

– U – Ibrohimning, Ishoqning va Yoqubning Xudosi! U barcha odamlarning Xudosidir!

– Tushunarli, lekin Uning ko‘rinishi qanday? – deya so‘radi Omri.

– Men qayoqdan bilay? – deya javob berdi Abram. – Men axir Uni hech qachon ko‘rmaganman!

Omri yelkalarini qisdi.

– Men ham ko‘rmaganman. Muso esa Xudo biror joyda va hamma yoqda bir vaqtning o‘zida bo‘lishi mumkinligi haqida gapiradi. Men baliqlar va qushlarda buni ko‘rmaganman. Demak, surat yoki haykallarning yaratilishi bizning imonimizni haq yo‘ldan ozdirishi mumkin.

Abram o‘yga tolgandek tuyulsada, ammo ishonch hosil qilmagani ko‘rinib turardi.

– Bunga mana shu nuqtai nazardan qarab ko‘rgin, – deya taklif kiritdi Omri, – agar men echkining tasvirini yasab, uning senga o‘xshashini aytsam, bu senga yoqqan bo‘larmidi?

– Nima? – deya taajjublandi Abram. – Echki menga o‘xshaydimi?

– Ha, bu o‘rinda sen haqsan: sendan badbo‘y hid taralmoqda. – Omri o‘rnidan sapchib turdi va Abram otayotgan toshlarga chap berganicha qocha boshladi.

MULOHAZA QILGIN: Xudo Isroil xalqiga o‘nta amrni bergan paytda qo‘shni xalqlar ho‘kiz, qirg‘iy, erkak va ayol, hattoki qurbaqalar shaklidagi butlarga sajda qilar edilar. Ularning hayoti Xudosiz nimaga o‘xshash bo‘lgan deb o‘ylaysan? Nima uchun Xudo hech qanday tasvir yaratmasdan Unga sajda qilishlarini amr etgan? Sening fikringcha, ikkinchi amr Xudo haqida nima deydi? (Sen Yuhanno Xushxabarining 4:24 ni o‘qib bu haqda kengroq tushunchaga ega bo‘lishing mumkin).

IBODAT: “Xudoyim, men tasvir va suratlarni ko‘rib yoki qo‘l tekkazib Seni ko‘ra olmayman va Senga tegina olmayman, ammo Seni boshqa yo‘llar bilan bilishim mumkin bo‘lgani uchun Sendan minnatdorman, misol uchun, _____”.

13 YANVAR. XUDO MUQADDASDIR

Kalomdan o‘qish: Chiqish 20:7

Men, Egangiz Xudoning ismini suiiste’mol qilmang. Kim mening ismimni suiiste’mol qilsa, o‘shani jazosiz qoldirmayman (Chiqish 20:7).

G‘ARBDA MASHHUR basketbolchi Charlz Barkli million dollarlik navbatdagi shartnomaga imzo qo‘yganidan so‘ng, muxbirlarning Savollariga shunday javob berdi: “Men pullar, pullar, pullar haqidagi gaplardan

nihoyatda charchadim! Men faqatgina basketbol o‘ynashni, pepsi ichishni va “Reebok” sport kiyimida yurishni xohlayman!”

Albatta, Barkli hazillashdi. U faqat basketboldagi o‘yinlari uchun emas, balki Pepsi va Reebok kabi firmalarni qo‘llab-quvvatlagani uchun ham kattagina pul oladi. Bu kompaniyalar Barkli va boshqa taniqli shaxslarga hamda sportchilarga o‘zlarining mashhurliklari bilan turli mahsulotlarini, ya’ni, ichimliklarni, oyoq kiyimlarini, avtomobillarni yoki mobil telefonlarini xaridorgir qilishlariga yordam berganlari uchun haq to‘lashadi.

Albatta, mashhurlar o‘zlarining nomlari yaxshi mahsulotlar bilan bog‘liq bo‘lishini istaydilar. Ehtimol, Charlz Barkli hattoki Pepsi korporatsiyasidan ham ko‘proq pul to‘lamoqchi bo‘lgan qandaydir *Iflos Jo Qusqu-Sharbati* kompaniyasi bilan shartnoma tuzmasdi. U balki “Reebok”dan ham ko‘proq pul to‘lamoqchi bo‘layotgan *Oyoqni-Qisuvchi-Qo‘pol-Oyoq* kompaniyasining taklifini ham rad etishi mumkin. Nima uchun? Axir kim ham o‘z nomining qandaydir bo‘lmag‘ur, ikkinchi navli yoki shunchaki mayda narsalar bilan yodga olinishini istagan bo‘lardi?

Sen axir buni tushuna olasan, to‘g‘rimi?

Mabodo sen buni tushunsang, Xudo nima uchun O‘z nomining qanday foydalinishi borasida shunchalik qayg‘urishini ham tushunasan. Nima uchun Xudo o‘nta amrlariga binoan O‘zining nomi behuda yodga olinganda odamlarni jazoga mahkum etadi. Xudo Levilar Kitobining 19:12 da nima uchun shunday deganini tushunasan: “O‘g‘irlik qilmang, birovga yolg‘on gapirmang. Mening nomim bilan yolg‘ondakam ont ichmang. Shu orqali Men, Xudoyingizni badnom qilmang. Men Egangizman”.

Ko‘rib turibsanki, Xudo muqaddasdir. U – musaffolik, ezgulik va halollikning mujassamidir. U shunchalik muqaddas ekan, Uning ismi qandaydir yovuz, yolg‘on va yuzaki (shuningdek, mayda, ahmoqona va yengiltak) narsalar bilan yodga olinishini istamaydi. Mana nima uchun hissiyotlarni shunchaki aks ettirish maqsadida Xudoning ismidan foydalanish noto‘g‘ri. Mana nima uchun muntazam aytiladigan “Ey Xudoyim!” nidosini o‘ylamasdan gapirish noto‘g‘ri. Mana nima uchun Xudo nomi bilan yolg‘onni yashirish yoki yolg‘on ishlatib Uning nomi bilan qasam ichish noto‘g‘ri. Bu odamlar Xudoning muqaddasligini haqorat etashadi.

Agar Charlz Barklida boshqa ko‘plab mashhur odamlar kabi o‘z nomini asrash uchun asos bo‘lsa, u holda Xudoda yanada ulug‘vor asoslar borligi haqida o‘ylab ko‘r.

MULOHAZA QILGIN: Xudo Isroil xalqiga O‘zining o‘nta amrini berganida Xudo nomi bilan ont ichish odatiy hol edi: bu amrlarga ko‘proq ishonishgandi. Ayrim odamlar buni shu paytgacha o‘z tajribalaridan o‘tkazib kelishmoqda. Bunga biror misol o‘ylab top.

Sen qachonlardir Xudoning nomini qandaydir yolg‘on yoki behuda narsalar bilan bog‘laganmisan? Levilar Kitobidagi 20:7 haqida o‘ylab ko‘r. Sen o‘z harakatlaringni o‘zgartira olasanmi?

IBODAT: “Xudoyim, Sening ismingdan ko‘p holatlarda noto‘g‘ri foydalanishayotganlarini bilaman. Keyingi bora yana shu haqda eshitsam, mayli u do‘st**im bo‘lsin va hatto o‘zim bo‘lay, bu haqda unutmasligimga yordam berishingni so‘rayman, ya’ni _____”.**

14 YANVAR. Xudoyim, yakshanba uchun rahmat!
Kalomdan o‘qish: Mark 2:23-27
Shabbat kunini muqaddas deb biling, bu kunga rioya qilib yuring (Chiqish 20:8).
Yettinchi kuni Xudo hamma ishlarini bitirib, dam oldi (Ibroniylar 4:4).

SO‘NGGI QO‘NG‘IROQ CHALINDI. Jenya ryukzagini bog‘lab maktab eshigidan chopib chiqdi. Hovlida to‘plangan o‘quvchilar orasida Seryojani uchratib, do‘stiga yetib olishga urindi.

– Bu haftadagi dam olish kunlari nima qilmoqchisan?

Seryoja yelkasini qisib qo‘ydi:

– Bilmadim. O‘ylashimcha, muhim bo‘lmagan ishlar bilan. O‘zing nima qilmoqchisan?

– Jamoatda ishim ko‘p bo‘ladi. Bizning yoshlar guruhimiz yakshanbada ibodat qilishni tashkil etishda yordam bermoqda, demak...

– Senga bu ishlarning hammasi huzur baxsh etadi, shekilli, – deya qayd etdi Seryoja.

– Albatta! Yakshanba tonglarini yaxshi ko‘raman. So‘ngra esa (men oilamizni nazarda tutayapman) birgalikda yakshanbani o‘tkazamiz. Biz hattoki nimadir o‘ynasak ham, bu boshqa kunlardagiga o‘xshamaydi. Yakshanba tushligi esa hafta mobaynidagi eng ajoyibi bo‘ladi!

– U holda sen yakshanbani aniq men kabi o‘tkazmas ekansan. Men uchun yakshanba faqat uy atrofida gazetalar ko‘proq sochilib yotganligi bilan farq qiladi.

Jenya yelkasini qisib qo‘ydi. Ular Seryoja bilan birgalikda avtobusga kirishdi.

– Ota-onam yakshanba bizga Xudoning inoyati haqida eslatishini aytishadi. U bizga shuni eslashimiz uchun dam olish kunini bergan: Xudo bularning hammasini biz bunga loyiq bo‘lganimiz uchun emas, balki U shunday bo‘lganligi bois qiladi.

Xo‘sh, sening yakshanbang haftaning boshqa kunlaridan nimasi bilan farq qiladi? Iso yettinchi kun odam uchun yaratilganini aytgan: bu muhim ahamiyatga ega bo‘lgan kun. Biz bu Xudoning kuni ekanligini, Xudoni yaxshiroq tushunish, ayniqsa, Uning bizga yo‘llagan inoyatini yaxshiroq anglashimiz uchun bu kunni yaratgan.

Har doim ham yakshanbani muhim kunga aylantirish oson kechmaydi. Hattoki Iso davrida ham bu haqda bahs yuritishgan. Biroq, Xudo bu kunni eng boshidanoq biz rohatlanishimiz va dam olishimiz uchun yaratgan.

MULOHAZA QILGIN: *Shanba* yahudiycha so‘z bo‘lib, “nimanidir to‘xtatish, chek qo‘yish” ma’nosini bildiradi. Sening yakshanbang haftaning boshqa kunlaridan qanday farq qiladi? Sen uni qay tariqa muhim kunga aylantira olishing mumkin?

IBODAT: “Xudoyim, ba’zan men shanbaning nima uchun kerak ekanligini unutib qo‘yaman. O‘zing va men uchun inoyatingni yodda tutishimga yordam berishingni so‘rayman”.

15 YANVAR. HURMAT QILISHNI O‘RGAN

Kalomdan o‘qish: Chiqish 20:12

Ota-onangizni hurmat qiling. O‘shanda Men, Egangiz Xudo, sizlarga berayotgan yurtda umringiz uzoq bo‘ladi (Chiqish 20:12)

DO‘STLARIMDAN BIRI u hali yosh bo‘lganida, bobosi qo‘l arrasidan foydalanishni o‘rgatganini so‘zlab bergandi (elektrli bo‘lmagan bu arraning tishlari o‘tkir bo‘lib eni 15 santimetrni tashkil etardi).

“Eng avvalo, – degandi bobosi, – arralaydigan chizig‘ingni qalam bilan aniq qilib chizgin. So‘ngra o‘lchamlar kerakli joyda chizilganiga ishonch hosil qilishing uchun tekshirib ko‘r. Yetti marta o‘lchab bir marta kes. Sen kesadigan bir parcha taxta, – deya gapida davom etadi u, – sirg‘anib ketmasligi va arra o‘lchovdan siltanib ketmasligi uchun silliq, usti tekis bo‘lishi kerak. So‘ngra taxtani tizzang yoki qo‘ling bilan imkon qadar mahkam tutib arralashni boshla. Arra yurishi uchun bo‘sh joy bo‘lishini nazorat qilib turgin. Va eng muhimi, qo‘llaringni arra tig‘idan nari tutgin!” – deya bobo o‘z qo‘llarini ko‘rsatadi: ikkita barmog‘i boshqalaridan qisqa bo‘lib, ikkita barmoq suyaklari yetishmasdi. Do‘stim bobosining shaxsiy tajribasidan o‘ziga kerakli xulosani chiqarib oldi.

Xudo bizga ota-onani, bobolar va buvilarni, tarbiyachilarni biz ularning tajribasini o‘rganishimiz uchun bergan. Balki sen bunga qiyinchilik bilan ishonarsan, ammo sening ota-onaing ham qachonlardir bola bo‘lishgan – *million* yillar avval! Ular turli xil ishlar qilishgan va ba’zan adashganlar ham. Har doim ham xatolari uchun barmoqlaridan ayrilishmagan, ammo ular xatolaridan xulosa chiqarib, yanada aqlliroq bo‘lishgan.

Mana nima uchun Xudo bizga ota-onani va tarbiyachilarimizni hurmat qilishga chorlaydi. Xudo ular o‘z shaxsiy tajribalaridan nimanidir o‘rganganlarini biladi va sabr bardosh bilan bu tajribalarni o‘rganishimizni xohlaydi! Xudo ota-onamizni hurmat qilishimizga buyuradigan yana bir sabab bor. Bu Xudoning boshqa amrlari kabi, bizga Uning O‘zligini ochib beradi. Beshinchi amr Xudoga nisbatan hurmat bilan munosabatda bo‘lish afzal ekanligini ko‘rsatadi.

Xudoga nisbatan hurmat bilan munosabatda bo‘lish shuning uchun ham zarurki, U – Xudodir. Uning uchun biz ota-onaga hurmat bajo kelirishimiz ham xuddi shundayin muhim (shuningdek, bobolarimiz va buvilarimizga ham). Ularga itoat etib, biz o‘zimizni noxushliklardan himoya qilamiz, zero, boboning qayg‘uli tajribasi nabirasiga barmoqlarini beshikast saqlashiga yordam berdi.

MULOHAZA QILGIN: Ota-onang senga keyingi ikki kun davomida qanday maslahat va yo‘l yo‘riqlar berishdi? Sen ularning maslahatini hurmat bilan tingladingmi? Kelajakda ota-onangga ko‘proq hurmat bajo etishing uchun nimalar qila olasan?

IBODAT: “Xudoyim, men ota-onamga itoat qilishim qiyin bo‘lishini Sen bilasan, ayniqsa, _____. Ularda bor tajriba menda hali yo‘q ekanligini eslab turishimga yordam ber. Ularni hurmat qilishim uchun menga ko‘mak ber, ya’ni _____”.

16 YANVAR. YUGUR, QUYON, YUGUR

Kalomdan o‘qish: Ibtido 4:1-10

Qobil ukasi Hobilga: “Yur, dalaga boramiz”, deb taklif qildi. Ular dalaga borganlarida, Qobil ukasiga tashlanib, uni o‘ldirdi (Ibtido 4:8).

Qotillik qilmang (Chiqish 20:13).

BECHORA YOVUZ KOYOT! Hattoki eng zamonaviy barcha ko‘nikmalar bilan ham u Quyonni o‘ldira olmayapti. Garchi Quyonni ushlash uchun qopqonlar, pistirmalar, chuqurlar, poyezdlar, mashinalar va tuzoqlar uning ixtiyorida bo‘lsada; u bombalarni, maxsus arbaletlarni, raketa, bombardimonchilarni va boshqa qurollarni Quyonni o‘ldirish uchun ishlatmoqda. Biroq zararkunanda Quyon faqat bir lahzaga o‘z raqibiga tilini chiqarib ko‘rsatish uchungina to‘xtaydi va chang to‘zon ichida g‘oyib bo‘ladi.

Biz Quyonning tarafidamiz; bizga Jerri Tomdan qochadigan damlar yoqadi. Multfilm qahramonlari o‘z dushmanlaridan qochib qutulgan paytlarda biz xursand bo‘lamiz. Bu bor-yo‘g‘i hayvonlar chizilgan surat, ammo biz ularga ziyon yetishini istamaymiz. Multfilm qahramonlari bilan bizning nima ishimiz bor? Mabodo yovuz Koyot Quyonga yetib olib uni o‘ldirsa nima bo‘pti?

Buning sababi juda oddiy: qalbimizning tubida biz bilamizki, hayot go‘zal, qotillik esa juda yomon.

Biz buni bilamiz, negaki Xudo bizga bu bilimni bergan, bu Uning amrida ham aks etgan: “Qotillik qilma” (Chiqish 20:13). Mana nima uchun qotillik yomon. Biroq yana boshqa narsa ham bor. Qotillik faqatgina Xudo uni ta’qiqlagani uchun yomon emas. Bu amr aslida Xudoning o‘zligini aks ettiradi.

Xudo bizga qotillikni ta’qiqlaydi, negaki qotillik Uni haqoratlaydi. U barhayot Xudo, hayotning Yaratuvchisidir. U biz ham Uning O‘zi kabi insonning hayotini hurmat qilishimizni istaydi, negaki barcha odamlar ham Uning timsolida yaratilganlar.

MULOHAZA QILGIN: Qadimgi ravvinlar Xudo O‘zini “Men Borman” (Chiqish 3:14) deb ataydigan ism - Uning haqiqatdan mavjudligini, *pokiza hayotning, barcha mavjudiyatning* manbai ekanligini uqtirishgan. Sen Xudodan bo‘lmagan biror bir hayot tarzini ayta olasanmi? Nega shunday va nima uchun bunday emas?

Ammo shunchaki o‘ldirib qo‘ya qolmasdan, boshqa odamning hayotiga hurmat ko‘rsatishning o‘zi *yetarlimi*? Biz inson hayotiga nisbatan yana qanday ehtirom bildirishimiz mumkin?

Bugun maktabda, jamoatda yoki boshqa joylarda to‘planganlar orasidan o‘tayotib, har biriga Xudoning siymosida yaratilgan nihoyatda noyob shaxsga qaragandek nazar solgin.

IBODAT: “Xudoyim, Senga hayot berganing uchun rahmat aytaman! Sen meni O‘z timsolingda yaratganing uchun rahmat. Sen _____ yaratganing uchun ham minnatdorman”.

17 YANVAR. 1 + 1 = 1

Kalomdan o‘qish: Ibtido 2:15-24

Shuning uchun erkak kishi ota-onasidan bo‘lak bo‘lib, xotiniga bog‘lanib qoladi, ikkalasi bir tan bo‘ladilar (Ibtido 2:24).

Zino qilmang (Chiqish 20:14).

LYOSHA ODATDA kimyo fani darsiga toqat qilolmaydi, shu bois Vladimir Ivanovich tajriba o‘tkaza boshlaganida e’tibor bermadi. Vladimir Ivanovich “natriy” va “o‘zgaruvchanlik” haqida nimalardir deganida qattiq qarsillagan ovoz eshitildi. Lyosha o‘qituvchining, “Mana, ozgina miqdordagi toza natriy qanchalik portlash hosil qilishi mumkin”, deganini eshitgan boshqa o‘quvchilarga nisbatan yuqoriga balandroq sapchib tushdi.

“Qoyil!” – deya o‘yladi Lyosha va endi o‘qituvchiga jiddiyroq qaray boshladi.

– Mana bu esa xlor. Toza holatda u – zaharli gazdir, uning ozgina miqdori ham barchamizni o‘ldirishi mumkin.

“Mana bunisi zo‘r! – deb o‘yladi Lyosha. – *Portlash va zaharli gaz. Juda zo‘r-ku”.*

– Agar bularni aralashtiradigan bo‘lsak...

“Mana u! Zaharli portlash!”

– Biz hammamiz biladigan oddiygina osh tuzini olamiz, – Vladimir Ivanovich sinfga shisha tuzdonni ko‘rsatdi. – Siz bodroq va kartoshka friga sepadigan tuz – bu, natriy va xlordan iborat bo‘lgan ikkita moddaning birlashuvidir. Ular birlashganida har kungi hayotimiz uchun yanada foydaliroq bo‘ladi.

Lyosha o‘qituvchining qo‘lidagi tuzdonga qaradi va mabodo bu bodroqqa haqiqiy natriy qo‘shilsa qanchalik zo‘r sochilib ketishi haqida o‘zicha tasavvur qildi.

Xuddi o‘qituvchi natriy va xlor qo‘shilmasi haqida aytib berganidek, Xudo ham nikohni shu tariqa o‘ylab topgan. Nikohda mutlaqo turlicha yaratilganlar – erkak va ayol –alohida tarzda emas, balki juftlikda ko‘proq foyda keltirish uchun munosabat o‘rnatadilar. Xudo ham bu munosabatlarda Uning O‘zligi va fe’l-atvori aks etishini xohlaydi. Mana nima uchun Xudo odamlarga yettinchi amrni bergan: “Zino qilmanglar” (Chiqish 20:14). Xudo pokiza va sadoqatlidir, U erkak va ayol o‘rtasidagi munosabatlar ham xuddi shunday bo‘lishini istaydi.

Agar oilada er va ayol o‘rtasida xiyonat va ishonchsizlik yuzaga kelar ekan, natriydan ham ko‘ra yomonroq portlash hosil bo‘ladi, munosabatlar esa xuddi xlor kabi zaharlanadi. Xudo bu haqda biladi. Xudo bizni sevadi va bizni nikohdagi ishonchsizlik tufayli kelib chiqadigan fojealardan asrashni istaydi. U bizga O‘zi kabi musaffolik va sadoqatni, marhamatli nikohni berishni xohlaydi.

MULOHAZA QILGIN: Sening tanishlaringdan qaysi birlari o‘z nikohida ko‘proq baxtli? Ularning nikohi nima sababdan shunchalik baxtli? Sen o‘z oilaviy hayotingni qanday tasavvur qilasan?

IBODAT: “Xudoyim, odamlarga nisbatan mening munosabatimni pokiza qilgin. O‘zingga manzur bo‘ladigan kattalar hayotiga meni tayyorla, ya’ni bu hayotda yolg‘iz bo‘lishim yoki oila qurishimda Sening irodang ustuvor bo‘lsin”.

18 YANVAR. YUMSHOQ GO‘SHT, O‘ZGA SAYYORALIKLAR VA XUDO

Kalomdan o‘qish: Efesliklar 4:22-24, 28

O‘g‘irlik qilmang (Chiqish 20:15)

SEN MEHMON BO‘LIB DO‘STINGNING OLDIGA KELDING. Tushlik oldidan qo‘lingni yuvish uchun vannaga yo‘l olasan, biroq do‘sting shunday deydi: “Qo‘ysangchi! Biz hech qachon ovqatlanish oldidan qo‘l yuvmaymiz”. Sen shunday deb o‘ylaysan:

a) Ota-onam qandaydir g‘alati odamlar: har doim ovqatlanish oldidan qo‘l yuvishimni talab qilishadi.

b) Do‘stimning xonadonida mening uyimdagiga o‘xshab qo‘llarni iflos qilishmaydi.

v) Yumshoq go‘shtdan o‘zimni tiyaman

Avtobusda sen bilan yonma-yon qandaydir ayol o‘tiribdi. U senga o‘ralgan yaltiroq qog‘ozni berib shunday deydi: “Ertaga o‘zga sayyoraliklarning hujumi bo‘ladi. Bosh kemaga ishora bermoq uchun bu imkoniyatdan foydalan”. Sen shunday o‘ylaysan:

a) Mashg‘ulotni o‘tkazib yuborish va bosh kemani kutish.

b) Hoynahoy, u josus va adashganligi bois meni o‘z sherigi deb o‘yladi.

v) Bu ayolning aqli joyida emas.

Sen bepoyon sahro o‘rtasidagi baland tog‘ga ko‘tarilasan. O‘sha yerda seni Xudo kutib oladi. U senga o‘nta amr beradi va ulardan birida shunday deyilgan: “O‘g‘irlik qilma”. Sen shunday fikrga borasan:

a) Xudo so‘zga yanada mohir bo‘lishi mumkin edi.

b) Uning qiladigan ishi yo‘q.

v) Xudo pokizalikni qadrlaydi.

Mabodo sen “v” variantini tanlasang, biz ayniqsa uchinchi vaziyat bo‘yicha gaplashib olishimizga to‘g‘ri keladi. Ko‘rayapsanki, ko‘plab odamlar Xudoning “O‘g‘irlik qilma”, degan amrini bilishadi. Biroq ular *nima uchun* Xudo bizga bu amrni berganini *tushunishmaydi*. Ular o‘g‘irlik yomon ekanligini bilishadi, ammo *nima uchun* ekanligini tushunishmaydi. Ular mabodo sen akangning hamyonidan bir necha dollarni yashirincha olsang Xudoga yoqmasligini bilishadi, ammo Xudo uchun bu nega muammo hisoblanishini bilishmaydi.

“O‘g‘irlik qilma”, deyilgan sakkizinchi amrni Xudo o‘nta amrning orasida “*Mana bu yaxshi amr, endi uni bu yoqqa qo‘yaylik*”, deb o‘ylagani uchun qo‘ymagan. U nihoyatda muhim haqiqatdan ogoh etayotganligi uchungina ham Xudo uni bu qatorga qo‘shmagan. Xudo bizlarning halol bo‘lishimizni istaydi, negaki Uning *O‘zi pokiza*dir. Sakkizinchi amr bizni Xudo to‘g‘risidagi haqiqatga o‘rgatadi: Unga ishonish mumkin, U bizlarning Unga taqlid qilib Uning sifatlarini aks ettirishimizni xohlaydi.

MULOHAZA QILGIN: Sakkizinchi amr Xudoga ishonishimiz mumkin ekanligini ko‘rsatadi. Xudoga ishonishning bundan boshqa yana qanday sabablari bor? Sen Xudoga ishonasanmi? Nima uchun shunday va nima sababdan bunday emas?

IBODAT: “Xudoyim, pokiza bo‘lganing uchun Senga rahmat. Senga ishonishimga O‘zing yordam ber, menga ham pokiza bo‘lishimga ko‘maklashgin, ayniqsa, _____”.

19 YANVAR. HAQIQAT, FAQAT HAQIQAT

Kalomdan o‘qish: Havoriylar 5:1-11

Qo‘shningizga qarshi yolg‘on guvohlik bermang (Chiqish 20:16)

SEN QACHONLARDIR kioska vitrinasidagi gazetalarning sarlavhasiga e’tibor berganmisan?

“Nyu-Mexikoda uchar tarelka!” (Bu Meksikadan uchib kelgan to‘rt o‘rinli samolyot ekan).

“Chaqaloq orqa kuragida xazinalar orolining xaritasi bilan tug‘ildi (Bu tug‘ma nor edi).

“Men o‘zga sayyoralikdan ikki boshli bola tug‘dim!” (Shunaqasi ham bo‘lib turadi).

“Vins Fosterning arvohi Oq Uy bo‘ylab kezib yuribdi!” (Uyning g‘arbiy qanot poli g‘irchillayapti).

Nahotki odamlar chindan ham shunday bema’niliklarga ishonishsa? Ular albatta bu gazetalarni sotib olishadi. Supermarketlar har hafta bunday gazetalarning millionlab nusxalarini sotib yuborishadi, demak, kimdir bularni o‘qishi kerak, kimgadir bu yoqadi, ehtimol, kimdir hatto bunga ishonadi ham.

Albatta, faqat gazetalargina haqiqatni “bo‘yayotgani” yoki bizni aldayotgani yo‘q. Biz ham siz bilan doimo shunday qilamiz. Balki, biz Yakubovichni mahalliy bozorda uchratib qolganimizni gapirmasmiz, biroq ba’zan haqiqatga nimanidir qo‘shib qo‘yamiz. Oxir-oqibat, “kichkinagina benuqson fantaziyamiz”dan qanday zarar bo‘lishi mumkin?

Xudo “fantaziyalar” yoki “haqiqatni bo‘yash” haqida gapirmaydi. U buni *yolg‘on* deb ataydi. U shunday deydi: “Qo‘shningizga qarshi yolg‘on guvohlik bermang” (Chiqish 20:16); “yolg‘on gapirmang” (Levilar 19:11). Har qanday yolg‘on xoh katta yoki kichik bo‘lsin, bu gunoh ekanligi faqat Xudo shunday degani uchungina emas. To‘qqizinchi amr bizga shuni ko‘rsatadiki, Xudo haqiqatni qadrlaydi, negaki Uning O‘zi haqiqatgo‘ydir.

Xudo yolg‘ondan qochish va haqiqatni gapirishni shu bois ham amr etganki, yolg‘on zararlidir. Xanoniyo va Sapfira buni tushunishdi, ammo juda kech tushunishdi, bu qayg‘uli saboqdir! Yolg‘on bizni Xudodan ayiradi. U bizning fel atvorimizni buzadi va obro‘ e’tiborimizni barbod qiladi. U tufayli biz Xudoga tobora kamroq o‘xshab boraveramiz.

Xudo O‘z amrlari orqali qanday ekanligini ko‘rsatib, bizni bularning hammasidan asramoqchi bo‘ladi. Uning fe’l-atvori haqida mulohaza yuritib, biz o‘z hayotimizni yengillashtiramiz.

MULOHAZA QILGIN: To‘qqizinchi amr bizga yolg‘on gapirmaslikni buyuradi. U bizga Xudoning fe’l-atvori haqida nimani ayon etib beradi? Nima uchun shunday yoki nega bunaqa emas?

Ushbu jumlani yakunla: “Shu haftada men Xudoning timsoliga ko‘ra yaratilgan odamga nisbatan _____ shunday qildim”. Agar bu jumlani yakunlay olmasang, Xudoning siymosi qanday ekanligi haqida nega o‘ylab ko‘rmaslik kerak?

IBODAT: “Xudoyim, kechir, men haqiqatni aytishim nihoyatda qiyin, xususan _____. O‘zingga ko‘proq o‘xshashim uchun menga yordam ber”.

20 YANVAR. SEN NIMANI XOHLAGAN BO‘LSANG
Kalomdan o‘qish: Chiqish 20:17
Ko‘z olaytirmang (Chiqish 20:17).

Ichimlik ishlab chiqaruvchi kompaniyalar doimo raqobatchilarining emas, balki o‘z mahsulotlarini sotib olishingizga undaydigan yangi reklama shiorlari va roliklarini o‘ylab chiqarishadi. Ko‘raylikchi, sen reklama va ichimlik markasi o‘rtasidagi o‘zaro muvofiqlikni topa olarmikansan.

1	...ALOHIDA MUSAFFOLIK BAXSH ETADI.	A	RED BULL
2	CHANQAB QOLISHINGGA YO‘L QO‘YMA	B	PEPSI AYS-KRIM
3	QARSHILIK KO‘RSATISH BEFOYDA	V	MORSBERRI
4	TOG‘ QUDRATI BILAN O‘ZINGNI QUVVATLANTIR	G	“YA”
5	...TUYG‘ULARNI YANGILAYDI	D	SHVEPS
6	INSONGA O‘XSHAB DAM OL	Ye	NARZAN
7	...YOVUZLIK SALTANATIGA QARSHI	J	SPRAYT
8	...QANOTLARINGNI YOZADI	Z	PEPSI
9	QAYERDA ROHAT BO‘LSA, O‘SHA YERDA...	I	NESTI

Bu shiorlardan ayrimlari ko‘proq mashhur bo‘lsa, boshqalari kamroq tanilgan, biroq ular “Sen nimani istasang” iborasining zamonaviy kayfiyatini yanada yaxshiroq ochib beradi. Nahotki sen, biror o‘rtog‘ing zo‘r bosh kiyimi yoki botinkasini kiyganini ko‘rib, shunday deb o‘ylamagan bo‘lsang: “*Mana, shunaqasini men ham xohlayman*”. Yoki sinfdoshingning fizikaga oid ishiga e’tibor berib: “*Men ham shuni istayapmanmi*?” deb o‘ylash mumkin.

Xudo bizga ko‘z olaytirmaslikni buyurganida xuddi shunday tuyg‘ular haqida gapiradi. Biroq o‘ninchi amr Xudo bizga ko‘z olaytirishni shunchaki ta’qiqlagani haqida xabar bermaydi. U bizga Xudo haqida muhim nimanidir bildiradi. U biz nimaga ega bo‘lsak, Xudoga ana shu manzur ekanligini ko‘rsatadi. Xudo qanoatni qadrlaydi, shu bois hech qachon hech nimani *istamaydi*; Unda hamma narsa bor, negaki U kerak bo‘ladigan hamma narsaning O‘zidir. U bizga berayotganlaridan mamnun bo‘lishimizni xohlaydi. Qachonki biz qanoat hosil qilsak, ortiq so‘ramaymiz va boshqa odamlarda bor bo‘lgan narsalarni boshqa istamaymiz, shu tariqa biz Xudoga tobora yaqinroq o‘xshab boraveramiz.

Masihiy faylasuf Frensis Sheffer shunday deb yozgandi: “O‘nta amrning eng yuqori nuqtasi – o‘ninchi amrdir... Har safar biz Xudoning qaysidir amrini buzar ekanmiz, shunday istak paydo bo‘lganining o‘zi ushbu amrni allaqachon buzganimizdan dalolat beradi”. Shu haqda o‘ylab ko‘r. O‘g‘irlashdan avval odam o‘g‘irlikni istashi lozim; odam qachon aldaganida u avvalo bu yolg‘onidan naf olishni ko‘zlaydi. Va shunday davom etaveradi. Shu tariqa, istak – barcha gunohlarning manbaidir.

MULOHAZA QILGIN: Xudo hayotdagi narsalarga qanday munosabatda bo‘lishimizni istaydi? Boshqada bor bo‘lgan narsalarga maftun bo‘lish yomonmi? Qanday paytda maftunlik hasadga aylanadi?

IBODAT: “Xudoyim, menda bor bo‘lgan narsalarni qadrlashim, atrofimdagi barcha ajoyibotlardan lazzatlanishim va Sen menga bergan narsalardan qanoatlanishim uchun yordam ber”.

21 YANVAR. O‘TLOQDAGI ILON
Kalomdan o‘qish: Ibtido 3:1-6
Sizlar ham barcha yaxshi va yomon narsalarni biladigan bo‘lib, Xudoga o‘xshab qolasizlar (Ibtido 3:5).

ILON SEKINLIK BILAN xotinning oldiga o‘rmalab keldi.

– Salom, onajon, – dedi u.

Xotin tin olib osmonga ko‘z tikdi. U ilon bilan tanish edi; qachonlardir xotin uni qayrilma o‘rindiqli avtomobilida aylanib kelishga taklif etgandi. Biroq xotin ilon uchun nihoyatda aqlli bo‘lib chiqdi; xotin ilonning mashina hayday olmasligini bilardi.

– Sen bir qaragin-a! – deya shivirladi u va yaltirab turgan zumraddek yashil rang mevani ko‘rsatdi. Tonggi shabnam hali uning nozik po‘stida yaltirab turardi. – U bog‘dagi barcha mevalardan ko‘ra shirinroq – dedi ilon ayolga diqqat bilan qarab. – Shunaqangi mazali va sersuv, iliq va ayni paytda yaxdek. Onajon, buni bir hidlab ko‘rgin-a! – Ilon mevani xotinning burni tagiga olib bordi.

– Buni qayoqdan olganingni bilaman, – dedi xotin ayblovchi ohangda. – Sen uni bog‘ o‘rtasidagi daraxtdan olgansan.

– Nima bo‘pti? Kim senga o‘zing istagan har qanday daraxtning mevasidan yeya olmasligingni aytdi?

– Buni o‘zing bilasan, – deya sekin javob qaytardi xotin. Xotin bu haqda ilon bilan ko‘p marotaba gaplashgandi. Biroq endi xotin o‘zining nima deganini, ilon nimalar gapirganini va hatto Xudo nima deganini eslashi qiyin edi.

– Ha mayli! – Ilon yaqinlashib boshini xotinning yelkasi ustiga deyarli tashlab qo‘ydi. – Xudo sen bu mevani yeyishingni istamaydi, negaki seni nazorati ostida ushlab turmoqchi bo‘ladi. – Ilon jozibador tabassum qildi.

– Biroq *mening* o‘ylashimcha, sen mustaqil qaror qabul qilish yoshiga yetgansan, shunday emasmi? – Xotin kipriklarini qimirlatdi. – Albatta, – ilon mayin ovozda gapini davom ettirdi, – men istagan vaqtimda uni yeyishim mumkin.

Xotin jimgina mevaga qarab turdi. Nihoyat, ilon tezlik bilan nari keta boshladi.

– O‘zing bilasan, – dedi u. – Xayr, onajon!

– Yo‘q, shoshmay tur! – hayqirdi xotin. U o‘zining hayqirig‘idan hayratga tushib og‘zini qo‘llari bilan yopdi. – Shoshmagin, – gapini qaytardi xotin sekingina. – Men uni tatib ko‘rmoqchiman.

– Mana endi o‘zingga kelding, onajon!

Ilon mamnun iljaygan holda xotinning nozik barmoqlari mevani ilib, og‘ziga olib borganligiga qarab turdi. Xotin bir bo‘lak mevani chaynadi, uning ko‘z qorachiqlari kengaydi, yuzi ilk marotaba qizarib ketdi. U g‘alati bir lazzatni va yana yangicha, nomini bilmaydigan nimanidir tuydi. Xotin buning qanday nomlanishini bilmadi, ammo bu uni cho‘chitmadi. Unda og‘riq qo‘zg‘aldi.

Ilon ayyorona iljaydi:

– Endi esa, onajon, – dedi u, – senga anjir barglaridan kiyimlar tikadigan yaxshigina modelerni tavsiya qilishimga ijozat bergin, toki men ularni senga arzoniga sota qolay.

MULOHAZA QILGIN: Xotin ilondan meva bo‘lagini shunchaki olmadi; u nima yaxshiyu, nima yomon ekanligini hal etish huquqiga ega bo‘lgan Xudoga tegishli narsani olish uchun urindi. Uning eri Odam Ato ham xuddi shunday qildi. Va oqibatda qanday falokat yuz berdi?

IBODAT: “Xudoyim, gunohga qarshi kurashmog‘im uchun menga kuch ber. Menga Sening yordaming kerak, ayniqsa_____”.

22 YANVAR. NIMANI BILGANING MUHIM EMAS; KIMNI BILIShING MUHIM

Kalomdan o‘qish: Hikmatlar 9:10-12

Egamizdan qo‘rqish donolikning boshidir, Muqaddas Xudoni bilish idrokdir (Hikmatlar 9:10).

Otasi xonaga kirib kelganida Kostya uy vazifasini kompyuterda bajarib o‘tirgandi.

– Tezda tushlik bo‘ladi – dedi u kompyuterning ekraniga qarab. – Sen nima qilayapsan?

Kostya yelkasini qisib qo‘ydi:

– Uyga vazifani bajarayapman. Men Internet orqali zamonaviy raqamli texnologiyalar haqidagi ma’lumotlarni izlayotgandim.

Otasi jilmayib qo‘ydi:

– Nima bilan shug‘ullanayotganing haqida tasavvurga ham ega emasman. Sen Dima bilan tanishganingdan buyon kompyuterlar haqida anchagina narsalarni bilib olding, to‘g‘rimi?

Kostya o‘rindiqqa orqasini tashlab otasiga qaradi:

– Ha, dada, u nihoyatda zo‘r. U bilan shunchaki gaplashib ham ko‘p narsalarni o‘rganish mumkin! Nazarimda, u bilan tanishmasimdan avval kompyuterlar haqida hech narsa bilmagan ekanman.

Kostya kompyuterni o‘rganishi uchun maxsus kurslariga borishiga hojat qolmadi. Unga bilimini oshiradigan yordamchi qo‘llanmalarni sotib olishiga to‘g‘ri kelmadi. Albatta, bular unga ziyon qilmagan bo‘lardi, biroq Kostya kompyuter haqida ko‘p narsalarni do‘sti Dima bilan suhbat orqali bilib oldi. Kostya Dimani bilgach, kompyuter haqida ham ko‘p narsalarni bilib oldi.

Ezgulik va yovuzlikni farqlashni ham biz shu tariqa o‘rganamiz. Hikmatlar Kitobining 9 bob 10 oyatida shunday deyilgan: “Egamizdan qo‘rqish donolikning boshidir, Muqaddas Xudoni bilish idrokdir”. Boshqacha qilib aytganda, ezgulik va yovuzlikni *anglash* kaliti – Xudo haqida bilishdir. Agar sen Xudoni bilsang, Kim hamisha haq ekanligini ham bilasan. Agarda sening harakatlaring Xudoning Kalomiga muvofiq kelsa, demak, sen o‘zingni to‘g‘ri tutayapsan; agar shunday bo‘lmasa, demak, bu noto‘g‘ri ekan.

Xudoni bilmasdan turib, Xudoga nima manzur, nima nomaqbul kelishini bilolmaysan. Mabodo sen Xudo haqida faqat boshqalar aytganini va U haqida o‘qiganlaring orqali bilsang, senda nima yaxshiyu, nima yomon ekanligi haqida faqat anchagina cheklangan tasavvurlar bo‘ladi. Agar sen Xudo bilan shaxsan tanish bo‘lsang, agar sen U bilan yaqin do‘st bo‘lsang, agar sen U bilan har kuni gaplashsang va U sen bilan Kalom orqali gaplashsa bu bilimlar seni anglashga olib keladi. Va Uni qanchalik yaxshi bilsang, shunchalik darajada to‘g‘ri harakat qilish oson kechadi.

MULOHAZA QILGIN: Agar sen birov bilan maktabda yoki jamoatda tanishmoqchi bo‘lsang, qanday yo‘l tutasan? Eng yaqin do‘sting bilan qanday tanishgansan? Xudoni yaqindan anglash uchun nima qilgan bo‘larding?

IBODAT: “Xudoyim, men Seni yaqindan anglashni istayman, biroq menga Sening yordaming kerak. Men ibodat qilishim va har kuni Muqaddas Kitobni o‘qishim uchun, Sen haqingda ko‘proq va ko‘proq bilishim va Sen bilan yaxshiroq tanishib olishim uchun yordam ber”.

23 YANVAR. MUVAFFAQIYATLI QO‘NISH

Kalomdan o‘qish: Zabur 24:4-9

Ey Egam, yo‘llaringni menga ko‘rsat, So‘qmoqlaringni menga o‘rgat (Zabur 24:4).

BU Mishaning samolyotdagi BIRINCHI UCHISHI edi va uchuvchilardan biri uning amakisi bo‘lgani uchun Misha kabina ichiga kirdi.

– Qanday balandlikda uchayapmiz? – deb so‘radi Misha.

Amaki unga yo‘naltiruvchi qurilmani ko‘rsatdi:

– Mana bu qurilma biz qancha balandlikda ekanimizni ko‘rsatmoqda. Har bir raqam ming metrni bildiradi, demak, biz yetti yarim ming metr balandlikdamiz. So‘ngra esa biz o‘n bir ming metr balandlikka ko‘tarilamiz.

Misha ko‘p savollarni yog‘dirib tashladi:

– Siz rulni qanday qilib boshqarasiz? Qanday tezlikda uchishingiz mumkin?

Uchuvchi har doim qandaydir richagni buraganida yoki tugmachani bosganida, Misha bilgisi kelardi:

– Hozir u nima qildi?

– Biz boshqa to‘lqinga ulanayapmiz, negaki aeroportga yaqinlashib kelayapmiz. Uchuvchi bizni boshqarayotgan nazorat punkti bilan gaplashadi.

– Biroq men hech nimani ko‘rmayapman! Ular bizning qayerda ekanligimizni qanday bilishadi? Qayoqqa uchishni qanday bilasiz?

Amaki jilmaydi:

– Hozir biz bulutlar oralab uchayapmiz, – u shunday deya yana yo‘naltiruvchi qurilmani ko‘rsatdi:

– Biroq bu yerdagi asboblar bizga bu hududdagi boshqa samolyotlarni ko‘rsatib turadi. Bundan tashqari, biz doimo nazorat punkti bilan aloqa qilib turamiz. U yerda radar bor va dispetcherlar uning yordamida bizdan ko‘ra hammasini yaxshiroq ko‘rishadi. Ular qanday chiziqda biz qo‘nishimizni, boshqa samolyotlar qayoqqa qo‘nishini, qo‘nish hududida ob-havo qandayligini va shunga o‘xshash narsalarni bilishadi. Hattoki biz bulut yoki tuman sababli hech narsani ko‘ra olmasak ham, nazorat punktidagi odamlar belgilangan joyga biz muvaffaqiyatli yetib olishimiz uchun bizga nima zarur bo‘lsa hammasini bilishadi.

Ba’zan biz hayotda chalkashib qolamiz: biz nima to‘g‘riyu nima noto‘g‘riligini tushunishimiz qiyin bo‘ladi. Xuddi Misha kabi biz hech nimani ko‘rmaymiz. Do‘stlar bizga boshqa narsani aytishadi, o‘qituvchilar o‘zgacha nimadir deyishadi, ota-onalar esa butunlay boshqa narsani uqtirishadi, oqibatda nima yaxshiyu, nima yomon ekanligini bilmaymiz. Hammasi tuman, bulut ichida, biz esa qayoqqa uchishni bilmaymiz.

Shunday paytlarda “nazorat punkti” bilan aloqani muntazam ushlab turish kerak. Xudo bizdan ko‘ra hammasini yaxshiroq ko‘radi. Biz Xudoning Kalomiga va Uning donoligiga tayanishimiz kerak. Biz Uni tinglashimiz va Uning aytganlarini qilishimiz kerak. Biz buni qilganimizda belgilangan manzilga eson-omon yetib olishimiz uchun U bizga hammasini xabar qiladi.

MULOHAZA QILGIN: “Bulutlar orasidan uchib o‘tganingda” nimani his qilasan? Oldingda yo‘l ko‘rinmay qolganida sen odatda nima qilasan? Sening harakatlaringda imon qanday ahamiyat kasb etadi?

Xudoni nazorat punktidagi dispetcherga qiyoslasak, sen go‘yo uchuvchisan. Xudo shunday deydi: “Sizlar o‘ngga yoki chapga burilganingizda, shunday ovozni eshitasizlar: “Mana yo‘l, shu yo‘ldan yuringlar” (Ishayo 30: 21).

IBODAT: “Xudoyim, Senga ma’qul bo‘lgan yo‘ldan yurishim uchun ana shu yo‘lni menga ko‘rsat!”

24 YANVAR. HAQIQATNI IZLAB

Kalomdan o‘qish: Efesliklar 4:14-15

Kelinglar, mehr-muhabbat bilan haqiqatni aytib, jamoatning boshi bo‘lgan Masihga o‘xshab har jihatdan yetuk insonlar bo‘laylik (Efesliklar 4:15).

KIRISH MUMKIN EMAS.

Mashinalarning turishi ta’qiqlanadi.

Suyanmang.

Bu iboralar doimo bizning ko‘z o‘ngimizda turadi, to‘g‘rimi? Bu biz o‘ylamasdan beixtiyor amal qiladigan bir qancha buyruq (ta’qiq va ko‘rsatmalar)lardan faqat namunalardir, xolos.

Paket ochilgandan keyin muzlatgichda saqlansin.

Iste’mol qilishdan avval chayqating.

Mana bu joyidan ochiladi.

Ehtiyot bo‘ling, chuqurlik bor!

Bolali yo‘lovchilar va nogironlar uchun joy.

Ko‘rsatmalar bizni qurshab olgan. Ular bizga yanada batartib va qulay yashashimizga yordam beradi. Va odatda bizning ularga amal qilishimiz mutlaqo qiyin kechmaydi.

Xudo ham bizga ko‘rsatmalar beradi. Odatda biz ularni amrlar deb ataymiz. U shunday deydi: “Boshqa xudolarga sajda qilmang. O‘g‘irlama. Yolg‘on gapirma. Yaqin kishingni sevgin”. Bu Xudo bizga Muqaddas Kitobdan bergan ko‘rsatmalardan ayrimlari, xolos. Yahudiylarning diniy urf-odatiga ko‘ra Xudo bizga 624 ta muqarrar amrlarni bergan!

Xudo bizga bu amrlar orqali O‘zi haqida ko‘p narsalarni bildiradi. Bu amrlar Xudoning fikriga ko‘ra Unga nima kerak yoki kerak emasligini, nima yaxshiyu, nima yomonligini ko‘rsatadi. Biroq Xudoning amrlari bu shunchaki qoidalar yoki ta’qiqlar to‘plami emas; ular bizni muayyan *tamoyillar* va qadr-qiymatga o‘rgatadi.

Tamoyillar amrlarning sababini tushunishga yordam beradi. Ona qachonki bolasi yo‘lni kesib o‘tishidan oldin ikki tomonga qarab olishini uqtirar ekan, avvalo uning xavfsizligi haqida qayg‘uradi. “Qotillik qilmang” amr ortida hayotga nisbatan hurmat tamoyili bor. “Yolg‘on guvohlik bermang” amrida ortida halollik tamoyili yashiringan. Xudoning ko‘rsatmalarida yashiringan bu tamoyillarni topishni o‘rganish orqali, sen haqiqatni butunligicha ko‘ra olasan va uni qandaydir vaziyatda senda aniq bir amr bo‘lmagan taqdirda ham qo‘llay olasan.

Biroq, mabodo sen chindan ham yaxshini yomondan farqlashni istasang, u holda amr va hatto qoidalarga emas, balki Xudoning shaxsiyatiga qarashing kerak. Uning tabiatining o‘zi nima yaxshiyu, nima yomon ekanligini aniqlaydi. Halollik yaxshi, yolg‘on esa yomondir, chunki Xudo O‘zi haqiqatdir. Sevgi yaxshi, nafrat yomon, negaki Xudoning O‘zi sevgidir. Shafqat yaxshi, qahr yomon, buning boisi Xudo shafqatlidir.

MULOHAZA QILGIN: Biror bir fazilatni tanla (misol uchun, halollik, to‘g‘rilik, sevgi, adolat). Nega uning yaxshi ekanligini amr va qoidalarga hamda Xudoning shaxsiyatiga bo‘ysungan holda tushuntirishga harakat qilgin. O‘zing tanlagan fazilat haqida mulohaza yurit. Sen uni qadrlaysanmi? Nima uchun?

IBODAT: “Xudoyim, Ota,men qanday yo‘l tutishni bilmaganimda menga O‘z qoidalaringga tayanishimga yordam ber”.

25 YANVAR. BIRINChI QADAM, IKKINCHI QADAM

Kalomdan o‘qish: Galatiyaliklar 5:16-18

Axir, o‘shanday insoniy istaklar Ruhga qarshi, Ruhning istaklari esa insoniy xudbin istaklarga qarshidir. Bularning ikkalasi bir-biriga qarshi, shuning uchun sizlar xohlaganingizni qila olmaysizlar (Galatiyaliklar 5:17)

SO‘NGGI KUNLARDA UYOQ-BUYOQQA YURISHINGGA TO‘G‘RI KELGANMI? Albatta anchagina yurishingga to‘g‘ri kelgan. Ertalab to‘shakdan turib yuvinish xonasiga borasan. Maktabda sinfdan sinfga o‘tasan. Televizor oldidan sovutgichgacha yurib borasan. Sen zinapoya bo‘ylab tepadan pastga, uyda va ko‘chada yurasan.

Biroq sen yurishni bilmagan paytlar ham bo‘lgan.

Ehtimol, sen buni eslay olmassan, ammo hayotingning dastlabki bir necha oylarida hattoki o‘rmalashni ham bilmagansan. Kunlardan birida karavotingni tutqichidan ushlagan holda oyoqqa turgansan. Keyin esa birinchi qadamingni qo‘yding, keyin ikkinchisini. Shu tariqa mohir yuruvchi bo‘lding!

To‘g‘ri qaror qabul qilishni bilish yurish mahoratidan deyarli farq qilmaydi. *Birinchi qadam* – nima yaxshiyu, nima yomonligini farqlashni o‘rganishdir. Ko‘pchilik odamlar buni hatto birinchi qadamdan boshlashmaydi, boshqa ko‘pchilik esa undan nariga ham o‘tishmaydi. Ammo jismonan birinchi qadamni tashlab sen to‘xtab qolmagansan, demak to‘g‘ri yo‘lni tanlab birinchi qadamni tashlaganingdan so‘ng ham to‘xtab qolmagin.

Ikkinchi qadam – mana shu yerda ko‘pchilik odamlar yuztuban yiqilishadi – bu *to‘g‘ri qaror qabul qilmoqlikdir*. Albatta, muammo shundaki, to‘g‘ri qaror qabul qilish ba’zan juda qiyin kechadi. Biz ko‘pincha noto‘g‘ri ish qilishni *xohlaymiz*. Bu haqda Pavlus Galatiyaliklarga maktubining 5:17da nimalar yozganini o‘qib chiq.

Sen ham shunga o‘xshash holatni payqadingmi? Balki sen nima yaxshiligini bilarsan, ammo bunga amal kilish ancha qiyin!

Xo‘sh, agarda xohlaganimizni qilish ancha oson bo‘lsa, to‘g‘ri qarorga kelish mumkin (bu odatda noto‘g‘ri qaror bo‘lib chiqadi)? Pavlus bu savolga javob beradi: “Ruh yetakchiligida hayot kechiring... Ruhning samarasi esa quyidagilardir: muhabbat, sevinch, xotirjamlik, sabr-toqat, mehribonlik, ezgulik, ishonch, muloyimlik va o‘zini tuta bilish” (Galatiyaliklar 5:16, 22-23).

O‘z hayotingni Muqaddas Ruh boshqaruviga topshirib, sen to‘g‘ri ish tutishingga ishonch hosil qilishing mumkin. Bu esa har kuni Uning nazoratiga bo‘ysunish, Unga itoat qilish, U bilan aloqani ibodat va itoat orqali bog‘lab turishga urinishdir. Bu holda to‘g‘ri harakat qilishing uchun *urinishingga* hojat qolmaydi; U hammasini sen uchun O‘zi bajaradi.

MULOHAZA QILGIN: Sen hozirda nima to‘g‘ri yoki qanday to‘g‘ri yo‘l tutish kerakligini bilishga urinayapsanmi? Bu nima ekanligini bilmagan holda to‘g‘ri yo‘l tutish mumkinmi? Nima to‘g‘ri ekanini bilsa bo‘ladimi yoki baribir bunday qilmaslik kerakmi?

IBODAT: “Mehribon Xudoyim, men Muqaddas Ruhga bo‘ysunaman va kun bo‘yi Uni tinglamoqchiman. Har safar yaxshi va yomonni farqlashimga to‘g‘ri kelganida Senga ishonishim uchun yordam ber. Senga to‘g‘ri yul tutishimga yordam beradigan donoliging va kuch – qudrating uchun minnatdorchilik bildiraman”.

26 YANVAR. XUDONING HIMOYALOVCHI SOYABONI

Kalomdan o‘qish: Zabur 118:1-6

Baxtlidir Sening shartlaringga rioya qiladiganlar (Zabur 118:2).

Keyingi safar kuchli yomg‘ir yog‘ganida SHUNDAY TAJRIBA O‘TKAZISHGA URINIB KO‘R.

1. Ikkita do‘stingdan bu tajribani o‘tkazishingda yordam berishlarini so‘ra; agar ulardan biri unchalik fahmli bo‘lmasa ham mayli (nega bunday ekanligini tezda bilib olasan).

2. Ikkala do‘stingdan ham yomg‘ir ostida ko‘chaga chiqishlarini so‘ragin. Biroviga katta soyabon ber, ikkinchisidan (uncha fahmli bo‘lmaganidan) esa soyabonsiz va suv o‘tkazmaydigan kiyimsiz yomg‘ir ostiga chiqishini so‘ragin.
3. Do‘stlaringdan yomg‘ir ostida sayr qilishlarini so‘ragin; ular ikki daqiqadan so‘ng qaytib kelishsin.
4. Qarab ko‘rchi, ulardan qaysi biri ko‘proq ho‘l bo‘lgan ekan!

Ehtimol, sen bunday tajribaning natijasini unchalik tushunmagandirsan. Zero, buning qanday yakunlashini o‘zing ham tushuna olasan, to‘g‘rimi? Soyabon tutgan do‘sting soyabonsiz o‘rtog‘ingga nisbatan kamroq xo‘l bo‘lganligini tushunish uchun katta olim bo‘lish shart emas, shundaymi?

Bu tajriba qanchalik oddiy (yoki ahmoqona) tuyulmasin, soyabonning qadrini isbotlab beradi. Soyabon seni yomg‘irdan himoya qiladi. Agarda sen jala ostida tashqariga chiqsang, ivib qolishing aniq.

Xudoning amrlari ham soyabonga o‘xshaydi. Uning ostida bo‘lsang ko‘pgina noxushliklaridan himoyada bo‘lasan. Sen qachon bu boshpanadan chiqsang noxushliklar boshlanishiga ajablanmasang ham bo‘ladi.

Misol uchun, agar sen Xudoning amrlariga itoat yetsang va o‘g‘irlik qilmasang, hech kimni aldamasang va yolg‘on gapirmasang (Levilar 19:11) Uning amrlari soyaboni ostida bulasan. Biroq agarda bu amrlarga amal qilmasang, u holda turli noxush oqibatlardan azob chekishing mumkin. Agar sen Uning o‘g‘irlik qilmaslik haqidagi amrini buzsang, seni o‘g‘irlikda ushlab olishlari yoki biror jinoiy to‘daga qo‘shilib qolishing mumkin. Mabodo sen Xudoning yolg‘on gapirmaslik haqidagi amrini buzsang, seni maktabdan haydab yuborishlari mumkin, shunda fizik yadrochi bo‘lish haqidagi orzuingdan voz kechishingga to‘g‘ri keladi. Mabodo sen Uning yolg‘on gapirmaslik haqidagi amrini e’tiborsiz qoldirsang, do‘stlaring va oila a’zolaring senga ishonmay qo‘yishlari mumkin.

Aslida Xudoning amrlarini bajarmaslik turlicha ko‘ngilsizliklarga olib kelishi mumkin (ya’ni aybdorlik, uyat, ishonchsizlik, munosabatlarning buzilishi, nosog‘lom harakatlar va shunga o‘xshash), hattoki sen bilan noxush holatlar yuz bermasa ham. Mana nima uchun Xudo bizga bu amrlarni bergan, eng avvalo, seni himoya qilish uchun.

Xullas, keyingi safar yomg‘ir yog‘ayotgan mahal tashqariga chiqqaningda soyabonni olishni unutma.

MULOHAZA QILGIN: Xudoning amrlariga itoat qilganing uchun himoyalangan holatlaringni eslagin. Uning amrlaridan qaysi biri bugun seni himoya qilishi mumkin.

IBODAT: “Xudoyim, Senga amrlaring uchun rahmat. Ular meni qanday himoya qilishini tushunishimga yordam ber. Seni bugun qanday tinglashim kerakligini menga ko‘rsat, ayniqsa _____”.

27 YANVAR. AGAR XATO QILSANG

Kalomdan o‘qish: 1 Yuhanno 1:8-10

Bordi-yu, gunohlarimizni e’tirof etsak, sodiq va adolatli bo‘lgan Xudo gunohlarimizni kechirib, bizni har qanday yomonlikdan forig‘ qiladi (1 Yuhanno 1:9)

ANYA MAQSAD SARI INTILAR EDI. Yana bitta himoyachi aldab o‘tilsa - jamoaga g‘alaba keltiradigan gol urilishi mumkin.

Vaqt yakunlanib borardi. Anya darvozaga qarab yugurdi, Katya esa himoyachilarning boshi ustidan unga to‘pni oshirdi. Anya to‘pni darvozadan o‘n uch metr narida ilib oldi. Raqib darvozaboni o‘z joyida qolishi yoki to‘pni olish uchun uning oldiga yugurib kelishi mumkin edi.

Anya Katyaning uzatgan to‘pini qabul qilish uchun himoyachini aylanib o‘tdi. To‘p yerga urilgan zahoti Anya uni tepdi. U to‘p darvozabonning cho‘zilgan qo‘llaridan o‘tib darvoza to‘rining yuqori o‘n burchagiga borib tushishiga umid qilgandi. To‘p darvoza sari uchganida Anyani kuchli hayajon qopladi. Zero, o‘yinning oxirgi daqiqalarida golgacha bir lahzagina qolgandi!

Anya to‘p darvozabonning qo‘lidan o‘tganida quvonchdan qullarini silkitib yubordi. Biroq to‘p darvoza to‘ri tepasidan o‘tib ketdi. U nishonga ura olmagandi!

– O yo‘q! – ingrab yubordi u va so‘kindi.

Anya uyga qaytayotganida o‘z onasidan og‘zidan chiqib ketgan qo‘pol so‘zi uchun kechirim so‘radi.

– Men juda afsusdaman! Buni beixtiyor aytib yubordim, – u yig‘lab gapirdi. – Men juda hayajonda edim. Biroq bunday gapirishim kerak emasdi, men ayibdorman. Siz balki meni yomon ko‘rarsiz. Xudo mendan nafratlanadi.

– Nimalar deyapsan, Xudo baribir seni yaxshi ko‘radi, – dedi Anyaning onasi, – men ham seni yaxshi ko‘raman.

Bir muddat ular jim qolishdi, so‘ngrra Anyaning onasi so‘radi:

– Murabbiy xato qilganing uchun seni so‘kdimi?

Anya boshini chayqab yelkasini qisdi:

– Yo‘q. Men unga afsuslanganimni aytdim, Biroq u aytdiki... – Anya to‘satdan to‘xtadi. U onasiga jilmayib qaradi. – Men tushunaman, siz menga tushuntirishga urinayapsiz.

Anyaning onasi ham qiziga qarab jilmaydi.

– Sen noto‘g‘ri yo‘l tutding, – dedi u, – biroq to‘pni darvozaga ura olmaganing uchun murabbiy seni yomon ko‘rishi mumkin bo‘lmaganidek, Xudo ham seni buning uchun yomon ko‘rib qolmaydi. Anechka, Xudo seni sevadi va kechirishga tayyor. Buning uchun sen faqat o‘z xatoingni tan olishing, Undan kechirim so‘rashing va keyingi safar o‘zingni munosib tutishing uchun U senga yordam berishini so‘rashing kerak, xolos.

MULOHAZA QILGIN: Agar sen bir oy mobaynida biror narsani har kuni bajarsang, bu ko‘nikmaga aylanib qoladi. Bu ko‘nikmani shunday bir tartibga aylantirishga urinib ko‘rgin: Sen qachon noto‘g‘ri ish qilganingda *shu zahotiyoq* gunohingga iqror bo‘lgin, kechirim so‘ra va keyingi safar Xudo to‘g‘ri qaror qabul qilishingga yordam berishiga ishon.

IBODAT: “Xudoyim, men _____ noto‘g‘ri yo‘l tutdim. Meni kechir va keyingi safar to‘g‘ri qaror qabul qilishim uchun yordam ber”.

28 YANVAR. QANDAY FARQI BOR?

Kalomdan o‘qish: 1 Korinfliklar 10:23-24, 31

Shunday qilib, yeysizlarmi, ichasizlarmi, nimaiki qilsangiz ham, hammasini Xudoni ulug‘lash uchun qilinglar (1 Korinfliklar 10:31).

SAVOL: Bo‘r va karam orasida QANDAY FARQ BOR?

Javob: Bolalarga majburlab karam yedira olmaysan?

Savol: Fil va spagetti orasida qanday farq bor?

Javob: Filning sanchqisi toyib ketmaydi.

Savol: Xato va gunoh o‘rtasida qanday farq bor?

Javob: Bu yaxshi savol!

Nihoyat bu hazil bo‘lmagan savol. Bu haqiqatdan ham yaxshi savol.

Ko‘pchilik odamlar xato va gunohni adashtirishadi. Ayrimlar o‘zlarini gunohlari uchun emas, balki xatolari bois gunohkor deya his qilishadi. Boshqalar esa gunohni “beayb xato” deb hisoblashadi.

Odam gunoh qilmasligi, ammo xatolikka yo‘l qo‘yishi mumkin. Sen birovning ismini unutib qo‘yishing mumkin. Sen o‘zing istamagan holda kimningdir tuyg‘ularini haqorat qilishing mumkin. Sen poyezdga chiptangni yo‘qotishing va ta’tilga o‘z sinfing bilan birgalikda borolmasliging mumkin. Sen beixtiyor itning dumidan bosib olishing mumkin. Bular gunoh emas. Bular xatolardir.

Xato qilmay turib ham gunoh qilish mumkin. Sen kimnidir yoqimsiz atama bilan nomlashing mumkin. Sen *atayin* kimningdir tuyg‘usini poymol qilishing mumkin. Sen sinfing bilan ta’tilga borishni istaiganing bois chiptangni tashlab yuborishing mumkin. Sen *atayin* itning dumini bosib olishing mumkin! Bu xato emas. Bu *gunohdir*.

Xato va gunoh o‘rtasidagi farqni anglash muhim. Yanada muhimi unga va bunisiga to‘g‘ri munosabatda bo‘lish. Sen qachon xato qilganingda, ayniqsa, bu xato tag‘in kimgadir zarar yetkazsa, buning uchun afsus qilasan. Sen o‘sha odam oldida kechirim so‘rashing mumkin. Biroq sen o‘zingni gunohkor deb his qilmasliging va bundan uyalmasliging lozim.

Mabodo sen gunoh qilsang, vijdon azobini his qilmog‘ing *kerak*. Sen buning gunoh ekanligini tan olib, Xudodan (va kimga zarar bergan bo‘lsang o‘shandan) kechirim so‘rashing, o‘z gunohing oqibatlarini to‘g‘rilamog‘ing (misol uchun, itning dumini davolash haqqini to‘lash!) va kelajakda to‘g‘ri yo‘l tutishga qaror qilmog‘ing lozim.

Xudo sening hech qachon xato qilmasligingni kutmaydi, lekin senga gunohdan nari bo‘lishni buyuradi (va buni bajarishingga yordam beradi).

MULOHAZA QILGIN: Xato va noto‘g‘ri tanlov o‘rtasidagi farq haqida mulohaza yurit. Agar sen beixtiyor adashganingda yoki gunoh qilganingda o‘zingni qanday his qilishing haqida o‘ylab ko‘r.

Hali kechirim so‘ramagan xatoliklar qilganmisan? Gunoh qilib kechirilmagan holatlaring bo‘lganmi? Mabodo sen bu savollardan birortasiga “ha” deb javob bersang, u holda xatoni to‘g‘rilash va gunoh uchun kechirim olish uchun kerakli ishni qilgin.

IBODAT: “Xudoyim, menga xato va gunoh orasidagi farqni anglashimga hamda gunohdan qochishimga yordam bergin, ayniqsa shunday bir holatlarda _____”.

29 YANVAR. CHIQISH

Kalomdan o‘qish: 1 Korinfliklar 10:12-13

Sizlar tushgan vasvasaga boshqalar ham duchor bo‘lgan. Ammo Xudo sodiqdir, U kuchingizdan ortiq vasvasaga tushishingizga yo‘l qo‘ymaydi. Vasvasaga bardosh bera olishingiz uchun kerakli paytda vasvasadan qutulish yo‘lini ham beradi (1 Korinfliklar 10:13).

– Bu qizchalar dastidan Men AQLDAN OZAMAN! – Nina yig‘lagudek bo‘lib oshxonaga kirdi. Uning onasi tushlik tayyorlayotgandi.

– Nima bo‘ldi? – deb so‘radi onasi.

– Kelgusi hafta Galyanikida kechki ziyofatimiz bor, biroq men Jamila bilan do‘stlashsam, Galya va Nadya mening ziyofatga borishimga qarshi ekanlar, – deya tushuntirdi Nina. – Jamila uzoqdan kelgan, u rus tilida unchalik yaxshi gapira olmaydi va biz kabi kiyinmaydi. Ayrim qizlar uning ustidan kulishadi, shu bois men u bilan do‘stlashishga uringandim.

– Sen juda to‘g‘ri yo‘l tutibsan, – dedi onasi piyoz to‘g‘rar ekan. – Iso ham xuddi shunday qilgan bo‘lardi.

– Lekin men ziyofatga borishni istayman! Galya sinfimizdagi eng oldi qizlardan biri, u birinchi marotaba meni chaqirmoqchi. Balki men Jamilaga shunchaki ishim ko‘p ekanligini va boshqa u bilan uchrasha olmasligimni aytarman, hech bo‘lmasa, ziyofatgacha?

– Lekin bu noto‘g‘ri bo‘lmaydimi? – deb so‘radi onasi. U Ninaga pishloq to‘g‘ragichni uzatdi.

– Shunday deb o‘ylayapman, – dedi Nina pishloqni to‘g‘rar ekan. – Nahotki Jamila bilan dugona bo‘lib qolish va Galyaning ziyofatiga borishning iloji bo‘lmasa?

– Biroq sen Galyaga yo‘l qo‘yib bersang u senga buyruq bermay qo‘yarmikan? Nahotki boshqa qizlar sen Jamila bilan qanday yo‘l tutganingni bilganlaridan so‘ng ham do‘stlashishni istasharmikan? O‘ylashimcha, pishloq bizga yetadi, bo‘lmasa sen barmoqlaringni qirib yuborishing mumkin.

Nina to‘xtab qoldi. U hatto qanday shiddat bilan ishlaganini sezmabdi ham. U bir bo‘lak qolgan pishloqni og‘ziga soldi.

– Siz haqsiz, – dedi u. – Men hattoki buning uchun e’tibordan chetda qolsam ham to‘g‘ri yo‘l tutaman.

MULOHAZA QILGIN:

Senda qachon noto‘g‘ri ish tutishga vasvasa bo‘lganida, sen odatda:

A) qanday tanlov to‘g‘ri ekanligini tushunmaysanmi?

B) tanlashni yoqtirmaysanmi?

V) tanlov haqida o‘ylamasdan, xohlaganingni qilasanmi?

Kelajakda to‘g‘ri tanlov qilishni qanday o‘rganish mumkin?

IBODAT: “Parvardigor, qachon menda yomon ish qilishim uchun vasvasa bo‘lganida to‘g‘ri tanlov qabul qilishim uchun yordam ber”.

30 YANVAR. TO‘G‘RI O‘LCHOV

Kalomdan o‘qish: Qonunlar 30:11-20

Men bugun sizlarga aytaman: “Egangiz Xudoni seving, Uning yo‘lidan yuring...Egangiz Xudoni seving, Unga quloq soling, chunki U sizning hayotingizdir (Qonunlar 30:16, 20).

TERMOMETR.

Tikuvchining o‘lchami.

Chizgich.

Tezlik o‘lchagich.

Tarozi.

Xudo.

Yuqorida qayd etilganlarda qanday umumiylik bor? Bu o‘lchash uchun asboblardir.

“Shoshmay tur-chi, – deysan sen. – Bu yerda Xudoning qanday ahamiyati bor?”

Xuddi termometr va chizgich kabi Xudo ham muayyan o‘lchamni belgilaydi. Agar sen masofani o‘lchamoqchi bo‘lsang, chizgichdan foydalanasan. Agar mashinadagi tezlikni aniqlash kerak bo‘lsa tezlik o‘lchagich lozim bo‘ladi. Agarda munosabat yoki harakatlarning to‘g‘riligini o‘lchab ko‘rmoqchi bo‘lsang, bu holda ularni Xudo qadriyatining yordami bilan amalga oshirasan.

Biror nima to‘g‘ri yoki noto‘g‘ri ekanligini bilmoqchimisan? Buni Xudo bilan taqqosla.

Mabodo hech kimga ziyon keltirmaydigan bo‘lsa yolg‘ondan foydalanish mumkinmi? Buni Xudo bilan taqqosla. U shunday degan: “ Yolg‘on gapirmang” (Levilar 19:11), buning boisi U haqiqatni qadrlaydi. U haqiqatni qadrlaydi, negaki Uning O‘zi haqiqatdir (Yuhanno 14:6).

Senga zarar keltirgan odamdan nafratlanish mumkinmi? Buni Xudo bilan taqqosla. U shunday deydi: “Bir-biringizni seving” (Yuhanno 13:34), negaki U sevgini qadrlaydi. U sevgini qadrlaydi, negaki Uning O‘zi sevgidir (Yuhanno 4:8, 16).

Kimdandir xafa bo‘lishing yaxshimi? O‘zingga tegishli bo‘lmagan narsadan foydalanishing yaxshimi? Jahlga berilish yaxshi bo‘ladimi? Boshqalar ustidan kulish to‘g‘rimikan? Kimgadir nisbatan adolatsiz bo‘lish to‘g‘rimi? Buni Xudo bilan taqqosla. U – nima yaxshiyu, nima yomonni o‘lchash uchun mezondir.

MULOHAZA QILGIN: Afsuski, ko‘pchilik odamlar shaxsiy tuyg‘ulariga, istaklariga, do‘stlarining va ota-onaning so‘zlariga, qadriyatlarga, madaniyatlarga yoki jamiyatlarga tayanib nima yaxshiyu, nima yomonligini aniqlashga urinishadi. Sen nima yaxshi ekanligini qanday aniqlaysan? O‘z tuyg‘ularinga asosanmi? Do‘stlaring gapiga suyanasanmi? Yana nimalarga asoslanasan?

IBODAT: “Xudoyim, men haqiqatdan ham o‘zimda Sening qadr-qiymatingni bilishimga yordam beradigan Kaloming borligini qadrlayman. Sen olamdagi eng yaxshi o‘lchov asbobisan”.

31 YANVAR. QIYMATI JUDA BALAND

Kalomdan o‘qish: Yeremiyo 29:11-13

Men sizlar to‘g‘ringizda tuzgan rejalarimni bilaman, deb aytmoqda Egamiz. Bu rejalarim sizlarga kulfat emas, farovonlik olib keladi, yorug‘ kelajagu umid beradi (Yeremiyo 29:11).

Sen “Narxini topgin” shousini ko‘rganmisan? Raqobatchilar ikkita ustunga taqqoslab ko‘rsatilgan narsalarning narxini aniqlashlari kerak bo‘ladi. Ko‘raylikchi, sen buni qanday uddalar ekansan.

1	Gazeta	A	$ 800000
2	Tepasi ochib-yopiladigan yangi “Mustang” mashinasi	B	$ 1500
3	Bir shisha suv	V	$ 400
4	Futbolning kechki namoyishi vaqtidagi bir daqiqalik reklama	G	$ 1,75
5	Pochta markasi	D	$ 55
6	Monitorli kompyuter, printer va SD-ROM	E	$ 25000
7	Maktab nonushtasi	J	35-50 sent
8	Xonus Vagner bilan 1910 yilgi beysbol kartochkasi	Z	$ 1,25
9	Faks apparati	I	$ 451000
10	Shifokorga borish	K	32 sent

Yuqorida qayd etilganlarning narxi juda baland bo‘lib tuyulishi mumkin, misol uchun, 451000 dollarlik beysbol kartochkasiga nima deysan? (Buyuk xokkeychi Ueyn Gretski 1991 yilda aynan shunday noyob kartochka uchun shuncha to‘lagandi.) Bu bilan taqqoslaganda pochta markasi yoki gazeta hech qancha turmaydi.

Ochig‘ini aytganda, ba’zan to‘g‘ri harakatning bahosi ham juda yuqori bo‘ladi. Gohida to‘g‘ri yo‘l tutib o‘zingni bechora his qilasan. Buning uchun haq to‘lashingga to‘g‘ri keladi. Bu hattoki hayot bilan hisoblanishi mumkin. Zero, har kim to‘g‘ri yo‘l tutishni xohlamasligiga ajablanmasa ham bo‘ladi.

Yaxshi harakatlar mashaqqatlar bilan uyg‘un ekanligiga shubha yo‘q. Ular ba’zan aqlsizdek tuyulishi ham mumkin. Biroq hattoki yaxshi yo‘l tutish og‘ir bo‘lsada, oxir-oqibat yomon ishlar yanada og‘irlik keltiradi. Natijada yomon yo‘l tutgan kishi hamisha do‘stlaridan ayriladi. U jiddiy noxushliklarga tushib qolishga tavakkal qiladi. Bu uning hayoti va ...ruhidan ayrilib qolishiga sabab bo‘ladi.

Mana, Kalomdan bugun o‘qilayotgan oyat orqali Xudo bizga nima demoqchi. U bizni bu hayotdagi har bir yaxshi ishimiz uchun mukofotlashni va’da qilmagan. Biroq, Uning amrlariga itoat etish - farog‘at keltirishni; agar hozir bo‘lmasa ham keyinchalik abadiylikda muqarrar yuz berishini va’da qilgan. Hikmatlar Kitobining 21:31 da shunday deyilgan: “To‘g‘rilik va sadoqat payida bo‘lganlar uzoq umr, solihlik va shon-shuhratga erishadi”.

MULOHAZA QILGIN: Sen yuqori to‘lov qilishingga to‘g‘ri kelgan taqdirda ham adolatli yo‘l tutgan paytlaring bo‘lganmi? Shunday qilganingdan xursandmisan? Agar o‘tmishga qayta olsang, qanday yo‘l tutgan bo‘larding?

IBODAT: “Xudoyim, men to‘g‘ri yo‘l tutishimga yordam ber, xattoki menga juda og‘ir bo‘lgan vaqtlarda ham_____”.

1 FEVRAL. MISHA VA MASHA

Kalomdan o‘qish: Yuhanno 18:28-38

Haqiqat tarafida bo‘lgan har bir odam Menga quloq soladi (Yuhanno 18:37).

JUDA UZOQ MAMLAKATDAGI bir qishloqda Misha va Masha ismli aka singillar yashashar ekan. Kunlardan birida ular ertalab nonushtalarini o‘zlari bilan olib, uydan yugurib chiqishibdi.

- Qayoqqa ketayapsizlar? - deb so‘rabdi ularning onasi.

- Biz shohni ko‘rib kelmoqchimiz! - debdi ular va tepalikda joylashgan shoh saroyini ko‘rsatishibdi.

- Nima ham derdim, bu yaxshi gap - deb, jilmayibdi ona. Faqat tushlik uchun uyga qaytib kelinglar.

Misha va Masha kulishibdi. Ular shoh va uning a’yonlari bilan saroyda tushlik qilishmoqchi edi. Bolalar tez orada ko‘l bo‘yida kir yuvadigan ayolni uchratishibdi.

- Marhamat qilib aytingchi - deya bolalar unga murojaat qilishibdi, - shohni qanday topishimiz mumkin?

Kampir hayron bo‘lib ularga qarabdi:

- Nima balo, hazillashayapsizlarmi? - g‘o‘ldirabdi u. - Bu axir ertak! Hech qanday shoh yo‘q! Qani, jo‘nab qolinglarchi bu yerdan!

Biroq aka va singil o‘z yo‘llarida davom etishibdi. Ular endi katta bir cho‘chqani olib ketayotgan erkakni uchratishibdi.

- Marhamat qilib aytingchi, - deya so‘rashibdi ular, - shohni qanday topishimiz mumkin?

- Buning iloji yo‘q, har bir kishining o‘zi bo‘ysunadigan shohi bo‘ladi. Kimdir uchun bu zamonaviy xonanda, boshqa birov uchun esa puldir. Har kimning o‘z podshohi, o‘z Xudosi bor.

Misha va Masha umidlarini yo‘qota boshlashibdi, ularning ruhi tushib, oldilariga yaqinlashgan bir kishini darrov sezmay qolishibdi. U oq mo‘ynali to‘q qizil rangli uzun rido kiyib olgandi. Uning o‘ng qo‘lida shohona hassa, boshida qimmatbaho toshlar bilan oltin toj bo‘lib ko‘kragida esa “Shoh” deb yozilgan nishon osilgandi.

- Marhamat qilib aytingchi, - deya so‘rashibdi, Misha va Masha, - biz shohni qanday topishimiz mumkin?

O‘sha odam jilmayibdi:

- O‘sha shoh menman.

Bolalar endi unga yanada diqqat bilan tikilishibdi. Ular shoh aynan qanday ko‘rinishda bo‘lishi kerakligi haqida uzoq bahslashishibdi. Agar u saroydagi taxtda o‘tirganida bu boshqa gap edi.

- Yo‘q, aslida boshqacha, - deya turib olishibdi ular. - Bizga shoh yo‘q deb aytishdi.

O‘sha odam ko‘kragidagi nishonga ishora qilibdi.

- Ko‘rayapsizlarmi? - deb u boshidagi tojni ko‘rsatibdi va hassasini silkitibdi. - Men haqiqatdan ham shohman!

Misha Mashaga o‘girilibdi.

- Uyga ketamiz - debdi u. - Shoh boshqacha bo‘lishi kerak!

Bolalar boshlarini g‘amgin holda quyi solgancha, o‘zini shoh deb atagan odamdan nari ketishibdi.

MULOHAZA QILGIN: O‘z ko‘rganlariga emas, kattalarga ko‘proq ishongan bolalarning adashganligi o‘zgacha vaziyatdagi Pilat adashganligini Muqaddas Kitobdan o‘qilayotgan bugungi parchada nimasi bilan yodga olinadi? Kir yuvadigan ayolning va cho‘chqasi bor odamning javobi ayrim kishilarning bugungi kunda Haqiqatga, Xudoga, ezgulikka va yovuzlikka nisbatan munosabatlari bilan qay tariqa o‘xshash? Sening munosabating qanday?

IBODAT: “Xudoyim Iso, Sen mening shohimsan. Sen yo‘l, haqiqat va hayotsan. Seni topishimga, Senga itoat qilishimga va Sen uchun yashashimga yordam ber”.

2 FEVRAL. IKKITA MUVAFFAQIYATSIZ TO‘P OSHIRISH

Kalomdan o‘qish: Yoqub 4:11-12

Ammo faqatgina Xudo qonun chiqarib, hukm qila oladi. Faqat U qutqarish va nobud qilish qudratiga ega (Yoqub 4:12).

SEN – TENNISCHI. Seni nihoyatda muhim musobaqada hal qiluvchi o‘yin kutmoqda. Bu o‘yin katta ahamiyatga ega; raqibingni yengsang chempion bo‘lasan. Sen to‘pni havoga otib, bor kuching bilan uni urasan, biroq – u raqibning boshi ustidan uchib o‘tib, tennis korti tashqarisidagi o‘tloqqa borib tushadi.

– Ikkinchi oshirma, – deb e’lon qilishadi senga.

Senda yana bir imkon bor. Sen to‘pni osmonga otib, kuch bilan urasan. Bu safar u to‘rga borib uriladi va kortning sen turgan tarafiga tushadi.

Sen ikkinchi xatoni qilding. Tashvishlangan holda bosh chayqab, uchinchi oshirmaga tayyorlanasan. Biroq, senga oshirmani uzatish huquqi raqibga o‘tganligini e’lon qilishadi. Sen g‘azab bilan hakamga tashlanasan.

– Bunday bo‘lishi mumkin emas! – deya qichqirasan. – Men yana to‘pni o‘zim oshirmoqchiman!

Sen raketkani yerga uloqtirib har doim ikkita emas, balki uchta to‘p oshirish kerakligini aytib turaverasan. Sen tennisda besh yildan buyon o‘ynayotganingni aytib baqirasan.

– Men qanday o‘ynashim kerakligini o‘rgatishga haqqingiz yo‘q! – deb qichqirasan. – Nima qilishim kerakligini o‘zim bilaman. – So‘ngra esa jahl bilan qo‘l silkib, kortdan chiqib ketasan.

Albatta, sen o‘zingni yaxshi tutmading. Axir sen bunday janjalkash emassan-ku, to‘g‘rimi? Bundan tashqari, ikkita muvaffaqiyatsiz oshirmadan so‘ng to‘pni oshirish huquqi raqibga o‘tishini hamma biladi. Qoida shunday. Bu o‘yinda hamma shunday o‘ynaydi.

Hayratlanarli jihati shuki, ko‘pchilik odamlar ezgulik va yovuzlikni boshqacha qabul qilishadi. Ular o‘z kayfiyatlari va vaziyatlariga qarab o‘z qoidalarini tuzishlari mumkin deb o‘ylashadi. Biroq ezgulik va yovuzlikning qoidalari xuddi tennis qoidasi kabi oddiy. Hamma o‘g‘irlik yomonligini, halollik esa yaxshi ekanligini biladi; bag‘ritoshlik bu yovuzlik, mehribonlik esa ezgulikdir; nafrat yomon, sevgi esa to‘g‘ridir. Qoidalar shunaqa. Muqaddas Kitobda ham shunday deb yozilgan: “Xudoning qonunini hukm qilgan odam esa, qonun bajarishdan bosh tortib, o‘zini qonundan ustun qo‘ygan qoziday bo‘ladi. Ammo faqatgina Xudo qonun chiqarib, hukm qila oladi. Faqat U qutqarish va nobud qilish qudratiga ega” (Yoqub 4:11–12).

Albatta, dunyoda toki ezgulik va yovuzlik bor ekan, odamlar o‘z shaxsiy qoidalarini o‘ylab topaverishadi. Biroq sen bunday emassan. Sen o‘zingni bunday tutmasliging uchun nihoyatda aqllisan, to‘g‘rimi?

MULOHAZA QILGIN: Agar tennisda hamma o‘zining qoidalarini kiritsa qiziqroq bo‘ladi deb hisoblaysanmi? Nega? Mabodo biz Xudoning qoidalariga amal qilsak, hayot yanada qiziqarliroq bo‘larmidi? Nima uchun?

IBODAT: “Yaratuvchi Xudo, Sen mendan ko‘ra nihoyatda donosan. Sening qoidalaringdan shubhalanganim uchun meni kechirgin, ya’ni, _____”.

3 FEVRAL. HALOL O‘YIN

Kalomdan o‘qish: Matto 7:12

Odamlar sizlarga nima qilishlarini istasangiz, sizlar ham ularga o‘shani qilinglar (Matto 7:12)

XX asrning mashhur adibi britaniyalik KLAYV STEYPLZ LYUIS “Narniya solnomasi” asarini yozgan. Ehtimol, siz bu asarni o‘qigandirsiz. Unda sehrli javon orqali Narniya saltanatiga o‘tishgan Piter, Edmund, Syuzen va Lyusilarning sarguzashtlari bayon etilgan. Lyuis, shuningdek, Perelandra nomli sayyora haqidagi bir qator ilmiy fantastik asarlar ham yozgan. U shuningdek, shayton malaylari Balamut va Gnusik o‘rtasidagi o‘zaro yozishmalarni ham qalamga tushirgan.

Lyuisning ko‘pchilikka ma’lum asarlaridan yana biri “Shunchaki masihiylik”dir. U bu asarida halol o‘yin haqida ko‘p gapiradi. U shunday deb yozadi:

> “Biz hammamiz odamlar qanday janjal qilishlarini bilamiz. Ba’zan bu g‘alati tuyuladi, ba’zan esa shunchaki yoqmaydi, bu qanday ko‘rinmasin, mening o‘ylashimcha, ularning gaplarini eshitib juda muhim nimanidir o‘rganib olishimiz mumkin. Ular go‘yoki shunday deyishadi: “Sen bilan boshqa birov xuddi shunday qilganida senga yoqarmidi?” – “Bu mening joyim, men birinchi bo‘lib keldim” – “Uni o‘z holiga qo‘y, u senga hech qanday yomonlik qilmayapti”. – “Nega sen birinchi bo‘lib o‘tishing kerak ekan?” – “Sen apelsiningdan bir bo‘lak bergin, shunda men senga o‘zimnikidan bir palla beraman”. – “Xo‘sh, bo‘laqol, axir va’da bergansan”. Odamlar, ya’ni ma’lumotlilar va savodsizlar, bolalar va kattalar bu tariqa gaplarni har kuni aytishadi.
>
> Meni barcha bu e’tirozlarda qiziqtirgan jihati shundaki, shikoyat qilayotgan odam boshqa birovning hulq-atvorida nimadir unga yoqmayotganini shunchaki bildirib qo‘ya qolmaydi. U qandaydir hulq-atvor mezoniga da’vat etadiki, u o‘zi kutganidek, boshqa odam shuni bilishi lozim... Go‘yoki ikkala taraf ham qandaydir halol o‘yin Qonunini yoki munosib muomalani, hulq-atvorni nazarda tutishmoqda, buni qanday atamang ikkala tomon ham rozi bo‘lishadi. Va bu chindan ham shunday. Agar shunday bo‘lmasa, ular xuddi hayvonga o‘xshab urishishlari mumkin, biroq inson ongi tushunadigan tarzda *janjal* qilishmaydi. Janjal – bu, boshqa odam nohaq ekanligini ko‘rsatishga bo‘lgan urinishdir. Agar sizda u bilan nima yaxshiyu, nima yomon ekanligi borasida qandaydir kelishmovchilik bo‘lmaganida, buni qilishning hech qanday ma’nosi bo‘lmasdi...
>
> Shu tariqa, biz Ezgulik va Yovuzlik mavjud ekanligiga ishonishga majbur ekanligimiz haqidagi tasavvur hosil bo‘ladi. Odamlar bu masalada xuddi hisobda adashganlari kabi adashishlari mumkin; lekin bunday ta’b va fikrlash masalasi ko‘paytirish jadvalidan ustun darajada emas” (qarang: K.S.Lyuis. Prosto xristianstvo. Lyubov: sobr. soch. v 8 t. T.1. SPB: Bibliya dlya vsex. 2004, s. 21-22).

MULOHAZA QILGIN: Mabodo K.S.Lyuis sen o‘qiydigan maktabingga borganida adolatga undaydigan qanday jumlalarni o‘sha yerda eshitgan bo‘lardi?

IBODAT: “Menga nisbatan halol yo‘l tutganlarida xursand bo‘laman. Bu haftada boshqalar bilan ham shunday munosabatda bo‘lishim uchun yordam ber”.

4 FEVRAL. G‘AYRIODDIY QOBILIYATLAR

Kalomdan o‘qish: Qonunlar 32:1-4

Egamizning nomini ulug‘layman! U suyangan Qoyam, Uning ishlari komil, Hamma yo‘llari adolatlidir, Xudo sadoqatlidir, Unda yolg‘on yo‘q, U haq va odildir (Qonunlar 32:3-4)

SENINGCHA, Supermen va Betmen tasodifan superqahramonlar bo‘lib qolishganmi? Ular ertalab yoping‘ich yoki kombinezonda kiyimida uyg‘onishganmi? Yo‘q, janob. Xuddi barcha superqahramonlar bilan bo‘lgani singari ular ham superqahramon bo‘lish uchun test va tayyorgarlikdan o‘tishgan. *Sen* ham ular kabi bo‘lishni istaysanmi? Ko‘raylikchi, sen bunga yararmikansan!

1. Agar sen superqahramon bo‘lishni istasang, kimga aylanib qolishni afzal ko‘rasan:
   - □ Supermen
   - □ Jin
   - □ Betmen
   - □ Ko‘rinmas odam
   - □ O‘rgimchak odam
   - □ yoki _____
2. Agar sen g‘ayrioddiy qobiliyatni tanlay olsang, qaysi birini tanlagan bo‘larding:
   - □ uchish xususiyatini
   - □ o‘rgimchak to‘ri yasashni
   - □ g‘ayrioddiy kuchni
   - □ katta yoki kichkina bo‘lib qolish xususiyatini
   - □ ko‘rinmas odam bo‘lib qolish xususiyatini
   - □ yoki _____
3. Agar senda superqobiliyat paydo bo‘lsa, sen:
   - □ baxtiqaro va jabrdiydalarni himoya qilgan bo‘larding
   - □ yaxshilik qilgan holda olamni kezgan bo‘larding
   - □ o‘z qobiliyatingdan foydalangan holda ko‘proq pul o‘g‘irlab, dunyodagi eng boy odam bo‘lishga harakat qilgan bo‘larding
   - □ mashhurlikka erishgan bo‘larding
   - □ haqiqat va adolat uchun kurashgan bo‘larding
   - □ maktabdagi tushlik yanada mazali bo‘lishini talab qilgan bo‘larding
   - □ yoki _____

Endi esa to‘ldirilgan testni XR37 sayyorasiga jo‘nating va javobni kuting.

Aslini olganda, superqahramon uchun bizning testimiz sen o‘qiydigan keyingi bir komiks kabi seni bunchalik kuldirmaydi, biroq biror nimani tushunib olishingga yordam beradi. Xuddi shuningdek, Xudoning superqobiliyati – va undan qanday foydalanayotgani – U haqida yana nimanidir tushunishga yordam beradi. U adolatni o‘rnatish uchun O‘z kuchidan foydalanadi, negaki U adolatli va halol. U halol ekan, demak halol bo‘lish – hamisha to‘g‘ri.

MULOHAZA QILGIN: Senda g‘ayrioddiy qobiliyatlar yo‘q, ammo o‘zingda bor bo‘lgan layoqat (misol uchun, aql yoki jismoniy kuch)dan qanday foydalanayapsan? Biror yaxshi ish qilayapsanmi (misol uchun, adolat o‘rnatilishiga erishayapsanmi?) Yoki o‘z layoqatingni faqat xudbin maqsadlaring yo‘lida ishlatayapsanmi? Bu “kuch”dan foydalanishda sening qanday fe’l-atvoring namoyon bo‘ladi?

IBODAT: “Muqaddas Kitobdan bugun o‘qiladigan oyatlarga asosan o‘z ibodatingni tuzgin. (Misol uchun, “Xudoyim, Senga hamdu sanolar bo‘lsin! Sen mening qo‘rg‘onimsan”).

5 FEVRAL. ADOLAT NIMA UCHUN TO‘G‘RI?

Kalomdan o‘qish: Ishayo 45:18-23

Men Egangiz emasmi? Mendan boshqa Xudo yo‘q! Men odil Xudoman, qutqaruvchiman! ...Ha, Men Xudoman, boshqasi yo‘q (Ishayo 45:21-22).

Mabodo, akang yoki singling qilgan qandaydir nomaqbul ishi uchun onang seni ayblasa, o‘zingni QANDAY HIS QILGAN BO‘LARDING?

Agar oshxonada o‘n daqiqadan buyon navbatda turganingda, oldingdagi qiz yoniga uch nafar dugonasini chaqirib olsa, nima qilasan?

Mabodo o‘qituvchi “to‘liqsiz javob” uchun sening bahoingni pasaytirsayu, Vasya Ivanovga esa xuddi shunday javob uchun yuqori baho qo‘ysa qanday yo‘l tutgan bo‘larding?

Agar sen ko‘pchilikka o‘xshagan odam bo‘lsang, shunday deyishing tayin: “Shoshmang! Bu axir adolatsizlik!”

Har bir odam o‘z shaxsiy hissiyotlari orqali adolat yaxshiyu, adolatsizlik yomon ekanligini his etadi. Biroq nima uchun shunday? Nega adolat – yaxshi?

Ko‘pchilik odamlar bunga shunday javob qaytarishadi: “Negaki, Muqaddas Kitobda shunday deyilgan”. Ular qay bir ma’noda haqlar: Muqaddas Kitobda haqiqatdan ham shunday qoidalar bor: “Zaif, yetimlarga adolat ko‘rsating, mazlum, qashshoqlarning haqini himoya qiling (Zabur 81:3); “Ularga nima tegishli bo‘lsa, shuni bering” (Rimliklarga 13:7); “Ey xo‘jayinlar, ...qullaringizga odil va to‘g‘ri muomala qiling” (Kolosaliklarga 4:1). Musoning qonunlarida ajnabiylar va musofirlarga adolat yuzasidan munosabatda bo‘lish kerakligi, yetim va bevalarga, hatto dushmanlarning adashib qolgan mollariga ham g‘amxo‘rlik qilish lozimligi haqida batafsil ko‘rsatma berilgan. Bu

amrlarning umumiy mohiyati “oltin qoidalar”da berilgan: “Odamlar sizlarga nima qilishlarini istasangiz, sizlar ham ularga o‘shani qilinglar” (Matto 7:12).

Biroq bu amrlar nima qilish kerak yoki nima qilmaslik kerakligi haqidagi shunchaki ro‘yxat emas; ular Xudoning adolatni qadrlashini ko‘rsatadi. Ammo nima uchun Xudo adolatni qadrlaydi? Negaki U adolatlidir.

Ko‘rayapsanmi, faqat Xudo shunday buyurgani uchungina adolat ezgulik emas, hatto Xudo haqiqatni qadrlagani uchun ham emas; bu Xudoning fazilatini aks ettirgani uchun ham odilonadir. Bu Xudo shunday qilayotgani uchungina haqqoniylik emas; aslida Xudoning O‘zi haqqoniylikdir. Pavlus Xudoning adolatli ekanini yozgandi (2 Salonikaliklar 1:6). Muso shunday deb kuylagan: “Uning... hamma yo‘llari adolatlidir” (Qonunlar 32:4).

Xo‘sh, nima uchun biz adolatli bo‘lishimiz kerak? Faqatgina onamiz, do‘stlarimiz va qavmboshimiz shunday deb gapirgani uchungina emas. Biz adolatli bo‘lishimiz lozim, negaki adolat Xudoning O‘zligini aks ettiradi. Atrofdagilarga adolatli munosabatda bo‘lish har bir kishi uchun hamisha va har qanday joyda to‘g‘ridir.

MULOHAZA QILGIN: Sen odamlarning shunday deb gapirganlarini eshitgandirsan: “Hayot adolatsiz”. Hayotda biz murosa qilishimiz zarur bo‘lgan qanaqadir adolatsizlik bormi? Agar bor bo‘lsa, u qanday?

IBODAT: “Xudoyim, Sening barcha qilayotganlaring adolatlidir. Hayotda hamma narsa doimo adolatni anglatmasligini bilaman. Biroq, bu men doimo adolatli bo‘lishim kerakligini bildiradi, negaki men xuddi Sen kabi bo‘lmoqchiman”.

6 FEVRAL. BILGIN VA BUNI KO‘RSATGIN

Kalomdan o‘qish: Mixo 6:1-8

Ey inson, nima yaxshi ekanligini Egamiz senga ayon qildi. Shudir Uning sendan qilgan talabi: adolatli ish tutgin, mehr-shafqat qilishdan zavq olgin, kamtar bo‘lib, Xudoning yo‘lidan yurgin (Mixo 6:8).

Sen o‘n olti yosh to‘lganingda haydovchilik guvohnomasini olgach, mashina haydashni istamay qolganingni TASAVVUR QIL.

Tasavvur qilgin, sen lug‘atni o‘rganib, hayotingda biror so‘zni ham o‘qib ko‘rmading.

Garchi senda shamollashga qarshi dori bo‘lsa ham, uni ichmay aksirishga va yo‘talishga qaror qilganingni tasavvur etgin.

Nega biz o‘zimizni shunday tutamiz? Biroq biz hamisha, ayniqsa to‘g‘ri va noto‘g‘ri yo‘l tanlash vaqti kelganida o‘zimizni shunday tutamiz.

Misol uchun, biz adolat ezgulik ekanligini, adolatsizlik esa yomon ekanligini bilamiz. Lekin biz hamisha ham adolat yuzasidan ish ko‘rmaymiz, to‘g‘rimi? Biz buni bilishimiz mumkin, ammo hamisha ham buni ko‘rsatavermaymiz. Biz navbatsiz suqilib kirishga urinamiz. Biz ayrim odamlarga boshqalarga nisbatan yaxshiroq munosabatda bo‘lamiz. Biz qulay vaziyatda bo‘lishni istaymiz. Biz boshqalarni ayblaymiz yoki vaziyatni yetarli darajada tahlil qilmay turib ularni yoqtirmasligimizni o‘zlariga aytamiz.

Biroq agarda biz adolatsizlik bilan ish ko‘rish yomon ekanligini bilsak, nega biz baribir shunday qilamiz?

Buning bir boisi, biz hammamiz gunohkorlarmiz. Biz yaxshilikka emas, balki yomonlik tomon og‘ishga moyilmiz.

Bundan tashqari, adolatsizlik ba’zan bizga foydali tuyulgani uchun ham o‘zimizni shunday tutamiz (Axir kim ham oshxonada uzoq navbat kutishni xohlaydi?)

Va bizning adolatsiz yo‘l tutishimizning uchinchi sababi shuki, biz ongli ravishda o‘zimizni boshqacha tutish lozimligini qabul qilganimiz yo‘q. Holbuki adolatsiz yo‘l tutishimiz tabiiy (bu bizning gunohkor tabiatimiz bois), agar biz Xudoning yo‘liga rioya etmaslikka qaror qilsak va o‘z tabiatimizga ko‘ra ish tutsak shunday qilishni afzal deb bilamiz.

MULOHAZA QILGIN: Nima to‘g‘riligini *bilish* va aynan shunday *yo‘l tutish* boshqa-boshqa masaladir. Ba’zan biz nima yaxshiligiga ishonch hosil qilmay turib yomon ish tutamiz. Boshqa safar esa yaxshi nima ekanligini bilamiz, ammo baribir yomonlikka qo‘l uramiz. Sen uchun eng katta muammo nimada: nima yaxshiligini *bilishmi* yoki yaxshi *yo‘l tutishmi*?

IBODAT: “Xudoyim, men Senga bo‘ysunaman. Men o‘zimda noo‘rin ish tutishga istak bo‘lganida, odil yo‘l tutishni istayman. Menga yordam ber, ayniqsa _____”.

7 FEVRAL. MARIYANING XATOSI

Kalomdan o‘qish: Zabur 111:1-9

Elga muruvvat qilib qarz beruvchi, insof ila ish boshqaruvchi odam baxtiyordir. Solih to abad tebranmagay, mangu bo‘lgay uning xotirasi (Zabur 111:5-6).

VIKTOR PETROVICH oynaga qarab, bo‘yinbog‘ini to‘g‘riladi.

– Bugun kechqurun kim bolalar bilan o‘tiradi? – deb so‘radi u. U xotini bilan do‘stining uyiga tug‘ilgan kunni nishonlash uchun bormoqchi edi.

– Bir tanishim bunga rozi bo‘ldi, – javob qaytardi xotini. – Biroq uzoq izlashimga to‘g‘ri keldi. Men endi topolmasam kerak, deb ham o‘ylagandim.

– Qo‘shni uydagi Mariyaga nima bo‘lgan? – deb so‘radi Viktor Petrovich. – Men uni anchadan buyon ko‘rmayapman, u avvallari bolalarimizga qarab o‘tirardi.

Xotin erining oldiga kelib uning sochlarini siypaladi:

– Oxirgi ikki marotaba u mendan katta haq so‘radi; bu Sidorovlar unga to‘laydigan pulga nisbatan ikki barobar ko‘proq, – dedi ayol yelkasini qisib va soch turmagini yoyib yubordi. – Men uni boshqa chaqirmaydigan bo‘ldim.

Shu tariqa, Mariya doimiy ishi enagalikdan nega ayrilib qolganini bilmadi. U o‘zining noo‘rin yo‘l tutgani uchun uni endi chaqirmasliklaridan bexabar qoldi.

Ko‘rayapsanki, Xudo hayotimizni quvonchdan mahrum etish yoki azobga aylantirish uchun bizga amrlarni bermagan. Xudo bizga malol kelishi uchun adolatli bo‘lishimizni buyurmagan; U bu amrlarni xuddi boshqalari kabi bizni himoya qilish va biz haqimizda g‘amxo‘rlik qilish maqsadida bergan. Uning boshqalarga nisbatan adolatli bo‘lishimiz lozimligi haqidagi amrlari bizni noinsoflik va umidsizlikdan asrab, shon-sharaf va muvaffaqiyat keltiradi.

Misol uchun, Mariya haqida o‘ylagin: agar u juda ko‘p, ya’ni Sidorovlar to‘lagani kabi boshqalardan ham shuncha haq so‘raganida enagalik ishini yo‘qotmagan bo‘lardi.

MULOHAZA QILGIN: Sen yoki ota-onang do‘konga (oziq ovqat yoki boshqasiga) yoxud boshqa joyga (dorixonaga, shifokorga yoki ustaga) sizlarni aldashgani yoki noo‘rin munosabatda bo‘lganlari uchun bormay qo‘ygansizlarmi? Agar shunday bo‘lsa, o‘sha odam bunday yo‘l tutish o‘ziga zarar keltirishini tushunib olgan, deb o‘ylaysanmi?

Xudoning amrlariga itoat etgan holda barcha masalada adolatli yo‘l tutib, sen o‘zingni nafratomuz munosabatlardan himoya qilasan va o‘zingga nisbatan hurmat uyg‘otasan. Bu esa odamlar sening halolligingni hamisha qadrlab tan olishadi, degani emas; biroq bu, vaqti kelib sen taqdirlanasan va hurmat ortirasan, deganidir.

IBODAT: “Parvardigor, kimdir menga adolatsizlik qilmagunicha men adolat haqida doim ham o‘ylamayman. Hayotda hamisha halol bo‘lishim uchun menga yordam ber”.

8 FEVRAL. XETFILDLAR VA MAKKOYLAR

Kalomdan o‘qish: Qonunlar 16:18-20

Adolatga, faqat adolatga ergashing. Shunda yashaysizlar, Egangiz Xudo beradigan yurtga egalik qilasizlar (Qonunlar 16:20).

Bu nima sababdan boshlanganini HECH KIM BILMAYDI.

Balki Jetro Xetfild Ebner Makkoyning echkisini olib qochgandir. Ehtimol, Klem Makkoy Betti Jo Xetfild oldida bosh kiyimini yechmagandir. Yoki Xomer Xetfild Maylo Makkoyni Sharqiy Kentukkidagi otlar poygasida chuv tushirgandir.

Bu qanday boshlangani muhim emas, biroq sharqiy Kentukkining Appalachi hududidagi Xetfild va Makkoylar avlodlari o‘rtasidagi ma’lum “vendetta” an’anasi, ya’ni qonga qon bilan o‘ch olishi uzoq vaqt davom etgan. 1860 yildan toki 1890 yilgacha, ya’ni o‘ttiz yil mobaynida ikkala tarafdan yigirmadan ko‘proq odam o‘ldirilgan. Dushmanlik barham topgan paytda esa bu qonli qasos olishlar nimadan boshlanganini hech kim eslay olmagan.

Xetfildlar va Makkoylar o‘rtasidagi fojiali nifoq Xudoning amrlari bizni himoya qilish uchun yaratilganini yana bir bora tasdiqlaydi. Qarangki, Xudo ilk marotaba Sinay tog‘ida O‘z xalqiga o‘nta amrini berganida, Xetfild va Makkoylar o‘rtasidagi janjallar juda ko‘p bo‘lgan. Bir kishiga nisbatan bo‘lgan nohaqlik uchun uning butun oilasi o‘ch olgan, o‘zaro shafqatsiz va qonli qirg‘inbarotlar bo‘lgan. Agar Aviv Ibrohimni o‘ziga sotgan aynigan echki pishlog‘i uchun ayblagan bo‘lsa, Ibrohim javob tariqasida Avivning butun podasini so‘yib tashlashi mumkin edi. Mabodo Gadning xo‘kizi Lavanning o‘g‘lini suzib o‘ldirgan bo‘lsa, Lavan tunda Gadning qo‘rg‘oniga hujum qilib uning oilasidagi barcha erkaklarni o‘ldirishi mumkin edi.

Xudo O‘z xalqiga amrlarni boshqalar bilan adolatli yo‘l tutishlari uchun, shuningdek, bu amrlar Xudo qanaqa ekanligini tushunishlariga yordam berishi uchun, ularni o‘ch olishdan saqlashi va yaxshi munosabatlar o‘rnatishlariga imkon yaratishi uchun bergan. Xudoning amrlari xalqni beto‘xtov jinoyatlardan, qayg‘u va qasoskorlikdan himoya qilgan.

Agar biz odil ish ko‘rsak, bu hammamizni himoya qiladi. Boshqalarga nisbatan halol munosabat bizga tinchlik beradi, mahkum etadigan qasosdan asraydi. Murabbiy o‘z shogirdlariga haqqoniy bo‘lganida, shogirdlar uni hurmat qilib yaxshi o‘qishadi. Ish beruvchi esa ishchilariga odil munosabatda bo‘lsa, ishchilar ham halol ishlashadi.

Xudoning adolat borasidagi g‘amxo‘rligi Uning fe’l-atvorini va tabiatini, shuningdek, Uning bizga bo‘lgan sevgisini aks ettiradi: U biladiki, biz odamlar bilan odilona ish tutganimizda o‘zimizni himoyalagan va o‘zimiz haqimizda g‘amxo‘rlik qilgan bo‘lamiz.

MULOHAZA QILGIN: Balki, sen qachonlardir birorta bilan odilona yo‘l tutganingda Xudoning himoyasi va g‘amxo‘rligini his qilgandirsan? Sen alam va qasosdan voz kechib o‘zingni adolatli tarzda tutgan

vaziyatni eslay olasanmi? Sen kimdir birovdan qasos olayotganini ko‘rganmisan (misol uchun, maktabda), bu vaqtda esa odilona ish ko‘rib bu vaziyatdan chiqib ketishning imkoni bo‘lganmi?

IBODAT: “Xudoyim, Senga himoyang va g‘amxo‘rliging uchun rahmat. Menga boshqalar bilan hatto bu og‘ir bo‘lganida ham, agar men boshqacha ish ko‘rishni juda istagan paytimda ham odilona yo‘l tutishimga yordam ber”.

9 FEVRAL. YASHIRILGAN XAZINA

Kalomdan o‘qish: Hikmatlar 2:6-11

Chunki donolikni Egamiz beradi, bilim va idrok Uning og‘zidan chiqadi, Egamiz to‘g‘ri odamni eson-omon saqlaydi, to‘g‘ri yuradiganga O‘zi qalqon bo‘ladi, adolatli insonni himoya qiladi, Unga sodiq bo‘lganning yo‘lini qo‘riqlaydi (Hikmatlar 2:6-8).

SEN TUSH KO‘RAYAPSAN. Nima uchun ekanligi noma’lum, ammo buning tush ekanligini bilasan. Tushingda go‘yo sen yetti yoshdasan-u, Xudo esa jinsi matoli shim va “Reebok” krossovkasini kiygan holda qarshingda turibdi. Xudo sendan nimani istashingni so‘rayapti va xohishingni bajarishga va’da berayapti.

Sen boy bo‘lishni istaysanmi? Albatta, buni kim ham istamagan bo‘lardi?

So‘ngra esa, deylik, keyingi tushingda ellik yoshdasan. Boy emassan. Xudo garchi va’da bergan bo‘lsada, va’dasini amalga oshirmagani uchun sen qattiq ta’sirlangan holda turibsan.

– Men axir boylik so‘ragan edim! – deya Xudoga arz qilasan.

– Ammo senga boylik berdim-ku, – deya yumshoq ohangda e’tiroz bildiradi Xudo.

– Hech ham unaqa emas! – deb qarshilik qilasan sen. Sen cho‘ntaklaringni chiqarib ko‘rsatasan, unda esa faqat mayda tangalar bor.

– Men senga adolat bilan ish ko‘rish, mehr-shafqatni ulug‘lash, totuvlikda yashash va Xudoga itoat qilish to‘g‘risidagi amrni berganimni eslaysanmi? Men senga adolatni sevish va boshqalar senga qanday munosabatda bo‘lishlarini istasang, sen ham ularga shunday munosabatda bo‘lishing lozimligini aytganimni eslaysanmi?

– Ha, eslayman, – deb aytasan boshingni qimirlatib.

– Axir mana shuning o‘zi katta bir boylik-ku, – deydi Xudo.

– Nima? – deb so‘raysan. – Nimani nazarda tutayapsan?

– Qaragin, – deydi Xudo, – Men senga bir misol keltiraman. Sen bu amrlarga amal qilib, odamlarni aldamaydigan bo‘lding, ular bilan adolatsiz munosabat qilmading, to‘g‘rimi?

– Shunday, – javob qaytarasan sen. – Umid qilamanki, bu shunday.

– Demak, sen aybdorlik hissidan qutulish uchun ruhshunosga to‘laydigan pulingni tejab qolibsan. Mabodo Mening amrlarimni bajarmagan taqdiringda ovqatni yaxshi hazm qilishing uchun senga kerak bo‘ladigan uyqu dorilariga sarf bo‘ladigan xarajatlar haqida-ku gapirmayapman.

– Bu ajoyib-ku! – deysan darrov o‘zingni tiyib. – Men hech qachon bu haqda o‘ylab ko‘rmagandim.

– Ko‘rayapsanmi, – deydi Xudo kalkulyatorini shimining cho‘ntagiga solib. – Men rostdan ham sening xohishingni bajardim. Men seni badavlat qildim va bu hammasi emas.

Ana shunda buning tush ekanligini yodingga tushadi, negaki haqiqiy hayotda Xudo jinsi shim kiymaydi – yoki baribir kiyadimi?

MULOHAZA QILGIN: Nima deb o‘ylaysan, Xudoning amrlarini bajarish nima uchun bizni gunoh hissidan asrab, toza vijdon bilan yashashga imkon beradi?

IBODAT: “Xudoyim, ba’zan men o‘zim uchun yaxshi bo‘lmagan ishlarni qilgim keladi. Bunga yo‘l qo‘ymaganliging uchun Senga rahmat. Menga bugun ham donolik boyligini yubor, toki men _____”.

10 FEVRAL. MUTLAQ HAQIQAT

Kalomdan o‘qish: Ibtido 2:1-17

Sen bog‘dagi hamma daraxtning mevasidan bemalol yeyaver. Lekin yaxshilik va yomonlikni bilish daraxtining mevasidan yemaysan (Ibtido 2:16-17).

1. MUZQAYMOQNING QAYSI XILI mazaliroq?

shokoladli	qulupnayli	vanilli
yong‘oqli	plombir	vafelli

2. Kimni buyuk futbolchi deb aytish mumkin?

Maradona	Zidan	Ronaldo
Badjo	Yashin	Kerjakov

3. Bulardan qaysi biri yomon?

go‘sht yeyish	o‘pishish	yolg‘on gapirish
kuylash	uxlash	suv chang‘isida sayr qilish

Ehtimol, bu savollar senga ahmoqona bo‘lib tuyulgandir. Biroq bu savollarni men tasodifan bermadim.

Ayrim odamlar 1 va 2 hamda 3 savollar o‘rtasida hech qanday farq yo‘q, deb hisoblashadi. Biroq o‘rtadagi farq – juda katta.

Birinchi savolga javob sening ta’bing bilan bog‘liq. Balki senga shokoladli muzqaymoq yoqar, singling yoki do‘sting esa olamda eng mazalisi plombir ekanini aytishadi. Kim haq? Har ikkala tomon ham, negaki bu masala har kimning o‘z ta’biga bog‘liq. Masala muzqaymoqlarga, sevimli gullarga yoki yoqimli ko‘shiqlarga borib taqalganida, hammaning ta’bi o‘zgacha bo‘ladi.

Ikkinchi savolga javob ham shaxsiy fikrga bog‘liq. Sen kimnidir barcha davrlarning va xalqlarning buyuk futbolchisi deb hisoblashing mumkin, biroq boshqa odamda o‘zgacha fikr bo‘ladi.

Biroq, uchinchi savol mutlaqo boshqa masaladir, negaki buning javobi didimizga yoki fikrimizga bog‘liq emas. U to‘g‘ri yoki noto‘g‘ri bulishi mumkin. Ko‘rayapsanki, ayrim masalalar didga bog‘liq bo‘lib, boshqalarda bu borada haqiqatga shubha tug‘dirmaydigan turlicha fikrlar bo‘lishi mumkin. Qayerda va qachon yashashlaridan qat’iy nazar, barcha odamlar uchun *mutlaq* bo‘lgan haqiqatlar bor. Sizga yoqadimi yoki yoqmaydimi, sizning fikringiz qanday bo‘lmasin bu haqiqatdir; *mutlaq* haqiqatdir.

Hozirda ayrim odamlar ezgulik va yovuzlik go‘yoki didga, shaxsiy fikrga bog‘liq ekanligini bildirishadi. Biroq Xudo O‘z Kalomida ezgulik va yovuzlik haqidagi mutlaq haqiqatni bizga ayon etgan.

MULOHAZA QILGIN: Ayrim masalalar ta’bga bog‘liq bo‘ladi, boshqalari –fikrlarga, uchinchisi – shubhadan holi bo‘lgan haqiqatga tayanadi. Sen har bir toifaga oid ikkitadan misol keltira olasanmi?

IBODAT: “Xudoyim, Sen O‘z Kalomingda mutlaq haqiqatni menga tushuntirayotganing uchun rahmat”.

11 FEVRAL. FARISHTALAR RAQSI

Kalomdan o‘qish: Matto 5:43-48

Yaqiningni sevgin, dushmaningdan nafratlan», deb aytilganini ham eshitgansizlar. Lekin Men sizlarga aytyapman: dushmanlaringizni yaxshi ko‘ringlar. Sizlarni quvg‘in qilganlar uchun ibodat qilinglar. Shunda siz osmondagi Otangizning farzandlari bo‘lasizlar (Matto 5:43-45).

Ikkita samoviy farishta RAYBANN va SOLOPLEKS tantana qilishardi.

– Ajoyib! – deb qichqirdi Raybann. U Solopleksni bag‘riga bosdi va ular samoda quvonch bilan raqsga tushdilar.

– Sen buni ko‘rdingmi? – deb hayqirdi Solopleks. – Bu nihoyatda hayratomuz!

Ular o‘girilib pastda yuz berayotgan voqealarga birgalikda qarashdi. Isroilliklar Qizil dengizning baland qirg‘og‘ida turishardi. Ular bu ozod va xavfsiz qirg‘oqqa endigina kelishgan bo‘lib, Raybann va Solopleks Xudoning buyrug‘i bilan suvni hozirgina boshqa tarafga burgan edilar. Ot-aravalar bilan ta’qib qilayotgan misr qo‘shinidan qochayotgan isroilliklar dengizning qurigan joyidan tezda o‘tib olishdi. Xudoning tanlangan xalqi narigi qirg‘oqqa muvaffaqiyatli o‘tib olishgach, Rayban va Solopleks suvni qo‘yib yuborishdi – misrliklar qo‘shini dengizga g‘arq bo‘ldi. Ikkala farishta bundan juda xursand bo‘ldilar.

Rayban va Solopleks samoga qaytishgach, Xudoning huzuriga chaqirilishdi. Ular Xudoning nurli chehrasi tund va qayg‘uli ekanligini ko‘rib hayron qolishdi.

– Nahotki Muqaddas Zot bizning yutug‘imizdan norozi bo‘lsalar? – deb so‘radi Raybann Xudoning taxti tomon engashib.

– Sizlar xursand bo‘layapsizlar, – dedi Xudo. Bu savol emasdi.

– Sening xalqing ozod bo‘ldi, ularning dushmanlari halok bo‘lishdi, – deb xabar berdi Solopleks.

Xudo ikki farishtaga tikildi va ularning kiyimlari Uning chehrasida aks etgan qayg‘udan oqarib ketdi:

– Mening qancha ijodim dengizga cho‘kib ketdi, sizlar esa xursand bo‘layapsizlar!

Ushbu voqea – ravvinlar yuz yillar mobaynida Xudoning buyuk sevgisi to‘g‘risida aytib berganlarining boshqacha talqinidir. Garchi fir’avn va uning qo‘shini Xudoning tanlangan xalqini qul qilishga – hatto o‘ldirishga – uringan bo‘lsada, Xudo ularni O‘zining barcha ijodi kabi sevgan. U O‘zining farzandlaridan ham – hattoki o‘zini tuban tutayotgan va sendan nafratlanayotganlarga – aynan shunday sevgini ko‘rsatishlari kerakligi haqida aniq tushuncha bergan. Xudo buning oson ekanligini aytmagan, biroq buning to‘g‘ri ekanligini bildirgan.

MULOHAZA QILGIN: Sen qachondir dushmaningning omadsizligidan kuvonganmisan? Hozir o‘sha odamga qanday munosabatdasan? Nima deb o‘ylaysan, Iso “o‘z dushmanlarimizni sevish”ni amr etganida, U sevgi tuyg‘usini nazarda tutganmi? Yoki U xulq-atvor haqida gapirganmi? U ikkalasi haqida gapirganmi? Balki U yana boshqacha nimanidir nazarda tutganmi?

IBODAT: “Xudoyim, Sen hamisha menga sevish to‘g‘ri ekanligini eslatib turganing uchun va Sening sevging uchun rah mat. Menga ayniqsa _____ paytlarda va bugun men o‘zimni Samoviy Otaning farzandi sifatida tutishim uchun yordam ber”.

12 FEVRAL. SENING HAYOTING

Kalomdan o‘qish: Matto 22:34-40

Iso unga dedi: Egangiz Xudoni butun qalbingiz bilan, jonu dilingiz bilan, butun oilangiz bilan seving. Bu birinchi va eng buyuk amr. Ikkinchisi esa shunga o‘xshashdir: “O‘zgani o‘zingizni sevganday seving. Butun Tavrot va payg‘ambarlarning hamma bitiklari mana shu ikki amrga tayanadi (Matto 22:37-40).

AGAR HAYOTING teleko‘rsatuv bo‘lganida edi, quyidagilardan qaysi biri seniki bo‘lardi? “So‘ngi qahramon”mi? “Yulduzlar fabrikasi”mi? “Oyna”mi? “Anshlag”mi? Yoki, ehtimol “Eng aqlli” ko‘rsatuvimi?

Mabodo sening hayoting qo‘shiq bo‘lsa, u qanday nomlangan bo‘lardi? Balki “Beparvolik”ka o‘xsharmidi? Yoki “Rashk”mi? Ehtimol, “Buyuk sarguzasht”dir? “Do‘stlarim menga yordam berishmadi” yoki “Onamdan boshqa hech kim meni sevmaydi” deb atalishiga nima deysiz?

Agar sening hayoting televizion kanal bo‘lsa, u multfilmlar, MTV, sport kanali, komediyali filmlar kanali yoki zerikarli hujjatli filmlar kanaliga o‘xshagan bo‘lardi.

Ehtimol, bu savollarga javob berish senga qiziqarlidir, biroq ular sening hayotingda muhim nimanidir ochib bermagan. Biroq bilasanmi nima? Agar Isoning hayoti teledastur bo‘lganida, u faqat “Sevgi” deb atalishi mumkin edi. Agar U haqda qo‘shiq yaratganlarida, u “Sevgi” deb nomlanardi.

Iso bizga sevishni amr etgan. U shunday degan: “Sizlarga yangi amr beryapman: bir-biringizni sevinglar. Men sizlarni qanday sevgan bo‘lsam, sizlar ham bir-biringizni shunday sevinglar. Agar bir-biringizni sevsangiz, sizlar Mening shogirdlarim ekaningizni hamma shundan bilib oladi” (Yuhanno 13: 34-35).

Iso bizga sevishni amr etgan, negaki U sevgini qadrlaydi. Isoning hayotidagi va Uning biografiyasidagi eng muhimi, markazi shuki, U nima qilgan va gapirgan bo‘lsa hammasi sevgidan iborat edi. U samodan tushib keldi, negaki sevar edi. U sevgi tufayli inson bo‘ldi. U sevgi bois ezguliklar qildi. U hatto sevgi bilan o‘lib qayta tirildi.

Isoning hayoti va so‘zi shuni ko‘rsatadiki, sevgi bu hamisha ezgulikdir. Bu barcha odamlar qachon va qayerda yashashlaridan qat’iy nazar ezgulikdir. Bu faqatgina Xudo sevish va sevgini qadrlashni amr etgani uchungina ezgulik emas, balki Xudoning O‘zi sevgi ekanligi bois shundaydir. Sevgi Xudoning asosiy tabiatidir (1 Yuhanno 4:8,16). Biz boshqa odamlarni, hatto dushmanlarimizni sevganimizda o‘zimizni xuddi “Samoviy Otaning farzandlari” (Matto 5:45) kabi tutamiz.

MULOHAZA QILGIN: Biz ezgulik va yovuzlikning uch bosqichdagi farqi haqida gapirdik (amr, qoida, Shaxs). Bugun o‘qish uchun ajratilgan parchani qayta o‘qib chiq va amr, qoida va Shaxs qayerda ekanligini aniqla.

IBODAT: “Ota, men Sening O‘g‘ling Iso amr etgani kabi Seni sevmoqchiman. Shuningdek, atrofimdagi odamlarni ham sevishni xohlayman. Bu haftada men _____sevgi ko‘rsatishimga yordam ber”.

13 FEVRAL. SEVISH QIYIN BO‘LGANIDA
Kalomdan o‘qish: 1 Yuhanno 4:7-11
Ey azizlarim, bir-birimizni yaxshi ko‘raylik, chunki sevgi Xudodandir (1 Yuhanno 4:7).

“ULARNING SHAXSIY LIGASI” bu Ikkinchi Jahon Urushi davrida mavjud bo‘lgan professional ayollar ligasi haqidagi film. Filmdagi bir epizodda “Rokford Piches” jamoasining o‘yinchisi Dotti Xinson (uni Jina Devis ijro etadi) boshqaruvchi Jimmi Dagenga (uni Tom Xenks ijro etgan)jamoadan chiqib uyiga ketayotganligini aytadi.

– Menga juda og‘ir bo‘layapti, – deydi u.

– Aslida ham og‘ir bo‘lishi kerak, – deb javob qaytaradi Dagen. – Agar shunday bo‘lmaganida, har bir odam ham o‘ynay olardi. Aynan bu *og‘ir* bo‘lganligi uning qiymatini oshiradi.

Iso ham O‘z shogirdlariga shunga o‘xshash gapni aytadi: “Agar sizni sevganlarnigina yaxshi ko‘rsangiz, sizlarga qanday mukofot bo‘ladi? Axir soliqchilar ham shunday qilishmaydimi? Agar siz faqat o‘z yaqinlaringiz bilan salomlashsangiz, boshqalardan nima farqingiz qoladi? Axir butparastlar ham xuddi shunday qilishmaydimi? Osmondagi Otangiz barkamol bo‘lgani kabi, sizlar ham barkamol bo‘linglar (Matto 5:46-48).

Albatta, Dagen beysbol haqida gapirgan bo‘lsa, Iso sevish qiyin bo‘lgan odamlarga sevgi baxsh etish haqida so‘zlaydi. Biroq bu o‘rindagi mazmun shunga o‘xshash.

Sen uchinchi sinfdan buyon seni masxara qilib kelayotgan sinfdoshingni yaxshi ko‘rishing qiyin. *Qiyin ham bo‘lishi kerak. Agar bu qiyin bo‘lmasa, har kimning ham qo‘lidan kelardi.*

Sen har kunga, *hattoki* dam olish kunlariga ham uy vazifalarini beradigan o‘qituvchini yaxshi ko‘rishing qiyinmi? *Va bu qiyin bo‘lishi ham kerak.*

Seni asosiy guruhga qo‘shmagan murabbiyni, senga qichqiradigan qo‘shnini, sendan yuz o‘girgan do‘stingni yaxshi ko‘rishing qiyinmi?

Biz o‘zimizni oqlash va bu kabi odamlarda sevgi yo‘qligini kechirishga moyilmiz; biz ularni sevish *nihoyatda qiyin* ekanligini aytamiz. Biroq oson bo‘lgan paytdagina sevish kerak emas; bu murakkab bo‘lganida ham biz sevishimiz lozim. Bunday odamlarni – sevish qiyin bo‘lgan odamlarni – sevish qiyin bo‘libgina qolmay, balki Xudoning yordamisiz buning aslo iloji yo‘q. Xudo buni biladi. Shu bois “Muqaddas Ruh orqali yuraklarimiz Xudoning mehr-muhabbati bilan to‘lib toshadi” (Rimliklarga 5:5).

MULOHAZA QILGIN: Sen osongina sevishing mumkin bo‘lgan odamlar bormi? Sevish qiyin bo‘lgan odamlarchi? Sen bu haftada sevish oson va sevish qiyin bo‘lgan odamlarga sevgini qanday izhor etish haqida o‘ylab ko‘r.

IBODAT: “ Xudoyim, menga atrofimdagilarni sevib qolishim uchun yordam berayotgan Sening Muqaddas Ruhing uchun rahmat”.

14 FEVRAL. SEVGI SENI BAXTLI QILISHI MUMKIN

Kalomdan o‘qish: 2 Butrus 1:1-5

Bularni yodingizda tutib, Xudoga munosib hayot kechirish uchun jon kuydiringlar (2 Butrus 1:5).

AGAR QAYSIDIR o‘qituvchi dunyo tarixidagi eng baxtli odamlar ro‘yxatini tuzishni senga topshirsa, kim bu ro‘yxatdan o‘rin olgan bo‘lardi?

Natsistlar Germaniyasining dohiysi Adolf Gitlermi?

1940 yillardagi kommunistik Rossiyaning diktatori Iosif Stalinmi?

Rim shahrini yoqib yuborishda taxmin qilinayotgan imperator Neronmi?

Baytlahm atrofida yangi shoh tug‘ilganini eshitib, shohlikdagi barcha chaqaloqlarni qirib tashlashni buyurgan shoh Hirodmi? (Qaragin: Matto 2:16-18.)

Muqaddas Kitobdan Ester kitobida Fors shohligida barcha yahudiylarni qirib tashlashni o‘ylagan Xomon haqida nima deysan? (Qaragin: Ester 3-4).

Axabning xotini malika Izabelchi? U o‘zganing yerini qo‘lga kiritish uchun odamni o‘ldirishni buyurgan. (Qaragin: 2 Shohlar 21).

Sen tarixdagi eng baxtli odamlar haqidagi bu ro‘yxatingda yuqorida qayd etilgan mashhur odamlarning *birortasi* ham kiritilmaganini aytayapsanmi? Nima uchun? Ularda hokimiyat, qulay sharoit, boylik bor edi. Nega sen ularni baxtli deb o‘ylamaysan? Buning sababi juda oddiy: ularning hayoti nafratga to‘la edi, nafratlanadigan odam esa hech qachon baxtli bo‘la olmaydi.

Shu haqda o‘ylab ko‘r. Sen tanigan eng baxtli odamlar yaqinlarini va ko‘pchilikni sevishadi. Eng baxtiyor odamlar sevgiga to‘lgan odamlardir.

Xudo nafrat biz uchun zararli ekanini, sevgi esa baxtli qilishini biladi. U atrofidagilarni sevadigan odamlar sevgini ikki barobar ko‘proq, yani sevgini berayotgan va qabul qilayotgan paytlarida his qilishlarini biladi.

Oltmishinchi yillarda bir guruh shunday deb kuylagandi: “Sevgi seni baxtli qilishi mumkin”. Bu haqiqat. Agar sen Xudoga itoat etib, yaqinlaringni sevsang – sog‘lom va baxtli bo‘lasan, negaki sevgi haqiqatdan ham seni baxtiyor etadi.

MULOHAZA QILGIN: Sen dunyo tarixidagi eng baxtli odamlar ro‘yxatiga kimlarni kiritgan bo‘larding? Shaxsan qaysi baxtli odamlarni bilasan? Shu odamlar haqida mulohaza yurit. Ularning hayoti nafratga to‘liqmi yoki sevgigami?

HARAKAT QIL: Valentin kunida biror tanishingning oldiga borgin. Do‘stingga yoki qarindoshingga biror yaxshi ish qilgin.

IBODAT: “Xudoyim, Sening sevging meni baxtli qiladi. Men sevishni va sevimli bo‘lishni istaganim uchun juda baxtliman”.

15 FEVRAL. SEVGI NIMA BERADI?

Kalomdan o‘qish: 2 Butrus 1:5-11

Birodarlaringizga bo‘lgan mehr-oqibat va tugal muhabbat bilan boyitinglar. Agar bu xislatlarga ega bo‘lib, ularni kamol toptirayotgan bo‘lsangiz, demak, Rabbimiz Iso Masihni haqiqatan tanib bilgan bo‘lasiz. Kunlaringiz behuda o‘tmagan bo‘ladi, Masihni bilganingiz hayotingizda o‘z samarasini beradi (2 Butrus 1:7-8).

IKKINCHI JAHON URUSHI DAVRIDA natsistlar samolyotlari Parijni shafqatsiz bombardimon qilganlarida, fransuz shifokori Rene Shpits ajoyib bir yangilikni kashf etdi. Uni bolalar uyidagi go‘daklar orasida o‘lim darajasining nihoyatda yuqori ekanligi hayratda qoldirdi. U diqqat bilan kuzatib shuni bildiki, mehr-muhabbat bilan yondashilgan go‘daklar o‘zlarini ancha yaxshi his qilishgan. Bunga qiziqib qolgan shifokor bir qisqacha tajriba o‘tkazdi. U go‘daklarni ikkita guruhga bo‘ldi. Ikkala guruhda ham bolalarga bir xilda tan salomatliklari uchun yondashildi: oziqlantirishdi, muntazam cho‘miltirib, kiyimlarini almashtirib turishdi. Farq faqat bir narsada edi: birinchi guruhdagi chaqaloqlarni enagalar doimo o‘pishib tebratishar, qo‘llarida ushlab erkalashardi. Ikkinchi guruhdagi go‘daklarga garchi boshqa tomonlama ajoyib g‘amxo‘rliklar qilingan bo‘lsada, ularga enagalari tarafidan bunday mehr-muhabbat ko‘rsatilmadi.

Ehtimol, sen nima bo‘lganligini payqagandirsan. O‘pichlarga ko‘milgan va erkalatilgan go‘daklar nafaqat ulg‘ayishdi, balki gurkirab o‘sishdi. G‘amxo‘rlik ko‘rsatilgan, ammo sevgi bildirilmagan bolalar esa sekinlik bilan ulg‘ayishdi; ular tez-tez yig‘lashar va kasal bo‘lib qolishardi. Toki tajriba davom etib turganida, ularning rivojlanishi sekin kechdi.

Sevgiga bo‘lgan talabimiz biz ulg‘ayganimizda ham kamaymaydi. Sevgi – inson uchun hamisha ulkan ahamiyatga ega. Atrofimizdagilarni sevish haqidagi Xudoning amrini bajarib, biz javob tariqasida sevgini qabul qilamiz, yanada sog‘lom va baxtli bo‘lamiz. Yaqinlarni sevish haqidagi Xudoning amrini bajarsangiz, “kunlaringiz behuda o‘tmagan bo‘ladi, Masihni bilganingiz hayotingizda o‘z samarasini beradi”. Atrofdagilarga bo‘lgan sevgi

sening sog‘liging va rivojlanishing uchun katta ahamiyat kasb etadi. Sevgi sening hayotingdagi va atrofingdagilar hayotidagi hamma narsani o‘zgartiradi.

MULOHAZA QILGIN: Kalomning bugungi qismidan biz diyonat boshqa masihiylarni va umuman barcha boshqa insonlarni sevishga undashi haqida bilib olamiz. Odamlarga bo‘lgan sevgi nima o‘zi? Nima deb o‘ylaysan, bunga bir lahzadayoq o‘rganish mumkinmi? Bu qanday yuz beradi?

Sen boshqa odamlarga bo‘lgan sevging o‘zing uchun marhamat bo‘lgan deya, seni sog‘lom va baxtiyor qilgan deya hisoblaysanmi? Sening boshqa odamlarga bo‘lgan sevging marhamat bo‘lganmi?

IBODAT: “Xudoyim, men o‘z sevgimni boshqa odamlarga ko‘rsatayotgan chog‘imda his qilgan tuyg‘ularim uchun Senga rahmat. Bu haftada mening sevgimga muhtoj bo‘lgan biror kishini menga ko‘rsat”.

16 FEVRAL. AYTGIN VA ISBOTLA

Kalomdan o‘qish: 1 Yuhanno 3:18-20

Aziz bolalarim, biz haqiqiy sevgimizni quruq gap bilan emas, amalda ko‘rsataylik. Shunda biz haqiqat ahli ekanimizga ishonch hosil qilamiz (1 Yuhanno 3:18-19).

SEN o‘zini mashhur poygachi deb aytayotgan, ammo mashinani garajdan haydab chiqara olmayotgan odamga ISHONASANMI?

Sen dunyodagi mashhur sirkda ikki uchiga arqon bog‘lab qo‘yilgan tayoqda yurishini ta’kidlab, ammo oyog‘i ikki tomonga ochiladigan narvonga chiqib, lampochkani almashtirishdan qo‘rqadigan ayolga ishonasanmi?

Sen o‘zini kelajakni biladigan dunyodagi eng buyuk odamligini aytib, biroq sendan vaqt necha bo‘lganligini so‘rayotgan odamga ishonasanmi?

Ishonmasang kerak, albatta. Nima uchun? Negaki ularning ishlari aytgan gaplariga to‘g‘ri kelmaydi.

Mabodo odamlar kimnidir sevishlarini aytib, buni amalda isbotlamasalar, buning hammasi quruq gap, xolos. Bunday gaplarga ishonish qiyin, negaki ular ishonchga sazovor emas.

Ko‘rayapsanmi, sevgi haqida gapirish boshqa masala. Buni amalda isbotlash esa butunlay boshqa masaladir.Misol uchun, sen yaqinlaringni sevishing haqida aytishing mumkin, biroq sen qachon oxirgi marta ro‘parangda yashovchi yuz yoshli qariyaga yordam berding, uning hovlisidagi qorni tozalab ko‘lmaklarni yo‘qotding? Sen hammani juda ham sevishing haqida gapirishing mumkin, ammo sen qachon bu quruq so‘z bo‘lib qolmasligi uchun amalda ko‘rsatding?

Havoriy Yuhanno, “so‘z va til bilan emas, balki ishlarimiz va haqiqat bilan seva oladigan bo‘lamiz”,deb yozgan. Sening harakatlaring yaqinlaringa bo‘lgan sevgingdan dalolat beradimi?

MULOHAZA QILGIN: Kalomdan bugungi parcha biz ota-onamizga, do‘stlarimizga va biz sevadigan boshqa odamlarga, “men sizni yaxshi ko‘raman” – d**eb aytishimizni to‘xtatishimiz lozimligini bildirmaydi; biz sevgi haqida faqatgina gapirish bilan cheklanib qolmasligimiz lozim. Boshqacha qilib aytganda, biz buni aytishimiz va isbot ham qilishimiz kerak. Balki, sen kimgadir o‘z sevging haqida eslatishing lozimdir? O‘z yaqiningga bo‘lgan sevgingni sen qanday namoyon etasan?**

HARAKAT QIL: Ota-onang bilan oiladan tashqarida kimgadir Xudoning sevgisini qanday ko‘rsatish haqida muhokama qilib ol (masalan: pirojniy pishirish, bemor bolaga u o‘ynashi uchun itcha olib berish; jazo muddatini o‘tayotgan mahkumga otkritka yo‘llash; yolg‘iz onaning bolasiga qarab turish; chol-kampirlar uchun slaydlar ko‘rishni tashkil etish va shunga o‘xshash tadbirlar).

IBODAT: “Xudoyim, Sendan sevgi taralishini men bilaman. Marhamat qilib, menga shu haftada o‘z sevgimni ..... ko‘rsatishimga yordam ber”.

17 FEVRAL. ATTRAKSIONLAR

Kalomdan o‘qish: Qonunlar 6:20-24

Egamiz Xudo: “Mana shu farmonlarning hammasiga rioya qilinglar, Mendan qo‘rqinglar, shunda bugungiday tirik bo‘lasiz, baxtli hayot kechirasiz”, dedi (Qonunlar 6:24).

– MEN SENGA BIR NARSANI KO‘RSATMOQCHIMAN, – dedi Vova do‘sti Sashaga amerikacha karuselga o‘tirganlarida. U o‘ziga xavfsizlik kamarini olib, uni oxirigacha tortmasdan joyiga qaytarib qo‘ydi.

– Men kamarni oxirigacha qistirmaslik yo‘lini bilaman!

O‘rindiqlar qimirlay boshlaganida, Vova Sashaga o‘girildi.

– Ko‘rayapsanmi? – dedi u xavfsizlik kamarini ko‘tarib.

– Sen aqldan ozdingmi? – deb so‘radi Sasha.

– Bu axir ajoyib-ku, shunday emasmi? – javob berdi Vova.

– Vova, men hazillashmayapman, – o‘rindiq oldinga silkindi va pastga tik tushadigan qiyalikka tezlik bilan ko‘tarila boshladi.

Vova yelkalarini qisdi:

– Tashvishlanma, men avval ham shunday qilganman.

Sasha kamarga qo‘lini cho‘zib uning tugmachasini bosdi. Kamar shiqirlab joyiga mustahkam o‘rnashdi.

– Nega sen bunday qilding? – deb so‘radi Vova.

– Bilasanmi, xavfsizlik kamarini bu yerga shunchaki qo‘yishmagan, – javob berdi Sasha.

– E qo‘ysangchi, karusel egalari o‘zlarini qonun oldida himoyalash uchun bu kamarlarni qo‘yishgan!

– Ular sen boshing bilan yerga urilishingni xohlashmaydi!

– Lekin menda yiqilish niyati yo‘q, – deb o‘z so‘zida turib oldi Vova.

Ayrim odamlar Vova amerikacha karuselda xavfsizlik qoidalariga qanday yondashgan bo‘lsa, Xudoning qonunlariga ham shu kabi noto‘g‘ri yondashadilar. Ularning nazarida, Xudo O‘z amrlarini (misol uchun, “Yolg‘on gapirma”, “Ota-onangni hurmat qil”, “Zino qilma”) bizning erkinligimizni cheklash uchun, hayotdan zavq olishimizga xalaqit berish uchun o‘rnatgan. O‘sha odamlar: qoidalar – buzish uchun yaratilgan, deb o‘ylashadi: qoidani buzadigan odamlar go‘yoki qiziqarliroq yashashadi.

Biroq Xudoning amrlari xuddi attraksiondagi xavfsizlik tizimi singari bizga tasodifan berilmagan. U bizning xursandchilik qilishimizga xalaqit bermoqchi emas; Uning amrlari bizning yaxshiligimiz uchun, xavfsizligimiz va himoyamiz uchun yaratilgan. Ba’zan qoidalarni buzadigan odamlar juda yaxshi yashayotgandek *tuyuladi*, ammo bu tasavvur yolg‘onchidir.

Xudoning amrlarini bajarish attraksionlarda nafaqat xavfsizligingni ta’minlaydi, balki bu amrlar attraksionni yanada qiziqarli qilishi mumkin.

MULOHAZA QILGIN: Xudoning amrlari attraksiondagi xavfsizlik tizimiga qanchalik o‘xshash? Nima deb o‘ylaysan, agar foydalanmasak bizga xavfsizlik tizimi kerakmi? Nima deb o‘ylaysan, agar e’tibor bermasang ham Xudoning amrlaridan foyda bormi?

IBODAT: “Xudoyim, Sening barcha amrlaring uchun rahmat. Sen meni O‘z amrlaring bilan himoya qilayotganing uchun rahmat. Menga O‘z amrlaringni bajarishimga yordam ber, ayniqsa _____”.

18 FEVRAL. TO‘G‘RILIK HAQIDAGI HAQIQAT

Kalomdan o‘qish: Zabur 145:1-10

...Osmonni, yerni hamda dengizni yaratgan.
Dengizu undagi hamma jonzotni U yaratgan,
U to abad sodiq bo‘lib qoladi (Zabur 145:6).

XUDO YARATMAGAN NARSALAR HAM BOR.

Bu gap seni hayron qoldirdimi? Bu haqiqat.

Ha, U borliqni behisob yulduzlar galatsikasi, astroidlar va qora tuynuklari bilan birga yaratgan.

U olamni barcha daryolari va ummonlari bilan, tog‘lari va vodiylari bilan, qoyalari, o‘simliklari va daraxtlari bilan birga yaratgan.

U barcha baliqlarni va dengiz jonivorlarini yaratgan. U delfinlarni, kitlarni, qilich baliqlarni va boshqa turli baliqlarni yaratgan. U akulalarni shisha ko‘zlari bilan yaratgan. U skatlarni o‘tkir dumlari bilan birga yaratgan. U sher-baliqni zaharli yoli bilan va kambalani chayqalib turadigan yonboshi bilan birga yaratgan.

U kondorning ulkan qanotini va mittigina kolibrining chaqqon uchishini yaratgan. U Kanada silovsinining qulog‘ida o‘tkir mo‘yni va jirafaning uzun bo‘ynini yaratgan. U kulgili ko‘rinadigan zirhli hayvonni, jilvakor kiyikni, baquvvat jag‘li timsohni va mayin mushuklarni yaratgan.

Biroq Xudo yaratmagan narsalar ham bor. U haqiqatni yaratmagan, negaki Uning O‘zi haqiqatdir. Haqiqat – Xudo tabiatining bir qismidir.

Albatta, haqiqat deb ataladigan narsa mavjud emasligini aytadigan odamlar ham bor. “Haqiqat nisbiydir”, deb aytishadi ular. “Har kimning o‘z haqiqati bor”. Biroq hattoki kim ularning aytganlarini haqiqat deb hisoblasa va ishonsa, boshqa bir vaziyatda ular bunday deb aytishmagan bo‘lardi.

Biroq haqiqat mavjud bo‘libgina qolmay, u abadiy va o‘zgarmasdir, negaki u Xudo O‘zligining bir qismidir. Muso shunday degan: “U haq va odildir” (Qonunlar 32:4). Haqiqat bizni boshqarishi mumkin, negaki xuddi zaburchi qilganidek biz ibodat qila olamiz: “O‘zing meni boshlab borgin, Haqiqatingni menga o‘rgatgin, Najotkorim Xudo O‘zingsan” (Zabur 24:5).

MULOHAZA QILGIN: Nima uchun Muqaddas Kitobdan bugun o‘qilgan oyat Xudo haqiqatni yaratmaganligi haqida guvohlik beradi? Haqiqat qay tarzda Xudo bilan bog‘liq? Nima deb o‘ylaysan, haqiqat yo‘qligi haqidagi gapda mazmun bormi? Nima uchun shunday yoki shunaqa emas?

IBODAT: Yuhanno Xushxabarining 17 bob 17 oyatida Isoning shogirdlari uchun qilgan ibodatini o‘qigin. O‘zing haqingda gapirib, bu oyatni ovoz chiqarib o‘qi.

19 FEVRAL. BIRINCHI EPIDEMIYA

Kalomdan o‘qish: Rimliklarga 5:12-17

Bir odamning dastidan dunyoga gunoh kirib keldi. Gunohdan esa o‘lim kelib chiqadi. Natijada insonlar o‘ladigan bo‘ldi, chunki hamma gunohkordir (Rimliklarga 5:12).

UNI “qora ajal” deb atashardi. U Xitoyda 1334 yilda paydo bo‘lib, tezda butun Hindiston, Eron, Rossiyaga, so‘ngra esa Yevropaga tarqaldi. Odamlar to‘satdan kasallikka chalinishardi, ularda tana harorati tez ko‘tarilib,

tomoq qurib qolardi, birdan bo‘g‘iq yo‘tal tutardi; yuzlarda qora dog‘ paydo bo‘lib bir necha kun ichida olamdan o‘tishardi. Bir necha yil ichida esa o‘lat 60 million odamning umriga zomin bo‘ldi. U Yevropada shunchalik keng tarqaldiki, har to‘rtta yevropalikning biri shu kasallikdan vafot etdi. XIX asr oxirida o‘lat Gonkongni, so‘ngra boshqa mamlakatlarni qamrab oldi, ayniqsa Hindistonda o‘lat tufayli keyingi yigirma yil davomida 10 million odam hayotdan ko‘z yumdi.

Gripp epidemiyasi Birinchi jahon urushining oxirida, 1918 yilda Fransiyaning shimolida jang qilayotgan askarlar orasida boshlandi. Minglab askarlarning harorati ko‘tarilib, qaltiroq tutar va o‘qchib qolishardi. Ulardan ayrimlari Fransiyani tark etganida, epidemiya butun dunyoga tarqaldi. Yuz millionlab odamlar kasallikka chalindi. Hisoblashlariga ko‘ra, ushbu kasallik tufayli 20 million kishi hayotdan ko‘z yumgan, bu esa urushda o‘q va bombalardan halok bo‘lganlar sonidan ham ko‘proq edi.

Biroq bugungi kunda dunyo bezli o‘lat (“qora o‘lat”) yoki grippdandan ham yanada dahshatliroq xastalikdan azoblanmoqda. U barcha mamlakatlar va barcha xalqlarning odamlariga, 5 milliard kishiga xavf solmoqda. Bu kasallik gunohdir.

Birinchi erkak va birinchi ayol Xudoga itoatsizlik qilib gunoh qilgan paytlaridan boshlab (Ibtido 3-bobni o‘qigin) biz hammamiz gunohkorlar bo‘lib tug‘ilamiz. Bu esa biz hammamiz xastalikka chalinganimizni va yomon ishlar qilishga moyillik biz uchun tabiiy ekanligini bildiradi. Ba’zan biz noto‘g‘ri tanlov qilamiz, negaki nima yaxshiyu, nima yomonligini tushunmaymiz. Biz do‘stlarimizning yomonlikka undaydigan bosimiga bo‘ysunishimiz yoki o‘zimizda zararli odatlar bo‘lganligi uchun yomon ishlarga qo‘l uramiz. Biroq oxir-oqibat biz yomon ish qilamiz, negaki biz gunohkorlarmiz.

Bu esa biz noto‘g‘ri yo‘l tutishimiz kerak, degani emas. Bu kasallikka qarshi davo bor: Iso Masihning xochdagi qurbonligi. U nafaqat bizning gunohlarimiz uchun to‘lov qilgan, balki gunoh va o‘limni yengib chiqqan, shu bois noto‘g‘ri ishlar qilishga nuqta qo‘yishimiz kerak. Xudoga iltijo qilib Unga ishonganimizda, biz to‘g‘ri qarorga kelishimiz mumkin.

MULOHAZA QILGIN: Nima deb o‘ylaysan, odam Xudoning yordamisiz gunoh qilishdan tiyilishi mumkinmi? Nima uchun shunday yoki bunday emas?

IBODAT: Sen gunohlaring uchun Isoning qurbonligini qabul qilib Xudodan kechirim so‘radingmi, Masih seni gunohdan va gunoh tufayli jazolanishdan xalos etganiga ishonasanmi? Agar shunday qilmagan bo‘lsang, nima uchun buni hoziroq qilmaysan? Agar sen buni amalga oshirgan bo‘lsang, Unga “boy ehsoni” uchun minnatdorchilik bildirgin (Rimliklarga 5 : 15).

20 FEVRAL. BIZGA NIMA KERAK?

Kalomdan o‘qish: Galatiyaliklarga 5:16-22

Ruhning samarasi esa quyidagilardir: muhabbat, sevinch, xotirjamlik, sabr-toqat, mehribonlik, ezgulik, ishonch, muloyimlik va o‘zini tuta bilish (Galatiyaliklarga 5:22-23).

Mana, bu bilimlarni TEKSHIRISH UCHUN KICHKINA SINOV. Ko‘raylikchi, sen chap burchakdagi daraxtlar nomini o‘ng burchakdagi mevalar nomiga muvofiq topa olarmikansan.

olma	apelsinlar
dub	noklar
banan	xurmolar
nok	cho‘chqayong‘oq
shaftoli	giloslar
yong‘oq	olmalar
gilos	yong‘oqlar
xurmo	shaftolilar
apelsin	bananlar

Ahmoqona test, to‘g‘rimi? Hamma biladiki, olmalar olma daraxtida o‘sadi, yong‘oqlar esa yong‘oq daraxtida. Olcha daraxti har qancha urinmasin, u hech qachon olma mevasini tuga olmaydi, finikli palma daraxtida esa bitta ham banan o‘smaydi. Nega? Negaki bu daraxtlar bunday mevalarni berish xususiyatiga ega emas.

To‘g‘ri qaror bilan bog‘liq vaziyat ham shunga o‘xshaydi. Bizlardan hech kim har doimo to‘g‘ri qaror qabul qila olmaydi. Bazan esa biz bunga umuman qodir emasdek tuyuladi! Biz gunohkorlarmiz, bizda bunday natijalarni yaratish xususiyati yo‘q; har holda, biz buni tashqaridan yordam olmasdan qila olmaymiz. Bu xuddi og‘izda qo‘ziqorinni yetishtirgandek gap!

Bundan chiqdi, biz taslim bo‘lishimiz kerakmi? Yo‘q, biz o‘zimizda yashaydigan Masihning Ruhi yordami bilan to‘g‘ri qaror qabul qilishimiz kerak. Masih orqali qutqarilishga ishongan har bir kishida Uning Ruhi jo bo‘ladi. Faqat Unga har kuni sajda qilib – biz buni Muqaddas Kitobni o‘kish va ibodat yordamida bajarishimiz mumkin – doimo to‘g‘ri qaror qabul qila olamiz. Haqiqatdan ham shuni aytish mumkinki, to‘g‘ri qaror Muqaddas Ruh bizning hayotimizga, agar kundan kun Xudoga ishonchni oshirib borsak bu o‘z natijasini beradi.

MULOHAZA QILGIN: Sen keyingi paytlarda qanday qarorlar qabul qilding? U xuddi ananasdek tikanli, yong‘oqdek qattiq, olmadek shirin, gilosdek mazali edimi yoki yana boshqacharoqmi? Kelajakda qay tariqa qaror qabul qilmoqchisan?

IBODAT: Misol uchun, sen har kuni ertalab shunday ibodat qilishing mumkin: “Xudoyim, men Sen yaratgan ushbu kun uchun Seni ulug‘layman. Men Sening Ruhingga bugun qiladigan barcha ishlarimni nazorat qilishni topshiraman. Kun bo‘yi to‘g‘ri qarorlar qilishimga yordam ber. Iso nomi bilan, omin”.

21 FEVRAL. MUQADDAS BULOQ

Kalomdan o‘qish: Zakariyo 7:8-10

Men, Sarvari Olam, shunday degan edim: “Adolatli hukm qilinglar. Bir–biringizga mehribon bo‘linglar, rahm–shafqat qilinglar (Zakariyo 7:9).

U AYOLNI “muqaddas buloq” deb atashardi.

U rohiblar safiga kirib Hindistonga jo‘naganida o‘n sakkiz yoshda edi. U Kalkuttada dars berardi. U hech qayerda va hech qachon shu yerdagidek qashshoqlarni uchratmagan edi. Uning qalbi bu odamlarga nisbatan mehr-shafqat bilan to‘lib toshdi, shu bois u dunyodagi eng qashshoq va och odamlar orasida ishlash uchun ibodatxonani tark etishini so‘radi. U bunga ruxsat oldi.

U ochlar bilan birgalikda ovqat qoldiqlarini yig‘ardi. U boradigan joyi yo‘q bolalar, yetimlar bilan suhbatlashardi. U tashkil qilgan inoyat xizmati guruhi yetimlar, nogironlar va vafot etayotganlar uchun bepul oshxonalar, maktablar, boshpanalar yaratilishiga asos soldi.

Uzoq yillar dovomida uning mashaqqatlari noma’lumligicha qoldi, so‘ngra esa butun dunyo uning mehr-shafqatidan xabar topdi. 1979 yilda “muqaddas buloq” – ona Tereza Nobel mukofoti bilan taqdirlandi hamda jahon hamjamiyati tomonidan e’tirof etildi.

Bugungi kunda har bir kishi ona Terezaning mehr-shafqati yaxshi ekanligiga iqror bo‘ladi, garchi ko‘pchilik nima yaxshiyu, nima yomonligini o‘zi hal qilish huquqiga ega ekanligini aytsada. Hech kim ona Tereza go‘yoki yomon yo‘l tutganligini aytishga tavakkal qilolmaydi. Zero, u yovuzlikni emas, balki ezgulikni yaratganini ko‘rish qiyin emas. Bu *sen* qanday o‘ylashing yoki *jamiyat* nima deb o‘ylashiga hech qanday aloqador emas: ona Tereza nima qilgan bo‘lsa juda ajoyib va tahsinga loyiq, negaki uning ishi *Kim* ezgulik va go‘zallik bo‘lsa Uni aks ettiradi.

Ko‘rayapsanmi, bizlardan hech kim va hattoki hammamizni qo‘shib aytganda ham mehr-shafqat yaxshi yoki yomon ekanligini hal qilishga haqqimiz yo‘q. Dunyodagi har bir kishi o‘z qalbining tubida mehr-shafqat yaxshi ekanligini biladi. Biz mehr-shafqat – yaxshilik deb *qaror* qilganimiz uchun emas, balki Xudo nimani ezgulik deb atagan bo‘lsa, o‘shani *ezgulik* deb tan olganimiz uchun; bu ayol, Xudo ezgulik deb atagan mehr-shafqatning namunasi bo‘lgani uchun ona Terezadan hayratlanamiz.

MULOHAZA QILGIN: ona Tereza ko‘pgina munosabatlarda mehr-shafqatning timsolidir. Sen boshqa odamlarga nisbatan marhamatli munosabatda bo‘ladigan yana biror kishini ko‘rsata olasanmi?

Ehtimol, sen nogironlar va ochlar bilan tanish emasdirsan, biroq atrofingda mehr-shafqatga muhtoj odamlar bordir. Sen ushbu haftada shunday odamlarga mehr-shafqatni amalda qanday ko‘rsatishing mumkin?

IBODAT: “Xudoyim, menga bu haftada har kuni biror kishiga rahm-shafqat ko‘rsatishim uchun yordam ber”.

22 FEVRAL. KRYUKDAN QUTULISH

Kalomdan o‘qish: Mixo 7:8-10

Ey Xudo, Senga O‘xshashi bormikan?! Xalqingdan omon qolganlarning gunohlarini Sen kechirasan, ularning itoatsizligini avf etasan. To abad g‘azablanmassan xalqingdan, zavq olasan O‘zing mehr-shafqat ko‘rsatishdan (Mixo 7:18).

STIVEN SPILBERGNING Piter Pen haqidagi “Kapitan Kryuk” filmida Piter (uni Robin Uilyams ijro etadi) va kapitan Kryuk (Dastin Xoffman) shiddatli jangda o‘zaro qilichbozlik qiladilar, bu vaqtda esa Netlandiyalik bolalar (va Piterning balog‘atga yetgan bolalari Jek va Meggi) ularga qarab turishadi. Nihoyat Piter Kryugning qo‘lidagi qilichni urib tushiradi va qaroqchi tizzalab qoladi. Piter do‘stini o‘ldirgan odamning bo‘yniga qilichning tig‘ini niqtaydi.

– Sen Rufioni o‘ldirding, sen mening bolalarimni o‘g‘irlading, sen o‘limga loyiqsan, – deydi Piter.

Biroq Piterning bolalari kelishadi, Meggi otasining yelkasiga qo‘lini qo‘yadi.

– Uyga ketaylik, – deydi u. – Bu shunchaki bir razil qariya, uning onasi yo‘q.

– Ha, dada, – deb bu gapni quvvatlaydi Jek. – Uyga ketaylik.

Piter qilichini pastga tushiradi:

– O‘z kemangga o‘tirib suzib ketaver, – deydi u qilichini qiniga solar ekan Kryukka, hamda Meggi bilan Jekni ushlaganicha uy tomonga o‘giriladi.

Oxir-oqibat, Kryuk o‘z jazosini oladi, biroq Piter Penning qo‘lidan emas.

O‘z dushmaniga rahm qilgan Piterning ishi – qahramonning ishidir. U Kryukni qatl etganida qahramonlikning nur taratadigan gardishini yo‘qotgan bo‘lardi, garchi dushmani uni o‘ldirishga uringan bo‘lsada. Nima sababdan biz buni his qilamiz?

Negaki mehr-shafqat ezgulikdir.

Mehr-shafqat yaxshi, negaki Xudo bizga marhamatli bo‘lishni amr etgan. Muqaddas Kitobda shunday deb yozilgan: “Ey inson, nima yaxshi ekanligini Egamiz senga ayon qildi. Shudir Uning sendan qilgan talabi: Adolatli ish tutgin, Mehr-shafqat qilishdan zavq olgin, kamtar bo‘lib Xudoning yo‘lidan yurgin” (Mixo 6:8).

Mehr-shafqat faqat Xudo shafqatli bo‘lishni *amr etgani uchungina* yaxshi emas; mehr-shafqat ezgulik ekanligining boisi shuki, Xudo mehr-shafqat ni qadrlaydi: amrlar Xudo qanday munosabatlar va harakatlarni qadrlashini ko‘rsatib beradi.

Biroq mehr-shafqat Xudo uni qadrlagani uchungina yaxshi bo‘libgina qolmay, Xudoning O‘zi mehr-shafqat bo‘lganligi bois ham ezgulikdir. Rahm shafqat Xudo O‘zligini aks ettiradi. Muqaddas Kitobda “Xudo rahmdil” (Qonunlar 4:31; Naximiyo 9:31) deb yozilgan, shuningdek, Unga mehr-shafqat ko‘rsatish yoqishi aytilgan (Mixo 7:18). Rahm shafqat biz shunday deb o‘ylaganimiz va biz buni his qilayotganimiz uchun, hattoki hammma shu haqida gapiryotgani uchungina to‘g‘ri emas. Mehr-shafqatli bo‘lish to‘g‘ri ekanligining boisi shuki, u Xudoning tabiatini va fe’l-atvorini aks ettiradi. Mehr-shafqat ko‘rsatmaslik istagining noto‘g‘ri ekanligi esa bu, Xudo uchun tabiiy emasligi bilan izohlanadi.

MULOHAZA QILGIN: Nima munosabatlarni va harakatlarimizni to‘g‘ri qiladi? Nima esa munosabat va harakatlarimizni noto‘g‘riga aylantiradi?

Xudoning rahmdil ekanligini sen qayerdan bilasan? Xudo senga O‘z marhamatini qay tariqa ko‘rsatgan? Senga tanish boshqa odamlargachi?

IBODAT: “Xudoyim, Sen marxamatlisan, men Sening mehr-shafqating uchun minnatdorman. Menga boshqalar bilan shafqatli bo‘lishimga yordam ber, ayniqsa _____”.

23 FEVRAL. 70 x 7

Kalomdan o‘qish: Luqo 6:36-38

Osmondagi Otangiz rahmdil bo‘lgani kabi, sizlar ham rahmdil bo‘linglar Boshqalarni hukm qilmang, shunda Xudo ham sizlarni hukm qilmaydi. Boshqalarni ayblamang, shunda Xudo ham sizni ayblamaydi. Boshqalarni kechiring, shunda Xudo sizni kechiradi (Luqo 6:36-37).

SHUNDAY O‘YIN BOR – umumiy mavzuga bog‘lanmagan bir qancha so‘zlardan bittasini tanlash kerak. Bu yerda nima ortiq? Javob berishga tayyormisiz?

pirog	tort	puding	mashina moyi
Muso	Tom va Jerri	Doniyor	Shoh Dovud
shafqat	ezgulik	hamdardlik	o‘ch olish

Bu unchalik murakkab emasmikan? Agar oxirgi o‘rindagi “o‘ch olish”ni o‘chirgan bo‘lsang, sen haqsan: odamlar bir-birlaridan o‘ch olganlarida va kechirimni bilmaganlarida o‘zlarini beshafqat tutishadi.

Isoning shogirdlaridan biri Butrus bir kuni Ustozidan so‘radi: Hazrat, agar birodarim menga qarshi gunoh qilsa, uni necha marta kechiray? Yetti martami? Isoning javobi, ehtimol, Butrusni hayron qoldirgandir. “Sizlarga shuni aytay: yetti marta emas, — dedi Iso, — balki yetmish karra yetti marta” (Matto 18:21-22). Iso davrida ravvinlar uch marotaba kechirish kerakligi haqida o‘rgatishardi. Biroq Iso buni yaqqol ko‘rsatdi: Biz hech qachon boshqa odamlarni kechirishdan to‘xtamasligimiz kerak.

Mehr-shafqat kechirimdan boshlanadi. Agar sen kimnidir kechirishdan bosh tortsang, shafqatli bo‘la olmaysan. Mehr-shafqat bu senga zarar yetkazgan odamga nisbatan bo‘lgan sevgidir. Mehr-shafqat bu kapitan Kryukni qo‘yib yuborishdir. Mehr-shafqat bu tashvishlanishdan yoki xafa bo‘lib yurishni rad qilish “huquqi”dir. Har doim ham shafqatli bo‘lish oson emas. Biroq bu hamisha to‘g‘ridir.

MULOHAZA QILGIN: Senda kechirim uchun qandaydir “chegara” bormi? Sen kimnidir kechirishing kerakmi? Ehtimol, sening o‘zing kimdandir kechirim so‘rashing kerakdir?

IBODAT: “Xudoyim, juda afsusdaman, men o‘sha _____ kechirishim qiyin bo‘layapti. Marhamat qilib menga _____ mehr-shafqatli bo‘lishimga yordam ber”.

24 FEVRAL. ANDROKL VA SHER

Kalomdan o‘qish: Matto 5:1-10

Iso katta bir olomonni ko‘rib, toqqa chiqib o‘tirdi. Shogirdlari Uning oldiga kelishdi. Iso shogirdlariga ta’lim berib, gap boshladi... Rahmdil bo‘lganlar baxtlidir,Chunki ular rahm–shafqat topadilar (Matto 5:1-2, 7).

QADIMGI RIMDA shafqatsiz xo‘jayinga tegishli bo‘lgan Androkl ismli qul haqida hikoya qilishgan. Androkl qochib ketib, uzoq vaqt o‘rmonda yashiringan. U ozod bo‘lganidan xursand edi, biroq o‘ziga ozuqa topishi

qiyin kechgan. Uning ochlikdan sillasi qurigan. Nihoyat, Androkl o‘lgudek ahvolda bir qorong‘i g‘orga kirib uxlab qolgan.

Uni g‘orga kirib kelgan sherning baland o‘kirigi uyg‘otib yuborgan. Androkl, sher uni yeb qo‘yadi, deb qo‘rqqan, biroq sher g‘orni oqsoqlanib aylanganicha og‘riqdan ingrab turganini ko‘rib, hayron qolgan.

Ulkan yirtqich nihoyat yotganida, Androkl ehtiyotlik bilan uning yaqiniga borgan. Bu hayratomus, biroq sher o‘zining shikastlangan panjasini yigit ushlashiga ijozat bergan. Androkl sherning panjasiga kirib qolgan uzun va o‘tkir tikanni ko‘radi. U tezlik bilan bu tikanni olib tashlaydi. Sher yaralangan panjasini yalaydi, Androkl esa toki ikkalasi ham uxlab qolmagunlaricha panjani qo‘lida ushlab turadi.

Keyingi kuni ertalab sher Androkilga ozuqa keltiradi va buni toki g‘orga bir guruh askarlar kelmagunigacha davom ettiradi. Androklni qochoq qul sifatida ushlab Rimga olib ketishadi.

O‘sha davrlarda qochoq qullarni Kolizey maydonida yovvoyi yirtqichlar bilan ommaning ko‘zi oldida urishishga majbur qilishardi. Androkl bir necha kunni zindonda o‘tkazdi, so‘ngra esa uni Kolizeyga olib kelishdi. Soqchilar uni maydonga chiqarib yolg‘iz o‘zini qoldirishdi. U och yirtqichning o‘kirigini eshitib qo‘rquvdan titradi.

Nihoyat, maydonning narigi tomonidagi darvoza ochildi va sahnaga o‘kirganicha bahaybat sher chiqib keldi. Yirtqich bir sakrashi bilan Androklga tashlandi, olomon esa Androkl va sher uchrashganlaridan xursand bo‘lgan qadrdon do‘stlar kabi yerda do‘mbaloq oshib o‘ynaganlarini hayron bo‘lib tomosha qilardi. Bu qul bilan bo‘lgan voqeadan xabar topgan olomon Androkl va sherni ozod qilishlarini talab etdilar. Va xuddi shunday ham bo‘ldi.

Bu voqea bizni muhim haqiqatga o‘rgatadi. Iso bu xaqda shunday deydi: “Rahmdil bo‘lganlar baxtlidir, chunki ular rahm–shafqat topadilar” (Matto 5:7). Boshqalarga shafqatli bo‘lgan odam o‘zi ham tez-tez shafqat topadi, marhamatli bo‘lishdan bosh tortgan esa o‘zini ko‘pgina yaxshiliklardan mahrum qiladi.

Bu Xudoning amrlarini bajarish bizni qanday himoya qilishi, Xudo biz haqimizda qay tariqa g‘amxo‘rlik qilishiga oid yana bir misoldir.

MULOHAZA QILGIN: Senga nisbatan biror kishi marhamatli bo‘lganmi? Sen uning marhamatiga shu tariqa javob qaytardingmi? Sen boshqa birovga nisbatan mehr-shafqatli bo‘lganmisan?

IBODAT: “Xudoyim, Sen menga ko‘rsatayotgan marhamating uchun minnatdorman. Shu haftada Sening ijodingdan biriga mehr-shafqatni qanday ko‘rsata olishimni tushunishimga yordam ber”.

25 FEVRAL. XIRALASHGAN SIYMO
Kalomdan o‘qish: Matto 18:21-35
Men senga rahm qilganimday, sen ham sherigingga rahm qilsang bo‘lmasmidi? (Matto 18:33).

TELEVIZOR EKRANIDA xiralashgan siymo paydo bo‘ladi. Odamning ovozi g‘alati eshitiladi, ekran pastidan esa satrlar o‘tadi: *Manni (bu o‘ylab topilgan ism) o‘zining kimligini bildirmagan holda chiqish qilmoqda. Uning shaxsiyatini himoya qilish maqsadida ko‘rinishi va ovozi o‘zgartirilgan.*

Menda xamma narsa bor edi. Pul, mashina, shaharda kvartira va shahar tashqarisida uy. Biroq mening ozroq qarzim bor edi, to‘g‘risi aytsam, qarzim kattagina edi. Millionlab. Men kompaniyaning pulini go‘yoki “qarz”ga olgandim – nima haqda gapirayotganimni bilsangiz kerak. Xiralashgan siymo kursida qimirlab qo‘yadi. – Mening rahbarim buni bilib qolgach, o‘zining boshlig‘iga aytgan. Nihoyat bu eng yuqori rahbaryatga ham yetib bordi. Kompaniya boshlig‘i meni chaqirib o‘z pullarini qaytarib olmoqchi ekanligini aytdi. Men shunday dedim: “Hozir menda pullar yo‘q. Biroq men ularni qaytaraman, chin so‘zim”.

Shunda u meni uzoq muddatga qamoqqa jo‘natishini va oilamni ko‘chaga tashlashini aytib, do‘q urdi. Men shunday dedim “Menga qarang nima kerak bo‘lsa hammasini qilaman. Har bir sentni foizi bilan to‘layman. Menga faqat ozgina vaqt kerak”. Rahbar uzoq vaqt menga jimgina qarab turdi, so‘ngra esa shunday dedi: “Mana men senga nima deyman. Men qarzingdan kechaman. Men bu pullar haqida unutaman. Sen bu yerdan qarzdan ozod bo‘lib chiqasan. Faqat kelajakda boshqa bunday qilmagin”.

Men o‘z quloqlarimga ishonmasdim! U mening qarzimdan kechdi – bu inson qo‘lini yuvib qo‘ltiqqa urdi – bu juda oddiy kechdi! Men idoradan chiqqanimda osmonga uchay derdim! Rahbar qabulidan chiqib, hamkasbim Mayk Kennedini uchratdim va shu zahotiyoq undan talab qildim: “Ikki ming dollar qarzingni menga qaytarib ber”. – U shunday dedi: “Men hozir qarzimning faqat bir qismini qaytarishim mumkin, qolganini esa bir necha haftadan keyin beraman”. – “Bunaqasi ketmaydi” – dedim men va agar shu kunning oxirigacha hamma pullarimni qaytarmasa uni xonavayron qilishimni aytdim. Men axir uning pullari borligini bilardim, – u shunchaki qaytarib berishni istamasdi!

Ma’lum bo‘ldiki, boshliqning kotibasi mening Kennedi bilan suhbatimni eshitgan, rahbar esa yana meni o‘z oldiga chaqirdi. “Men axir sening qarzingdan kechmagan edimmi? – deb so‘radi u. – *Ko‘p millionlik* qarzingdan-a? Men senga shafqat qildim, sen esa Kennediga nisbatan marhamat ko‘rsatishni istamading. Bizning kelishuvimiz bekor qilinadi”. – Va mana – *kamera o‘zini tanitmayotgan hikoyachining oldidagi qamoq panjarasini ko‘rsatish uchun aylanadi* – men mahkumlar qatorida o‘tiribman. Eng g‘alatisi nima ekanligini bilasizmi? – deb so‘raydi o‘sha odam qayg‘uli tus olib. – Kennediga mening lavozimimni berishdi!

MULOHAZA QILGIN: Nima deb hisoblaysan, bu voqea va Isoning rivoyati bizni mehr-shafqatli bo‘lish foydali ekanligiga o‘rgatadimi?

IBODAT: “Xudoyim, Sen mening ko‘plab gunohlarimni kechirgansan. Sendan o‘tinib so‘rayman, men _____ va _____ uchun kechirishimga yordam ber”.

26 FEVRAL. SENING OBRO‘-E’TIBORING QANDAY?

Kalomdan o‘qish: Hikmatlar 3:1-4

Sevgi va sadoqatni aslo tark etma. Bo‘yningga marjon qilib taqib ol, yuraging qa’riga yozib qo‘y. Shunda Xudoning ham, odamlarning ham mehrini qozonasan, ulardan izzat-hurmat topasan (Hikmatlar 3:3-4).

CHAP QATORDA hayotiy va o‘ylab topilgan qahramonlarning nomlari kiritilgan bo‘lib, ular muayyan hurmatga egadirlar. O‘ng qatordan har biriga mos tavsifni topgin.

1	Benedikt Arnold	A	Johil
2	Midas	B	Xasis
3	Skrudj	V	Rassom
4	Maykl Jordan	G	Kambag‘al
5	Xon Attila	D	Romantik
6	Pokaxontas	E	Olim
7	Gerkules	J	Xoin
8	Albert Eynshteyn	Z	Badavlat
9	Mikelandjelo	I	Sportchi
10	Romeo	K	Polvon

Xo‘sh, nima bo‘ldi? Mabodo javoblarning yarmini bilmasang ham, o‘zingni urintirma; bu bor yo‘g‘i ermak! Agar sen hammasiga to‘g‘ri javob bergan bo‘lsang, u holda o‘zingni Albert Eynshteyn deb nomlagin!

Yanada muhimrog‘i mana bunday savolga javob berishdir: agar bu ro‘yxatda *sening* isming bo‘lsa, do‘stlaring, ota-onang va boshqa odamlar buni qanday tavsiflagan bo‘lishardi? Agar o‘ng qatorda rahmdil va mehr-shafqatli degan so‘zlar bo‘lsa, ularni sening noming bilan bog‘lay olisharmidi? Agar shunday bo‘lsa, sen mehr-shafqatli inson degan hurmatga sazovar bo‘libsan. Bu hurmat-e’tibor yoqimli bo‘lib qolmasdan seni himoya ham qiladi. Agar seni rahmdil va mehr-shafqatli deb hisoblashsa, odamlar senga intilishadi. Senda boshqalarga yordam berish imkoniyatlari ochiladi va senga boshqalar yordam berishadi.

Mabodo sen bilan *rahmdil va mehr-shafqatli* so‘zlari bog‘lanmagan bo‘lsa, bu sifatlarni egallab olishni boshlash uchun hali kech emas. Shunda sen Muqaddas Kitobning bugun o‘qiladigan oyatida aytilganidek, “Xudoning ham, odamlarning ham mehrini qozonasan, ulardan izzat hurmat topasan” va atrofdagilarga bo‘lgan mehr-shafqatli munosabating mevasidan bahramand bo‘lasan.

MULOHAZA QILGIN: Hikmatlar Kitobining 22:1 da shunday deyilgan: “Yaxshi nom eng katta boylikdan ortiq, marhamatga sazovor bo‘lish esa kumushu oltindan ham yaxshi”. Nima deb o‘ylaysan, bu haqiqatmi? Nima uchun?

IBODAT: “Xudoyim, Sen va odamlar men haqimda chindan ham yaxshi fikrda bo‘lishlarini istayman. Men bugun ayniqsa _____ ga mehr-shafqatli munosabatda bo‘lmoqchiman va quyidagi ishlarni qilmoqchiman _____”.

27 FEVRAL. XUDODAN BERILGAN MUKOFOT

Kalomdan o‘qish: 1 Shohlar 26:1-25

Egamiz har bir odamning to‘g‘riligiga va sadoqatiga yarasha mukofot beradi (1 Shohlar 26:23).

BECHORA YUSUF. U Po‘tifar ismli odamning qo‘lida ishlab yurganida, xo‘jayinning xotini uni o‘ziga jalb etmoqchi bo‘ldi. Ayol shunday dedi:

– Yusuf, azizim, men bilan to‘shakka yotmaysanmi? (Ibtido 39:7, erkin tarjima).

Xo‘sh, Yusuf nima qildi? U tashqariga qarab yugurdi! Yusuf to‘g‘ri yo‘l tutdi va bilasanmi, nima bo‘ldi? U qamoqqa tushdi!

Bechora Ilyos. Xudo unga Karmil tog‘ida barcha isroilliklarni, shuningdek, 850 nafar soxta payg‘ambarlarni to‘plash haqida buyurganida, u Isroil Xudosining payg‘ambari bo‘lib, o‘z ishlari bilan mashg‘ul edi. Ilyos nima qildi? U ibodat qilib, Xudoning dushmanlari bilan bo‘lgan buyuk muhorabada g‘olib chiqdi! Ilyos to‘g‘ri yo‘l tutdi, xo‘sh, bilasanmi keyin nima bo‘ldi? U yovuz malika Izabeldan jonini qutqarish uchun qochishga majbur bo‘ldi (qaragin: 3 Shohlar 18:1-19:9).

Bechora Doniyor. U xonasida har kuni uch marotaba Xudoga ibodat qilib, o‘z ishlari bilan mashg‘ul bo‘lib yurganida shoh bir oy mobaynida o‘zidan boshqa hech kimga sajda qilmasliklarini buyurdi (qaragin: Doniyor 6:1-18). Shunda Doniyor nima qildi? U har doimgidek Xudoga sajda qildi. Doniyor to‘g‘ri yo‘l tutdi va bilasanmi, nima bo‘ldi? U zindonga - sherlar orasiga tashlandi!

“Mana shunaqa! - deysan sen. - Bu yigitlar to‘g‘ri yo‘l tutganlari uchun faqat noxushlikka duch kelishdimi?”

Aynan shunday.

“Biroq, - deb hayron bo‘lasan sen, - axir to‘g‘ri qaror bizni himoya qilishi va xatardan asrashi kerak”.

Aynan shunday.

“Biroq nima uchun bu holda, - deb so‘raysan, - barcha bu noxushliklar Yusuf, Ilyos va Doniyor bilan yuz berdi? To‘g‘ri qaror ularni himoya qilganga o‘xshamaydi-ku!”

Ammo aslida, bunday qarorlar ularni himoya qilgan. Biroq, bu voqealar va boshqa ko‘plab odamlarning tarixi shuni ko‘rsatadiki, to‘g‘ri qaror har doim ham taqdirlanmaydi. U biz uchun tezda yaxshilik keltirishiga kafolat yo‘q; aksariyat hollarda esa to‘g‘ri qaror hech kanday yaxshi natijaga olib kelmaydi.

Shoh Shoul Dovudni taqib qilganida (1 Shohlar 26), Dovud Xudo moylagan shohga marhamat ko‘rsatishni lozim topdi. Biroq Dovud Shoulga shafqat qilganida uning holati yaxshi emas, balki *yomon* bo‘ldi. Uning tutgan yo‘li darrov natija bermadi, Biroq Dovud baribir to‘g‘ri ish qildi va Xudo vaqti kelib Dovudni Shoul o‘rniga shoh qilib tayinladi.

Biz har doim ham yaxshi ishlarimiz uchun darrov taqdirlanmaymiz, balki umuman taqdirlanmasligimiz ham mumkin. Biroq biz taqdirlanamizmi yo‘qmi, to‘g‘ri ishlar Xudoni hamisha xursand qiladi. Dovud shunday degan: “Egamiz har bir odamning to‘g‘riligiga va sadoqatiga yarasha mukofot beradi” (1 Shohlar 26:23).

MULOHAZA QILGIN: Sen to‘g‘ri qaror qabul qilganing uchun qachonlardir afsuslanganmisan? Nima uchun shunday yoki shunday emas?

IBODAT: “Xudoyim, men hattoki taqdirlanmasam ham to‘g‘ri yo‘l tutishimga yordam ber. Men hozir to‘g‘ri ish qilishim uchun Sening yordaming ayniqsa zarur, xususan_____”.

28 FEVRAL. MOG‘OR KASALLIGI VA POPUKLAR HAQIDA

Kalomdan o‘qish: Rimliklar 14:21-23

Biror narsani yeyish haqida ikkilanib turib, baribir yeyishga qaror qilgan odam hukmga duch bo‘lishi muqarrar (Rimliklar 14:23).

XUDO BIZGA nima to‘g‘riyu nima noto‘g‘ri ekanligi haqida ko‘plab ko‘rsatmalar bergan. Bu haqda U juda aniq gapiradi: “yolg‘on gapirma”, “o‘g‘irlik qilma”, “ota-onangni hurmat qil” va hokazo.

Xudo juda ko‘p aniq amrlar bergan. Misol uchun, uning Isroil xalqiga bergan amrlarida quyidagilar haqida batafsil ko‘rsatmalar bor:

- ruhoniylarning kiyimlari (Chiqish 28:1-43)
- qanday hayvon, baliq va qushlarni iste’mol qilish mumkin (Levilar 11:1-19)
- uyni qanday qilib “mog‘orli kasallik”dan tozalash mumkin (Levilar 14:33-53)
- kiyimdagi popuklar qanday bo‘lishi kerak (Sahroda 15:37-41)
- xotinlar va qizlar necha marotaba va’da berishlari mumkin (Sahroda 30)
- agar sen yerda qush uyasini topib olsang, nima qilishing kerakligi haqida (Qonunlar 22:6-7)

Bu axir ajoyib emasmi? Agar sening uyingda “mog‘orli kasalliklar” paydo bo‘lsa yoki masihiy buvang popuk taqib yuradimi yo‘qmi, sen ko‘rsatmani qayerdan olishni bilasan!

Afsuski, nima yaxshiyu, nima yomon ekanini bilish hamisha ham oson emas. Albatta, shunday muqarrar tushunchalar bor, ya’ni, qotillik, o‘g‘irlik, sevgi va marhamat. Biroq bazan sening tanloving yaxshi yoki yomon ekanini tushunish qiyin. Aksariyat hollarda to‘g‘ri yo‘lni tanlash juda qiyin. Agar sen harakating yomonligiga ishonmasang, uni qilishing mumkinmi? Agar ishonching komil bo‘lmasa, hech narsa qilmaslik kerakmi? Agar senda harakat qilishing uchun ikkita yo‘l bo‘lsada, sen hech biriga ishonmasang nima qilasan?

Agar sen biror ishning yaxshi yoki yomon ekanini bilmasdan qilsang, bu hamisha ham gunoh bo‘lavermaydi. Biz hamma narsani bilolmaymiz va bilmagan narsalarimizning hammasi ham yomon emas. Boshqa tomonlama, agar bizda shubha bo‘lsa bu yomon bo‘lishi mumkinligi haqida o‘ylaymiz, yaxshisi, navbatdagi to‘rt harakatga o‘tishimiz lozim: 1) boshqa bunday qilmaslik; 2) ibodat qilish; 3) Muqaddas Kitobdan bu haqdagi ko‘rsatmalarni izlash; 4) ota-onangdan yoki o‘zing ishonadigan masihiy do‘stingdan maslahat so‘rash. Agar sen avvalgidek bu to‘g‘ri yoki noto‘g‘ri ekanligini bilmasang, yaxshisi bunday qila ko‘rma. Qandaydir yaxshi ishni *qilmaslikdan* ko‘ra, nimadir noto‘g‘ri ishni *qilmaslik* afzal.

Va yodingda tut: Xudo nafaqat yovuzlikdan nari bo‘lishingni, balki yaxshi ishlar qilishingni afzal ko‘radi.

MULOHAZA QILGIN: Senda qachonlardir nima yaxshiyu, nima yomonligini aniqlash borasida muammo bo‘lganmi? Sen bu vaziyatda nima qilgansan? Ota-onangdan o‘zing qabul qilgan qaror haqida nimalarni o‘ylayotganlarini so‘ragin.

IBODAT: “Xudoyim, menga nafaqat yomonlikdan nari bo‘lishim uchun, balki yaxshilik qilishim uchun yordam ber”.

29 FEVRAL. DEHQON VA ILON

Kalomdan o‘qish: Hikmatlar 19:2-3

Bilimsiz istak yaxshi emas, shoshqaloqlar ham qoqiladi. Nodonning nodonligi hayotini buzadi–yu, Egamizdan jahli chiqadi (Hikmatlar 19:2-3).

EZOP, YUNON QULI, Masihgacha taxminan olti yuz yil avval yashagan bo‘lib, ko‘plab masallar yozgan, ya’ni muhim haqiqatlarga o‘rgatadigan qisqacha voqealarni bitgan. Ulardan biri dehqon va ilon haqida edi.

Dehqon qish kunlarining birida qishlog‘i yaqinidagi iflos yo‘ldan ketayotib, sovuqdan o‘lar holatda yotgan ilonni yo‘l o‘rtasida ko‘rib qoldi.

Dehqonning ilonga rahmi kelib, qo‘yniga solib qo‘ydi, tez orada odam tanasining harorati ilonni hushiga keltirdi. U sapchib dehqonni o‘zining zahari bilan chaqib o‘ldirdi.

Albatta, dehqon ahmoqona ish qildi. U nima qilayotganini tushunishi kerak edi. Unda zaharli ilon bilan do‘stlashish uchun hech qanday imkon yo‘q edi.

Aksariyat odamlar bugungi kunda ham xuddi shunday xatoliklar qilishadi. Ehtimol, ular yo‘ldagi ilonni qo‘ynilariga solishmas, biroq bundan battar tavakkal qilishadi. Ular gunoh bilan o‘ynashadi, vasvasa bilan o‘yin qilishadi, noto‘g‘ri tanlovlarga yo‘l qo‘yishadi. Va ular nega baxtga erishmayotganlaridan, istaklari amalga oshmaganidan hayron bo‘lishadi. Ba’zan ularning noto‘g‘ri qarorlari fojeali oqibatlarga olib keladi, ular esa o‘zlarining barbod bo‘lgan hayotlariga qarab, shunday deb so‘rashadi: “ Xudo nega meni bunday ahvolga soldi?”

Sulaymon shunday degan: “Nodonning nodonligi hayotini buzadi–yu, Egamizdan jahli chiqadi” (Hikmatlar 19:3). Biroq odamlar Unga itoat qilishmasa va o‘zlarining itoatsizliklaridan jabr ko‘rishsa, Xudo aybdor emas. Kimki ilon bilan o‘ynashayotgan bo‘lsa, buning nima bilan tugashini tushunishi kerak.

MULOHAZA QILGIN: Bugungi mutolaada gunoh ilon bilan taqqoslanadi. Nima deb o‘ylaysan, ilon va gunoh o‘rtasida qanday o‘xshashlik bor? Ular nimasi bilan farq qiladi?

Sen gunoh va vasvasa bilan “o‘yin qilish”ingga to‘g‘ri kelganmi? Agar sen Xudoga imkon bersang, U seni gunohdan ozod bo‘lishingga yordam beradi.

IBODAT: ”Xudoyim Ota, men noto‘g‘ri ish qilib, hayotimni barbod qilmoqchi emasman. Menga gunohdan va vasvasadan xalos bo‘lishimga yordam ber, ayniqsa_____”.

1 MART. FIKRLASHNING YANGICHA USLUBI
Kalomdan o‘qish: Efesliklarga 4:17-23
Yangichasiga fikr-zikr qiladigan bo‘linglar (Efesliklarga 4:23).

QUYIDA JOYLASHTIRILGAN NUQTALARGA QARAGIN. Sen qalamni qog‘ozdan olmay turib barcha nuqtalarga tekkizgan holda to‘rtta chiziq chiza olasanmi?



Xo‘sh, qanday bo‘ldi? Sen buning iloji yo‘qligini aytayapsanmi? Bunday qilishning imkoni yo‘qmi? Bu haqda yana bir bora o‘ylab ko‘r. Bu mumkin, faqat shunchaki o‘z fikrlashingni biroz o‘zgartir. Sen faqat nuqtalar bilan cheklangan to‘rtburchak haqida o‘ylayapsan yoki chiziqlar ushbu figuraning chegarasidan chiqib ketishi mumkinligini ko‘rib chiqayapsanmi?

Mana bunday qilishga urinib ko‘r: chap burchakdagi eng pastki nuqtadan boshla, diagonal bo‘ylab yuqoridagi o‘ng burchakka qarab yurg‘izgin. So‘ngra o‘ng tomondagi pastki nuqta yo‘nalishiga qarab chizgin va chiziqni chegaradan tashqarida davom ettir. Shundan so‘ng diagonal bo‘ylab to‘g‘ri chiziqni pastdagi o‘rta nuqta orqali va chapdagi o‘rta nuqtagacha chizib (u faqat ikki nuqta orqali o‘tadi) nuqta chegarasidan tashqarida chizishda davom et. To‘rtinchi chiziq nuqtalarning yuqori qatoridan o‘tadi. Uf! Mana, uddaladik!

Bu vazifadan ko‘zlangan mohiyat nima? Sen Xudo va Uning yo‘llari haqida qanchalik ko‘p bilsang, odamlar sening fikrlashing yo‘nalishini shunchalik past qabul qilishadi. Sen Xudo haqida qanchalik ko‘p bilsang, Uning ezgulik va yovuzlik haqidagi tushunchasini qanchalik ko‘p qabul qilsang, sening fikrlaring va munosabatlaring shunchalik kuchli darajada o‘zgaradi. Atrofingdagilar vaziyatga yoki vasvasaga o‘zlaricha munosabat bildirishadi, sen esa bunga mutlaqo boshqacha munosabatda bo‘lasan. Ular shu tariqa noto‘g‘ri qaror qilishadi, sen esa ular nimani tushunmayotganliklarini bilgan holda to‘g‘ri qaror qabul qilgan bo‘lasan.

Agar biror narsaning iloji bo‘lmasa, odamlar shunday deb o‘ylashadi: “Bunday qilib bo‘lmaydi”. Keling, tan olaylik: biz odamlarmiz va bizning tafakkurimiz cheklangan. Biroq xuddi nuqtalar bilan bo‘lgan mashq kabi, biz o‘zimizdagi imkoniyatlar doirasidan tashqariga chiqishimiz mumkin. Qanday qilib? O‘ylashimcha, Masihga o‘xshab. 1-Korinfliklar 2:16 shunday deyilgan: “Biz esa Masihday fikrlay olamiz”. Uning fikrlari chegara bilmaydi, Uning imkoniyatlari cheksizdir!

MULOHAZA QIL: sening do‘stlaring fikrlashing va qilgan ishlaringga hayron bo‘lgan paytlar bo‘lganmi? Ularda ham ezgulik va yovuzlik haqidagi tasavvur xuddi sening tasavvuringga o‘xshaydimi? Agar shunday bo‘lsa, nima uchun? Agar shunday bo‘lmasa, nima uchun?

IBODAT: “Xudoyim, Sen menga yangicha fikrlash timsolini berganing qanday ajoyib! Menga xuddi Masih kabi fikrlash va harakat qilishimga yordam ber”.

2 MART. SEN VAZIYATNI NAZORAT QILASANMI?
Kalomdan o‘qish: Efesliklar 4:24-27
Xudoning suratida yaratilgan, haqiqiy solihlik va muqaddaslikdan iborat bo‘lgan yangi tabiatga burkaninglar (Efesliklar 4:24).

SEN O‘ZINGNI NAZORAT QILISHNI YO‘QOTASANMI, agar:

- kuchugingni sayrga olib chiqqaningda u sening shimingni yoki oyoq kiyimingni bulg‘ab qo‘ysa?
- do‘stinga telefon qilib unga sinfingdagi “bu yaltoqi”ga chiday olmasligingni aytganingda va to‘satdan telefon raqamini adashtirib o‘sha “yaltoqi”ga gapirayotganingni to‘satdan tushunib qolganingda?
- uyda nonushta qilishni unutganingda va do‘stlaring qoldirgan ovqatni yeyishingga to‘g‘ri kelganida?
- televizorda o‘zing yoqtirgan ko‘rsatuvni ko‘rmoqchi bo‘lganingda, biroq senga mutlaqo qiziqarli bo‘lmasada, prezidentning efir orqali qiladigan qandaydir murojaati tufayli senga ruxsat berishmaganida?
- faqat maktabga borgan vaqtingda uy kiyimingni maktab formasiga almashtirishga unutganingni bilib qolganingda?

Inson ko‘pgina sabablarga ko‘ra o‘zini yo‘qotib qo‘yishi mumkin. Ba’zan butun dunyo sening asabingga tegishga urinayotgandek tuyuladi. Biroq bunday emas.

Har kungi hayotimizda sen o‘zingni yo‘qotib qo‘yadigan ko‘plab vaziyatlar bo‘ladi. O‘zini boshqara olish bu o‘z kayfiyatingni va harakatlaringni boshqara olish layoqati demakdir. Uni o‘zimizda shakllantirish mumkin:

kimdir tabiatan bunday layoqatdan bebahra, deb aytish mumkin emas. U to‘g‘ri qaror bilan bog‘liq emas: sen ba’zan to‘g‘ri ish qilasan, ba’zan esa yo‘q.

Kimdir sening asablaringga qanchalik tegmasin, kimdir seni jahlingni chiqarishni qanchalik istamasin, sen o‘zingdagi “g‘azab o‘ti”ni chiqarib yuborishni qanchalik xohlamagin xotirjamlikni tanlashing kerak. Va Xudoning yordami bilan sen xotirjamlik saqlashni tobora ko‘proq o‘rganaverasan.

O‘zini boshqara olish Muqaddas Ruh beradigan natijalardan biridir. (Qaragin: Galatiyaliklar 5:22-23). Xudoning Ruhi seni nazorat qiladi, sen esa o‘zingni nazorat qila olasan. Bu seni robotga aylantirib qo‘ymaydimi? Bunaqa bo‘lmasa kerak! Sen xotirjamlikni saqlashni yoki holatdan chiqib ketishni tanlashing mumkin. Sen Zabur xonishchisining ushbu maslahatiga quloq solishing yoki uni tan olmasliging mumkin: “Hatto g‘azablanganingizda ham gunoh qilmang, tunda yotganingizda o‘ylang, sukut saqlang” (Zabur 4:5).

MULOHAZA QIL: Efesliklarga maktubning 4:24 o‘qib chiq. Nima deb o‘ylaysan, “yangi odam” bo‘lish nimani anglatadi? Bu sening harakatlaringga qanday ta’sir ko‘rsatadi?

Oxirgi marotaba nima seni o‘z holatingdan chiqishingga majbur qildi? Sen bunga qanday munosabatda bo‘lding? Sen yana qanday yo‘l tutishing mumkin edi?

IBODAT: “Xudoyim, men g‘azablanganimda meni to‘xtat. Menga boshqa yo‘llarni ko‘rishimga imkon ber. To‘g‘ri qaror qilishim uchun menga kuch bergin”.

3 MART. YOVUZLAR BIZGA QARSHI

Kalomdan o‘qish: Efesliklar 4:28-32

Har qanday gina–kudurat, qahru g‘azab, janjalkashlik, g‘iybatchilikni hamda boshqa har xil yomonliklarni o‘zingizdan soqit qilinglar (Efesliklar 4:31).

KRUELLA DE VIL
Skar
Ja’far
Kapitan Kryuk
Fauna va Flora
Sherxon

Bu ismlarni eslayapsanmi? Kruella De Vil – “101 dalmatin”dagi qabih va yovuz ayol. Skar – “Qirol Sher”dagi Simbaning razil amakisi. Ja’far esa disney multfilmidagi “Aloviddin” da Aloviddin, jin va Jasminga qarshi yovuz rejalar tuzgan. Kapitan Kryuk Piter Penning dushmani bo‘lgan. Fauna va Flora esa Zolushkaning o‘gay opalari bo‘lib, unga nisbatan nihoyatda past munosabatda bo‘lganlar. “Changalzorlar kitobi”dagi Sherxon esa bechora Mauglini yeb qo‘yishni istagan! Mumtoz asarlarga aylangan bu multfilmlarni kim ko‘rgan bo‘lsa, Skar va Ja’far kabi obrazlar yovuz ekanligiga ishonishadi. Biroq nima uchun shunday?

Bugungi kunda ko‘pchilik yovuzlik va ezgulik go‘yo mavjud emasligini, har kim nima yaxshiyu, nima yomonligini o‘zi hal qilishi haqida uqtiradi. “sen o‘zingga nima yaxshi ekanligini hal qiladigan balog‘at yoshidasan, – deyishadi ular. – Hech kimni nima yaxshiyu, nima yomonligiga o‘rgatma. Bu har kimning shaxsiy ishi”.

Biroq barcha ham po‘stin tiktirish uchun begunoh itchalarni o‘ldirish (xuddi Kruella De Vil istaganidek) – yomon ekanligiga iqror bo‘lishadi; yoki o‘z akasini o‘ldirib, hamma aybni jiyaniga to‘nkash (xuddi “Qirol Sher”dagi Skar kabi) ham – yaxshi ish emas. Hamma odam yovuzlarning ishi yomon ekanligiga iqror bo‘ladi. Nega? Negaki ezgulik va yovuzlik – shaxsiy ish emas: Xudo bu nima ekanligini bizga tushuntirgan. Faqat Xudo nima yovuzlig-u, nima ezgulik ekanligini hal qilish huquqiga ega, U qotillik va nafrat, g‘azab va jahl yomon ekanligini aytgan.

Xudo aytganki, “Bir–biringizga nisbatan ko‘ngilchan va mehr–shafqatli bo‘linglar. Xudo sizlarni Masih orqali kechirganday, sizlar ham bir–biringizni kechiringlar” (Efesliklar 4:32). Boshqa odamlar sizga nima deyishidan qat’iy nazar – bu yaxshi!

MULOHAZA QIL: Sen birovga g‘azablangan payt bo‘lganmi? Sen qachondir aslida yomon ish qilib: “men hech qanday yomon ish qilmadim” deganmisan? Sen odatda o‘zingni nazorat qila olasanmi?

IBODAT: “Xudoyim, men hattoki o‘zimni yovuzlarcha his qilganimda ham meni sevganliging va menga yordam berishni istaganliging uchun minnatdorman. Men aytishni yoki qilishni xohlagan barcha yomonliklardan xalos bo‘lishim uchun yordam ber”.

4 MART. YO‘LBOSHCHIGA ERGASH

Kalomdan o‘qish: Efesliklarga 5:1-4

Shunindek, orangizda beadablik, nojo‘ya so‘zlaru qo‘pol hazillar ham bo‘lmasin, chunki bunday qiliqlar sizlarga to‘g‘ri kelmaydi. Yaxshisi, Xudoga shukr qilinglar (Efesliklarga 5:4).

SENGA QACHONLARDIR andaza orqali nimanidir qirqishga yoki tikishga to‘g‘ri kelganmi? Yoki chizma bo‘yicha bajarganmisan? Sen qachonlardir qo‘llanmaga amal qilgan holda samolyotning nusxasini yelimlaganmisan yoki tort pishirganmisan?

Sen ayrim narsalarni qilishing uchun rejaga amal qilishing lozim, xoh u tikish uchun nusxa yoki terim bo‘yicha qo‘llanma yoki retsept bo‘lsin. Agar un o‘rniga tuz solsang, tort hosil qila olasanmi? Albatta, yo‘q! Agar samolyotning ikkala qanotini bir tarafga yelimlab yopishtirsak, ucha oladimi? Ucha olmaydi. Mabodo qo‘llanmaga e’tibor bermasdan kiyimning yengini tikib qo‘ysak nima bo‘ladi?

Ha, qo‘llanmani o‘rganish uchun odatda ko‘p vaqt talab etiladi, biroq u orqali yaxshi natijaga erishamiz. Kimki qo‘llanmani tuzgan bo‘lsa, bu haqda bilgan.

Bizning hayotimizda ham andaza bor, bu Isodir. U Xudoning O‘g‘li sifatida bizga Xudoning qandayligini ko‘rsatish uchun keldi. U taqlid qilish uchun eng yaxshi misoldir.

Xudo O‘zining Kalomida bizga o‘z harakatlarimizni nazorat qilishimizni buyurgan, bu esa Uning qandaydir tantiqligi emas. U bizga shunday deydi: “Xuddi Men kabi bo‘linglar”, negaki *U* O‘zini nazorat qiladi. Xudo qachonki, “Mana shu aytganlarimni qilaman” (Ishayo 42:16), deganida, U buni bajaradi. U hech qachon aldamaydi va quruq va’dalar bermaydi.

Ayrim odamlar osonlik bilan o‘zlarini yo‘qotib qo‘yishadi. Biroq Xudo hech qachon O‘zini bunday tutmaydi. Boshqalar nima o‘ylasalar shuni gapiraverishadi, biroq Xudo hamisha O‘z Kalomini nazorat qiladi. Ayrim odamlar o‘z hissiyotlarining qulidirlar, biroq Xudo hamisha mukammaldir, Uning xohishi muqaddasdir.

Xudo O‘zini nazorat qiladi, negaki U biz ham Uning O‘zidan ibrat olib o‘zimizni nazorat qilishimizni xohlaydi.

MULOHAZA QIL: Nima deb o‘ylaysan, Xudo qachonlardir sen o‘zingni qo‘lga olishingga yordam berganmi? Sen o‘zingni Xudo kabi to‘liq boshqara olasanmi? O‘zini nazorat qilish sening harakatlaringda qanday namoyon bo‘ladi?

IBODAT: “Xudoyim, men qanday yashashimda ibrat bo‘lganing uchun Sendan minnatdorman. Sen ko‘rsatgan namunaga amal qilishimga yordam ber”.

5 MART. SENING HAQIQIY RANGLARING

Kalomdan o‘qish: Efesliklarga 5:5-9

Shunday qilib, qay tarzda yashayotganingizga diqqat qilinglar. Nodonlar kabi emas, balki donolarday hayot kechiringlar (Efesliklarga 5:15).

AYRIM SPORT JAMOALARINING TIMSOLI mutlaqo tushunarli. Misol uchun, “Nyu York Yankiz” timsoli – beysbol tayog‘ining uchida Sem tog‘aning shlyapasi tasvirlangan. “Chikago Bullz”ning timsoli – qizil ho‘kiz. “Dallas kovboylari”ning bosh kiyimida bitta yulduz (Texas – “yolg‘iz yulduzning shtati”).

Boshqa jamoalarning an’analari g‘alati ko‘rinishi mumkin. Misol uchun, Pensilvaniya oliygohining rangi – ko‘k va oq, biroq ularning jamoasi “Nitanni Layonz” esa ko‘k rangni ham, oq rangni ham ishlatishmaydi. Detroytning “Qizil qanotlar” jamoasichi? Ularning timsoli – avtomobilning qanotli qizil ruli. Los-Anjelesning “Dodjers” jamoasining timsoli esa “dodj” hisoblanadi.

Shuningdek, ayrim jamoalarning g‘alati tumorlari bor. Misol uchun, Yutada – gorilla, Floridada – baliq, Filadelfiyada – “Fanatikom” nomli mahluq.

Biroq sport jamoalaridagi eng qiziqarlisi bu nomlanish, timsol va tumorlar emas, balki ishqibozlardir. Ular alohida bir bosh kiyimlari, parik va sviterlar kiyib yurishadi. Ularning bo‘ynida sharf o‘ralgan, futbolkalarida esa, “mana shu jamoa chempion!” deb yozilgan. (Qiziq, birdaniga qancha jamoa chempion bo‘lishi mumkin?) Ular o‘z yuzlarini va badanlarini bo‘yashadi. Ular bayroqlar silkitishadi. Ular nishon taqib yurishadi. Ular qo‘shiq aytishadi. Shu tariqa, ular qaysi jamoaga ishqibozlik qilayotganlarini bilsa bo‘ladi.

Sen esa Xudoga qanchalik kuchli muxlislik qilasan? Sen Xudoni sevishing va Unga xizmat qilishing odamlarga ayonmi? Oxir-oqibat, Xudoda jamoalarga xos muayyan ranglar yoki tumorlar yo‘q. Ha albatta, sen masihiycha timsol tushirilgan futbolkani kiyib yurishing mumkin. Sen masihiycha musiqalar eshitishing mumkin. Sen hattoki yoningda mana shu kitobni olib yurishing ham mumkin. (Bu kitobdan yuz nusxasini sotib olib barcha do‘stlaringga sovg‘a qilgin!)

Bularning hammasi ajoyib, biroq biz Xudoga bo‘lgan e’tiqodimizni bu tariqa ko‘rsatmaymiz. Xudo bizning sajda qilishimiz – qiyofalarimizni bo‘yab, bayroqlarni silkitib ifoda etish orqali emas, balki qanday yashayotganligimiz orqali ifoda etishimizni istaydi. U bizning harakatlarimizdan Xudoga itoat etishimiz namoyon bo‘lishini istaydi.

Mana nima uchun o‘zimizni dadil tutishimiz Xudo uchun bunchalik muhim. Biz o‘zimizni qo‘lga olib g‘azabimizni tiyganimizda oliy kuchga bo‘ysunishimizni namoyon etamiz. Biz giyohvand moddalardan va ichkilikbozlikdan o‘zimizni asrab, toza jinsiy yaqinlikka rioya qilganimizda, o‘z xohishlarimizga emas, balki Xudoga itoat qilishimizni ko‘rsatamiz.

Bu futbolkada masihiylik timsolini olib yurish yomon, degani emas; bu Xudoga futbolkaning *ichidagi* inson muhimroq, deganidir.

MULOHAZA QIL: Sen Xudoga qanchalik yaqinsan? Boshqalar sen Xudoni sevishingni va Unga xizmat qilishingni bilishadimi? O‘zingni tutishingdan sen Uning jamoasiga mansubligingni bilsa bo‘ladimi?

IBODAT: “Xudoyim, men Senga o‘zimni boshqargan holda itoat qilishimni ko‘rsatishim uchun yordam ber, ayniqsa _____”.

6 MART. SAMARASIZ ISHLAR
Kalomdan o‘qish: Efesliklarga 5:10-14
Zulmatning besamara ishlarida ishtirok etmanglar, aksincha, ularni fosh etinglar (Efesliklarga 5:11).

SEN O‘ZINGNI QUYIDAGI VAZIYATLARDA QANDAY TUTASAN?

Sen kimsasiz orolga tushib qolding va bu yerdan qanday chiqib ketishni bilmaysan. To‘satdan ufqda samolyot paydo bo‘ladi. Sen:

a) butalar orasida yashirinasan;
b) barmoqlaringni chalishtirib, samolyot yerga qo‘nishini istaysan;
v) Morze kodi bo‘yicha tishlaring bilan taqillatib “SOS” belgisini bildirasan;
g) yuqorida aytilganlardan hech birini qilmaysan.

Sen mashhur xonanda bo‘lib dunyo bo‘ylab muxlislar ommasi oldida konsertlar berishni istaysan. Sen:

a) musiqa darslarini tashlaysan;
b) sukut saqlash qasamyodini qilasan va Pago-pago oroliga jo‘nab ketasan;
v) faqat Yoko Ononing musiqa yozuvlarini eshitasan;
g) yuqorida aytilganlardan hech birini qilmaysan.

Sen Xudoga, bu manzur kelishini va o‘zingga ham foydali ekanligini bilgan holda, o‘z harakatlaringni nazorat qilishni o‘rganmoqchisan. Sen:

a) giyohvand moddalar qabul qilasan;
b) vaqti-vaqti bilan ichib turasan;
v) chekishni boshlaysan;
g) yuqorida aytilganlardan hech birini qilmaysan.

Shoshmachi! Nima gap o‘zi? Agar seni kimsasiz oroldan olib ketishlarini istasang, nega sen butalar orasida yashirinasan va tishlaring bilan “SOS” belgisini bermaysan? Nega sen qo‘shiqchi bo‘lishni xohlasang, sukut saqlash qasamini qabul qilishni istamaysan va o‘zingni boshqarishni hamda Xudoga itoat etishni o‘rganishni istasang nega giyohvand moddalar iste’mol qilmayapsan?

Bu juda oddiy. Bu aytilganlarning bari natija bermaydi. Bularga *qarama-qarshi* tanlovlar senga kerak bo‘lib, ana o‘shalarnigina sen bajarsang natijaga erisha olasan.

Aynan shunday. Giyohvand moddalar, ichkilik va tamakining muammosi shundaki, ular sen o‘zingni boshqarishingga xalaqit beradi. Ular seni *boshqarib bo‘lmaydigan ahvolga* soladi. Misol uchun, sen giyohvand moddalar qabul qilishni boshlaganingda, o‘zingni boshqara olmaysan, giyohvand moddalar seni boshqaradi. Agar sen haddan ziyod ko‘p ichsang, spirtli ichimliklarga bo‘ysunib qolasan. Agar sen chekadigan bo‘lsang, seni nikotin boshqaradi.

Mana nima uchun bu mashg‘ulotlar zararli va kerak emas. Bu natija bermaydigan mashg‘ulotlar; ular Xudoga manzur bo‘ladigan *o‘zini boshqarish* layoqatini egallashimizga xalaqit beradi.

MULOHAZA QIL: Ayrim narsalar noto‘g‘ri bo‘lib, odamga o‘zini boshqarishiga xalaqit beradi. Giyohvand moddalar, chekish va ichkilikdan boshqa yana nimalar bunga taalluqli? Xudodan boshqa hech kim va hech nima seni o‘zingni boshqarishingga xalaqit bermasligi uchun nima qilish kerak?

IBODAT: “Xudoyim, meni boshqarib bo‘lmaydigan ahvolga soladigan narsalarni menga ko‘rsat va O‘z Ruhing orqali ulardan nari bo‘lishimga yordam ber”.

7 MART. AMR ETILGAN VAZIFA: O‘ZINI BOSHQARISH
Kalomdan o‘qish: Efesliklarga 5:15-18
Muqaddas Ruhga to‘lib-toshinglar (Efesliklarga 5:18).

NIMADIR BIZDA TABIIY RAVISHDA YUZ BERADI: misol uchun, biz nafas olamiz, kiprik qoqamiz, charchaymiz va – agar o‘smir bo‘lsak – injiqlik qilamiz.

Boshqa harakatlar uchun esa uncha katta bo‘lmagan harakatlar talab etiladi, misol uchun, ilk bora turish va yurishni o‘rganish yoki futbol o‘ynash, yoki butun maktab oldida qo‘shiq aytish, yoki paypoq solinadigan qutida kartoshkalarni o‘stirish **(**xususan, ko‘pchiligimizda bu tabiiy ravishda hosil bo‘ladi).

Shuningdek, biz har qancha harakat qilmaylik, qo‘limizdan kelmaydigan narsalar bor, misol uchun, bir sakrash bilan baland binoning tomiga chiqolmaymiz (buni faqat Supermen uddalashi mumkin). Yoki qarama-qarshi jins vakilini tushunish. Yoxud o‘z harakatlarimizni nazorat qilish.

“Shoshmangchi, – deb so‘raysan, – gap nima haqda o‘zi? Siz aytmoqchisizki, men har qancha urinsamda o‘zimni boshqara olmaymanmi?” – “Aynan shunday”.

“Bu holda, – deysan sen, – nega bunday gaplarni aytayapsiz? Axir Muqaddas Kitobning barcha oyatlari menga o‘zimni boshqarishimni, g‘azabga berilmasligimni, tilimga ehtiyot bo‘lishim va shunga o‘xshash narsalarni buyurmaydimi? Agar men baribir bularni uddalay olmasam, bu gaplarga ne hojat?” – “Ha, bu baribir sening

qo‘lingdan kelmaydi. Ha, vaqti-vaqti bilan sen o‘zingni boshqarishni eplashing, o‘z g‘azabingni jilovlashing, ba’zan tilingni tiyishing va irodang kuchi bilan hissiyotlarga berilmasliging mumkin. Biroq sen har doim ham o‘zingni boshqara olmaysan. Bu hech kimning qo‘lidan kelmaydi”. – “Xo‘sh, nima bo‘pti? – deysan sen. – U holda... men qanday bo‘lishim kerak?” – “O‘zingni bos, qayg‘urma. Asab hujayralaringni asra. Ha, sen hamisha ham o‘zingni boshqara olmaysan. Buning iloji yo‘q. Xuddi shunday, sen hamisha ham mutlaq beg‘uborlikni, hamisha sevish va halol bo‘lishing mumkin emas. Bunga hatto umid ham qilmagin.

Bu yomon xabar. Yaxshi xabar esa shundan iboratki, buning senga keragi ham yo‘q. Sening oldingda Xudoning amrlariga har doim ham bo‘ysunish vazifasi *qo‘yilmagan*, bu sening qo‘lingdan kelmaydi. Sening vazifang Muqaddas Ruhning kuchiga bo‘ysunish va har kuni *Unga* seni to‘ldirib turishi va boshqarishi uchun ijozat berish. Shunda sen Xudoning amrlarini *bajara olasan*, shuningdek, o‘z harakatlaringni ham. Biroq, buni sen bajarmaysan, buni U amalga oshiradi”. – “ A-ha! – deysan sen. – Demak, meni qachonki *Ruh* boshqarganida men *o‘zimni* boshqara olar ekanman”. Men esa shunday javob qaytaraman: “Aynan shunday! Sen juda aqllisan!”

MULOHAZA QIL: Masala qachonki o‘zini boshqarishga borib taqalganida, bunda sening o‘rning qanday va Ruhning tutgan o‘rni qanaqa? Sen har kuni va har lahzada Muqaddas Ruhga qay tariqa buysunishga hozirlanayapsan?

IBODAT: Muqaddas Ruhga hoziroq, shu lahzadayoq seni boshqarishiga imkon ber. Oddiygina ibodat qil: “Xudoyim, men o‘z hissiyotlarimni boshqara olmasligimni bilaman. Menga O‘z Muqaddas Ruhing orqali hayotimni boshqarishing zarur. Men Sening xaloskorligingga va Sening Ruhing meni to‘ldirishiga ishonaman. O‘tinaman, men har kuni unga bo‘ysunishim lozimligini menga eslatib turgin, Iso nomi bilan. Omin”.

8 MART. HOZIR VA KEYIN
Kalomdan o‘qish: 1 Salonikaliklar 5:6-11
Biz uyg‘oq, hushyor bo‘lishimiz kerak (1 Salonikaliklar 5:6).

OLTI YOSHLI LORA o‘zi xohlagan qo‘g‘irchog‘ini sotib olish uchun pul yig‘ish maqsadida ota-onasiga ko‘p oylar davomida uy ishlariga yordam berdi.

To‘rt yoshli Andrey to‘rtta kichkina mashinalar sotib olishni istagani uchun haftalab bodroqli qutichalardan jamg‘arma va pul yig‘di. U pochta orqali bu mashinalar kelishini deyarli olti hafta kutdi.

Jannaning onasi unga tanlov imkoniyatini taklif qildi: o‘n uch yoshini nishonlash uchun oila a’zolari bilan birgalikda restoranga borish yoki ikki haftadan so‘ng maktabdagi va jamoatdagi barcha do‘stlarini ziyofatga taklif qilish. Tanlov oson emasdi, biroq Janna ikki hafta kutishni ma’qul topdi. Ammo keyin u bu hayotidagi” eng yaxshi tug‘ilgan kun” bo‘lganligini gapirib yurdi!

Bu unchalik murakkab tuyulmasligi mumkin, biroq aslida Lora, Andrey va Janna ko‘p bolalarning (va hattoki kattalarning ham) qo‘lidan kelmaydigan ishni qilishdi. Ular *zavqlanish vaqtini kechiktirishga* rozi bo‘lishdi.

– Xo‘sh, nima bo‘pti? Bu nima degani o‘zi?

– Sen, albatta, huzur-halovat nima ekanligini bilasan. Bu qandaydir yoqimli narsa. Bu sen orzu qilganing. Bu mukofot. Ko‘ngilxushlik. Qandaydir mazali va quvonchli. Seni baxtli qiladigan nimadir.

Balog‘atga yetganlikning belgilaridan biri – rohatlanish muddatini keyinga surish layoqatidir. Xuddi Andrey pul va jamg‘arma to‘plab olti hafta kutganidek, aslida unga hozirning o‘zidayoq do‘konga borib biror nimani sotib olishi ancha yengil edi! Xuddi o‘z tug‘ilgan kunini nishonlashni deyarli ikki hafta kutgan Janna kabi. Xuddi o‘ziga qo‘g‘irchoq sotib olish uchun bir necha oylab pul yig‘gan Lora kabi, – ko‘pchiligimiz esa uch kun ichidayoq (yoki bir soat ichida) taslim bo‘lib qo‘ya qolardik va pulimizni shirinlik yoki saqich uchun sarflab qo‘yardik.

Rohatlanish vaqtini kechiktira olish layoqati ham – *o‘zini boshqara olish* demakdir. O‘z istaklarimizni nazorat qilishimiz va xohlaganlarimizga erisha olmaganimizda bunga rozi bo‘lish juda qiyin bo‘ladi. Mana nima uchun ayrim bolalar o‘g‘irlik qilib noxushlikka duch keladilar. Mana nima uchun ayrim o‘smir qizlar homilador bo‘lib qolishadi – yoki o‘smir yigitlar qizlarni homilador qilib qo‘yishadi. Ular o‘z istaklarini keyinga qoldira olishmaydi, negaki buning uchun odam o‘zini boshqara olishi kerak.

Ochig‘ini aytganda, sen juda xohlagan narsani kutish nihoyatda og‘ir bo‘lishi mumkin. Biroq agarda biz o‘zimizni boshqarishni o‘rgana olmasak, yoshimiz nechada bo‘lishidan qat’iy nazar katta noxushliklarga duch kelishimiz mumkin. Va faqat bugina emas – oxir-oqibat ko‘pgina muhim narsalardan mahrum bo‘lamiz. Misol uchun, atrofdagilarning hurmatidan. Yoki ota-onalarimizning ishonchidan. Yoki yaxshi ma’lumot olishdan. Haqiqiy sevgidan. Va shunga o‘xshash ko‘pgina yaxshi narsalardan.

MULOHAZA QIL: Nimadir juda yaxshi narsani qay tarzda kuta olmaganing haqida eslab ko‘r. Rohatlanish vaqtini kechiktirishingga hech to‘g‘ri kelganmi? Va natija qanday bo‘lgan? Nega?

HARAKAT QIL: Imkoniyatdan foydalan va bugun oladigan qandaydir huzur-halovatni keyinga qoldirishga urinib ko‘rgin.

IBODAT: “Xudoyim, Sen menga hozirlagan barcha yaxshi narsalar uchun minnatdorman, men kutishga tayyorman”.

9 MART. GLADIATORLAR, O‘ZGA SAYYORALIKLAR VA SEN

Kalomdan o‘qish: Hikmatlar 25:28
O‘zini tuta olmaydigan odam devorsiz vayrona shahar kabidir (Hikmatlar 25:28).

SEN SHOUDA ISHTIROK ETAYAPSAN. Boshlovchi sen ikkita baquvvat yigit bilan birgalikda ringga chiqishing lozimligini tushuntiradi. Sening vazifang – ularni chetlab o‘tib, to‘pni doiraga tushirish. Yigitlar esa qo‘llaridagi to‘qmoqlarini silkitib senga xalaqit berishadi. Sen buni olti marotaba qilishingga to‘g‘ri keladi. Boshlovchi so‘raydi:

– Darvoqe, shlem (himoya bosh kiyimi)ni kiyishni xohlamaysanmi?

Yaxshi bo‘lardi!

Yoki “Sarguzasht” kosmik kemasining boshlig‘i sifatida o‘zingni tasavvur qil. Sen uchuvchiga Blendor sayyorasi sari yo‘l olishni buyurasan. To‘satdan kema silkina boshlaydi, jamoa a’zolari bir-birlariga turtinib yiqilishadi. Sening birinchi yordamching Vanna qichqirib yuboradi:

– Kapitan, bizga hujum qilishdi!

Sen qarshingdagi ulkan ekranga qarab sizlarga raketalar o‘qtalgan bir to‘da dushman kemalarini ko‘rasan. Atrofda portlashlar eshitiladi. Vanna qichqiradi:

– Balki, himoya maydonini ishga tushirarmiz, kapitan?

Albatta!

Tasavvur qil, sen masihiysan va Xudoga manzur bo‘lishni istaysan, biroq shu bilan birgalikda hayotdan imkon qadar ko‘proq zavq olib yashashni istaysan. Seni Xudo sevishini va sen ham Uni sevishingni bilasan. Ammo bu doimo ham oson emas. Ota-onang sendan juda ko‘p narsani kutishmoqda. Do‘stlaring o‘z istaganingdek ish tutishing lozimligini zo‘r berib uqtirishmoqda. Ba’zan sen bardosh bera olmaydigandek tuyulasan o‘zingga. Muqaddas Kitob esa shunday deydi: “O‘z ruhingni boshqar”.

Xo‘sh, buni qanday qilish mumkin?

Aslida, bu uchala vaziyat bir-biridan unchalik katta farq qilmaydi. Agar senga ikkita baquvvat yigit hujum qilayotgan bo‘lishsa, shlem senga kerak bo‘ladi. Mabodo senga kelgindilar raketa bilan hujum qilishayotgan bo‘lishsa, senga himoya maydoni zarur. Agar dunyo havaslari seni vasvasaga solayotgan bo‘lsa, sen o‘zingni boshqarishni egallashing lozim.

Muqaddas Kitobda shunday deyilgan: “O‘zini tuta olmaydigan odam devorsiz vayrona shahar kabidir” (Hikmatlar 25:28). Boshqacha qilib aytganda, o‘zini boshqara olish – qadimiy shaharni dushmanlaridan asragan baland tosh devorlar kabi seni himoya qiladi. U seni mushohada etilmagan so‘zlardan asrashi mumkin. U sen keyinchalik afsuslanadigan ishlarni hozir qilib qo‘yishingga xalaqit berishi mumkin. Har bir yaxshi xislat singari u seni himoya qilib yordam beradi. Shunday ekan, uydan tashqariga chiqqaningda o‘zini boshqarish haqida unutmagin!

MULOHAZA QIL: O‘zini boshqarish yuqorida qayd etilgani kabi “himoya vositasi”ga nimasi bilan o‘xshash? Hayotning qaysi jabhalarida o‘zini boshqarishni bilgan yaxshi? O‘zini boshqarish nihoyatda kerak bo‘ladigan hayotiy jabhalaring bormi?

IBODAT: “Xudoyim, menga Sening himoyang kerak, ayniqsa.....”.

10 MART. DIYONATGA YO‘L
Kalomdan o‘qish: 2 Butrus 1:6-11
Vazminlik, sabr-toqat, diyonat (2 Butrus 1:6).

“YUMSHOQQINA BOSHI BERK KO‘CHAGA tushib qolishni istaysizmi? – deya sendan so‘raydi Janubiy Uralda yashovchi kishi. – Bu holda Yesaulovo va Unkurdu orqali shimolga borishingiz lozim.

Jmerinka shahriga borish uchun esa Monastыriщe va Nemirov orqali borishingga to‘g‘ri keladi. Bu agarda sen sharqdan boradigan bo‘lsang. Agar g‘arbdan borsang, u holda Gorodok va Bardan o‘tasan.

Tubsizlik shahriga esa Pskov va Porxov orqali o‘tiladi. Shuningdek, Valday va Ko‘hna Russu orqali ham, hattoki Paraxino-Poddube orqali ham o‘tsa bo‘ladi, ammo aylanishga to‘g‘ri keladi.

Biroq, Tubsizlikka borishimiz kerak emas. Agar sen masihiy bo‘lsang, diyonat sari borishing kerak. Diyonat sari yo‘l esa o‘zini boshqara olish orqali o‘tadi.

Mana, Isoning birinchi shogirdlaridan bo‘lgan Butrus shuni yozayotganida nimani nazarda tutgan: “vazminlik, sabr-toqat, diyonat”. O‘zini boshqarish yoki sabr-qanoat bu senga zarar keltiradigan narsalarni gapirish emas. Bu sen hozir ega bo‘lishni istagan, biroq buning iloji bo‘lmagan yoki senga lozim bo‘lmagan narsalardan voz kechish layoqatidir. Bu shuningdek, o‘zini tarbiyalash, Xudoning haqiqatiga va Uning Kalomiga o‘rganish demakdir. Pavlus Titusga maktubida biz “nafsni tiyishimiz, to‘g‘ri va taqvodor hayot kechirishimiz lozim”ligi haqida yozadi (Titus 2: 12).

Agar sen Xudoga o‘xshashni xohlasang, o‘z ustingdan nazorat qilishni o‘rganishing lozim, negaki bu senga vasvasaga qarshi turishingga yordam beradi, to‘g‘ri ko‘nikmalarni o‘zlashtirishing uchun (misol uchun, Muqaddas Kitobni o‘qish va ibodat qilishing uchun) va diyonatda ulg‘ayishingda sabr beradi.

MULOHAZA QIL: O‘zini boshqarish – bu, mahoratdir: 1) senga zarar keltiradigan so‘zlarni gapirmaslik; 2) o‘zing istaydigan, biroq erishib bo‘lmaydigan – yoki erishish shart bo‘lmagan – istakdan voz

kechish; 3) Xudo senga buyurgan amrlarga qat'iy amal qilish. Sen mana shu uchala jabhada o'zingni boshqarish layoqatingni namoyon etasanmi? Bu borada qanday muammolaring bor?

IBODAT: "Xudoyim, Muqaddas Kitobning bugun o'qiladigan oyatida mulohazakorlik bizni o'zimizni boshqarish layoqatiga yetaklashi haqida aytilgan. Ko'proq bilishim uchun menga yordam ber! O'zimni boshqarishni o'rganishimga yordam ber, ayniqsa ..... va meni diyonatga boshlab bor".

11 MART. YAXSHI NARSALAR NIHOYATDA KO'P

Kalomdan o'qish: 1 Butrus 5:8-9

Hushyor va bedor bo'linglar! Dushmaningiz bo'lgan iblis sherday bo'kirib, birovni yutib yuborish uchun izg'ib yuribdi (1 Butrus 5:8).

Ushbu fikr to'g'ri yoki noto'g'ri ekanligini ko'rsatish uchun "T" YOKI "N" HARFLARINI BELGILAB CHIQ:

1	Suv ichish zararli bo'lishi mumkin	T	N
2	Dush qabul qilish ajaldek xatarli bo'lishi mumkin	T	N
3	Asalarining nishi unchalik xavfli emas	T	N
4	Samolyotda uchish – sayohat uchun eng xavfsiz vosita	T	N
5	Qurol bilan o'ynash xatarli	T	N
6	Chekish o'pka xastaligini keltirib chiqarishi mumkin	T	N
7	Quyosh nuri xavfli bo'lishi mumkin	T	N
8	Shakar sog'lik uchun zararli	T	N
9	Juda ko'p vaqtni Internetda yoki kompyuter o'yinlari bilan o'tkazish zararli bo'lishi mumkin	T	N
10	Oshxona sochiqlarida mikroblar eng ko'p to'planishadi	T	N

Endi esa javoblarni tekshiring:

1. To'g'ri. Agar senda tomog'ingni chayish va erkin nafas olish imkoni bo'lmasa, suv ham tiqilishi mumkin.
2. To'g'ri. Ko'pgina odamlar dushxonada toyib, yiqilib tushishadi; ayrimlar hattoki olingan jarohatdan vafot etishadi.
3. Noto'g'ri. Hasharotlarning chaqishiga allergiyasi bo'lgan odamlar bir necha lahza ichida o'lib qolishlari mumkin.
4. To'g'ri. Samolyotda uzoqqa sayohat qilish boshqa vositalarga nisbatan xavfsizroq.
5. To'g'ri (bunga kim ham shubha qilardi!).
6. To'g'ri (bunga ham shubha yo'q!).
7. To'g'ri. Quyosh nurining uzoq vaqt ta'sir qilishi teri kasalligi yoki quyosh urishiga olib keladi.
8. To'g'ri ham, noto'g'ri ham. Muayyan miqdordagi shakar zararsiz. Ammo u katta miqdorda bo'lsa, tishga ziyon keltiradi. Hattoki senda diabet bo'lsa, hech qanday holatda uni iste'mol qilmaslik kerak.
9. To'g'ri. Joystik va klaviaturalardan uzoq vaqt foydalanish qo'ldagi asab tolalariga shikast yetkazishi mumkin.
10. To'g'ri.

Yuqorida qayd etilgan ayrim uqtirmalar o'z holicha yaxshi, biroq – agarda sen ehtiyotsiz bo'lsang yoki o'zingni nazorat qilolmasang – zararli bo'lishi mumkin. O'zini boshqara bilish seni orqaga ketishdan va yomonlikka berilishdan asraydi. Ota-onang ham senga shunga o'xshash gaplarni aytishgan, to'g'rimi? Mayli, mayli. Shunchaki mana bu gapni yodingda tut: iblis seni yeb qo'ymoqchi bo'layapti. Va u iloji bo'lsa senga zarar yetkazish uchun – hattoki yaxshiliklarni ham senga qarshi ishlatib bo'lsada, – nima zarur bo'lsa hammasini qiladi. Xullas, hushyor bo'lgin. O'zingni boshqar. Seni g'ajib tashlashlariga imkon berma.

MULOHAZA QIL: Agar sen ehtiyot bo'lmasang, qanday "yaxshi" va "zararsiz" sifatlar xavf keltirishi mumkin? Balki ota-onangdan, do'stlaringdan yoki jamoat cho'ponidan sening hayoting jabhasida bu sifatlar qo'llanilganida o'zingni nazorat qilishlarini so'rab ko'rarsan?

IBODAT: "Xudoyim, Sen bilasan, men ba'zan _____ yuztuban ketaman. Men o'zimni barbod qilmasligim uchun meni ogohlantir".

12 MART. TOM VA BEKKINING SARGUZASHTLARI

Kalomdan o'qish: Zabur 118:97-101

Barcha ustozlarimdan ham ziyrakroq bo'ldim, Sening shartlaring ustida fikr yuritaman (Zabur 118:99).

TOM SOYYER VA BEKKI TETCHER adashib qolishdi. Ular g'or ichida uch kun sanqishdi. Ular Tomning ziyofatdan qolgan ozroq yeguligini ham yeb bo'lishdi, yo'lni yoritib borish uchun esa ularda bor-yo'g'i bittagina

sham bor edi. Ular qachondir bu qorong‘i, egri o‘tish joylaridan chiqib olish umidini deyarli yo‘qotganlarida, Tomda bir fikr tug‘ildi.

U cho‘ntagidan varrakning chilvirini chiqarib g‘or devorining bo‘rtib chiqqan joyiga bog‘ladi. So‘ngra chilvirni o‘rab bir o‘tish joyidan boshqasiga o‘ta boshladi, chilvir tugaganida esa ortiga qaytdi. Keyin esa boshqa yo‘ldan o‘tishga qaror qildi, biroq u yoqda ham hech nimani ko‘rmadi.

Tom chilvirni qo‘lidan qo‘ymagan holda o‘tish joyidan chiqib olishlari uchun uchinchi bora urinib ko‘rdi. U endi orqasiga qaytmoqchi bo‘lganida uzoqdagi shu’lani payqab qoldi. U chilvirni tashlab toki yoriqqa chiqib olmaganicha oldinga qarab yugurdi – va Missisipi daryosining tanish qirg‘oqlarini ko‘rdi.

U tezda ortiga qaytib Bekkini ham tashqariga olib chiqdi. Ularning qorong‘i g‘orda o‘tkazgan vaqtlaridan so‘ng erkinlikda, kunduzgi yorug‘lik bag‘rida bo‘lishlari nihoyatda yoqimli bo‘ldi!

Bu, amerika mumtoz adabiyoti – Mark Tvenning “Tom Soyyerning sarguzashtlari” asaridan bir epizoddir. U bizga hayotimizda Muqaddas Kitob qanday ahamiyat kasb etishi haqida tushunishimizga yordam beradi.

Ko‘rayapsanmi, ko‘pchilik odamlar xuddi Tom va Bekki g‘orda adashib qolganlaridek hayotda adashib qolishgan. Odamlar qayoqqa borishlari kerak ekanligini, qaysi yo‘l to‘g‘ri ekanligini bilishmaydi. Ular tusmollab yurishadi va doira bo‘ylab to‘g‘ri yo‘lni tanlaganlariga umid qilib va buni o‘zlari ham aniq bilmagan holda aylanaverishadi.

Ammo Muqaddas Kitob bizga xuddi Tomga varrakning chilviri yordam bergani kabi yordam beradi. Zabur Kitobining 118:105 da shunday yozilgan: “Sening kaloming qadamlarim uchun chiroqdir, yo‘limga nur sochadigan yorug‘likdir”. Muqaddas Kitob bizga to‘g‘ri yo‘nalish beradi, negaki u bizni Xudoga boshlab boradi. Biz baribir gohida nima yaxshiyu, nima yomonligini bilmay o‘zimizga to‘liq ishona olmaymiz. Biroq agarda biz Muqaddas Kitobga tayansak, to‘g‘ri yo‘lni tanlashimiz va unga amal qilishimiz oson kechadi.

MULOHAZA QIL: Agar Tomning cho‘ntagida varrakning chilviri chiqarilmasdan qolaverganida, Tom va Bekki g‘ordan chiqa olisharmidi? Agar u birinchi o‘tish joyi berk ekanligini ko‘rib, bu yerdan chiqish uchun boshqa harakat qilmaganida nima bo‘lardi? Bu savollarga javoblar Muqaddas Kitobdan foydalanishing uchun qay tariqa senga yordam beradi?

IBODAT: “Xudoyim, men hozirda mana shu _____ borada o‘zimda ishonch sezmayapman. Marhamat qilib men bilan shu haqda gaplash va Sening Kaloming yordamida nima qilishim kerakligini aytgin”.

13 MART. XUDO – BIZNING TARAFIMIZDA
Kalomdan o‘qish: Yeremiyo 32:38-41
Men ular bilan abadiy ahd tuzaman. Ularga doim yaxshilik qilishdan qochmayman. (Yeremiyo 32:40).

Petyada Xudo haqida nihoyatda noaniq tushuncha bor. Nega? Negaki Petyaning dadasi – yirik fabrikaning direktori. U ko‘p sayohat qiladi va oilasida juda kam vaqt o‘tkazadi. Petya Xudoni otasi kabi tasavvur qiladi: xuddi shunday uzoqda va yetishib bo‘lmaydi.

Larisaning ham Xudo haqidagi tasavvuri juda g‘alati. Uning otasi – ichkilikboz va u ichishni boshlaganida butun oila uning g‘azab o‘tidan qo‘rquv bilan yashirinib oladi. Larisa Xudo otasiga o‘xshaydi deb o‘ylaydi: darg‘azab va sevishga noqobil.

Lizaning Xudo haqidagi noto‘g‘ri tasavvurining boshqa sababi bor. Uning dadasi qizi nima xohlasa sotib olib beradi – kompakt disklardan tortib so‘nggi urfdagi kiyimgacha. Liza Xudoni otasiga o‘xshatadi: U Liza nimani so‘ramasin, hammasini beradi.

Gena ham Xudoni noto‘g‘ri tasavvur qiladi. U hech qachon o‘z otasini bilmagan. U tug‘ilganida, ota-onasi nikohda bo‘lishmagan. Otasi hech qachon uni ko‘rishni istamagan. Genaning fikricha, Xudo u bilan aslo qiziqmaydi.

Petya, Larisa, Liza va Genaning muammosi – aychayin keng tarqalgan holat. Ularning Xudo haqidagi tasavvurlari o‘zlarining yerdagi otalari qanday ekanliklariga asoslangan. Ko‘plab odamlar Xudoni aynan shunday tasavvur qilishadi. Biroq aksariyat holatda bunday tasavvur noto‘g‘ridir.

Petya nimaiki qilmasin, Xudo hamisha u bilan birga bo‘lishga va’da beradi (Ibroniylarga 13:5). Larisaning otasi o‘zini qanday tutmasin, Samoviy Otamiz bizni qizg‘in va hech qanday shartlarsiz sevadi (Ishayo 54:10). Lizaning yerdagi otasi nima qilmasin, Samoviy Ota Liza so‘ragan hamma narsani uning yaxshiligi yo‘lida beradi (Yeremiyo 32: 40). Va hattoki Genaning bu hayotda otasi bo‘lmasa, Xudo “etimlarning Otasi” bo‘lishga va’da beradi (Zabur 67:6).

Sening munosabatlaring yerdagi otangga nisbatan yaxshi yoki yomon bo‘lishi mumkin. Bu munosabatlar bir xilda bo‘lishi yoki vaqti vaqti bilan o‘zgarishi mumkin. Balki Samoviy Otaning timsolini yerdagi otang timsolidan farq qilishing qiyindir. Biroq ota-onang bilan munosabating qanday bo‘lmasin, yodingda tut: Samoviy Ota senga faqat yaxshilik tilaydi. Agar sen ijozat bersang, U senga albatta yordam beradi.

MULOHAZA QIL: Xudo senga kimdir orqali yaxshilik qilganida bu senga yomon *tuyulgan* paytlar bo‘lganmi? Xudo hamisha ham bizga O‘z rejalarini ochadimi? U senga eng yaxshi narsalarni tilashiga ishonasanmi? Uning bevosita natijalari qanday bo‘lishidan qat’iy nazar, sen Unga yetarli darajada bo‘ysunasanmi?

IBODAT: “Xudoyim, men so‘rayotganlarimning hammasini bermayotganingni bilaman, ammo berayotganlaring menga farovonlik keltirishiga ishonishim uchun yordam ber”.

14 MART. SABR-BARDOSH HUDUDI
Kalomdan o‘qish: Ishayo 5:20-21
Holingizga voy, ey yomonni yaxshi, yaxshini yomon deb aytadiganlar! (Ishayo 5:20)

“Men sizlarga o‘rta maktab o‘quvchisi haqidagi voqeani so‘zlab bermoqchiman – deydi televizordagi boshlovchi, – keling, uning ismini Borya deb atay qolaylik. Borya, buvisi vafot etganida, mehnat darsida uning xotirasiga bag‘ishlab nimadir qilmoqchi bo‘ldi. U qirqishi kerak bo‘lgan yog‘ochni diqqat bilan o‘lchab chiqdi. Mehnat o‘qituvchisi maktabda yog‘och bo‘laklarini tayyorlashiga yordam berdi, biroq ularni yig‘ishiga ruxsat bermadi, negaki, bu kimningdir tuyg‘ularini haqorat qilish bo‘lardi, boz ustiga noqonuniy ish edi. Boryaga o‘z ishlovini – yog‘och xochni – uyida yig‘ishiga to‘g‘ri keldi”.

Senga bu voqea g‘alati tuyulayaptimi? Balki, o‘ylab topilgandek tuyulgandir? Xuddi “Maxfiy ma’lumotlar” seriyasiga o‘xshaydimi? Afsuski, bu haqiqat. Boryaga buvisining xotirasi uchun yasagan yog‘och xochni maktabda tugatishiga ruxsat berishmadi, negaki kimdir – maktab direktori yoki o‘qituvchi – bu harakat boshqa dindagi odamlarga nisbatan “murosasizlik” bo‘lib tuyulishini o‘yladi. Bunga o‘xshash voqealar bizning jamiyatda ayniqsa masihiylar bilan tobora ko‘proq yuz bermoqda. Masihiy bolalarga o‘z imonlarini yaxshisi pinhon tutishlari, Masih haqida gapirmaslik, masihiy timsol tushirilgan futbolkalar kiymaslik va ayrim masalalarda Muqaddas Kitob aqidalariga tayanmaslik haqida tez-tez gapirishmoqda, aks holda ular “murosasiz”ga aylanishlari va ulardan hattoki ikkiyuzlamachilar sifatida nafratlanishlari mumkin.

Xudo odamlarga atrofidagilarni hurmat qilishi, ularga sevgi bilan munosabatda bo‘lishlari va ularni haqorat qilmasliklari kerakligiga buyuradi. U bizni adolatli bo‘lishga chorlaydi (Mixo 6:8). Uning Kalomida shunday deb yozilgan: “Hamma bilan tinch-totuv yashashga harakat qilinglar (Ibroniylar 12:14). Biroq bu, yovuzlikni ezgulik, ezgulikni esa – yovuzlik deb atashimiz kerakligini anglatmaydi. Bu, biz go‘yoki, ezgulik va yovuzlik yo‘qdek o‘zimizni tutishimiz lozimligini ham bildirmaydi.

Xudoning Kalomi o‘zgarmasdir. Unda shunday amr berilgan:” Masihga bo‘lgan umidingiz haqida sizdan so‘ragan har bir kishiga javob berishga doimo tayyor turinglar. Lekin buni muloyimlik va hurmat bilan bajo qilinglar” (1 Butrus 3:15).

MULOHAZA QIL: Atrofingdagi odamlarning huquq va fikrlarini hurmat qilishing hamda ularning fikrlari to‘g‘ri ekanligi haqidagi ishonching o‘rtasida qanday farq bor? Sen ularning fikrlari to‘g‘ri ekanligiga ishonmagan holda, atrofingdagi odamlarning huquq va fikrlarini hurmat qilasanmi? Sen qanday qarashlarga sabr bilan yondashasan? Qaysilariga esa murosasizlik bilan?

IBODAT: Butrusning birinchi maktubi 3-bob, 15-oyatini o‘qib chiq va 15-17 oyatlar bo‘yicha ibodat qil (misol uchun, shunday: “Xudoyim, hamisha o‘z imonim haqida gapira olishimga tayyor bo‘lishim uchun yordam ber va menga _____larni eslatib tur”).

15 MART. ZAG‘IZG‘ON QAYERDA?
Kalomdan o‘qish: Ibroniylarga 12:1-2
Isoga ko‘z tikaylik... (Ibroniylarga 12:2).

SEN ZAG‘IZG‘ON QAYERDA EKANLIGINI BILASANMI? Dog, Lama, Ayg‘ir ot yoki Sigir haqida nima deysan? Agar sen xohlasang, Alligatorni ham topishing mumkin.

Albatta, biz hozir jonivorlar haqida gapirmayapmiz. Biz aytayotgan Zag‘izg‘on – qush emas, balki joy nomidir. Xuddi Dog, Lama, Ayg‘ir ot va Sigir kabi. Bu geografik atamalar. Zag‘izg‘on shahri Ukrainada joylashgan. Dog – Kichik Antil orollaridagi orol, Lama – shimoliy Italiyadagi shahar, Ayg‘ir ot – Donetsk viloyatidagi daryo, Sigir esa – Avstraliyadagi shahar! Alligator oroli Singapur bo‘g‘ozida joylashgan.

Mabodo sen yo‘lovchilardan so‘rab yoki hattoki xaritaga qarab, bu joylarni topishga urinsang, bu sendan ko‘p vaqtni talab qiladi, ayrimlarini esa ehtimol topa olmassan ham! Biroq sen dunyo xaritasidan yoki kompyuter dasturi orqali bu geografik atamalarni topmoqchi bo‘lsang, ularni qiyinchiliksiz topasan.

Uchuvchilar, dengizchilar va boshqa sayohatchilar joylarni topish uchun “Aniqlashning umumiy tizimi” nomli elektron tizimdan foydalanishadi. Bu tizim koinotdagi yo‘ldoshga xabar yuboradi. Yo‘ldosh esa xabar qayerdan kelayotganini aniqlab, ma’lumotni jo‘natadi. Shu tariqa, sen, turgan joyingni aniqlab olishing mumkin. Sen osmonda yoki ummonda yo‘qolib qolsang, bundan foydalanish nihoyatda qulay.

Albatta, bizlardan ko‘pchiligimizga bunday tizim kerak emas. Biz axir Tinch ummoninning notanish joylarida har doim ham bo‘lavermaymiz. Biroq bizning qalbimizga shunday tizim zarur. Biz qaror qilganimizda yoki nimanidir tanlaganimizda, aksariyat hollarda, o‘zimizni yo‘qotib qo‘yamiz. Ba’zan biz qayerda ezgulik, qayerda esa yovuzlik borligini ko‘rmaymiz. Oqibatda esa bizda noto‘g‘ri fikr shakllanadi va biz noto‘g‘ri qarorlar qabul qilamiz.

Iso – bizning aniqlash tizimimiz. U abadiy mavjud, shuningdek, nima yaxshiyu, nima yomonligini nafaqat *biladi*; Uning O‘zi – haqiqat, negaki U – Xudodir! Agar Unga ergashsak, – U bilan birga ibodat chog‘larida vaqt

o‘tkazsak, Unga tanho o‘zimiz va boshqalar bilan birgalikda sajda qilsak, har kuni Uning Kalomini o‘qisak – qarorlar va murakkab tanlovlarni qabul qilishimiz oson kechadi. Bu esa, biz o‘ta aqlli bo‘lganimiz uchun emas, balki Xudo hammasini bilgani bois yuz beradi.

MULOHAZA QIL: Siz Iso bilan birgalikda vaqt o‘tkazib, bolalar va o‘smirlarni (kattalarni ham) tez-tez qiynaydigan shubhalardan forig‘ bo‘lishingiz mumkin. Sen Muqaddas Kitobni qay paytlarda o‘qishni yoqtirasan? Ertalabmi? Kechqurunmi? Yoki boshqa vaqtdami?

IBODAT: “Iso, menga har kuni Sening yo‘l-yo‘riqlaring kerak. Men chalkashmasligim va adashmasligim uchun Sen haqingda o‘ylashim va Senga ergashishim haqida menga eslatib tur”.

16 MART. POKIZALIKNI ASRA
Kalomdan o‘qish: 1 Timo‘tiyga 5:21-22
O‘zingni pok saqla (1 Timo‘tiyga 5:22).

Odamlar nima haqda gap ketmasin, aralashmalarsiz tozalikni qadrlashadi: suv, sovun, asal yoki shakar. Ular toza buloq suvini, haqiqiy kolumbiya qahvasini, toza paxtadan tikilgan kiyimlarni va shunga o‘xshash narsalarni sotib olishni afzal ko‘rishadi.

Biz shunday yaratilganmiz. Biz tozalikni sevamiz. Bizga tozalik yoqadi. Biz tozalikdan hayratlanamiz.

Toza so‘zi “beg‘ubor”, “aralashmasiz” ma’nosini anglatadi. Agar suvning tozaligi haqida gapirishsa, demak, unda ifloslik yoki kimyoviy aralashmalar yo‘q. Toza havo esa bu ifloslanmagan havodir.

Sen bilasan: tozalik – yaxshi narsa. Biroq u nafaqat suv, ozuqa yoki kiyimlar uchun yaxshi. U odamlar uchun ham yaxshi. Mana gap nimada: Xudo qachonki suvni yaratganida, U suvga kir yuvish kukunlarini ham, bo‘yoq va iflosliklarni qo‘shmagan – bu shunchaki suv bo‘lgan! Mana nima uchun toza buloq suvi shunaqa mazali: uning tashqi ko‘rinishi, hidi va mazasi Xudo qanday yaratgan bo‘lsa shunday! U odamlarni yaratib, ularni mana shu zaminga joylashtirganida – nafaqat Unga yoqimli bo‘lishi uchun, balki bizga ham yaxshi bo‘lishi uchun hayotimiz qanday bo‘lishini yaqqol ko‘rsatgan.

Tozalikda yashash bu Xudo hayotimizga nimani joylashtirishni istamagan bo‘lsa, ana o‘shalarga yo‘l qo‘ymaslik deganidir: misol uchun, so‘kinish, iflos xayollar va gunohkorona harakatlarni. Toza hayot bu Xudoga manzur bo‘ladigan hayotdir. Xuddi toza asal va toza suv kabi u biz uchun va atrofdagilar uchun anchayin foydalidir.

MULOHAZA QIL: Amalda har bir kishi toza suv yoki toza havo yaxshi narsa ekanligiga iqror bo‘ladi; biroq ko‘pchilik hayotning tozaligi ancha qimmat turishini tan olishlari qiyin bo‘ladi. Sen o‘z hayotingga nopoklik kirishiga yo‘l qo‘yasanmi? Shunday bo‘lmasa, sen tozalikni qay tarzda saqlaysan?

IBODAT: Sen tozalikni asrashingga yordam berayotgani uchun Xudoga minnatdorchilik bildirgin. Agar sen o‘z hayotingda qandaydir nopoklikka yo‘l qo‘ygan bo‘lsang, Xudodan kechirib so‘rab seni pokiza qilishini Undan so‘ragin. Zabur kitobidan 50-sanoni o‘qigin va ular senga o‘z tuyg‘ularingni jamlashga yordam beradi.

17 MART. TOG‘DAN BERILGAN KO‘RSATMA
Kalomdan o‘qish: Chiqish 34:27-34
Keyin Egamiz Musoga: Bu so‘zlarni yozib ol! deb amr qildi (Chiqish 34:27).

MUSO ISKANANI chetga surib, peshonasidagi terni artdi. Uning oldidagi qo‘pol yog‘och stol ustida katta tosh yotardi; belgi o‘yib tushirilgan boshqa tosh esa orqada yotardi.

– Biror muammo bormi, Muso? – tog‘ning siyraklashgan havosida garchi Uning O‘zi ko‘rinmasada Xudoning ovozi yangradi.

– Bularning hammasi... Muqaddas Chodirni yasash bo‘yicha ko‘rsatmalar ekan...

– Ha, – dedi Xudo Musoning so‘zda davom etishini rag‘batlantirish ohangida.

– Demak, – dadillandi Muso, – Sen Ahd Sandig‘ini toza oltin bilan qoplash kerakligini, Muqaddas Chodirning jihozlari ham toza oltindan bo‘lishi lozimligini va chiroqpoyalar ham oltindan yasalishi lozimligini aytayapsan. Ruhoniylar kiyimidagi qo‘ng‘iroqchalar ham toza oltindan bo‘lishini, ularning xushbo‘y tutatqilari ham toza bo‘lishi lozim...

– Davom et, – dedi Xudo.

– Muqaddas qiladigan moy ham toza bo‘lishi, ruhoniylarning ko‘krakpech taqinchoqlari ham benuqson bo‘lmog‘i kerak...

– Ha, – deya uni quvvatladi Xudo, – sen juda diqqat bilan eshitibsan.

– Biroq... – deya gap boshladi Muso.

– Sen o‘ylayapsanki, Men juda ko‘p narsani talab qilayapman, – dedi Xudo.

– Yo‘q! – Musoning yuzi qizardi. – Men bunday demadim!

So‘ngra esa u Xudo hamma narsani bilishini esladi.

– Ha, – dedi u sekingina, – bu oz bo‘lsada to‘g‘ri.

– Muso, – dedi Xudo, – sen bunga e’tibor berganing uchun xursandman. Men juda ko‘p narsani talab qilaman, biroq bu qoida va talablar orqali Men o‘z xalqimga muhim bir narsani aytmoqchiman. Men ular

tushunishini istayman: Menga tozalik kerak. Men uchun tayyorlanayotgan Muqaddas Chodir tozalikning namunasi bo‘lishini istayman. Men ruhoniylarim tozalikning namunasi bo‘lishlarini xohlayman. Men senga bergan qonunlardan ko‘pchiligi Men tozalikni talab qilishimni ko‘rsatadi, ruhoniylarning kiyimlarida ham, Mening xalqimning hayotida ham.

Xudo bir lahza sukut saqladi:

– Endi senga tushunarlimi, Muso?

Muso shu zahotiyoq javob qaytardi:

– Ha, Muqaddas Zot. Menga haqiqatdan ham hammasi tushunarli.

– Sen yana biror nimani so‘ramoqchidirsan? – deya taklif bildirdi Xudo.

– Ha, Muqaddas Zot, – dedi Muso. U xuddi maktab o‘quvchisidek jur’atsiz tarzda qo‘lini yuqori ko‘tardi. – Men davom ettirishdan avval qo‘llarimni yuvib olmoqchi edim, – deya istagini bildirdi.

MULOHAZA QIL: Albatta, bu to‘qib chiqarilgan suhbat, lekin Xudo chindan ham bizdan tozalikni talab etadi. Xudoning amrlari Uning talablari haqida nima deydi? Bu sen uchun kerakmi? Nima uchun shunday yoki nima sababdan bunday emas?

IBODAT: “Xudoyim, meni O‘zing kabi pokiza asragin”.

18 MART. XUDONING IZIDAN

Kalomdan o‘qish: Habaqquq 1:12-13

Sening ko‘zlaring shu qadar pokizaki, Sen yovuzlikka qarab turolmaysan. Haqsizlikka chiday olmaysan (Habaqquq 1:13).

BEYSBOLCHI KEN GRIFFI-KICHIK.

Aktrisa Tori Spelling

Xonanda Natali Koul

Aktyor Jorj Kluni

Kongressmen Jo Kennedi

Poygachi Maykl Andretti

Xonanda Uitni Xyuston

Bu odamlarda qanday umumiylik bor? Ha albatta, ularning hammasi taniqli odamlar. Ha albatta, ularning ismlari katta harflar bilan yoziladi. Xo‘sh, yana nima?

Bu haqda yaqinroq bilib olishingiz uchun bir necha ma’lumot: Ken Griffi-kichikning otasi bir qancha beysbol jamoalarida o‘ynagan. Tori Spellingning otasi televizion prodyuser bo‘lgan. Natali Koulning otasi taniqli xonanda edi. Jo Kennedi esa marhum senator Robert F.Kennedining o‘g‘li. Uitni Xstonning onasi Chissi Xyuston “gospel” uslubidagi qo‘shiqchi bo‘lgan. Jorj Klunining qarindoshlari, uning otasi Nik Kluni va ammasi Rozmeri Kluni shou-biznes bilan shug‘ullanishgan.

Yuqorida qayd etilgan odamlarning hammasi sportda, siyosatda va shou biznesda muvaffaqiyat qozongan kishilarning farzandlaridir. Ehtimol, ulardan birortasi bilan suhbat qilinsa, ota-onalari ularning izidan borishlarini istaganlari haqida aytib qolar. Boshqalari esa balki bu yo‘lni ota-onalarining xohishiga zid tarzda tanlashgandir. Kimdir ota-onasidan ko‘p narsalarni o‘rgangani bois ulardan namuna olishi tabiiy hol. O‘ylashimcha, har bir ota-ona farzandlari ulardan ibrat olib muvaffaqiyatga erishsa, bundan albatta xursand bo‘lishadi.

Ana endi esa Xudo haqida fikr yuritamiz. Bizning samoviy Otamiz ko‘p taraflama yerdagi otamizdan farq qiladi, biroq qaysidir taraflama juda ham o‘xshash: biz Undan ibrat olganimizda Unga yoqadi. U bizga tozalikni asrashni amr etadi, negaki Uning O‘zi pokiza. U shu qadar pokizaki, yovuzlikka qarab tura olmaydi. U pokiza bo‘lgani bois tozalikni qadrlaydi, U tozalikni qadrlagani uchun biz ham pokiza bo‘lishimizni istaydi.

Biz mashhur sportchi, xonanda, aktyor yoki kimdir bo‘lishimiz muhim emas, Xudo bizning Undan o‘rnak olib hayotimizda tozalikni asrashimizni istaydi. U hattoki bizning ichimizda yashayotgan Muqaddas Ruh orqali bizga yordam beradi.

MULOHAZA QIL: Sizlarning oilangizda kimdir ota-onasining yo‘lini davom ettirganmi? Sen Xudoning izidan borayapsanmi? Agar shunday bo‘lsa, qay tariqa? Mabodo shunday bo‘lmasa, sen buni qanday amalga oshirasan?

IBODAT: “Xudoyim, menda Sen, borliqni Yaratuvchi va Samoviy Ota borligi uchun chindan ham xursandman. Meni O‘z yo‘llaringdan yurishga o‘rgatgin”.

19 MART. TOZA QON

Kalomdan o‘qish: 1 Salonikaliklar 4:3-8

Sizlarning muqaddas bo‘lishingiz Xudoning irodasidir. Har biringiz muqaddaslik va izzat-hurmatga loyiq tarzda o‘zingizni tuta bilishingiz kerak (1 Salonikaliklar 4:3-4).

O‘n uch yoshli Masha ikki yildan buyon diabet kasalligidan aziyat chekadi. Bu xastalik endokrin so‘lak bezlari ovqat hazm qilish uchun zarur bo‘lgan insulinni ishlab chiqarmay qo‘yganida boshlanadi. Mashani ko‘rinishidan kasal deb bo‘lmaydi, biroq qizaloq qancha ovqatlanish va qanaqa taomlarni iste’mol qilishiga juda

e’tibor berishi lozim. Barcha bolalar kabi u ham shirinlikni yaxshi ko‘radi, ammo boshqalar iste’mol qilgan miqdorda shakar qabul qila olmaydi.

Lekin ba’zan u bu haqda unutib qo‘yadi. Ba’zan u chiday olmasdan, mumkin bo‘lganidan ko‘proq pirojniy yeb qo‘yadi, sut bilan birga shirinlikka qo‘shib tag‘in muzqaymoqni ham paqqos tushiradi! Bundan uning ahvoli juda yomonlashadi, uning qonida qand miqdori ortadi va u gohida o‘zini g‘alati tutishni boshlaydi. (Qolaversa, uning dugonalari sizga Mashaning hamisha qandaydir g‘alati ekanligini aytishadi!)

Afsuski, agar Mashaning qonida bir necha kun mobaynida qand miqdori nihoyatda yuqori bo‘lsa, uning organizmi bu qabul qilingan miqdorni tozalay olmaydi. Oqibatda bu ortiqcha qand qon tomirlarini to‘ldiradi. Tomirlar to‘lib qolganida esa Masha tez charchaydi, uning oshqozoni buziladi. Shunda u imkon qadar ko‘proq suv ichishi kerak. Suv zararli aralashmalarni yuvib ketadi va uning ahvoli yaxshilanadi. Qolaversa, yana o‘n yildan so‘ng, Masha yigirma yoshdan o‘tgach uning salomatligida chinakamiga muammolar boshlanadi, misol uchun, uning barmoqlaridagi sezgi organlari buziladi.

Bundoq o‘ylab qarasak, biz hammamiz Mashaga o‘xshaymiz. Albatta, bizlar hammamiz ham diabetdan azob chekmaymiz, ammo har birimizning hayotimizda qandaydir ortiqcha nimadir bor. Biz qachonki chiday olmasdan bunday nokerak narsalarni (masalan, “iflos” xayollarni va yomon so‘zlarni) hayotimizga olib kirar ekanmiz, biz qisqa va uzoq muddatli oqibatlardan azob tortamiz.

Mana nima uchun Xudo bizga tozalikni asrashni amr etadi. Masha barmoqlarining sezgisini yo‘qotishni istamaganidek, Xudo ham ruhiyatimiz nopokligi oqibatidan bizning azoblanishimizni istamaydi.

MULOHAZA QIL: Nopoklik ba’zan qisqa, ba’zida esa uzoq muddatli oqibatlarni olib keladi, biroq unisidan ham, bunisidan ham qochgan yaxshi. Bizning ruhiy hayotimizda nopoklik paydo bo‘lganida, uning qisqa va uzoq muddatli oqibatlari qanday bo‘lishi mumkin? Sen bilan shunday holat yuz berganmi? Bunga o‘xshash holatlar takrorlanmasligi uchun nimalar qila olasan?

IBODAT: “ Xudoyim, meni o‘rganib, menda qandaydir nopoklik bor yo‘qligini qarab ko‘rgin. Mendagi nopoklikni yo‘qotgin va hayotimga uning boshqa kelishiga yo‘l qo‘ymasligim uchun yordam ber”.

20 MART. O‘ZINGGA INSULIN YUBORGIN

Kalomdan o‘qish: Zabur 118:9-11

So‘zlaringni yuragimda asrayman, toki Senga qarshi gunoh qilmayin (Zabur 118:11).

Agar siz kechagi matnni o‘qigan bo‘lsangiz, demak, diabet kasalligiga chalingan o‘n uch yoshli Masha bilan tanishgansiz. Mashada bu xastalik aniqlanganida, ya’ni uning organizmi insulinni boshqa ishlab chiqarmayotganida, uning tanasiga sun’iy insulin yuborishlariga to‘g‘ri keldi. Axir insulin bo‘lmasa iste’mol qilingan yegulik organizm uchun quvvatga aylanmaydi; quvvat esa o‘n uch yoshda nihoyatda zarur.

Masha har kuni ertalab nonushta oldidan shpritsni oladi va uni dastlab insulinning birinchi turi (tez ta’sir qiladigani) bilan to‘ldiradi, so‘ngra esa ikkinchi turini (sekin ta’sir qiladiganini) tayyorlaydi. Keyin esa qo‘liga yoki oyog‘iga igna orqali yuboradi. Kechqurun, ovqatlanish oldidan, u muolajani davom ettiradi.

Mabodo Masha insulin qilishni unutsa yoki kam miqdorda insulin olsa, o‘zini charchagan holda sezadi va kasal bo‘lib qoladi. Agar u ko‘p miqdorda insulin olsa ham holsizlanadi, o‘yqusiraydi va e’tiborsiz bo‘lib qoladi. Agar insulin olmasa koma holatiga tushishi – hushidan ketishi – va o‘lib qolishi mumkin.

Endi Masha sog‘lom va tetik bo‘lib yurishni istasa, umrining oxirigacha har kuni (agar diabetni davolashni o‘ylab topishmasa) ertalab va kechqurun o‘ziga yetarli miqdorda insulin yuborib turishi kerak. Bu yoqimli mashg‘ulot emas, biroq qizaloq, toki parhezga rioya qilib insulin olar ekan, yaxshiroq hayot kechirish imkoniga ega.

Mashaning bu ishi har bir masihiy qilishi lozim bo‘lgan faoliyatga o‘xshaydi. Biz Xudoning amrlarini bajarishimiz va pokiza hayot kechirishimiz uchun nimadir qilishimiz kerak. Xuddi Masha ertalab va kechqurun o‘ziga insulinni tanasiga yuborgani kabi, biz ham har kuni Xudoning Kalomini o‘qishimiz va o‘rganishimiz hamda Xudoga qarshi gunoh qilmasligimiz uchun bizga yordam beradigan “ruhiy insulin”ni qalbimizda asrashimiz lozim.

“Yigit qanday qilib yo‘llarini pok saqlaydi? Kaloming bo‘yicha yashab, shunga erishadi” (Zabur 118:9). Xudoning Kalomiga bo‘ysunish yosh inson uchun, umuman aytganda esa har qanday odam uchun pokizalikni saqlashning yagona vositasidir.

MULOHAZA QIL: Xudoda masihiylarning yashashiga yordam beradigan yo‘riqnoma bor. Zaburning 118 sanosi 1-16 oyatlarni o‘qib chiq va Xudoning ko‘rsatmasini qayd etgin. Bugundan boshlab Xudo Kalomini o‘qishni boshlagin. (Zaburdan boshla). Yodingda tut, agar Xudo Kalomini o‘qishni unutib qo‘ysang, sen nopoklikka qarshi ko‘nikmalaringni xavf ostida qoldirgan bo‘lasan.

IBODAT: “Xudoyim, Sen har kuni menga Senga qarshi bormasligim uchun “ruhiy insulin” berganingdan minnatdorman. Har kuni Sening Kalomingni o‘qish odatini shakllantirishim uchun menga yordam ber”.

21 MART. YO‘LDAN ADASHMA

Kalomdan o‘qish: 1 Shohlar 12:20-24

Unga butun qalbingiz bilan xizmat qilinglar. Biror kimsaga najot berolmaydigan yaroqsiz butlarning orqasidan ergashmanglar, ular befoyda narsalar-ku, axir (1 Shohlar 12:20-21).

EHTIMOL, SEN BU VOQEANI ESLARSAN. Sen uni Qizil Shapkacha haqidagi ertakni ilk bora hali kichkina bo‘lganingda eshitgansan.

Esingdami, bu qizaloq onasining gapiga quloq solmadi (bu uning noto‘g‘ri qarori edi!), bo‘rining aytganini qildi (bu undan ham yomon) va kasal buvisiga gullar terish uchun so‘qmoqdan ichkariga qarab ketdi. Toki Qizil Shapkacha gullar terib yurganida, bo‘ri oldinga yugurib uning buvisi yeb qo‘ydi va to‘shagiga yotib oldi. Qizil Shapkacha buvisining uyiga kelganida o‘zini uning buvisi qilib ko‘rsatib aldadi. (Holbuki, Qizil Shapkachaga kontakt linzalari xalaqit bermagan bo‘lardi.) Ular avval suhbatlashishdi, so‘ngra esa bo‘ri Qizil Shapkachaga tashlanib uni yeb qo‘ydi. Yaxshiyamki, shu yaqin oradan o‘rmonchi o‘tib ketayotgandi. O‘rmonchi bo‘rini uyda uxlab yotgan vaqtida o‘ldirdi va uning qappaygan qornini yorib buvini hamda Qizil Shapkachani sog‘ omon holda chiqarib oldi. (albatta, bu “Qirol sher” emas, biroq hayotda hamma narsaga ega bo‘lishning imkoni yo‘q!)

Mumtoz asarga aylangan (ochig‘ini aytganda, qandaydir ma’yus) bu ertak biz qachonki noto‘g‘ri qaror qabul qilganimizda yoki yo‘ldan (buvining uyiga boradigan so‘qmoqdan) adashganimizda, qandaydir befoyda narsalar ortidan (gullar uchun, vaholanki, gullar aslida nihoyatda yaxshi) quvganimizda nimalar ro‘y berishini ko‘rsatib beradi.

Biz masihiylarni to‘g‘ri so‘qmoqdan adashtiradigan yomonlik xuddi Qizil Shapkacha taqdiridagi kabi ofat olib keladi. Biz qabul qilgan har bir noto‘g‘ri tanlov – noo‘rin qaror, axloqiy tubanlik bizni to‘g‘rilik so‘qmog‘idan adashtirib gunoh va o‘limga olib boradi. Albatta, biz ommaga ergashib, to‘g‘ri yo‘ldan ketayotganimizga ishonch hosil qilishimiz mumkin, biroq aslida bunday bo‘lmaydi.

Sen katta bo‘lib qolganingni ko‘rsatish uchun so‘kinganingda; sen zo‘r bo‘lib ko‘rinish uchun giyohvand moddalar qabul qilganingda; boshqalar oldida obro‘ ortirish uchun iflos latifalar aytib berganingda – sen gunoh qilgan bo‘lasan, bularning bari seni halokatning xavfli yo‘liga boshlab boradi.

Ishon: gunoh hech qachon o‘zi va’da qilganini bermaydi. Hech qachon. Hech qachon va aslo. U seni katta yoshli, zo‘r va mashhur insonga aylantirmaydi. Gunoh seni faqat noxushlikka olib boradi.

Yana mana bu gapga ham ishon: Xudo seni hech qachon umidsizlantirmaydi; U senga faqat yaxshilik istaydi.

Sen shunchaki to‘g‘ri yo‘ldan boraver.

MULOHAZA QIL: Sen olomonning ortidan ergashib, Xudodan yuz o‘girgan payting bo‘lganmi? Yodingda tut, “bo‘ri” yomonlikni senga beziyon ko‘rsatish maqsadida har qanday qiyofaga kirishi mumkin, xuddi tanilib qolgan “qo‘y terisidagi bo‘ri” kabi. Hushyor bo‘l: gunohning qiyofasi ko‘p bo‘ladi!

IBODAT: “Xudoyim, menga kundan kun to‘g‘ri yo‘lni topib borishim uchun yordam ber. Men gunohdan yuz o‘girib Senga yuzlanmoqchiman. Mening qadamlarimni O‘zing tomon yo‘naltirgin”.

22 MART. SHIRIN KRISTALLAR

Kalomdan o‘qish: Galatiyaliklarga 5:22-23

Toki sizlarning hayotingiz Iso Masih kuchi orqali solihlik samarasiga to‘lib, Xudoga sharaf va maqtov keltirsin (Filippiliklar 1:11).

Sen uyingda bo‘lganingda, o‘zingga manzur bo‘ladigan mana bu ishni qila olasan-a! Stakanni yarmigacha suvga to‘ldir va unga shuncha shakar qo‘shgin – taxminan to‘rt choy qoshiq miqdorida. Shakar suvga to‘liq qorishib ketmagunicha aralashtiraver. (Buning uchun vaqt talab etiladi.) Shakar aralashib bo‘lganida, ipni olib qoshiqqa bog‘lab qo‘ygin. Qoshiqni stakanning chetiga shunday qo‘yginki, ip stakanning pastigacha osilib tursin, biroq unga tegmasin. Stakanni salfetka yoki qog‘oz sochiq bilan yopib, uni kimdir tasodifan ag‘darib qo‘ymasligi uchun alohida bir joyga qo‘ygin.

Ip suvda to‘qqiz kun qolsin. Sen suvda erigan shakar zarralari asta-sekin ipga yopishib, kristallar hosil qilayotganini ko‘rasan. Shunda sen shakarli obakidandonni stakandan olib yeyishing mumkin. (Ota-onang buni o‘zlarining bolalik davrlarida yetishishlari mumkin bo‘lgan yagona shirinlik deya aytishsa kerak.)

Biz nega bunday qildik? Mana nima uchun: vaholanki, biz tajriba o‘tkazgan stakan o‘z-o‘zidan shakarli kristallarni hosil qila olmaydi. Aslida esa bu chiroyli va shirin kristallar *stakanning ichidagi* moddalardan yuzaga keldi. Stakan shakarli suv bilan limmo-lim edi; *mana* nima uchun ipda shakar kristallar paydo bo‘ldi.

Biz sen bilan ana shu stakanga o‘xshaymiz. Biz o‘z hayotimizda hech qanday ajoyibotni yarata olmaymiz. Biz har doim ham pokiza, sevadigan, sabr-toqatli va yaxshi bo‘la olmaymiz. Biz *urinib ko‘rishimiz* mumkin; aksariyat masihiylar shunday qilishadi. Biroq, biz har qancha urinmaylik, eng yaxshi qilganlarimiz ham baribir eng yaxshi bo‘lib chiqmaydi.

Lekin, masihiy bo‘lganimiz holda, biz Muqaddas Ruhga *to‘lganmiz*. Biz U bilan birgalikda vaqt o‘tkazishimiz va hayotimizning har bir lahzasida Unga ishonishimiz mumkin, shu tariqa Muqaddas Ruhning sifatlari hayotimizda o‘z aksini topadi. Biz Xudosiz faqat nopoklikka, nafrat va rashk qilishga qodirmiz (Galatiyaliklar 5:19-21); biroq, Ruhga to‘lganimizda, biz – xuddi shakarli suv to‘ldirilgan stakandagi ip kabi – Muqaddas Ruhning sifatlarini o‘zlashtira boshlaymiz. Bu axir ajoyib emasmi?

MULOHAZA QIL: Nima deb o‘ylaysan, agar ipni stakanning ichiga tushirmay faqat yoniga qo‘ysang, unda shakarli kristallar hosil bo‘ladimi? Nega shunday yoki nima uchun bunday emas? Bu sening Muqaddas Ruh bilan munosabatingga qay tariqa o‘xshash?

IBODAT: Muqaddas Ruh sening hayotingga shirin hosillar olib kirishi uchun ibodat qilgin.

23 MART. HAMMASI JUDA ODDIY!

Kalomdan o‘qish: Rimliklar 13:8-10

Hech kimdan hech narsa qarzdor bo‘lmanglar. Faqat mehr muhabbatni ham farz, ham qarz deb bilinglar, chunki o‘zgani yaxshi ko‘rgan odam Xudoning qonunini bajargan bo‘ladi (Rimliklar 13:8).

DO‘STLARINGNI XURSAND QILISHNI va ota-onangni hayratda qoldirishni istaysanmi? Mana bu oddiy, (ammo qiziqarli) tryukni bajarishga urinib ko‘r:

1. Xohlagan birorta sonni o‘yla.
2. Uni ikkiga ko‘paytir.
3. Hosil bo‘lgan songa o‘n ikkini qo‘shgin.
4. Hosil bo‘lgan sonni ikkiga bo‘l va birinchi o‘ylagan soningni ayirib tashlagin.
5. Hosil bo‘lgan songa birni qo‘shgin.

Xo‘sh, nima bo‘ldi? Yetti soni, to‘g‘rimi? Sen agar ko‘rsatmaga aniq rioya qilgan bo‘lsang, yetti soni kelib chiqishi kerak. Va har doimo ham yetti hosil bo‘ladi. Sen 1 dan yoki 500 milliondan boshlasang ham, hamisha yetti soni kelib chiqadi. Doimo. Har safar. Agar sen matematikani yaxshi bilsang, buni tezda tushunib olasan. Kel, boshqa son bilan ham urinib ko‘r!

Mayli, bu maroqli, bundan tashqari sen o‘z do‘stlaringni tafakkuring bilan lol qoldirishing mumkin, biroq bularning barchasi nima uchun? Mana nima uchun: sen Xudoning amrlari bilan xuddi shunday qilishing mumkin. Biroq bu masalada besh qadamlab yurishing shart emas, birgina qadamning o‘zi kifoya. Mana qanday. Tayyormisan?

1. Boshqa odamlarni sevgin.

Mana shu, xolos. Bu axir oddiy emasmi? Agar sen doimo sevsang, u holda o‘z-o‘zidan to‘g‘ri harakat qilasan. Muqaddas Kitobda shunday deyilgan: “O‘zgani yaxshi ko‘rgan odam Xudoning qonunini bajargan bo‘ladi” (Rimliklar 13:8). Sen bir vaqtning o‘zida kimnidir sevib undan o‘g‘irlay olmaysan. Sen sevgan holda (televizion shoularda bu haqda nimalar deyishmasin) qotillik qila olmaysan. Sen sevgan holda alday olmaysan.

Agar sevsang, to‘g‘ri qaror qanday bo‘lishi senga tushunarliroq bo‘ladi. Agar sen shunday qilsang, demak, “Xudoning qonunini bajargan” bo‘lasan. Sen hattoki matematika darsi haqida tashvishlanmasang ham bo‘ladi.

MULOHAZA QIL: Barcha amrlarni bajarish uchun zarur bo‘lgan qadamlarni sanab o‘t. (Kechir. Bu seni chalg‘itish uchun berilgan savol edi. Faqat bitta yo‘l bor, sen uni eslaysanmi?)

Nima uchun sevish Xudoning amrini bajarish demakdir? Sen kimni sevishing lozim? Kimni esa yo‘q? Sen kimnidir sevmay turib Xudoga itoat qila olasanmi? Nima uchun “ha” va nima uchun “yo‘q”?

IBODAT: “Xudoyim, hammasi juda oddiy bo‘lgani uchun senga rahmat. Sening amrlaringni bajarmoqchi bo‘lganimda, faqat birgina qadamni yodimda saqlashim lozim bo‘lgani uchun minnatdorman. Iltimos, men bugun o‘z sevgimni qanday namoyon etishim kerakligini ko‘rsat, ayniqsa .....”.

24 MART. FAZOVIY “CHEKLOVLAR”NING SABABCHISI

Kalomdan o‘qish: Naximiyo 8:1-10

Egamiz tufayli topgan sevinchingiz najot qo‘rg‘oningizdir (Naximiyo 8:10).

KO‘PGINA ODAMLARNING NAZARIDA, Xudo Koinotdagi harakatlarni boshqaruvchi qandaydir kosmik nazoratchi-militsioner.

– To‘xtang! Ha, sizga aytayapman! Bu joyda o‘ynab yuribsizmi? Tezda bas qiling!

– Ey, videokasseta olib ketayotgan! Uni necha yoshdagilar tomosha qilishi belgilanganmi? Faqat kattalar uchunmi? O‘n uch yoshgacha bo‘lgan bolalar uchunmi? Qani, uni menga ber!

– Xo‘sh, ana u juftlik burchakda nima qilayapti? Sonya, bu senmisan? Roma ham shu yerdami? Buni kim ham o‘ylabdi deysan! Tezda tarqalinglar! Toki men navbatchilikda ekanman, bunga yo‘l qo‘ymayman!

Xudo. Butun koinotdagi “cheklovlar”ning sababchisi. Biz faqat ozginagina ko‘ngilxushlik qilmoqchi edik, xolos. Xudo esa hammasini puchga chiqarmoqchi.

Biroq aslida bunday emas. Xudo umuman sening vaqtichog‘ligingni barbod qilmoqchi emas. Aksincha, U sening hayotdan zavq olishingni istaydi. U sening hayoting barkamol va *quvonchli* bo‘lishini istaydi. Senda hammasi qoyilmaqom bo‘lishini xohlaydi! Sen kulganingda Unga bu yoqadi. U sening hayoting xursandchilikka va aql bovar qilmas sarguzashtlarga boy bo‘lishini istaydi.

Muqaddas Kitob bu quvonchni “Xudo oldidagi quvonch” deb ataydi, negaki haqiqiy quvonch – xuddi barcha yaxshi narsalar kabi – Xudodan kelib chiqadi. Itchaning tilini chiqarib, aylanib yurishi ham – Uning

g‘oyasidir. Boshqa kimdir kulganida nima uchun ekanligini tushunmasdan kulishingni ham Xudo o‘ylab topgan. Sen Uning gunohlarni kechirishini his qilganingda va Masihda qutqarilish in’omini qabul qilganingda Oyga sakrab Saturn halqasidan o‘tib ketgudek bo‘lishingni ham Xudo o‘ylab topgan!

Faqat quvnoq Xudogina bularning barini o‘ylab topishi mumkin. Mana, bizning Xudomiz qanday! U bizning ham xursand bo‘lishimizni istaydi. Mana nima uchun U bizga O‘z amrlarini bergan. Mana nima uchun O‘z O‘g‘lini yuborgan. Mana nima uchun Xudo O‘z Kalomini aytgan, – zero, Ruh senda yashashi uchun Kalomni o‘rganishing va amalga oshirishingda, bu haqdagi bilimlarda qanchalar quvonch mujassam. Muqaddas Ruhdan hosil bo‘ladigan quvonch vaziyat taqozosiga bog‘liq emas. Xudoga sevgi va Unga xizmat qilish rohatlanishimizga xalaqit bermaydi; aksincha, bu sevgi “ifodalab bo‘lmaydigan ajoyib bir quvonch”ni bizga taqdim etadi.

MULOHAZA QILGIN: Sen qachon xursand bo‘lasan – yomonlik qilganingdami yoki yaxshi ish qilgandami? “Xudo oldidagi quvonch”ni to‘liq his etish uchun nimalar qilmoq kerak?

IBODAT: “Xudoyim, Sen mening xursandchiligimga xalaqit bermaysan. Aksincha, aynan Sen mening hayotimga quvonch olib kirasan”.

25 MART. YASHASIN TINCHLIK!

Kalomdan o‘qish: Kolossaliklar 3:13-15

Men sizlarga tinchlikni qoldirayapman. O‘z tinchligimni sizlarga beryapman (Yuhanno 14:27).

HOZIR BIZ SEN BILAN BIRGALIKDA vaqt bo‘ylab sayohat qilib, odamlar qadim-qadimdan tinchlik uchun kurashganlariga guvoh bo‘lamiz. Kamarlarni tortib bog‘lang!

VAQT: 1970-yil. (Bir guruh o‘smirlar “folksvagen” furgonli mashinasida ketishmoqda. Ulardan biri gapirib qoladi.)

– Bu ajoyib bo‘lgandi! Men kampirim bilan urushga qarshi namoyishda ishtirok etish uchun Berkliga borgandim!

Odam juda ko‘p edi. Hamma raqsga tushib qo‘shiq aytardi! Biz go‘yo birlashib ketgandik, sen buni tushunasanmi? Biz birodarlarimiz va opa-singillarimizni o‘ldirayotgan Vetnamdagi urushga qarshi namoyish qildik! Biz “Dunyoga imkon bering”, qo‘shig‘igi kuyladik. Dunyoga sevgi kerak, urush emas. Eng muhimi – bu tinchlikdir.

Albatta, o‘sha yerda politsiyachi bor edi va men unga qarab shunday dedim: “Ey cho‘chqa, nimaga tikilib qolding?” Men yerdan g‘isht olib unga uloqtirdim va u *yiqilib tushdi*! Bu juda ajoyib bo‘ldi! Atrofimdagi odamlar menga qarsak chala boshlashdi, men esa shunday dedim: “Yo‘qolsin hukumat! Yashasin tinchlik!” Bu qoyilmaqom, to‘g‘rimi?

ENDI BUGUNGA KUNGA QAYTAMIZ. Hamma – o‘tmishda va hozirda ham – tinchlik yaxshi ekanligini tasdiqlaydi, ammo aksariyat ko‘pchiligimiz boshqa odamlar bilan tinch-totuv yashay olmaymiz: ukalarimiz, opalarimiz, ota-onamiz, qo‘shnilarimiz, sinfdoshlarimiz bilan, qo‘shni ko‘chadagi bolalar haqida-ku gapirmasak ham bo‘ladi.

Negaki hamma yaxshi narsalar kabi haqiqiy tinchlik ham faqat Xudodan, Uning Muqaddas Ruhi orqali hosil bo‘ladi. Sen tinchlikda yashashni qanchalik istamagin, “butun dunyoda tinchlik” bo‘lishiga chin ko‘ngildan qanchalik ishonmagin, qanchalik urinmagin, baribir chinakam va uzoq davom etadigan tinchlikka Xudosiz erisha olmaysan.

Biroq, Iso Masih Muqaddas Ruh orqali senda jo bo‘lsa, qalbingda Uning tinchligi hukm surishi mumkin. Sen Unga tobora bo‘ysunib ishonganing sari, U sening – boshqalarni tushunish o‘rniga ular bilan janjallashishni hamda o‘z bilganicha yo‘l tutishni istaydigan – bir bo‘lagingni yengib o‘tadi. Bu darhol yuz bermaydi, biroq Muqaddas Ruhning boshqaruvida ko‘proq bo‘lganing sari, sen Uning tinchligini yanada kengroq tushuna boshlaysan.

Odamlar, “tinchlik mendan boshlanishi kerak”, deb aytishganida haq bo‘lishadi. Tinchlik sendan, ya’ni qalbingning Xudoga bo‘ysunishidan va Muqaddas Ruhning aytganlarini bajarishingdan boshlanadi.

Aks holda tinchlikka erishishning imkoni yo‘q.

MULOHAZA QILGIN: Sen hamma bilan tinch-totuv yashashga urinayapsanmi? Sen ushbu hafta oilangda tinchlikni asrashga qay tariqa yordam berishing mumkin? Do‘stlaring orasidachi? Jamoatdachi?

IBODAT: “Xudoyim, men chindan ham tinchlik topishim uchun Seni anglashni istayman”.

26 MART. KUTISH O‘YINI

Kalomdan o‘qish: Efesliklar 4:1-2

Doimo kamtar va muloyim bo‘linglar, mehr-muhabbat bilan bir-biringizga nisbatan sabr-toqatli bo‘linglar (Efesliklar 4:2).

KICHKINTOY ROMA pijamada to‘shakdan sakrab turdi va ovoz chiqarmasdan tizzasida turib qoldi. U ko‘zlarini yumib, barmoqlarini qattiq qisdi.

– Qadrdon Rabbim, – deb boshladi u, – men juda aybdorman. Men noxush ahvolga tushmoqchi emasdim. – U bir nafas jim qoldi: – Onam menga sabrli bo‘lishim kerakligini aytadi. U Sendan yordam so‘rashim kerakligini aytdi. Xudoyim, onamning asabiga tegmasligim uchun menga sabr bergin! – Bola yana bir muddat jim turdi.

So‘ngra u ko‘zlarini ochdi-da, go‘yo Xudo shipda turgandek tepaga qaradi: – Xudoyim, – dedi u, – *men kutayapman*!

Sabr-toqat qilish qiyin bo‘ladi. Zero, biz tabiatan sabr-toqatli emasmiz. Aynan shu bois biz fast-fudni, eriydigan qahvani, tezyurar transportlarni, tez quriydigan bo‘yoq va tirnoq loklarini, matnlarni tez yozish qurilmasini, mahsulotlarni kunu-tun yetkazib berish xizmatini va shu kabi ko‘pgina narsalarni o‘ylab topdik. Biz kutishga toqat qila olmaymiz. Ba’zan bizning betoqatligimiz odamlarning asabiga tegadi va bizni noxush vaziyatlarga undaydi. Misol uchun, biz hali yelimi qurimagan nimaningdir andazasiga qo‘l uramiz. Yoki yaqin do‘stingga baqirasan va uni haqorat qilasan, negaki konsertga chipta olish uchun navbatda birinchi bo‘lib turishni istaganding, do‘sting esa imillab qolgani uchun endi navbatda to‘rtinchi bo‘lib turibsizlar.

Biroq bu qanchalik qiyin bo‘lmasin, sabr-bardosh – bu yaxshi fazilatdir. Bardoshli bo‘lish yaxshi. Agar sen halol va Xudoga manzur bo‘lishni istasang, bu fazilat shart, negaki sabrli odam – “sabr-toqatli” Xudoning siymosini aks ettiradi (Chiqish 34:6; Sahroda 14:18; Zabur 85:15; 2 Butrus 3:9).

Shuningdek, Xudo “hammaga sabr-toqatli” (1 Salonikaliklar 5:14) bo‘lishni bizga ham buyuradi. Sen nimani kutayapsan? Sabrli bo‘lishni boshlagin. *Hozirning o‘zidayoq!*

MULOHAZA QILGIN: Qachon senga sabrli bo‘lish oson kechadi? Qachon esa har doimgidan ham qiyin? Sen bardoshli bo‘lishga o‘rganishing kerakmi? Yodingda tut, sabr-bardosh – yaxshi fazilat va Muqaddas Ruhning hosilidir. Agar sen Iso Masih orqali qutqarilishni olgan bo‘lsang, senda Muqaddas Ruh yashayotgan bo‘ladi va sen kundan-kun Unga itoat etganingda, sabr-bardoshli bo‘lishga o‘rganasan.

IBODAT: “Xudoyim, hayotni tavoze va sabr bilan qabul qilishimga yordam ber. Boshqalarga sabrli bo‘lishim uchun yordam ber, negaki Sen ularni sevganingdek, men ham ularni sevaman. Ayniqsa menga ..... damlarda yordam ber”.

27 MART. OYOQLARNI YUVISH

Kalomdan o‘qish: Yuhanno 13:1-5

Keyin [Iso] tog‘oraga suv quyib, shogirdlarining oyoqlarini yuvishga tushdi. Beliga bog‘lagan sochiq bilan ularning oyoqlarini artib quritdi (Yuhanno 13:5)

SEN BU VOQEANI ALLAQACHON ESHITGANSAN. Ular ikki uch kishilik guruh bo‘lib qattiq gapirganlaricha gulduros kulgi bilan kelishardi. Ular Isoning shogirdlari edi: baliqchilar, yer egalari, juft juft askarlar. Ular avval ham o‘zaro uchrashishgan o‘sha ikkinchi qavatdagi past shiftli xonaga kirib keldilar.

Iso kirib kelganida, ular o‘zlarini noqulay his qilishdi. Garchi hech kim bu haqda gapirmagan bo‘lsada, bu yerdagi har biri o‘sha birgina muammo haqida o‘ylardi: ularning oyog‘ini kim yuvib qo‘yadi?

Qarangki, ular yurib kelgan yo‘l notoza edi. Sayohatdan so‘ng barchalarining oyoqlari iflos va terga botgandi. Odatda bunday vaziyatda uy egasi mehmonlarning oyoqlarini yuvish uchun ostonada qulni suv to‘ldirilgan ko‘za, tog‘ora va sochiq bilan yuborardi. Garchi hech kim biror so‘z aytmagan bo‘lsada barcha ularning oyoqlarini yuvib qo‘yadigan qulning yo‘qligiga e’tibor qaratdi.

Xona o‘rtasidagi stol yostiqlar qo‘yilgan o‘rindiqlar bilan o‘ralgandi, har bir o‘rindiq esa xuddi g‘ildirakdagi sim to‘r kabi stolga boshi bilan yo‘naltirilgandi. Stol ustida kosa va piyolalar qo‘yilgan, qovurilgan qo‘zichoqning, ziravor va yangi pishgan nonning xushbo‘y hidi ularning yuviqsiz oyoqlari hidi bilan qorishib ketgandi.

Iso shogirdlarining oyoqlarini yuvishni boshladi. U mehr bilan Yoqubning, Yuhannoning va boshqalarning oyoqlarini yuvdi. U hattoki Yahudoning ham oyog‘ini yuvdi.

Iso Yahudoning Unga xoinlik qilishga hozirlanayotganini bilardi, ammo u haqda hamma narsani bilsada, baribir sevgi bilan yumshoq muomalada bo‘ldi.

Bizga yaxshi munosabatda bo‘lganlarga nisbatan marhamatli bo‘lishimiz qiyin emas. Hamma ham mehribon odamlar bilan yaxshi munosabatda bo‘lish to‘g‘ri ekanligini tasdiqlaydi. Biroq ezgulik uni namoyon etish qiyin bo‘lganida ham to‘g‘ridir.

Iso shunday degan: “Agar siz faqat o‘z yaqinlaringiz bilan salomlashsangiz, boshqalardan nima farqingiz qoladi? Axir, butparastlar ham shunday qilishmaydimi?” (Matto 5:47). Iso hattoki yaxshi bo‘lishimiz qiyin bo‘lganida ham yaxshiligimizcha qolishimiz kerakligini aytgan, negaki ezgulik bizga oson yoki qiyin bo‘lishidan qat’iy nazar baribir yaxshi bo‘lib qolaveradi.

MULOHAZA QILGIN: Sen keyingi vaqtlarda kimgadir yaxshilik qilish imkoniyatini boy berib qo‘yganmisan? Balki shunday qilish uchun hozir ham kech emasdir? Sen bugun kimgadir yaxshilik qilish haqida o‘ylab ko‘ra olasanmi? Yodingda tut, sen kimgadir qiladigan yaxshilik uning fe’l-atvori yoki u bilan munosabatinga bog‘liq bo‘lmasligi kerak.

IBODAT: “Xudoyim, bugun men .....ga mehribonlik ko‘rsatishimga yordam berayotganing uchun Sendan minnatdorman”.

28 MART. SHOVVOZMI YOKI MEHRIBON?

Kalomdan o‘qish: Rimliklar 15:13-14

Ey birodarlarim, men aminmanki, sizlar ezgulikka va ilm-ma’rifatga boysizlar, bir-biringizga pand-nasihat qilishga qodirsizlar (Rimliklar 15:14).

HAR BIR MAKTABDA SHUNAQALAR HAM BO‘LADI.

Bilasanmi, o‘qituvchilarning sevimli o‘quvchisida, – u xoh o‘g‘il bola yoki qiz bola bo‘lsin, – hech qachon ko‘ngilsizliklar yuz bermaydi. U doskani va lattani tozalashni *yaxshi ko‘radi*. U buni *o‘z ixtiyori* bilan bajaradi. U yiqilib tushgan sinfdoshini hamshiraning oldiga olib boradi. U keksa direktor o‘rinbosarining ortidan boshqalar mazax qilib so‘kishganlarida uning tarafini oladi. U o‘z nonushtasini uyida unutib qoldirganlar bilan baham ko‘radi.

Bunday bola yuqori sinf o‘quvchisi bo‘lganida maktabning qandaydir qo‘mitasiga a’zo bo‘lib kiradi. Aftidan, unga maktab chindan ham *yoqadi*! U qo‘shimcha mashg‘ulotlarni yoqtiradi. U o‘qituvchilarining holidan xabar olib turadi. U hamisha kimgadir yordam berishga tayyor. U hamisha baxtlidek tuyuladi. Uni shunchaki do‘pposlaging keladi!

Bundaylarni odatda “yoqimtoy”, “mijg‘ov”, “shovvoz”, deb atashadi. Ha, ulardan ayrimlari faqat yaxshi baho olish va murabbiylar bilan yaxshi munosabat o‘rnatishga urinadi, ammo yaxshi bo‘lish baribir yaxshi! O‘z nonushtasini boshqalar bilan baham ko‘rish va murabbiylarga quloq solish ham yaxshilik bo‘lib, bu Muqaddas Ruhning hosilasidan biridir.

Havoriy Pavlus Rimda yashayotgan masihiylar haqida mana nimalar degan. Havoriy ularni ezgulikka to‘lganlari uchun maqtagan. Mabodo ular aravaning g‘ildiragi izdan chiqib ketsa, yordamga kelishgan. Mabodo ular qo‘shnisini ustki kiyimlar tayyorlaydigan fabrikadan bo‘shatganlarini eshitishsa, unga oziq-ovqatlar solingan xaltalar olib kelishgan. Ular hatto Krit orolidan kelgan shilqim sayohatchilarga ham yaxshi gaplar aytishgan! Ular barchaga mehribonlik bilan munosabatda bo‘lganlar va atrofdagilarga yordam berish uchun har qanday vaziyatdan foydalanishgan.

Albatta, aksariyat odamlar uchun o‘zlarini bunday tutishlari qiyin. Ayrimlar uchun bu boshqalarga qaraganda oson kechadi. Lekin sen masihiy bo‘lsang, yaxshi bo‘lishing lozim, negaki ezgulik har bir masihiyning qalbida yashaydigan Muqaddas Ruhning hosilasidir.

MULOHAZA QILGIN: Sen xuddi Pavlus rimliklar haqida aytganidek, “yaxshilikka to‘lgan” kimlarnidir bilasanmi? Ulardan nimani o‘rganishing mumkin? Har qanday meva, ezgulik unishi uchun nimadir kerak (mevaga suv, tuproq va quyosh nuri kerak bo‘lgani kabi). Sen qalbingda va hayotingda ezgulik unishi uchun nima qila olasan?

IBODAT: Agar sen to‘g‘riso‘z bo‘lsang, hozir Pavlusning Rimliklarga 7:19 da, “o‘zim qilishni xohlagan yaxshilikni qilmayman”, degan so‘zlarini Xudoga aytgan bo‘larding. Biroq bu masalani Pavlus qanday hal etishni bilgan: “Xudoga shukur! Rabbimiz Iso Masih orqali U bizni qutqaradi!” (Rimliklar 7:25). Sen bu so‘zlar uchun Pavlus bilan birgalikda xursand bo‘lishing mumkin.

29 MART. SADOQAT VA TO‘LIN OY
Kalomdan o‘qish: Zabur 56:2-12
Sodiq sevging samolarday yuksakdir (Zabur 56:11).
Har tong ular yangilanadi, buyukdir Egamning sadoqati (Marsiya 3:23).

– BUGUN ERTALAB QUYOSH CHIQDIMI?
– Nima, ustimdan kulayapsanmi? – deb javob berasan. – Albatta, chiqdi!
– Daryolar hali ham dengizga quyiladimi?
– Bu qanday ahmoqona savol? – deysan sen.
– Sen haligacha atmosferaga uchib ketmadingmi?
“Yo‘q, albatta! – deysan sen harqalay. – Sizni o‘zi nima bezovta qilyapti?”

Bu ahmoqona savollar, to‘g‘rimi? Bema’ni! Quyosh har kuni ertalab chiqadi. Daryolar hamisha dengizga quyiladi. Tortish kuchi bizni hamisha yerga bog‘lab turadi. Hech kim bu haqda o‘ylab ham o‘tirmaydi.

To‘g‘ri. Sen yetmish yetti yilda Galleya kometasi osmonda paydo bo‘lishini hisoblab ko‘rishing mumkin. Vaqt har bir yilni boshqasiga almashtiradi. To‘lin oy osmonda har 27 kun, 7 soat va 43 daqiqada paydo bo‘ladi. Negaki, yaratilishda Xudoning doimiy ishtiroki namoyon bo‘ladi. Xudo barqarordir, shu sababdan Uning ijodi ham doimiy davom etadi. Uning ijodi Uning fe’l-atvorini aks ettiradi.

Biz ham Xudo fe’l-atvorining ifodasi bo‘lishimiz lozim. Xudo bizning ham barqaror bo‘lishimizni istaydi. U do‘stlar bir-birlariga sadoqatli bo‘lishlarini istaydi. U er va xotinlar bir-birlariga vafodor bo‘lishlarini xohlaydi. U O‘z farzandlarining Unga sodiq bo‘lishlarini istaydi, negaki yaxshi munosabatlar uchun sadoqat zarurdir.

Barqaror bo‘lish – va’daga amal qilmoq demakdir; demak, boshqalar senga tayanishlari mumkin. Xudo ana shunday. Xo‘sh, sen qandaysan?

MULOHAZA QILGIN: Xudoning ijodi abadiydir, negaki Xudo sadoqatlidir. Xudoning ijodi nimasi bilan Uning sadoqatini aks ettiradi?

Kim sening eng sadoqatli do‘sting? Sen Xudoga sodiqmisan? Boshqa odamlarga-chi? Yanada sadoqatli bo‘lishing uchun nimalar qila olasan?

IBODAT: “Xudoyim, Sen hamisha menga sodiq ekanligingni bilaman. Menga ..... ko‘rsatgan sadoqating uchun minnatdorman. Men bugun ..... Senga sodiq bo‘lishim uchun yordam ber”.

30 MART. QAHRAMON BINTI

Kalomdan o‘qish: Filippiliklar 4:4-5

Hammaga nisbatan muloyim bo‘ling (Filippiliklar 4:5).

Ruhning samarasi esa quyidagilardir: muhabbat, sevinch, xotirjamlik, ezgulik, ishonch, muloyimlik va o‘zini tuta bilish (Galatiyaliklar 5:22-23).

ILLINOYSDAGI BRUKFILD HAYVONOT BOG‘IDA uch yoshli bolakay to‘siqqa chiqqanda, pastga yiqilib tushdi. U besh metr balandlikdan hayvonlar uchun atrofi o‘ralgan maydonchada bir necha gorillalar o‘tirgan tosh ustiga quladi. Bolakay zarbdan hushini yo‘qotib, maymunlarning rahm-shafqatiga muhtoj bo‘lib yotardi.

Gorillalar tabiatan qo‘pol bo‘lib, yuvoshligi bilan ajralib turishmaydi. Hayvonot bog‘idagi barcha qichqirgancha yugura boshladi. Maymunlar bolaga tashlanib mayib qilmasliklari, hatto o‘ldirib qo‘ymasliklari uchun nimadir qilish kerak edi.

So‘ngra esa hayratomuz voqea yuz berdi. Binti Jua nomli sakkiz yoshli urg‘ochi maymun bolaning ahvoli yomon ekanligini his qildi chamasi – xuddi odam kabi – uni ehtiyotlik bilan qo‘liga oldi. Boshqa maymunlar orasidan qisilib o‘tib, bolani eshik yoniga olib bordi va beshikast tarzda hayvonot bog‘ining xizmatchisiga topshirdi.

Bintining qahramonona harakati haqida gazetalarda yozishdi, uni bir necha kunlab televideniye orqali ko‘rsatishdi. Odamlar maymunning ishiga hayron qolishardi. Hayvonot bog‘i odamlar bilan to‘lib toshdi. Boshqa joylardan televideniye xodimlari mehribon gorilla haqida film ishlash uchun kelishardi. Bir qancha muddat bu gorilla King Kongdan keyingi eng mashhur maymun bo‘ldi.

Keyinroq qahramon gorilla hayvonot bog‘i xodimlari tomonidan o‘rgatilgani ma’lum bo‘ldi. U o‘zini tarbiyalagan odamlardan mehribonlikni o‘rganib olgandi.

Yovvoyi hayvonlar mehribonlik ko‘rsatishganida biz hayron qolamiz, negaki mehribonlik – axloqiy xususiyat bo‘lib, u hattoki odamlarda ham kam uchraydi! Biroq Xudo xalqining orasida ezgulik kam bo‘lmasligi kerak, negaki u Ruhning hosilidir. Agar Xudoning Ruhi botiningda bo‘lib seni boshqarsa, U, mehribonlik – yaxshi ekanligini, qahr esa – yomon ekanligini ko‘rsatadi. U senga yumshoq qalb beradi va boshqa odamlar bilan yaxshi munosabatda bo‘lishingga yordam beradi.

MULOHAZA QILGIN: Sen o‘zingni mehribonlarcha tutasanmi? Kim seni ezgulikka o‘rgatgan? Sen o‘sha insonga buning uchun minnatdorchilik bildirganmisan?

Sen kimdir bilan oxirgi kunlarda yoki haftada qo‘pol va beshafqat munosabatda bo‘lganmisan? Xudo bugunning o‘zidayoq seni ezgulik yo‘lida tarbiyalashi uchun nimalar qila olasan?

IBODAT: “Xudoyim, Sen menga nisbatan mehribon bo‘lganing uchun minnatdorman. Har kuni Senga bo‘ysunishim va atrofimdagilar bilan mehribon munosabatda bo‘lishim uchun yordam ber”.

31 MART. SENING KO‘RINMAS DEVORING

Kalomdan o‘qish: Galatiyaliklar 5:24-25

Ruh hayotimiz manbai ekan, endi Ruhning yetakchiligi ostida hayot kechirishimiz lozim (Galatiyaliklar 5:25).

TASAVVUR QIL, sen bir kuni devorsiz hovlida zanjirsiz yugurib yurgan do‘stingning itini ko‘rib qolasan.

– Itning qochib ketishidan qo‘rqmaysanmi? – deb so‘raysan.

– Yo‘q, – deb javob beradi do‘sting. – Bizning ko‘rinmas devorimiz bor.

– Qo‘ysang-chi! Uni tasavvuringdagi do‘sting o‘rnatgan-da!

– Yo‘q, men jiddiy gapirayapman, – deydi og‘ayning. – Yerga elektr simi tortilgan. Brutning bo‘ynida maxsus halqa bor, xullas, simga yaqin borsa uni tok uradi.

– Rostdanmi?

Og‘ayning boshini silkitadi:

– Uni birinchi marta tok urganidan buyon hattoki simga yaqinlashmaydi.

– Qoyil! – deysan sen. – Iting aqlli ekan.

– U faqat o‘zini og‘ritadigan narsadan uzoq tutadi, hamma gap shunda.

Ehtimol, hayvonlar hovlidan qochib ketmasliklari uchun ishlatiladigan ko‘rinmas to‘siqlar haqida eshitgandirsan. O‘zingda ham senga zarar yetkazadigan narsalardan asray oladigan to‘siq mavjud. Bu biz avval aytib o‘tgan o‘zini boshqarishdir. Sen o‘zini boshqarish Ruhning hosillaridan biri ekanligini bilasanmi?

Aytaylik, senda g‘azablanish vasvasasi uyg‘ondi, negaki ukang klubni bo‘yaganida sochlari sariq rangga belanib qolmasligi uchun yoqtirgan bosh kiyimingni kiygan ekan. Agar seni Muqaddas Ruh boshqarayotgan bo‘lsa, o‘zingni bosib olishga urinasan.

Yoki deylik, sen o‘zing yaxshi ko‘rgan qiz bilan yolg‘iz qolding, yuraging shu qadar qattiq uradiki, go‘yoki uni hozir avvalgidan ham ko‘proq yaxshi ko‘rasan va ota-onang ruxsat bermaydigan nimanidir qilmoqchi bo‘lasan. Agar Xudoning Ruhi seni boshqarayotgan bo‘lsa, sen vasvasaga “yo‘q” deb javob berasan.

Agar sen masihiy bo‘lsang, Muqaddas Ruh hamisha senda yashaydi. Ammo baribir sen har kuni Unga bo‘ysunishing lozim. Buning uchun kunni ibodatdan, sajda qilishdan va Muqaddas Kitobni o‘qishdan boshla.

Shunda Muqaddas Ruh seni boshqargan holda senga o‘z hosilini beradi: muhabbat, sevinch, xotirjamlik, ezgulik, ishonch, muloyimlik va o‘zini tuta bilish.

MULOHAZA QILGIN: Nima deb o‘ylaysan, Ruh hayotimizga o‘z hosilini tartib bo‘yicha, bir marotabadan beradimi? Yoki hammasini bir vaqtdami? U hayotingda samara berayaptimi? Agar shunday bo‘lsa, qay tariqa? Mabodo shunday bo‘lmasa, u holda nima uchun?

IBODAT: Xudoga Isoning ushbu va’dasi uchun minnatdorchilik bildir: “Men tok, sizlar esa novdasizlar. Agar Menda bo‘lsangizlar va Men sizlarda bo‘lsam, ko‘p hosil berasizlar. Mensiz hech narsa qilolmaysizlar” (Yuhanno 15:5).

1 APREL. HAZIL KUNI

Kalomdan o‘qish: Havoriylar 4:36 – 5:5

...Bunday ish qilishga qanday jur’at etding?! Sen odamlarga emas, balki Xudoga yolg‘on gapirding! (Havoriylar 5:4).

1 APREL. HAZIL KUNI, bu yigirma to‘rt soat mobaynida to‘xtamaydigan hazillar, yolg‘on va hangomalar kuni. “Sening bog‘iching bo‘shabdi” va ommabop aytiladigan “Yelkangiz oqqa bo‘yalibdi”, kabi hazillar barchaga ma’lum.

Kattalar odatda do‘stlarini laqillatish uchun murakkabroq hazillarni o‘ylab topishadi. Misol uchun, har doim birinchi aprel kuni bir-birlariga pochta orqali doimo bitta badbo‘y chiqindi o‘ramini jo‘natadigan ikkita kap-katta odamlar bor. Hazil shundan iborat: o‘ramni shunday tarzda yetkazish lozimki, boshqasi uni albatta qabul qilsin.

Ehtimol, Xudoga Hazil kuni yoqmas? Men yoqsa kerak deb o‘ylayman. Zero, biz xursandchilik qilishimizga Xudo qarshi emas. Biz kulganimizda yoki ko‘ngilxushlik qilganimizda Unga bu yoqadi. Albatta, qabih va qattiq hazillarni U xush ko‘rmaydi. Ammo hazil baribir hazil. U kulgili bo‘lishi mumkin. Muammo shundaki, ayrim odamlarda har kuni - “Hazil kuni”. Ular qandaydir qattiq hazil qilib, so‘ngra shunday deyishadi: “Men shunchaki hazillashdim”. Yoki ularning yolg‘on gapirayotganlarini fosh qilganingizda ham shunday deyishadi: “Bu hazil edi!” Ular hazil va yolg‘on o‘rtasida farq borligini tushunishmaydi yoki tushunishni istashmaydi.

Hazil kulgi va xursandchilikka sabab bo‘ladi. Biroq yolg‘on boshqa odamni xafa qilish va aldash uchun aytiladi. Kalomda bu yaxshi qilib tushuntirilgan: “Telba o‘t, nayza va o‘lim yog‘diradi. Birovni aldab: “Faqat hazillashgan edim” degan ham shundaydir” (Hikmatlar 26:18-19).

Sen qachon birovni yolg‘onga ishonishga undar ekansan, bu bilan boshqani shunchaki aldamayapsan, balki Xudoga qarshi gunoh qilgan bo‘lasan. Boshqa kishini aldashing mumkin, ammo Xudoni alday olmaysan. U sen hazillashayotganingni yoki aldayotganingni ham biladi.

Xullas, birinchi aprel kuni ko‘ngil yoz – lekin yolg‘on gapirma!

MULOHAZA QILGIN: Muqaddas Kitobdan bugun o‘qigan parchani eslagin (Havoriylar 4:36 – 5:5). Nima deb o‘ylaysan, Xanoniyo yolg‘on gapirib nimaga erishmoqchi edi? Va oqibat nima bo‘ldi? Sen birinchi aprel kuni qay tariqa hazil qilasan? O‘zing voz kechishing lozim bo‘lgan hazillaring bormi?

IBODAT: “Xudoyim, Sen haqiqatsan, Senda yolg‘on yo‘q. Sening yo‘llaringdan borishim uchun yordam ber”.

2 APREL. SUTMI YOKI QUYUQ OVQAT?

Kalomdan o‘qish: Ibroniylar 5:12-14

Sizlar o‘zlaringiz allaqachon ustozlik qilishingiz kerak edi! Ammo siz boshqalarga emas, boshqalar sizlarga Xudo Kalomining ilk asoslarini o‘rgatishlari kerak. Sizlar hali ham sutga muhtojsiz! Quyuq ovqatni hazm qila olmaysiz (Ibroniylar 5:12).

HAYOTDA KO‘P NARSA muayyan tartibda yuz beradi. Go‘daklar avval o‘rmalab, so‘ng yurishni boshlashadi; avval ular faqat sut ichishadi, so‘ngra esa quyuq ovqat iste’mol qilishadi. O‘smirlar haydovchilik guvohnomasini olish uchun ulg‘ayishlari kerak.

Masihiy bo‘lib sen ham hammasini darrov olmaysan. Ruhan tug‘ilib biz avvalambor quyidagi narsalarni egallab olishimiz lozim: o‘z gunohlarimizni anglash, Xudoning O‘g‘li Iso tomonidan berilgan Uning kechirimi va sevgisiga ehtiyoj; boshqalarni kechirish istagini. Biz har kuni yomonlik va yaxshilikni shunchaki tanlab yashashga nisbatan Masihda ulg‘ayib borsak, ko‘proq narsani o‘rganamiz.

Men bu dam olish kunlaridagi bayramga borishim uchun yaxshi baho olish maqsadida nazorat ishidan ko‘chirib olishim mumkinmi?

Ota-onamga uy vazifasini bajarganim haqida yolg‘on gapirib kechqurungi konsertga borish uchun ruxsat olsam bo‘ladimi?

Singlim menga tilini chiqarib ko‘rsatgani uchun uni to‘p bilan urish mumkinmi?

Balki, oxirgi holatdan o‘zimizni tiyish osonroqdir. Biroq yaxshilik va yomonlikni tanlashning har qanday imkoniyati – bu *nafaqat* imkon, balki *mashq* hamdir. Ulg‘ayganing sari sen chiniqib boraverasan. Hozir to‘g‘ri qaror qabul qilib (kayfiyatim yomon bo‘lgani uchun ukamni hushidan ketgunicha uraymi yoki unga masihiylik sevgisi va shafqatini namoyon etaymi?”), sen o‘zingni kelajakda murakkabroq muammolar bo‘lganida ham (“o‘zimni tiyib turaymi yoki yaxshi ko‘radigan qizim bilan xohlaganimni qilaymi?”) to‘g‘ri qarorlar qabul qilishga tayyorlaysan.

Agar sen to‘g‘ri qaror qabul qilgan holda *mashq* qilmasang, muammolar murakkablashib ketganida senga keyinchalik qiyinroq bo‘ladi, oqibati esa – jiddiy tus oladi! Hozirgi har bir to‘g‘ri qaroring seni kelajakdagi yanada murakkabroq tanlovlarga tayyorlaydi. Qanchalik ko‘p mashq qilsang, sen keyinchalik to‘g‘ri qarorlar qabul qilishga shunchalik darajada tayyorlangan bo‘lasan.

MULOHAZA QILGIN: O‘tgan haftada qanday qaror qabul qilishingga to‘g‘ri kelganini eslab ko‘r. Nima deb o‘ylaysan, bu seni kelajakda nimagadir tayyorladimi? Bunday qarorga kelishing oson kechdimi? Qiyin bo‘lgan vaziyatlar ham bormi? Nima deb o‘ylaysan, oson yoki qiyin tanlovlardan qaysi biri seni kelajak uchun yaxshiroq tayyorlaydi?

IBODAT: “Xudoyim, men Sening yordaming bilan to‘g‘ri qarorlar qabul qilishim mumkin. Menga o‘rgat va men to‘g‘ri yo‘lni tanlayman. Xudoyim, men zaifman, menga quvvat ber”.

3 APREL. POKIZALIK HOLATI

Kalomdan o‘qish: Havoriylar 24:10-16

Aynan shu sababdan Xudo va xalq oldida men doim vijdonimni sof saqlashga tirishaman (Havoriylar 24:16).

O‘QITUVCHI KEYINGI SAFAR doskadagi yozuvlarni o‘chirayotganida unga diqqat bilan razm sol. Hozirgina doskaning quyuq rangli ustki qismi matematik formulalar yoki so‘zlar bilan yoxud shu kabi yozuvlar bilan to‘la edi – endi esa u yana nimadir yozish uchun top-toza holatga keldi.

Sening vijdoning ham xuddi shu maktab doskasiga o‘xshaydi. Barcha noo‘rin fikrlar va harakatlar, tuyg‘ular xuddi bo‘r doskada iz qoldirgani kabi o‘z izini qoldiradi. Biroq sening vijdoning – barcha belgilar qoladigan shunchaki doska emas. Vijdon sening fikrlaring (tuyg‘ularing yoki harakatlaring) noto‘g‘ri ekanligingi aytishi mumkin. Bu ham go‘yo o‘zini tozalaydigan doskaga o‘xshaydi. (Ha, algebrada bunaqa narsa xalaqit bermagan bo‘lardi...)

Sening vijdoning nimanidir noto‘g‘ri qilganingda, u xuddi iflos doskaga o‘xshab qolganida o‘zini iflosga botgandek “sezadi”, sen to‘g‘ri yo‘l tutganingda esa o‘zini tozalangandek his qiladi. Sening vijdoning – ruhingga xabarlar yuborib, nima yaxshiyu, nima yomonligini tushuntirib turadigan qalbning bir qismidir.

Xo‘sh, bu belgilar sening vijdoningda to‘planib qolsa nima qilish kerak? Muammo yo‘q. Buyuk Tozalovchini – Xudoni chaqir. Unga tozalikni qaytarmoqchi ekanligingni ayt. Undan gunohlaring kechirimini so‘ra. Undan donolik va kelajakda to‘g‘ri qarorlar qabul qilishing uchun kuch so‘ra, U senga yaxshilikni yomonlikdan ajratib beradigan vijdon ato etgani uchun minnatdorchilik izhor qil.

Yodingda tut: “Bordi-yu, gunohlarimizni e’tirof etsak, sodiq va adolatli bo‘lgan Xudo gunohlarimizni kechirib, bizni har qanday yomonlikdan forig‘ qiladi” (1 Yuhanno 1: 9).

MULOHAZA QILGIN: Sening vijdoning hozir qay holatda – u belgilarga to‘lami yoki tozami? Agar vijdoning toza bo‘lmasa, nima qila olasan?

IBODAT: “Xudoyim, men o‘zimning ..... tozalamoqchiman. Marhamat qilib, meni ..... uchun kechirgin. Menga keyingi safar ..... to‘g‘ri qarorga kelishim uchun donolik bergin. Sen menga bergan vijdon uchun rahmat: u mening Sen bilan gaplashim olishim zarurligini tushunishimga yordam bermoqda”.

4 APREL. MUNOSIB HAYOT

Kalomdan o‘qish: Titus 1:15 – 2:1

Qalbi pok odamlar uchun hamma narsa haloldir. Buzuq va imonsizlarning nazarida esa hamma narsa haromdir. Bundaylarning aqli ham, vijdoni ham bulg‘angan. Ular, Xudoni bilamiz, deydilar u, o‘z qilmishlari bilan Uni inkor etadilar (Titus 1:15-16).

VOQEA JOYI: hashamatli Los-Anjeles, Kaliforniya.

Doroti Chendler pavilonida kinoakademiyaning taqdirlash marosimi o‘tmoqda. “Oskar” eng yaxshi aktyorga topshirilmoqda.

Xovard Xensonning nomi aytilib qarsaklar chalinadi. Aktyor sahnaga chiqib, statuetkani qo‘liga oladi va uni o‘pib g‘alaba ramzi sifatida boshi uzra yuqori ko‘taradi.

– Senga bu ajoyib mukofot uchun rahmat aytaman, Gollivud, – deydi u hayajonli ohangda, – Men suratga olish jarayoniga shunday katta e’tibor bilan yondashgan o‘rtoqlarimga ham minnatdorchilik bildiraman. Rejissyorimga ham tashakkur; men fuqarolik nikohida yashayotgan rafiqam Syuziga ham rahmat, eng avvalo (u aytmoqchi bo‘lgan so‘ziga urg‘u berish uchun jim qoladi) Xudoga bularning hammasiga ijozat bergani uchun minnatdorchiligimni bildiraman!

Kamera, to‘xta! Shoshma-chi! Bu o‘rinda nima noto‘g‘ri? Hozirgina kalondimog‘ligi, yolg‘onchiligi va axloqsizligiga iqror bo‘lgan odam Xudoga bularning hammasi uchun tashakkur bildirdimi? O‘ylashimcha, bu masalada Xudoning aloqasi yo‘q. Xudo bizning hayotimizda ishtirok etishni istaydi, ammo U bizning gunohlarimizga aralashmaydi.

Odamlar bu to‘qima Xovard Xensonning nutqiga o‘xshash gaplarni ko‘p aytishadi. Xudo go‘yoki ularning harakatlarini ma’qullaydigandek, o‘zlarini oqlashga urinadilar. Ba’zan o‘z vijdonlariga quloq solmay qo‘ygan odamlar shunday deyishadi: ular o‘z hayotlarida juda ko‘p noto‘g‘ri qarorlar qilishgan! Muqaddas Kitob ular haqida shunday deydi: “Bunday qabih, o‘zboshimcha odamlar hech bir xayrli ishga yaramaydilar”.

Albatta, faqatgina kino va sport yulduzlarining vijdonigina hissiz va befoyda bo‘lib qolmaydi. Bunday holat har qanday kishi bilan ro‘y berishi mumkin. Agar sen o‘z vijdoningga tez-tez e’tibor qaratmasang va uni jim bo‘lishga majbur qilsang, sen ezgulik va yomonlikni farqlay olmaydigan vaqt ham kelib qoladi.

Lekin bunday bo‘lmasligi kerak. Bunday vaziyatni bartaraf qilish uchun Xudoni tingla: U sening vijdoningni yanada sezgirroq qiladi. U senga pand-nasihat qilayotganida Uni tinglagin. Agar biror yomon ish qilgan bo‘lsang tavba qil, shunda vijdoning poklanadi va bu ajoyib bo‘ladi! Shunda sen Pavlus bilan birgalikda shunday deysan: “Ayni shu sababdan Xudo va xalq oldida men doim vijdonimni sof saqlashga tirishaman” (Havoriylar 24:16).

MULOHAZA QILGIN: Odamlar o‘z vijdonlarining sezgisini yo‘qotish uchun nimalar qilishadi? Sen oxirgi marta qachon vijdon azobini his qilgansan? Sen vijdoningga quloq soldingmi yoki bunga e’tibor bermadingmi? Kelajakda vijdoning ogohlantirishi uchun qay tarzda yanada e’tiborliroq bo‘lishing mumkin?

IBODAT: “Xudoyim, mening ko‘zlarim ochiq, vijdonim esa uyg‘oq bo‘lsin. Men gunohga botishni va Senga nomunosib tarzda hayot kechirishni istamayman”.

5 APREL. RUHIY RULETKA

Kalomdan o‘qish: 1 Timo‘tiy 4:1-5

Xudoning Ruhi yaqqol aytyaptiki, oxirgi zamonlarda ba’zi odamlar imondan qaytadilar. Ular yolg‘onchi ruhlarga va jinlar ta’limotiga quloq soladilar. Bunday ta’limotni tarqatgan odamlar riyokor va yolg‘onchidirlar. Ularning vijdoni o‘lgan, go‘yo qizdirilgan tnmir bilan kuydirilib yo‘q qilingan (1 Timo‘tiy 4:1-2).

BUNDAN BIR NECHA YILLAR MUQADDAM beshta bola ruscha ruletka o‘yinini o‘ynashdi. Ulardan biri uyidan otasining to‘pponchasini yashirincha olib chiqdi. Ular navbati bilan to‘pponcha barabanini aylantirib qurolni boshlariga tirardilar va tepkini bosishardi. Ular to‘pponcha o‘qlanmagan va bezarar deb o‘ylashgandi. Biroq aslida barabanning ichida bitta o‘q qolgan ekan.

O‘n to‘rt yoshli bola og‘ir jarohatlandi. Do‘stlari tez yordam chaqirishdi, biroq uni qutqarishning iloji bo‘lmadi.

Albatta, bizlardan ko‘pchiligimiz uchun ruscha ruletkani o‘ynash fikri boshimizga kelmaydi, biroq ko‘pchilik ruhiy ruletka o‘ynaydilar. Ular har safar noto‘g‘ri qaror qabul qilganlarida barabanni yana aylantirishadi. Ular har doim tepkini bosganlarida ezgulikdan ko‘ra yomonlikni afzal biladilar.

Biz tez-tez o‘zimizning harakatlarimizni tushuntirib, shunday deymiz: “Agar buni *bir martagina* qilib ko‘rsam, menga ziyon yetmaydi”. Ikkinchi bora esa shunaqa deb qolamiz: “Birinchi marotaba yomon bo‘lmadi-ku, buni qaytarsa bo‘ladi”. Va biz xavfsiz bo‘lib tuyulmagunicha – qayta va qayta – gunoh qilaveramiz, vijdonimiz esa gunohga botayotganimizda sukut saqlab turolmaydi.

Odamning vijdoni o‘lib qolishi mumkin. Agar sen uning nolasiga qo‘l siltayversang, agar sen noto‘g‘ri ishingdan keyin o‘zingdagi notinchlikni nari suraversang, agar sen qayta va qayta Xudoning irodasini mensimasang, vijdoning toki butunlay so‘lib qolmagunicha qurib boraveradi.

Xudo bizga ogohlantirishning bebaho tizimini bergan, bu xuddi yong‘in xavfidan ogohlantiradigan xabarga o‘xshaydi. U seni himoya qilishi va to‘g‘ri qaror qabul qilishingda yordam bermog‘i kerak. Bu sening vijdoningdir. U haqda yaxshilab g‘amxo‘rlik qilgin.

MULOHAZA QILGIN: “Ruhiy ruletka” nima o‘zi? Sen qachonlardir o‘z vijdoning bilan shunday o‘yin qilganmisan? Ehtimol, hayotingda seni Xudodan ayiradigan, seni shunday qilishga takror va takror undaydigan gunoh bordir. Vijdoning sezgir va foydali bo‘lishi uchun nimalar qilmog‘ing kerak?

IBODAT: “Xudoyim, men o‘z vijdonim bilan “ruhiy ruletka” o‘ynamasligim uchun yordam ber. Vijdonim ovoziga quloq solishim uchun ko‘maklash. Meni gunohlarga nisbatan sezgir qilgin. Agar senga itoat etmaganimda, tavba qilishim uchun yordam ber”.

6 APREL. SEN LOZIM DARAJADA KATTA YOSHDAMISAN?

Kalomdan o‘qish: Ishayo 7:13-16

O‘sha bola yomonni rad etib, yaxshini tanlashni biladigan yoshga yetganda qatiq va asal yeydi (Ishayo 7:15).

SENING YOSHING NECHADA? Sen yetarli darajada katta yoshdamisan?

– Yetarli darajada katta yosh nima uchun? – deb so‘raysan. Mana masala nimada.

Deylik, sen mashina haydamoqchi bo‘layapsan. Qonun bo‘yicha buning uchun o‘n olti yoshga to‘lsang kifoya, garchi ota-onang bunga rozi bo‘lmasalar ham!

Deylik, sen saylovda ovoz bermoqchisan. Bu holda sen yetarli darajadagi o‘n sakkiz yoshda bo‘lmog‘ing lozim.

Deylik, sen nafaqa olishni istaysan. Juda afsusdaman, biroq buning uchun keksayishingni kutishga to‘g‘ri keladi.

Sen qachon aqlingni yig‘ib olish uchun kerakli darajada katta yoshga yetasan? Agar sening ota-onang – ko‘pchilik ota-onalar singari bo‘lishsa, ular senga bu savolni million marotaba berishgandir. Biroq boshqalar kabi sening ota-onang ham bu qachon ro‘y berishini tushuntirmagan bo‘lsalar kerak. Besh yoshdami? O‘ndami? Oltmish yoshdamikan? Balki ana shu yoshlar orasidadir?

Hattoki eng kichkina bolalar ham tushunishadi: yaxshi va yomon hodisalar bor. Biz Xudoning siymosida yaratilgan ekanmiz, nimanidir tabiiy tarzda tushunamiz. Mana nima uchun ikki yoshli go‘dak boshqa bolakay uning o‘yinchog‘ini olib qo‘ysa, “Bu g‘irromlik”, deb baqiradi.

Go‘dak ulg‘aya boshlaganida nima yaxshiyu, nima yomonligini albatta yaxshiroq tushunadigan bo‘ladi. Biroq ezgulikni yomonlikdan ajrata olishing uchun – keksayishingni yoki hattoki sakkizinchi sinfni tugatishingni – kutishga hojat yo‘q. Bu unchalik murakkab bilim emas.

Ha, ba’zan xuddi qutqaruv qayig‘i bilan bog‘liq voqea kabi tanlov qiyin bo‘ladi. Bu voqeani bilasizlarmi? Sen – akulalar izg‘ib yurgan dengiz o‘rtasidagi qutqaruv qayig‘idagi sakkiz kishining birisan. Qayiq faqat yetti kishini ko‘tarishi mumkin; kimdir uni tark etishi kerak. Sen boshqa yetti kishi uchun hayotingdan voz kechishga tayyormisan? Ko‘pchilik odamlar hayotlarida biror marta ham akulalar qurshovidagi qayiq ichida bo‘lib qolmaydi. Ular hattoki bu haqda o‘ylab ham o‘tirishmaydi, to‘g‘rimi?

Ko‘pchiligimiz uchun yaxshilik va yomonlik o‘rtasidagi tanlov – har kunlik ishdir. Odatda bu masala shunday qo‘yilmaydi: “Bu yaxshimi yoki yomon?” Bu bizga ayon. Biz ko‘proq shunday deb so‘raymiz:” Men yaxshi ish *qildimmi*?” Boshqacha qilib aytganda, sen yetarli darajada katta yoshda bo‘lsang, yaxshi yo‘l tutmog‘ing uchun (menga ishonaver, mabodo bu kitobni o‘qisang, demak, katta bo‘lib qolgansan) sen o‘sha yaxshilikni amalga oshirmog‘ing lozim. Mana, aslida eng muhimi ana shu.

MULOHAZA QILGIN: Hayotda ezgulik va yomonlikdan birini tanlashingga to‘g‘ri keladigan aksariyat hollarda tanloving tushunarli va aniq bo‘ladi. Biror harakatning yaxshi yoki yomon ekanligini bilmaganing bois undan jiddiy shubhaga tushganmisan? Sen o‘zing ishonadigan kishilarga - ota-onangga, qavmboshiga yoki boshqa yoshi kattaroq masihiylarga bu haqdagi savollaringni bergin.

IBODAT: “ Xudoyim, men diqqat-e’tibor ila qarorlar qabul qilishim uchun yordam ber. Men to‘g‘ri qaror qilishim uchun yetarli darajada katta yoshda ekanligimni yodimda saqlashga ko‘maklashgin”.

7 APREL. XO‘P BO‘LADI!

Kalomdan o‘qish: Qonunlar 6:4-9

Bugun men sizlarga bergan bu amrlarni yuragingizda saqlanglar (Qonunlar 6:6).

Amrlarimni saqlab yasha, ta’limotimni ko‘z qorachig‘ingdek asra (Hikmatlar 7:2).

SEN QACHONLARDIR maydonda saf tortgan askarlarni ko‘rganmisan? Serjantning buyrug‘i bilan ular birgalikda harakat qilishadi.

-O‘ng-ga! - va hammasi burilishadi.

- Qadam bos! - va hammasi qadam tashlaydi.

- To‘xta, bir-ikki! - va barchasi bir vaqtning o‘zida to‘xtaydi.

Bu odamlar oylab o‘tkazilgan mashg‘ulotlardan so‘ng bilib olishadi: serjant buyruq berganida, yaxshisi tez bajarish kerak. Faqat bugina emas: ko‘pchilik bo‘ysunish o‘zlarining foydasi uchun ekanligini tushunib qolishgan. Ular yanada kuchliroq, tezkorroq, chaqqonroq, e’tiborliroq bo‘lishgan.

Xudo ham bizga buyruqlar beradi. U serjant kabi tomog‘i yirtilgudek baqirmaydi. U bizni yuk bilan uzoq masofaga yugurishimizga majbur qilmaydi. U yerga yiqilishimiz va mabodo bo‘ysunmasak yigirma marta qo‘limizni yerga qo‘yib mashq qilishimizni talab qilmaydi. Biroq U biz har kuni bajarishimiz shart bo‘lgan buyruqlarni beradi.

Sen Xudo qo‘shinidagi yaxshi askarmisan? Askarlar serjantning buyrug‘ini bajarganlari kabi, sen ham Xudoning buyruqlarini aniq bajarasanmi? Sen bu buyruqlarni bajarishga tez kirishasanmi? Yoki bu buyruqlardan bo‘yin tovlashga urinib, o‘zingcha harakat qilasanmi?

Xudoga sodiq askar har kuni ko‘p vaqtini ibodat va Xudoning buyruqlarini (Muqaddas Kitobni) o‘rganish bilan o‘tkazadi. Biz Xudoga sodiq bo‘lganimizda Uning Kalomini o‘rganib ularga amal qilamiz, negaki ular qalblarimizga muhrlangan. Xudoga sodiq bo‘lish Uning irodasiga bo‘ysunish demakdir.

Serjantning buyruqlari askarlar foydasi uchun bo‘lganidek, Xudoga sadoqat va Uning buyruqlarini bajarish ham bizga foyda keltiradi. U bilan va Uning Kalomi bilan birgalikda vaqt o‘tkazib, Unga sadoqat bilan bo‘ysunib sen kuchliroq, yaxshiroq bo‘lasan, nima to‘g‘ri bo‘lsa, o‘shani tezroq bajarasan.

MULOHAZA QILGIN: Qanaqadir ishga sodiq bo‘lish – bu, o‘zini o‘sha ishga to‘liq bag‘ishlash demakdir. Hayotda Xudoga nisbatan sadoqatdan ko‘ra o‘zingni ortiqroq ravishda bag‘ishlagan biror nima bormi? Xudoning buyruqlaridan qaysi birini bajarish sen uchun oson, qaysi biri esa qiyinroq?

IBODAT: “Xudoyim, men Sen bilan munosabatlarimni kundan-kun yaxshilab bormoqchiman. Sening amrlaringga tez va bajonidil amal qilishim uchun yordam ber, ayniqsa .....”.

8 APREL. HAQIQIY DONOLIK

Kalomdan o‘qish: 3 Shohlar 3:5-10

Endi xalqingga shohlik qilishim uchun menga aql-idrok bergin, toki yaxshilik bilan yomonlikning farqiga borayin (3 Shohlar 3:9).

NIMA DEB O‘YLAYSAN, *donolik* nima o‘zi?

Beshinchi sinfda o‘qiydigan bir bola aytishicha, donolik – bu “hammadan aqlli bo‘lish” demakdir.

Boshqasi esa, donolik – “faqat qizlarga va keksalarga xos” ekanligini aytdi.

Yana biri esa donolik – “ahmoqlik qilmaslik uchun yetarli darajada bilish” ekanligini bildirdi.

Boshqasi esa donolikni “boshqa hech kim bilmaganida nima qilish kerakligini senga aytib turadigan boshingdagi ovoz”, deya atadi.

Bularning bari yomon fikrlar emas, lekin *sening* fikringcha, donolik nima? Boshqalardan ko‘proq bilishmi? Ahmoqlikdan qanday qochishni bilishmi? Yoki yana boshqa narsami?

O‘z davrida donoligi bilan mashhur bo‘lgan shoh Sulaymon Muqaddas Kitobda biz uchun donolik nima ekanligini tushuntiradi. 3 Shohlar Kitobining uchinchi bobida (Qadimgi Ahdda) shoh Sulaymonning tushida Xudoning qanday namoyon bo‘lgani bayon qilingan. Xudo undan so‘ragan:

- Sen nimani xohlaysan? So‘ragin, Men senga o‘shani beraman!

Mabodo Xudo bizga shunday taklif qilganida, ko‘pchiligimiz quyidagicha aytgan bo‘lardik: “Million dollar!” yoki “ Shaxsiy kompyuter!”, yoxud shunga o‘xshash nimanidir. Biroq Sulaymon bunday demagan. U aytgan: “Endi xalqingga shohlik qilishim uchun menga aql-idrok bergin, toki yaxshilik bilan yomonlikning farqiga borayin (3 Shohlar 3: 9).

Sulaymonning so‘zlaridan ayonki, donolik bu asosan “yomonlik va yaxshilikni farqlay olish”dir. Ehtimol, sen yaxshi ma’lumot olgandirsan. Sen sinfingda va hatto maktabingda eng yaxshi o‘quvchi bo‘lishing mumkin. Sen, “Nima? Qayerda? Qachon?” ko‘rsatuvida ming martalab g‘olib chiqishing mumkin. Biroq, dono bo‘lishni istasang, “nima yaxshiyu, nima yomonligini farqlash” mahoratini izlashing kerak bo‘ladi.

Nimalarni bilishing muhim emas, agar ezgulikni yovuzlikdan farqlay olishni bilmasang, sen donolikka erisholmaysan.

MULOHAZA QILGIN: 3 Shohlar 3:9 dagi Sulaymonning so‘zlariga ko‘ra haqiqiy donolik qayerdan (yoki Kimdan) hosil bo‘ladi? Nima deb o‘ylaysan, dono bo‘lish uchun keksayish kerakmi? Sen qay tariqa dono bo‘la olasan?

IBODAT: Muqaddas Kitobda shunday yozilgan: “Agar birortangizga donolik yetishmasa, Xudodan so‘rang, U beradi. Chunki so‘raganlarning hammasiga Xudo saxiylik bilan, beminnat beradi” (Yoqub 1:5). O‘z hayotingning muayyan jabhalari uchun Xudodan donolik so‘ragin. Balki sen ibodatni 3 Shohlar 3:9 dagi Sulaymonning Xudodan donolik so‘ragan so‘zlaridan boshlarsan: “...menga aql-idrok bergin, toki yaxshilik bilan yomonlikning farqiga borayin”.

9 APREL. ASLIYATGA YAQINLASHUV

Kalomdan o‘qish: Qonunlar 7:6-9

Shunday qilib, Egangiz Xudo haqiqiy Xudo ekanini bilib qo‘yinglar. U sodiq Xudodir! Uni sevadigan, Uning amrlarini bajaradiganlarning minginchi avlodigacha ahdini sodiq saqlaydi (Qonunlar 7:9).

BUNDAN BIR NECHA YIL AVVAL televizor orqali mashhur xonanda ishtirok etgan reklamani ko‘rsatishdi. U ajoyib opera ariyasini ajabtovur tarzda yuqori ohangda kuyladi. So‘ngra tasvir o‘zgarib, bizga vino uchun shisha idishni ko‘rsatishdi. Xonanda ayol yuqori avjda kuylaganida idish titrab ketdi.

Shundan so‘ng magnitofonni ko‘rsatishdi va ovoz yangradi: “Bu jonli ijro edimi yoki tasmaga yozib olinganmi?”

Albatta, bu, ovoz shunchalik aniq-tiniq yangrashi bois, shisha idishlar ham titrab ketadigan kassetalar reklamasi edi. Boshqacha qilib aytganda, ovoz shunchalik aniqki, uning tasmadagi yozuvini jonli ijrodan ajratib bo‘lmasdi.

Mana ishonch nima: bu asliyatga yaqinlik demakdir.

Xudo bizga ishonch nima ekanini ko‘rsatgan. Muqaddas Kitobda shunday yozilgan: “ U sodiq Xudodir! Uni sevadigan, Uning amrlarini bajaradiganlarning minginchi avlodigacha ahdini sodiq saqlaydi” (Qonunlar 7:9). Xudo O‘z Kalomini hattoki minginchi avlodgacha ham sodiq saqlaydi! U hech qachon O‘zini sevganlarni sevmay qo‘ymaydi. U hech qachon O‘ziga ishonganlarni umidsizlantirmaydi. U hech qachon O‘ziga muhtoj bo‘lganlarni tashlab ketmaydi.

Biz, masihiylar, Xudo bizga berayotgan namunaga, asliyatga yaqin bo‘lganimizda ishonchlimiz. Ishonchli bo‘lish so‘ziga amal qilish; o‘zimiz sevganlardan hech qachon yuz o‘girmaslik; bizni sevadiganlardan hech qachon o‘z sevgimizni ayamaslik; bizga ishonganlarni hech qachon ongli ravishda umidini so‘ndirmaslik; biz kimga kerak bo‘lsak, o‘shalarni hech qachon tashlab ketmaslik demakdir Bunday ishonch asliyatga, Xudoyimizga yaqinlikdir. Xudoga ishonch foydalidir. “Sodiq kishi ko‘p baraka topadi” (Hikmatlar 28:20).

MULOHAZA QILGIN: Sodiqlik – bu asliyatga yaqin bo‘lib, – Xudoning amrlarini bajarish va boshqa odamlar bilan munosabatda Unga taqlid qilish demakdir. Sen asliyatga qanchalik yaqinsan? O‘z so‘zingda tura olasanmi? Kimni sevsang, o‘shanga sodiqmisan? Seni sevganlarni sen ham sevasanmi? Senga ishonch bildirganlarni umidsizlikka solasanmi? Senga muhtoj bo‘lganlarni tashlab ketasanmi? Agar senga yordam kerak bo‘lsa, hammasini o‘zing qilishga urinma: Xudoga va Uning Muqaddas Ruhiga tayangin.

IBODAT: “Xudoyim, men bugun Senga sodiq bo‘lmoqchiman. Sodiq bo‘lishimga yordam ber, ayniqsa .....”.

10 APREL. SODIQ BO‘LISH YAXSHI

Kalomdan o‘qish: Ibroniylar 3:1-6

...Muso Xudoning xonadonida sodiq xizmatkor bo‘lgani kabi, Iso ham Xudoga sodiq bo‘ldi (Ibroniylar 3:2).

“U SOTQIN”.

“Ehtiyot bo‘l: u sening orqangdan zarba berishi mumkin”.

“ U tuqqan onasini bir necha tangaga sotib yuborishi mumkin”.

Sen shunday iboralarni qachondir eshitganmisan? Balki, haqiqiy hayotda eshitmagandirsan, ammo bu kabi so‘zlar kitoblarda yoki kinolarda uchragandir. Sen o‘shanaqa odam bo‘lishni istaysanmi? Unday bo‘lmoqchi emassan, to‘g‘rimi? Lekin o‘ylab ko‘rchi, nima uchun istamaysan? Bu kabi tavsiflarning nimasi borki, sen o‘zing haqida bunday fikrlar bildirilishini istamaysan?

Hech kim sotqin yoki ablah bo‘lib tanilishni istamaydi. Hech kim o‘zi haqida, u onasini ham sotishga tayyor, deb gapirishlarini xohlamaydi. Nega? Negaki barcha ham tabiiy ravishda xiyonat, sotqinlik, ablahlik, beqarorlik yomon ekanligini biladi.

Sen haqingda bunday deb gapirishlari esa ancha yoqimli:

“Bu yigitga ishonish mumkin”.

“Agar u aytgan bo‘lsa, albatta keladi”.

“Unga tayansa bo‘ladi”.

“ U hech qachon menga pand bermagan”.

Bunaqangi obro‘-e’tibor senga yoqqan bo‘lardi, to‘g‘rimi? Nega? Negaki, sen sadoqat – yaxshi narsa ekanligini bilasan. Uning yaxshi ekanligini hamma tan oladi, hattoki ezgulik va yovuzlik yo‘qligini uqtiradiganlar ham. Hattoki bunday odamlar ham do‘stlari ularga xoinlik qilishini yoki tashlab ketishini istashmaydi.

Bu shuning uchunki, sadoqat – yaxshi fazilatdir. Sadoqat – ezgulik, xiyonat esa – yovuzlikdir.

Biroq sen endi bu haqda bilasan, to‘g‘rimi?

MULOHAZA QILGIN: Muqaddas Kitobdan bugun o‘qiladigan parchada ikkita sodiq kishilar bayon etilgan. Ular kim bo‘lgan edi? Sadoqat yaxshimi yoki yomon?

Yuqorida qayd etilganlardan qaysi biri senga to‘g‘ri keladi? Nima deb o‘ylaysan, mabodo sen do‘stingdan yoki qarindoshingdan o‘z sadoqatingni baholashni so‘rasang, senga qanday baho bergan bo‘lardi: a’lo, yaxshi, qoniqarli, qoniqarsiz? Nima uchun?

IBODAT: Xudodan shunday bir hayot kechirishingga yordam berishini so‘raginki, toki senga: “...hatto o‘zing tanimaganlarga ham, doim sadoqat bilan yordam berib kelyapsan” (3 Yuhanno 1 : 5) deya olishsin.

11 APREL. XUDOGA SADOQAT MANZUR BO‘LADI

Kalomdan o‘qish: Vahiy 2:8-10

O‘lim xavfi ostida bo‘lganingda ham sodiq qol, shunda Men senga hayot tojini beraman (Vahiy 2:10).

XUDO BIZGA KO‘P AMRLAR BERGAN. Ba’zan ularning hammasini eslab qolish qiyin bo‘ladi. Misol uchun, bu amrlardan qaysi biri haqiqatdan ham Xudo tomonidan berilayotganini aniqlay olishingni ko‘rib chiqaylik.

1. Xudo:

A) “Sen bog‘ o‘rtasidagi daraxtning mevasini toki u o‘rganib chiqilmagunicha yemasliging kerak” yoki

B) ”Yettinchi kun, shanba, Xudoga bag‘ishlangan bo‘lishi kerak. Shu kuni sen ishlamasliging kerak” deganmi?

2. Xudo:

A) “O‘g‘irlik qilma” yoki

B) “yarim tundan so‘ng musiqa asboblarini baland chalma” deganmi?

3) Xudo:

A) “Hamisha adolatli bo‘l” yoki

B) “qo‘shnining ko‘lmagini chapillatmagin, bo‘lmasa u kelib sening ta’ziringni beradi” deganmi?

4) Xudo:

A) “Bolalar, imondagi ota-onangizning aytganlariga itoat qiling, negaki bu to‘g‘ri” yoki

B) “ har kim xohlaganini qilsin” deganmi?

5. Xudo:

A) “ Sadoqatli bo‘l” yoki

B) “kimki begunoh bo‘lsa, o‘sha tosh termasin” deganmi?

Agar sen barcha javoblarga – birinchi qatordan tashqari – “a” harfini belgilagan bo‘lsang, demak, bilimdonsan! Ko‘rayapsanmi, oxir-oqibat, Xudoning amrlarini eslab qolish va ularni tanib olish unchalik qiyin emas.

Bu qayd etilgan amrlardan biri bugungi o‘qiladigan parchadan olingan bo‘lib, unda Xudo O‘z xalqiga hatto o‘lim oldida ham sadoqatni asrash haqida amr beradi. Qoyil! Albatta, sadoqat – xohish bilan qilinadigan ish emas, deganidir; uni Xudo buyurgan. U bizning ham halol, adolatli, mehribon va sevuvchi bo‘lishimizni istaydi; shuningdek, U bizning vafodor bo‘lishimizni ham xohlaydi. U buni amr etadi.

MULOHAZA QILGIN: Nima deb o‘ylaysan, nega Muqaddas Kitobdan bugun o‘qiladigan parchada sadoqatga bunday ahamiyat qaratilgan? Xudoning amrlari o‘nta bo‘lmaganida bu qadar ishonchga ega bo‘lmasdi, deb aytish mumkinmi? Xudo bizga O‘zi uchun muhim bo‘lmagan amrni beradi, deb o‘ylaysanmi? Xudo bizga nimadir yomon yoki noto‘g‘ri narsani bajarishimizni buyuradimi?

IBODAT: “Xudoyim, menga qanday sadoqatli bo‘lishim kerakligini ko‘rsat va Sening amrlaringni bajarishimga yordam ber”.

12 APREL. XUDO SADOQATNI QADRLAYDI
Kalomdan o‘qish: Hikmatlar 3:1-8
Sevgi va sadoqatni aslo tark etma (Hikmatlar 3:3).

SEN YURAKDAN GAPLASHISH NIMA EKANLIGINI BILASANMI? Mana bu daftarga bolalar o‘zlari yaxshi ko‘rgan narsalar haqidagi savollarga javob berishadi. Misol uchun, bir sahifadashunday yozilgan: “Sen yoqtirgan sport turi qaysi?” va hammalari bunga javob qaytarishadi: “Futbol”, “figurali uchish”...

Keling, bir qancha savollarga javob berishga urinamiz. O‘zing yoqtirganni aytishga urinib ko‘r:

eng sevimli qo‘shiq .....
eng sevimli xonanda yoki guruh.....
eng sevimli teleko‘rsatuv.....
yilning eng yoqimli vaqti.....
Muqaddas Kalomning eng sevimli kitobi.....

Endi esa eng *yoqtirmaganni* aytishga urinib ko‘raylik:

eng yoqmaydigan ovqatni.....
eng yoqmaydigan fan.....
eng yoqtirmaydigan telereklama.....
haftaning eng yoqmaydigan kuni
ota-onaning eng yoqmaydigan iboralari..... .

Ishonasanmi yo‘qmi, Xudoda ham shunday ro‘yxat bor. U hattoki yozib olingan. Uning ro‘yxatiga ko‘ra, Uning odamlarda eng yaxshi ko‘rgan sifatlaridan biri – bu sadoqatdir. U sadoqatni – qoyilmaqom deb biladi. Uning O‘zi sadoqatni asrashni yoqtiradi va odamlar Unga hamda bir-birlariga vafodor bo‘lishlarini yaxshi ko‘radi.

Sen shu haqda o‘ylab ko‘r. Sen toqat qilmaydigan fanlar yoki taomlar – brokkoli, no‘xat, qatiq – bormi? Jismoniy tarbiya, matematika, ingliz tili? Xo‘sh, Xudo ham *ba’zi narsalarga* toqat qilolmaydi. Xususan, U *xiyonatga* toqat qilolmaydi.

Mana shuning uchun Xudo bizga sadoqatli bo‘lishni amr etgan. Chunki U sadoqatni qadrlaydi. Bizlar ham sodiqlikni qadrlashimiz lozim.

MULOHAZA QILGIN: “Qadr-qiymat” – bu odamlar uchun qandaydir muhim narsa. Sen o‘z do‘stlaringdagi sadoqatni qadrlaysanmi? O‘z ota-onangdagi sadoqatnichi? O‘zingdaginichi?

IBODAT: “Xudoyim, Sen sadoqatni qanday qadrlasang, menga ham uni shunday qadrlashimga yordam ber”.

13 APREL. NIMA QILAYOTGAN BO‘LSA, BARCHASIDA VAFODOR
Kalomdan o‘qish: Zabur 32:1-4
Egamizning kalomi haqiqatdir, Uning barcha ishlari ishonchlidir (Zabur 32:4).

– Sud Ur shahridan guvoh Ibrohimni chaqiradi!

Oldinga qadam tashlaganicha hassaga tayangan soqolli qariya kirib keladi. U faqatgina haqiqatni aytishi haqida qasam ichgach, o‘z joyini egallaydi.

– Siz Ur shahrilik Ibrohimmisiz? – deb so‘raydi qimmatbaho kostyum kiygan huquqshunos. Qariya bosh irg‘ab qo‘yadi. – Siz ayblanuvchini hech qachon tushunmagansiz va u bilan hech qachon kelisha olmagansiz, to‘g‘rimi? – deydi u boshqa huquqshunos yonidagi bo‘sh stulga ishora qilib.

Ibrohim boshini chayqaydi:

– Har doim emas. Biroq mening undan yaqin do‘stim yo‘q edi. Men unga tez-tez pand berib qo‘yardim – Misrda, Garorda, shuningdek, yana ko‘p marotoba – biroq, U hech qachon meni tark etmagan.

Boshqa guvoh chaqiriladi. Oldinga turfa rangli kiyimda Yusuf ismli kishi kirib keladi.

– Siz ayblanuvchining aybi bilan ko‘p bora noxush holatlarga tushgansiz, to‘g‘rimi? – deb so‘raydi huquqshunos.

– Ha, shunday bo‘lgan, ikki marotaba. Meni o‘zimning kalondimog‘ligim uchun qul qilib sotib yuborishgan. Men qamoqqa tushib qoldim, negaki meni adolatsiz ravishda aybladilar. Biroq U, – Yusuf boshi bilan bo‘sh stulga ishora qiladi, – hamisha men bilan birga bo‘lgan. U meni barcha noxushliklardan xalos qildi. U bularning barchasiga daxldor emas edi.

Hakam Yusufga ruxsat beradi. Yunus ismli uchinchi guvoh chaqiriladi.

– Sizning bu do‘stingiz sizdan baliq uchun xo‘rak tayyorladi, shunday emasmi? – deydi huquqshunos.

Yunus javob qaytaradi:

– U men bilan shunday ish qilishiga o‘zim aybdor bo‘lganman. Meni baliq yutib yubraganida, hammasi tamom, deb o‘ylagandim. Biroq U meni tashlab qo‘ymadi! U hech qachon hech kimni tashlab qo‘ymaydi. – Yunus o‘rnidan turadi. – Mening do‘stim – mening Xudoyim – sodiqdir. Ba’zida emas. Katta bir qismda ham emas. U nimaiki qilmasin, barchasiga sodiq. Nima uchun, bilasizlarmi? Negaki, U – *qanday bo‘lsa ana shunaqa*. Sodiqlik – Uning *ishi* emas. Bu Uning *tabiatidir*!

Yunus huquqshunosga hamdardlik bilan tikiladi:

– Sizlar esa, osmon va yer Xudosini hukm qilib, Xudoning sadoqatini muhokama qilolmaysizlar, negaki faqat Uning O‘zigina buning nima ekanligini ko‘rsatishi mumkin. Faqat Xudogina sadoqat – ezgulik, xiyonat esa – yovuzlik ekanini ko‘rsatib bera oladi.

Huquqshunos o‘girilib oladi, biroq Yunus jim turmaydi:

– Agar siz o‘zingizni Xudo singari tutganingizda edi, qalbingiz xotirjam bo‘lardi. *Biroq siz doimo noto‘g‘ri ish tutgansiz*, Yahudo Ishqariyot, negaki siz har narsaga sodiq Xudoga o‘xshamaysiz.

MULOHAZA QILGIN: Agar seni Xudoga sadoqating to‘g‘risida guvohlik berish uchun chaqirganlarida, nimalar degan bo‘larding? Xudo sadoqatining qanday isbotlarini keltira olarding?

IBODAT: “Xudoyim, menga bo‘lgan sadoqating uchun minnatdorman”.

14 APREL. TASHQI KO‘RINISH VA AQLDAN TASHQARI

Kalomdan o‘qish: Matto 25:14-23

Barakalla! Sen yaxshi va ishonchli xizmatkorsan! Kichik ishda ishonchimni oqlaganing uchun senga katta ishlarni ishonib topshiraman. Kel, mening xursandchiligimga sherik bo‘l (Matto 25:23).

“XUDO BOSHQALARGA AQL ULASHGANIDA, sen kechikib qolgansan”.

“Xudo boshqalarga tashqi ko‘rinish ulashganida, sen, “Mengachi”, deb qichqirgansan, biroq U sening so‘zlaringni: “Qo‘rqinchliroq bo‘lsin!” deb eshitgan.

“Xudo boshqalarga o‘ziga xoslik ulashganida, sen, U *durust emas* deb aytdi, deb o‘ylagansan, shu bois sendagi xoslik boshqalarga sezilmasligini so‘ragansan!”

Albatta, bu aytilganlardan hech biri *senga* taalluqli emas. Oxir-oqibat, senda hammasi joyida, to‘g‘rimi?

To‘g‘ri. Garchi sen o‘zingni ba’zan xunuk va qobiliyatsiz his qilsangda, Xudo senga ko‘p yaxshi narsalarni bergan. Balki sening ajoyib oilang bordir. Yoki U seni sportchilik qobiliyati yoxud sog‘lom vujud bilan marhamatlagandir. Yoki ajoyib aql bilan. Yoxud seni tushunadigan ota-ona bilan. Yoki betakror ovoz bilan. Yoki xushsurat qiyofa va boshqalarni jalb etish salohiyati bilan. Yoxud o‘tkir nazar bilan. Tik qaddu-qomat bilan. Tekis tishlar bilan.

Men Xudo senga nimadir ulashganini nazarda tutayapman. Ehtimol, U futbol jamoangizning sardoridan yoki maktabdagi eng chiroyli qizdan ko‘ra kamroq narsani senga bergan, deya hisoblarsan.

Biroq Xudo senga ko‘p yoki kam bergan bo‘lmasin, ulardan qanday foydalanayotganing muhim. Agar Xudo senga aql bergan bo‘lsa, sen undan kerakli tarzda foydalanayapsanmi yoki uni ota-onang va o‘qituvchilaringni laqillatish maqsadida ishlatayapsanmi? Agar Xudo senga ovoz ato etgan bo‘lsa, sen undan Xudo haqida kuylab, Uni ulug‘lash yo‘lida foydalanayapsanmi yoki ovozingni aka-uka va opa-singillaringni so‘kish uchun ishlatayapsanmi?

Kalomda shunday deb yozilgan: “Egamiz har bir odamning to‘g‘riligiga va sadoqatiga yarasha mukofot beradi” (1 Shohlar 26:23). Agar sen Xudo berganlariga sadoqatli bo‘lsang, U seni boshqa marhamatlar bilan, boshqa vazifalar va ustunliklar bilan taqdirlashi mumkin. Biroq agar Uning senga berganlarini behuda sarflayotgan yoki noto‘g‘ri foydalanayotgan bo‘lsang, nega U senga yana ko‘proq ishonishi kerak?

MULOHAZA QILGIN: Xudoga sadoqat Uning in’omlaridan donolik bilan foydalanish ham demakdir. Xudo senga qanday yaxshi narsalar berganini o‘ylab ko‘r. Ma’lum narsalar (misol uchun, beshta sezgi) yoki moddiy narsalar (qulay karavot) haqida unutma. Sen o‘n ballik tizim (o‘n ball “xuddi Sulaymon yoki Suqrot singari”, bir ball esa “shu zahotiyoq tez yordam kerak”) bo‘yicha Xudoning in’omlaridan foydalanishingni qanday baholagan bo‘larding ?

IBODAT: “Xudoyim, menga bergan barcha yaxshi narsalaring uchun Senga rahmat, ayniqsa .....”.

15 APREL. O‘RIN ALMASHAMIZMI?

Kalomdan o‘qish: Matto 25:24-30
Kimda yo‘q bo‘lsa, hatto bori ham tortib olinadi (Matto 25:29).

TASAVVUR QIL, sen – ota-onangdan birining o‘rnida bo‘lib qolding. Ha albatta, ular katta va g‘alatiroq. Ammo baribir urinib ko‘r.

Faraz qilaylik, sen bolangga nima xohlasa shuni yeyishiga ruxsat berding. Bir haftadan so‘ng u shokoladlar, mevali muz bo‘lakchalari, muzqaymoq va pepsi-koladan tashqari hech qanday savzavotlar va oqsillar iste’mol qilmayotganini anglab qolding. Sen shunday qarorga kelasan:

a) go‘sht va savzavotlar sotib olmaslik;
b) bola uchun kengroq kiyimlar sotib olishni boshlash;
v) avvalgi qaroringni bekor qilib, bolani qat’iy parhezga o‘tkazish.

Faraz qilaylik, farzanding senga endi kap-katta bo‘lganini va uyda yolg‘iz qolishi mumkinligini aytadi. Sen uni bir necha soatga uyda yolg‘iz qoldirasan va o‘zing turmush o‘rtog‘ing bilan xarid qilish uchun ketasan. Uyga qaytgach, farzanding o‘rtoqlari bilan mehmonxonada bir-birlariga ovqatlarni uloqtirishayotganini ko‘rasan. Sen shunday qaror qilasan:

a) bu manzarani suratga olish;
b) farzandingdan keyingi safar ovqatni uloqtirishlaridan avval, buyumlar ustini yopish uchun ogohlantirib qo‘yishini so‘rash;
v) boshqa hech qachon bolani uyda yolg‘iz qoldirmaslik.

Faraz qilaylik, farzanding o‘n olti yoshga to‘lganida mashinaning kalitini sovg‘a qilasan. Uch kun o‘tgach bolaning yonida kalit bo‘lsa-da, u mashinani topolmaydi. Sen shunday qaror qilasan:

a) mahallada mashinaning suratini ilib qo‘yish;
b) boshqa mashina sotib olish;
v) kalitni olib qo‘yish.

Deylik – harqalay – sen barcha holatlarda “v“ variantini tanlading. Nega? Bu axir yaqqol ko‘rinib turibdi, to‘g‘rimi? Chunki ota-onalar sodiqlikni qadrlashadi, buning aksini emas.

Va shunday ham bo‘ladi. Iso shunday degan: “Chunki kimda bor bo‘lsa (erkinlik, javobgarlik, do‘stlar va h.k.z.), unga yana beriladi va u mo‘l-ko‘lchilikda yashaydi. Kimda yo‘q bo‘lsa, hatto bori ham tortib olinadi" (Matto 25:29).

Boshqacha qilib aytganda, kimki – Xudoga, ota-onasiga, do‘stlariga sodiq bo‘lsa, – yaxshi narsalarni o‘z hayotiga jo etadi, kimki nosodiq bo‘lsa – yo‘qotadi.

MULOHAZA QILGIN: Nima deb o‘ylaysan, sodiq bo‘lish osonmi yoki xiyonatkor bo‘lish? Nega? Sodiq bo‘lgan yaxshimi yoki xiyonatchi? Nima uchun?

IBODAT: “Xudoyim, meni O‘zingning sodiq xizmatkoring qilgin”.

16 APREL. SUV OMBORI
Kalomdan o‘qish: Zabur 17:25-29
Ey Egam! Senga sodiq bo‘lganga Sen sodiq bo‘lasan, Yaxshi insondan yaxshiligingni ayamaysan (Zabur 17:26).
Sevgi va sadoqatni aslo tark etma (Hikmatlar 3:3).

AYTISHLARICHA, dunyoning qaysidir qismida, yomg‘ir kam yog‘adigan, boshqa barcha kunlari esa qurg‘oqchilikda o‘tadigan bir qishloq bo‘lgan ekan.

Kunlardan birida qishloq oqsoqollari shunday reja o‘ylab chiqishibdi: yomg‘ir mavsumida qishloqning har bir aholisi qishloq markazidagi suv omboriga chelakda suv olib kelib, quyishadi. Qurg‘oqchilik boshlanganida va suv kamayganida esa, odamlar ombordagi suvni o‘zaro taqsimlab olishadi.

Qishloq ahli oqsoqollarning bu rejasiga xursandchilik bilan rozi bo‘lishibdi. Yomg‘ir mavsumi kelibdi va ketibdi: havo changga to‘libdi, yer qaqrab qolibdi, suv tanqis bo‘libdi.

Nihoyat, oqsoqollar omborni ochishi va qimmatli suvni qishloq ahli orasida taqsimlaydigan kun kelibdi. Barcha xushkayfiyatda chelak va idishlar bilan suv ombori atrofida turishardi. Oqsoqolar tantanali tarzda suv omborini ochishadi – va ko‘rishsaki, unda bir tomchi ham suv yo‘q!

Ana o‘shandagina ular, qishloq ahlidan hech kim yomg‘ir mavsumida bir chelak ham suv olib kelmaganini bilishibdi. Har bir odam, olib kelinmagan bir chelak suvni hech kim sezmaydi, deb o‘ylagan va shu tariqa qishloq suvsiz qolibdi.

Sening xiyonatingni hech kim sezmaydi, deb o‘ylash oson. Jamoatdagi xizmatni yoki maktabdagi mashg‘ulotni qoldirish, do‘stga bergan va’daga vafo qilmaslik va ayni paytda “Hech kim e’tibor bermaydi”, “Bu muhim emas”, deb o‘ylash oson!

Biroq xiyonat *nafaqat* bizga tayanadiganlar uchun zararli; u biz uchun ham ziyon. Agar qishloqning har bir kishisi o‘z chelagida suv olib kelganida edi, hammalariga qurg‘oqchilik davrida suv yetgan bo‘lardi. Agar sen sodiq bo‘lsang, sadoqating – Xudodan va boshqa odamlar tomonidan – ko‘p hissa bo‘lib o‘zingga qaytadi.

MULOHAZA QILGIN: Nima deb o‘ylaysan, agar qishloq ahli o‘z so‘zida turganlarida nima bo‘lardi? Sen ham Xuddi shu odamlar kabi beparvoligingni va xiyonatingni hech kim bilmaydi deb o‘ylab o‘zingni shunday tutganmisan? Kimningdir mas’uliyatsizligi tufayli senda og‘ir vaziyatlar bo‘lganmi? O‘z mas’uliyatsizliging tufaylichi?

IBODAT: Zaburning 17:26-29 ni ovoz chiqarib o‘qi, so‘ngra esa shu oyatlar asosida Xudoga ibodat qil.

17 APREL. MEN KELISHINGNI BILARDIM

Kalomdan o‘qish: Hikmatlar 17:17

Haqiqiy do‘st har doim sevadi, aka-ukalar ham og‘ir kun uchun yaratilgan (Hikmatlar 17:17).

QIDIRUVCHI (SKAUT)LAR KITOBIDA Fransiyada birgalikda jang qilishgan aka-ukalar haqida hikoya qilinadi. Kunlardan birida, jangdan so‘ng, ulardan faqat bittasi o‘z qismiga qaytib kelibdi. U boshlig‘ining oldiga kelib, ukasini izlash uchun ruxsat so‘rabdi.

Zobit bosh chayqabdi:

– Bu nihoyatda xavfli, – debdi u qat’iy ohangda. – Hoynahoy, ukang o‘lgan, sen o‘z hayotingni behuda tavakkalga qo‘yasan.

Biroq aka zobitdan jang maydoniga qaytishiga ruxsat berishini talab qilaveribdi. Nihoyat, zobit rozi bo‘lgach, askar dushman o‘qi ostida yana ortiga qaytibdi. Oradan qanchadir vaqt o‘tgach, u yaralangan ukasini olib kelibdi. U endigina ukasini handaq pastiga tushirgan paytda, yarador so‘nggi bora nafas olib, jon beribdi.

– Mana ko‘rdingmi, – debdi zobit. U askarning yelkasiga qoqib boshini chayqabdi. – Men axir aytdimku, sen behuda tavakkal qilding.

– Behuda emas, janob, – deb javob qaytaribdi jangchi. Ko‘z yoshlari uning bo‘yniga oqib tushibdi. – Yo‘q, janob, – deb gapini qaytaribdi hayajon bilan, – men yarador ukamning yoniga emaklab borib, uni qo‘limga olganimda, u shunday dedi: “Men kelishingni bilardim, Tom. Kelishingni bilardim”.

Bu askarning sadoqati olamdan o‘tayotgan insonning so‘zlari bilan taqdirlandi. Tasavvur qilayapsanmi, ukasi uning sadoqatini tasdiqlaganida, Tom o‘zini qanday his qilgan?

Unutma: “Egamiz har bir odamning to‘g‘riligiga va sadoqatiga yarasha mukofot beradi” (1 Shohlar 26:23). Sening sadoqating shu zahotiyoq taqdirlanishi va mukofotlanmay qolishi mumkin. Sen o‘z hayotingda sadoqatingning natijasini do‘stingda yoki qarindoshingda ko‘rishing yoki umuman ko‘rmasliging ham mumkin. Biroq, aksariyat holda, xuddi Tom bilan yuz berganidek, sadoqatning o‘zi – mukofotdir.

MULOHAZA QILGIN: Nima deb o‘ylaysan, agar Tom ukasini izlash uchun bormaganida nima bo‘lardi? Shunda Tom o‘zi qo‘ldan chiqarib yuborgan marhamat haqida bilgan bo‘larmidi? Sen o‘z do‘stingga yoki qarindoshingga sadoqat ko‘rsatmay, marhamatlanishni qo‘ldan boy berib qo‘ygan paytlaring bo‘lganmi? O‘z sadoqating uchun taqdirlanganmisan? Qay tariqa?

IBODAT: “Xudoyim, Sen sodiqlarga beradigan marhamat va mukofotlarni men boy berib qo‘ymoqchi emasman”.

18 APREL. SODIQ XUDO

Kalomdan o‘qish: 2 Timo‘tiy 2:8-13

Sodiq bo‘lmasak ham, Masih sodiq bo‘lib qolaveradi, Axir, U O‘z tabiatiga qarshi chiqa olmaydi (2 Timo‘tiy 2:13).

MANA BU RO‘YXATGA QARAB, Xudo senga sodiq bo‘ladigan, seni sevadigan, senga ishonadigan va sendan eng yaxshi narsalarni kutadigan holatlarni ajratib chiq:

- □ agar men tushlikda mening idishimga solishadigan barcha savzavotlarni yeya olsam
- □ agar men tushlikda mening idishimga solishadigan barcha savzavotlarni yeya olmasam
- □ agar men tushlikda akamning idishiga solishadigan savzavotlarni yeb qo‘ysam
- □ agar men shaxmat o‘yini kursiga borsam
- □ agar men motosikl haydash kursiga borsam
- □ agar men didjey kursiga borsam
- □ agar men bor narsamni sotib, kambag‘allarga bo‘lib bersam
- □ agar men ota-onamning bor-budini sotib, kambag‘allarga taqsimlab bersam
- □ agar men ota-onamning bor-budini sotib, pulni o‘zimda olib qolsam
- □ agar men singlim uxlab yotganida sochini qirib tashlasam
- □ agar men singlim uyg‘oq turganida sochini qirib tashlasam
- □ agar men bolalar va hayvonlar bilan yaxshi munosabatda bo‘lsam
- □ agar men o‘zini hayvondek tutadigan bolalar bilan yaxshi munosabatda bo‘lsam.

Endi xulosa chiqaramiz: agar sen roʻyxatda qandaydir misralarni belgilamagan boʻlsang, demak, Xudoning sadoqati nima ekanligini shunchaki tushunmaysan. Agar sen *unda hammasini qayd etgan* boʻlsang, balki Xudoning sadoqati haqida koʻp odamlar tushunmaganlarni sen tushunarsan.

Koʻrayapsanmi, Xudo koʻplab doʻstlarimiz va tanishlarimiz kabi emas. U biz oʻzimizni faqat belgilangan tarzda tutganimizdagina sadoqatli emas. U biz faqat Uning istaklarini bajarganimizdagina sodiq emas. Nimaiki boʻlmasin, U sodiq, negaki sadoqat Uning tabiatining, Uning borligʻining bir qismidir.

Muqaddas Kitob bu gaplarni aytganida mana nimani nazarda tutgan: "Sodiq boʻlmasak ham, Masih sodiq boʻlib qolaveradi, Axir, U Oʻz tabiatiga qarshi chiqa olmaydi" (2 Timoʻtiy 2:13). U Xudo boʻlishdan toʻxtamaydi, sadoqat esa Uning bir qismidir, shu bois U sadoqatsiz boʻla olmaydi.

Bu esa U hamisha senga sodiqligini, hamisha seni sevishini, senga ishonishini va sendan eng yaxshisini kutishini bildiradi. U hech qachon seni tashlab qoʻymaydi, hech qachon senga xiyonat qilmaydi, hech qachon seni tark etmaydi. Nimaiki boʻlmasin, U sodiq boʻlib qoladi, negaki Uning Oʻzi shundaydir.

MULOHAZA QILGIN: Sen qachondir Xudoga pand berganmisan? Unga e'tibor qaratmaganmisan? Xudoni umidsizlikka solganmisan? U buning uchun Seni tashlab ketdimi yoki senga sodiq boʻlib qoldimi? (Yodingda tut, sadoqat bu Xudo qilayotgan shunchaki ish emas, balki sadoqat - Xudoning Oʻzidir).

IBODAT: Xudoga sadoqat ulugʻlangan birorta madhiyani topgin va uni xuddi ibodat kabi ovoz chiqarib oʻqigin. (Mabodo madhiyani topishing qiyin boʻlsa, ota-onangdan yordam soʻra.)

19 APREL. KOʻPROQ XURSANDCHILIK BOʻLSIN!

Kalomdan oʻqish: Zabur 44:2-8

Sen solihlikni sevasan, qabihlikdan nafratlanasan. Shu bois Xudo seni doʻstlaringdan ustun qildi, Ha, Xudoying shodlik moyini senga surtdi (Zabur 44:8).

QUYIDA QAYD ETILGANLARDAN QAYSI BIRI senga quvonch keltiradi? Belgilab chiq.

- □ yangi velosiped yoki mashina
- □ mashhurlik
- □ yaxshi doʻstlar
- □ oʻquv yilining yakuni
- □ rok-yulduz shuhrati
- □ chiroyli tashqi koʻrinish
- □ xususiy uy
- □ doʻst yoki dugona
- □ shinam uy
- □ million dollar
- □ Disneylendga sayohat
- □ qoʻlga oʻrgatilgan boʻgʻma ilon

Bular yomon boʻlmasdi, toʻgʻrimi? Oxir-oqibat, kim ham million dollarga ega boʻlishni istamasdi? Kimga ham oʻquv yilining oxiri yoqmaydi? Kim ham kinoyulduzlar kabi koʻrinishni istamaydi?

Biroq bilasanmi nima? Harholda, agar sen hozir baxtli boʻlmasang, maktabda oʻquv tugaganida ham baxtiyor boʻlolmaysan. Agar sen hozir oʻz hayotingdan qoniqmasang, ehtimol, million dollar bilan ham baxtga erisholmaysan.

Albatta, vaziyating yaxshilanadi. U har doim ham yaxshilanishi mumkin. Lekin baxtga boylik va shonu shuhrat olib bormaydi: bunga ishonasanmi yoki yoʻqmi, baxtga toʻgʻri tanlov olib boradi.

Zaburchi Dovud shunday deb yozgan: "Sen solihlikni sevasan, qabihlikdan nafratlanasan. Shu bois Xudo seni doʻstlaringdan ustun qildi, Ha, Xudoying shodlik moyini senga surtdi" (Zabur 44:8). Qadimda yashab oʻtgan bu shoir ezgulikni sevish va yovuzlikdan nafrat odamga quvonch keltirishini aytadi. Xudo bizning xursandchilik qilishimizni, baxtli boʻlishimizni istaydi, U ezgulikni sevadigan va yovuzlikdan nafratlanadiganlarga quvonch yoʻllaydi.

Bu esa senda hech qachon omadsiz kunlar boʻlmaydi, degani emas. Bu esa boshqa hamma koʻngil yozish uchun ketganida sen hech qachon uyda yolgʻiz qolmaysan, degani ham emas. Biroq bu oxir-oqibat (ba'zan avvalroq ham) qilingan toʻgʻri qaror – notoʻgʻri qarorga nisbatan – koʻproq baxt va halovat olib keladi, deganidir. Albatta, bu million dollar emas, biroq ishonaver, u bundan ham qimmat!

MULOHAZA QILGIN: Sen ezgulikni sevadiganlar odatda notoʻgʻri yoʻl tutadiganlarga nisbatan baxtli ekanliklariga ishonasanmi? Nima uchun "ha" va nima uchun "yoʻq"?

IBODAT: Sen toʻgʻri qaror qilib, Xudo quvonch hadya etishi uchun Unga imkon berganmisan? Agar shunday boʻlmasa, Undan solihlik uchun sevgiyu qabihlikka nisbatan nafratga oʻrgatishini, toʻgʻri qaror katta quvonch va halovat sari qanday yoʻl ochishini koʻrsatib berishini soʻragin.

20 APREL. EZGULIK VA YOVUZLIK OʻRTASIDAGI CHEGARA

Kalomdan o‘qish: Rimliklar 7:21-25

Men bundan shunday xulosani chiqaraman: yaxshilik qilmoqchi bo‘lganimda, qalbimda hamisha yomonlik poylab turadi (Rimliklar 7:21).

Mana bu ro‘yxatni ko‘rib chiq:

Adolf Gitler	Iosif Stalin
Xoqon Attila	Chavoqlovchi Jek
Benedikt Arnold	Chingizxon

Endi esa boshqa ro‘yxatga qara:

Ona Tereza	Avraam Linkoln
Avliyo Nikolay	Janna D’Ark
Fransisk Assizskiy	Martin Lyuter

Aksariyat odamlar birinchi ro‘yxatdagi odamlarni “yomon”, ikkinchi ro‘yxatdagilarni esa “yaxshi” deb aytishadi. Biroq bu shunchaki oson emas. Ezgulik va yovuzlik o‘rtasida bizni (Ona Tereza va bizga o‘xshagan odamlar) ulardan (Gitler, Stalin va sening sinf rahbaringga o‘xshagan odamlardan) ajratadigan chegara yo‘q. Taniqli yozuvchi Aleksandr Soljenitsin bir vaqtlar shunday deb yozgandi: “Agar ongli tarzda yomonlik qiladigan zolimlar qayerdadir yashaganlarida edi, ularni boshqa odamlardan ajratish va yo‘q qilish mumkin bo‘lardi! Biroq ezgulik va yovuzlik o‘rtasidagi chegara har bir odamning yuragidan o‘tadi”.

Muqaddas Kitobdan o‘qiladigan bugungi parchadagi Pavlus kabi biz yaxshi bo‘lishni istagan holda yomon ishlar qilamiz. Ba’zan biz yaxshilik qilamiz. Gohida esa yomonlikka qo‘l uramiz. Biz yomon bo‘lishni istamaymiz, biroq Gitlerning qalbida bo‘lgan yovuzlik bizning ham yuragimizda bor. Bu juda ham jozibakor manzara emas, to‘g‘rimi? Pavlus ham shunday deya hisoblagan: “Oh, men sho‘rlik odam! O‘lim soyasi ostidagi bu ahvolimdan kim meni qutqarar ekan? Xudoga shukur! Rabbimiz Iso Masih orqali U bizni qutqaradi” (Rimliklar 7: 24-25).

Boshqacha qilib aytganda, biz o‘zimizning gunohkor tabiatimizga asir bo‘lmasligimiz kerak. Biz gunoh qilishni davom ettirmasligimiz lozim. Xudo O‘z O‘g‘li Isoni bizning gunohlarimiz uchun jazoni qabul qilishga yubordi; Xudo kundan-kun, qarorma-qaror bizni gunoh hukmronligidan ozod etishi va bizda yashashi uchun O‘z Ruhini jo‘natdi. U bizning qalblarimizdagi yovuzlikni yenga oladi va yaxshilik qilishimizga yordam beradi.

MULOHAZA QILGIN: Gunohlaring uchun Isoning xochdagi qurbonligini sen qabul qilganmisan? Ruh seni kundan kun, qarorma qaror gunoh hukmronligidan xalos etishiga ishonasanmi? Agar ishonmagan bo‘lsang, nega hozirning o‘zidayoq ishonch bildira qolmaysan?

IBODAT: “Sevuvchi va adolatli Xudo, Sen menga keraksan. Men gunohkorman, yomonlik mening qalbimda yashaydi va men buni tan olaman. O‘tinaman, qilgan barcha yomonliklarim uchun meni kechir. Isoning xochdagi o‘limi orqali mening gunohlarimni kechirganing uchun Senga rahmat. Marhamat qilib menda yashayotgan Muqaddas Ruh orqali hayotimni o‘zgartir. U meni gunoh hukmronligidan kundan-kun, qarorma-qaror ozod qilishi uchun Unga ishonishimga yordam ber. Iso Masih nomi bilan. Omin”.

21 APREL. OILAVIY NIZOLAR

Kalomdan o‘qish: Zabur 132:1-3

Naqadar yaxshidir, yoqimlidir birodarlar birga ahil yashasalar (Zabur 132:1).

DIKTORNING OVOZI. Bugungi ko‘rsatuvimizda biz uchta qahramon bilan uchrashamiz va ular o‘zlarini ommaga tanitishgan qayg‘uli oilaviy nizolar haqidagi ta’sirchan tarixlarini aytib berishadi!

Birinchi ovoz: Hammaga salom! Voqea bunday bo‘lgandi: men ukam bilan bir joyda yasholmay qoldik. Xo‘sh, buni hali men yetarli darajada ifodalab berolmayapman. Xullas, men uni o‘ldirdim.

Ikkinchi ovoz: (yo‘talib olib) Biz amakim bilan tijoratda hamkor edik. Hammasi yaxshi edi, lekin mollarimiz juda ko‘payib, ularga yaylov yetishmay qoldi. So‘ngra mening va amakimning ishchilari o‘zaro kelisha olmadilar. Men bilan amakim o‘rtasida ham shunday bo‘ldi. Ayrilishga to‘g‘ri keldi.

Uchinchi ovoz: Bu unga baribir kerak emasdi. Akamga. Men otamdan yolg‘on ishlatib merosni uning o‘rniga olganimda... albatta, akam xafa bo‘ldi! Agar men qochib ketmaganimda U meni o‘ldirgan bo‘lardi.

Harqalay, sen hammasini tushungandirsan. Birinchi mehmon ukasini hasad tufayli o‘ldirgan Qobil edi. Ikkinchi ovoz esa taqvodor amakisi hayotining og‘ir paytida undan ajralib chiqqan Lutga tegishli edi. Uchinchi mehmon otasining duosi va merosini akasi Esov o‘rniga aldov yo‘li bilan qo‘lga kiritgan Yoqub edi.

Biroq bu voqealarning davomini bilasanmi? Qobilga (Ibtido 4) ota-onasining boshpanasini tashlab, hayotining qolgan qismini quvg‘inda o‘tkazishiga to‘g‘ri kelgan. Lut (Ibtido 13–14; 18–19 boblar), hammasini juda yaxshi uddaladim, deb o‘yladi: u yaxshi yerlarni tanlab, podalarini So’ar tekisliklariga olib keldi va la’natlangan yerga, Sado‘m shahriga joylashdi. Yoqub (Ibtido 25; 27-33) Paddon-oram (Shimoli-G‘arbiy Mesopotamiya) deb nomlanadigan g‘alati bir joyga qochib ketdi va o‘n to‘rt yil o‘zi kabi ayyor bir yolg‘onchiga xizmat qildi.

Bu odamlarning har biri boshqa odamlar bilan ahil yashashga noqobil bo‘lganlari uchun qattiq azoblanishdi. Odatda shunday bo‘ladi. Boshqalar bilan kelisha olmaydigan odam o‘z hayotini qiyinlashtiradi. Bunday odamlarning hayoti nafrat, adovat, qasos va turli noxush voqealarga to‘la.

Odamlar ahillikda va bir bo‘lib yashaganlari qanday yaxshi! Bunday odamlar aksariyat hollarda hurmat, mehr va atrofdagilarning hamjihatligida qarshi olinadi. Ular hech qachon teleshouda chiqish qilmaydilar, ammo harholda yakdillik baribir yaxshi ekanini tushunishadi.

MULOHAZA QILGIN: Sen odamlar yakdil va hamjihat yashashlariga rozimisan? Qobil, Lut va Yoqubning tarixi senga o‘z o‘tmishingni eslatmayaptimi? Nima uchun “ha” va nima uchun “yo‘q”?

IBODAT: “Rabbim, menga bugun ..... bilan hamjihatlikda yashashim uchun Sening yordaming kerak”.

22 APREL. XUDO BIRLASHTIRGANDA

Kalomdan o‘qish: Mark 10:1-9

Bunga ko‘ra, ular endi ikki emas, balki bir tan hisoblanadilar (Mark 10:8).

XUDO SABR BILAN O‘Z REJASINI farishta Mikoilga tushuntirardi.

– Men odamni chuqur uyquga solmoqchiman, – dedi U, – so‘ngra uning biqinidan bir qovurg‘asini olib unga do‘st... xotin yaratmoqchiman.

– Oh-ho, – deya g‘udurladi Mikoil go‘yo hazil eshitib, uning mazmunini tushunmagandek.

– Sen axir tushunmayapsanmi, Mikoil? – deya qayta so‘radi Xudo. – Ayol va erkak er-xotin bo‘lishadi. Ular yaxlit vujud bo‘lishadi.

Mikoil asta og‘zini ochdi:

– A, – deya ovoz chiqardi u va qiyofasida anglash ifodasi ko‘rindi. – Sen ularni bir butun qilmoqchisan. Yaxlit vujud. Erkak. Ayol.

Xudo jilmayib bosh irg‘adi:

– Bir butun. Mening tabiatimga monand.

– Demak, – xursand bo‘ldi Mikoil, – garchi ular ikkita bo‘lishsada, bir butun bo‘lishadi. Xuddi Sen uchlik bo‘lganing kabi, – uning ko‘zlari zavq bilan yorishib ketdi. – Sen ularga bir butun ekanliklarini his qilishlariga ijozat berasan, negaki Sen O‘zing bir butunsan! Qanday ajoyib reja! Ulug‘vor reja!

Xudo yana bosh irg‘adi va Uning ko‘zlari ham quvonchli hayajondan yorishib ketdi.

Ehtimol, bunday suhbat hech qachon bo‘lmagandir. Nima bo‘lganda ham, u Xudoning Kalomida qayd etilmagan. Bu odamning dastlabki kunlardagi hayotida Xudo odamzot uchun qanday g‘aroyib reja o‘ylab topganligi haqidagi mavzuga taalluqli xayoliy to‘qima, xolos. U erkak va ayolni yaratdi va shunday tartib o‘rnatdi: “...erkak kishi ota-onasidan bo‘lak bo‘lib, xotiniga bog‘lanib qoladi, ikkalasi bir tan bo‘ladilar” (Ibtido 2:24).

Iso nikoh haqida gapirib, shuni qo‘shimcha qilgan: “Xudo birga qo‘shganni bandasi ajratmasin” (Matto 19:6). Nima uchun? Negaki Xudo bizning nikohdagi aloqalarimiz mustahkam, sevgiga to‘liq va bardavom bo‘lib, O‘zining umumiyligini aks ettirishini istagan (Qonunlar 6:4).

Umumiylik – Xudo tabiati va fe’l-atvorining bir qismidir. Va U biz Uning birligini nikohda va oilaviy munosabatlarda aks ettirishimizni xohlaydi.

Bu albatta har doim ham yuz beravermaydi. Qayg‘uli ahvol, biroq ba’zan nikohlar buziladi: oilalar tarqab ketadi. Agar sen oilalarning buzilib ketayotganini ko‘rgan bo‘lsang yoki shunday holat sen bilan ham yuz bergan bo‘lsa, balki nima uchun Xudo bunday qayg‘ular bilan bog‘liq barcha og‘riq va azoblardan bizni saqlash istagida ekanligini tushunarsan. U bizning yaralarimizni davolashi mumkin, biroq o‘zingizning yordamingiz bilan U sizga jarohat yetishining oldini olishni afzal ko‘radi.

MULOHAZA QILGIN: Xudo nikohda yakdil bo‘lishimizni amr etgan. Bu o‘zi nimani anglatadi deb o‘ylaysan? Bu shunchaki ajralib ketish kerak emas, degan ma’noni anglatadimi? Yoki hamisha turmush o‘rtog‘i bilan kelishish kerak, deganimi? Hech qachon janjallashmaslikmi? Yoki yana boshqa narsami?

IBODAT: Xudodan oilangda hamjihatlik bo‘lishini va kelishmovchiliklarni hal etishda yordam berishini so‘ra.

23 APREL. IMONLILAR, BIRLASHING!

Kalomdan o‘qish: 1 Korinfliklar 1:10-17

Ey birodarlarim... sizlarga iltijo qilaman:hammangiz o‘zaro ahil yashanglar. Orangizda nizolarga yo‘l qo‘ymay, fikr xayolda tamomila yakdil bo‘linglar (1 Korinfliklar 1:10).

KO‘PLAB TURLI XIL jamoatxonalar mavjud.

Pravoslav va katolik jamoatlari bor. Presviterian, yepiskop va lyuteran jamoatlari faoliyat ko‘rsatadi. Turli xil hamda turlicha ataladigan metodist va baptist jamoatlari ham mavjud.

Ba’zan e’tiqodda bo‘lmagan odamlar bunday turli xillikka qarab shunday deyishadi: “Masihiylarda o‘zaro totuvlik yo‘q! Qarang, qancha turli xil jamoatlar bor va ular bir-birlari bilan kelisha olishmaydi. Agar sizlarning o‘zingiz jamoat ichida birlikni saqlay olmas ekansiz, nega butun dunyo sizlarga quloq solishi kerak ekan?”

Qasidir darajada ular haq. Bugungi kunda jamoatlar ichida ko‘plab kelishmovchiliklar va munozaralar bo‘lib turibdi. Biroq Iso biz hammamiz bir xil tarzda sajda qilishimiz kerakligini uqtirgan. U bizlar bir xilda yurishimiz, bir xilda gapirishimiz yoki bir xil ko‘rinishimiz kerakligini aytmagan. U biz o‘zimizni bir xil tarzda atashimizni talab qilmagan.

Biroq U bizga hamjihatlikni asrashni buyurgan. Uning Kalomidan ayonki, haqiqiy masihiylar bir-birlari bilan nifoqlashmasliklari kerak. Uning Kalomida jamoatda bo‘linishlar bo‘lmasligi aytilgan. U bizdan “fikr xayolda tamomila yakdil” (1 Korinfliklar 1:10) bo‘lishimizni so‘ragan.

Xudo jamoatning bir bo‘lishini xohlaydi. U jamoat hamjihat bo‘lishini amr etgan. Biz – yoqadimi yo‘qmi, osonmi yoki qiyin – boshqa masihiylar bilan birdam bo‘lishimiz lozim. Nima uchun? Juda oddiy. Xudo bizga hamjihatlikni amr etgan, negaki U birdamlikni qadrlaydi. U birdamlikni qadrlar ekan, demak, biz shunday qilishimiz kerak.

MULOHAZA QILGIN: Xudo barcha jamoatlar bir xil bo‘lishini amr etmagan, biroq boshqa masihiylar bilan birgalikda ishlash va yashashni buyurgan. Sening jamoatingda sen bilan janjal qiladigan yoki bahslashadigan odam bormi? Oralaringizda “ajralish” bo‘lmasligi va “fikr xayolda tamomila yakdil” bo‘lish uchun nimalar qila olasiz (1 Korinfliklar 1:10)?

IBODAT: “Rabbim, Masihga ishonadigan barcha uchun Senga rahmat. Jamoatdagi hamma bilan hamjihatlikda yashashim uchun yordam ber, ayniqsa .....”.

24 APREL. HAMMA BIR XIL

Kalomdan o‘qish: Galatiyaliklar 3:26-28

Endi na yahudiy, na yunon bor, na qul, na ozod bor, na erkak, na ayol bor. Sizlar Iso Masihga tegishli bo‘lganingiz uchun hammangiz birsizlar (Galatiyaliklar 3:28).

ISONING TASHQI KO‘RINISHI QANDAY BO‘LGAN?

Biz bu savolning javobini bilmaymiz, biroq ko‘pgina yevropaliklar va amerikaliklar Uni qora sochli, qora ko‘zli va oq tanli deb tasavvur qilishadi. Balki quyoshda qoraygandir, ammo baribir oq tanli. Yevropacha qiyofali.

Biroq bu afsona. Hoynahoy, Isoning rangi o‘rtacha yevropalik yoki amerikalikka nisbatan qoracharoq bo‘lgan. U yahudiy bo‘lib tug‘ilgan va O‘zining butun umri mobaynida yahudiy bo‘lib qolgan. Eng muhimi, garchi U tarixning muayyan bir davrida va ma’lum bir joyda tug‘ilgan bo‘lsada, U har qanday irqning chegarasidan chiqa oladi.

U yahudiy edi, biroq samariyalik ayol bilan hurmat ohangida suhbatlashdi (qaragin: Yuhanno 4).

Urf-odatlar majusiylarning uyiga Isoning, yahudiyning kirishiga izn bermasdi; biroq rimlik yuzboshi uyida kasal yotgan xizmatkorini davolashni iltimos qilganida Iso shunday dedi: “Mayli, men borib xizmatkoringizni sog‘aytiraman” (qaragin: Matto 8:5-13).

Uning oldiga kan’onlik kelganida (kan’onliklar yahudiylarning azaliy dushmani edi), Iso uni ishonchi uchun maqtab qizini davoladi (qaragin: Matto 15:21-28).

Isoning O‘zi ham irqiy xurofotning qurboni bo‘lgan. U Samariyada bo‘lganida, samariyaliklar Uni qabul qilishmadi, negaki U yahudiy bo‘lib Quddus sari ketayotgandi (qaragin: Luqo 9:51-56).

Iso tug‘ilgan jamiyat odamlar o‘rtasidagi farqlanishning uch xilini tadbiq etardi: irqiy belgisi bo‘yicha (yahudiy yoki majusiy), sinfiy tabaqa bo‘yicha (qul yoki erkin odam) va jinsiy belgi bo‘yicha (erkak yoki ayol). Iso keltirgan Xushxabar bu tafovutlarni yuvib tashladi. Pavlus bu haqda yozganida yaxshilab tushuntiradi: “Endi sizlar Iso Masihga bo‘lgan imoningiz orqali Xudoning farzandisizlar... Endi na yahudiy, na yunon bor, na qul, na ozod bor, na erkak, na ayol bor. Sizlar Iso Masihga tegishli bo‘lganingiz uchun hammangiz birsizlar” (Galatiyaliklar 3:26-28).

Isoning izdoshlari ham xuddi U singari terisining rangi va irqiy tafovuti bilan emas, balki jinsidan, sinfiy tabaqasidan va irqiy xususiyatidan qat’iy nazar, barchani sevgi bilan qabul qilish, hamma bilan hamjihatlikda yashashlari lozim.

MULOHAZA QILGIN: Xudo barchani birdam yoki hamjihatlikda yashashga buyuradi. Sen o‘zingga o‘xshamagan odamlarga odatda qanday yondashasan? Sen barcha bilan jinsidan, sinfiy darajasidan va irqiy mansubligidan qat’iy nazar hamjihatlikda yashaysanmi?

IBODAT: Bugun sen o‘zing shaxsan bilgan kamsitilish qurbonlari uchun ibodat qil.

25 APREL. XUDO YAGONA

Kalomdan o‘qish: Yuhanno 17:1-11

Ey Isroil, quloq sol! Egamiz Xudo tanho Egadir (Qonunlar 6:4).

Mabodo senga mashhur tez ovqatlanish restoranlar tizimini yaratgan Makdonald gamburgerlarga toqat qilolmasligini aytishsa, NIMA DEB O‘YLAGAN BO‘LARDING? Hayron qolarding, to‘g‘rimi?

Agar senga, taniqli aktrisa va xonanda Madonna odamlarni falaj holatga tushirishga chiday olmasligini aytishsa, qanday xayolga borgan bo‘larding? Sen bu gaplarni shunchaki hazm qila olmayapsan, shunday emasmi?

Agar “ Chikago Bullz” klubining afsonaviy hujumchisi Maykl Jordan hech qachon sportni sevmaganini senga aytishsa, nima bo‘lardi? Sen o‘zingni yo‘qotib qo‘yarding, to‘g‘rimi?

Nega bu gaplar seni hayron qoldirayapti? Nega sen Makdonald gamburgerlarni yaxshi ko‘rgan deb o‘ylaysan? Nega sen Madonna odamlarni falaj holatga tushirib qo‘yishni yoqtiradi, deb hisoblaysan? Nima sababdan Maykl Jordan sportni yaxshi ko‘rgan degan fikrdasan?

Buning javobi oson, shunday emasmi? Bir inson gamburgerlar bilan ovqatlantiradigan restoranlar tarmog‘ini ochibdimi, demak, u gamburgerlarni yaxshi ko‘rishi kerak. Gamburgerlar nafaqat uning ishi, balki uning bir qismi hisoblanadi. Xuddi shunday fikrni Madonna va uning taniqli janjalkashligi bilan ham izohlash mumkin. Yoki Maykl Jordan va basketbol haqida ham.

Xuddi shu gapni Xudo va birdamlik haqida ham aytish mumkin.

Xudoga birdamlik yoqadi.Unga odamlarning hamjihatlikda yashashlari yoqadi. Unga odamlar o‘rtalaridagi tafovutni yengib umumiy maqsad yo‘lida birlashganlari yoqadi. Unga odamlarning irqiy va madaniy to‘siqlarga e’tibor bermay muammolarni hal etishlari, qayg‘u va quvonchni birgalikda baham ko‘rishlari yoqadi.

Nega Xudoga birlik buncha yoqadi? Negaki U tanho. Muso Isroil xalqiga shunday degan: “Ey Isroil, quloq sol! Egamiz tanho Xudodir!” (Qonunlar 6:4). Xudo yagona; U O‘zida umumiylikni namoyon etadi. U - Ota, O‘g‘il va Muqaddas Ruh, biroq U – O‘z tabiatiga va fe’l-atvoriga ko‘ra yagonadir.

Mana nima uchun Xudo birlikni qadrlaydi. U bizning birlikni qadrlashimizni va birlikka erishishimizni xohlaydi: biz qachonki ana shunday yo‘l tutsak, Rabbimizga ko‘proq o‘xshab boraveramiz.

MULOHAZA QILGIN: Muso davridan buyon yahudiylar har kuni ikki marotaba, ertalabki va kechki ibodat vaqtida uning so‘zini takrorlashgan: “Ey Isroil, quloq sol! Egamiz tanho Xudodir!” Muso Isroilga: “Egamiz tanho Xudodir” deganida, nimani nazarda tutgan (Qonunlar 6:4).

IBODAT: “Rabbim, ibodatimni qanday xudo eshitishi haqida o‘ylamaganim uchun xursandman. Sen borliqning yagona Yaratuvchisi, olamni va shuningdek meni ham sevuvchi yagona Samoviy Otasan. Senga rahmat, Xudoyim!”

26 APREL. BIZ BIRMIZ
Kalomdan o‘qish: Yuhanno 17:12-23
Hammalari bir bo‘lishsin. Ey Ota, Sen Menda va Men Senda bo‘lganimday (Yuhanno 17:21).

RUSMI YOKI CHECHEN?
Liberalmi yoki konservator?
O‘ngmisan yoki chap?
Isroillikmisan yoki falastinlik?
Musulmonmisan, xorvatmi yoki serb?
Boymisan yoki qashshoq?
Koka-kolami yoki pepsi?
“Moskvich”mi yoki “mersedes”?

Odamlarni bir-birlaridan ajratadigan ko‘plab vaziyatlar bor. Ulardan ayrimlari juda muhim. Ayrimlari boshqalariga nisbatan katta kelishmovchiliklarni keltirib chiqaradi. Ayrimlari esa turishi ahmoqlikdir.

Bu olamdagi barcha nifoq, kelishmovchiliklar va janjallar ko‘plab odamlarning qattiq joniga tekkan. “Nega biz ahil bo‘lib yashay olmaymiz?”deb hayqirishadi ular. Ehtimol, dunyoda odamlar janjallashmaydigan biror joy bordir. Ehtimol, kelib chiqishidan, jamiyatdagi o‘rnidan, urf odatlari va his-hayajonlari turlicha bo‘lgan odamlar inoq bo‘lib yashayotgan joylar ham bordir.

Shunday joy bor. U *jamoat* deb ataladi.

Xudo odamlar bir-birlariga irqlari, millati, jinsi, jamiyatdagi o‘rni yoki e’tiqodidan qat’iy nazar bir-birlariga qarshi qo‘yilmaydigan birdamlik joyi jamoat bo‘lishini istaydi. Xudo xuddi Ota O‘g‘il bilan, O‘g‘il – Ruh bilan, Ruh esa – Ota bilan yaxlit bo‘lganidek, biz sen bilan va dunyodagi barcha masihiylar ham yaxlit bo‘lishini istaydi. Garchi Uchlikning ko‘rinishi bir-biridan nimasi bilandir farq qilsada, ular bir xil tabiatga, yagona maqsadga egadirlar, ular pokizalik va muqaddaslikda birdamdirlar.

O‘g‘il Iso, Uning izdoshlari birdam bo‘lishlarini istagandi. U Otasi Xudoga shunday degan: “Hammalari bir bo‘lishsin. Ey Ota, Sen Menda va Men Senda bo‘lganimday, ular ham bizda bo‘lishsin. Shu tariqa Meni Sen yuborganingga dunyo ishonsin” (Yuhanno 17:21).

Biz sen bilan qay darajada Xudoning birlik tamoyilini aks ettirar ekanmiz, odamlar shu darajada Isoning Masih, Xudo O‘g‘li ekanligina ishonishadi. Bizning hamjihatligimiz hozirgi dunyoda bu kamyob holat Xudoning qudrati haqidagi guvohlik bo‘lishi mumkin.

MULOHAZA QILGIN: Nima deb o‘ylaysan, nega masihiylarning birligi imonda bo‘lmaganlarni Muqaddas Kitobga ishonishlariga undashi mumkin? Sen oxirgi marta qachon boshqa irqdagi, madaniyatdagi yoki jamoatdagi masihiy bilan muloqotda bo‘lgansan? Bunday muloqotlar tez-tez bo‘lib turishi uchun nima qilish kerak?

IBODAT: “Rabbim, Sen O‘z O‘g‘ling Iso bilan bir bo‘lganliging uchun va Iso Sening Muqaddas Ruhing bilan yagona bo‘lganligi uchun rahmat”.

27 APREL. BIZ BIRMIZMI?

Kalomdan o‘qish: 2 Korinfliklar 13:7-11

Sizlar hech qanday yomon ishlar qilmasligingizni Xudodan iltijo qilamiz (2 Korinfliklar 13:7).

SEN SHOSHIB TURIBSAN va shu bois maktab yo‘lagida Dashani to‘xtatasan.

– Menga yordam bermaysanmi? – deb so‘raysan.

– Ha, albatta! – qiz xuddi mushukdek xirillaydi.

– Mana bu varaqni Sveta Ivanovaga berib qo‘ya olasanmi? – sen qo‘lingdagi qog‘oz varag‘ini ko‘rsatasan. – U bugun algebra darsida qatnasha olmadi, men unga uy vazifasini yozib beraman, deb va’da bergandim.

– Men... men Sveta bilan gaplashmayapman, – deb javob beradi Dasha.

– Balki, – deysan sen, – buni uning do‘sti Mishaga berarsan? U esa Svetaga topshiradi.

Dasha boshini qimirlatadi:

– Agar men Sveta bilan gaplashmayotgan bo‘lsam, bu holda uning do‘sti bilan ham gaplashmayman. Mana shunaqa!

– Mayli, mayli, – o‘yga botgancha rozi bo‘lib. – Balki sen unda... Jenya Dementevadan Katya bilan ishlayotgan akasi Kirillga buni berib qo‘yishini so‘rarsan? Katya esa ishga ketayotganida yo‘l-yo‘lakay Svetaga tashlab o‘tadi.

Dasha aynigan baliqning hidini sezgandek, burnini jiyiradi.

– Jenya Dementevaga? Fu! Men u bilan ham gaplashmayapman! U shunaqangi... shunaqangi... Xullas, nima demoqchi ekanimni o‘zing tushunasan!

Sen bosh irg‘ab qo‘ya qolasan, negaki biz qizning o‘zi nimanidir tushunishiga ishona olmaysan. Sen faqat bir narsani aniq bilasan: Svetaning oldiga o‘zing borishingga to‘g‘ri keladi.

Ehtimol, Dasha bilan bo‘lgan voqea kam uchrar, biroq u “men ular bilan uchrashaman” va “men ular bilan uchrashmayman” deb dunyoni bo‘lib tashlaydigan ko‘pchilik odamlardan unchalik farq qilmaydi. Yoki “ular menga yoqadi” va “ular mening didimga o‘tirishmaydi”, “bu uddaburon” va “bu lapashang” deydigan odamlardan ham katta farq qilmaydi.

Ishonasanmi yoki yo‘qmi, ammo o‘zini bunday tutish Sveta yoki Jenyaga nisbatan Dashaning o‘ziga ko‘proq ziyon yetkazadi. Insonning do‘sti bo‘lmasa, yashashi unchalik ham oson kechmaydi. Sen o‘tmishdagi xafagarchiliklarga yopishib olganingda, o‘zingga ziyon keltirasan.

Birdamlik janjal va bahslardan anchayin afzal. Boshqalar bilan birdamlik taqdirlanadi, bo‘linishlar faqat qayg‘u keltiradi. Atrofingdagilar bilan inoq bo‘lsang, halovat topasan; kelishmovchilik faqat azob keltiradi.

Mana nima uchun Xudo O‘zining bolalari bir bo‘lishlarini istaydi. U birlikning bo‘linish va janjallardan afzal ekanligini biladi.

MULOHAZA QILGIN: Senda do‘stlaring bilan kelishmovchiliklar bo‘lib turadimi? Bunday kelishmovchiliklarni bartaraf etish uchun nimalar qilishing mumkin?

IBODAT: Yuhanno Xushxabarining 17:21da Isoning shogirdlari uchun qilgan ibodatiga nazar tashlab, do‘stlaring va tanishlaring bilan munosabatlaring haqida ibodat qil. (Misol uchun, shunday deyishing mumkin: “Ota, biz shu .....bilan yaxlit bo‘lishimiz uchun ibodat qilaman”.)

28 APREL. KeCh BO‘LMASIDAN AVVAL TO‘G‘RILA

Kalomdan o‘qish: Efesliklar 4:3-13

O‘zaro tinch-totuv yashab, Muqaddas Ruh ato qilgan birdamlikni saqlashga jon kuydiringlar (Efesliklar 4:3).

MAKSIM uyg‘onganida o‘z to‘shagining yonida oq libosga o‘rangan g‘alati shaklning havoda muallaq turganini ko‘rdi. Sharpa! Uning sochlari oppoq bo‘lib, navqiron yuzi esa xuddi yuz terisi uchun krem reklamasidagi kabi ajinlarsiz edi.

– Sen kimsan? – deb so‘radi Maksim. – Bu yerda nima qilyapsan?

Sharpa shunday dedi:

– Men senga o‘tmishingni ko‘rsatmoqchiman, – u Maksimga ishora bilan ortidan yurishni ko‘rsatdi. Maksim jangchilar qiroli Zena tasvirlangan futbolkada o‘rnidan turib, sharpa ortidan yotoqxonadan chiqdi va o‘zini uning to‘satdan paydo bo‘lganini sezmagan ibodatgo‘ylar orasidagi jamoatxonada ko‘rdi.

– Atrofingga qara, – dedi sharpa.

Maksim atrofiga o‘girilib, yakshanba maktabida u bilan do‘stlashgan Oksanani ko‘rdi. Ularning do‘stligi yettinchi sinflarida bema’ni janjal tufayli yakun topgandi. Sharpa boshqa odamga ishora qildi. – To‘qqizinchi sinfda do‘stingga Masih to‘g‘risida aytib bermoqchi bo‘lganing, ammo buni qanday aytishni bilmaganing yodingdami? – Maksim o‘rtog‘i tomon o‘girilmay bosh irg‘adi; bu ko‘ngilsiz xotira bo‘lib, do‘sti shundan so‘ng tez orada ko‘chib ketgan va Maksim uni boshqa uchratmagandi. – Oksanada boshqalarga xabar tarqatmoq xislati bor edi. U senga va do‘stingga yordam berishi mumkin edi. – Sharpa shundan so‘ng Maksimning ko‘p yillardan buyon uchratmagan yuqori sinfdagi o‘rtoqlaridan biri “Karas” ga ishora qildi. Karas uni jamoat xorida kuylashi uchun chaqirgani bois Maksim jamoatga bormay qo‘ygandi. – Karas kamchilik odamlar kabi Xudoga sajda qilishni bilardi. U seni ham

bunga o‘rgatgan bo‘lardi. – Sharpa ishora qilib cho‘ponni ko‘rsatganida Maksim o‘zini butunlay noqulay his qildi: – U hech qachon senga yoqmagan, to‘g‘rimi? Sen unga sovuq munosabatda bo‘lgansan. Biroq u seni Muqaddas Kitob asosida ko‘p narsalarga o‘rgatishi mumkin edi!

– Yaxshi, yaxshi! – Maksim sharpaning qo‘lidan ushlab oldi. – Bas, maylimi? Men bu yillar davomida ko‘pgina masihiylardan ajralib ketmaganimda edi, yanada mo‘min masihiy va yaxshi inson bo‘lardim; men hammasini tushundim! Mabodo hammasini yangidan boshlaganimda, o‘zimni boshqacha tutgan bo‘lardim!

To‘satdan Maksim o‘zini yana yotoqxonada ko‘rdi. Uning barmoqlari karavotining bosh tutqichlarini mahkam qisdi. Sharpa yo‘q edi, ammo Maksim shunday ovozni eshitdi:

– Sening istaging bajariladi. O‘zingni endi boshqacha tutgin.

MULOHAZA QILGIN: Efesliklarga 4:13 da birlik masihiylarga Xudoda ulg‘ayish va kamolga erishishda yordam berishi aytilgan. Sening fikringcha, boshqa masihiylar bilan hamjihatlik senga bu borada yordam beradimi? Imkon qadar aniq javob berishga harakat qil.

IBODAT: “Rabbim, boshqa masihiylardan ajralib ketmasligim uchun yordam ber. Men Senda kamolga erishmoqchiman”.

29 APREL. BU OLAMGA TAQLID QILMA

Kalomdan o‘qish: Rimliklar 12:1-2

Bu dunyoga moslashmanglar, fikr zikringizni yangilab, tubdan o‘zgaringlar. Shunda Xudoning irodasini tushuna oladigan bo‘lasiz (Rimliklar 12:2).

SEN MAKTABDASAN, matematikadan nazorat ishi bo‘layapti. Sen, birinchi uchta mashqni noto‘g‘ri qildim, shekilli, deya cho‘chib turibsan, ular esa jami to‘rtta! Sen qandaydir yordam ilinjida atrofga qaraysan. To‘satdan ko‘zlaring yoningda o‘tirgan bolaning daftariga tushadi. Shunda o‘z javoblaringni o‘chirib, taniqli ikkichi - Petya Sidorovning yozganlarini ko‘chirib olasan.

Yoki mana bunday vaziyatni tasavvur qil: sen oqshomgi ziyofat uchun nima kiyishingni bilmaysan, shu bois do‘konga borasan. “Mana u!” – deb hayqirasan va muqovasida kinoyulduzlar surati tushirilgan jurnalni qo‘lingga olasan. Keyin esa xuddi shu kinoyulduz – “yilning eng xunuk kiyingan yulduzi” – kiygani kabi kiyimni sotib olasan.

Yoki mana bunday vaziyat ro‘y beradi: sen maktabning futbol jamoasiga kirmoqchi bo‘lasan. O‘yinchilarni kuzatib, ulardan biriga to‘p hech qachon tegmaganini ko‘rasan. O‘yindan so‘ng unga borib shunday deysan: “Men futbol o‘ynamoqchiman. Menga o‘rgatmaysanmi?”

Nima uchun nazorat ishini ikki bahoga o‘qiydigan o‘quvchidan ko‘chirib olish kerak? Nega “ hammadan yomon kiyinadigan” kinoyulduzning kiyimidan nusxa ko‘chirish kerak? To‘p bilan o‘ynay olmaydigan o‘yinchidan futbol o‘rganishdan nima ma’no?

Bu kulgili bo‘lardi, to‘g‘rimi? To‘g‘ri. Biroq masihiylarning bu olamga taqlid qilishlari yanada kulgili.

Ko‘plab odamlar gunohkorona harakatlarini oqlab shunday deyishadi: “Axir yaxshilik va yomonlik nisbiy tushunchalardir. Senga yaxshi bo‘lgan narsa, menga yomon bo‘lishi mumkin!” Masihiylar buni eshitib, boshqalarning qilayotganlariga taqlid qilib, o‘zlarining noto‘g‘ri ishlarini oqlay boshlashadi.

Sen Xudoga manzur bo‘lmaydigan (bu haqda o‘zing bilasan) teleko‘rsatuvlar va filmlarni tomosha qilib, o‘zingga shunday deysan: “Buni axir bir martagina ko‘raman, xolos!” Yoki barcha ichadi hamda janjallashadi, birovdan ko‘chiradi yoki sababsiz kelmaydi, demak, men ham shunday qilsam, buning qo‘rqinchli joyi yo‘q, deb o‘ylashing mumkin.

Biroq nega hammaga taqlid qilishing kerak ekan? Nima uchun bema’ni ishlarga taqlid qilish kerak? Agar sen dunyo nima istayotgan bo‘lsa o‘shani istasang, dunyo nima qilayotgan bo‘lsa o‘shani qilsang, dunyo qayoqqa qarab ketayotgan bo‘lsa sen ham o‘sha yoqqa qarab borasan: gunohkor, baxtsiz va chalkash hayotga. Lekin agar Rabbiyning seni dunyoga emas, balki Ruh kuchi bilan Xudoga taqlid qiladigan yangi inson qilib yaratishiga ijozat bersang, bu holda nafaqat Xudoga manzur bo‘lasan, balki hayoting ham mazmunli va quvonchli bo‘ladi.

MULOHAZA QILGIN: Rimliklarga maktubning 12:1 da biz nima masalada ogohlantirilganmiz? Sen bu ogohlantirishlarga daxldor nimalar qila olasan?

IBODAT: “Rabbim, men gunohkor olamga taqlid qilmoqchi emasman. Men o‘zgarishni va yangi inson bo‘lishni xohlayman. Iltimos, fikrlarimni o‘zgartir, ayniqsa shu masalada .....”.

30 APREL. AXLOQIY LABORATORIYA

Kalomdan o‘qish: 1 Timo‘tiy 5:1-4

Ular (bolalar va nabiralar), eng avvalo, o‘z oilasi oldidagi, Xudo buyurgan farzni ado etib, farzandlik burchini bajarsinlar (1 Timo‘tiy 5:4).

“Doktor Jekil va janob Xaydning g‘aroyib tarixi” – Robert Lyuis Stivensonning mumtoz asari hisoblanadi. Unda, keksa olim doktor Jekil, uyida g‘alati, sirli tajribalar o‘tkazganligi bayon etiladi. Bu tajribalar doktor Jekilning qo‘shnilari va do‘stlarini qattiq tashvishga, qo‘rquvga solgan, hattoki doktorning o‘z hayotiga ham xavf solgan. Bu

tajribalar oqibatida hamma hurmat qiladigan doktor Jekil mutlaqo boshqa odamga – ablah, ayyor va yovuz odamga aylanadi.

Ehtimol, sen o‘z laboratoriyangda ham shunga o‘xshash tajribalar o‘tkaza olishing haqida eshitib hayron qolarsan. Yo‘q, qo‘ng‘iroq qilib telefon orqali laboratoriya jihozlarini buyurtma qilishga shoshilma! Kerak emas: sening uyingda ham shunday laboratoriya bor. Bu axloqiy laboratoriya bo‘lib, sen unda to‘g‘ri qarorlar qabul qilish va kuchli fe’l-atvorni shakllantirishni yoki noto‘g‘ri qarorlar qabul qilish va o‘z vijdoningni toshga aylantirishni o‘rganishing mumkin.

Aynan uyingda sening axloqiy qarashlaring shakllanadi – xuddi muayyan haroratda o‘sadigan o‘simlik singari.

Ota-onang uchun bugun og‘ir kun bo‘ldi: yaqinlaringga mehr ko‘rsatish payti kelmadimikan? Televizorning oldini to‘sib qo‘yganing uchun singling senga baqirmoqda: iltifotli ekanligingni ko‘rsatishning ayni payti emasmi? Ukang sening tug‘ilgan kuningga atab olib kelingan tortni itiga yedirmoqda: shafqatli bo‘lishning vaqti emasmi hozir?

Albatta, muammo shundaki, ko‘plar uyda bo‘lgan vaqtlarida hurmat, sabr-toqat va mehr-shafqat haqida *eng oxirgi navbatda* o‘ylashadi, biz esa ko‘pincha uyimizdan tashqarida shunday bo‘lishga harakat qilamiz. Biroq aynan uy - o‘sha laboratoriya bo‘lib, biz bu yerda to‘g‘ri qaror qabul qilishni va yaxshi yo‘l tutishni o‘rganamiz. Agar biz buni o‘z uyimizda o‘rgansak, uyimizdan tashqarida bizni noto‘g‘ri yo‘l tutish uchun vasvasaga soladigan ziyonkor o‘qituvchilar, do‘stlar yoki dugonalar bilan munosabatlarda to‘g‘ri qarorga kelishimiz ancha oson kechadi.

Aytadilarki, takrorlab turish – saboqning onasi hisoblanadi. Shunigdek, hurmatli, sevimli va mehribon bo‘lishga o‘rganish uchun eng yaxshi joy – bu, sening o‘z uyingdir.

MULOHAZA QILGIN: Sen uyda bo‘lganingda kimga ko‘proq o‘xshaysan: doktor Jekilgami yoki yovuz janob Xaydgami? Uydan tashqaridachi? Shu haftada imoningni xonadoningda qay tariqa qo‘llashing haqida o‘ylab ko‘r. Haftaning har bir kunidagi harakatlaringni rejalashtirib ol.

IBODAT: “Ota, uyda o‘zimni to‘g‘ri tutishim juda qiyin, xususan ..... Men o‘zimni shu haftada to‘g‘ri tutishim uchun yordam ber”.

1 MAY. HAQIQAT VA YOLG‘ON

Kalomdan o‘qish: Ishayo 40:6-8

O‘tlar quriydi, gullar so‘lib qoladi, Xudoyimizning kalomi esa abadiy turadi (Ishayo 40:8).

MAY OYINING test savollariga javob bering. Qaraylikchi, qancha to‘g‘ri javob bera olar ekansan. Endi haqiqat va yolg‘onni tanlagin.

Quyosh yer atrofida aylanadi	H.	Y.
Pomidorlar zaharlidir	H.	Y.
Aksirganingda, ichingdagi jinlar chiqib ketishadi	H.	Y.
Temir, qo‘rg‘oshin va boshqa metallarni kimyoviy yo‘l bilan oltinga aylantirish mumkin	H.	Y.
Dunyo tekis	H.	Y.
Daraxlarning qalbi bor	H.	Y.
Badbo‘y bug‘lar o‘latni keltirib chiqaradi	H.	Y.

Bu aytilganlardan qanchasini yolg‘on deb belgilading? Qanchasini esa haqiqat deb?

Aslida, bu o‘rinda keltirilganlarning hammasi yolg‘on. Garchi qachonlardir ulardan ayrimlari haqiqat deya hisoblangan bo‘lsada, baribir ular yolg‘on edi.

Ming yillar davomida odamlar quyosh yer atrofida aylanadi, deya o‘ylashgan. Biroq bu haqiqat bo‘lib qolishi uchungina shunday deb o‘ylashmagan. Quyosh tizimining markazi doimo quyosh bo‘lib kelgan! Va odamlar pomidorni yoki o‘zlari ataganlaridek “sevgi olmasi”ni zaharli deb hisoblaganlari bilan vaziyat o‘zgarmagan. Odamlar “qora ajal” (chov orasidagi bez o‘lati)ni qanchalik “badbo‘y bug‘lar” deb atashmasin, aslida uni pashshalar va kalamushlar tashimaydi va bu doimo shunday bo‘lgan.

Haqiqat o‘zgarmaydi. Odamlar o‘zgarishi mumkin. Tarix to‘qima bo‘lishi mumkin. G‘oyalar noto‘g‘ri bo‘lishi mumkin. Biroq haqiqat o‘zgarmasdir.

Ishayo payg‘ambar bir vaqtlar, “Xudoyimizning kalomi esa abadiy turadi”, deb aytgan. Iso esa Otasiga ibodat qilib shunday degan: “Sening kaloming haqiqatdir” (Yuhanno 17:17). Darsliklar va o‘qituvchilar nima deyishmasin, gazetalarda nimani o‘qib kechki yangiliklarda nimani eshitmagin, qadimiy jumboqlar qanday tarzda ko‘rsatilmasin, haqiqat o‘zgarmay qolaveradi. Biz ularni yoki qabul qilishimiz yoki rad etishimiz mumkin. Biz ularni pisand qilmasligimiz yoki ular bilan kelisha olmasligimiz mumkin, biroq biz qabul qilamizmi yoki yo‘qmi, haqiqat baribir haqiqatdir. U hech qachon o‘zgarmaydi.

MULOHAZA QILGIN: Sen boshqalar haqiqat deb bilgan, ammo aslida bunday bo‘lmagan biror bir hodisani ayta olasanmi? Sen biror haqiqatni tan olib yoki tan olmasdan uni o‘zgartira olasanmi? Buni boshqa kimdir qila oladimi? Iso Xudoning Kalomi haqiqat ekanligini aytgan. Nima deb o‘ylaysan, Isoning izdoshlari quyidagilarga amal qilishlari shartmi:

a) Muqaddas Kitobga ishonish kerakmi?

b) Muqaddas Kitobni o‘qish zarurmi?

v) Muqaddas Kitobning jumlalarini yoddan bilish shartmi?

g) Muqaddas Kitobni tinglash lozimmi?

d) Bularning hammasini qilish shartmi?

Sen bulardan qaysi birini qilyapsan? Sen nimalarga ko‘proq e’tibor qaratishing lozim?

IBODAT: “ Rabbim, Sening Kaloming hamisha haqiqat bo‘lgani uchun Sendan minnatdorman”.

2 MAY. QAYERDASAN, PLUTON?

Kalomdan o‘qish: Matto 6:22-23

Tananing chirog‘i ko‘z. Agar ko‘zingiz yaxshi bo‘lsa, butun tanangiz yop-yorug‘ bo‘ladi (Matto 6:22).

SEN QACHONDIR PLUTON HAQIDA ESHITGANMISAN? Ha, Quyosh tizimining to‘qqizinchi sayyorasi haqida.

Bilasanmi, 1930 yilgacha bu sayyoraning mavjudligi haqida hech qanday isbot yo‘q edi. Odamlar Merkuriy, Venera, Mars, Yupiter va Saturn haqida bilishardi. Ular yana ikkita “yangi” sayyorani – Uran va Neptunni kashf etishdi. Ammo Quyosh tizimidagi yana bir sayyora kashf etilmasdan qolaverdi.

Ko‘pgina olimlar Quyosh atrofida Uran va Neptunning harakatlanish holatidan to‘qqizinchi sayyora ham mavjud ekanligini taxmin qilishardi. Biroq ular buni isbot qilisholmasdi: ular bu sayyorani ko‘rishmagandi. O‘sha davrdagi teleskoplar yetarli darajada kuchli emasdi. Vaholanki, Persival Louel to‘qqizinchi sayyora mavjud ekanligini bashorat qilgandi. U 1916 yili vafot etguniga qadar buni isbotlash uchun ko‘p urindi, ammo uddasidan chiqolmadi.

1929 yilda Arizona shtatidagi Flegstaff shahrida, Louel nomidagi observatoriyada Persival Louel bashorat qilgan sayyorani topish uchun maxsus kamera o‘rnatildi. 1930 yilning yanvarida Klayd U.Tombo osmonning noma’lum sayyora joylashishi kerak bo‘lgan qismini suratga oldi. Turli kunlarda olingan fotosuratlarni taqqoslab, u shunday bir trayektoriya bo‘ylab ketgan “ nuqta” ni qayd etdiki, bu fpqatgina sayyora bo‘lishi mumkin edi. Persival Louelda yetarli darajada kuchli teleskop bo‘lmagani uchun aniqlay olmagan Pluton sayyorasini Klayd Tombo kashf etdi.

Aksariyat odamlar ayrim narsalar yaxshi, boshqalari esa yomon ekanligiga “shubha” qilishadi. Ko‘pchilik odamlar, misol uchun, nafratlanish va odamlarga azob berish yomon ekanligini bilishadi. Ularga gohida nopok bo‘lish yomon, halol bo‘lish yaxshi ekanligi haqidagi “tuyg‘u” mehmon bo‘lib turadi. Ular ezgulik va yovuzlik qayerdadir mavjud ekanligini, biroq buni “isbotlab” berish qiyin ekanligini his qilishadi. Hikmatlar 4:19 da shunday deb tushuntiriladi: “Fosiqning yo‘li esa zulmat kabidir, nimaga qoqilib ketishini bilmaydi”.

Biz qachonki Xudoning Kalomiga ishonganimizda va Uning qoidalarini qabul qilganimizda, barchasini yanada tiniqroq ko‘ramiz. Shu bois bizning qarorimiz oson kechadi. Biz nima yaxshiyu, nima yomonligini “payqashimiz” yoki “taxmin qilishimiz”ga hojat yo‘q. Bizning o‘z fahm-farosatimizga bog‘lanib qolishimizning zarurati yo‘q. Biz faqatgina Xudoning aytganlariga zarur darajada ishonsak bas.

MULOHAZA QILGIN: Nima deb o‘ylaysan, ko‘pchilik odamlarning Muqaddas Kitobga ishonmasliklari – Kalomni ishonchsizroq qiladimi? Nima uchun “ha” va nima uchun “yo‘q”? Xudoning ezgulik va yovuzlik haqida aytganlariga ishonishing qiyinmi? Balki nima yaxshiyu, nima yomonligini Muqaddas Kitobga ishonmaydigan do‘stlaring yoki sinfdoshlaringga nisbatan sening tushunishing osondir?

IBODAT: “Rabbim, men ayniqsa ezgulik va yomonlikdan birini tanlayotganimda men uchun butun atrofni ko‘rsatadigan zarrabin bo‘lgin. Menga to‘g‘ri qaror nima ekanligini ko‘rsatgin hamda to‘g‘ri yo‘lni ochib, undan borishim uchun yordam bergin”.

3 MAY. MANA HAQIQAT QAYERDA!

Kalomdan o‘qish: 3 Shohlar 22:6, 13, 15-16

Faqat haqiqatni aytishing uchun Egamiz nomini o‘rtaga qo‘yib, senga necha marta ont ichdirayin?! (Shohlar 22:16).

Sudda guvohlardan haqiqatni va faqatgina haqiqatni aytishga va’da berishlarini so‘rashadi. Hech qachon shunchaki faqat haqiqatni aytmaslikni va’da qilishlarini so‘rashlari hech qachon xayolingga kelmaganmi? Gap shundaki, faqat ayrim odamlargina haqiqatni aytishadi. Boshqalar esa haqiqatga qandaydir yolg‘on qo‘shishadi.

Qani, sen to‘liq va toza haqiqat nima ekanligini tushunishing uchun quyidagi misolni keltiraylik.

TO‘LIQ HAQIQAT	**NOTO‘LIQ HAQIQAT**	***HAQIQAT VA YANA NIMADIR***
Filo Teylor Farnsuort televideniye paydo bo‘lishining imkonini beradigan texnologiyani yaratdi	Filo Teylor Farnsuort televideniyeni kashf etgan.	Filo Teylor Farnsuort televideniye, radioni, patefon apparatini, kompakt diskni, mikroto‘lqinli pech va lazerli miltiqni yaratdi.
XVIII asrda Jorj Vashington kabi siyosatchilar upa surtilgan parik kiyib yurishgan.	Jorj Vashington parik kiyib yurgan.	Jorj Vashington parik kiygan va umuman juda kulgili kiyingan.
Charlz Lindberg Atlantika ummoni orqali yolg‘iz o‘zi uchib o‘tgan birinchi insondir.	Charlz Lindberg Atlantika ummoni orqali uchib o‘tgan birinchi kishi.	Charlz Lindberg “Limburger” pishlog‘ini keltirish uchun Atlantika ummonidan uchib o‘tgan.
Iso Masihdir, Xudoning O‘g‘lidir.	Iso buyuk ustoz bo‘lgan.	Iso, Muhammad va Maykl Jordan - xudolardir.
Men tugallanmagan uy vazifamni qoldirib keldim	Men uy vazifamni uyda qoldirganman	Mening itim uy vazifamni yeb qo‘ygani uchun uni tugallay olmadim

Farqni sezayapsanmi? Aldash va haqiqatni (to‘liq emas) aytish mumkin. Albatta, haqiqatga nimanidir qo‘shish aslo yaxshi emas.

Mana nima uchun hakamlar haqiqatni, to‘liq haqiqatni gapirishni va haqiqatdan boshqa hech nimani gapirmaslikni so‘rashadi. Xudo ham shuni istaydi. U bizning faqat haqiqatni gapirishimizni xohlaydi, negaki Uning O‘zi nima gapirmasin va nima qilmasin har narsada haqiqatdir. U shunday deydi: “Men Egangizman. Haqiqatni aytaman” (Ishayo 45:19).

MULOHAZA QILGIN: Sen do‘stlaring, qarindoshlaring, o‘qituvchilaring va boshqalar quyidagilardan qaysi birini aytishlarini afzal ko‘rarding:

a) haqiqatni?

b) to‘liq haqiqatni?

v) haqiqatdan boshqa hech narsani?

g) yuqorida qayd etilganlarning barini?

Do‘stlaring va qarindoshlaring nimani afzal deb bilgan bo‘lishardi? Nima uchun?

IBODAT: “Rabbim, men nimaiki demay, barchasida to‘g‘riso‘z bo‘lmoqchiman. Men biror nimani qo‘shmasligim va hech nimani yashirmasligim uchun yordam ber”.

4 MAY. PILIGRIMNING QUVONCHI

Kalomdan o‘qish: Zabur 31:1-5

Egamiz kimning aybini yozmagan bo‘lsa, O‘sha inson baxtlidir, Ruhida hiyla bo‘lmaganlar baxtlidir (Zabur 31:2).

JON BUNYANNING MASHHUR KITOBI “Piligrimning sayohati”, qayoqqa bormasin o‘zi bilan hamisha og‘ir yuk olib yuradigan Masihiy nomli yosh yigit haqida hikoya qiladi.

Masihiyga uchrab qolgan har bir kishi bu yukdan uning qanday xalos bo‘lishi haqida maslahat beradi. “Uni qayerdadir unutib yubor” deydi birovi. “Unga e’tibor berma”, deydi boshqasi. “Yaxshilik qilish orqali undan xalos bo‘l” deydi uchinchi bir kishi. Biroq Masihiy toki ikki tarafi baland devorlar bilan o‘ralgan ko‘chaga chiqib qolmagunicha hech kim uni yukdan xalos qila olmaydi. Masihiy ko‘cha bo‘ylab “elkasidagi yuk tufayli katta mashaqqat bilan yuradi” deb yozadi Bunyan.

> U xiyol ko‘tarilgan bir joyga yetib kelmagunicha ancha yurdi: o‘sha yerda xoch turardi, xochning sal pastida esa qabr bor edi. Mening tushimda Masihiy xochga borganida yuk uning yelkasidan tushib qabrning teshigiga borib tushib ketganini va uni boshqa ko‘rmaganim zohir bo‘ldi... Shunda Masihiy xursand bo‘ldi, yuzi yorishdi va mamnunlik bilan ichida shunday dedi: “U O‘zining dard-alami orqali menga halovat, O‘zining O‘limi orqali esa hayot berdi”. Qanchadir vaqt u atrofga qarab hayron turib qoldi, negaki xochning ko‘rinishi uni yukdan xalos etgani hayratomuz edi. Uning yuzi terdan namiqib ketmagunicha qayta va qayta xochga qarayverdi.

Jon Bunyan hikoya qilgan bu usul eskirgan, biroq Masihiy nimani his etgan bo‘lsa, odamlar hozir ham shuni his etishmoqda. Xudo odamning gunohlarini kechirib, uning yelkasidan gunoh yukini olganida va qalbiga qutqarilishni jo etganida odam his etadigan kechinmani boshqa his-tuyg‘ular bilan taqqoslab bo‘lmaydi.

Agar sen Xudodan hech qachon gunohlaringni kechirishi va seni yangi odamga aylantirishini so‘ramagan bo‘lsang, agar hech qachon o‘z gunohlaring uchun tavba qilib hayotingning bundan keyingi qismida Isoga ergashishga qaror qilmagan bo‘lsang, buni hozir qilgin, shunda sen zaburchi nima deb kuylaganini va Jon Bunyan nimalar haqida yozganini bilib olasan.

Agar sen gunohlar kechirimini his qilgan bo‘lsang, seni xursandchilikka olib kelgan yo‘lni yodingda tut: sen gunohlaringga iqror bo‘lib, Xudodan kechirim so‘rading va bu kechirimni qabul qilding. Sen masihiy bo‘lib biror noto‘g‘ri qaror qilganingda xuddi shunday yo‘l tutishing lozim: noo‘rin ish qilganingga iqror bo‘l, kechirim so‘ra va Xudoning sevgisi va o‘z gunohlaring uchun Isoning qurbonligini Xudoning kechirimi sifatida qabul qil.

MULOHAZA QILGIN: “Piligrim sayohati”dagi Masihiyning yuki nima o‘zi? Xoch va qabr nimaning timsolini beradi? Xudo seni gunohlardan poklaganmi? Agar poklamagan bo‘lsa, nima uchun? Sen hoziroq tavba qiladigan va kechirim so‘raydigan biror gunohing bormi?

IBODAT: Zaburning 31:1-5 oyatlarini ovoz chiqarib o‘qi. Agar xohlasang, Zaburda aytilganlarni xuddi Xudoga ibodat kabi takrorlab chiq.

5 MAY. HAQIQAT USTOZI

Kalomdan o‘qish: Yuhanno 7:28-29

Iso Ma’badda ta’lim berar ekan, baland ovozda shunday dedi:

Ha, sizlar Mening kimligimni ham, qayerdanligimni ham bilasizlar. Lekin Men O‘zimcha kelganim yo‘q. Meni Yuborgan bor, sizlar esa Uni tanimaysizlar. U haqdir (Yuhanno 7:28-29).

JORJ BALANCHIN balet va xoreografiyaning mashhur murabbiyi edi.

Mori Uils barcha davrlarning eng yaxshi beysbolchilaridan biri edi.

Fra Filippo Lippi XV asrdagi italiyalik buyuk rassom bo‘lgan.

Martin Lyuter King XX asrning 60-yillarida amerikaliklarning fuqarolik huquqlari uchun kurashgan.

Kristofer Ren 1666 yildagi Buyuk Yong‘indan so‘ng Londonning katta qismini tiklagan taniqli arxitektor edi.

Bu odamlardan har biri qaysidir jabhada muvaffaqiyatga erishgan beysbolda, tasviriy san’atda, jamoat ishlarida.Biroq ularning hammasida bitta ummumiylik bor edi: ular shunchaki nimanidir yaxshi uddalay olishgan, ular boshqalarni o‘rgatishgan.

Balanchin shogirdlari boshqalarning qo‘lidan kelmaydigan darajada raqsga tushishgan: ularning raqqoslik mahoratida Balanchin va undagi daholikning uslubi sezilib turardi. Lippi buyuk musavvir edi, biroq uning shogirdlaridan ayrimlari, misol uchun, Sandro Botichelli va Lippining o‘g‘li Filippinoning mahorati unikidan kam emasdi, hattoki undan yaxshiroq ham bo‘lgan. Martin Lyuter King Amerika siyosatining qiyofasini o‘zgartirdi: uning shogirdlari (Endryu Yang va Jessi Jekson kabilar) ustozining ishini davom ettirishdi. Kristofer Ren arxitektura sohasida daho edi va shundan keyin ko‘plab yosh arxitektorlar uning ibrati asosida saboq olishdi.

Bu odamlar shunchalik darajada mohir usta edilarki, boshqalar ulardan saboq olib taqlid qilishga urinishardi.

Gap qachon axloq masalasiga borib taqalganida, nima to‘g‘riligi va shunga muvofiq harakat to‘g‘risidagi tushuncha borasida faqat birgina Ustoz Xudo mavdud. Boshqalar faqat goh-gohida to‘g‘ri yo‘l tutishadi. Faqat Xudogina doim ezgulikdir (Mark 10:18). U – Undan o‘rganishimiz lozim bo‘lgan Ustozdir.

Qandaydir jabhada shunchaki “Usta” bo‘lmagan Xudo – Balanchin, Lippi, King va Rendan farqli tarzda, U – borliqdagi barcha yaxshi narsalarning Yaratguvchisidir. Boshqacha qilib aytganda, (misol uchun) halollik yaxshi, negaki Xudo pokdir. Unda hech qanday yolg‘on yo‘q. Xudo haqiqatdir, shu bois U bizning haqiqatni gapirishimizni va nimaiki qilmaylik, barcha masalada halol bo‘lishimizni istaydi.

MULOHAZA QILGIN: Sen qancha murabbiy qo‘lida tahsil olgansan (yakshanba maktabini ham unutib qo‘yma)? Halollik borasida ulardan qaysi biri senga ko‘proq ta’sir ko‘rsatgan?

Nima deb o‘ylaysan, tanishlaringdan qaysi birini or nomusli deb atay olasan? O‘zingni ham shunday deb hisoblaysanmi? Mana shu masalada “Ustoz”ga qay tariqa ko‘proq o‘xshash mumkin?

IBODAT: “Rabbim, men bugun _____ bilan halol munosabatda bo‘lishim uchun menga Sening yordaming kerak”.

6 MAY. OLDINGA SAPCHISH

Kalomdan o‘qish: 2 Timo‘tiy 4:7-8

Sizlar ham shunday yuguringki, mukofotni qo‘lga kiritinglar (1 Korinfliklar 9:24).

Olimpiyada o‘yinlarida yugurish bo‘yicha eng hayajonli musobaqalardan biri 1972 yilda Germaniyada, Myunxenda bo‘lib o‘tgan. Erkaklar o‘rtasida 800 metrga yugurish bo‘yicha Sovet Ittifoqidan Yevgeniy Arjanov ehtimoliy g‘olib hisoblanardi. U to‘rt yil mobaynida 800 metrga yugurish musobaqalarida g‘olib chiqqan va bu safar ham barcha uning g‘alaba qilishini kutardi.

Amerika nomidan musobaqachilar orasida darrov ko‘zga tashlanishi uchun doimo yaltiroq “kepka” kiyadigan, ajoyib chopqir, Devid Uottl ishtirok etardi. Uottl yugurayotganida odatda o‘rta yoki orqa qatordan joy olardi, marraning oxirgi aylanasiga yetib kelgach esa shiddat bilan yugurib, oldinga chiqardi va boshqalarni ortda qoldirardi. Biroq ko‘pchilik, endi Uottl o‘z rekordini yangilagan va Olimpiya o‘yinlarida bundan-da tezroq yugura olmaydi, deb hisoblardi. Bundan tashqari, uning jismoniy tayyorgarligi ham uncha yaxshi emasdi.

Yugurish hamma kutganidek boshlandi. Oldinda keniyalik ikkita chopqir borardi. Arjanov keniyaliklarni quvib o‘tganida Uottl oltinchi o‘rinda yugurib borardi. Finishga ikki yuz metrlar masofa qolganida Uottl Arjanovning sekin yugura boshlaganini payqab qoldi. Shunda u tezlashib Arjanovga finish chizig‘ida yetib oldi.

Arjanov va Uottl bir xil vaqtni ko‘rsatishdi (1 daqiqayu 45,9 soniya), biroq Devid Uottl Arjanovdan “qilcha” masofada o‘tib ketgani uchun oltin medalni qo‘lga kiritdi.

Xudo oldida gunohlarga iqror bo‘lish va to‘g‘ri qaror qabul qilish xuddi Olimpiya o‘yinlarida g‘olib chiqish kabi qiyin. Misol uchun, hamisha halol bo‘lish odatda qiyin kechadi. Do‘stlaring sening ustingdan kulishlari mumkin. Haqiqat ularni taajjubga solishi mumkin. Ba’zan haqiqatni gapirib, hattoki, noxush vaziyatlarga tushib qolish mumkin. Qisqacha qilib aytganda, halollik ba’zan noto‘g‘ri strategiya bo‘lib tuyulishi mumkin.

Ammo, halol bo‘lish qiyin bo‘lsada, baribir oxir-oqibat, u yaxshilikka olib boradi. Balki, senga goho haqiqatni aytib xatoga yo‘l qo‘yganingdek tuyulishi mumkin. Lekin haqiqatni aytish hammasidan yaxshi. Bu to‘g‘ri. “Egamiz solihning yo‘lini qo‘riqlaydi” (Zabur 1:6). Hayot – bu sen yutib chiqishing shart bo‘lgan musobaqadir (1 Korinfliklar 9:24; 2 Timo‘tiyga 4:7-8).

MULOHAZA QILGIN: Nima deb o‘ylaysan, Devid Uottl keniyaliklarni darrov quvib o‘tishga uringanida g‘olib chiqqan bo‘larmidi? Nima uchun ha nima uchun yo‘q? Agar sen faqat o‘zingga foydali bo‘lgan paytdagina halol bo‘lishga qaror qilgan bo‘lsang, sen uchun bunday “afzallik” aynan qachon sodir bo‘lishini qanday bilasan? Agar sen (Xudoning madadi bilan) doimo halol bo‘lishga qaror qilgan bo‘lsang, qaror qilishing oson bo‘ladi, deb o‘ylaysanmi? Shunday qilsa to‘g‘ri bo‘ladimi?

IBODAT: “Rabbim, ba’zan halol yo‘l tutganimda o‘zimni mag‘lub bo‘layotgandek his qilaman. Iltimos, yugurishni tamomlashimni esda tutishim uchun yordam ber”.

7 MAY. CHO‘PON VA BO‘RI

Kalomdan o‘qish: 1 Butrus 2:11-12

Imonsizlar orasida Xudoga munosib hayot kechiringlar. Ular sizlarni yomonlikda ayblasalar da, ezgu ishlaringizni ko‘rib, kim bilsin, balki tavba qilishar va qiyomat kuni Xudoni ulug‘lashar (1 Butrus 2:11-12).

Bir zamonlar kichkina qishloqning atrofida poda boqadigan cho‘pon bolakay bo‘lgan ekan. Kunlardan birida quylari bilan yolg‘iz o‘tirganida, u qishloq ahli bilan hazillashmoqchi bo‘libdi. U qishlog‘i tomon yugurib, qichqira boshlabdi: “Bo‘ri! Bo‘ri! Bo‘ri quylarga hujum qildi!”

Qishloq ahli barcha ishlarini tashlab qo‘ylari qolib ketgan o‘rmon sari yugurishibdi. Biroq ular yugurib kelishganlarida bo‘rining hech qanday izlarini ko‘rishmabdi. Bolakay o‘z hazilidan zavqlanibdi, odamlar esa bolani so‘kishib uylariga qaytishibdi.

Oradan qanchadir vaqt o‘tgach, bolakay zerikib, o‘z hazilini qaytarmoqchi bo‘libdi. U yana qishloqqa yugurib boribdi, qishloq odamlari esa tag‘in unga yordam berish uchun yugurib kelishibdi va tag‘in bo‘ridan darak topisholmabdi.

Bolakay yolg‘izlikdan zerikib, o‘z hazilini yana takrorlabdi va tag‘in shu holat takrorlanibdi. U yana qishloq ahlini ahmoq qilibdi.

Biroq kunlardan birida bo‘ri chindan ham qo‘zichoqlarga hujum qilib ularni o‘ldira boshlabdi. Bolakay bo‘rini quvib yuborishga behuda urinibdi. Shunda u qishloqqa qarab baqirganicha yuguribdi: “Yordam beringlar! Bo‘ri! Bo‘ri qo‘ylarni o‘ldirayapti!”

Biroq qishloq ahli bolaning qichqirig‘iga hech qanday e’tibor berishmabdi: bola tag‘in ularning ustidan kulayapti deb o‘ylashibdi. U qanchalik qattiq va jon jahdi bilan qichqirmasin, hech kim unga ishonmabdi, bo‘ri esa hamma qo‘ylarni g‘ajib tashlabdi.

Bu voqea bizni muhim qoidaga o‘rgatadi: nopok odam nafaqat atrofidagilarga, balki o‘ziga ham ziyon yetkazadi.

Nopok harakat odamning o‘ziga xalaqit beradi. Mana nima uchun Xudo bizga halol bo‘lishimizni amr etgan: U bizni nopoklik yetkazadigan zararlardan himoya qilishni istaydi. U biz haqimizda boshqalar yaxshi fikrda bo‘lishlarini xohlaydi. U biz halollik uchun taqdirlanishimizni va odamlar bizga ishonishlarini istaydi. Va U faqat halol insongina bu mukofotga sazovor bo‘lishini ham biladi.

MULOHAZA QILGIN: Sen haqiqatni aytganingda ham senga ishonishmagan paytlar bo‘lganmi? O‘shanda o‘zingni qanday his qilgansan? Bu holat senga yoqqanmidi? Yoqmaganmidi? Ranjiganmiding? Hayron qolganmisan? Kelajakda bunday bo‘lmasligi uchun nimalar qilish kerak?

IBODAT: “Xudoyim, hech qachon yolg‘on gapirmasligim uchun menga yordam bergin” (Hikmatlar 30:8).

8 MAY. QUYOSH, OY VA IPAK QURTINING PILLASI

Kalomdan o‘qish: Yoqub 1:17-18

Har bir yaxshi va mukammal hadya samodan keladi. Bu hadyalarni osmondagi jamiki yoritqichlarni yaratgan Xudo beradi. Yoritqichlarning nuri paydo bo‘lib, g‘oyib bo‘ladi. Xudoning ezguligi esa yo‘qolmaydi. Zero, Xudo hech qachon o‘zgarmaydi (Yoqub 1:7).

SEN SHISHALAR NIMADAN TAYYORLANISHINI BILASANMI? Penitsillin yoki rezinachi? Ko‘raylikchi, sen bu qatorlar orasidagi muvofiqlikni topa olarmikansan.

1	Qatron	A	Quyosh
2	Ipak	B	Dengiz hayvonlari
3	Penitsillin	V	Qum, ohak va soda
4	Shisha	G	Qo‘ylar
5	Oy yog‘dusi	D	Filning dandon tishi
6	Shimdirgich	E	Mog‘or
7	Jun	J	Daraxt
8	Mum	Z	Ipak qurtining pillasi
9	Teri	I	Hayvonlar terisi
10	Fil suyagi	K	Hayvon, o‘simlik va mineral moylari*

Sen qancha to‘g‘ri javob berding? Yanada muhimrog‘i esa, biz nima uchun bularni keltirib o‘tdik? Mana nima uchun: sen o‘ng qatorga chap tarafdagi barcha yozilganlarning manbai ekanligini anglatadigan bitta so‘zni qo‘sha olasanmi?

Agar sen “Xudo” deb javob bergan bo‘lsang tabriklayman! Sen haqsan. Xudo chap tarafda keltirilgan barchasining manbaidir. U xuddi shuningdek, o‘ng tarafda keltirilganlarning ham manbasidir. U *barcha* “yaxshi narsani”, misol uchun, atirgullarni, mushuklarni, shokolad va kulgini faqat yoqimli bo‘lishi uchungina yaratmagan. U barcha ezguliklarning manbaidir: halollik, sadoqat, jasorat, hurmat, sevgi va hayotning. Ezgulik Xudodan hosil bo‘ladi, negaki Uning O‘zi ezgulikdir. Haqiqat Xudodan hosil bo‘ladi, negaki Uning O‘zi haqiqatdir. Barcha axloq Undan kelib chiqadi, negaki Uning O‘zi muqaddasdir.

MULOHAZA QILGIN: Sen bugungi o‘qish asosida Xudoni qanday atagan bo‘larding? (Misol uchun, Uni “Iyegova ire” deb atashgan, bu esa “Har joyda bo‘luvchi Zot” ma’nosini anglatadi). O‘zing Xudo uchun qandaydir ramz o‘ylab topgin.

Sen Xudoga itoat etib, qandaydir yaxshi narsani egallashga uringang payting bo‘lganmi? Nima deb o‘ylaysan, noto‘g‘ri yo‘l tutib nimadir yaxshi narsaga ega bo‘lish mumkinmi? Nima uchun “ha” va nima uchun “yo‘q”?

IBODAT: “Xudoyim, menga barcha yaxshi narsalarni berganing uchun minnatdorman, shu jumladan .....”

_____

*Javoblar: 1 J; 2 Z; 3 E; 4 V; 5 A; 6 B; 7 G; 8 K; 9 I; 10 D.

9 MAY. LABIRINT

Kalomdan o‘qish: 1 Timo‘tiy 6:11-12

Ey Xudoning quli Timo‘tiy, sen esa o‘zingni bu illatlardan olib qoch. Solihlik, xudojo‘ylik, imon, sevgi, sabr-toqat va muloyimlikning payida bo‘l (1 Timo‘tiy 6:11).

Sen qachonlardir labirint orqali o‘tishga uringanmisan? Bu g‘alati, qiziq yoki oson bo‘lishi mumkin. Ko‘raylikchi, sen mana bu labirintdan o‘ta olarmikansan:



Xo‘sh qalay, senga qiyin bo‘ldimi? Yoki osonmi? Yo‘l seni “gunoh”ga boshlab borayotganini tushunib qolganingda nima qilding? Sen yo‘lda davom etdingmi yoki boshqa tomonga burildingmi?

Sen hayotda biror qaror qilganingda ham shunday bo‘ladi. Ha, hayotda sen tez-tez noto‘g‘ri tanlovlar qarshisida bo‘lib qolasan va hattoki ba’zan ularni ma’qul ko‘rasan. (Lekin buni o‘zing ham yaxshi bilasan, to‘g‘rimi?) Hayotda ham sen xuddi labirintdan o‘tgandek yo‘l tutishing mumkin: yoki yurishda davom etasan yoki boshqa tomonga burilasan.

Sen oldingga borayotganingda noto‘g‘ri qadam tashlab qo‘yishing mumkin, hattoki bunga ongli tarzda yo‘l qo‘yasan. Biroq kerakli tarafga bormayotganingni tushunganingda, eng bexatar va ishonchli qaror – to‘xtab, haq emasligingni tan olib, orqaga qaytishdir. Hayotda bu qog‘ozdagidek oson emas, ammo bilib qo‘y: bu seni ko‘plab noxushliklar va qayg‘ulardan asraydi. Shuningdek, bu hayot labirintidan o‘tishingga va boshi berk yo‘lga tushib qolmasliginga yordam beradi.

MULOHAZA QILGIN: Sening ruhiy hayoting labirintga o‘xshaydimi? Noto‘g‘ri yo‘l tutganingni bilganingda nima qilasan? Noto‘g‘ri yo‘l tutganingda (yoki shunday vaziyatning eng oxirgi damlarida)orqaga qaytgan damlaringni eslay olasanmi? Shunda nima yuz berdi? Sen bundan afsuslanasanmi? Nima uchun “ha” va nima uchun “yo‘q”?

HARAKAT QIL: Noto‘g‘ri qarordan voz kechib to‘g‘ri qarorga kelishing muhimligi haqida senga eslatib turadigan o‘z shaxsiy labirintingni chizgin.

IBODAT: “Rabbim, to‘g‘ri yo‘ldan borishim uchun menga yordam ber”.

10 MAY. UNING SIYMOSINI AKS ETTIR

Kalomdan o‘qish: 2 Korinfliklar 3:17-18

Biz hammamiz ochiq yuz bilan Egamizning ulug‘vorligini ko‘rib turibmiz. Biz o‘zgarib borar ekanmiz, yanada ulug‘vor bo‘lib, Egamizga o‘xshagan bo‘lamiz. Bularning hammasi Egamizning Ruhi orqali sodir bo‘lmoqda (2 Korinfliklar 3:18).

LYOSHA BA’ZAN otasining ishxonasiga boradi. Uning otasi bankda ishlaydi.

Kunlardan birida Otasi Lyoshaga pulni sanaydigan mashinkani ko‘rsatdi. Bank xodimi hozirgina yuz dollarlik pul o‘ramini ochib, ularni mashinkaga qo‘ygandi.

– Bu qandaydir g‘alati ko‘rinarkan! – dedi Lyosha.

Otasi mashinkadan bir dona pulni chiqarib Lyoshaga ko‘rsatdi.

– Haqiqiy dollarni qalbakilaridan oson farqlash maqsadida yangi pullar chiqarildi. Ko‘rayapsanmi, bundagi tasvir kattalashtirilgan, u markazga tomon siljitilgan va qog‘ozning boshqa turi qo‘llanilgan... Agar yoruqqa tutib qarasang, yozuvli chiziqni ko‘rasan. Albatta, pulda tasvirlanganlardan nusxa ko‘chirish mumkin, ammo buni qilish qiyinroq.

Lyosha hayron bo‘ldi:

– Nima, siz har bir yuz dollarlik pulni yorug‘likka tutib ko‘rasizmi?

Otasi jilmaydi:

– Yo‘q. Bank xodimlari qalbaki pullarni qiyinchiliksiz farqlay olishadi, negaki ular aksariyat hollarda haqiqiy pullar bilan ishlashadi. Ular haqiqiy pullarni kun bo‘yi, soatma-soat hisoblashadi va taqsimlab chiqishadi. Ular haqiqiy pulga qanchalik ko‘p qarashsa, shunchalik darajada qalbaki pullarni farqlay olishlari oson bo‘ladi; ular buni sezishadi. Qachon qalbaki pul kelganida xodim darhol uning nimasi bilandir farq qilishini payqaydi. *Shunda* u pulni yorug‘likda yoki lupa ostida tekshirib ko‘radi yoxud katta navbatchidan uni tekshirib chiqishini so‘raydi. Odatda haqiqiy pullarni biladigan xodim qalbakilarini ancha osonlik bilan topadi.

– Qoyil, – dedi Lyosha. – Menga ham tajribadan o‘tkazish uchun bir o‘ramini berasizmi?

–Albatta, tushingda bu pullarni olasan, – javob berdi otasi.

MULOHAZA QILGIN: Agar biror nima bilan tanish bo‘lsang, uning haqiqiy yoki qalbaki ekanligini oson bilasan. Ezgulik va yovuzlik haqida so‘z borganda, bu o‘rinda “asl” – Xudodir. Sen Xudoni qanchalik yaxshi bilasan? Sen tanlov qilganingda, Xudo bilan munosabatlaring senga yordam beradimi? Xudoni qay tarzda yaxshiroq bilib olishing mumkin? Sen “Uning ulug‘vorligini” qanday aks ettirishing mumkin?

IBODAT: “Rabbim, men Senga ko‘proq o‘xshashim va Sening ulug‘vorligingni aks ettira olishim uchun O‘z Ruhingni qalbimga joylashtirishimda menga yordam ber”.

11 MAY. BILQILDOQ QUMLAR

Kalomdan o‘qish: Zabur 89:1-4

Ey Rabbiy, nasllar osha Sen panohimiz bo‘lgan eding (Zabur 89:2).

CHO‘LDAGI QUMLAR doimo harakatlanib turishadi.

Ba’zan qumtepalar xuddi yirik yovvoyi hayvonlar singari cho‘l bo‘ylab to‘ziydi; shamol qumni uchiradi va u doimo titraydi, quyiladi, o‘zgarib turadi. Qumtepalar 150-200 metrgacha baland ko‘tarilishi mumkin, so‘ngra esa to‘zg‘ib ketishadi.

Qumlar gohida ekin maydonlariga yopirilib, hosilni nobud qiladi. Ba’zan kichik shaharlarga hujum qilib, uning ko‘cha va xiyobonlarini qoplaydi; ayrim qadimiy shaharlar yuz yillardan buyon qumlar ostida ko‘milib yotibdi.

Harakatlanuvchi qumlar cho‘ldagi sayohatni murakkab va o‘ta og‘ir qiladi. Mashinalar chuqur qumloqlarda yura olmaydi. Harakatlanuvchi qumtepalar ustida yurayotgan otlar tezda charchab qolishadi, ular hattoki ko‘kragigacha qumga botib qolishlari mumkin. Qum ustida yurayotgan odamlar tez-tez bir qadam oldinga, so‘ngra ikki qadam orqaga yurishadi.

Qumli cho‘llarda osongina adashib qolish mumkin, negaki landshaft doimo o‘zgarib turadi. Qumtepalar har tarafdan turlicha ko‘rinadi, ularning ko‘rinishi soatlar ichida boshqacha tus oladi.

Harakatlanuvchi qumlar o‘ta xavfli bo‘lishi mumkin. Ezgulik va yovuzlik haqidagi tushunchalar hamda beqaror fikrlarga ham xuddi shunday yondashish mumkin.

Ko‘rayapsanmi, ayrim odamlar, nima yaxshiyu, nima yomonligini o‘zlari hal qilishlari lozim, deya hisoblashadi. “Men buni shunday deb bilaman, - deydi ular, - menimcha, mana bu va ana u narsalar yomon”. Yoki shunday deyishadi: “Men mana shu va mana bu narsalar yomon emas, deb o‘ylayman”. Ular o‘zlariga, bir hafta avval yomon ko‘ringan narsalar, endi yaxshi ekanligini aytishlari mumkin. Ular shunday qaror qilishlari mumkin: mana bu narsa o‘zi uchun yaxshi, boshqa birovga esa yomon.

Ammo bunday fikrlash tarzi nafaqat xavfli, balki noto‘g‘ridir. Nima yaxshiyu, nima yomonligini biz hal qilmaymiz. Biz o‘z fikrlarimizga va tushunchalarimizga tayana olmaymiz; ular bu haftadan keyingi haftaga, kundan-kunga va hattoki soatma-soat o‘zgarishi mumkin; ezgulik va yovuzlik biz o‘ylaganlarimizga bog‘liq emas.

Yagona ishonchli andaza o‘zgarmas Xudodir. U kecha ham, bugun ham va ertaga ham O‘sha Zotdir. Uning fikri o‘zgarmaydi. U unutmaydi. Uning kayfiyati yomon bo‘lganida ham qoidalarini o‘zgartirmaydi. Bizning munosabatlarimiz va kayfiyatimiz o‘zgarishi mumkin, lekin Xudo avvalgidek bo‘lib qolaveradi.

MULOHAZA QILGIN: Sening fikrlaring keyingi bir necha oy ichida o‘zgarganmi? Haftalar ichida? Kunlar orasida? Xudo shu vaqtlar ichida o‘zgardimi?

Sen o‘z fikringga asosan yoki boshqalar fikriga ko‘ra qaror qabul qilasanmi? Yoki Xudoning fikrlariga asosanmi? Mana shu uchta variantlar bo‘yicha yo‘l tutgan paytlaringni eslagin.

IBODAT: “Xudoyim, men Seni o‘zgarmas bo‘lganing uchun ulug‘layman. O‘z fikrlarimga emas, balki Senga tayanishim uchun yordam ber va ayniqsa _____ borada murabbiylik qil”.

12 MAY. YOMON SHERIK

Kalomdan o‘qish: 2 Korinfliklar 6:14 – 7:1
Imonsizlar bilan sherik bo‘lmanglar (2 Korinfliklar 6:14).

Qudratli va ulug‘vor bahaybat keksa bug‘u kasal bo‘lib, doimo o‘tlaydigan maydonning chetiga yotib oldi. U dam olib, kuch to‘plashi uchun sersuv o‘tlari ko‘p bo‘lgan burchakni tanladi.

Do‘stlari uning oldiga kelishib, ahvolini so‘rashardi. Har biri, faqat o‘zini o‘ylab, kasal bug‘u atrofidagi o‘tlarni toki quruq yerning o‘zi qolmagunicha yeyishardi.

Tez orada bug‘u kasallikdan emas, balki do‘stlarining aybi bilan ochlikdan va kamquvvatlikdan sillasi qurib, o‘lib qoldi.

Bu voqea – Ezop masali asosida yozilgan bo‘lib – yomon sherik senga qanday ziyon keltirishini ko‘rsatib beradi. Bu faqatgina bitta misol, Muqaddas Kitobda ham shunday yozilgan: “Imonsizlar bilan sherik bo‘lmanglar” (2 Korinfliklar 6:14).

Bu esa Xudoni bilmaydigan odamlar bilan munosabat o‘rnatishing Xudoga yoqmaydi, deganidir. Albatta, sen baribir Xudoning amrlariga bo‘ysunib, barchaga yaxshi va hurmat bilan munosabatda bo‘lishing lozim. Sen imonda bo‘lmaganlarga guvohlik qilishing va ularning qutqarilishi uchun Masihga ishonishlariga yordam berishga urinishing kerak.

Biroq agar sen Xudoga itoat etsang va Unga yaqin bo‘lsang, imonda bo‘lmaganlar bilan sening o‘rtangdagi umumiylik tobora kamayib borishini ko‘rasan. Oxir-oqibat, Muqaddas Kitob bizga shunday deydi: “Solihlik bilan qabihlikning orasida qanday aloqa bor?! Nur bilan zulmat orasida qanday umumiylik bo‘lishi mumkin?! Masih bilan shayton orasida qanday ittifoq bo‘lishi mumkin?! Imonli bilan imonsizning orasida qanday sheriklik bo‘lishi mumkin?!” (2 Korinfliklar 6:14-15).

Ayrim odamlar ushbu oyatlarni birinchi navbatda nikoh munosabatlariga taalluqli, deya hisoblashadi. Biroq bu do‘stlikka, tijorat borasidagi hamkorlikka va shu kabilarga taalluqlidir.

Sen hozirning o‘zidayoq birgalikda vaqt o‘tkazadigan do‘stlaringni diqqat bilan tanlashing muhim. Birgalikda vaqt o‘tkazadigan do‘stlaring – senga imonda ulg‘ayishingga yordam beradigan – masihiylar bo‘lsin. Kalomdagi ushbu so‘zlarni eslagin: “Lekin adashmanglar, axir, “yomon ulfatlar yaxshi axloqni buzadi”, deyishadi-ku!” (1 Korinfliklar 15:33). Ushbu oyat, yomon sherik – xuddi kasal bug‘uning o‘rtoqlari kabi – foydadan ko‘ra, ko‘proq ziyon keltirishini senga eslatib turadi.

MULOHAZA QILGIN: Yaqin do‘stlaring masihiylarmi yoki imonda bo‘lmaganlarmi? Ular senga ijobiy ta’sir ko‘rsatishayaptimi yoki salbiy? Balki, o‘zingga imonda ulg‘ayishing uchun yordam beradigan masihiy do‘stlar topishing kerakdir?

HARAKAT QIL: Bugun nur bilan zulmat orasida hech qanday umumiylik yo‘qligi haqida senga eslatadigan sham yoqqin.

IBODAT: “Rabbim, menga quyidagi _____ e’tiqodsizlar bilan do‘stlikdan saqlanish yo‘lini ko‘rsat va ushbu _____ masihiylar bilan ko‘proq vaqt o‘tkazishim uchun yordam ber”.

13 MAY. XAVFSIZLIK TIZIMI
Kalomdan o‘qish: 2 Korinfliklar 7:2-4
Biz hech kimga ozor bermadik, hech kimga ziyon yetkazmadik, hech qachon o‘zimizning manfaatimizni ko‘zlab, boshqalardan foydalanmadik (2 Korinfliklar 7:2).

BIZ XAVFSIZLIK TIZIMI BILAN O‘RALGANMIZ.

Ehtimol, sizning mashinangizda eshik ochiq qolganligi, benzin tugayotganligi, kalit o‘t oldirish tizimida unutib qoldirilgani haqida xabar beruvchi bir necha tizim bordir. Hattoki mashinani haydovchi tezlikni oshirganida qarshi signal chaladigan tarzda tizimlashtirish mumkin.

Mabodo havoda tutun hidi tarqalsa, shovqin chiqaradigan yong‘inga qarshi detektorlar bor. Elektr simlarida qandaydir buzuqlik ro‘y bersa tokni o‘chiradigan maxsus saqlagichlar bor. Ayrim xonadonlarda agar o‘g‘ri eshikni yoki derazani buzib kirsa ishlab ketadigan signalizatsiyalar mavjud.

Mashina va avtobuslar qorong‘ida uzoqdan ham ko‘rinishlari uchun yorug‘lik taratib turadi. Temir yo‘llardagi o‘tish joylarida harakatlanishni nazorat qilish uchun svetoforlar, chiroqlar va shlagbaumlar o‘rnatilgan.

Atrofingda – xavfsizlik tizimining ko‘plab tarmoqlari mavjud. Sening ichingda ham shunday tizim bor.

Ha, sening ichingda! Bu sening “shaxsiy xavfsizlik tiziming”. Albatta, sen agar uyda daftaringni unutib qoldirmasang ovozli signalni eshitmaysan, agar maktab oshxonasida begona joyga o‘tirmasang ko‘zlaring oldida chiroq yonmaydi. Biroq shunday tizim senda bor. U hammada ham mavjud.

Sening xavfsizlik tiziming vijdon deb ataladi. Sen noo‘rin yo‘l tutganing haqida o‘ylaganingda u qalbingda eshitib bo‘lmaydigan ovoz chiqaradi. Sen unga xuddi boshqa xavf signaliga e’tibor bermaganingdek e’tibor qaratmasliging mumkin. Ammo sen uning ogohlantirishlariga muntazam e’tibor bermasang, vijdoning xuddi o‘chirilgan signalizatsiyaga o‘xshab qoladi. Va bu qayg‘uli oqibatlarga olib kelishi mumkin.

Eng yaxshisi, vijdon toza bo‘lganida, u kerakli darajada ishlaydi. Kalom vijdonni toza saqlashimiz lozimligi haqida bizni ogohlantiradi: “Imoningni mahkam tut, vijdonli bo‘l. Ba’zi odamlar vijdonni sotdilar, ularning imoni halokatga uchragan kemaday barbod bo‘ldi” (1 Timo‘tiy 1:19). Toza vijdon nafaqat xotirjam uxlashingga, balki hayotdan ko‘proq zavq olishingga yordam beradi, negaki u qalb quvonchining manbaidir.

MULOHAZA QILGIN: Muqaddas Kitobdan bugun o‘qiladigan parchada Pavlus korinflik masihiylarga o‘zining vijdoni ularning oldida toza ekanligi haqida aytadi. Va bunda yaxshi narsa nima edi?

Sening vijdoning tozami? Agar shunday bo‘lmasa, qalbingdagi gunoh uchun tavba qil, Xudodan kechirim so‘rab Uning kechirimini qabul qil. Sen bu bilan o‘zing keltirgan zararni qoplagan bo‘lasan.

HARAKAT QIL: Keyingi bora suv ichganingda uning shaffofligiga e’tibor ber va Xudodan vijdoningni ana shunday shaffof saqlashini so‘ragin.

IBODAT: “Xudoyim, agar men _____ haqdagi ogohlantirishiga e’tibor bermasam, vijdonim kerakli tarzda ishlamasligini bilaman. Masihdagi imonimda mahkam turishimda yordam ber va vijdonimni poklagin”.

14 MAY. HAYOTDA DILSIYOHLIKLAR BO‘LIB TURADI

Kalomdan o‘qish: 2 Korinfliklar 7:9-11

Xudo bu xafagarchilikni yaxshilik uchun ishlatdi, shuning uchun bizdan hech qanday ziyon ko‘rmadingiz... Axir, Xudo yaxshilikka ishlatadigan xafagarchilik tavbaga olib keladi, tavba esa najotga yetaklaydi va hech qanday armonu afsusga sabab bo‘lmaydi. (2 Korinfliklar 7:9-10).

YAQINDA KATTA SHAHARLARDAN BIRIDA militsiya, giyohfurushlar makoni deya hisoblangan bir uyga bostirib kirdi. Biroq o‘shanda militsionerlar hech qanday shubhali narsa topolmay, bu boshqa uy ekanligini tushunib qolishdi. Giyohfurushlar makoni *qo‘shni uy* edi. Ular toki masalaga oydinlik kiritgunlaricha, giyohfurushlar qochib ketishga ulgurishdi, militsionerlarga esa ko‘pgina tushuntirish xatlari yozishlariga to‘g‘ri keldi.

Mahalliy o‘t o‘chiruvchilar kunlardan birida mashg‘ulot o‘tkazmoqchi bo‘lishdi. Ular yong‘in o‘chirishni tajribadan o‘tkazish uchun buzilishi mo‘ljallangan uyni topib, o‘t qo‘yishdi. Afsuski, buzilishi mo‘ljallangan uy boshqa manzilda ekan! Yonib ketgan uyning egasi ishdan qaytgach, uyining o‘rnida kultepani ko‘rib, nimalar deganini tasavvur qilgin-a!

Odatda bizning xatolarimiz unchalik jiddiy tus olmaydi – uylar har doim ham yoqib yuborilmaydi! Ammo biz barchamiz xato qilamiz. Biz bundan qochishimiz mumkin – axir biz odamlarmiz. Xato qilishimiz muhim emas, negaki har bir kishi adashadi; muhimi biz xato qilib o‘zimizni qanday tutishimizdadir.

Ba’zan bizning xatolarimiz gunohkorona bo‘ladi. Boshqa paytlarda esa shunchaki adashamiz. Biroq masala noto‘g‘ri tanlovga yoki shunchaki adashishga borib taqalganida, bizning javobimiz deyarli bir xil bo‘lishi kerak.

Mabodo xato qilganingda tashlaydigan birinchi qadaming bu o‘z xatoingni tan olishdir. Bu yaqqol ayondek tuyuladi, ammo odamlar odatda buni qiyin uddalashlari hayron qoldiradi. Ikkinchi qadam esa sening xatoing ziyon keltirgan odamdan kechirim so‘rashdir. (Agar xatoing gunohkorona bo‘lsa, Xudo oldida ham kechirim so‘rash kerak.) Uchinchi qadam esa xatoni to‘g‘rilashdan iboratdir. Har doim ham hammasini joyiga yana qaytarishning iloji yo‘q (misol uchun, yongan uyni qaytarib bo‘lmaganidek), biroq xatoning oqibatlarini bartaraf qilishga urinib ko‘rish mumkin. Mabodo xatoing gunohkorona bo‘lsa, sen Xudoning kechirimini qabul qilishing va (Uning yordami bilan) keyingi safar yaxshi qaror qabul qilishing lozim. Eh ha, yana bir gap, agar yuqoridagi kabi maxsus tadbir uyushtirmoqchi bo‘lsang, doimo uy manzilini qayta va qayta tekshirib ko‘r!

MULOHAZA QILGIN: Nima deb o‘ylaysan, gunohkorona xato va oddiy xato o‘rtasida qanday farq bor? Sen keyingi paytlarda tan olishing, kechirim so‘rashing va to‘g‘rilash lozim bo‘lgan xatolar qildingmi? Sen buni qanday amalga oshirmoqchisan? Nima deb o‘ylaysan, umuman xato qilmaslik mumkinmi? (Xudoning yordami bilan) Kamroq xato qilish mumkinmi? Nima deb o‘ylaysan, (Xudoning yordami bilan) xatolaringni oson tan olishing va ularni to‘g‘rilashing uchun nimalar qila olasan?

IBODAT: “Rabbim, men _____ qilmasligim kerakligini tan olaman. O‘z gunohlarim uchun Sendan kechirim so‘rayman. Xatolarimni qanday to‘g‘rilashimni menga ko‘rsat va kelajakda boshqa bunday qilmasligim uchun yordam ber”.

15 MAY. BU G‘ALATI, AMMO SHUNDAY BO‘LGAN

Kalomdan o‘qish: Qonunlar 11:1

Egangiz Xudoni sevinglar. Har doim Uning amrlariga, qonun qoidalariga va farmonlariga rioya qilinglar, talablarini bajaringlar (Qonunlar 11:1).

MABODO Missuri shtatidagi Kaoka shahrida Yangi yilni kutib olishingga to‘g‘ri kelsa ehtiyot bo‘l va ko‘chada bengal olovlarini yoqma. Qarangki, Kaokada ko‘cha bo‘ylab mash’ala ko‘tarib yurish qonunga zid hisoblanadi. Sen shishali chiroq (fonus) ko‘tarib yurishing mumkin, ammo sham ko‘tarib yurishing mumkin emas (faqat yopiq shamdon ichida olib yursang bo‘ladi).

Agar sen Shimoliy Karolinada yashasang, paxta maydoningda filni omochga qo‘shish ta’qiqlanadi. Aks holda senga jarima solishadi: Shimoliy Karolina qonunlari paxta maydonlariga fildan foydalanib, omoch tortishni ta’qiqlaydi.

Viskonsida esa haligacha poyezd yo‘lovchilari yonlarida bolta va arra olib yurishlari shart bo‘lgan qonun hukm suradi.

Ahmoqona qonunlar, to‘g‘rimi? Ammo aslida unday emas. Agar ularning o‘z vaqtida nima sababdan qabul qilinganini qarab chiqsak, bizga endi unchalik ham g‘alati tuyulmaydi.

Misol uchun, Missuridagi Kaokada, kimdir ko‘chada mash’ala bilan ehtiyotroq bo‘lganida, ehtimol, yong‘in yuz bermasdi (hoynahoy, o‘shanda uylar pech yordamida isitilgan va kimdir qo‘shnisidan olov olib kelish uchun o‘tgan bo‘lsa kerak). Ehtimol, Shimoliy Karolinada fermerlardan kimdir fildan foydalanib, qo‘shnilariga noqulaylik tug‘dirgandir (balki, fildan qo‘llansa hid kelgandir yoki bo‘shalib ketib, kimgadir shikast yetkazgandir yoki nimanidir sindirgan. Axir, fillarning to‘xtatgich moslamasi yo‘q-ku!). Viskonsida poyezdning fojeali yong‘inidan so‘ng (avvallari poyezlarda yong‘in tez-tez bo‘lib turgan) barcha yo‘lovchilar yonlarida bolta va arra olib yurishlari shart bo‘lgan qonun qabul qilingan (bu yo‘lovchilar yong‘in boshlanganida vagondan chiqib keta olishlari uchun kerak bo‘lgan).

Endi qandaydir ma’no oydinlashdi, to‘g‘rimi? Qonunlar nima uchun yaratilganini tushunganingda ular ma’no kasb etadi. Xudoning amrlariga ham xuddi shunday yondashish lozim. Biz Xudoning amrlarini har doim ham tushunavermaymiz, ammo ular havodan olinmaganini bilamiz. Xudo bizni himoya qilishi uchun, biz haqimizda g‘amxo‘rlik qilishi uchun va Unga tobora ko‘proq o‘xshab borishimizga yordam berishi uchun O‘z amrlarini bergan.

Biz hattoki Xudoning barcha amrlarini tushunmasak ham, ular Unga ishonishimiz imkonini beradi va hattoki barchasini tushunmaganimizda ham Unga bo‘ysunib Uni qanchalik yaxshi ko‘rishimizni ko‘rsatadi.

MULOHAZA QILGIN: O‘z shahring, davlating, maktabing va oilang qonunlarini eslab ko‘r. “Tezlikni oshirmagin”, “Bino yo‘lagida yugurmagin” va “Savzavotlarni oxirigacha yeb qo‘ygin”, kabi qonunlar nima uchun mavjudligini tushunasanmi?

Xudoning amrlari sen qay tariqa himoya qiladi? Ularga amal qilmaganingda ham amrlar seni himoya qiladimi? Nima uchun “ha” va nima uchun “yo‘q”?

IBODAT: “Rabbim, menga dono amrlar berganing uchun Senga rahmat. Senga itoat qilishim va to‘g‘ri qaror qilishim uchun yordam ber, ayniqsa _____”.

Sen ibodat uchun Zabur 118:35 dan foydalanishing mumkin: “Amrlaring so‘qmog‘idan meni yetaklagin, Men undan lazzat topaman”.

16 MAY. HAQIQATMI YOKI YOLG‘ON

Kalomdan o‘qish: Zabur 118:30-32

Men sadoqat yo‘lini tanlaganman, qoidalaringni yuragimga jo qilganman (Zabur 118:30).

NAZORAT ISHI. SEN YAXSHI KO‘RASAN nazorat ishini, to‘g‘rimi?

– Ha shunday, – deysan sen, – men tag‘in tug‘ilgan kunimda ...og‘riqsizlantiruvchi dorilarsiz zang bosgan jo‘lak bilan ... tishimni sug‘urib olishlarini yaxshi ko‘raman.

Mayli, mayli! Biroq agar sen nazorat ishining yaxshisini tanlay olganingda, nimani ma’qul ko‘rgan bo‘larding? Inshonimi?

– Bu qisqichbaqa tog‘da hushtak chalganida bo‘ladi, – deysan sen.

Qoldirilgan dars soatlari ustidan ishlashga nima deysan?

– YO‘Q! Bu inshodan ko‘ra yaxshi, ammo...

Bir qancha imkoniyatlardan birini tanlashgachi?

– Bu hali hech gap emas, – deysan sen, – ammo lekin...

Haqiqatmi yoki yolg‘on?

– Bu aynan keraklisi! – deysan sen. – Axir hamma ham shunday nazorat ishini ma’qul ko‘rmaydimi?

Balki hamma ham emasdir. Biroq ko‘pchilik shunday yo‘l tutishi aniq. Nima uchun? Negaki bor yo‘g‘i ikkita savoldan bittasiga javob berish kerak. To‘g‘ri... yoki yolg‘on.

– Albatta, – deysan sen, – xuddi men buni bilmagandek!

Ha, bu juda oddiy, to‘g‘rimi? Nimadir to‘g‘ri, nimadir esa yolg‘on. Bu juda oddiy, shunday emasmi? “Barcha cho‘llarda qum bor” yoki yo‘q (hammasida emas). Jon Uilks But Avraam Linkolnni otgan yoki otmagan. Ilonlar issiq qonli yoki yo‘q.

Biz ezgulik va yovuzlikdan birini tanlaganimizda ham xuddi shunday bo‘ladi. Hamma ham buni tan olavermaydi, biroq axloqiy va ruhiy jabhada haqiqat xuddi fizika, geografiya va matematikada bo‘lgani kabi mavjuddir. Odamlardan nafratlanish yomon (haqiqat). O‘zga odamlarni hurmat qilish yaxshi (haqiqat). Halol bo‘lish yomon (yolg‘on). Saxiy bo‘lish yaxshi (haqiqat).

Albatta, ayrim odamlar haqiqat mavjud emasligini uqtirishadi. Lekin bu holda, “haqiqatmi yoki yolg‘on?” savoliga har qanday javob to‘g‘ri bo‘ladi. Bu holda yaxshi baho olishing qiyin bo‘lmaydi. Biroq sen bundan aqlli ham bo‘lib qolmaysan, to‘g‘rimi?

MULOHAZA QILGIN: Agar haqiqat va yolg‘on o‘rtasida farq bo‘lmaganida hayot qanday kechgan bo‘lardi? Bu holda sen do‘stingning maslahatiga amal qilgan bo‘larmiding? Aslida pitssaning narxi qancha va mashinaga model suratini qanday yopishtirish mumkin? Maktab darsliklari nimaga o‘xshagan bo‘lardi? Matematikadan vazifani qanday yechgan bo‘larding yoki dars qaysi sinfxonada o‘tishini qay tariqa toparding?

Zabur muallifi 118 bobda “haqiqat yo‘li”ni tanlagani haqida aytadi. Nima deb o‘ylaysan, u nimani nazarda tutgan? Bu oyatda u yana nimalar deydi? Sen Xudoning qonunlarini (Uning yordamida) bajarishga qaror qildingmi?

HARAKAT QIL: Keyingi safar senga haqiqat yoki yolg‘ondan birini belgilash haqidagi nazorat ishi topshirilganida, axloqiy va ruhiy jabhada ham xuddi fizika, geografiya va matematikada bo‘lgani singari haqiqat mavjudligini yodingda tut.

IBODAT: “Men haqiqat yo‘lini tanlayman; Men Sening qonunlaringni bajaraman”.

17 MAY. XASIS BO‘LMA

Kalomdan o‘qish: Voiz 5:9-13

Pulga ruju qo‘ygan hech qachon pulga, boylikni yaxshi ko‘rgan esa boylikka to‘ymaydi (Voiz 5:9).

SEN QUYIDAGILAR TO‘G‘RISIDA QANDAY FIKRDASAN?

- ikki oylik ijara haqini to‘lamagani uchun ikki xonalik uydan o‘z onasini haydab chiqargan ko‘plab uylari bor bo‘lgan millioner haqida;
- o‘zining tug‘ilgan kunida bog‘chaga yigirmata pirojniy olib borib, ularning hammasini o‘zi yeb qo‘ygan bola haqida;
- okrugda qo‘shnilaridan mol o‘g‘irlaydigan yirik qoramol podasining egasi haqida;
- uch yil jamoat xorida asosiy kuylovchi bo‘lib, endi boshqa birovni asosiy kuylovchi qilib olishgani uchun jazavaga tushgan qizcha haqida;
- kompyuterda uch yarim soatdan buyon o‘ynab, boshqa birovga ruxsat bermayotgan bola haqida.

Sen bu odamlarni qanday atagan bo‘larding: *uddaburonmi? yoqimtoymi? zo‘rmi? mehribonmi?*

Balki ularni *xasis* deb atash o‘rinlidir?

Albatta, oxirgisini tanlagan bo‘larding! Yuqorida qayd etilgan odamlar unchalik yoqimli emas. Nima uchun? Negaki, ular xasisdirlar.

Xasislik yoqimsiz va g‘ashga tegadigan bo‘lishi mumkin. Xasis bo‘lish yomon. Harholda, yuqorida qayd etilgan holatlar aynan noto‘g‘ri bo‘lgani uchun odamlarga yoqmaydi. To‘g‘ri yo‘l tutish qanday bo‘ladi? Saxiy bo‘lib! “Olmoqdan ko‘ra, bermoq ko‘proq marhamat keltiradi” (Havoriylar 20:35).

Xasislik – yomon, saxiylik esa – yaxshidir. Aksariyat odamlar buni tabiiy ravishda his qilishadi. Mana nima uchun Dikkensning “Mavlud ertaklari” boshlanishidagi Skrudj shunday yoqimsiz. Mana nima uchun “Uoll-strit” filmida Duglas shunday salbiy. Mana nima uchun “Mavludni o‘g‘irlagan Grinch” filmidagi Grinch shunchalik qabih. Negaki, xasislik nafaqat yoqimsiz, balki gunohkorona hamdir.

MULOHAZA QILGIN: Nima deb o‘ylaysan, xasislik yaxshi holatga aylanishi mumkinmi yoki u hamisha yomon bo‘ladimi? Saxiy bo‘lish doimo yaxshimi? Nima deb o‘ylaysan, yanada saxiyroq bo‘lishga harakat qilishing kerakmi?

HARAKAT QIL: Oila davrasida tomosha qilish uchun (ota-onang ruxsati bilan) ushbu filmlardan birini vaqtinchalikka olgin: “Mavluddagi voqealar” (Jorj Skott ijrosida), “Taqdir burilishlari” (Stiv Martin ijrosida), “Qizg‘anchiq” (Maykl Foks ijrosida) yoki “Aka-uka Karamazovlar” filmlarida xasislik oqibatlari (noto‘g‘ri qaror) va saxiylik fazilatlari qanday talqin qilinganligi haqida o‘ylab ko‘r.

IBODAT: “Xudoyim, Sen nihoyatda saxiysan, Sen O‘z sevgingni va butun olamning qutqarilishini menga ham taqdim etmoqdasan! Saxiy bo‘lishim uchun menga yordam ber”.

18 MAY. ULASHGIN!

Kalomdan o‘qish: 1 Timo‘tiy 6:17-19

Ularga buyur, yaxshilik qilsinlar, xayrli ishlarga boy, saxiy, ochiq qo‘l bo‘lsinlar (1 Timo‘tiy 6:18).

Bir kuni kech oqshom oila boshlig‘i, xotini va uchta bolalari endi uxlash uchun yotganlarida, telefon jiringladi. Erkak ko‘rpa ostidan qo‘lini chiqarib, go‘shakni ko‘tardi va norozi ohangda dedi: “Allo!”

Qo‘ng‘iroq qilayotgan odam dunyoning boshqa vaqt chizig‘ida yashayotgan eski do‘st edi.

– Bunday kech paytda qo‘ng‘iroq qilayotganim uchun uzr, og‘ayni, lekin men sen uchun nimadir qilmoqchi edim.

– Men uchun qilmoqchi eding? – erkak tirsagiga tayanib o‘rnidan qo‘zg‘aldi-da karavotning bosh tomoniga suyanib o‘tirdi. Uning xotini chiroqni yoqdi.

– Ha! – deb tushuntirdi qo‘ng‘iroq qilayotgan kishi. – Men hali kollejda o‘qiganimdayoq hayotimning har bir kunida kimgadir biror yaxshilik qilishni o‘zimga va o‘ylashimcha, Xudoga ham va’da bergandim.

Uxlamoqchi bo‘lib turgan erkak butunlay hushyor tortdi:

– Nima, nima?

– Bu qandaydir jiddiy narsa bo‘lishi shart emas, – dedi qo‘ng‘iroq qilayotgan kishi. – Ba’zan men pulini yo‘qotgan bolaga tanga beraman, yoki kimgadir o‘zim yoqtirgan kitobni sovg‘a qilaman, fikrimcha bu kitob unga ham yoqib qoladi. Ammo o‘ylashimcha, keyingi o‘n besh yil ichida men biror kunni ham behuda o‘tkazmadim.

– Sen keyingi o‘n besh yil davomida kimgadir biror yaxshilik ko‘rsatib keldingmi?

– Ha! Ammo bugun hech kimga biror yoqimli ish qilolmadim, xullas, senga qo‘ng‘iroq qilishga jazm etdim.

– Biroq sen telefon orqali men uchun nima ham qilishing mumkin?

– Bilasanmi, qariya, bu kamgina bo‘lsada, harqalay nimadir bo‘ladi.

Qo‘ng‘iroq qilayotgan kishi qisqacha she’r o‘qib berdi, so‘ngra esa olisdagi do‘stiga uning o‘ziga yaxshi ta’sir ko‘rsatgani uchun minnatdorchilik bildirdi. U so‘zini tugatganida, do‘stlar bir muddat jim qolishdi.

– Rahmat, – dedi nihoyat do‘sti. Uning ovozi hayajondan titrardi. – Bu men uzoq vaqtlardan buyon olgan eng yaxshi sovg‘a bo‘ldi.

Tasavvur qilgin-a: bu odam o‘n besh yil mobaynida har kuni kim uchundir qandaydir yaxshilik qilgan! Qoyil qolish kerak, to‘g‘rimi? Va yanada hayron qoldiradigan jihati nima? Bu haqiqatdan ham yuz bergan.

Bunday odamlar haqida eshitganingda, ularning saxiyligidan hayratga tushmaysanmi? Albatta, qalbingning tub-tubida hayratga tushasan, zero saxiy bo‘lish yaxshi ekanligini bilasan. Seni saxiylik tabiiy ravishda odamlar sari yaqinlashtirib, xasislikdan nari qiladi.

Albatta, saxiy bo‘lish oson emas. Bizning gunohkorona tabiatimiz bizda bor bo‘lgan narsalarga yopishib olishga undaydi. Bu an’anani yengib o‘tish qiyin. Biroq bu qiyin bo‘lsada, ayniqsa muhtoj bo‘lganlarga nisbatan saxiy bo‘lish yaxshidir.

MULOHAZA QILGIN: Mabodo seni saxiylikda “ayblashsa”, buni isbotlab bera olasanmi? Buning dalillarini oshirish uchun nimalar qila olasan?

HARAKAT QIL: Bugunning o‘zidayoq kimgadir biror sovg‘a qil. Sen o‘z tabassumingni, bag‘ringga bosishni, yordam berishni va boshqa shu kabilarni tortiq qilishing mumkin.

IBODAT: “Rabbim, men _____ muhtoj odamni bilaman. Men u bilan nimani baham ko‘rishim mumkinligini menga ayon qilgin”.

19 MAY. “HECH QACHON”

Kalomdan o‘qish: Qonunlar 15:10-15

Unga saxiylik bilan qarz bering, buning uchun achinmang (Qonunlar 15:10).

SEN QACHONLARDIR, “Hech qachon”, deb nomlanadigan o‘yinni o‘ynaganmisan? Lagerlarda, yoshlar guruhlarida yoki do‘stlar bilan bu o‘yinni o‘ynash shunchaki maroqli. Mana unda qanday o‘ynaladi: kimdir shu so‘zlarni aytishidan o‘yin boshlanadi: “Men hech qachon”. Boshlovchi kim nima qilgani yoki nimalarni boshidan kechirgani haqida aytganida, o‘sha o‘rnidan turishi kerak. So‘ngra esa yana kimdir shu kabi gaplarni aytganida, boshqalar bu gaplar o‘ziga taalluqli ekanligini tasdiqlab, o‘rnilaridan turishlari yoki o‘tirishlari kerak. O‘yin toki bir kishi o‘rnida qolmagunicha davom etadi (yoki aksariyat hollarda bu barchaning joniga tegib ketmagunicha).

Nima uchun “men hech qachon” o‘yinida hoziroq yengilib qolmaslik kerak? Bulardan qaysi biri senga taalluqli ekanini qayd etib chiq:

- □ “Men hech qachon 8 mart va 23 fevral kuni ota-onamga sovg‘a bermaganman”.
- □ “Men hech qachon Mavlud bayrami sovg‘alari uchun pul sarf qilmaganman”.
- □ “Men hech qachon boshqa bolalar bilan o‘yinchoqlarimni baham ko‘rmaganman”.
- □ “Men boshqalar bilan baham ko‘rish uchun biror narsa sotib olmaganman”.
- □ “Men hech qachon boshqa odamga yordam berish uchun bormaganman”.
- □ “Men hech qachon o‘zim yoqtirgan kiyimimni do‘stimga sovg‘a qilmaganman”.
- □ “Men hech qachon menga sovg‘a qilolmaydigan kishiga sovg‘a qilmaganman”.
- □ “Men hech qachon birovni chin ko‘ngildan maqtamaganman”.
- □ “Men hech qachon keksalarga yordam bermaganman”.
- □ “Men hech qachon jamoatga xayriya qilmaganman”.

Sen qanchasini qayd etding? To‘rttami? Beshtanimi? To‘qqiztanimi? O‘ntanimi? Agar e’tibor bermagan bo‘lsang, qarab ko‘r: bundagi barcha javoblar saxiylik haqida edi. Mabodo sen barcha o‘nta punktlarni qayd etib chiqqan bo‘lsang, o‘z ustingda chindan ham chuqur ishlashing kerak. Agar sen faqat bitta yoki ikkita punktni belgilagan bo‘lsang, u holda tez orada sen uchun yaxshiliklar boshlanadi.

Ehtimol, bularning bari senga unchalik muhim tuyulmayotgandir. Vaholanki, ko‘plab odamlar hayotlarida o‘z kiyimlarini do‘stiga berishmaydi yoki Mavlud bayrami uchun xarajat qilishmaydi. Biroq bu saxiylik muhim ahamiyatga ega emas, deganini bildirmaydi. Bu muhim. Bu Xudoning amridir.

Xudo shunday degan: “Unga saxiylik bilan qarz bering, buning uchun achinmang... yurtingizdagi kambag‘al, muhtoj birodarlaringizga ochiq qo‘l bo‘ling” (Qonunlar 15:10-11). U bizga nafaqat atrofimizdagilar uchun yaxshi bo‘lishi, balki bu to‘g‘ri ekanligi uchun ham saxiy bo‘lishimizni amr etgan.

MULOHAZA QILGIN: Sen nimani osonroq berib yuborasan: pulnimi, vaqtnimi, buyumlarnimi, o‘yinchoqlarnimi, e’tiboringnimi yoki yaxshi so‘zlaringnimi? Sen bu jabhalardan qaysi birida ko‘proq saxiy bo‘lishing mumkin?

HARAKAT QIL: “Men hech qachon” o‘yinida o‘zing qayd etganlardan birini shu haftada bajarib ko‘rgin.

IBODAT: “Rabbim, men _____ bilan saxiy bo‘lishim uchun menga Sening yordaming kerak”.

20 MAY. BOG‘ICHLARNING QIYMATI HAQIDA

Kalomdan o‘qish: Luqo 21:1-4

Shunda Iso dedi:

- Sizlarga chinini aytayin, bu kambag‘al beva hammadan ko‘proq ehson berdi. Chunki boylarning hammasi o‘zlarining ortiqcha pullaridan ehson qildilar. Ammo bu ayol kambag‘alligiga qaramasdan, o‘zining bor-yo‘g‘ini tashladi (Luqo 21:3-4).

Sen yolg‘iz o‘zing qorong‘i va kimsasiz ko‘chadan o‘tib borayapsan. Banogoh zulmat ichidan bir qora sharpa chiqib, senga qurol o‘qtaladi.

– Qo‘lingni ko‘tar! – deydi talonchi vahimali ovozda. Uning yuzi niqob bilan o‘ralgan.

Sen qo‘lingni ko‘tarib, o‘qtalgan qurolga qaraysan.

– Otmang! – deysan sen. – Men hamma pullarimni beraman, faqat otmang!

– Pul deyapsanmi? – deb so‘raydi talonchi. – Sen pul haqida nimadir dedingmi?

– Nima, sizga pul kerak emasmi? – sen hayron bo‘lib talonchining yuziga qaraysan.

– Yo‘q! – deb javob beradi u. – Menga sening bog‘ichlaring kerak!

Senga uning gapi chalkash eshitilgandek tuyuladi:

– Kechirasiz, nima kerak dedingiz?

– Bog‘ichlar! – talonchi sabrsizlik bilan qurolini silkitadi. – Menga sening bog‘ichlaring kerak. Ularni o‘yin qilmasdan sekin chiqar... bu yoqqa ber.

Sen bog‘ichlaringni yechib, talonchiga berasan. U esa sening qo‘lingdan bog‘ichlarni tortib olib, kulganicha sakrab qochishga tushadi.

– Men boyman, men boyman! – deb hayqiradi u. – Eshitayapsizlarmi? Men boyman!

“Shunaqasi ham bo‘lib turadi, – deb o‘ylaysan. – Shunday ham bo‘larkan. Albatta, qandaydir g‘alati. “Menga sening bog‘ichlaring kerak” – bu qanday ahmoqlik!” Nega bu ahmoqlik ekan? Negaki talonchida bog‘ichlarning qiymati haqida noo‘rin tushuncha bor.

Uning so‘zlaridan, qiymat tizimi unda qanday ekanligi bilinib turibdi. Ko‘pchilik talonchilar bog‘ichdan ko‘ra pulni ko‘proq qadrlashadi; ular shunday deyishadi: “Hamyon yoki jon!” yoxud “Pulni cho‘z!” Odam nimani gapirayotganiga, ayniqsa, nimani buyurayotganiga qarab, u nimani qadrlashini bilsa bo‘ladi.

Xuddi shunday yondashuv Xudoga ham taalluqli. Xudo bizga saxiy bo‘lishimizni amr etgan. “Shuning uchun sizlarga amrim shuki, yurtingizdagi kambag‘al, muhtoj birodarlaringizga ochiq qo‘l bo‘ling” (Qonunlar 15:11). Xudoning amrlari Uning saxiylikni qadrlashini ko‘rsatadi. Mana nima uchun Iso ma’badda ikki tanga xayriya qilgan beva ayolni maqtagan: ayol haqiqatdan ham saxiy edi. Saxiylik – Xudo nihoyatda qadrlaydigan sifatdir. U saxiylikni qadrlar ekan, biz ham uni qadrlashimiz (va amalda qo‘llashimiz) lozim.

MULOHAZA QILGIN: Sen saxiylikni qadrlaysanmi? So‘zlaringdan saxiylikni qadrlashingni bilsa bo‘ladimi? Nima uchun “ha” va nima uchun “yo‘q”? Sening harakatlaringdan saxiylikni qadrlashingni bilsa bo‘ladimi? Nima uchun “ha” va nima uchun “yo‘q”?

HARAKAT QIL: Saxiylikni qanday qadrlashingni ko‘rsatadigan har qanday imkoniyatdan bugun foydalanib qol.

IBODAT: “Rabbim, men bugun _____ borada saxiylik ko‘rsatmoqchiman”.

21 MAY. TARVUZLAR, BAQLAJONLAR VA UZUM

Kalomdan o‘qish: Zabur 64:10-12

Mo‘l hosil bilan yilga toj kiygizasan, aravalaring yurgan yo‘llardan boylik oqadi (Zabur 64:12).

Agar Xudo senga bergan narsalarning ro‘yxatini tuzib chiqishingni so‘rasam, buni tuzish sendan qancha vaqtni talab qilgan bo‘lardi? Bir soatmi? Ikki soatmi? Bir kunmi? Bir haftami?

Biz Xudoning bizga nisbatan saxiyligini osonlik bilan unutamiz. U bizga oilani, do‘stlarni, erkinlikni, quvonchni va oziq-ovqatlarni (yana boshqa ko‘p narsalarni) bergan. Alifboning har bir harfida Xudoning in’omlaridan misol keltirish mumkin.

anor	ko‘z	xurmo
behi	lochin	chumoli
vujud	muzqaymoq	shaftoli
gilos	nok	echki
dengiz	olma	yurak
elka	pista	yasmiq
yomg‘ir	rizq	o‘pka
jiyda	suv	qo‘l
zaytun	tarvuz	g‘uncha

ituzum	uzum	hazil
yo‘lbars	fil	

Mabodo sen bir daqiqa ham o‘ylanib qolsang, demak, Xudo beqiyos darajada saxiy ekanligini tushunishing qiyin bo‘lmaydi. Uning saxiyligi hayratomuz. U bizga hamma narsani bergan. U bizni tarvuzlar, baqlajonlar va uzumlar bilan siylagan! U tong gullari va kechki shafaq bilan cheklanib qolishi mumkin edi, biroq U bizga baribir hammasini, muzqaymoqdan tortib olmagacha hammasini bergan; lug‘atni yana bir bora varaqlab chiqaqol!

Bularning hammasini bizga Xudo bergan. Saxiylik Xudo tabiatining bir qismidir. Mana nima uchun saxiylik to‘g‘ri: bu Xudoning xususiyatidir.

MULOHAZA QILGIN:Xudo hech qachon bizga in’omlar had etishdan charchamaydi. Sen bu haqda nima deb o‘ylaysan? Nima uchun Xudo bunchalik saxiy?

Xudo saxiy bo‘lganligi uchun ham u yaxshidir. Sen ham qachonlardir Xudo kabi saxiy bo‘la olasanmi? Yoxud hozirgiga nisbatan saxiy bo‘lishing mumkinmi? Agar shunday bo‘lmasa, nima uchun? Agar shunday bo‘lsa, qanday qilib?

HARAKAT QIL: Lug‘atning har bir harfi bo‘yicha Xudoning in’omlariga oid o‘z ro‘yxatingni tuzib chiq. Sen hattoki ikkita ro‘yxat tuzishing mumkin: bittasi Xudoning barchaga beradigan saxiy in’omlari haqida, ikkinchisi Xudoning shaxsan senga bergan saxovatli in’omlari, ya’ni, do‘stlaring, qarindoshlaring ismlari, yoqtirgan qo‘shiqlaring va shunga o‘xshashlar haqida.

IBODAT: Ro‘yxatda A dan H gacha Xudoning in’omlarini ulug‘lagan holda o‘qib chiq.

22 MAY. OLIYHIMMAT KISHILAR TUHFASI

Kalomdan o‘qish: Zabur 111:5-6

Yaxshi odam saxiy, qarz beradi (Zabur 111:5).

Saxiyning biri ikki bo‘ladi, boshqalarga yaxshilik qilganning o‘zi ham yaxshilik ko‘radi (Hikmatlar 11:25).

O’GENRI keyinchalik juda mashhur bo‘lib ketgan “Oliyhimmat kishilar tuhfasi” hikoyasini yozgan. Unda bir-birlarini nihoyatda sevadigan yosh er-xotin Della va Jim haqida hikoya qilinadi.

Mavlud bayrami arafasida Jim va Dellada bir-birlariga sovg‘a qilish uchun hech narsasi yo‘q edi va sovg‘a uchun pulni qayerdan olishni ham bilmasdilar. Ularda bir dollaru sakson yetti sent qolgandi, xolos. To‘g‘ri, tag‘in ayrim narsalari ham bor edi.

Jimda bobosi va otasiga tegishli bo‘lgan qimmatbaho cho‘ntak soati saqlanardi. Dellaning esa dunyoning eng boy ayollari ham havas qilgudek ajoyib uzun qizg‘ish sochlari bor edi. Shu bois Jim va Della bir-birlariga sovg‘a sotib olish uchun bir-birlaridan yashirincha o‘zlaridagi eng qimmatbaho narsani sotishga qaror qildilar.

Della sochlarini qirqib, ularni parik tayyorlaydigan ustaxonaga sotdi. Jim ishdan qaytib kelganida Dellaning kalta sochlarini ko‘rib hayajonda qoldi. Faqat rafiqasining ko‘rkam sochlari bo‘lmagani uchungina emas, balki u xotiniga taroqlarning ajoyib to‘plamini sotib olib kelgani uchun ham yuragi larzaga tushgandi.

Della sovg‘ani ochib, jiqqa yosh ko‘zlari bilan Jimga qarab jilmaydi:

– Jim, mening sochlarim yana tezda o‘sib chiqadi! – dedi ayol.

So‘ngra u faxr bilan eriga sotib olgan sovg‘asini ochdi va Jimning qo‘liga bebaho boyligi bo‘lmish soatiga atalgan qimmatbaho platinali zanjirni uzatdi.

Jim jilmaydi:

– Kel, sovg‘alarimizni yashirib, saqlab qo‘yamiz, – dedi u. – Ular hozir biz uchun haddan ziyod hashamatli.

So‘ngra u tushuntirib o‘tdi:

– Men senga taroqlar to‘plamini sotib olish uchun soatimni sotgandim.

Jim va Della bir-birlari uchun jonlarini berishga ham tayyor edilar, ular chinakamiga saxiy edi. Vaholanki, ularning sovg‘alari aslida katta qiymatga ega emas. Biroq, saxiylik – soat zanjirlari yoki taroqlar to‘plamidan anchayin qimmat turadi: bu esa ular bir-birlarini qanday kuchli sevishlaridan dalolat beradi.

Aksariyat odamlar agar saxiy odamlar boshqalarga kamroq berganlarida, ancha boyroq bo‘lishardi, deb o‘ylashadi. Biroq bunday emas. Saxiylar ko‘p berishadi, ammo buning o‘rniga, aksariyat tarzda, berganlaridan ko‘ra qimmatliroq narsalar olishadi.

MULOHAZA QILGIN: Nima deb o‘ylaysan, O’Genri hikoyasining qahramonlari Jim va Dellaning saxiyligi ularni badavlatroq qildimi yoki yanada kambag‘alga aylantirdimi?

Sen qachonlardir o‘z saxiyligingdan afsuslanganmisan? Yoki bundan xursand bo‘lganmisan? Nima uchun “ha” va nima uchun “yo‘q”?

HARAKAT QIL: Bugun har safar soch tarayotganingda yoki soatingga qarab qo‘yganingda, saxiy bo‘lish qanday marhamat ekanligini eslagin.

IBODAT: “Rabbim, men saxiy bo‘lganimda Sen menga baxt in’om etayotganing uchun minnatdorman”.

23 MAY. SAXIYLIK MEVALARI

Kalomdan o‘qish: Rut 2:1-3, 8-18

Yaxshiliklaring uchun Egamdan qaytsin. Sen panoh istab kelgan Isroil xalqining Xudosi Egamdan senga to‘liq mukofot bo‘lsin (Rut 2:12).

QACHONLARDIR UZOQ BIR MAMLAKATDA dahshatli ochlik yuz beribdi. Odamlar ochlikdan o‘lib ketaverishibdi.

Naima ismli ayol va uning eri Elimalek ikkala o‘g‘illari bilan birgalikda, ozuqa topish osonroq bo‘lgan qo‘shni mamlakatga ko‘chib ketishga qaror qilishibdi. Mo‘ab deb nomlanadigan o‘sha yurtda o‘g‘illari mahalliy qizlar bilan tanishib, ularga uylanishibdi. Bu qizlarning ismi Rut va O‘rpa ekan. Mo‘abda Naimanning eri vafot etibdi. Oradan o‘n yil o‘tgach uning ikkala o‘g‘li ham olamdan o‘tishibdi va Naima begona yurtda erisiz va o‘g‘illarisiz qolib ketibdi. Ayol o‘z vatani Yahudoga qaytishga qaror qilibdi.

U o‘z rejasidan Rut va O‘rpani xabardor etib, shunday debdi: “Boringlar, ikkovingiz ham onalaringizning uylariga qaytinglar. Menga va marhumlarga bo‘lgan izzat hurmatingiz uchun Egam sizlarga ham marhamat qilsin (Rut 1:8). Ular uchalasi birgalikda marhumlarni eslab yig‘lashibdi va Naima kelinlari bilan xayrlashibdi. O‘rpa ota-onasining uyiga qaytishga qaror qilibdi, ammo Rut buni xohlamabdi. U Naima bilan birgalikda qaynonasining vataniga borishga qaror qilibdi.

Rut va Naima kambag‘al edilar hamda Yahudoga yetib kelganlarida hech vaqolari qolmagandi. Biroq, hosil yig‘ish mavsumi yetib kelgandi, Xudo esa ushbu mavsumda O‘z xalqiga, ehtiyojmandlar o‘roqchilar ortidan yurib, to‘kilgan boshoqlarni terib olishlariga ruxsat berishlarini amr etgandi. (Qarang: Levilar 19:9-10; 23:22). Rut Bo‘az ismli odamning dalasiga chiqib, o‘zi va Naima uchun qolib ketgan donlarni tera boshlabdi.

Bo‘az Rutga e’tibor bera boshlabdi. Odamlardan u haqda so‘rab surishtirib bilgach, Rutga o‘z qudug‘idan suv olishiga ruxsat beribdi. So‘ngra esa Bo‘az uni o‘zi va ishchilari bilan birgalikda tushlik qilishga taklif qilibdi. U xizmatkorlariga shunday debdi: “Unga ko‘proq don qoldiringlar. Uni och qo‘ymanglar”.

Rut va Naima Bo‘azning saxiyligidan qattiq ta’sirlanishibdi. Oxir-oqibat Rut va Bo‘az turmush qurishibdi. Ular baxtli hayot kechiribdilar.

Kichik bir saxiylik ham jiddiy natijalarga olib kelishi mumkin. Biz saxiy bo‘lganimizda, Xudo bizni o‘zimiz tasavvur ham etolmaydigan darajada marhamatlaydi. Bo‘azning Rutga ko‘rsatgan saxiyligi unga ayolning muhabbati va hurmatini taqdim etdi va baxtli turmushiga sabab bo‘ldi. Biroq voqea shu bilan yakunlanmaydi. Rut va Bo‘azdan tug‘ilgan o‘g‘il Isroilning ikkinchi shohi Dovudning bobosi bo‘ladi. Dovudning esa yana bir mashhur avlodi – Iso, olamning Xaloskori – bo‘lgan.

Kichik bir saxiylik nimalar qila olishi hayratga soladi, to‘g‘rimi?

MULOHAZA QILGIN: Nima deb o‘ylaysan, Bo‘az xasis bo‘lganida baxtli bo‘la olarmidi? Nima uchun “ha” va nima uchun “yo‘q”? Xudo Bo‘azni saxiyligi uchun qanday taqdirladi? Sen o‘z saxiyliging uchun marhamatlanganmisan?

HARAKAT QIL: Nima uchun o‘zingga kerak bo‘lmagan narsalarni hadya qilib, saxiylik ko‘rsatishni boshlamayapsan? (Biroq avval bu haqda ota-onangdan ruxsat so‘ragin).

IBODAT: “Rabbim, menga Bo‘azni ibrat qilib ko‘rsatganing uchun rahmat. Bo‘azni marhamatlaganing va menga ham marhamat baxsh etayotganing uchun Senga rahmat”.

24 MAY. SESILNING SIRI

Kalomdan o‘qish: Luqo 12:13-15

Ehtiyot bo‘linglar, o‘zingizni har qanday ochko‘zlikdan saqlanglar. Zero, insonning umri mol mulkining ko‘pligiga bog‘liq emas (Luqo 12:15).

TO‘QSON UCH YOSHLI Sesil Grin zinapoyalar osha ommaga ko‘rinish uchun sahnaga ko‘tarildi. U ayrim odamlar umr bo‘yi ko‘rganlaridan ziyod pul berdi. Sisil turli tashkilotlarga million dollarlab berdi, endi esa uning qilgan barcha yaxshiliklari uchun taqdirlamoqchi bo‘lib turishibdi.

U sahnaga chiqqach, o‘zini ikki yoqdan ushlab turgan odamlarning qo‘ltig‘idan chiqdi. Qariya sahna bo‘ylab dadil harakat qildi va har bir bosgan qadamida quvonch aks etardi. Nihoyat, u to‘xtab ommaga qaradi va raqsga tusha boshladi.

– Men juda baxtiyorman, – dedi u irland raqsiga o‘xshab ketadigan qisqacha raqsini tamomlab, – men bu mukofotni nihoyatda qadrlayman. Biroq nima uchun kimdir biror yoqimli ish qilgani uchun uni taqdirlash kerak ekanligiga tushunmayman! Pullarni berib yuborish juda yaxshi, men boshqalar ham buni sinab ko‘rishlarini istayman. Men o‘limimdan oldin o‘zimdagi bor narsalarni berib yuborishni istayman.

Sesil Grin, o‘z hayotining katta qismini, pul ishlab topishga sarfladi. Unga pul ishlab topish yoqardi, lekin u pullarni tarqatib bera boshlaganida, chinakam quvonchni his etdi! U qanchalik ko‘p bersa, shunchalik darajada o‘zini yaxshi his qilardi. U saxiy bo‘lish va odamlarni hayratda qoldirish bag‘oyat yoqimli ekanligini angladi. U odamlarning hayotini o‘zgartirish nihoyatda quvonchli ekanini tushundi. U pul ishlab topgandan ko‘ra ularni tarqatib yuborish yaxshiroq ekanligini anglab yetdi!

Mana nima uchun Xudo bizning saxiy bo‘lishimizni istaydi. U biz o‘zimizda Sesilning sirini ochishimizni xohlaydi. U odamlarni o‘z saxiyligimiz bilan hayratda qoldirishimiz bizga quvonch bag‘ishlashini istaydi. Biz boshqalarga nimadir berganimizda U bizning baxtiyor bo‘lishimizni xohlaydi. U bizning shuni tushunishimizni

istaydi: bizning pullarga, buyumlarga, vaqtga va qobiliyatga ega bo‘lishimiz emas, balki ana shularni berib yubora olishimiz afzalroqdir.

MULOHAZA QILGIN: Nima deb o‘ylaysan, pul odamlarni baxtli qila oladimi? Nima uchun “ha” va nima uchun “yo‘q”? Nima deb o‘ylaysan, Iso bu so‘zlarni aytganida nimani nazarda tutgan: “Insonning hayoti uning boyligi bilan o‘lchanmaydi”? Biz uchun saxiylik qay tariqa quvonch baxsh etishi mumkin?

IBODAT: “Rabbim, menga Sesilning sirini o‘rganishim uchun yordam ber. Men saxiy bo‘lish qanchalik quvonchli bo‘lishini o‘zim uchun kashf etmoqchiman, men _____ bo‘lishi uchun _____ dan boshlamoqchiman”.

25 MAY. MURAKKAB SAVOLLAR
Kalomdan o‘qish: Ishayo 40:28-31
Butun olamni U yaratgan-ku! U charchamaydi, holdan toymaydi (Ishayo 40:28).

Bir qizaloq maktabning shaxmat jamoasiga kirmoqchi bo‘libdi. Jamoa murabbiyi unga shunday debdi:

– Men senga uchta savol beraman. Agar ulardan hech bo‘lmasa, ikkitasiga to‘g‘ri javob bersang, sen jamoaga qabul qilinasan.

Birinchi savol shunday bo‘libdi:

– Ikkita quvur tozalovchi quvurlarni tozalashibdi. Ular quvurlardan chiqishganida birovining yuzi toza, ikkinchisiniki esa iflos ekan. Ulardan qaysi biri yuvinishga boradi?

Qizaloq javob beribdi:

– Yuzi iflos bo‘lgani boradi.

– Yo‘q, – debdi xotirjamlik bilan murabbiy. – Yuzi toza bo‘lgani boradi, negaki u o‘rtog‘ining yuzi iflos bo‘lganini ko‘rib, o‘zining yuzi ham shunday bo‘lgan deb o‘ylaydi.

Qizaloq umidsizlikka tushgandek ko‘rinibdi, biroq u endi gap nimada ekanligini tushunibdi.

Shunda murabbiy so‘zma-so‘z haligi savolini qaytaribdi. Qizaloq murabbiy unga ikkinchi imkoniyat berayotganini o‘ylab, shunday debdi:

– Qaysining yuzi toza bo‘lsa, o‘sha boradi.

– Yo‘q, – g‘amgin bosh chayqabdi murabbiy. – Aslida *ikkalasi* ham borishadi, negaki yuzi iflos bo‘lgani o‘rtog‘idan, agar uning yuzi toza bo‘lsa nega yuvinishga borayotganini so‘raydi va uning *o‘zi* ham yuvinishi lozimligini tushunadi.

– Men ikkita savolga noto‘g‘ri javob berib bo‘ldim, dedi qizaloq g‘amga botib. – Meni jamoaga olishmaydi, lekin uchinchi savolingiz qanaqa?

Murabbiy shunday debdi:

– Uchinchi savolni sen o‘zingga berishing kerak edi: agar ikki kishi bitta quvurga kirishgan bo‘lsa, nega faqat bittasining yuzi iflos bo‘lgan? – Murabbiy jilmayibdi. – Yaqqol ko‘rinib turgan narsani e’tiboringdan qochirma, ana shunda sen ajoyib o‘yinchi bo‘lasan. Jamoamizga xush kelibsan!

Bu sho‘rlik qizaloq murabbiy savollariga javobni eshitganida, bu savollar unga oddiydek tuyulgandi. Ezgulik va yovuzlik o‘rtasidagi tanlov ham taxminan shunga o‘xshaydi. Ortga qaraganimizda to‘g‘ri javob ayondek tuyuladi, biroq qiyin vaziyatga duch kelganimizda bu yordam bermasligini ko‘ramiz. Mana nima uchun Xudoga ishonish va Uning yo‘lidan borish juda muhim, chunki U javoblarni biladi. “U esa mening yurgan yo‘limni biladi”, deydi Ayub (Ayub 23:10). Xudo, qaysi qaror to‘g‘ri, qaysi biri esa noto‘g‘ri ekanligini va qaysi yo‘ldan borish biz uchun afzal ekanligini biladi. U bizlardan ko‘ra ko‘proq biladi, mana shu bois, biz Xudoning amrlarini bajarganimizda, donolarcha yo‘l tutgan bo‘lamiz.

MULOHAZA QILGIN: Masihiy faylasufi Frensis Sheffer bir vaqtlar shunday degandi: “Men o‘zim bilganimdan ko‘ra, Xudoning donoligiga ko‘proq ishonaman”. Sen uning gaplariga qo‘shilasanmi? Nima uchun “ha” va nima uchun “yo‘q”?

HARAKAT QIL: Yuqorida qayd etilgan uchta savolni do‘sting yoki qarindoshingga berib ko‘rgin. Ular bilan to‘g‘ri javobni o‘rtoqlashayotganingda Xudoning donoliga amal qilish qanchalik muhim ekanligi haqida so‘zlab ber.

IBODAT: “Xudoyim, Sening donoligingga tayanishim va Sening amrlaringni bajarishim uchun yordam bergin”.

26 MAY. KARTOCHKADAGI SIYMO
Kalomdan o‘qish: Ibtido 1:26-28
Xudo O‘zi yaratgan hamma narsaga nazar soldi. Bular juda ajoyib edi (Ibtido 1:31).

SEN O‘Z ISHLARING BILAN Nyu-York ko‘chalari bo‘ylab ketib borayapsan, shunda seni kimdir sekingina chaqirib qoladi. Sen to‘xtab, atrofingga o‘girilasan. Qora ko‘zoynak taqqan bir ozg‘in odam bino burchagidan barmog‘i bilan seni imlab chaqiradi.

– Yaxshi yigit, bu yoqqa keling! – deydi u atrofiga alanglab. – Hayotingizda ajoyib muvaffaqiyatni qo‘lga kiritishni istaysizmi?

Sen burilib ketmoqchi bo‘lasan, haligi odam esa pidjagini ochib yuboradi, uning tagida esa... bir uyum beysbol kartochkalari.

– Menda Uolt Zambriski tasviri tushirilgan 1953 yilgi kartochka bor, o‘n uch sentga beraman.

Sen boshingni chayqab kartochkalar sotuvchisini aylanib o‘tmoqchi bo‘lasan.

– Mayli, mayli, – deydi u seni qo‘yib yubormay. – Men buning bahosini bilishingizni ko‘rib turibman, – u pidjagini ochib boshqa kartochkani ko‘rsatadi. – Bu yaxshi saqlangan kartochkada Bruno Gundershmuts tasviri bor, yetmish besh sent turadi, – u ko‘zini qisib qo‘yadi.

Sen tag‘in ketmoqchi bo‘lasan, lekin u seni ikkala qo‘llari bilan ushlab oladi:

– Bu faqat kartochkalarni yaxshi biladiganlar uchun, – deydi u. – Sizga haqiqatdan ham arziydigan narsa kerakmi? – U atrofiga qarab oladi. – Bu maxsus taklif. Miki Mantl. Ming dollar.

Ming dollar? Qandaydir kartochka uchunmi? Ha, bu shunday. Ayrim kartochkalar bundan ham qimmat turadi. Sport kartochkalari yaxshigina mablag‘ yig‘malariga aylandi.

Biroq nima uchun Miki Mant tasviri tushirilgan kartochka ming dollar turadiyu Bruno Gundershmuts tasviri tushirilgan kartochka esa bor-yo‘g‘i yetmish besh sent? Vaholanki, ular mutlaqo bir xil muhr bosilgan qog‘ozdan tayyorlangan. Farqi nimada? Faqat bir narsada: kartochkadagi tasvirda. Miki Mantl – Beyb Rutning rekordini ortda qoldirgan va beysbol shon-shavkat Zalida nomi abadiylashtirilgan Nyu-York Yankiz jamoasining o‘yinchisi. Kartochkaning bahosi tayyorlangan material tufayli emas, balki undagi tasvir bois qiymatga ega.

Inson hayoti haqida ham xuddi shunday gaplarni aytish mumkin. Inson hayoti har bir odamda mavjud bo‘ladigan siymo tufayli qadrga ega. Har bir odam bo‘yi va yoshi qanchada bo‘lmasin, Xudoning siymosida yaratilgani uchun bebaho qiymatga ega. Bu senga ham taalluqli. Bu sening do‘stlaringga va qarindoshlaringga ham tegishli. Bu sen hech qachon uchratmagan va hattoki sen yoqtirmaydigan odamlarga ham taalluqli. Ularning hayoti qiymatga ega, negaki ular Xudoning siymosida yaratilganlar.

MULOHAZA QILGIN: Sening harakatlaring hayoting bebaho ekanligiga ishonchingni aks ettiradimi? Agar shunday bo‘lsa, qay tarzda? Shunday bo‘lmasa, nima uchun? Sening harakatlaring boshqa odamlarning hayoti bebaho ekanligiga ishonchingni aks ettiradimi? Agar shunday bo‘lsa, qay tariqa? Mabodo shunday bo‘lmasa, nima uchun?

IBODAT: “Rabbim, barcha odamlar Sening siymong bo‘yicha yaratilganlari va qadrli bo‘lganlari uchun Senga rahmat”.

27 MAY. SENING DASTLABKI TO‘QQIZ OYING

Kalomdan o‘qish: Zabur 138:13-16

Ko‘zlaring ko‘rgandi homila ekanimni. Menga ajratilgan kunlar kelmasdan, hammasi kitobga yozilgandi (Zabur 138:16).

Mana, ehtimol sen bilmaydigan ayrim dalillar:

- Ilk lahzadayoq – dastlabki nanosekundda – hayotingda o‘g‘il yoki qiz bola bo‘lishing belgilangan.
- Hayotingning birinchi soatida ko‘zlaring rangi, sochlaring rangi va boshqa xususiyatlaring belgilangan.
- Sening yuraging ilk marotaba ura boshlaganida, shunchalik mitti eding-ki, onang yoki otangning tirnog‘iga sig‘adigan darajada bo‘lgansan va hattoki bunda joy ham ortib qolgan bo‘lardi.
- Onang o‘zida sening borligingni hali bilmasdan avval, sen uning qornida eshitib, u yondan bu yonga ag‘darila olgansan.
- Tug‘ilishingga yetti oy qolganida oyoq-qo‘llaringdagi tirnoqlaring xuddi tug‘ilish paytidagidek bo‘lgan, garchi shunda sen bor-yo‘g‘i besh santimetr bo‘lsang-da.
- Hayotingning to‘rtinchi oyida (tug‘ilguningga qadar) sochlaring o‘sishni boshlagan va sen katta barmog‘ingni so‘ra oladigan bo‘lgansan!
- Tug‘ilishingdan uch yoki to‘rt oy avval sen ilk marotaba onang ovozini eshitib, oyoqchalaring bilan tepina boshlagansan!
- Tug‘ilishingga ikki oy qolganida sen uxlab, uyg‘ona olgansan va o‘zingdagi besh sezgining to‘rttasidan foydalanishing mumkin bo‘lgan: ko‘rish, eshitish, ta’m bilish va his etish – bularning hammasi tug‘ilishingga qadar hosil bo‘lgan.

Bilasanmi, yana nima? Bularning hammasi vujudga kelgunicha Xudo seni kuzatib turgan. U seni kunma-kun yaratgan. Muqaddas Kitobda Xudo seni ona qornida shakllantirgani haqida aytiladi. U seni onang o‘z homiladorligini bilmasidan avval sevgan. U sening bo‘ying va ko‘zlaring rangi qanday bo‘lishini, otangning burni va onang yonog‘i senda aks etishi mumkinligini bilgan. U hayotingning birinchi lahzalaridan boshlab nimalar bo‘lishini to‘liq bilgan.

Sen mavjud bo‘lganingning birinchi kunidan boshlab Xudo uchun bebaho qiymatga egasan, negaki Xudo ijodining eng yaxshisi bo‘lgan tirik insonsan.

MULOHAZA QILGIN: Bugungi o‘qishimizda odam – “Xudo ijodining eng yaxshisi” deb atalgan. Nima deb o‘ylaysan, biz buni qayoqdan bilamiz? Agar bunga shubhalansang, Ibtido kitobining 1-bobini

ochib, Xudo yaratilishning turli jarayonlari haqida aytganlarini o‘qib chiq. “Xudo ijodining eng yaxshisi” ekanligini o‘zingda qanday his qilayapsan?

HARAKAT QIL: Senda go‘daklik paytingda tushgan suratlaring bormi? Agar bor bo‘lsa, eng sevimli suratingni Muqaddas Kitobga – Zaburning 138-sanosi orasiga xatcho‘p kabi qo‘ygin. Agar bo‘lmasa, ota-onangdan so‘ra – ularda borligi aniq!

IBODAT: Zabur kitobining 138:14 bilan ibodat qilgin: “Senga shukrona aytaman. Axir, qanday ajoyib qilib yaratilganman! Sening barcha ishlaring naqadar ajoyib – buni men juda yaxshi bilaman”.

28 MAY. KINODAGI ZO‘RAVONLIK

Kalomdan o‘qish: Ibtido 9:1, 5-6

Insonning jonini olgan insondan Men xun talab qilaman... Kimki inson qonini to‘ksa, Uning qonini ham inson to‘kar. Zero, inson zotini Men, Xudo, Yaratganman O‘z suratimda (Ibtido 9:5-6).

IKKITA TURLICHA FILM. Bir-biriga o‘xshash munosabatlar.

“Shindler ro‘yxati” filmi – Ikkinchi jahon urushi davrida bir nemisning konslagerdan odamlarni qay tariqa ozod qilishga uringani haqidagi tarixdan iborat. Filmda konslager boshlig‘i ayvonda miltiq bilan sayr qilishi tasvirlangan lavha bor. U sigareta chekib majburiy mehnatga jalb qilingan mahbuslarni kuzatadi. So‘ngra esa miltig‘ini ko‘tarib, oyoq kiyimi bog‘ichlarini bog‘lash uchun enkaygan ayolni nishonga oladi. U tepkini bosib ayolni otib o‘ldiradi. Boshqa mahkumlar navbatdagi qurbon bo‘lishlaridan qo‘rqib, tezroq ishlay boshlashadi, boshliq esa xuddi otish maydonida bo‘lgandek o‘zini his qilib, zavqlanadi. Ushbu film maktabda ko‘rsatilganida, yuqori sinf o‘quvchilari ana shu lavhani ko‘rib, kulishni boshlashdi.

Mutlaqo boshqa bir shaharning kinoteatrida esa “Romeo va Juletta”ning yangicha talqinini ko‘rsatishdi. Navnihol Julettani sevib qolgan Romeo amakivachchasi Tibalt uning do‘stlaridan birini o‘ldirganini ko‘rib qoladi. G‘azablangan Romeo Tibaltni kuzata boshlaydi va – uning o‘zi (hamda tomoshabinlar) bunday yo‘l tutish Juletta bilan o‘rtalaridagi sevgini barbod qilishini bilsada, – do‘stining qotiliga o‘q uzadi. Bu fojeali ahvol ro‘y berganida, zaldagi besh yoki oltita o‘smir Romeoning ishini ma’qullab, qarsak chalay boshladilar.

Xo‘sh, sen o‘sha yerda bo‘lganingda, bunga qanday munosabat bildirgan bo‘larding? Kularmiding? Xursand bo‘larmiding? Aslida bunday sahnalar dilda og‘riq va ko‘z yoshlariga sabab bo‘lishi kerak. Ular fojeaviy, negaki ularda Xudoning eng bebaho in’omi – inson hayotining boy berilishi tasvirlangan.

Yoshlar qanday sababga ko‘ra o‘zlarini bunday tutishmasin, bir narsa aniq. Ayrim odamlar har kuni ekran orqali o‘lim va zo‘ravonliklarni ko‘rib, bunga go‘yo ko‘ngilxushlik kabi qaray boshlaydilar.

Biroq, har bir hayot bebaho: Alsgeymer xastaligi bilan og‘rigan qariyaning hayoti xushsurat kinoyulduzning hayotidan kamroq qiymat kasb etmaydi: mahkumning hayoti bolalar bog‘chasidagi quvnoq go‘dakning hayotidan ko‘ra qadrsizroq emas: hali tug‘ilmagan go‘dakning hayoti – endi dunyoga kelgan chaqaloqning hayotidan kamroq baholanmaydi. Xudo inson hayotini “yaxshi” deb aytgan, U bizga hayotni qadrlashni, asrashni va hurmat qilishimizni amr etgan.

MULOHAZA QILGIN: Sen “Shindler ro‘yxati” va “Romeo va Juletta” filmlaridagi lavhalarga nisbatan o‘sha bolalarning munosabati haqida qanday fikrdasan? Nega shunday deb o‘ylayapsan? Inson hayotiga bo‘lgan hurmatingni qanday namoyon etayapsan? Bu hurmatni ko‘rsatish uchun nimalar qilayapsan?

IBODAT: “Rabbim, hayotga va o‘limga xuddi Sen kabi munosabatda bo‘lishim uchun yordam ber, ayniqsa _____”.

29 MAY. XO‘SH, ENDICHI?

Kalomdan o‘qish: Ibtido 2:4-7

Shundan keyin Parvardigor Egamiz yerning tuprog‘idan odamni yasadi va uning burun teshigidan puflab jon ato etdi. Shunday qilib, odam tirik jon bo‘ldi (Ibtido 2:7).

Ikkita farishta samoda oyoqlarini osiltirib, yaratilish qanday kechayotganini kuzatib o‘tirishardi.

Ular Xudo kun va tunni qanday yaratganini ko‘rishdi.

– Ajoyib, – dedi birinchi farishta. – Menga mushakbozliklar yoqadi.

Ular Xudo bulut va ummonlar hosil qilib, suvni qanday ajratganini ko‘rishdi.

– O-ho! – dedi birinchi farishta.

– Uh! – dedi ikkinchi farishta.

So‘ngra esa Xudo ummonlardan quruqlikni qanday hosil qilganini tomosha qilishdi. Shundan so‘ng zamin o‘simliklar, gullar, ustunlar, butalar va banan daraxtlari bilan qoplandi. So‘ngra esa Xudo quyosh va oyni o‘z joyiga o‘rnatib, osmonni yulduzlar bilan qopladi. Farishtalar qarsak chalishib, xursand bo‘lishdi.

Samoning mo’jizalar namoyishi tugabdi va Xudoning momoqaldiroqdek ovozi gumburlabdi. Zamin shu zahotiyoq jonli mavjudotlarga to‘lib ketibdi: g‘ozlar uchishibdi, baliqlar suzishibdi, otlar yugurishibdi, maymunlar daraxtlarga osilib chiqishibdi, asalarilar g‘izillabdi.

Shundan keyin Xudoning ovozi yana yangrabdi va ikkinchi farishta birinchisiga nimanidir ko‘rsatibdi. Birinchi farishta u ko‘rsatgan tarafga qarabdi. O‘sha joyda, ajoyib bog‘da Xudo tuproqdan odamni yasabdi.

Ikkinchi farishta to‘satdan o‘rnidan turib ketibdi:

– Sen buni ko‘rdingmi?

– Nimani? – deb so‘rabdi birinchi farishta. – Men nimani ko‘rishim kerak edi?

– U... U tuproqqa hayot ato etdi! U yangi ijodiga hayot nafasini berdi! U odamga O‘zining hayotini, O‘z Ruhini ato etdi!

Farishtalar bir-birlariga hayratdan ko‘zlarini katta ochib, qarab qolishibdi. Birinchi farishta chuqur nafas olibdi.

– Ajoyib! – deyishibdi ular jo‘r bo‘lib.

Bu bag‘oyat hayratomuz edi. Xudo odamga olamdagi boshqa hech kimga bermagan shunday bir narsani berdi. U bizni O‘z siymosiga ko‘ra yaratdi va har birimizga O‘ziga xos ruh bag‘ishladi. Mana nima uchun Xudo hayotni qadrlaydi: negaki U – yer yuzidagi har bir odam hayotining manbaidir. Xudo sening hayotingni va har bir odamning hayotini qadrlaydi, demak, biz ham hayotni qadrlashimiz va hurmat qilishimiz lozim.

MULOHAZA QILGIN: Nima deb o‘ylaysan, odamlar Xudoning boshqa ijodidan farq qilishadimi? Agar shunday bo‘lsa, qaysi jihati bilan? Agar shunday bo‘lmasa, nima uchun? Nima deb o‘ylaysan, odam boshqalarning hayotini va hattoki o‘z hayotini qadrlamaganida Xudo nimani his etadi?

HARAKAT QIL: Sen bugun uchratadigan har bir kishida qandaydir o‘ziga xoslik borligini ko‘rishga harakat qil. Hammaga hurmat bilan munosabat ko‘rsatishga urin.

IBODAT: “Rabbim, O‘z hayoting orqali bizga jon ato etganing uchun Senga rahmat”.

30 MAY. HAYOT – MO’JIZA

Kalomdan o‘qish: Matto 10:28-31

Ikkita chumchuq bir tangaga sotiladi, shunday emasmi? Biroq bularning birortasi ham osmondagi Otangizning xohishisiz yerga tushmaydi. Sizlarning esa hatto boshingizdagi har bir tola sochingiz sanalgan. Shuning uchun qo‘rqmanglar, sizlar ko‘plab chumchuqlardan qadrliroqsizlar (Matto 10:29-31).

MEN TELEVIZOR ORQALI bir voqea haqida ko‘rsatuvni tomosha qilgandim, unda kechasi katta yo‘lda radio eshitib ketayotgan yuk mashinasining haydovchisi haqida so‘z yuritilgandi.

To‘satdan ratsiya orqali yordam so‘rab, iltijo qilayotgan ovoz eshitilibdi.

– Yordam beringlar! – derdi kimdir. – Men katta yo‘ldan shimoldagi qayrilma yo‘lda avtohalokatga uchradim. Birortangiz yordam beringlar, iltimos!

Yuk mashinasi haydovchisi katta yo‘ldan burilib avtohalokatga uchragan kishini axtarishga tushibdi. U buning uchun belgilangan manziliga kechikib borishini tushunib turardi. U qing‘ir-qiyshiq yo‘llardan sekin haydab borayotib, yo‘l chetidagi ariqda yorug‘likni payqadi. U avtohalokat joyiga shoshildi. Atrofda hech kim yo‘q edi: u birinchi bo‘lib yetib kelgandi. Mashinadagi erkakning ahvoli yomon edi, u butunlay qonga botgandi. Haydovchi jarohatlangan kishi yordam so‘ragan ratsiyani mashinadan izlab ko‘rdi. Ammo topolmadi.

Haydovchi o‘zining yuk mashinasiga qaytib, tez yordam mashinasini chaqirdi va tibbiyot xodimlari tezda yetib kelishdi. Jabrlangan kishini yaqin atrofdagi kasalxonaga olib borishdi va yordam ko‘rsatgan haydovchiga uning tuzalib ketishini aytishdi.

Yuk mashinasining haydovchisi katta yo‘lga qaytdi. U yordam berishga jazm etganidan xursand edi, zero, yordam so‘rab qilingan iltimosga befarq bo‘lganida avtohalokatga uchragan kishi vafot etishi mumkinligini tushunardi. Shuningdek, jabrlangan kishining mashinasida ratsiyaning yo‘qligi uning boshini qotirgandi. “U qanday qilib yordamga chaqirdi?” – deb o‘ylardi haydovchi. U bu holatni tushuna olmasdi, ammo hech qachon esidan chiqarmasligini ham bilardi.

Oradan ko‘p yillar o‘tgach, yuk mashinasining haydovchisi do‘stlari bilan baliq oviga jo‘nadi. To‘satdan unda yurak xuruji boshlandi. Tanishlaridan biri shu yaqin atrofda otasining do‘sti bo‘lgan bir shifokor yashashini aytdi. Ular kasalni ana shu shifokorga olib borishdi. Shifokorning yordami bilan haydovchi tezda hushiga keldi. Va o‘zi ancha yillar avval hayotini asrab qolgan kishini ko‘rdi. O‘shanda bir notanish odamni qutqarish uchun katta yo‘ldan burilgan haydovchi shu tariqa o‘zini qutqarib qoldi.

MULOHAZA QILGIN: Sen kimningdir hayotini qutqarib qolganmisan? Shunga o‘xshash holat yuz bergan kimdir bilan tanishmisan? Nima uchun odamlarni qutqarish yaxshi? Boshqa odamlar sen uchun qaysi taraflama foydali? Boshqa odamlarga sendan qanday foyda?

IBODAT: “Rabbim, men haqimda g‘amxo‘rlik qilayotganing uchun rahmat. Boshqa odamlarga xuddi Sen kabi qarashim va ularni Sen kabi qadrlashim uchun yordam ber. Shuningdek, atrofimdagi odamlar tufayli hayotim qanchalik yaxshi bo‘lishini tushunishim uchun yordam ber”.

31 MAY. KVAY DARYOSI BO‘YIDAGI MO’JIZA

Kalomdan o‘qish: Yuhanno 15:9-13

Kim o‘z jonini do‘stlari uchun fido qilsa, bundan ortiq sevgi yo‘q (Yuhanno 15:13).

YAPON ASKARI tund qiyofadagi asirlar guruhiga qarab, qo‘llarini silkitgancha qichqira boshladi.

Amerikalik harbiy asirlar Birmadagi mudhish temir yo‘l qurilishida ishlayotganlarida, bir yapon soqchisi bitta belkurak yetishmayotganini aytib, baqirishga tushdi. Askar kim belkurakni o‘g‘irlagan yoki yashirib qo‘ygan bo‘lsa, qilmishiga iqror bo‘lishini talab qildi.

“Kvay daryosi bo‘yidagi mo’jiza” kitobining muallifi Ernst Gordon shunday hikoya qiladi: “U g‘azabdan tutaqib, aybdor safdan oldinga chiqishini aytib baqirdi. Hech kim qimir etmadi. “Bu holda hamma o‘ladi! Hamma o‘ladi!” – dedi u qurolini asirlarga o‘qtab. Shunda bir kishi oldinga chiqdi va soqchi uni miltig‘ining qo‘ndog‘i bilan o‘lib qolgunicha urdi. Barcha lagerga qaytganida esa, belkuraklarni yana qayta sanab ko‘rishdi va ma’lum bo‘ldiki, belkuraklarning hammasi joyida ekan”.

Noma’lum askar o‘rtoqlarining hayoti uchun o‘zini qurbon qildi. Ko‘plab askarlar – askar bo‘lmaganlar ham – shunday yo‘l tutishgan. Aytadilarki, bu “qurbonlikning eng buyugidir”. Har qanday odam ham buning olijanoblik va yaxshi ekanini biladi. Nega? Negaki insonda o‘z hayotidan ortiq qimmatliroq narsa yo‘q. Iso bunday qurbonlik haqida shunday degan (shuningdek, O‘zining bo‘lg‘usi o‘limi haqida ham): “Kim o‘z jonini do‘stlari uchun fido qilsa, bundan ortiq sevgi yo‘q” (Yuhanno 15:13).

Mana nima uchun biz jafokash-masihiylarni, Stefandan (Havoriylar 7) boshlab toki hozirda ham Masihni xatarli joylarda targ‘ib qilayotib, halok bo‘layotgan Xudo xizmatchilari xotirasini ulug‘laymiz. Mana nima sababdan biz vatani uchun jonini fido qilgan jangchilar xotirasiga hurmat bajo keltiramiz. Mana nima uchun biz, qashshoq va aqlan zaif odamlar xizmatiga o‘z hayotini bag‘ishlagan Ona Tereza va Genri Nouen kabi insonlarni izzatlaymiz.

Hayot – Xudoning eng qimmatli in’omidir, insonlar hayotiga bo‘lgan hurmat esa – bu o‘z hayotini boshqalar uchun ilojsizlikdan yoki o‘z istagi bilan bag‘ishlab, halok bo‘lgan (Birmadagi noma’lum askar singari) yoki ular uchun yashagan (Ona Tereza kabi) insonlarga ham ko‘rsatilgan hurmatdir.

MULOHAZA QILGIN: Nima deb o‘ylaysan, o‘z hayotini boshqalar uchun bag‘ishlash yaxshimi yoki yomon, bu olijanoblikmi yoki o‘zini pastga urishmi? Nega? Sen boshqalar uchun o‘z jonini bergan kimnidir bilasanmi? Sen uni hurmat qilasanmi?

IBODAT: “Iso, menga hayot berganing uchun Senga rahmat. Men hozir yashayotganimdek hayot kechirishim uchun o‘zlarini qurbon qilgan barcha jangchilar va jafokashlar uchun Senga rahmat. Ularning qurbonligini qadrlashim va _____ xotirasini ulug‘lashim uchun menga yordam ber”.

1 IYUN. BU ASLO YOLG‘ON EMAS

Kalomdan o‘qish: Hizqiyol 18:21-23, 30-32

Men uning yomon yo‘ldan qaytishini va yashashini istayman (Hizqiyol 18:23).

YAKSHANBADA, futbol bo‘yicha chempionat finali o‘tkaziladigan kunda, ikkita yigit eshiging qo‘ng‘irog‘ini jiringlatishadi. Ularning ortida bir kishi telekamera ko‘tarib turibdi. Yigitlar televideniyedan ekanliklarini va sening lotereyada yutib olganingni aytishadi.

– Tabriklaymiz! – deydi ulardan biri. – Siz o‘n bir million dollar yutib oldingiz!

– Ha albatta, mening onam esa – Buyuk Britaniyaning qirolichasi, axir, – deb javob berasan.

Yigitlar sho‘xchan kulib qo‘yishadi. Ular qayerdandir uying eshigi hajmiga to‘g‘ri keladigan karton chek chiqarishib, uni senga topshirishga urinishadi.

– Mana sizning g‘oliblik mukofotingiz!

Sen boshingni chayqab, eshikni yopishga intilasan.

– Menga qaranglar, – deysan, – men dars tayyorlashim kerak. Hazillashdinglar, bo‘pti, endi ketaveringlar.

Yigitlar ichkariga kirishingga yo‘l berishmaydi:

– Biz hazillashmayapmiz, bu haqiqat! – deb uqtirishadi ular. – Siz chindan ham o‘n bir million dollar yutib oldingiz!

– Vaqtimni shuncha olganlaring yetar, bas! – deysan sen. – Ketinglar, aks holda men militsiya chaqiraman!

Va eshikni ichkaridan yopib olasan.

Albatta, aslida sen o‘zingni bunchalik qo‘pol tutmagan bo‘larding. Hech bo‘lmasa, karton chekni pulga almashtirib olishga urinib ko‘rarding. Balki, yigitlarga shubha bilan qarashing mumkin, ammo imkoniyatdan foydalanishing turgan gap edi. To‘g‘rimi?

Vaholanki, biz kunma-kun o‘zimizni shunday tutamiz. Albatta, har kuni ham kimdir biz nimanidir yutganimizni aytib, oldimizga kelishmaydi. Biroq Xudo keladi. Xudo misoli ushbu voqeadagi ikki yigitga o‘xshab, bizning hayotimizni yaxshilash va kelajagimizni ta’minlash uchun keladi. U bizni sevishini va bizga yaxshilik qilmoqchi ekanini qayta-qayta aytadi. U takror va takror bizdan O‘ziga ishonishimizni so‘raydi, bizga yomonlik qilishni istamasligini, Unga ishonch bizning foydamiz uchun ekanini uqtirishga urinadi.

Biz esa aksariyat hollarda Uning qarshisida eshigimizni yopamiz. Biz go‘yo Xudo barcha huzur-halovatimizni buzishga urinayotgandek tutamiz. Biz o‘zimizni go‘yo U bizni aldayotgandek, Uning takliflarida qandaydir firib bordek tutamiz. Biz Xudo go‘yo bizga zarar yetkazishga urinayotgandek noo‘rin harakatlar qilamiz. Biroq bu haqiqat emas. Xudo bizning hayotimizni xarob qilishni istamaydi U hayotimiz yaxshi, yoqimli va foydali bo‘lishini xohlaydi. U bizni gunoh boshlab borayotgan umidsizlikdan, vayronagarchiliklardan va o‘limdan qutqarishni istaydi. “Men o‘lishingizni istamayman, – deydi U. – Men sizni yashashingiz uchun noto‘g‘ri yo‘llardan qaytarishni xohlayman”.

MULOHAZA QILGIN: Xudo seni sevishiga ishonishing qiyinmi? Uning amrlaridan qaysi birini bajarish foydali? Senga noto‘g‘ri qaror qay tariqa zarar yetkazishi mumkin? Agar sen haqiqatdan ham Xudoni sevsang, bu sening harakatlaringga qanday ta’sir qiladi?

IBODAT: “Rabbim, to‘g‘ri qaror qabul qilishim uchun va bu kunni lozim bo‘lganidek o‘tkazishim uchun yordam ber”.

2 IYUN. SENING TO‘YING KUNI

Kalomdan o‘qish: Ibtido 2:18-23

Parvardigor Egamiz odamning qovurg‘asidan xotin kishini yaratdi va uni odamning oldiga olib keldi (Ibtido 2:22).

SENING YOSHING NECHADA? Yoshingni mana bu yerga yozgin: _____”.

Sening to‘liq isming? Uni bu yerga yozgin: _____”.

Eng yaqin do‘stingning ismi? Uning ismini bu yerga yozgin: _____”.

Ering yoki xotiningni ismi: Uni bu yerga yozgin: _____”

Nima? Hali oila qurmaganmisan? Mayli, mayli, u holda boshqa savol: Sening ering yoki xotining kim *bo‘ladi*? Uning ismini bu yerga yozgin: _____”

Nima? Sen hali ering yoki xotining kim bo‘lishini bilmaysanmi? Balki, sen toki yuz yoshga to‘lmagunicha umuman oila qurmassan?

Mayli, mayli. Sen oilali emassan. Ehtimol, hech qachon turmush ham qurmassan. Hattoki uylansang ham, bo‘lajak xotining ismini hozircha bilmaysan.

Xudo esa biladi. Bu haqiqat. Xudo barcha savollarga javobni biladi. U yoshing nechada ekanligini biladi. U sening to‘liq ismingni biladi. U sening eng yaxshi do‘sting kim ekanligini biladi. U hatto sen hozir yoki qachondir oila qurishingni ham biladi. U buning qachon sodir bo‘lishini biladi. U kimga uylanishingni ham biladi.

Bu qoyilmaqom, to‘g‘rimi? Xudo sening bo‘lajak ering yoki xotining kim ekanligini biladi. U o‘sha inson bugun ertalab nonushtaga nima yeganini va *sening* ham nima bilan nonushta qilganingni biladi (nima, tag‘in sovugan ovqat yedingmi?). Sen, ehtimol, bo‘lajak ering yoki xotiningni bilmassan, o‘g‘il bolalar yoki qizlar

hozircha seni qiziqtirmayotgandir, hali uylanish haqida o‘ylamayotgandirsan. Biroq Xudo, sen bir kun kelib yaxshi er yoki yaxshi xotin bo‘lishingni istaydi. U to‘g‘ri qarorlar qabul qilishga o‘rganishingni istaydi, negaki bu senga yaxshi er yoki yaxshi xotin bo‘lib yetishingga yordam beradi. Xudo shoshilmaydi. Uning shoshiladigan joyi yo‘q. U sening to‘yinggacha qancha vaqt qolganini aniq biladi.

MULOHAZA QILGIN:

Quyidagilardan qaysi biri sen haqingda bo‘lishi mumkin?

- □ **Menda hali qarshi jins vakillariga qiziqish uyg‘ongani yo‘q.**
- □ **Men oila qurmoqchi emasman (hech qachon).**
- □ **O‘ylashimcha, qachonlardir uylanaman.**
- □ **Men qachon turmush qurishimni bilmayman.**
- □ **Men kim bilan turmush qurishimni bilmayman.**
- □ **Xudo mening turmush o‘rtog‘im kim bo‘lishini biladi.**
- □ **Xudo sening turmush o‘rtog‘ing kim bo‘lishini biladi.**

Sen bunga aloqador nimani his qilyapsan?

- □ **Men qo‘rqayapman.**
- □ **Meni hayajon bosyapti.**
- □ **Bu ajoyib.**
- □ **Xotirjamlik.**

IBODAT: Xudodan kelajakda turmush o‘rtog‘ing bo‘ladigan inson uchun marhamatlashini va himoya qilishini so‘ra. Undan sen yaxshi turmush o‘rtog‘i bo‘lishing uchun yordam so‘ragin”.

3 IYUN. RADDIYANING QANDAY YAXSHI JIHATLARI BOR

Kalomdan o‘qish: Yuhanno 10:7-10

Men esa ularga hayot, farovon hayot berish uchun kelganman (Yuhanno 10:10).

SENING NAZARINGDA, ota-onang juda ko‘p hollarda senga “yo‘q” deyishadimi?

“Oyi, Kostyalarning uyida tunab qolsam bo‘ladimi?

“Dada, “Ming o‘liklar uyi”ni tomosha qilishim mumkinmi?

“Mavlud bayramida kompyuter sotib olsam bo‘ladimi?”

“Buvimning oldiga bormasdan uyda qolsam bo‘ladimi?”

“Singlimni lo‘lilarga sotib yuborishim mumkinmi?”

“Tomning ustidan pastga sakrasam bo‘ladimi?”

Sening *nazaringda*, ota-onang hamisha *“yo‘q”* deyishadi! Sening *nazaringda*, sen ulardan faqat shunday gaplarni eshitasan: “Bunday qilma”, “Bu mumkin emas!” Xudo ham o‘zini shunday tutayotgandek tuyuladi: buni qilma, uni qilmagin. Ular senga barcha narsani ta’qiqlashadi!

Vaholanki “yo‘q” bag‘oyat ijobiy so‘z bo‘lishi mumkin. U senga salbiy bo‘lib tuyulsada, aslida ijobiy bo‘lishi mumkin. Senga nimanidir ta’qiqlaganlarida, bu senga foydali bo‘lishi mumkin.

Misol uchun, do‘stlaring seni tunda uyingdan deraza orqali chiqib, ular bilan birgalikda devorga yomon so‘zlarni yozishga undashlari mumkin. Sen esa ularga “ yo‘q” deysan. Sening do‘stlaringni ushlab olishadi va ular butun dam olish kunlari bu so‘zlarni devordan qirib, o‘chirishga majbur bo‘lishadi. “Yo‘q” deganing uchun bundan senga yomon bo‘ldimi? Senga yaxshi bo‘ldi, negaki oxir-oqibat “yo‘q” deb aytish “ha” deb aytishdan ko‘ra ancha afzal bo‘lib chiqdi.

Yoki boshqa bir vaziyatni tasavvur qilib ko‘r. Akang sendan ota-onangga kecha uyda bo‘lganligini aytishingni iltimos qiladi, bu vaqtda esa u og‘aynilari bilan pivo ichib yurgandi. Akang sendan jahli chiqishini istamaysan, biroq unga “yo‘q” deysan va ota-onang so‘rashganlarida haqiqatni so‘zlab berasan. Akang endi ota-onang uni og‘aynilari bilan aylanib kelishga boshqa ruxsat bermasliklari uchun xafa bo‘ladi. Ammo bir haftadan so‘ng, akangni og‘aynilari boshqa bir joydagi pivoxo‘rlikdan uyga qaytayotganlarida avtohalokatga uchrashadi va sen agar haqiqatni aytmaganingda akang jarohat olishi va hatto halok bo‘lishi mumkinligini tushunasan. Sen “yo‘q” deb aytib yomon ish qildingmi? Sen yaxshi yo‘l tutding, negaki eng so‘ngida natija ijobiy bo‘lib chiqdi.

“Yo‘q” deb aytish yomondek tuyuladi. Ba’zan sendan so‘rayotganlarini bajarishni juda xohlaysan. Lekin iltimos oqilona bo‘lmasa, “ha” degandan ko‘ra, “yo‘q” deyish afzalroqdir.

MULOHAZA QILGIN: Sening nazaringda, ota-onang hamisha “yo‘q” deyishadimi? So‘nggi paytlarda sendan biror bir noo‘rin masalada iltimos qilganlarida, “yo‘q” deb aytishingga to‘g‘ri kelganmi? Sening hayoting bundan yaxshi tomonga o‘zgardimi yoki yomon tomonga? Nima uchun? Keyingi safar ota-onang senga nimanidir ta’qiqlashsa, bu sening foydang uchun ekanligi haqida mulohaza qilgin.

IBODAT: “Rabbim, men “yo‘q” so‘zini eshitganimda Sening donoligingga va ota-onamning donoligiga ishonishim uchun yordam ber”.

4 IYUN. MODESTO, KALIFORNIYA

Kalomdan o‘qish: Hikmatlar 27:1-2

Ertangi kun bilan maqtanma, uning nima olib kelishini bilmaysan-ku! Seni o‘zing emas, boshqalar, o‘z og‘zing bilan emas, o‘zgalar maqtasin (Hikmatlar 27:1-2).

EHTIMOL, SEN HECH QACHON Uilyam Relston haqida eshitmagandirsan, ammo u nihoyatda nufuzli odam bo‘lgan. U Kaliforniyada XIX asrda yashab o‘tgan. U shunchalik ko‘p pul ishlab topganki, bir balandlikdagi villani sotib olib, uni yirik va ko‘rkam joyga aylantirgan. Kaliforniya shtati, San-Fransisko yaqinida joylashgan bu hudud hozir kunda Belmontdagi Notr-Dam kolleji hisoblanadi.

Relston temir yo‘l qurilishi bilan shug‘ullangan va yangi yo‘llar bo‘ylab quriladigan, misol uchun, San-Fransisko va Nevadadagi Karson-Siti oralig‘ida yangi uylarni barpo etish ishlarini moliyaviy ta’minlab turgan. Relstonning mehnatlari natijasida bu qishloqlardan biri haqiqiy shaharga aylangan. Uning aholisi birgalikda shaharga nom tanlay boshlashibdi.

Aholining bir qismi Relston amalga oshirgan barcha ishlari uchun shaharni uning nomi bilan atamoqchi bo‘lishibdi. Garchi bu taklif Relstonga yoqqan bo‘lsada, u rad etibdi. U boshqa bir nomni tanlashlarini aytibdi. Aholi talab qilsada, Relston rozi bo‘lmabdi. Xo‘sh, endi nima qilish mumkin?

Nihoyat, kimningdir xayoliga bir fikr kelibdi. Relston kamtar bo‘lgani bois shaharni uning nomi bilan atashlariga rozi bo‘lmabdi, ammo bunday deb atalishiga qarshilik qila olmabdi. Shahar Relston sharafiga Modesto deb nomlanibdi, bu esa ispan tilidan tarjima qilinganda “Kamtarin” degan ma’noni bildirarkan.

Relston o‘zi bilan faxrlansa bo‘lardi. U rivojlanayotgan tadbirkor, badavlat va hurmatli odam edi. Biroq u o‘z qobiliyatlari va muvaffaqiyatlari bilan maqtanishni istamadi. U kamtarlikni afzal ko‘rdi va hattoki shaharni uni nomi bilan atashlarini ham istamadi. Bugungi kunda Kaliforniyadagi Modesto – gullab yashnagan shahar bo‘lib, unda deyarli yuz minglab odamlar yashashadi. Aholining ko‘p qismi esa Relston kim ekanligi bilishmaydi.

Relston kabi insonlardan hayratlansa arziydi: u o‘z muvaffaqiyatlariga qaramay, maqtanmadi. Mana nima uchun kamtarlik ezgu fazilat hisoblanadi. U hurmatli insonni yanada ulug‘roq hurmatga sazovor etadi. U xuddi go‘zal va nodir bo‘lgani bois qiymati baland bo‘lgan ajoyib marvaridga o‘xshaydi.

MULOHAZA QILGIN: Agar kimdir shaharni sening noming bilan atashga qaror qilsa, sen o‘zingni Relston kabi tutgan bo‘larmiding? Sen qachonlardir maqtanganmisan? Nima uchun ha yoki nima uchun yo‘q? Sen Relston kabi kamtarin bo‘lishni istaysanmi? Bunga qay tariqa erishmoqchisan?

IBODAT: “Rabbim, maqtovga men emas, Sen loyiqsan. Men Seni sharaflayman”.

5 IYUN. JUDA QATTIQ QICHQIRMAGIN
Kalomdan o‘qish: Hikmatlar 21:2-4
Mag‘rurlikning ortidan halokat keladi (Hikmatlar 16:18).

IKKITA XO‘ROZ. Bitta tovuqxona. Janjal bo‘lishi aniq.

Tovuqxona bo‘sh edi. Uning yog‘och eshigi g‘iyqillab ochildi va shamol epkinidan yopildi. Xo‘rozlar bir-birlariga qarashdi, ularning ko‘zlari jangovorona yondi, tumshuqlari qiyshayib g‘ayrido‘stona irshaydilar.

– Bu tovuqxona ikkimiz uchun juda tor, – deb g‘o‘ldiradi xo‘roz Rudi.

– Bu aniq, jo‘javoy, – deya uning gapiga qo‘shildi xo‘roz Renaldo. – Sen tezda bu yerdan uchib ketasan.

– O‘zing uchib ketasan, Renaldo, – xo‘roz-qovurma bo‘lib!

To‘satdan hech qanday ogohlantirishsiz Rudi Renaldoga tashlandi va jang boshlandi: xo‘rozlar bir-birlarini tirnashdi, cho‘qishdi va tepdilar, go‘yo tovuqxonaga Uchinchi jahon urushi kirib kelganga o‘xshardi. Toki Renaldo qochishga tushmagunicha ular chang-to‘zon ichida yumdalashdilar. U qanotlarini tushirib singan arava tagiga yashirinib oldi.

– A-xa! – deya shovqin ko‘tara boshladi Rudi. – Men chempionman!

U tom tepasiga uchib chiqib, bor kuchi bilan qichqiraverdi.

Rudi o‘z g‘alabasidan mast bo‘lib turganida, yonginasidan burgut uchib o‘tdi. U Rudining mastona qichqirig‘ini eshitib, pastga engashdi-da xo‘rozni o‘zining baquvvat changali bilan ushlab oldi.

Oradan bir muncha vaqt o‘tib, Renaldo singan arava tagidan chiqib osmonga qaradi. Osmon tiniq bo‘lib, ob havo yoqimli edi. Renaldoning ahvoli endi ancha yaxshilandi. U tovuqxonadagi yagona xo‘roz bo‘lib qoldi.

Ba’zan har kimda ham g‘alabadan mag‘rurlanish vasvasasi qo‘zg‘aydi. Tabiiyki, odamlar o‘zlari erishayotgan muvaffaqiyatlardan maqtanishni yoqtirishadi. Biroq mag‘rurlik nafaqat jozibador, balki noto‘g‘ri hamdir. Muqaddas Kitobda shunday yozilgan: “Takabbur ko‘zlar va mag‘rur yurak chiroq kabi fosiqning gunohini ko‘rsatadi” (Hikmatlar 21:4).

Bu esa sen qandaydir yaxshi ish qilganingda xursand bo‘lishing kerak emas, degan ma’noni anglatmaydi. Bu sen doimo o‘zingdan norozi bo‘lib yurishing kerak, degani emas. Bu sen boshqalardan o‘zingni yaxshiroq his qilganingda va shunga muvofiq harakat qilganingda, noo‘rin qarorlar qilib qo‘yasan. O‘ziga ishonch bu yaxshi. O‘z yutuqlaridan xursand bo‘lish ham yaxshi. Lekin takabbur ko‘zlar va mag‘rur yurak – yomondir.

Xullas, keyingi safar maqtanchoqlik vasvasasi qo‘zg‘aganida, Rudi va Renaldoni eslagin hamda mag‘rurlik qurboni bo‘lmasliging uchun ibodat qil.

MULOHAZA QILGIN: Nima deb o‘ylaysan, Hikmatlar 21:4 da yozilgan “takabbur ko‘zlar” va “mag‘rur yurak” nima o‘zi? Sen hattoki atrofingdagilarga ziyon yetkazib bo‘lsada birinchi bo‘lishga

uringanmisan? Sen qachonlardir mag‘rurlanganmisan? Muqaddas Kitobning bugun o‘qiladigan qismida qayd etilgan gunohlardan qanday qochishing mumkin?

IBODAT: (Zabur 130-sanosining erkin ifoda etilishi): “Rabbim, agar mening yuragim mag‘rur bo‘lsa, gar mening ko‘zlarim takabbur bo‘lsa, Sening qarshingda qalbimni buysundirishga, Sening nazaringda va atrofdagilar uchun muloyim tabiat bo‘lishimga yordam ber, ayniqsa _____”.

6 IYUN. SHOH-ESHAK
Kalomdan o‘qish: Matto 21:1-11
O‘zingizga haddan tashqari yuqori baho bermanglar (Rimliklar 12:3).

HAFTANING BIRINCHI KUNI EDI va yoshgina eshak chang ko‘chadan asta ketib borardi. Uning ustiga o‘zi avval hech qachon ko‘rmagan bir yo‘lovchi minib olgandi.

Eshak hamda bu yo‘lovchi Baytaniya qishlog‘ini piyoda sayohat qilayotgan bir guruh kishilar bilan ertalab tark etishgandi. Oradan bir necha soat vaqt o‘tgandan keyin ular Zaytun tog‘i yon bag‘irlarini aylanib o‘tib, quyosh nurlarida jilvalanayotgan Quddus shahriga kirib kelishdi.

Jonivor to‘satdan odamlarning hayajonli ovozlarini eshitdi: shahar darvozalariga yaqin qolishgandi. Eshak tez orada diqqat markaziga tushib qolganligini angladi.

“Ular menga qarashyapti, – dedi u o‘z-o‘ziga. Eshak boshini ko‘tarib, kulib turgan odamlarga qaradi. – Ular menga qarab jilmayishmoqda!”

Qandaydir erkak ust kiyimini yechib chang ko‘chada eshakning oldiga tashladi. Bir ayol ham yopinchig‘ini olib, uning tuyoqlariga qulay bo‘lishi uchun yerga to‘shadi. “Ular meni shoh deb o‘ylashib, ta’zim qilishyapti! – deb o‘yladi xo‘tik. U mag‘rurlikdan hangrab yubordi. – Ular meni maqtashyapti. Men juda buyukman! Men nihoyatda g‘aroyibman!”

Ushbu marosim ulug‘ ma’badga yetib borganida, hamma jim bo‘lib qoldi. “Nega ular jim bo‘lib qolishdi? – deya tushunmay qoldi eshak. – Meni yana ulug‘layvering!”

Va ana shundagina hayratda qolgan eshak odamlar boshqani sharaflaganlarini tushunib qoldi. Uning yo‘lovchisi eshakning ustidan tushib, ma’bad zinapoyalaridan yuqoriga ko‘tarildi. Olomon ustunga bog‘langan eshakning bir o‘zini ko‘chada qoldirib, yo‘lovchining ortidan ergashdi. “Men faxrlanishim kerak, – deya tushundi eshak, – axir men o‘zimning faqirona ustimda Iso deb atashayotgan odamni olib keldim, biroq men U menga bildirgan sharafni qadrlashim o‘rniga o‘z ulug‘ligim haqidagi tasavvurimga berilib ketibman”.

O‘zing bir tasavvur qilgin! Isoga bag‘ishlangan sharafni o‘ziniki qilib olgan eshak! Bu juda kulgili! Va ahmoqona! Qanday dimog‘dorlik!

Va shu bois ham u eshak. Biz esa – odamlarmiz, biroq tez-tez shu kabi xatoliklar qilamiz. Biz mag‘rurlikka berilib, o‘zimizni buyuk deya hisoblaymiz. Biz o‘zimizning chiroyimiz yoki mashhurligimiz bilan faxrlanamiz. Biz yaxshi kuylay olishimiz, basketbolda yaxshi o‘ynashimiz yoki yaxshi o‘qishimiz yoxud musobaqalarda g‘olib chiqishimiz bilan mag‘rurlanamiz. Lekin shunday qilganimizda, xuddi Isoning sharafini o‘ziniki qilib olgan eshakdek yo‘l tutamiz. Bu kulgili! Bu ahmoqona! Va dimog‘dorlik!

Xudo bizga shunday amr etadi: “O‘zingizga haddan tashqari yuqori baho bermanglar” (Rimliklar 12:3). Nima uchun? Negaki:

1. U – biz aqlu-hushimizni yo‘qotib, tasavvurimizdagi sharafni o‘zimizniki qilib olishga moyilligimizni biladi.
2. Har qanday mag‘rurlik Xudo bizga nima berganini tushunishimizga xalaqit beradi.
3. Xudo kamtarlikni qadrlaydi.

MULOHAZA QILGIN: Sen o‘zingni qachonlardir xuddi shu eshak kabi tutganmisan? Xudoning ushbu amrini bajarishing uchun nimalar qila olasan: “O‘zingizga haddan tashqari yuqori baho bermanglar”?

IBODAT: “Xudoyim, Sen menga o‘zimdagi borining hammasini berganing uchun va aslida qanday bo‘lishim kerak bo‘lsa shunday qilganing uchun rahmat”.

7 IYUN. SAMO YANGILIKLARI
Kalomdan o‘qish: Filippiliklar 2:5-11
Fikr zikringiz Iso Masihnikiday bo‘lsin (Filippiliklar 2:5).

AGAR SAMONING o‘z televideniyesi bo‘lsa (yoki bo‘lganida edi) bu xabarni ertalabki yangiliklarda aytishgan bo‘lardi. Bu kunning yangiligi bo‘lardi. Eng muhim yangiligi.

Boshlovchi toshdek yuz ifodasi bilan kameraga qaraydi.

– Bugun biz Xudo O‘g‘lining hayratomuz rejasi haqida sizlarga so‘zlab beramiz: U samoviy taxtdan tushib yer yuziga tushmoqchi... Siz bu haqda reklamadan so‘ng batafsil tanishasiz!

Boshlovchi kameradagi qizil chiroq o‘chishini kutib turadi va so‘ngra orqaga, studiyaning qorong‘i tarafiga o‘girilib, qichqiradi:

– Ammo bunday bo‘lishi mumkin emas! Sen hammasini to‘g‘ri yozib olganingga ishonasanmi, Raf?

Boshlovchining boshi ustidagi karnaydan ovoz yangraydi:

– Hammasi aynan shunday! U go‘dak bo‘lib tug‘iladi!

– Go‘dak! Sen... odam bolasini nazarda tutayapsan?!

– Aynan shunday. U oxurda tug‘ilib, kichik bir shaharda ulg‘ayadi. U yurishni, gapirishni va hattoki ovqatlanishni ham odamlar kabi o‘rganadi.

– Samoning mo’jizalarini qarang-a! – deydi yangiliklar boshlovchisi. – Biroq bunday bo‘lishi mumkin emas!

– Shunday bo‘ladi deb cho‘chib turibman – U hattoki loviya va karamni yeyishiga ham to‘g‘ri keladi. U zaminda o‘ttiz yoshdan oshiqroq umr kechiradi, so‘ngra esa azob chekadi hamda dahshatli, jafoli o‘lim topadi – va...

– Yo‘q! – Boshlovchi qo‘llari bilan quloqlarini berkitadi. – Buni eshitishni ham istamayman! Eshita olmayman! U shonu-shavkat Shohi, Raf! Shonu-shavkat Shohi!

– Buni bilaman, – deb javob beradi karnaydagi ovoz. – Bu tahqirlanish.

Dastur rahbari boshlovchiga qo‘lini silkiydi:

– Efirga besh soniyadan so‘ng chiqamiz... to‘rt... uch... ikki...

Boshlovchi og‘ir tin olib, yuzida farishtalar tabassumini aks ettiradi:

– Va yana bir bora salomlashamiz, – deydi u. – Kun yangiligi...

Albatta, sizga ma’lum bo‘lganidek, samoda televideniye yo‘q! Biroq Xudo bo‘lgan Iso uchun yerga tushish, go‘dak bo‘lib tug‘ilish, odamga aylanish, azob chekish va dahshatli o‘lim topish eng so‘nggi darajadagi xo‘rlanish edi. U bizni qutqarish uchun O‘zini bir emas, ko‘p bora xo‘rlatdi. Mana nima uchun Xudo bizga yumshoq fe’l bo‘lishimizni va muloyimlikni qadrlashni amr etadi, negaki Uning O‘zi shunday bo‘lgan! U O‘zining qudrati va ulug‘ligidan voz chekib, bizga muloyimlikdan yuqori ibrat ko‘rsatgan holda odam bo‘lib dunyoga keldi.

MULOHAZA QILGIN: Filippiliklar 2:5 da shunday deyilgan: “Fikr-zikringiz Iso Masihnikiday bo‘lsin”. Bu qanday fikr-zikrlar bo‘lishi mumkin? Sening fikr-zikring Masihnikidekmi (sen yumshoq fe’lmisan ma’nosida)? Sening harakatlaring Masih qilgan ishlarga o‘xshaydimi? Ehtimol, senga biron masalada Xudoning yordami kerakdir, nimanidir to‘g‘rilamoqchidirsan? Undan o‘zing uchun yordam so‘ra.

HARAKAT QIL: Muqaddas Kitobning bugungi o‘qiladigan qismida necha bora Masih O‘zini xo‘rlatgani haqida aytilgan? Muqaddas Kitobdagi bu so‘zlarni qayd etib qo‘ygin.

IBODAT: “Rabbim Ota, menga Masih kabi yumshoq fe’l bo‘lishimga yordam ber”.

8 IYUN. KAMTARIN ESA IZZAT HURMAT TOPADI

Kalomdan o‘qish: Hikmatlar 29:23

Odamning mag‘rurligi uni past qiladi, kamtarin esa izzat-hurmat topadi (Hikmatlar 29:23).

GETTISBERG YAQINIDAGI JANGDA deyarli qirq ming kishi halok bo‘lgan. Oradan to‘rt oy o‘tgach, Pensilvaniya gubernatori va talaygina boshqa kishilar, halok bo‘lganlardan ko‘pchiligi dafn etilgan xotira qabristonining tantanali ochilish marosimida to‘plandilar.

Minglab odamlar bu yerga nafaqat marhumlar xotirasini yod etish, balki mashhur notiq Eduard Everetni eshitish uchun yig‘ilishgandi. O‘sha davrlarda odamlar hozir futbolga borganlari singari ma’ruza eshitish uchun borishardi, ma’ruzalar esa zamonaviy rok-konsertlar kabi ikki-uch soatlab davom etardi.

Everett hashamatli aravada yetib keldi. Marosimning boshqa ishtirokchisi, Qo‘shma Shtatlar prezidenti Avraam Linkoln esa ot minib kelib, barcha nufuzli odamlar yig‘ilishini sabr-toqat bilan kutib turdi.

Everett ikki soat gapirdi. Everettga yo‘llangan qarsaklar va madhiya yangraganidan so‘ng Linkoln o‘rnidan turib – xuddi qizil lentani kesish lozim bo‘lgani kabi – rasmiyatchilik yuzasidan qisqacha nutq so‘zladi. U uch daqiqa ham gapirmadi, so‘ngra esa qarsaklarga e’tibor bermay, tezgina o‘tirib oldi. Ko‘plarning nazarida Everett ushbu marosim yulduzi bo‘lib tuyulishi mumkin edi.

Aslida esa Linkolnning Gettisbergdagi nutqi tarixdagi eng mashhur nutqlardan biri sifatida o‘rin oldi. Biroq yanada ta’sirli jihati shundaki, Qo‘shma Shtatlar prezidenti Linkoln shu kuni o‘zi uchun asosiy e’tiborni talab qilmadi. U ko‘pgina nufuzli mehmonlar kabi hashamatli aravada kelmadi va o‘zini buyuk inson kabi kutib olishlarini talab etmadi. Buning o‘rniga u buyuk so‘zlarni *aytdi* va o‘zini buyuk inson kabi tutdi, negaki kamtarlik buyuklikning bir qismidir.

Muqaddas Kitobda shunday deyilgan: “Odamning mag‘rurligi uni past qiladi, kamtarin esa izzat hurmat topadi” (Hikmatlar 29:23). Avraam Linkolnni aynan shunday fe’l-atvori uchun o‘limidan so‘ng, oradan yuz yillar o‘tsada, haligacha eslab hurmat bajo keltirishadi. Garchi bu uning uchun qiyin bo‘lsada, Linkoln kamtarin bo‘lishni afzal ko‘rdi. Inson o‘ziga buyuklarga nisbatan bo‘lgan munosabatni talab qilganidek darajada buyuk emas. Ammo Linkoln kamtarlik sharaf keltirishini, mag‘rurlik esa masxaraga sabab bo‘lishini bilgan.

MULOHAZA QILGIN: Kamtar bo‘lish o‘ziga e’tibor talab qilmaslik demakdir. Bu shuningdek, boshqa odamlar o‘zlariga e’tibor qaratishlariga imkon berish, degani hamdir. Senda bu borada muammo bormi? Agar shunday bo‘lsa, sen kelajakda qanday qilib kamtar bo‘lishing mumkin?

IBODAT: “Rabbim, mening kamtar bo‘lishimga, mag‘rur va xudbin bo‘lmasligim uchun yordam ber, ayniqsa _____”.

9 IYUN. BAXTIQARO UZZIYO
Kalomdan o‘qish: 2 Solnomalar 26:1, 16-21
Mag‘rurlik bilan sharmandalik keladi, donolik esa kamtarlar bilandir (Hikmatlar 11:2).

Aksariyat bolalar o‘n olti yoshlarida haydovchilik guvohnomasini olishsa, juda baxtiyor bo‘lgan bo‘lishardi. Uzziyo esa ana shu yoshida shoh bo‘lgan. Bu juda zo‘r, to‘g‘rimi? Va qanchadir muhlat u yomon shohlik qilmagan.

Biroq oradan vaqt o‘tib uning xayoli buzilgan. Uzziyo faqat ruhoniylargina ma’badda Xudoga qurbonlik keltirish va ulug‘lashlari mumkinligini bilgan, ammo u, shoh sifatida nimani xohlasam qilishim mumkin, deb o‘ylagan. Ehtimol, uning nazarida buni ruhoniylardan yaxshiroq uddalay oladigandek tuyulgandir? Balki u shunday deb o‘ylagan bo‘lsa kerak: “Hech kim, hattoki Xudo ham menga nima qilishim kerakligini amr etishga jur’at qilolmaydi!”

Xullas, nimaiki bo‘lmasin, Uzziyo qoidani buzish va kim bu yerda hukmron ekanligini ko‘rsatish uchun ma’badga yo‘l oldi. Ruhoniylar (sakson kishi) u nima qilmoqchi bo‘layotganidan xabar topishdi. Muqaddas Kitobda bu odamlar “uning ortidan ergashganlar”i haqida aytiladi. Ko‘chalarda yig‘ilgan bir necha yuzlab odamlar shoh Uzziyo qurbongohda tutatqi tutatmoqchi ekanligi haqida shivirlab gapirishardi. Ruhoniylar uni bu ahdidan qaytarmoqchi bo‘lishdi, maslahatchilar biror maslahat berishga urinishdi, qo‘riqchilar uni asrashga harakat qilishdi, biroq Uzziyo hech kimni eshitishni istamadi. U tutatqi uchun olovkurakni qo‘liga oldi: ruhoniylarning norozi ovozlari tobora balandroq yangrardi. Uzziyoning jahli chiqdi. U o‘girilib ularga qarab qichqirdi:

– Sizlar kim bo‘libsizlarki, menga o‘rgatadigan? Men hammangizning boshlaringizni chopib tashlayman!

Muqaddas Kitobda Uzziyoning jahli chiqib turganida Xudo unga e’tibor qaratgani haqida aytiladi. To‘satdan shohning tusi o‘zgara boshladi va uning yuzi bir necha lahzalar ichidayoq oppoq dog‘lar alomatlari bilan qoplandi – moxov.

Bu marosim ana shunday tugadi. Ruhoniylar Uzziyoni ma’baddan quvib chiqarishdi. U saroyga moxov bo‘lib qaytdi. U qolgan umrini boshqalardan xoli tarzda yashashiga to‘g‘ri keldi. U boshqa hech qachon ma’badga kirmadi, mamlakatni esa uning o‘g‘li boshqara boshladi. U o‘limiga qadar moxov bo‘lib qoldi. Moxovligi bois uni hattoki alohida qabristonga dafn etishdi.

Buning hammasiga sabab shuki, “Uzziyo kuchayib ketgandan keyin, halokatga olib boradigan kiborlikka berildi” (2 Solnomalar 26:16). Mag‘rurlik hammasini barbod qilishi mumkin. U sening fikrlashingga xalaqit beradi, shu bois ahmoqliklar qilib qo‘yasan. U do‘stlikni xarob qilishi mumkin. U seni atrofdagilar nazarida ahmoqqa aylantirib qo‘yishi mumkin. Dimog‘dor odam hurmatga, sharaf va do‘stlikka munosib emas. Mag‘rurlik bizni xuddi Uzziyo bilan ro‘y berganidek aksariyat hollarda xarob qiladi.

MULOHAZA QILGIN: Nima deb o‘ylaysan, Uzziyo gunoh qilmagan holda, o‘z yutuqlaridan quvonishi mumkinmidi? Agar shunday bo‘lsa, qay tariqa? Sen mag‘rur bo‘lmagan holda, o‘z qobiliyating va yutuqlaringdan xursand bo‘lolasanmi? Agar yo‘q bo‘lsa, nima uchun? Agar shunday bo‘lsa, qanday qilib?

IBODAT: “Rabbim, mag‘rurlik meni barbod qilishini istamayman. Menda hammasi qanchalik yaxshi kechmasin, men hamisha muloyim va o‘z yutuqlarim uchun Sendan minnatdor bo‘lishim lozimligini eslab turishimga yordam ber”.

10 IYUN. IZZAT-IKROM ORTIDAN QUVMA
Kalomdan o‘qish: Luqo 14:7-11
O‘zini o‘zi yuksaltirgan kamsitiladi, o‘zini past tutgan esa yuksaltiriladi (Luqo 14:11).

QACHONLARDIR BIR KAMTAR INSON YASHAGAN BO‘LIB, u hech qachon biror joyga birinchi bo‘lib kirmas ekan. U hamisha chetga surilib, hamrohlarini taklif etarkan:

– Sizdan keyin. Marhamat, o‘tavering.

Bir kuni u bitta tadbirda nufuzli mehmonlar orasida bo‘lib qolibdi. Uni payqab qolishganida esa odamlar qarsak chalay boshlashibdi. O‘sha odam qarsaklarni eshitgach, to‘xtab orqada kelayotgan kishini oldinga o‘tkazib yuboribdi va olqishlayotgan odamlar safiga qo‘shilib qarsak chalibdi. U o‘zining sharafiga qarsak chalayotganlarini tasavvur qila olmabdi.

Albatta, bunday samimiy muloyimlik odamlarga ta’sir qilib bu kishiga nisbatan yanada ko‘proq hurmat uyg‘otibdi. Iso ushbu so‘zlarni aytganida mana nimani nazarda tutgan: “O‘zini o‘zi yuksaltirgan kamsitiladi, o‘zini past tutgan esa yuksaltiriladi” (Luqo 14:11). Sen o‘zingni juda muhim shaxs hisoblab yurganingda buning mutlaqo aksi ekanligi ma’lum bo‘lsa uyatda qolib ketasan. Biroq agarda sen kamtarin bo‘lsang hamda qarsaklar va e’tiborni boshqa odamlar uchun bersang, bu holda qanchalab odamlar seni qadrlashlarini ko‘rib hayratda qolasan.

Ovchilar senga bug‘uni (yoki kimnidir ovlayotgan bo‘lsang) ilg‘ab olishing uchun o‘simlik tuplari va butalarga tikilib turish shart emasligini aytishadi: yaxshisi aniq bir narsaga tikilmasdan shunchaki oldinga qarash kerak shunda biror bir harakatni ko‘z qiring bilan ilg‘ab olishing oson bo‘ladi. Boshqacha qilib aytganda, sen

qanchalik diqqat bilan tikilsang, biror nimani ilg‘ashing shunchalik qiyin kechadi. Kamtarinlik va izzat-ikrom bilan ham xuddi shu holat yuz beradi. Mabodo sen maqtovlar va qarsaklar ortidan quvsang, ularni qo‘lga kiritishing gumon: mabodo sen ular uchun intilmasang, izzat-ikrom to‘satdan seni kutib olishi mumkin.

MULOHAZA QILGIN: Luqo 14:7-11 da Iso farziyning uyida mehmon bo‘lib, so‘zlagani qayd etilgan. Farziylar (ularning Isoga munosabati) haqida ko‘proq bilib olish uchun Matto 23:1-12 o‘qib chiq.

Sen qachonlardir maqtovlar, diqqat-e’tibor, qarsaklar ortidan quvganmisan? Sen rahnamolardan birining uyida yaxshi joy uchun bellashgan mehmonlardan biri bo‘lishni xohlarmiding yoki “O‘zini O‘zi xo‘rlatgan” Iso kabi (Filippiliklar 2:6-7) bo‘lishni istaysanmi? Bunga qay tariqa erishmoqchisan?

HARAKAT QIL: Bugungi hikoyada keltirilgan odamga taqlid qilishga urinib ko‘r: boshqalarni oldinga o‘tkazib, hattoki shunday degin: “Marhamat, o‘taqoling. Men sizdan keyin”.

IBODAT: “Rabbim, men ba’zan nimanidir talab qilganim va dimog‘dor bo‘lganim uchun kechirgin”.

11 IYUN. FIR’AVNDAN SO‘RAGIN

Kalomdan o‘qish: Yoqub 4:4-10

Xudo mag‘rurlarga qarshi chiqadi, Kamtarlarga esa inoyat ko‘rsatadi (Yoqub 4:6).

FIR’AVN – MISRNING HUKMDORI, o‘z davrining eng qudratli odami bo‘lgan. Muso unga Xudo isroilliklarni qo‘yib yuborishni amr etganini aytganida, fir’avn rad javobini berdi. Xo‘sh, Xudo nima qildi?

Xudo fir’avnni isroilliklar ortidan toki O‘zining buyrug‘i ila ikkiga ajraladigan Qizil dengizgacha ta’qib etishga undadi. Uning xalqi shu tariqa boshqa tarafga o‘tib oldi. Xudo shunday keyin dengiz suvini ortga qaytardi va fir’avnning barcha qo‘shini cho‘kib ketdi!

Ossuriya shohi Sanxariv (juda yomon odam) o‘z qo‘shini bilan Quddusni qurshab oldi va shahar aholisiga surbetlarcha xat yo‘lladi: “Endi Hizqiyoning aldovlariga uchmanglar, u sizlarni yo‘ldan urmasin. Unga ishonmanglar, biror xalqning yoki shohlikning xudosi o‘z xalqini mening qo‘limdan yoki otalarimning qo‘lidan qutqara olmagan. Xudoyingiz kim bo‘libdiki, sizlarni mening qo‘limdan qutqara olsa” (2 Solnomalar 32:15). Xo‘sh, Xudo nima qildi?

Bir kuni ertalab mag‘rur Sanxariv uyg‘onib o‘zining barcha askar va zobitlari Quddus devorlari yonida sirli tarzda ...o‘lib yotishganini ko‘rdi! Xudoning farishtasi ularni hammasini bir kechada qirib tashladi! Sanxariv uyiga qaytishiga to‘g‘ri keldi. U yerda esa uni o‘zining o‘g‘illari o‘ldirishdi.

Bobil shohi Navuxodonosor (o‘sha davrlarda ularning barchasi g‘alati nomlangan) o‘zini shunchalik ko‘klarga ko‘targanki, o‘z haykalini yasatish va barcha shohliklar unga itoat qilishlarini buyurgan. Xo‘sh, Xudo qanday yo‘l tutdi?

Xudo mag‘rur Navuxodonosorni aqlu-hushidan judo etdi. Shoh yetti yil davomida o‘z saroyida xuddi eshak kabi o‘t yeb yurdi.

Fir’avn, Sanxariv va Navuxodonosor Xudo xor qilgan qudratli odamlar edi. Albatta, Xudo hamisha ham shunday qilmaydi: agar sen mag‘rur bo‘lsang, U seni aqldan ayirib o‘t yeyishga majbur qilavermaydi. Biroq Muqaddas Kitobda shunday deyilgan: “Xudo mag‘rurlarga qarshi chiqadi. Kamtarlarga esa inoyat ko‘rsatadi” (Yoqub 4:6).

Xudo ba’zan xuddi fir’avn, Sanxariv va Navuxodonosor bilan sodir bo‘lgani kabi, mag‘rurlarga faol qarshi chiqadi. Biroq U, hattoki qo‘shinni dengizga cho‘ktirib, kimnidir o‘t yeyishga majbur qilmasa-da, mag‘rurlar kamtarlar muyassar bo‘ladigan ko‘plab ustunliklar va marhamatlardan bebahra qolishadi. Kamtarlar oson o‘rganishadi, ular sezgir bo‘lib, odatda ular bilan birga ishlash yoqimlidir, negaki ular Xudo marhamatidan ko‘proq bahramand bo‘ladilar.

MULOHAZA QILGIN: Nima deb o‘ylaysan, sen tez o‘zlashtirasanmi? Ziyrakmisan? Yoqimtoymisan? Nima uchun “ha” va nima uchun “yo‘q”? Sening fikringcha, kamtarlik qay tariqa insonni yanada o‘qimishli, ziyrak va yoqimtoy qiladi?

HARAKAT QIL: Keyingi safar ko‘kat yeganingda, yetti yil o‘t yegan Navuxodonosor haqida eslagin. Xudodan seni kamtarlikka o‘rgatishini so‘ragin.

IBODAT: “Xudoyim, Men rostdan ham o‘qimishli, ziyrak va yoqimtoy bo‘lmoqchiman. Men Sen kamtarlarga beradigan barcha marhamatlarga sazovor bo‘lishni istayman”.

12 IYUN. BIZNING MADADKORIMIZ VA QALQONIMIZ

Kalomdan o‘qish: Zabur 32:13-22

Egamiz ko‘rib turar O‘zidan qo‘rqqanlarni, Uning sodiq sevgisiga umid qilganlarni. Egamiz ularni o‘limdan qutqaradi, Ochlikdan saqlab tirik qoldiradi. Jonimiz Egamizga muntazirdir, U bizning madadkorimiz, qalqonimizdir (Zabur 32:18-20).

Qizaloq onasi uchun pechenelar pishirib qattiq kuyib qoldi, negaki qizigan tunuka tovani ushlab olgandi. U yonginasidagi stol ustida yotgan ushlagichni unutib qo‘ygandi.

Ayolning yuziga o‘yin chog‘ida tennis to‘pi urilganligi bois, uning bir ko‘zi ko‘rmay qoldi. U himoya ko‘zoynaklarini taqqanida bunday bo‘lmasdi, biroq ko‘zoynak sumkasining ichida qolgandi.

Militsioner giyohvandfurushlar bilan otishma paytida halok bo‘ldi. Vaholanki, u tanasiga o‘q o‘tmaydigan maxsus kiyim kiyganida, ko‘kragiga tekkan o‘q jarohati tufayli hayotdan ko‘z yummagan bo‘lardi. Uning shunday kiyimi bor edi – militsiya bo‘limidagi javonda – biroq u, bu kiyimni hech qachon kiymasdi.

Barcha bu fojealardan qochish mumkin edi. Bu odamlarning barchasida ularni himoya qila oladigan nimadir bor edi – ushlagich, ko‘zoynak, o‘q o‘tmaydigan maxsus kiyim. Nega ular jarohatlanishdi, ularning biri hattoki halok bo‘ldi? Negaki ular o‘z himoyalaridan foydalanishmadi.

Xudo bizning madadkorimiz va qalqonimizdir. U bizni himoya qilish uchun O‘z amrlarini bergan. Muso aniq qilib, “Egamizning amru farmonlari” (Qonunlar 10:13) bizni baxtiyor qilish uchun berilganini aytgan. Xudoning amrlari go‘yo himoya ko‘zoynaklari va ushlagichlarga o‘xshaydi: ular bizni himoya qilishi lozim biroq buning uchun biz ulardan foydalanishimiz kerak bo‘ladi.

Agar biz Unga itoat etmasak, Xudo bizga yordam berolmaydi va himoya qilolmaydi. Agar biz Xudo sevgi ila bizga bergan amrlariga e’tibor qaratmasak, ular xuddi militsiya bo‘limidagi javonda yotgan o‘q o‘tkazmaydigan maxsus kiyimga o‘xshab qoladi. Ammo biz Xudoga itoat etsak va Uning amrlarini bajarsak, U bizni himoya qiladi va ko‘plab noxushliklardan asraydi.

MULOHAZA QILGIN: Xudoning Kalomida Uning amrlari bizni xatardan va zarardan asrashga da’vat etishi haqida ko‘p bora aytiladi. Qonunlar 6:24; Yeremiyo 32:39 va Yoqub 1:25 o‘qib chiq.

Sen Xudoning amrlarini “qulf” ostida asraysanmi? Ularga go‘yoki muhim emasdek yondashasanmi? Yoki har kuni ularga bo‘ysunib, amalda bajarasanmi?

HARAKAT QIL: Keyingi safar oshxonada ushlagichni ko‘rib qolsang yoki himoya ko‘zoynaklariga ko‘zing tushsa, Xudoning amrlari seni ziyondan asrashi lozim ekanligini eslagin.

IBODAT: “Rabbim, Sen menga madadkor va qalqon ekanliging uchun minnatdorman”.

13 IYUN. SO‘QIRLAR VA FIL

Kalomdan o‘qish: Qonunlar 10:12-14

Ey Isroil xalqi! Egangiz Xudo sizlardan bitta narsani talab qiladi: ...Men bugun sizlarga berayotgan Egamizning amru farmonlariga rioya qiling (Qonunlar 10:12-13).

YO‘LLARIDA FILNI UCHRATIB QOLGAN to‘rtta so‘qir haqida bir qadimiy rivoyat bor.

Bir so‘qir filning yirik oyoqlarini ushlab shunday debdi:

– Fil daraxtga o‘xshar ekan. U semiz va baquvvat.

Boshqasi jonivorning quloqlarini ushlabdi-da:

– Yo‘q, do‘stim, – debdi u. – Fil palma yaprog‘iga o‘xshaydi, yupqa va tekis.

Uchinchisi filning dumidan tutib:

– Siz ikkalangiz ham nohaqsiz, – debdi u. – Fil uzun va mustahkam arqonga o‘xshaydi.

To‘rtinchisi filning salmoqdor tanasiga qo‘l tekkazibdi.

– Sizlar nafaqat so‘qir, balki ahmoq ham ekansizlar, – deya e’tiroz bildiribdi. – Fil aslo unday emas. U ulkan va devor kabi qattiq.

Bu to‘rttala so‘qir bizlar ezgulikni yovuzlikdan farqlashga uringanimizda bizga o‘xshab ketishadi. Harholda, sen barcha odamlarda ezgulik va yovuzlik haqidagi tushuncha turlicha ekanligini anglagandirsan. Bu masalada hech kim boshqa birov bilan kelisha olmaydigandek tuyuladi. Birovi, “bu yomon”, desa, boshqasi, “Yo‘q, bu yomon ekanligini aytishning o‘zi yomon: aslida bu yaxshi”, deydi.

Gap shundaki, bizlardan har birimiz manzaraning faqat bir qisminigina ko‘rishimiz mumkin. Biz kelajakni ko‘ra olmaymiz. Biz hattoki hozirgi haqiqiylikni ham yaxshi ko‘ra olmaymiz. Biz aytgan gaplarimiz va qilgan ishlarimizning oqibati qanday bo‘lishini bilmaymiz. Biz nima yaxshiyu, nima yomon ekanligini aniq ko‘ra olishimizga nisbatan so‘qir odamning filni tasvirlashi osonroq. Va bu odatiy ahvoldir.

Sen fil haqida bahslashayotgan so‘qirlar oldiga ko‘zi ko‘radigan bir kishi kelganligini tasavvur qil. U bizga filning ko‘rinishi aslida qanday ekanligini aytib berishi mumkin. Harqalay, agar o‘sha odamning aytganlari so‘qirlarning tasavvuridagi qaysidir jihatlar bilan mos tushmaganida, ular bu gaplarga aslo ishonishmasdi.

Mana nima uchun bizga Xudoning Kalomi zarur: unda nima yaxshiyu, nima yomon ekanligi aytiladi. Xudo bizga buni tushuntirib berishi mumkin, negaki U (bizdan farqli ravishda) barchasini aniq ko‘radi va biladi. Biz Unga ishonmasligimiz mumkin, biroq agarda Unga itoat qilsak va Uning aytganlarini bajarsak, Xudoning ezgulik va yovuzlik haqidagi tasavvuriga ishonishimiz mumkin. Negaki U haqiqatdir!

MULOHAZA QILGIN: Sen o‘zingni odatda qanday tutasan: go‘yo sen Xudoni ko‘proq bilasanmi yoki Xudo sen haqingda ko‘proq biladimi? Xudoning ezgulik va yovuzlik haqidagi tasavvuriga ishonadigan inson o‘zini qanday tutishi kerak?

IBODAT: “Rabbim, Sen barchasini aniq ko‘rishingni va hammasini bilishingni men bilaman. Sen menga nima to‘g‘ri ekanligini aytganingda Senga ishonishim va Sening amrlaringni bajarishim uchun menga yordam ber”.

14 IYUN. TO‘G‘RI AKS TA’SIR
Kalomdan o‘qish: Levilar 19:1-3
Har biringiz ota-onangizni hurmat qiling... Zotan, Men Egangiz Xudoman (Levilar 19:3).

NIMA DEB O‘YLAYSAN, quyidagi vaziyatlarda aks ta’sir qanday bo‘lishi kerak?

1. Onang senga darslaringni oxirigacha qilmaganing haqida eslatadi. Sen shunday javob berasan:
   a) “Menga yopishavermang! O‘zim xohlaganimda qilib qo‘yaman!”;
   b) “Yaxshi, oyijon. Hozir tugatib qo‘yaman”.

2. Otang do‘konga shortik, qora paypoq va sandal kiyib bormoqchi. Sen:
   a) unga bu ahvolda ahmoqona ko‘rinishini va uni bu ahvolda ko‘rishni istamasligingni aytasan;
   b) jim qolib, kelgusida u sen bilan maslahatlashishiga umid qilasan.

3. Ota-onang senga va do‘stingga yoshlar yig‘ilishida qolishlariga ruxsat berishadi. O‘zlaringiz holi qolganlaringizda sen do‘sting tomon o‘girilib shunday deysan:
   a) “Xayriyat-e! Men endi hech qachon otamdan va uning bema’ni hazillaridan qutula olmayman, deb o‘ylay boshlagandim! U nihoyatda jonimga tegdi!”
   b) “Ota-onam ba’zan o‘zlarini g‘alati tutishadi, biroq ular men uchun ko‘p yaxshi ishlar qilishadi”.

Mayli, ehtimol sen biz taklif etganimizdek aniq shunday yo‘l tutmassan, biroq sening javobing a) yoki b) variantlariga yaqinroq bo‘ladimi?

O‘ylashimcha, “a” javobi yoqimsiz, hattoki noto‘g‘ri hamdir. Nima uchun? Negaki sen shuni bilasan: odamlarni hurmat qilish yaxshi, behurmatlik esa yomondir.

Xudo bizga shunday amr etgan: “Muqaddas bo‘linglar, chunki Men, egangiz Xudo, muqaddasman”. Keyin U shunday deydi: “Har biringiz ota-onangizni hurmat qiling... Zotan, Men Egangiz Xudoman” (Levilar 19:2-3). Bu esa, ota-onaga hurmat – sen ularga qaytarayotgan qarz emas, balki undan ham ko‘prog‘idir, degan ma’noni anglatadi. Hurmat qilish yaxshi. Hurmatsizlik yomondir.

MULOHAZA QILGIN: Sen hurmat ko‘rsatish to‘g‘ri ekanligini qayoqdan bilasan? Mabodo ota-onaga hurmat uchun baho qo‘yganlarida sen qanday baho olgan bo‘larding (faqat rostini ayt)? Sen o‘z bahoingni yaxshilay olasanmi? Qay tariqa?

HARAKAT QIL: Ota-onaga hurmat ko‘rsatishning amaliy yo‘llari haqida ro‘yxat tuzib chiq (misol uchun, “onam uchun eshikni ochaman”, “g‘ijinmayman” va shu kabi). Bularning hammasini hafta oxirigacha bajarishga urinib ko‘rgin.

IBODAT: “Xudoyim, men hamisha ham _____ ga hurmat ko‘rsatmayman. _____ da to‘g‘ri yo‘l tutishim uchun menga yordam ber”.

15 IYUN. ISHAYONING G‘AROYIB SARGUZASHTLARI
Kalomdan o‘qish: Ishayo 6:1-7
Xudodan qo‘rqqin (Voiz 5:6).

AGAR ISHAYO PAYG‘AMBAR hozirgi kungacha yashaganida, ehtimol, u o‘zining boshidan kechgan voqealarni ilk marotaba yozganidan boshqacha tarzda hikoya qilib bergan bo‘lardi. U buni taxminan quyidagicha bayon etardi:

> “Voqea mana bunday yuz berdi: men ma’badda bo‘lib, o‘z ishlarim bilan mashg‘ul edim, har doimgidek Xudoga sajda qilayotgandim.
>
> To‘satdan ma’bad xuddi tungi Nyu-York yoki Las-Vegas singari yorishib ketdi. Men yuqoriga qaraganimda, ma’badning tomi yo‘q bo‘lib qolgandek tuyuldi. Men osmon uzra muallaq turgan taxtni ko‘rdim. Taxtda esa Xudo o‘tirardi, bolalar, Xudoning O‘zi; U butun ma’badni qoplagudek pastga hilpirab tushgan uzun libos kiygandi. Shuningdek, bu yerda farishtalar ham bor edi – shunaqayam g‘alatiki va hatto qo‘rqinchli – ular Xudoning atrofida uchishib, kuylashardi: “Muqaddasdir, muqaddasdir, muqaddasdir Sarvari Olam!” Ularning hayqirgan ovozlari stereo kabi jaranglardi, xullas, o‘zingiz tushunasiz! Butun ma’bad xuddi yer qimirlagani kabi titrardi va tutun bilan to‘lib borardi!
>
> Bolalar, bu holat chidab bo‘lmas darajada edi! Men yerga yuz tuban tushib o‘zimga shunday dedim: “Sho‘rim qursin! O‘ldim endi! Hammasi tugadi! Gunohkor bo‘lgan men, tushunayapsizlarmi, og‘zi nopok bir odam – Shohni, Qudratli Xudoni ko‘rdim! Shu joyning o‘zida o‘lib qolaman!”

Albatta, bu shunchaki xayoliy to‘qima, biroq ma’nosini sen tushunib olding. Bu voqea Qadimgi Ahddagi Ishayo payg‘ambar kitobining oltinchi bobida hikoya qilinadi va bu yerda eng muhimi shuki, Ishayo Xudoni ko‘rdi, bu vahiy shu qadar hayratomuz ediki, u qo‘rquv va hurmatga limmo-lim to‘ldi (qo‘rquv va hurmat shu qadar kuchli ediki, unda yurak xuruji ro‘y berishiga bir bahya qoldi!).

Men nega bularni senga aytmoqdaman? Negaki, bu hayajon va hurmat boshqa odamlarni hurmat qilish yo‘lidagi birinchi qadamdir. Agar sen Xudoni hurmat qilmasang, ota-onangni, o‘qituvchilaringni va do‘stlaringni, hattoki o‘zingni ham hurmat qilolmaysan. Qachonki Xudoni hurmat qilganingda, boshqa odamlarni ham chinakamiga hurmat qila boshlaysan. Agar sen Xudoni hurmat qilmasang, bu holda hech qachon atrofingdagilarni va hatto o‘zingni ham hurmat qilolmaysan.

MULOHAZA QILGIN: Ishayo ma’badda Xudoni ko‘rganida, qo‘rquv va titroqdan yerga yiqildi. Havoriy Yuhanno ham Iso namoyon bo‘lganida xuddi shunday holatga tushdi (Vahiy 1:9-19). Nima deb o‘ylaysan, nima uchun odamlar Xudoning shavkati namoyon bo‘lganida shunday holatga tushishadi? (Chiqish Kitobi 33:12-23 da bu haqda tushuntirib o‘tilgan).

Nima deb o‘ylaysan, nima uchun boshqalarni hurmat qilish Xudoga hurmat bajo keltirishdan boshlanadi? Sen Xudoga bo‘lgan hurmatingni qanday namoyon etasan? Nima deb o‘ylaysan, Sen o‘zingda Xudoga nisbatan yanada chuqurroq hurmat hosil qila olasanmi? Agar yo‘q bo‘lsa, nega? Agar shunday bo‘lsa, qay tariqa?

HARAKAT QIL: Xudoga nisbatan hurmatingni izhor etishning beshta yo‘lini o‘ylab top (misol uchun, “jamoatda bosh kiyimini yechish”, “ibodat vaqtida tiz cho‘kish” va shu kabilar). Bularning hammasini haftaning oxirigacha bajarishga harakat qil.

IBODAT: “Rabbim, men nihoyatda g‘aroyibman! Men Seni ulug‘layman, Xudoyim!”

16 IYUN. AMRLARNING BAJARILISHI

Kalomdan o‘qish: 1 Butrus 2:13-17

Hamma odamlarni hurmat qilinglar (1 Butrus 2:17).

Quyida Muqaddas Kitobdan bir qator amrlar keltirilgan. Afsuski, ro‘yxatda Muqaddas Kitobda bo‘lmagan “amrlar” ham qistirib o‘tilgan. Ortiqchalarini o‘chirib tashla.

1. “Ota-onangni hurmat qil”.
2. “Hech qachon qand yemagin”.
3. “Yoshi kattalarni hurmat qil”.
4. “Qadrli narsalarni itlarga ber va cho‘chqalar oldiga javohir tashla”.
5. “Bir qadam oldinga yurgin, bir qadam orqaga yurgin, bir qadam oldinga yurgin, burilgin”.
6. “Shohni hurmat qil, u sening xo‘jayining”.
7. “To‘kilib ketgan sut ustida yig‘lama”.
8. “Jamoat ishlarini boshqaradigan keksalar ikki barobar hurmatga loyiq”.
9. “O‘zingdan ko‘ra o‘zgani ko‘proq hurmat qil”.
10. “Barchani hurmat qil”.
11. “Radioni diqqat bilan eshit”.
12. “Hukumatga itoat qil”.

Xo‘sh, sen qancha bandlarni o‘chirding? Sen o‘n ikkita amrlardan beshtasini o‘chirishing kerak edi. Mabodo sen ro‘yxatdan ko‘p (yoki kam) o‘chirgan bo‘lsang, uni yana bir bora o‘qib chiq.

Agar sen 2, 4, 5, 7 va 11 bandlarni o‘chirgan bo‘lsang, mutlaqo haqsan! Bunday amrlar Muqaddas Kitobda yo‘q (garchi 4 raqamdagi amr Matto 7:6 ga qarama-qarshi bo‘lsada). Qolgan amrlar Muqaddas Kitobda mavjud. Ular (tartib bilan) Chiqish 20:12, Levilar 19:32, Zabur 44:11, Timo‘tiy 5:17, Rimliklar 12:10, 1 Butrus 2:17 va Rimliklar 13:1 da keltirilgan.

Muqaddas Kitob oyatlaridan har birida bu yoki u tarzda kimnidir hurmat qilish amr etilgan. Ushbu oyatlardan ayonki, Xudo boshqa odamlarni hurmat qilishni buyurgan. U biz ota-onamizni hurmat qilishimizni istaydi. U keksalarni hurmat qilishimizni amr etadi. U biz jamoat rahbariyatini va dunyoviy hukumatni hurmat qilishimizni xohlaydi. U barchani hurmat qilishimizni buyuradi. Bundan ortiq yana qay tarzda tushuntirish mumkin?

MULOHAZA QILGIN: Xudo barchani hurmat qilishimizni buyuradi. U qaysi toifadagi odamlarni hurmat qilishni aniq qilib buyuradi? Hurmat to‘g‘risidagi amrlarni yana bir bora ko‘rib chiq. Sen ularning barchasini bajarasanmi? Kimga hurmat ko‘rsatishing sen uchun qiyin?

HARAKAT QIL: Boshqalarga hurmat ko‘rsatishning beshta amaliy yo‘llarini o‘ylab topgin (misol uchun, “nogiron qo‘shniga yordam berish”, “qo‘shni qizni xo‘rlamaslik” va shu kabi). Bularning hammasini hafta oxirigacha bajarishga urinib ko‘rgin.

IBODAT: “Rabbim, men ko‘plab odamlarni hurmat qilishimni Sen istaysan. Iltimos, men shunday qilishim uchun yordam ber”.

17 IYUN. TOVUQ VA QIMMATBAHO TOSH

Kalomdan o‘qish: 1 Timo‘tiy 5:1-4

Mo‘ysafidni ko‘rganingizda, o‘rningizdan turing, qariyaning hurmatini joyiga qo‘ying. Men, Xudoyingizdan qo‘rqing, Men Egangizman (Levilar 19:32).

KUNLARDAN BIRIDA TOVUQ biror yegulik izlab, axlat qutisini tita boshladi. U nimadir yaltirayotganini ko‘rdi va yorqin, yaltiroq olmosni chiqarib oldi.

Tovuq boshini egib, qimmatbaho toshni o‘rgana boshladi. Biroq so‘ngra uni oyog‘i bilan nari itarib, shunday dedi:

– Agar xo‘jayin buni topib olganida xursand bo‘lardi, negaki unga shunday oynachalar yoqadi. Men esa bittagina donni dunyodagi barcha javohirlaridan afzal ko‘raman!

Albatta, olmos dondan ko‘ra anchayin qimmat turadi, ammo tovuq uchun buning farqi yo‘q. Fermer olmosni topib olganida quvonchdan sakragan bo‘lardi, ammo tovuq uchun bu hech nimani anglatmasdi.

Biz ham o‘zimizni aksariyat hollarda shunday tutamiz: Xudo uchun hech nimaga arzimaydigan narsalarni qadrlaymiz va Uning boyliklariga – aslo e’tibor bermaymiz.

Misol uchun, Xudoning Kalomida shunday deyilgan: “Mo‘ysafidni ko‘rganingizda o‘rningizdan turing, qariyaning hurmatini joyiga qo‘ying. Men, Xudoyingizdan qo‘rqing. Men Egangizman (Levilar 19:32). Muqaddas Kitobdagi ushbu oyatda qariyalarni ulug‘lash lozimligi amr etilgan. Va shu jumlaning o‘zida Xudoni hurmat qilish kerakligi qayd etiladi. Nima uchun? Negaki keksalarga hurmat va Xudoga hurmat bir-biri bilan uzviy bog‘langan.

Ko‘rayapsanmi, Xudo boshqalarni hurmat qilishga buyuradi, negaki hurmat ehtiromni qadrlaydi. Agar biz xuddi tovuq singari Xudo qadrlaganlarini tashlayversak, bu aslida Xudoga nisbatan behurmatlikni va Unga itoat etmasligimizni anglatadi. Ammo Xudoni chindan hurmat qilgan holda, biz U qadrlagan narsalarni qadrlaydigan va Uning uchun muhim bo‘lgan odamlarni hurmat qiladigan bo‘lamiz. Xudo esa keksalarni qadrlaydi.

Jamiyatga qariyalar kerak emas, degan fikrlar ham bor: ular sekin harakatlanishadi, ba’zan o‘zlarini g‘alati tutishadi. Biroq ishonasanmi yo‘qmi, qariyalar – ma’lumot va donolik sandig‘idir. (Buni bobong va buving misolida sinab ko‘r).

Xudo keksalarni hurmat qilish va biz ham shunday fikrda bo‘lishimiz lozim deya hisoblaydi. Aks holda biz donni afzal ko‘rib, olmosni uloqtirib yuboradigan ahmoq tovuqqa o‘xshab qolaveramiz!

MULOHAZA QILGIN: Xudo bizga boshqalarni hurmat qilishni buyuradi, negaki u hurmat ehtiromni qadrlaydi. Sen keksalarni hurmat qilasanmi? Agar hurmat qilmasang, nima uchun? Agar hurmat qilsang, buni qay tarzda ifoda etasan? Tanish qariyalarni eslagin. Sen o‘z hurmatingni ularga qanday bildira olasan?

HARAKAT QIL: Ota-onangdan keyingi nonushta vaqtida senga bug‘doyli bo‘tqa pishirib berishlarini so‘ra bu senga tovuq va qimmatbaho tosh bilan bog‘liq voqeani eslatsin (Agar buning iloji bo‘lmasa yoki sen bug‘doyli bo‘tqani yoqtirmasang kichik bir xaltada don sotib olib, keyingi hafta shu bilan qushlarni boq; faqat xaltada olmos yo‘qligiga ishonch hosil qilib olgin!)

IBODAT: “Rabbim, Ota, jamoatdagi keksalar uchun Senga rahmat, ayniqsa _____. Oilamdagi keksalar uchun Senga rahmat, ayniqsa _____”.

18 IYUN. FARROSH BILAN UCHRASHUV

Kalomdan o‘qish: Yoqub 2:1-9

Agar sizlar Muqaddas bitiklardagi: “O‘zgani o‘zingizni sevganday seving” degan Xudoning Shohligiga oid qonunga amal qilayotgan bo‘lsangiz, to‘g‘ri qilayotgan bo‘lasizlar (Yoqub 2:8).

BIR VAQTLAR MEN TELEVIZOR ORQALI otasi maktabga farrosh bo‘lib ishga kirgan bolaning tarixi haqida eshitgandim. Bolakay o‘zini yo‘qotib qo‘ygandi: otasi uning o‘rtoqlari ko‘z o‘ngida yo‘laklarni supurib, hojatxonalarni tozalashi kerak edi. U otasi shunday ishga rozi bo‘lganidan g‘azabda edi. Bola otasini shu ishga olgan maktab direktoridan jahli chiqardi. Uning nazarida kattalar bolani butun maktab oldida sharmanda qilish uchun o‘zaro til biriktirgandek tuyulardi.

Xo‘sh, sening otang maktabda farrosh bo‘lib ishlasa, sen o‘zingni qanday his qilgan bo‘larding? (Balki, aslida ham shundaydir.) Yoki sening onang farroshdir? (Balki, aslida ham shundaydir.) Yoki sening oilang okrugdagi eng kambag‘al oiladir? (Balki, aslida ham shundaydir.)

Bilasanmi, Muqaddas Kitobda bu muammoning yechimi bor!

Haqiqatdan ham shunday.

Xo‘sh, sening otang farrosh bo‘lsa yoki oilang okrugdagi eng kambag‘al bo‘lsa, nima bo‘libdi? Muqaddas Kitobda shunday deyilgan: “Ey birodarlarim, ulug‘vor Rabbimiz Iso Masihga ishonar ekansiz, yuz xotirchilik qilmanglar” (Yoqub 2:1).

Muqaddas Kitobda barcha boylar va kambag‘allar, farroshlar va boshliqlar, idish-tovoq yuvuvchilar va musofirlar hurmatga loyiq ekanliklari aniq qilib aytilgan. Uning kim bo‘lib ishlashi muhim emas. Uning erkak yoki ayol, o‘g‘il yoki qiz bola ekanligining ahamiyati yo‘q. Uning qancha puli borligi yoki qanday uyda yashashi muhim emas. Uning vazni qancha ekanligining yoki futbolni qanday o‘ynashi ham muhim ahamiyatga ega emas. Xudo biz barcha odamlarni hurmat qilishimiz lozimligi haqida aytadi, negaki biz Uning timsolida yaratilganmiz. Xudo O‘z bolalarini, boylar va kambag‘allarni, erkak va ayollarni, oq tanli va qora tanlilarni, baland va past bo‘ylilarni, yoshlarni, qariyalarni va o‘rta yoshdagilarni qadrlaydi. Va bilasanmi nima? Biz ham ularni hurmat qilishimiz kerak.

MULOHAZA QILGIN: Xudo nima uchun ayrim kishilarni emas, balki barchani hurmat qilishni buyuradi? Sen ayrim odamlarni boshqalaridan afzal ko‘rasanmi? Kimlarnidir (boylarni, taniqli odamlarni

va shu kabilarni) hurmat qilib, boshqalarni pisand qilmagan paytlaring bo‘lganmi? Barchaga hurmat ko‘rsatishing uchun nimalar qila olasan?

HARAKAT QIL: Bugun hammaga, shuningdek, maktab farroshiga, avtobusdagi konduktorga, do‘kondagi sotuvchiga hurmat ko‘rsatishga urinib ko‘rgin.

IBODAT: “Rabbim, men nihoyatda afsusdaman, biroq men hamisha ham_____ ga hurmat ko‘rsatmayman. Barcha farzandlaringga Sening sevging va mehribonligingni ko‘rsatishim uchun menga yordam ber”.

19 IYUN. SEN HURMATGA MUNOSIBSAN
Kalomdan o‘qish: Efesliklar 2:8-10
Biz Xudoning ijodimiz (Efesliklar 2:10).

1970-YILLARDA (u paytlarda sen hali tug‘ilmagansan) Amerikada yuqori sinf o‘quvchilarining qobiliyatlarini rivojlantirish maqsadida harakat tashkil etishdi. Ushbu dastur “Ulgurib qol” deb nomlangan bo‘lib, uni hazrat Jessi Jekson boshqarardi.

Jessi Jekson butun mamlakat bo‘ylab aylanib, yuqori sinf o‘quvchilari bilan suhbatlar uyushtirardi. U harakat boshlangan Chikagoga jo‘nab ketdi: Los-Anjelesda, Vashingtonda va Nyu-Yorkda bo‘ldi. U kambag‘al tumanlardagi o‘quvchilar bilan gaplashdi (ularning orasida afroamerikaliklar ko‘p edi) va ularda o‘zlariga nisbatan hurmat uyg‘onishlariga yordam berdi. Bu bolalar qashshoq oilalardan bo‘lib atrofidagilar ularga hayotdan ortda qolayotganlarini aytishardi. Ko‘pgina yoshlar bugungi kunda ham o‘zlari haqida shunday deb o‘ylashadi.

Jessi Jekson yoshlar ongiga oddiy haqiqatni singdirishga intildi. Vashingtondagi Kelvin Kulidj nomli maktabda uyushtirilgan bitiruv oqshomida u o‘z ma’ruzasini shunday boshladi: “Men hurmatga munosibman!” Ishtirokchilar ham uning ortidan shu so‘zlarni takrorlashdi: “Men hurmatga munosibman!” So‘ngra u shunday dedi: “Men hurmatga munosibman! Men nihoyatda aqlliman! Men xohlagan narsamni o‘rganib olishim mumkin! Men hurmatga loyiqman!”

Jessi Jekson mamlakat bo‘ylab yurganida ana shu so‘zlarni takrorlar edi va shu yurtning barcha yoshlari uning so‘zlarini takrorlashardi: “Men hurmatga loyiqman!” U odam agar o‘zini hurmat qilmasa, boshqani hurmat qilolmasligini tushunardi. Agar odamlar o‘zlarini hurmat qilishmasa, Xudo ularni qanday ko‘rishni istayotganidek bo‘la olishmaydi.

Havoriy Pavlus ham shunga o‘xshash narsalarga o‘rgatgan. U Efes shahri masihiylariga shunday deb yozadi: “Biz Xudoning ijodimiz. Xudo bizni xayrli ishlar qilishimiz uchun Iso Masih orqali yaratdi, bu ishlarni biz uchun azaldanoq tayyorlab qo‘ygan edi... sizlar endi begona ham, kelgindi ham emassizlar, balki Xudoning aziz xalqi qatoridasiz, Uning xonadoni a’zosi bo‘ldingizlar. Sizlar xuddi bir binodaysizlar. Bu binoning asosi havoriylaru payg‘ambarlardir. Binoning tamal toshi esa Iso Masihning O‘zidir” (Efesliklar 2:10, 19-20).

Sen – Xudoning ijodisan! *Sen hurmatga munosibsan*!

MULOHAZA QILGIN: Sen o‘zingni hurmat qilasanmi? Agar hurmat qilmasang, nima uchun? Sen qachonlardir o‘zingga nisbatan behurmatlik qilganmisan? Agar shunday bo‘lsa, nima uchun? Nima deb o‘ylaysan, o‘zini hurmat qilish boshqalarni hurmat qilishga qay tariqa yordam beradi?

HARAKAT QIL: Kartochkaga ushbu jumlalarni yoz: “Men Xudoning ijodiman!”, “Men Xudo xalqining bir qismiman!”, “Men - Xudo oilasining a’zosiman!”, “Men Xudoning muqaddas ma’badiga aylanmoqdaman”, “Men hurmatga loyiqman!” Har kuni bu kartochkalardan birini yotoqxonangdagi oyna oldiga qo‘ygin, zero, har safar oynaga qaraganingda u senga o‘zingni hurmat qilish zarurligi haqida eslatib tursin.

IBODAT: Zaburchi bilan birgalikda (Zabur 138:14) shunday deb aytgin: “Senga shukrona aytaman. Axir, qanday ajoyib qilib yaratilganman! Sening barcha ishlaring naqadar ajoyib, Buni men juda yaxshi bilaman”.

20 IYUN. ERTAK
Kalomdan o‘qish: Rimliklar 13:1-7
Ularga nima tegishli bo‘lsa, shuni bering (Rimliklar 13:7).
Jamoatdagi yo‘lboshchilaringizga quloq solinglar, aytganlarini qilinglar (Ibroniylar 13:17).

YOSH TALABA BIR KUNI Muqaddas Kitobni o‘qib o‘tirardi. U havoriy Pavlusning Rimdagi masihiylarga aytgan so‘zlarini o‘qib qoldi: “Har bir inson o‘zining ustidan hukmron bo‘lgan hokimiyatga bo‘ysunsin. Chunki Xudo buyurmagan hokimiyat yo‘q” (Rimliklar 13:1).

– Gapirish senga oson! – deya og‘ir tin oldi talaba, go‘yo Pavlus u bilan xonada birga o‘tirgandek. – Bizning hukumatimiz esa beshafqat va sotqin.

Banogoh uning ro‘parasida qopga o‘xshash kiyim kiygan soqolli kishining – havoriyning jussasi namoyon bo‘ldi.

– Navqiron do‘stim, – dedi u, – men buni Rimdagi masihiylarga yozganman, Rim hukumati esa masihiylarni tez-tez ta’qib qilib, o‘ldirardi.

– Ammo, – dedi talaba bir muddat jim qolishganlaridan keyin taajjub bilan, – siz bizlar hukumatga bo‘ysunishdan bosh tortganimizda Xudodan yuz o‘girishimizni nazarda tutayapsiz!

Havoriy bosh irg‘adi.

Talaba so‘zida davom etdi:

– Lekin siz tushunmayapsiz: mening ingliz tili o‘qituvchim hatto masihiy ham emas.

Pavlus jilmaydi:

– Rim imperatorlari ham masihiy emas edilar, biroq Xudo ularni mansabga sazovor etgan edi.

Talabaning yuzida jahl ifodasi paydo bo‘ldi:

– Biroq siz har kim o‘ziga tegishlisini olish kerak, deyapsiz! Ko‘pchilik, masalan, mening murabbiylarim alohida bir hurmatga munosib emaslar!

– Xudoning Kalomida sening fikring bo‘yicha hurmat qilinishi kerak bo‘lgan odamlarga hurmat bajo keltirishing aytilmagan, – deya e’tiroz bildirdi Pavlus. – Unda barchani, shu jumladan, hokimiyat tepasida turganlarni ham hurmat qilish va ulug‘lash lozimligi aytilgan: militsionerlarni, o‘qituvchilarni, hattoki avtobus haydovchilarini ham!

– Mayli, – yengil tin oldi talaba – O‘ylashimcha, siz haqsiz. Agar Muqaddas Kitobda aytilganidek, Xudo rahbarlarni tayinlagan bo‘lsa, men ularni hurmat qilishim lozim. To‘g‘rimi?

MULOHAZA QILGIN: Rimliklar 13:1-7 dagi ma’lumotlar shu so‘zlarning muallifi Pavlus tez-tez qamoqxonaga tushib kaltaklangani (so‘ngra esa qatl etilgani) haqida tushunishingga yordam beradimi? Nima uchun uni diniy va hukumat idoralari ta’qib etishgan? Bu qismni takror o‘qib, uni yaxshiroq tushuna boshlaganing haqida fikrlab ko‘rgin.

Sen o‘z rahbarlaringga hurmat bilan munosabatda bo‘lasanmi (hukumatga, jamoat rahbarlariga, o‘qituvchilarga)? Hamisha ham hurmatingni osongina bildira olasanmi? Nima uchun “ha” va nima uchun “yo‘q”? Nima deb o‘ylaysan, hattoki bu qiyin bo‘lsada, ularni hurmat qilish kerakmi? Nima uchun “ha” va nima uchun “yo‘q”?

IBODAT: “Rabbim, Senga itoat qilishim uchun yordam ber. Hatto bu qiyin bo‘lganida ham, hukumatga nisbatan hurmat ko‘rsatishim uchun ko‘maklash. Ayniqsa, _____ ni hurmat qilishimga yordam ber”.

21 IYUN. IKKI QAROQChI HAQIDAGI VOQEA

Kalomdan o‘qish: Luqo 23:32-43

Xochga mixlangan qaroqchilardan biri Isoni haqoratladi... Ikkinchi jinoyatchi esa bu sherigiga ta’na qildi: Xudodan qo‘rqmaysanmi?! O‘zing ham shu Odam kabi jazoga mahkum bo‘lgansan-ku! (Luqo 23:39-40).

MUQADDAS KITOBDAN BUGUN O‘QILADIGAN OYATLARNI KO‘RIB CHIQDINGMI? Avvalo o‘qib chiq, so‘ngra esa mana bu savollarga javob ber.

1. Iso qayerda xochga mixlangan?
   a) G‘amo‘ra, ya’ni “tekislik”deb ataladigan joyda.
   b) Go‘lgota, ya’ni “bosh suyagi” deb ataladigan joyda.
   v) Go‘liyot, ya’ni “devqomat”deb ataladigan joyda.

2. Olomon Isoga nisbatan qanday munosabatda bo‘lgan?
   a) Unga rahmlari kelgan.
   b) Unga e’tibor berishmagan.
   v) Uni masxara qilishgan.

3. Qaroqchilar Isoga qanday munosabat bildirishgan?
   a) Bittasi masxara qilgan; boshqasi hurmat ko‘rsatgan.
   b) Ikkalasi ham Uni masxara qilishgan.
   v) Ikkalasi ham Unga e’tibor berishmagan.

Tayyor bo‘ldimi? Endi esa javoblarni tekshirib ko‘r: 1 b); 2 v); 3 a).

Isoning yonida xochga mixlangan qaroqchilardan biri Unga hurmat bildirgan. Bu qaroqchi shu kunning o‘zidayoq jannatga tushgan, negaki u tavba qilib Isoning qurbonligi orqali gunohining kechirimiga erishgan. Mana ikki ming yildirki, imonlilar uning najot topishidan hayratlanishadi.

Boshqalarni hurmat qilish to‘g‘ridir. Inson hamisha o‘zini hurmatga munosib darajada tutishi yaxshidir, negaki bu ijobiy natijalarga olib keladi. Sen atrofingdagilarga hurmat bilan munosabatda bo‘lganingda, bu seni haqoratdan asraydi va boshqalar nazarida yanada e’tiborga sazovor qiladi. Boshqacha qilib aytganda, sen kimga o‘xshashni ko‘proq xohlagan bo‘larding: Isoni la’natlagan qaroqchigami yoki Unga hurmat ko‘rsatgan qaroqchigami?

MULOHAZA QILGIN: Isoning yonida xochga mixlangan ikkita qaroqchi misolida behurmatlik qanday xunuk bo‘lishini va hurmat-izzat qanday jozibador ekanligini ko‘rishimiz mumkin. Olomonning

munosabati qanday edi? Nima uchun hurmat koʻrsatish yaxshi? Nega u yaxshi natijalarga olib keladi? Sen koʻproq kimga oʻxshaysan: Isoni la'natlagan qaroqchigami yoki Unga hurmat bilan munosabatda boʻlganigami? Seningcha, oʻzingni hurmatga munosib tarzda tutganingda, boshqa odamlar nazarida oʻzingni yoqimtoy va e'tiborga molikdek his qilganmisan? Nima uchun?

IBODAT: "Rabbim, menga itoat foydali ekanligini eslatib tur. Menga boshqalarga nisbatan hurmatli munosabatda boʻlishim uchun yordam ber, negaki bu toʻgʻri va boshqalar bilan munosabatda boʻlishning eng afzal yoʻlidir".

22 IYUN. TOʻGʻRI HIS-TUYGʻULAR, NOTOʻGʻRI HIS-TUYGʻULAR
Kalomdan oʻqish: Titus 3:1-2
Yaxshilik qilib yur, shunda boshliqning maqtoviga sazovor boʻlasan (Rimliklar 13:3).

Sen ham qachondir ushbu vaziyatlardan biriga tushib qolishing mumkin. Ulardan ayrimlarining senga yoqish ehtimoli bor. Boshqalari esa yoqmasligi ham mumkin. Sening harakatlaring qaysi bir holatda toʻgʻri natijalarga va qaysi birlari notoʻgʻri oqibatlarga olib kelishi mumkinligini qayd etgin.

Toʻgʻri natijalar	**Notoʻgʻri oqibatlar**
Ota-onang hazillashib archa tagiga qoʻyiladigan sovgʻa qutisiga ismingni yozishib, poxolga toʻldirishadi. Sen ularning yuziga poxol sochib, "*Men sovgʻani hoziroq olmoqchiman*", deysan.	
	Oʻqituvchi ayol senga uy vazifasini bajarmaganing uchun ikki baho qoʻyadi. Sen unga, "semiz badbashara", deysan.
Hassa tutgan kampir aylanadigan eshik oldida turib, undan oʻtib olishga qoʻrqyapti. Sen uning oʻtib olishiga yordam berasan.	
	Militsioner maysazorda yurganing uchun seni ogohlantiradi. Sen shunday javob berasan: "Nima boʻpti, shuning uchun meni otib tashlaysanmi, kurka?"
Plyajdagi qutqaruvchi senga belgilangan joydan tashqarida suzish mumkin emasligini aytadi. Sen shunday javob berasan: "Yaxshi, men endi bunday qilmayman".	

Sen fahmlab olganingdek, bu mashqdan koʻzlangan maqsad boshqa odamlarga boʻlgan hurmat ijobiy natijalarga va yaxshi kayfiyatga sabab boʻlishini koʻrsatishdir. Sen qoʻpol va behurmat boʻlganingda esa bundan hech bir yaxshilik chiqmaydi, mabodo militsioner bilan tortishsang, seni hattoki militsiyaga olib ketishlari mumkin.

Muqaddas Kitobda agar sen odamlarga (ayniqsa hukumatga) hurmat koʻrsatishdan bosh tortsang, oʻzingda noxushliklar boshlanishiga hayron qolmasliging aytilgan. Agar sen yaxshilik qilsang va oʻzingni muloyim tutsang, maqtovga va yaxshi kayfiyatga sazovor boʻlasan.

MULOHAZA QILGIN: Sen ushbu jumlani qanday yakunlagan boʻlarding: boshqa odamlarga hurmat bizni _____ himoya qiladi va _____ yordam beradi.

HARAKAT QIL: Keyingi ikki kun mobaynida shunday tajriba oʻtkaz: kim bilan uchrashmagin, hammalari bilan mehribon va hurmat bilan munosabatda boʻl. Buning ijobiy va salbiy natijalarini yozib qoʻygin.

IBODAT: "Xudoyim, men odamlarga hurmat bilan munosabatda boʻlganimda yuz berayotgan barcha yaxshiliklar uchun Senga rahmat. Men _____ oʻzimni yaxshi his etishimga yordam berayotganing uchun Sendan minnatdorman".

23 IYUN. ASKAR TARIXI
Kalomdan oʻqish: 2 Shohlar 9:1-13
Unga Xudoning marhamatini koʻrsatayin (2 Shohlar 9:3).

Amerikalik badavlat tijoratchi Devid King Xanoy mehmonxonalaridan biridagi kutish zalida oʻtirardi. U Vetnamda jang qilib oyogʻini yoʻqotganidan buyon oradan yigirma yildan ortiq vaqt oʻtgandi.

Oʻshandan buyon u boy boʻlib ketgan va hassaga suyanmasdan biroz oqsoqlangancha yurishni oʻrganib olgandi.

Kutish zaliga bashang kiyimdagi bir erkak kirib, King oldiga yaqinlashdi.

– Menda yaxshi yangiliklar bor, – dedi u.

– Buni eshitishdan xursandman, Dziba, – deya javob qaytardi King yordamchisi Jek Dzibaga qarab.

– Men Lo Dongning oʻgʻillaridan birini topdim, – dedi Dziba. – Men uning qayerda yashashini bilib oldim.

– Ajoyib! – dedi King. – Oʻsha yoqqa joʻnaymiz!

Dziba ikkilanib qoldi:

– Maylimi bir savol bersam?

King yelkasini qisib qoʻydi. Dziba gapida davom etdi:

– Nima uchun siz yigirma yildan buyon koʻrmagan vetnamlikni topish uchun, biz shuncha kuch sarfladik?

King chuqur tin oldi:

– Lo Dong mening hayotimni saqlab qolgan. Agar u meni otishma ichidan olib chiqmaganida, qonga botib o‘lgan bo‘lardim. Men endi badavlatman va Xudoning inoyatini Lo Dong hurmati uchun uning oilasiga ko‘rsatmoqchiman.

King va Dziba Lo Dong oilasi yashagan shaharga uzoq sayohat uyushtirishdi va uch kunlik izlashdan so‘ng Kingning hayotini asrab qolgan odamning o‘g‘lini topishdi. Vetnamlik amerikalikka ta’zim qildi, u esa xuddi shu tarzda javob qaytardi. King vetnamliklar tilida nega kelganligini zo‘rg‘a tushuntirdi. Lo Dong o‘g‘lining ko‘zlari yoshlandi; u hammasini tushunganida yana bir bora ta’zim qildi.

Oxir-oqibat Lo Dongning o‘g‘li Kingning ko‘p millatli kompaniyasi xodimi bo‘ldi va ular yaqin do‘stlarga aylanishdi. Bir kuni King o‘z intervyusida shunday dedi: “Agar men o‘shanda Xanoyga sayohat qilmaganimda, hayotimni saqlab qolgan insonning o‘g‘li – eng yaxshi do‘stim bilan tanishmagan bo‘lardim”.

MULOHAZA QILGIN: Devid King va Lo Dongning o‘g‘li bilan bog‘liq voqea o‘ylab topilgan. Biroq, u bo‘lib o‘tgan voqealarga asoslangan. U nimasi bilan 2 Shohlar 9:1-13 bayon etilgan voqealarga o‘xshaydi?

Nima deb o‘ylaysan, odamlarga hurmat bilan munosabatda bo‘lib, sen ko‘proq do‘stlar orttirasanmi yoki dushmanlar topasanmi? Sening do‘stliging yanada mustahkam bo‘ladimi? Agar yo‘q bo‘lsa, nima uchun? Agar shunday bo‘lsa, qay tarzda?

HARAKAT QIL: Sen kecha boshlagan tajribang haqida eslaysanmi? Hammaga hurmat bilan munosabatda bo‘lishda davom etaver. Kun oxirida natijalarni qayta ko‘rib chiq. Yaxshilari ko‘pmi yoki yomonlarimi? Ehtimol, keyingi kunlarda ham tajribani davom ettirishni istab qolarsan!

IBODAT: “Rabbim, men o‘zimni mehribon, sabr-toqatli va hurmat bilan boshqarganimda orttiradigan do‘stlarim uchun Sendan minnatdorman”.

24 IYUN. DONIYoRNING PARHEZI

Kalomdan o‘qish: Doniyor 1:3-16

Bu taomlardan u voz kechmoqqa ahd qilib, bosh mulozimdan buning uchun kechirim so‘radi (Doniyor 1:8).

– Sizni butun Bobil shohligidagi madaniyat yangiliklarining kunlik sharhi “Bugungi Bobil” ko‘rsatuvi qarshi olmoqda! – deydi tonggi quyosh tasvirlangan manzara oldida o‘tirgan sariq sochli boshlovchi, yuziga qalin surtilgan grim ortidan jilmayganicha.

– Butun shohlikni qamrab olayotgan mashhur “Doniyorning parhezi” urfining yaratguvchisi, – deya e’lon qiladi ayol, – bugungi birinchi mehmonimiz bo‘ladi.

U o‘giriladi va kamera chiroyli tikilgan kiyimdagi yosh yigitni ko‘rsatadi.

– Bizga aytib beringchi, – deb so‘raydi boshlovchi, – siz bu urfni qanday qilib yaratdingiz.

Yigit yelkasini bukib, studiyaning yorqin nurlaridan ko‘zlarini qisadi.

– Men umuman yangi urf yaratmoqchi emasdim, – deydi u. – Meni shoh xizmati uchun tayyorlashgandi...

– Bizning buyuk Navuxodonosor xizmatiga – u abadiy yashasin! – ayol asabni qo‘zg‘atadigan baland kulgisi bilan uning so‘zini bo‘ladi.

– Ha, – deya davom etadi Doniyor. – Bizni o‘qitishni boshlaganlarida yaxshigina ovqat bera boshlashdi: ko‘p go‘sht, sharob va shu kabi ozuqalar. Ammo ko‘rayapsizki, men yahudiyman, bizda ovqatlanish qoidalari qat’iy belgilangan. Qisqacha qilib aytganda, men faqat sog‘lom taomlardan iste’mol qilishga ruxsat so‘radim.

– Siz shohona taomlardan voz kechdingizmi? – deb so‘radi ayol. – Bundan qo‘rqmadingizmi?

Doniyor bosh irg‘aydi:

– Qo‘rqdim. Biroq men o‘zimni murdor qilmoqchi emasdim, – u kameraga o‘giriladi. – Ko‘rayapsizmi, agar oldindan hammasiga qat’iy kirishgan bo‘lsang, to‘g‘ri qarorga kelishing osonroq kechadi. Meni bu mamlakatga olib kelishganida O‘z Xudoyim va Uning bizga bergan amrlari haqida unutmaslikka ahd qildim. Meni shoh xizmatiga tayyorlayotganlarida, ovqatlanish borasida muammolar bo‘lishi mumkinligini bilardim. Xullas, men vasvasaga duch kelganimda nima qilishim haqida avvaldanoq bir qarorga kelgandim. Shu bois shohona taomlardan voz kechib, sabzavotlar va suvnigina so‘rashim oson kechdi.

– Siz... siz shohona taomlarni orqaga qaytarib yubordingizmi? – deb so‘raydi ayol go‘yo Doniyorning yelkasidan yana bitta bosh o‘sib chiqqandek hayron qarab. U yo‘talib asabiy holatda jilmayadi. – Qiziq suhbatingiz uchun tashakkur... Biz reklamadan so‘ng davom ettiramiz.

MULOHAZA QILGIN: Doniyor 1:3-16 oyatlariga asosan “Doniyorning parhezi”ni qayta o‘qib chiq. Doniyorning (yahudiyning) to‘g‘ri yo‘l tutishiga va shohga e’tiroz bildirishiga nima yordam berdi? Sen noto‘g‘ri tanlovlardan qochishga qaror qilganmisan?

HARAKAT QIL: Mabodo vasvasa bilan to‘qnashsang nima qilishing haqida hoziroq fikrlab ko‘rgin. Aniq bir vasvasalarni sanab o‘tgin: agar menda shu masalada vasvasa uyg‘onsa _____, men _____ qilaman”.

IBODAT: Zabur 118:12-oyati bilan ibodat qil: “Ey Egam, Senga olqishlar bo‘lsin, Farmonlaringni o‘rgatgin menga”.

25 IYUN. OQ QUYON

Kalomdan o‘qish: 1 Butrus 4:1-5, 19

Endi esa atrofdagilar sizlarni ko‘rib, hayron bo‘lyaptilar. Ularning yaramas qilmishlariga qo‘shilmaganingiz uchun sizlarni haqorat qilyaptilar (1 Butrus 4:4).

Kunlardan birida oq quyoncha oilasi yashaydigan in yaqinida quvonch bilan o‘ynoqlab yurardi. Ba’zan yonginadan uchib o‘tadigan qirg‘iylar oppoq qor ustidagi oq mo‘ynali quyonni ilg‘amay qolishardi.

To‘satdan kichkinagina sichqon paydo bo‘lib qoldi. Quyoncha o‘zi bilan o‘ynashga uni taklif qildi, ular do‘stlashib quyonchaning uyi atrofidagi qor ustida o‘ynadilar. Sichqon uning oldiga keyingi kuni ham keldi va undan keyin kelaverdi, shu tariqa ular har kuni birgalikda o‘ynaydigan bo‘lishdi.

Bir kuni sichqon shunday deb qoldi:

– Mening oldimga mehmon bo‘lib kelgin!

– Sen qayerda yashaysan? – deb so‘radi quyoncha atrofga nazar tashlab.

– Kattakon uyda, odamlar bilan birgalikda, – deb javob qaytardi sichqon. – Ko‘mir solingan o‘rada. Biz ko‘mirga tiqilib olib vaqtni ajoyib o‘tkazamiz.

– Bilmadim, – deya ikkilandi quyoncha. – Men inimizdan uzoqqa ketmasligim kerak. Onam uzoqqa ketishimga izn bermaydi, – u osmonga qarab qo‘ydi. – Bilasanmi, atrofda qirg‘iylar uchib yurishadi.

– Eh, bunaqa qo‘rqoq bo‘lma! – debdi sichqon. – Qirg‘iylar senga hech narsa qilisholmaydi. Biz axir tom ostidagi katta uyda bo‘lamiz! U yoqqa qushlar umuman uchib kirishmaydi.

– Mayli, – deb rozi bo‘libdi quyoncha. – O‘ylashimcha, bir marta borishdan qo‘rqmasam ham bo‘ladi.

U do‘stining o‘zi haqida qo‘rqoq, deb o‘ylashini istamabdi.

Quyoncha va sichqon sichqonlar oilasi yashaydigan ko‘mir o‘rasiga kirib olishibdi. Ular toki qorong‘i tushib, quyoncha uyga qaytish vaqti kelganini anglamagunicha ko‘mirga belanib yugurishibdi va o‘ynashibdi. U sichqon bilan xayrlashib, imkon qadar tezlik bilan iniga qarab yuguribdi.

Baland osmonda och qirg‘iy parvoz qilib yurardi. Banogoh nimadir uning diqqatini tortdi. Bu ko‘mirga belangani bois terisi qorayib ketgan quyoncha edi. U qor ichida yugurib borardi. Qirg‘iy pastga sho‘ng‘ib, bir lahzadayoq quyonni ilib oldi. Shundan buyon har bir oq quyonchaning ota-onasi do‘stining gapiga kirib, noto‘g‘ri yo‘l tutgan quyonchaning qayg‘uli qissasi haqida so‘zlab berisharkan.

MULOHAZA QILGIN: Sening do‘stlaring qachonlardir biror yomon yoki xatarli ish qilishga seni undashganmi? Sen bunday vaziyatlarda nima qilasan? Nima deb o‘ylaysan, seni noto‘g‘ri yo‘l tutishga undaydigan do‘stlaring yaxshimi yoki yomon? Sen mabodo do‘stlaringning gapiga kirib qandaydir yomon ish qilsang, bundan odatda do‘stlaring aziyat chekadimi yoki sening o‘zingmi?

IBODAT: “Rabbim, do‘stlarim meni biror yomon ishga undashganlarida, to‘g‘ri yo‘l tutishim qiyin kechadi. Nima yaxshi ekanligini eslashim va meni noxushlikka tortmasliklariga ijozat bermagan holda do‘stlarimga namuna ko‘rsatishim uchun menga yordam ber”.

26 IYUN. CHO‘CHQANING TILI

Kalomdan o‘qish: Yoqub 3:2-12

Odamlarning hammasi ko‘p xato qiladi. So‘zlayotganda xato qilmagan inson yetukdir. U butun vujudini jilovlay oladi (Yoqub 3:2).

BIR BADAVLAT AYOL o‘z oshpaziga bir kuni shunday debdi:

– Bugun oqshom men sevadigan erkak uyimga mehmon bo‘lib keladi. Men istardimki, sen bizga eng yoqimli bir taom tayyorlab bersang.

Oshpaz kechqurun ayolga va uning sevgilisiga ko‘plab mazali taomlarni tortiq qilibdi. Va nihoyat u shunday e’lon qilibdi:

– Bugungi eng asosiy taom, bu cho‘chqaning tili!

– Cho‘chqaning tili! – deb takrorlabdi ayol. – Men senga eng yoqimli taom tortishingni so‘ragan edim!

Oshpaz bosh irg‘abdi:

– Qachonki ikki inson bir-birlarini sevganlarida, ularning tillari faqat eng yoqimli va nafis so‘zlarni aytishadi. Zotan, til eng yoqimli taom emasmi?

Ayol jilmayibdi:

– Bu to‘g‘ri, – debdi u. – Sen nafaqat yaxshi oshpaz, balki dono ham ekansan.

Va ayol o‘z mehmoni bilan lazzatli taomdan bahra olishibdi. Biroq ular so‘ngra o‘zaro janjallashib, bir-birlaridan xafa bo‘lgan holda ajralishibdi.

Keyingi kuni ertalab ayol oshpazini chaqirib:

– Bugun kechqurun, – debdi u, – men eng yoqimsiz taom tortishingni istayman.

Kechqurun haligi ikkalasi dasturxon atrofida o‘tirganlarida, oshpaz tag‘in turli mazali taomlar taqdim etibdi. So‘ngra esa u shunday e’lon qilibdi:

– Bugungi asosiy taom cho‘chqaning tili!

– Nima? – deya hayqiribdi ayol. – Men kecha eng yoqimli taom so‘raganimda sen cho‘chqa tilini dasturxonga qo‘yganding. Bugun ertalab esa eng yoqimsiz taomni so‘radim, sen esa tag‘in cho‘chqa tilini olib kelding.

Oshpaz hurmat yuzasidan ta’zim qilibdi:

– Qachonki ikki kishi bir-birlariga jahl qilib janjal ko‘tarishsa, ularning tili yoqimsiz va qabih so‘zlarni aytadi. Zero, til dunyodagi eng yoqimsiz taom emasmi?

Ushbu vetnam xalq ertagi – Muqaddas Kitobda Yoqub bitgan oyatlarga o‘xshaydi: “Turli xil yovvoyi hayvonlar bilan qushlar, sudraluvchi va dengiz hayvonlari inson zoti tomonidan boshqarilgan va boshqarilmoqda. Ammo tilni hech bir inson boshqara olmaydi. Tinib-tinchimas bu yovuz til zahri qotildir. Biz tilimiz bilan samoviy Otamiz bo‘lgan Egamizni olqishlaymiz va tilimiz bilan Xudoning suratida yaratilgan insonlarni la’natlaymiz. Olqish va la’nat bir og‘izdan chiqadi. Ey birodarlarim, bunday bo‘lmasligi kerak!” (Yoqub 3:7-10).

Til hayratomuz tarzda ezgulik va yovuzlikni yaratishi mumkin. Noto‘g‘ri qaror aksariyat hollarda noto‘g‘ri so‘zdan boshlanadi. Zero, “so‘zlayotganda xato qilmagan inson yetukdir. U butun vujudini jilovlay oladi” (Yoqub 3:2). Agar biz kamroq gapirib ko‘proq eshitishni o‘rgansak, noxush holatlarga tushib qolmasligimiz oson kechadi.

MULOHAZA QILGIN: Sen tilingni tiyib olmaganing bois noxush holatlarga tushgan paytlaringni eslay olasanmi? Sen o‘zingni qay tariqa yaxshiroq nazorat qilishing mumkin?

IBODAT: “Rabbim, bugun o‘z tilimni nazorat qilishim uchun yordam ber, ayniqsa _____ ”.

27 IYUN. YAXSHI NIMA O‘ZI?
Kalomdan o‘qish: Ibtido 1:1-12
Xudo bularning ham ajoyib ekanini ko‘rdi (Ibtido 1:12).

Odamlar yaxshi so‘zini turlicha tarzda ishlatishadi. Bu nimadir mazali, ajoyib yoki iste’molga yaroqli, yoqimli yoki jozibador ma’nosida bo‘lishi mumkin. “Maksvell” qahvasi oxirgi tomchisigacha zo‘r!” deya bizga uqtiradi reklama. Biroq yaxshi so‘zi axloqiy nuqtai nazardan ham to‘g‘ri. Onang shunday deganida mana nimani nazarda tutadi: “Maktabda o‘zingni yaxshi tut”. Mana, odamlar kimnidir “yaxshi inson” deganlarida nimani nazarda tutishadi. Mana, Muqaddas Kitob ushbu so‘zlarni aytganida nimani nazarda tutadi: “Yomonlikdan nafratlanib, yaxshilikni mahkam tuting” (Rimliklar 12:9).

Chalkashib ketish mumkin, to‘g‘rimi? Ba’zan yaxshi bu “mazali” yoki “yoqimli”. Biroq, ba’zan axloqiy nuqtai nazarga ko‘ra, bu yovuzlikka qarshi ezgulikdir. Bilasanmi, vaziyatni yana nima chigallashtiradi?

Ko‘pchilik axloqiy masaladagi yaxshilik boshqa jabhalardagi yaxshiliklardan hech qaysi jihati bilan farq qilmaydi, deya hisoblashadi. Ular shunday o‘ylashadi: “Sen shokoladni yaxshi ko‘rasan, men esa vanil kremini. Sen, aldash yomon deb o‘ylaysan, men esa bunday deb o‘ylamayman”. Biroq bu noto‘g‘ri, negaki ular “yaxshi” tushunchasini turlicha qabul qilishadi. Odamlarda taom, musiqa yoki gullar borasida turlicha ta’b va fikrlar bo‘lishi mumkin; biroq gap ezgulik va yovuzlik masalasiga borib taqalganida, biz nima yaxshiyu, nima yomonligini hal qilolmaymiz. Bizga nima yoqishi yoki yoqmasligi muhim emas. Xudoning aytgani muhim. U bizga allaqachon nima yaxshiyu, nima yomonligini aytgan. Biz U bilan bahslashishimiz mumkin. Biz U bilan kelishmasligimiz mumkin. U bizga aytganlariga e’tibor bermasligimiz mumkin. Biroq biz o‘z o‘zimizcha nima “yaxshi” ekanligini hal qila olmaymiz.

MULOHAZA QILGIN: Sen bugun axloqiy ma’noda to‘g‘ri yo‘l tutdingmi? Sen Xudoga manzur bo‘ladigan tarzda o‘zingni boshqardingmi? Agar shunday bo‘lmasa, Xudodan kechirim so‘ragin.

HARAKAT QIL: Odamlar “yaxshi” so‘ziga qanday ma’no yuklayotganlariga diqqat bilan quloq sol. O‘zingdan so‘rab ko‘rgin: “mazali”, “yoqimli”, “ajoyib” so‘zlari (bu odamning o‘z ta’bi va fikrlashiga bog‘liq holda) ahamiyatga egami yoki bu o‘rinda yaxshi *axloqiy masalada* (shaxsiy fikr va ta’bga bog‘liq bo‘lmagan holda) nazarda tutilganmi?

IBODAT: “Xudoyim, meni ezgulikka o‘rgatayotganing uchun Senga rahmat. Yovuzlikdan nafratlanishim uchun menga yordam ber”.

28 IYUN. XUDO ULUG‘, XUDO EZGULIKDIR
Kalomdan o‘qish: Ibtido 1:14-25
Naqadar yaxshisan, ezgulik qilasan, Farmonlaringni menga o‘rgatgin (Zabur 118:68).

NIMA DEB O‘YLAYSAN, quyidagi so‘zlardan har biri nimani anglatadi?

Indulgensiya nima ekanligini bilasanmi?

- □ Soliq nazorati bo‘limidagi navbat
- □ Kimyoviy reaksiya
- □ Gunohlar kechirimi haqidagi hujjat

Ponton nima o‘zi?

- □ Chuqur jarlik
- □ Uzumning noyob turi

□ Suzadigan ko‘prik

Yaxshi nima ma’noni anglatadi?

□ Birovga ziyon yetmagunicha xohlaganini qilayotgan kishi
□ “Borliq bilan yagona” bo‘lgan kishi
□ Xudoga manzur bo‘lgan kishi

Harqalay, sen vazifani uddalagan bo‘lsang kerak. *Indulgensiya* bu gunohlar kechirimi haqidagi hujjat. *Ponton* bu suzuvchi ko‘prik. *Yaxshi* esa Xudoga yoqadigan kishi demakdir.

Xudo borliqni va undagi bor narsalarni yaratganida, U O‘z ijodiga qarab bularning yaxshi ekanligini ko‘rdi. Bu shunchaki fikr emas: haqiqatdan ham shunday bo‘lgan! U barcha yaratilganlarni O‘zi bilan taqqoslab ko‘rdi, demak, barchasi (U kabi) toza, mukammal va begunoh edi, u “yaxshi” edi.

Qachonki gunoh olamga kirib kelganida u Xudo ijodining “yaxshi”sini buzdi. Ammo ba’zi narsalar o‘zgarmadi: inson axloqan yaxshi bo‘lganida, u Xudoga o‘xshaydi. Agar u Xudodek bo‘lmasa, demak, yaxshi emas.

Agar sen barcha fikrlaringni, qilayotgan ishlaringni va so‘zlaringni Xudoning birgina yaxshilik andazasi bilan solishtirsang, amalda yomon ishlar qilolmaysan. Agar sen har safar biror tanlov qilganingda o‘zingdan, “Xudo shunday yo‘l tutgan bo‘larmidi?”, deb so‘rasang, ezgulik va yovuzlik o‘rtasidagi farqni aniqlashing anchayin oson kechadi... Zotan, Xudo yaxshidir.

MULOHAZA QILGIN: Ibtido kitobining 1-bobida Xudo O‘z ijodini necha bora “yaxshi” deb ataydi? U O‘z ijodini nima bilan taqqoslagan?

Do‘stlaringning nima yaxshiyu, nima yomon ekanligi haqidagi tasavvurlariga tayanish osonmi yoki Xudo bilan, ya’ni, yaxshilik andazasi bilan nimani o‘ylayotganlaring, qilayotganlaring va so‘zlayotganlaringga asoslanib ish tutish osonroqmi? Yaxshi nima o‘zi?

IBODAT: “Xudoyim, Sen yaxshi bo‘lganing uchun men Seni ulug‘layman. Sen muqaddassan. Sen mukammalsan. Sen pokizasan. Sen nimaiki o‘ylayotgan, qilayotgan va gapirayotgan bo‘lsang barchasida haqsan. Faqatgina Sen ezgulik ekanligingni eslab turishim uchun yordam ber”.

29 IYUN. SHON-SHARAFNING AKS ETISHI

Kalomdan o‘qish: Ibtido 1:26-31

Keyin Xudo shunday dedi: “Endi inson zotini yarataylik, ular O‘z suratimizday, O‘zimizga o‘xshagan bo‘lsin (Ibtido 1:26).

Biz hammamiz... o‘zgarib borar ekanmiz, yanada ulug‘vor bo‘lib, Egamizga o‘xshagan bo‘lamiz (2 Korinfliklar 3:18).

SEN TO‘LIN OYNI KO‘RGANSAN, to‘g‘rimi? Albatta, ko‘rgansan. Oy to‘lishgan paytda xuddi kunduzdagidek yorug‘ bo‘ladi. Sen garchi yarim tun bo‘lsada uzoqdagi hamma narsani, daraxtlarni, yo‘laklarni va gullarni ko‘rasan.

Aslida esa oy yog‘dusi mavjud emasligini bilasanmi?

Bu haqiqat! Oy yog‘dusi Oydan emas, balki Quyoshdan hosil bo‘ladi! Oy kechasi yoritadi, negaki quyosh nuri uning ustki qismida aks etadi. Yer va Oy Quyosh atrofida aylanishadi, shu bois biz ba’zan to‘lin Oyni ko‘ramiz, ba’zida esa yarim oyni, ba’zan esa Oyni umuman ko‘rmaymiz, u batamom yer soyasida qolib ko‘rinmaydi.

Biz qaysidir ma’noda Oyga o‘xshaymiz. Xuddi Oy kabi bizning o‘z yorug‘ligimiz yo‘q, Muqaddas Kitobda aytilganidek, o‘z haqiqatimiz yo‘q. Bizlarning oramizda biror yaxshi yo‘q; biz hammamiz gunohkorlarmiz (qarang Zabur 13:1-3; Mark 10:18; Rimliklar 3:23).

Xuddi Oy faqatgina Quyosh nurini aks ettirib, “yog‘du taratgan”i kabi, biz ham faqat Xudoning marhamatini aks ettiribgina yaxshi va marhamatli bo‘lishimiz mumkin. Biz yaxshi emasmiz, qanchalik urinmaylik, yaxshilik qila olmaymiz (Rimliklar 7:18-19). Biroq Xudo ezgulikdir, biz o‘z hayotimizga Uning Muqaddas Ruhi kirib kelishiga va bizni boshqarishiga izn berganimizda, U bizga to‘g‘ri qaror qabul qilishimiz va Uning marhamatini aks ettirishimizga yordam beradi.

Biz Xudoning ko‘magi bilan yaxshilik qilganimizda, xuddi oy quyoshning yog‘dusini aks etgani kabi, biz Uning siymosini aks ettiramiz.

MULOHAZA QILGIN: Nima deb o‘ylaysan, Xudoning timsoli sifatida yaratilish nimani anglatadi? Bu biz Xudodek kabi ko‘rinishimiz lozimligini bildiradimi? Bu biz ezgulik va yovuzlikdan birini tanlay olishimiz mumkinligini anglatadimi? Yoki buning yana boshqacha ma’nosi bormi? Nima deysan? Sen Xudoning siymosini shu haftada qanday namoyon etding? Kechagi kundachi? Bugunchi? Sen bugun va ertaga qay tariqa Xudo marhamatining aksi bo‘la olasan?

HARAKAT QIL: Bugun kechqurun qorong‘i tushganida, ko‘chaga chiq. Tungi osmondan oyni topgin va xuddi Oy quyosh yog‘dusini aks ettirgani kabi, Xudodan Uning timsolini aks ettirishingda yordam berishini so‘ra.

IBODAT: “Rabbim Ota, Sen meni O‘z siymong kabi yaratganing uchun rahmat. Bugun Sening marhamatingni aks ettiruvchi bo‘lishim uchun yordam ber, xususan, _____”.

30 IYUN. YOMON NIMA O‘ZI?

Kalomdan o‘qish: Efesliklar 5:15-17

Shunday qilib, qay tarzda yashayotganingizga diqqat qilinglar. Nodonlar kabi emas, balki donolarday hayot kechiringlar (Efesliklar 5:15).

TASAVVUR QILGIN, SEN Anya xolaning tug‘ilgan kuniga onang tayyorlagan shirinlikka bir tovoq achchiq sousni to‘kib yubording.

Yoki sen dadangga yakshanba kuni futbol o‘yiniga bora olmasligini aytasan, negaki onang uning uchun o‘sha kuni ziyofat hozirlayapti, ammo bu kutilmagan sovg‘a bo‘lishi kerakligi haqida hech kim seni ogohlantirmagan edi.

Yoki o‘n sakkizta farzandli bemor qo‘shningga donor yurakni tibbiyot yo‘li bilan o‘tkazishmoqchi, sen esa singlingdan iltimos qilib, uning bolalariga qarab o‘tirishini qo‘shningga va’da berganding. Ammo sen va’dangni unutding, qo‘shni ayol esa jarrohlik amaliyotini qoldirishiga to‘g‘ri keldi, yurakni esa boshqa birovga berib yuborishdi.

Kun og‘ir kechdi, to‘g‘rimi? Ehtimol, sen bilan hech qachon bunday hol yuz bermagandir, biroq shunga o‘xshash holatlar sodir bo‘lgandir va keyinchalik o‘zingni yomon his qilgandirsan. Ammo shuni yodda saqlash muhim: har qanday muvaffaqiyatsiz ish ham yomon bo‘lavermaydi. Misol uchun, quyidagi variantlarni qarab chiq: ulardan birining yomonligi aniq. Boshqasi esa noo‘rin bo‘lib, noqulay vaziyatlarga tushirib qo‘yishi mumkin, - biroq u axloqan yomonlik bo‘lib qolavermaydi.

Yomon qaror: Sen plyajga borishingni onangga aytmasdan uni aldading.

Omadsiz qaror: Sen plyajda toki terga botib ketmaguningcha yotib qorayding.

Yomon qaror: Sen barmog‘ingga bolg‘a urib olganingda, juda yomon so‘z aytib yubording.

Omadsiz qaror: Sen barmog‘ingga bolg‘a urib olganingda, g‘azabdan bolg‘a bilan boshingga urding.

Yomon qaror: Sen itning ovqatiga ich suradigan dori solib berding.

Omadsiz qaror: Sen itning ovqatiga ich suradigan dori solib berding va uni o‘z to‘shagingga yotqizib qo‘yding.

Barchamiz har zamon har zamonda adashib turamiz. Ba’zan bu xatolar gunohkorona bo‘ladi – biz Xudo buyurmagan ishlarni qilamiz. Ammo ba’zan bu shunchaki omadsiz harakatlar bo‘ladi: biz Xudoning amrlariga zid kelmaydigan qandaydir ahmoqliklar qilamiz.

Gunohkorona qarorlar qilmaslik va shunchaki ahmoqlik qilganimizda o‘zimizni aybdor his qilmaslikka o‘rganish bag‘oyat muhim. Sen ikkala holatda ham javobgarsan. Sen har qanday vaziyatda ham kechirim so‘rashni bilishing lozim. Unisidan ham, bunisidan ham qochishga harakat qil. Ammo unisini bunisi bilan chalkashtirma.

MULOHAZA QILGIN: Gunohkorona va omadsiz qarorlar o‘rtasida qanday farq bor? Biz ikkala holatda ham o‘zimizni aybdor his qilishimiz kerakmi? Ikkala holatda ham javobgarmizmi? Kechirim so‘rashimiz shartmi? Bunday vaziyatlardan qochishga urinish kerakmi?

HARAKAT QIL: Sen ushbu haftada kitob o‘qiyotgan yoki televizor tomosha qilayotgan bo‘lsang, undagi qahramonlar qabul qilayotgan qarorlarga e’tibor ber. Ulardan qaysi biri gunohkorona va qaysilari omadsiz qaror ekanligini belgilab qo‘y.

IBODAT: “Rabbim, bugun noto‘g‘ri qarorlardan qochishim uchun menga donolik ato et. Omadsiz qarorlardan qochishim uchun ham yordam ber”.

1 IYUL. TO‘G‘RILIK O‘LCHOVI

Kalomdan o‘qish: 2 Korinfliklar 10:12, 18

Ular o‘zlarini o‘zlari bilan o‘lchab, o‘zlarini o‘zlariga qiyos qiladilar (2 Korinfliklar 10:12).

SEN YAGONA O‘LCHOV ANDAZASI yo‘q dunyoni tasavvur qilasanmi? Men “besh santimetr” deb o‘lchaydigan masofani sen “o‘n santimetr” deb o‘lchashing mumkinmi? Men uchun “kilogramm” bo‘lgan og‘irlik sen uchun “tonna” bo‘la oladimi? Biror joyda kimdir uchun “kilometr” bo‘lgan joy boshqa uchun “sakrash uchun masofa” bo‘ladimi?

Bunday dunyoda yashash qanchalik murakkab bo‘lgan bo‘lardi! Biz uylarni qanday qilib qurgan bo‘lardik? Bizga do‘konda mahsulotlarni qanday qilib tortib berishardi? Uyingdan toki xolangning uyigacha qancha masofa borligini va o‘sha yoqqa borish uchun qancha vaqt talab etilishini qay tariqa bilgan bo‘larding?

Andazaviy qoliplar to‘plami bo‘lmasa hayot chalkashliklarga to‘la bo‘lardi. Xuddi shu holat bizning ruhiy hayotimizga ham taalluqli.

Sen qaror qabul qilish vaqti kelganida, “qanday “o‘lchov andazasi”dan foydalanasan? Do‘stlaring fikriga tayanasanmi? Olomon ortidan ergashib, boshqalarga tanilish mumkin, ammo bu hamisha ham aqldan emas.

Ehtimol, qandaydir “ichki sezgi” senga nima to‘g‘riyu nima noto‘g‘ri ekanligini aytar? Muammo shundaki, tuyg‘ular o‘zgarishi mumkin. Bugun to‘g‘ri bo‘lib tuyulayotgan narsa ertaga noto‘g‘ri bo‘lib ko‘rinishi mumkin.

Yoki sen yagona haqiqiy o‘lchov andazasiga – Xudoga va Uning Kalomiga tayanasanmi? Xudo O‘z Kalomi kabi o‘zgarmasdir; shu bois sen to‘g‘ri yo‘l tutayotganingga ishonch hosil qilishing mumkin. Va ishonching komil bo‘lsin: Xudo nafaqat bugun, balki ertaga ham, umuman aytganda, hamisha ham haq.

Sen qachonki o‘z qaroringni Xudo va Uning Kalomi bilan tekshirib ko‘rganingda, bu qarorlaring to‘g‘ri, harakatlaring esa yaxshi ekanligiga ishonsang bo‘ladi.

MULOHAZA QILGIN: Mabodo o‘lchov andazalari mavjud bo‘lmaganida, hayoting qanday bo‘lishi haqida o‘ylab ko‘r. Sen vaqtni qanday o‘lchagan bo‘larding? Pulnichi? Qay tariqa kiyim sotib olgan bo‘larding? Boshqa narsalarnichi? Sen quyidagi qarorlarni qabul qilayotganingda, mo‘ljalni nimaga qaratasan?

- □ **Ota-onang fikriga**
- □ **Do‘stlar fikriga**
- □ **Jamoat fikriga**
- □ **O‘z tuyg‘ularingga**
- □ **Munajjimlar bashoratiga**
- □ **Meni nima o‘rgatgan bo‘lsalar, o‘shanga**
- □ **Jamoat fikriga**
- □ **Qonun aytganiga**
- □ **Xudoning aytganiga**

Xo‘sh, endi sen nimaga tayanmoqchisan?

HARAKAT QIL: Ko‘rinadigan joyga o‘lchagichni qo‘ygin va u senga Xudo bilan o‘z harakatlaringni tekshirib turish kerakligini, U nimani gapirayotganini va boshqa “o‘lchovlar”dan foydalanmaslik haqida eslatib tursin.

IBODAT: “Rabbim, Sen o‘z hayotimni tekshirib ko‘rmoqchi bo‘lgan o‘sha andazasan”.

2 IYUL. OLMALAR VA APELSINLAR

Kalomdan o‘qish: Rimliklar 14:1-4

Sen kim bo‘libsanki, birovning xizmatkorini tergaysan? Xizmatkorning to‘g‘ri yoki noto‘g‘ri ish qilganini uning xo‘jayini tasdiqlaydi-ku!Xo‘jayin xizmatkorni boshqargani uchun xizmatkor to‘g‘ri ish qiladi (Rimliklar 14:4).

QUYIDAGI SAVOLLARGA JAVOB BER.

- Nima yaxshi: koka kolami yoki pepsi?
- Qaysi rang chiroyli: ko‘kmi yoki yashil?
- Kim zo‘rroq: Betmenmi yoki Supermen?
- Qaysi meva shirinroq: olmami yoki apelsin?
- Nima qiziqarliroq: suv chang‘isida uchishmi yoki tog‘dagi daryoda sportcha qayiq eshish?
- Kim yaxshiroq kuylaydi: Pugachyovami yoki Baskov?

Barcha savollarga javob qaytardingmi? Qaysi javob to‘g‘ri ekan? Aslida, ikkalasi ham to‘g‘ri. Yoki ulardan bittasi ham to‘g‘ri emas.

Bu qanday bo‘lishi mumkin? Deylik, sen koka-kolani afzal ko‘rasan, do‘sting esa pepsini ko‘proq xush ko‘radi. Sen Supermen hammadan zo‘r deb o‘ylaysan, do‘sting esa Betmenga ixlosi baland. Sen olmani yaxshi ko‘rasan, do‘sting esa apelsinni. Ehtimol, siz olmani ham, apelsinni ham xush ko‘rarsiz yoki undan ham, bundan ham ko‘ra bananni afzal deb bilarsiz.

Koka yoki pepsi, olmalar va apelsinlar bu ta’b bilan bog‘liq masala. Bu o‘rinda to‘g‘ri yoki noto‘g‘ri javob yo‘q. Bu sening shaxsiy ishing. Biroq hamisha ham shunday bo‘lavermaydi. Agar sendan, “olma yoki apelsindan qaysi biri sitrus mevasi hisoblanadi?”, deb so‘rashsa, buni sen hal qilolmasding. Bu o‘rinda to‘g‘ri javob: apelsin sitrus mevasi. Agar sendan, “Ko‘k yoki yashil ranglardan qaysi biri asosiy hisoblanadi?”, deb so‘rashganida, javob sening ta’bingga bog‘liq bo‘lib qolmasdi. Asosiy rang ko‘k. Yashil rang ko‘k va sariq ranglarning aralashmasidan paydo bo‘ladi.

Albatta, ko‘plab odamlar barcha masalalarda chalkashib, xuddi olma va apelsin o‘rtasidagi tanlov kabi ezgulik va yovuzlik o‘rtasidagi tanlovning ahamiyati yo‘q, deb o‘ylashadi. Ular senga shunday deyishlari mumkin: “Sen bunday qilish noto‘g‘ri deb o‘ylaysan, men esa boshqacha fikrdaman”. Ammo Xudo O‘z Kalomida nima yaxshi ekanligini aniq qilib aytadi (misol uchun, jamoatga muntazam borib turish bu yaxshi, qaragin: Ibroniylar 10:25). Qandaydir qarorlar qabul qilishimizni bizning o‘zimizga havola etadi (misol uchun, qaysi jamoatga borishimizni). Faqat birini ikkinchisi bilan adashtirmaslik muhim: agar Xudo nimanidir yomon deb atagan bo‘lsa, biz U bilan bu haqda bahslashmasligimiz kerak.

MULOHAZA QILGIN: Sen qachonlardir go‘yoki yaxshilik va yomonlik shaxsiy ishing bo‘lgani kabi o‘zingni tutganmisan? Nima uchun “ha” va nima uchun “yo‘q”?

HARAKAT QIL: Ta’b va haqiqat masalasini chalkashtirib qo‘ymaslik lozimligini eslatishi uchun bugun tushlikda olma va apelsin iste’mol qilgin.

IBODAT: “Xudoyim, vijdonim Sening va boshqa odamlar oldida toza bo‘lishi uchun qaror qabul qilishimda yordam ber”.

3 IYUL. BOSHPANA

Kalomdan o‘qish: Zabur 30:20-22

Huzuringda ularni himoya qilasan, inson fitnalaridan omon saqlaysan. Ularni O‘z chodiring ostida Ig‘volardan saqlab turasan (Zabur 30:21).

IKKINCHI JAHON URUSHI DAVRIDA Gollandiyada Ten Bum familiyali soatsozlar oilasi bo‘lgandi. Ular eng oddiy oila bo‘lib tuyulishardi, biroq ularning bitta sir bor edi: ularning uyi quvg‘inlar uchun boshpana edi.

Ten Bumlar uyida konsentratsion lagerlarga tushmaslik uchun Niderlandiyadan qochgan yahudiylar yashirinishgandi. Uyda maxfiy xonalar bo‘lib, “mehmonlar” xatar xavfi tug‘ilgan zahotiyoq o‘sha joylarda berkinib olishardi.

Ten Bumlarning har qancha urinishlariga qaramay, ularning boshpanasi baribir fosh bo‘ldi va barcha, shu jumladan, uy egalari ham konslagerga tushishdi.

Biroq tutqunlikda ham Korri Ten Bum Xudoga ishonchini yo‘qotmadi. Bu ayol konslagerga ham Muqaddas Kitobni olib kirishga muvaffaq bo‘ldi va uning uchun Xudoning Kalomi kuch va taskin manbaiga aylandi. U boshpanani Xudoning Kalomidan topdi. Xudoning amrlari va va’dalari unga tutqunlik mashaqqatlariga dosh berishiga yordam berdi. U Muqaddas Kitobni boshqa ayollarga ham o‘rgatdi va ular ham taskin va umidga erishdilar.

Xudoning sevgi ila bergan amrlari biz uchun boshpana bo‘lishi mumkin. Ular bizni ziyon zahmatdan asrashi mumkin; ular Xudoning huzuri uchun umid qilishlariga yordam beradi; ular Xudoning sevgisini eslatadi; ular atrofdagi barcha noto‘g‘ri ishlar qilayotganlarida to‘g‘ri qaror qabul qilishga yordam beradi. Albatta, agar biz Xudoning amrlarini o‘qimasak va ularni bajarmasak, bularning hammasini amalga oshira olmaymiz. Lekin biz Uning Kalomini o‘qiganimizda va Uning amrlarini bajarganimizda shunday deymiz: “Qamalda qolgan shaharday bo‘lganimda menga ajoyib sadoqatingni ko‘rsatganing uchun ey Egam, Senga olqishlar bo‘lsin!” (Zabur 30:22)

MULOHAZA QILGIN: Agar Ten Bumlar yahudiylarni natsistlardan yashirib tavakkal qilmaganlarida, o‘zlari konslagerga tushmagan bo‘lishardi. Biroq ular Xudoning amrlarini bajarib, hayotlarini tahlika ostida qoldirgan holda boshqalarga mehribonlik ko‘rsatdilar. Sen Xudoning Kalomini o‘qib turasanmi? Uning amrlarini bajarasanmi? Xudoning Kalomi bizni himoya qiladigan qo‘rg‘on bo‘lishi, biz har kuni olib boradigan jangda kuch bag‘ishlashi mumkin. Bu haftadagi jangda g‘olib chiqishing uchun Muqaddas Kitobning qaysi so‘zlarini qalbingga jo etmog‘ing lozim?

HARAKAT QIL: Sen qachondir Korri Ten Bumning ta’sirchan asari “Boshpana”ni o‘qiganmisan? Ota-onangdan yoki jamoat cho‘ponidan ushbu kitobni yoki shu asar asosida ishlangan filmni topib berishlarini so‘ragin.

IBODAT: “Rabbim, men ba’zan to‘g‘ri yo‘l tutishga qo‘rqaman. Xudoyim, Sen har kuni men bilan birga ekanligingni, qaror qabul qilishda qiynalgan chog‘larim menga yordam berayotganingni eslatib turgin”.

4 IYUL. TO‘G‘RI JAVOB

Kalomdan o‘qish: Zabur 81:1-8

Qani, Ey Xudo, olamni hukm qil, Zotan, hamma xalqlar Senikidir (Zabur 81:8).

HA, HOZIR YOZNING AYNI O‘RTASI, ammo baribir kichikroq bir test o‘tkazish vaqti ham keldi. Qo‘rqma! Biz senga bir qancha variantlardan birini tanlash imkonini beramiz. Va bitta javob qaytarasan bu juda oson:

Bugun 4 iyul. Agar sen Qo‘shma Shtatlarda yashayotgan bo‘lsang, bugun qanday kun ekanligini bilasanmi?

A) Bugun seni ahmoq deb atashlaridan qo‘rqmagan holda qizil, oq va ko‘k rangli liboslarni kiyib yurishing mumkin.
B) Tantanalar, bayramlar va mushakbozlik kuni.
V) Milliy iftixor kuni.
G) Aslida yashash huquqi, ozodlik va baxt Xudodan ekanligini yod etish kuni

Bo‘ldi, vaqt tugadi. Xo‘sh, sen qanday javob berding?

Barcha javoblar to‘g‘ri, ammo oxirgi javob nimani aksariyat hollarda unutib qo‘yayotganimiz haqida eslatib turadi.

Hukumat bizning asosiy huquqlarimizni hurmat qilishi mumkin, biroq aslida bu huquqlarni hukumat bizga bermaydi. Ularni Xudo beradi.

Shaxs huquqining tub mohiyati shundaki, Xudo mavjuddir va Uning O‘zligi nima yaxshiyu, nima yomon ekanligini belgilaydi. Sening hayotga, erkinlikka va hurmatga bo‘lgan huquqing – hukumatning yoki prezidentning sovg‘asi emas; u barcha axloqiy adolat, shu jumladan, inson huquqini ham hosil qiladigan haqparvar Rabbiyning tuhfasidir. Bu nafaqat amerikaliklarga, balki qayerda yashashidan qat’iy nazar, barchaga ham taalluqlidir.

Xullas, bu barcha mushakbozliklar va konsertlar orasida hech bir hukumat senga berolmaydigan va sendan olib qo‘ya olmaydigan huquqni bergani uchun Xudoga minnatdorchilik bildirib qo‘ygin.

MULOHAZA QILGIN: Dunyodagi ko‘plab konstitutsiyalar Mustaqillik Deklaratsiyasida tilga olinadigan erkinligimiz, baxtga erishuvimiz hamda hayotga bo‘lgan “daxlsiz” huquqlarimizga asoslanib tuzilgan. “*Daxlsiz*” bu ularni bekor qilish yoki mensimaslik mumkin emasligini anglatadi. Sen qachondir o‘z hayoting uchun Xudoga minnatdorchilik bildirganmisan? Sen o‘z erkinliging va boshqa huquqlaring uchun Unga rahmat aytganmisan?

IBODAT: “Xudoyim, Sen menga tuhfa qilgan huquqlaring uchun minnatdorman. Hayotim va erkinligim uchun Senga rahmat aytaman”.

5 IYUL. OQ HASSACHA

Kalomdan o‘qish: Zabur 118:97-101

Amrlaring meni g‘animlarimdan ko‘proq dono qildi, Amrlaring doimo men bilan birga (Zabur 118:98).

SEN QACHONDIR ko‘chadan o‘tib borayotgan so‘qir kishini ko‘rganmisan? U qayoqqa borishini va qachon to‘xtab burilishini qanday biladi? Ko‘pchilik so‘qir odamlar oq hassachadan foydalanishadi.

Oq hassacha undan foydalanishni biladigan odam qo‘lida hayratomuz narsa bo‘lishi mumkin. Ayrim so‘qirlar ko‘zi tiniq ko‘radigan odamlar kabi tez yurishadi, negaki ular oq hassachadan foydalanish sirlarini bilishadi. Hassaning yerga urilgan tovushidan so‘qir odam buning alfalt, o‘tloq yoki yo‘lak ekanini aytishi mumkin. So‘qir kishi devor yoki bino kabi katta to‘siqlar sari yaqinlashganida hassa tegadigan yerning tovushi o‘zgaradi. Hassa kutilmagan zinapoyalar, burilishlar va hattoki kimdir unutib qoldirgan skeyt bord kabi uncha katta bo‘lmagan to‘siqlar haqida ham xabar beradi.

So‘qir kishi yo‘lni topish uchun oq hassadan foydalangani kabi, sen ham Xudoning Kalomidan foydalanishing mumkin. Xuddi hassa so‘qir odamni to‘siqlar haqida ogohlantirganidek, Xudoning Kalomi ham yo‘limizda bizga ziyon yetkazadigan narsalar haqida ogohlantiradi.

Albatta, sen hamma joyda ham yoningda Muqaddas Kitobni olib yurolmaysan, to‘g‘rimi? Ba’zan uni varaqlab savolingga javob izlash uchun ham vaqting bo‘lmaydi. Aksariyat hollarda sen hattoki javob izlasang ham topolmaysan, to‘g‘rimi? *Mana* nima uchun Muqaddas Kitobni yoddan bilish kerak. Agar sen Muqaddas Kitob oyatlarini yod bilsang:

- u hamisha sen bilan birga;
- Biror qarorga kelishingga to‘g‘ri kelganida, sen hech qachon ko‘maksiz qolmaysan;
- Ikkilanib qolganingda yoki ortga chekinganingda, to‘g‘ri yo‘lni topib olishing oson bo‘ladi.

Hatto zulmatda ham seni boshqara olishi uchun har kuni Muqaddas Kitobning bitta oyatidan yod olishning nahotki iloji bo‘lmasa? Quyidagi oyatni shior qilib ol: “Sening kaloming qadamlarim uchun chiroqdir” (Zabur 118:105). Oxir-oqibat, agar oq hassani uyda qoldirishsa, undan hech qanday naf yo‘q, to‘g‘rimi?

MULOHAZA QILGIN: Xudoning Kalomi oq hassaga nimasi bilang o‘xshash? Yuqorida biz Muqaddas Kitobni o‘rganish uchun zarur bo‘lgan uchta sababni keltirdik. Bu qanday sabablar? Ehtimol, sen Muqaddas Kitobning qanchadir oyatlarini allaqachon yoddan bilishingni anglab ajablanarsan, misol uchun, Yuhanno 3:16 va Matto 6:33 oyatlarini. Yana qanday oyatlarni eslay olasan?

HARAKAT QIL: Zabur 118:105-oyatini (yuqoridagiga qara) ovoz chiqargan holda (qo‘shimchasi bilan birga) o‘qib chiq. Endi shu oyatlarni yoddan aytishga harakat qilib ko‘r. Sen kitobga qaramasdan uni so‘zma-so‘z qaytarishing kerak. Tabriklayman! Sen hozirgina Zabur 118:105-oyatini yodlab olding.

IBODAT: “Rabbim Ota, yuragimda Sening Kalomingni asrashim va uni har kuni bajarishim uchun menga yordam ber”.

6 IYUL. BU G‘IRROMLIK!
Kalomdan o‘qish: Luqo 6:27-31
Odamlar sizlarga nima qilishlarini istasangiz, sizlar ham ularga o‘shani qilinglar (Luqo 6:31).

Har doim ham nima to‘g‘riyu nima g‘irromlik ekanini farqlash oson kechmaydi. Ba’zan farqni ayirish qiyin kechadi, chalkashib qolish hech gap emas.

Quyidagi savollarga javob qaytarishga urinib ko‘rgin. Javoblarning to‘g‘ri ekanligi xususida tashvishlanmasang ham bo‘ladi. Shunchaki har bir savolga qanday o‘ylasang shunday javob ber.

1. Sen bitta jamoaning sardorisan, do‘sting esa boshqa jamoaning sardori. Sizlar o‘yinchilarni qay tariqa tanlab olasizlar?
   - □ Sizlar navbati bilan bittadan o‘yinchini olasizlar.
   - □ Avval bittalaringiz tanlaysiz, boshqangiz esa qolgan o‘yinchilarni oladi.
2. Ikkita do‘stingiz bilan birgalikda velosiped haydab yurganlaringizda uyingga uch kilometr masofa qolganida velosipeding zanjiri chiqib ketadi. Sen nima qilgan bo‘larding?
   - □ Siz uchchalangiz ham velosipedni yetaklab, uyga piyoda borasizlar.
   - □ Sening do‘stlaring velosipedlarini haydab ketaverishadi, sen esa piyoda borasan.
3. Sen ko‘lda cho‘milayotganingda, yonida cho‘milish kiyimi bo‘lmagan do‘sting shu yerdan o‘tib qoladi. Sen fikringcha, u nima qilishi kerak?
   - □ Sohil qutqaruvchisiga, “Men chaqmoqni ko‘rdim!”, deya, barchani ko‘ldan chiqishga undashlari uchun qichqiradi
   - □ Senga shunday deydi: “Men hozir cho‘milish kiyimi uchun borib kelaman va biz birgalikda cho‘milamiz”.
4. Do‘stingning onasi tushlikka qora olxo‘ri qo‘shilgan loviya va pechene tayyorladi. Sen do‘stingdan nimani kutyapsan?
   - □ U nima bo‘lishini aytmasdan, seni tushlikka taklif qiladi.
   - □ U senga shunday deydi: “Mabodo ertaga men maktabga kelmasam, 911 ga qo‘ng‘iroq qil. Ehtimol, men o‘lim yoqasida bo‘larman!”

Balki, sen bilan bunga o‘xshash holatlar yuz bermagandir, ammo buni shunchaki tasavvur qilib ko‘rgin, maylimi? Sening tanloving mutlaqo aniq, shunday emasmi? Nega? Negaki, har bir kishi bunday vaziyatda nima qilishini juda oson tasavvur qiladi. Muqaddas Kitobda shunday deyilgan: “Odamlar sizlarga nima qilishlarini istasangiz, sizlar ham ularga o‘shani qilinglar” (Luqo 6:31).

Adolatli yo‘l tutish uchun aksariyat hollarda eng muhimi nima qilishni bilmoqdir. Odatda bu boradagi birinchi qadam o‘ziga savol berishdan boshlanadi: men bilan qanday munosabatda bo‘lishlari kerak? Agar sen shu savolga javob bera olsang, keyingisiga ham javob qaytarishing mumkin: bu haqqoniy bo‘ladimi? Yoki g‘irromlikmi?

MULOHAZA QILGIN: Senga oxirgi marta qachon adolatsiz ish ko‘rganlaridek tuyulgan? Adolatli bo‘lsa qanday bo‘lishi mumkin edi? Sen o‘zing nohaq ravishda yo‘l tutgan paytingni eslay olasanmi? Senga o‘zing xohlaganingdek munosabatda bo‘lishlari uchun nimalar qilgan bo‘larding?

IBODAT: “Xudoyim, menda kimgadir nisbatan nohaq ish ko‘rishga vasvasa uyg‘onganida, boshqalar menga nisbatan qanday munosabatda bo‘lishini xohlaganimdek o‘zim ham ularga shu tariqa munosabatda bo‘lishim kerakligini eslashimga yordam ber”.

7 IYUL. BU IFLOS KO‘LMAK – SEN UCHUN
Kalomdan o‘qish: Zabur 105:3
Baxtlidir adolat ila ish tutganlar, Har doim to‘g‘ri ish qilganlar (Zabur 105:3).

Bolakay Kelvin va uning Xobbs ismli o‘yinchoq yo‘lbarsi haqida kulgili bir mashhur multfilm bor. Bill Uotterson tomonidan yaratilgan bu asar kino tarixidagi eng mashhur komik multfilmlardan biri hisoblanadi. Undagi seriyalardan birida Kelvin va uning do‘sti yo‘lbars birgalikda o‘rmon oralab yurishadi. Kelvin og‘aynisiga shunday deydi:

– Men axloq qoidasiga boshqa ishonmayman. Gap menga taqalganda, aytishim kerakki, maqsad vositani oqlaydi.

U mushti bilan kaftiga urib, so‘zida davom etadi:

– Mana men senga nima deyman, imkoning boricha foydasi tegadigan hamma narsani olib qol. Kim kuchli bo‘lsa, o‘sha haq! Tarixni g‘oliblar yozishadi! Bu – kuchlilar g‘olib chiqadigan dunyo, shu bois men xohlaganimni qilaman, boshqalar esa bu yaxshimikan, deya bahslashaversinlar.

Xobbs to‘satdan iflos ko‘lmakni ko‘rib qoladi. U to‘xtab jilmayganicha Kelvinni o‘sha ko‘lmakka turtadi.

– Ey! – qichqirib yuboradi Kelvin. – Sen nima qilyapsan?

Xobbs hiringlab kuladi:

– Sen mening o‘tib olishimga xalaqit berding, – deydi u. – Endi esa xalaqit bermayapsan. Maqsad vositani oqlaydi.

Kelvin iflos joydan chiqib oladi:

– Biroq men hamma ham shunday yo‘l tutishini kerakligini nazarda tutmagandim! Faqat o‘zim haqimda gapirgandim!

Albatta, Xobbs bor-yo‘g‘i o‘yinchoq yo‘lbars (garchi u Kelvin uchun mavjud bo‘lsada), biroq u, bu masalada haq. Aksariyat odamlar xuddi Kelvin kabi yo‘l tutishadi. Ular nima yaxshiyu, nima yomonligini o‘zlari hal qilishga urinishadi. Ular o‘zlari to‘g‘ri deb hisoblaganlarini qilishlari mumkin deya hisoblashadi. Biroq kimdir o‘zini shu tariqa tuta boshlaganida, ular darhol o‘z fikrlarini o‘zgartirishadi. “Ey! – deydi ular. – Sen bunday qilishing mumkin emas! Bu g‘irromlik!”

Hamma bilgani uchun ham bu shunday bo‘ladi: haqqoqiy va nohaq ishlar bor. Biz shunday deb e’lon qilishimiz adolatdan emas aslida: buning adolatli ekanini Xudo hal qiladi. Xudoning Kalomida aniq qilib yozilgan: “Odamlar sizlarga nima qilishlarini istasangiz, sizlar ham ularga o‘shani qilinglar” (Matto 7:12).

Boshqacha qilib aytganda, odil inson o‘zidan shunday deb so‘raydi: “Menga qanday munosabatda bo‘lishlarini istayman o‘zi?” Adolatsiz kishi esa shunday deydi: “Bu mutlaqo boshqa masala” yoki “Men boshqalarga o‘xshamayman”. Ammo adolatni sen emas, faqat boshqalar yuritganlarida bu adolatdan bo‘lmay qolardi, to‘g‘rimi?

MULOHAZA QILGIN: Odil inson o‘ziga qanday muhim savolni berishi kerak? Bu savollarga adolatsiz kishi qanday javob qaytargan bo‘lardi? Kim nima adolatliyu nima adolatdan emasligini hal qiladi? Sen qachonlardir shunday deb o‘zingni oqlashga uringanmisan: “Bu umuman boshqa masala” yoki “Men boshqalarga o‘xshamayman”? Sen kimgadir bugun adolatsiz munosabatda bo‘ldingmi? Shu haftadachi? Agar shunday bo‘lsa, bu adolatdan bo‘lishi uchun sen nima qilmog‘ing kerak edi?

IBODAT: “Rabbim, boshqalarga nisbatan adolatli va hamisha halol yo‘l tutishim uchun yordam ber.”Bu umuman boshqa masala” yoki “Men boshqalarga o‘xshamayman”, deya o‘zimni oqlashimga izn berma, biroq boshqalar o‘zimga nisbatan qanday munosabatda bo‘lishlarini xohlasam, ularga ham xuddi shunday munosabat bildirishim uchun ko‘mak ber”.

8 IYUL. EFIRGA YODGORLIK

Kalomdan o‘qish: Levilar 19:13-16

Hukm chiqarganda haqsizlik qilmang, faqirga ham yon bosmang, obro‘li odamning ham ko‘ngliga qarab ish tutmang (Levilar 19:15).

Mabodo qachondir tishingni davolashga to‘g‘ri kelganida, shifokor sen bilan kuymalanib turgan chog‘i uning ko‘zini jarohatlab qo‘ymasliging uchun, harholda senga og‘riqni qoldiradigan ukol qilgan bo‘lsalar kerak.

Og‘riqni qoldiradigan birinchi malham *efir, ya’ni narkoz* bo‘lgan. 1842 yilda Jorjiyalik bir shifokor operatsiya paytida mijozini uxlatib qo‘yish uchun shunday doridan foydalangan. Uch yildan so‘ng u tug‘ruq jarayonida ham efirni qo‘llab ko‘rdi. Biroq u o‘z yutug‘ini e’lon qilganida, narkoz chog‘i efirdan foydalanishning ilk kashfiyotchisi Massachusetsda yashaydigan tish shifokori Uilyam Morton ekanligi ma’lum bo‘ldi.

Biroq Massachusets Tarix jamiyati efir narkozining kashf etilishiga oid yodgorlik belgisini ochishga qaror qilganida, ko‘pchilik bu sohada boshqa odam Charlz Jekson birinchi bo‘lganligini bildira boshlashdi. Yodgorlik taxtasida kimning ismi yozilishi haqida bahs ko‘tarildi: Uilyam Mortonmi yoki Charlz Jekson?

Shunda taniqli shifokor Oliver Uendel Xolms-to‘ng‘ich qiziq bir taklifni o‘rtaga tashladi. U taxtachada ikkovining ham ismlari, shuningdek, “Efirga atalgan yodgorlik”, deb yozilishi lozim ekanligini aytdi.

Bu adolatli qaror bo‘lgandi. U nafaqat Uilyam Morton va Charlz Jeksonlar xotirasini ulug‘labgina qolmay, ko‘proq Xolmsni dono va odil inson sifatida sharafladi. (Zero, Xolmsning o‘g‘li Oliy sudning taniqli hakami bo‘lib yetishganiga ajablanmasa ham bo‘ladi!)

Oliver Uendel Xolms-to‘ng‘ichni u adolatli bo‘lgani bois ulug‘lashdi. Mana nima uchun Xudo bizga odil bo‘lishimizni amr etadi. Biz muammoning halol yechimini izlashimiz kerak. Adolat yaxshi ekanligini, adolatsizlik yomon ekanligini yodda tutishimiz lozim. Biz Uning amrlariga itoat etganimizda va bir-birimizga adolatli munosabatda bo‘lganimizda Xudoga manzur bo‘lamiz.

MULOHAZA QILGIN: Muqaddas Kitobdan bugun o‘qiladigan parchada atrofdagilarga adolatli munosabatda bo‘lishning eng kami bilan sakkizta usuli haqida eslatib o‘tiladi; sen ulardan nechtasini topding? Senga adolat yuzasidan munosabatda bo‘lganlarida bu senga yoqadimi? Nima uchun “ha” va nima uchun “yo‘q”? Boshqalar senga qanday yondashishlarini xohlaganingdek, o‘zing ham boshqalarga shunday yondashasanmi? Atrofdagilarga adolatli bo‘lish haqidagi Xudoning amrlarini bajarasanmi? Agar kimgadir nisbatan adolatsiz munosabatda bo‘lgan bo‘lsang, vaziyatni qanday to‘g‘rilash mumkinligini bilasanmi?

HARAKAT QIL: Bugun kimni uchratsang, o‘shalar bilan adolatli munosabatda bo‘lishga harakat qilgin.

IBODAT: “Rabbim, atrofdagilarga nisbatan adolat yuzasidan e’tiborli bo‘lishim uchun yordam ber. Ular menga qanday munosabatda bo‘lishlarini xohlaganimdek, boshqalarga ham shunday yondashishim lozimligi haqida eslatib turgin”.

9 IYUL. UCHTA KUPYURA VA GO‘DAK

Kalomdan o‘qish: Ibtido 18:18-19

Ibrohim o‘g‘illarini, o‘z naslini Mening yo‘limdan yurishga, to‘g‘rilik va adolat bilan ish qilishlariga yo‘l ko‘rsatsin deb, uni tanlaganman (Ibtido 18:19).

SHUNDAY BIR TAJRIBA O‘TKAZIB KO‘R: qog‘ozga o‘n so‘mlik, ellik so‘mlik va yuz so‘mlik pullarni sol. Ularni hali bir yoshga to‘lmagan go‘dak oldiga qo‘ygin. (Agar shu yoshdagi ukang yoki singling bo‘lmasa, qo‘shnilarga murojaat qil!)

Chaqaloqni kuzatib quyidagi savollarga javob bergin:

Chaqaloq qaysi kupyurani tanladi?

- □ O‘n so‘mlikni
- □ Ellik so‘mlikni
- □ Yuz so‘mlikni
- □ Hammasini birdan

Chaqaloq pullarni nima qildi?

- □ Og‘ziga soldi
- □ Yerga tashladi
- □ O‘ziga konfet sotib oldi
- □ Bankdagi hisob raqamiga qo‘ydi

Hoynahoy, bu savollarga javob olish uchun bu tajribani o‘tkazmasa ham bo‘lar, to‘g‘rimi? Go‘dak o‘n so‘mlik, ellik so‘mlik va yuz so‘mliklar orasidagi farqni tushunmaydi, demak, ulardan hohlaganini yoki hammasini birdan olishi mumkin. Va turgan gapki, go‘dak ularning hammasini yo og‘ziga tiqadi yoki yerga tashlaydi.

Nima uchun? Negaki, go‘daklar pulning qiymatini bilishmaydi. Ular pulni konfetga almashtirish mumkin ekanligidan bexabar. Va ular o‘n so‘mdan ko‘ra ellik so‘m bilan ko‘proq konfet sotib olish mumkinligini aniq bilishmaydi.

Bu kabi muammolar hatto kattalarda ham bo‘lib turadi. Biz asl qiymatga ega bo‘lgan narsani bilmaymiz. Biz o‘zimizni go‘yo boylik va shon shuhrat, mashhurlik va buyumlar qadr-qiymatga egadek tutamiz. Ammo Xudo nima narsa chindan ham qiymatga ega ekanligini biladi, va u Ibrohimga buni ko‘p yillar avval ma’lum qilgan. U Ibrohimni Isroil xalqining otasi deb e’lon qilgan, negaki U shunday degan: “Ibrohim o‘g‘illarini, o‘z naslini Mening yo‘limdan yurishga, to‘g‘rilik va adolat bilan ish qilishlariga yo‘l ko‘rsatsin deb, uni tanlaganman” (Ibtido 18:19). Mana nima chindan ham qiymatga ega: haqiqatni yaratish va hukm qilish. Mana nima uchun Xudo bizga adolatli bo‘lishimizni buyuradi, negaki U adolatni qadrlaydi. U biz ham adolatni qadrlashimizni istaydi. O‘n so‘mdan ko‘proq darajada. Ellik so‘mdan ortiq darajada. Va hattoki yuz so‘mdan ham ko‘proq darajada qadrlashimizni xohlaydi.

MULOHAZA QILGIN: Biror nimani “qadrlash” nima o‘zi? Xudo adolatni qadrlashini biz qayoqdan bilamiz? Sen nimani qadrlaysan?

IBODAT: “Rabbim, Sen adolatni qadrlaysan, men ham uni qadrlashni istayman. Men hamisha odil va halol bo‘lmoqchiman”.

10 IYUL. HAMMADAN HAM ADOLATLI

Kalomdan o‘qish: Vahiy 15:1-4

Yo Qodir Xudo Egamiz, Buyuk va ajoyibdir Sening ishlaring. Ey xalqlarning Shohi! To‘g‘ri va haqdir Sening yo‘llaring (Vahiy 15:3).

Bu odamlarda qanday umumiylik bor?

- Sud zalidagi hakam
- Futbol maydonidagi hakam
- Militsioner
- Maktab o‘qituvchisi

Ularning barchasi ishlaydi: xo‘sh, yana nima? Ha albatta, ularning barchasi aqlli. Xo‘sh, yana nima bor?

Ular adolatli bo‘lishlari kerak. Agar hakam adolatsiz bo‘lsa, u yaxshi hakam emas, to‘g‘rimi? Agar o‘yin vaqtida referi bir jamoani boshqasidan ustun qo‘ysa, taajjubga tushgan muxlislar qichqirib qolishadi: “Hakam halol bo‘lsin!” Faqat o‘ziga yoqmagan odamlarni to‘xtatadigan militsioner – yomon militsioner. Va qizlarga faqat ikki baho qo‘yib, o‘g‘il bolalarga muntazam besh baho qo‘yadigan o‘qituvchi ham hech kimga yoqmaydi.

Biz hakamlardan va o‘qituvchilardan adolat kutamiz. Zero, adolat – yaxshi, to‘g‘rimi? Mana nima uchun odil hakam yaxshi hakam; adolatsiz o‘qituvchi yomon o‘qituvchi. Biroq adolat nima uchun yaxshi?

Negaki, Xudo adolatlidir.

Adolat faqatgina sen yoki do‘sting shunday deb aytgani uchungina yaxshi emas. Bu faqatgina ota-onang va o‘qituvchilaring yoki hukumat shunday aytayotgani uchun ham emas. Adolat birgina sababga ko‘ra yaxshi: negaki Xudo adolatlidir.

Zabur 9:7-oyatda shunday deyilgan: “Egamiz adolatli hukmi ila O‘zining kimligini ko‘rsatdi”. Ishayo 30:18-oyatda shunday yozilgan: “Egam adolatli Xudodir” . Azizlar esa samoda ushbu qo‘shiqni kuylashadi: “Yo Qodir Xudo Egamiz, Buyuk va ajoyibdir Sening ishlaring, Ey xalqlarning Shohi! To‘g‘ri va haqdir Sening yo‘llaring”. (Vahiy 15:3).

Xudo adolatlidir; bu Uning O‘zligining bir qismidir. Mana nima uchun U adolatni qadrlaydi. Mana nima uchun biz adolatli bo‘lishimizni buyuradi. Biz boshqalarga nisbatan adolatli bo‘lganimizda, “er yuzida mehr shafqat, adolatu haqiqat o‘rnatadigan” Rabbimizga o‘xshaydigan bo‘lamiz.

MULOHAZA QILGIN: Nima uchun Xudo bizga adolatli bo‘lishimizni buyuradi? Nima uchun Xudo adolatni qadrlaydi? Xudo adolatli ekanini sen qayoqdan bilasan? Quyidagi jumlalarni sen qay tariqa to‘ldirgan bo‘larding:

“Menga boshqalar adolatsiz munosabatda bo‘lganlarida, men _____”.

“Menga boshqalar adolatli munosabatda bo‘lganlarida, men _____”.

“Men boshqalarga adolatsiz munosabatda bo‘lganimda, men _____”..

“Men boshqalarga adolatli munosabatda bo‘lganimda, men _____”..

IBODAT: Vahiy 15:3-4 oyatlari bilan yoki azizlarning qo‘shig‘i bilan ibodat qilgin.

11 IYUL. ESHAK VA XACHIR

Kalomdan o‘qish: Yeremiyo 7:5-7

Agar haqiqatan yomon yo‘lingizdan qaytsangiz, turmush tarzingizni o‘zgartirsangiz, bir-biringizga nisbatan adolatli bo‘lsangiz (Yeremiyo 7:5).

BIR ODAM uzoq safarga hozirlanibdi. U o‘zi bilan eshak va xachirni olibdi. Barcha yuklarini eshakka ortib, o‘zi vaqti-vaqti bilan xachirni minib ketaveribdi.

Eshakka bu yuklarni ko‘tarib yurish og‘irlik qilmabdi. U og‘irlikni ko‘tarib o‘rgangan ekan. Biroq ular baland toqqa chiqayotganlarida, unga ustidagi yuk juda og‘irlik qilibdi.

Og‘irlik ostida ezilgan eshak xachirdan yukining bir qismini ko‘tarishiga yordam so‘rabdi. U hammalari toqqa chiqib olganlarida, xachirga yukni qaytarib berishi mumkinligini aytibdi. Biroq xachir hech nimani ko‘tarishni istamabdi.

Oradan qanchadir vaqt o‘tib, eshak tamoman holdan toyibdi va yo‘l o‘rtasida yiqilib qolibdi. Xo‘jayin uni shafqatsizlarcha uribdi, biroq eshak nihoyatda kuchdan qolgani uchun o‘rnidan tura olmabdi.

Boshqa iloji qolmabdi: odam eshakdan yukni yechib olib, hamma yukni xachirga ortibdi. Ular yiqilib yotgan eshakni qoldirib, yo‘llarida davom etishibdi.

Og‘ir yuk ostida ezilgan xachir o‘ziga shunday debdi: “Agar men eshakka yordam berganimda, hamma yukni o‘zim ko‘tarishimga to‘g‘ri kelmasdi va biz do‘stlarga aylangan bo‘lardik”.

Hayotda ham shunday bo‘ladi. Boshqalarga adolat bilan yondashgan holda biz nafaqat o‘zgalar hayotini, balki o‘z hayotimizni ham yengillashtiramiz. Odamlarga adolat bilan yondashib, biz ko‘plab do‘stlar orttiramiz.

Aslida, odamlarga adolat bilan yondashuv do‘stligimizga bevosita bog‘liq: uning sharofati bilan yangi do‘stlarimiz paydo bo‘ladi; u eski do‘stlikni *mustahkamlab* uni yanada yaxshiroq qiladi; u aksincha holatda buziladigan do‘stona munosabatlarni *asrab qoladi*.

Natijalar yomon emas, to‘g‘rimi? Keyingi safar boshqa birov bilan o‘zingni adolatli tutishga to‘g‘ri kelganida, xachir kabi qaysar bo‘lma; boshqaga va o‘zingga yaxshilik qil.

MULOHAZA QILGIN: Bizning adolatli harakatlarimiz do‘stlar bilan munosabatda qanday aks etadi? Sen (o‘zini noo‘rin tutgan) xachirga yoki (o‘ziga nisbatan nohaqlik qilingan) eshakka ko‘proq o‘xshaysanmi yoxud ulardan hech biriga o‘xshamaysanmi? Sen o‘zingga haqli munosabatda bo‘lgan do‘stlaringni afzal ko‘rasanmi yoki senga nohaq yondashganlarinimi? Nima uchun?

HARAKAT QIL: Ushbu haftada birinchi imkoniyat bo‘lishi bilanoq kimgadir yordam berishga harakat qilgin (misol uchun, qo‘shni ayolga sumkasini do‘kondan ko‘tarib kelishiga yordam ber yoki uning o‘rniga o‘zing do‘konga borib kel).

IBODAT: “Xudoyim, do‘stlarim uchun Senga rahmat. Ularga nisbatan adolatli bo‘lganimda olayotgan barcha yaxshi narsalar uchun Sendan minnatdorman”.

12 IYUL. KO‘CHMA HAYVONOT BOG‘I

Kalomdan o‘qish: Zabur 10:4-5

Egamiz O‘zining muqaddas Ma’badidadir, Egamizning taxti samodadir. U insonni ko‘zdan qochirmaydi, Nigohi insonni tekshirib turadi (Zabur 10:4).

SEN KEYINGI SAFAR ota-onang bilan birgalikda yo‘ldagi tiqilinchga tushib qolsang, boshqa haydovchilarga nazar solib chiq. Ko‘raylikchi, sen ularning orasida “hayvonlar”ni payqay olarmikansan (o‘z mashinangda hayvonlarni izlab o‘tirma!).

Jirafa: U hamisha oldindagini ko‘rishga urinadi. U o‘ng va chap tarafga qaraydi, har bir chiziqda nima bo‘layotganini ko‘rish uchun atrofga alanglaydi. U hattoki mashina oynasidan boshini imkon qadar baland ko‘tarib qaraydi.

Qurbaqa: Uning nazarida o‘zi turgan chiziqdagi harakat sekindek tuyulaveradi, shu bois doim u chiziqdan bunisiga sakrab o‘taveradi. Qaysidir bir chiziqqa o‘tib, u boshqa bir bo‘sh joyga e’tiborini qarata boshlaydi. U chizig‘ingiz bo‘ylab sizdan oldinga o‘tib olish uchun yonginangizda bor kuchi bilan mashinani haydaydi.

Ilon: Ba’zan yo‘ldagi harakat sekinlashadi yoki to‘xtab qoladi, negaki ikkita yoki undan ko‘proq chiziqlar bittaga birlashib ketadi. Bu kimdir yo‘lning katta qismini to‘sib qo‘yishga uringanida yuz beradi. U oxirgi damgacha ikki qator orasida haydab ketaveradi. Va o‘sha lahza yetib kelganda, o‘z navbatini go‘yoki yuz yildan buyon kutayotgan haydovchilarning yo‘liga suqilib kiradi.

Albatta, bu toifadagi haydovchilarning har biri muayyan noqulayliklarni keltirib chiqarishadi. Agar hamma ham (o‘zlarini hayvondek tutib emas) bir-birlariga nisbatan odil va iltifotli bo‘lib, navbatga rioya qilgan holda o‘zaro hamkorlik qilishsa edi, yo‘llarda yurish anchayin oson bo‘lardi.

Agar hamma ham adolatli bo‘lsa, butun olam naqadar yaxshi bo‘lardi. Agar barcha ham o‘zini odilona tutsa, jamoat va maktab anchayin yoqimli maskanga aylanardi. Agar barcha bir-birlariga odilona munosabatda bo‘lsalar, oilalarda nihoyatda yaxshi ahvol hukm surgan bo‘lardi.

Agar biz bir-birimizga odilona bo‘lganimizda, hayotimiz hayvonot bog‘iga kamroq, Xudoning o‘ylaganlariga esa ko‘proq o‘xshagan bo‘lardi!

MULOHAZA QILGIN: Muqaddas Kitobdan bugun o‘qiladigan parchada adolatli yo‘l tutish qanday ustunlik ekanligi haqida aytiladi. Bu qanday yuz beradi? Agar barcha bir-birlariga nisbatan adolatli bo‘lganlarida, hayot nimasi bilan yaxshiroq bo‘lgan bo‘lardi? Odamlar bilan liq to‘la do‘konni, maktabingni, jamoatni, oilangni tasavvur qil. Adolatning foydali ekanligini ko‘rib, do‘stlaringga (va boshqa odamlarga) qanday yordam berishing mumkin?

IBODAT: “Rabbim, mening atrofimdagi olamni Sen yaxshilashingni istayman. Boshqa odamlarga nisbatan adolatli bo‘lish qanchalik muhim ekanligini yodda tutishim uchun yordam ber, ayniqsa _____ (maktabda, do‘konda va boshqa joylarda bo‘lganimda)”.

13 IYUL. YANGI USLUBDAGI ESKI NAQLLAR

Kalomdan o‘qish: Zabur 36:27-31

Egamiz adolatlidir, U to‘g‘ri ishlarni sevdi, to‘g‘ri yuradigan inson, Uning marhamatidan bahramand bo‘ladi (Zabur 10:7).

Ehtimol, sen ko‘hna, ammo bugungi kunda ommabop bo‘lgan shunday naqllarni bilarsan: “Oxirida kulgan yaxshilab kuladi” yoki “Osmondagi turnadan ko‘ra qo‘ldagi chittak yaxshi”?

Boshqa naqllar vaqt o‘tavergani sayin e’tibordan tushib qolaveradi. Misol uchun, “Asrab qo‘yilgan bir tiyin ham baribir ishlab topilgan”. Bizning inflyatsiya davrimizda tiyinni darhol sarflab yuborish kerak. Mana, yana ayrim misollar:

- Eng oxirida kulgan odam ... hazilni yomon tushunadi.
- O‘z xatolarini tan olgan ...buyuk odam ... biroq o‘sha odamni ham xato qilayotganiniga ishontira olish uchun undan ham buyukroq odam tez-tez kerak bo‘lib qoladi.
- Do‘stlaring kimligini menga ayt, men esa sening kimligingni aytaman.
- O‘rmon kesilganida payraxa uchadi... lekin o‘rmon kesilmasa ham, biz baribir noliyveramiz.
- Kulgin va dunyo sen bilan birgalikda kuladi; yig‘la ...va dunyo shunday yig‘loqi bo‘lganing uchun ustingdan kuladi.

Mayli, bas qilaylik. Yo‘q, shoshmay tur, yana shunday gap ham bor: “Boshqalarga odil bo‘lganlarga... Xudo beradi”. Bu kulgili emas. Biroq bu haqiqat.

Muqaddas Kitobda shunday yozilgan: “Egamiz adolatlidir, U to‘g‘ri ishlarni sevadi, to‘g‘ri yuradigan inson Uning marhamatidan bahramand bo‘ladi” (Zabur 10:7). Bu esa sen boshqalarga nisbatan adolatli bo‘lganingda Xudoga manzur kelishing demakdir. Sen adolatli bo‘lganingda Xudo seni marhamatlashi uchun shunday imkoniyat berasanki, sen adolatsiz bo‘lganingda Xudo bunday qilolmagan bo‘lardi.

Sen Xudoning adolatli bo‘lish haqidagi amrini Uning boshqa amrlari (Levilar 19:13-16; Mixo 6:8) kabi bajarganingda, Xudoning g‘amxo‘rligiga sazovor bo‘lasan. Misol uchun, agar biz adolatli bo‘lsak, boshqalar ham bizga odilona munosabatda bo‘lishadi. Agar biz adolatli bo‘lsak, hurmat e’tiborga erishamiz. Biz adolatli bo‘lganimizda, boshqalar bizga ko‘proq ishonishadi. Biz adolatli bo‘lganimizda, do‘st topishimiz oson kechadi. Biz adolatli bo‘lganimizda, do‘stlarimizni yo‘qotish holatlari kamroq bo‘ladi. Bularning hammasi yaqinlariga adolatli bo‘lgan odamlar uchun Xudoning marhamatidir.

MULOHAZA QILGIN: Nima deb o‘ylaysan, adolatli bo‘lmagan holda Xudoga manzur bo‘lish mumkinmi? Nima uchun “ha” va nima uchun “yo‘q”? Nima deb o‘ylaysan, boshqalarga nisbatan adolatli bo‘lgan kishi o‘zgalarga adolatsiz munosabat bildiradigan odamlarga qaraganda ko‘proq baxtlimi? Nima

uchun “ha” va nima uchun “yo‘q”? Sen kimgadir odilona munosabatda bo‘lganing tufayli hayotingda biror yaxshilik yuz berganmi?

IBODAT: “Sevuvchi Rabbim, boshqalarga nisbatan adolatli bo‘lgan kishilarni qanday marhamatlashingni menga ko‘rsat va ulardan biri bo‘lishim uchun ijozat ber”.

14 IYUL. AMALIYOT MUKAMMALLIKKA OLIB BORADI

Kalomdan o‘qish: Luqo 11:5-10

So‘rang, sizga beriladi. Izlang, topasizlar. Taqillating, eshik ochiladi (Matto 7:7).

Gimnastlar televizor orqali chiqish qilganlarida ularni kuzatish qiziq tuyuladi. Ularning halqa bo‘ylab uchishlari va taxta “ot” ustidan sakrab o‘tishlarini tomosha qilish qiziqarli. Gimnastlarning turnikda qanday aylanishlarini va yerga qay tariqa aylanib tushishlarini ko‘rish ham maroqli.

Olimpiada chempionlarini kuzatib, ular o‘z chiqishlarini boshlash uchun qanday tayyorgarlik ko‘rayotganliklariga o‘zing shohid bo‘lasan. Senga ularning yechinish xonasida kutib o‘tirganlarini, arenaga chiqqanliklarini, o‘rindiqlarda o‘tirishganini namoyish etishadi. Ular o‘z navbatlarini kutib, tez-tez tortilib turishadi, egilishadi, qo‘l va oyoqlarini harakatlantirishadi. Bu harakatlar deyarli sezilmaydi, biroq yaxshilab qaralsa ularni ko‘rish mumkin.

Ular nima qilishadi? Ular chigal yozdi mashqlarini bajarishadi. Ular Olimpiya o‘yinlarida qatnashish uchun uzoq yillar mobaynida, toki buni dunyodagi boshqa odamlarga nisbatan yaxshiroq uddalay olmagunlaricha, mashq qilishgan – sapchib aylanishgan, sakrashgan va boshqa harakatlarni yuz marotabalab qaytarishgan. Hozir ular o‘z mashqlarini xayolan takrorlashmoqda. Ular nima qilishlari lozimligini va murabbiylari nima deganini esga olishyapti. Ular ko‘zlarini yumgan holda chiqishni boshlash uchun beriladigan ishorani kutib, mashq qilishmoqda.

Biz masihiylar ham shunga o‘xshash harakatlarni qilishimiz kerak. Biz qaysidir vaqtlarni ko‘zimizni yumgan holda o‘tkazishimiz kerak. Biz o‘tayotgan kunlarimiz va o‘tmish xatolarini tuzatish uchun nimanidir o‘rinli bajara olmaganimiz haqida o‘ylashimiz lozim. Biz Murabbiyimiz (Rabbimiz) so‘zlarini yodda tutib, o‘zimiz bugun duch keladigan to‘siqlar va imkoniyatlarga tayyorlanishimiz kerak. Ibodat chog‘ida bizda yerdagi murabbiylarda bo‘lmaydigan ustunlik bor ekanligini esda tutishimiz lozim: bizning Murabbiy har narsaga qodir. U bizga g‘alaba uchun kuch bag‘ishlashi mumkin.

MULOHAZA QILGIN: Sen haftada necha bora (ibodat chog‘ida)ko‘zlaringni yumib vaqt o‘tkazish zarurligi haqida eslab turasan? Ikki martami? Uchmi? To‘rt marotabami? Bundan ko‘pmi? Yoki kamroqmi? Nima deb o‘ylaysan, agar har bir kuningni xuddi Olimpiada musobaqasi deya hisoblab, shu kunning to‘siqlari va imkoniyatlariga tayyorlanishing uchun o‘n o‘n besh daqiqalik vaqtingni ibodat bilan boshlasang nima bo‘ladi? Nima deb o‘ylaysan, shu kuni qarorlar qabul qilishing oson kechadimi yoki qiyin? O‘z javobingni tushuntirib ber.

IBODAT: “Rabbim, har bir kunni ko‘zlarimni yumib, Sen haqingdagi fikrlar bilan boshlashim uchun menga yordam ber”.

15 IYUL. EDISONNING OMADSIZLIGI

Kalomdan o‘qish: 2 Korinfliklar 12:6-10

Ojiz bo‘lgan paytimda Masihning qudrati bilan kuchli bo‘laman (2 Korinfliklar 12:10).

EHTIMOL, sen qachonlardir Tomas Edison haqida eshitgandirsan. U bundan yuz yil muqaddam yashab o‘tgan buyuk kashfiyotchi edi. Bizni qurshab turgan ko‘plab narsalar, bu elektr lampochkasi, magnitofonlar, kino sohasidagi texnikalar bo‘lsin, hamma joyda uning kashfiyotlaridan foydalanishadi (u hammasi bo‘lib 1093 ta kashfiyotini patentlashtirgan).

U uzoq va tirishqoqlik bilan yangi turdagi batareyalar yaratish ustida ishladi. Olim turli kimyoviy unsurlar, metall va qurilmalar bilan tajriba o‘tkazib ko‘rdi, goh unisini, goh bunisini sinovdan o‘tkazdi. Ayrim tajribalar yaxshiroq chiqqan bo‘lsa, boshqalari yomon chiqdi, biroq u uzoq vaqt mobaynida kerakli natijaga erisha olmadi.

Kunlardan birida batareyalar ustida izlanayotgan Edison oldiga do‘sti keldi. Edison o‘n ming tajribadan keyin ham ko‘zlagan maqsadiga erisha olmayotganini aytdi.

– Nima? – do‘sti hayron qolib so‘radi. – Sen o‘n ming marotaba muvaffaqiyatsizlikka uchradingmi?

– Bu muvaffaqiyatsizlik emasdi, – deya javob qaytardi Edison. – Men ish bermaydigan o‘n mingta usulni kashf etdim.

Edisonning do‘stiga muvaffaqiyatli yakunlanmagan tajriba – omadsizlik bo‘lib tuyulgandi. Biroq Edison uchun bu boshqacha ko‘rinish olgandi.

Biz ham omadsizlik va gunohni chalkashtirib yuborganimizda shunday xatoga yo‘l qo‘yamiz. Xudo bizning xayotimiz xatoliklardan xoli bo‘lishini kutmaydi. U bizning intilishimizni va ko‘p bora (hattoki, o‘n ming marotaba) muvaffaqiyatsizlikka uchrashimizni biladi. Zotan, sen velosiped haydashni o‘rganishga uringaningda, birinchi o‘n marotabada buni uddalay olmagansan, biroq sen taslim bo‘lib qolmagansan, to‘g‘rimi?

Biz gunohga botmagan holda muvaffaqiyatsizlikka uchraganimizda Xudo bizdan g‘azablanmaydi. Ko‘rayapsanmi, gunoh bu biz Xudoga manzur bo‘lmaydigan tarzda o‘z holimizcha *ongli ravishda* ish tutganimizda

yuzaga keladi. *Gunoh* – bu, biz qay tariqa to‘g‘ri yo‘l tutishni bilgan holda shunday qilishga xohish yo‘qligi demakdir: boshqacha qilib aytganda, bu Xudoga itoat etishni istamaslikdir.

Xullas, sen xatolardan qo‘rqmagin. Biz hammamiz xato qilamiz. Ayrimlar hattoki o‘n ming martalab! Sen shunchaki Xudoning yo‘lidan – to‘g‘ri yo‘ldan borgin, – o‘z yo‘lingdan emas, ana shunda Xudo sening xatoingni yaxshilikka aylantiradi!

MULOHAZA QILGIN: Gunoh va xato o‘rtasida qanday farq bor? Gunoh – hamisha ham xatomi? Xato esa – har doim ham gunohmi? O‘zing gunoh qilmagan holda qanday xatoga yo‘l qo‘yganing haqida o‘ylab ko‘r. Bugun cho‘ntagingda kichkinagina batareyani olib yur, u senga shuni eslatib tursin: sen cho‘chiydigan yagona xato – bu, Xudoga itoat etishni istamaslikdir.

IBODAT: “Rabbim, hech kim xato qilishni yoqtirmaydi, biroq xato – hamisha ham gunoh emasligini eslab turishim uchun yordam ber. Men nima to‘g‘ri ekanligini bilganimda to‘g‘ri yo‘l tutishim uchun yordam ber”.

16 IYUL. KAN’ON YANGILIKLARI

Kalomdan o‘qish: Matto 4:1-11

U ojizliklarimizga hamdard bo‘la oladi. Axir, U biz kabi har tomonlama sinalgan, lekin bizga o‘xshab gunoh qilmagan (Ibroniylar 4:15).

“SIZ KAN’ON YANGILIKLARINI KO‘RYAPSIZ!”

Kamera oldida yangiliklar boshlovchisi tabassum qilgan holda paydo bo‘ladi: “Salom, men hozirda ta’tildagi Pyotr Iyexoniyaning o‘rnida boshlovchilik qilayotgan Dan Virsaviyaman. – Boshlovchi o‘giriladi, tabassum qilishda davom etganicha boshqa kameraga qaraydi: – Bizning bugungi oqshomdagi asosiy yangiligimiz: Yahudiya cho‘llaridagi mojaro”.

Boshlovchining ortida Yahudiya cho‘llari ajratib ko‘rsatilgan Isroilning xaritasi paydo bo‘ladi.

“Nosiralik Iso deganlari g‘aroyib kuchga ega ekan, u kecha Iordan daryosida, ayrimlar payg‘ambar deya ataydigan serg‘ayrat qarindoshi Yahyo tomonidan suvga cho‘mdirilgan ekan”.

Ekranda shunday manzara namoyon bo‘ladi: bitta soqolli erkak boshqa bir soqolli erkakni cho‘mdirmoqda.

“Noma’lum manbalarning xabar berishicha, qisqa muddatli marosimdan so‘ng samodan kaptar uchib kelib Isoning boshiga qo‘ndi, shundan keyin momaqaldiroq gumburlab, ayrimlar Yaxvening, Isroil Xudosining ovozini eshitishdi”.

Ekranda tag‘in tabassum qilayotgan boshlovchi paydo bo‘ladi:

“Biroq, – deydi u, – o‘sha ma’lumot beruvchilarning aytishicha, Nosiralik Iso Yahudiya cho‘llarida ko‘zdan pana bo‘lib, keyingi qirq kun mobaynida ro‘za tutadi va ...*shaytonning vasvasalariga duchor etiladi*! Agar ushbu xabar to‘g‘ri bo‘lsa, bu holda vasvasaga tushish Isoning diniy va ruhiy yetakchi sifatidagi obro‘-e’tiborini shubha ostiga qo‘yadi, bu hattoki... – Boshlovchi qo‘lini ko‘tarib kimningdir gapini eshitgan holda bir daqiqa qotib qoladi: – Nima? Xo‘sh, nima bo‘pti? – U suflyorni tinglayotgandek kameraga ikkilanib qarab qoladi. So‘ng yo‘taladi: – Men harqalay shoshildim, shekilli. Bizning axborotchilarimiz vasvasaga duchor bo‘lishdek hech qanday uyatli va mojaroli holat bo‘lmaganini aytishmoqda, yo‘q, – u tag‘in yo‘taladi. – Zotan, Isoning diniy va ruhiy yetakchi sifatidagi nufuzi faqatgina U vasvasaga *taslim bo‘lganida* xavf ostida qoladi. Bunday hodisa haqida esa hech kim xabar bergan emas”.

MULOHAZA QILGIN: “Nima deb o‘ylaysan, vasvasaga berilish gunohmi? Seningcha, Iso vasvasaga duchor bo‘lganida gunoh qilganmi? Agar shunday bo‘lmasa, bu holda vasvasa va gunoh o‘rtasida qanday farq bor? Sen qachonlardir vasvasaga duch kelganmisan? Qay tariqa? Sen unga qanday yondashding?

IBODAT: “Xudoyim, menga gunoh va vasavasa o‘rtasidagi farqni ko‘rsatib berganing uchun Senga rahmat. Vasvasaga berilmasligim uchun yordam ber, ayniqsa _____ (kimnidir so‘kib yuborgim keladi; do‘stlarim undagani uchun nimadir yomon ishlar qilgim keladi va hokazolar)”.

17 IYUL. MEN ZAIF BO‘LGANIMDA...

Kalomdan o‘qish: Luqo 4:1-4

Sahroda Isoni iblis qirq kun vasvasaga soldi. O‘sha kunlar davomida Iso hech narsa yemadi, oxiri och qoldi (Luqo 4:2).

SEN BOLALAR BILAN regbi o‘ynayotganingni tasavvur qil. Agar senda raqibni tanlash imkoniyati bo‘lganida, sen kimning yo‘nalishi bo‘ylab yugurgan bo‘larding:

- ko‘changdagi eng baquvvat bola turgan yo‘nalish bo‘yichami
- eng kichkina va oriq bolaning yo‘nalishi bo‘ylabmi?

Yoki mehnat darsi o‘qituvchisi senga yog‘och bo‘lagini yo‘nishni buyurdi. Sen yog‘ochning bir uchi yo‘g‘on, narigi uchi esa ingichka ekanligiga e’tiboringni qaratding. Sen:

- yo‘g‘on tarafidan yo‘nishni boshlaysanmi
- ingichka tarafidanmi?

Yoki deylik, sen ota-onangdan pul so‘ramoqchisan. Sen :

- Ular senga nisbatan jahllanib turishganida so‘raysanmi (misol uchun, ular seni uylaringdagi itni urayotgan paytda uchratib qolganlarida)?
- Ular sendan faxrlanib turishganida so‘raysanmi (misol uchun, BMT seni “yilning eng ajoyib o‘quvchisi” deb e’lon qilgan paytda)?

Sen qaysi variantni tanlaysan? Agar sen ahmoq bo‘lmasang, kichkina va ozg‘in bola bilan o‘yinda to‘qnashishni hamda yog‘ochning ingichka uchini yo‘nishni afzal ko‘rasan. Agar sen ahmoq bo‘lmasang, ota-onang sendan faxrlanib turishganida ulardan pul so‘raysan (biroq ota-onangga biz maslahat berganimizni aytmagin!).

Xullas, bilib qo‘y: iblis ham ahmoq emas. U sening kuchli tarafingdan vasvasaga solmaydi; u seni zaif tomoningdan vasvasaga soladi. U Iso bilan ham xuddi shunday yo‘l tutgan. Iblis sahroda Isoning oldiga kelganida och edi, hoynahoy, U yolg‘iz bo‘lgan, U charchagan (Matto 4). Mana nima uchun iblis Unga yegulik taklif etgan. Va qo‘llab- quvvatlashni. Qulaylikni.

Ehtiyot bo‘l, zero shayton sen bilan ham xuddi shunday yo‘l tutadi. Sen zaif bo‘lganingda noto‘g‘ri ishlar qilish uchun vasvasa uyg‘onadi. Tayyor bo‘l. Hushyor turgin. Zaif bo‘lganingda Xudoning madadiga tayanishga tayyor bo‘l.

MULOHAZA QILGIN: Sen oxirgi marotaba qachon noto‘g‘ri yo‘l tutganing haqida eslagin. Sen zaif holatingda shunday qildingmi (yolg‘iz bo‘lganingda, charchaganingda, hafsalang pir bo‘lganida va hokazo)? Sen qachon o‘zingni zaif his qilasan? Yolg‘izlik hissiga qarshi kurashishingga to‘g‘ri kelganmi? Ochlikkachi? Charchoq hissigachi? Yoki boshqa yana nimaga? Nima deb o‘ylaysan, vasvasaga berilmaslik uchun bunday zaif damlarga qarshi qanday tayyorlanish kerak?

IBODAT: “Iso, Sen zaif bo‘lganingda vasvasaga qarshi turasan. Marhamat qilib, ayniqsa zaif bo‘lganimda ehtiyotkor bo‘lishim kerakligi haqida eslab turishimga yordam ber. Marhamat qilib, meni vasvasa qurshaganida Sening kuchlaringga tayanishim uchun yordam ber”.

18 IYUL. KITOBDAGIDEK EMAS

Kalomdan o‘qish: Luqo 4:5-8

Iso javob berib:

– Yo‘qol oldimdan shayton! *Tavrotda*: “Egang Xudovandga sajda qil, birgina Unga itoatda bo‘l”, deb yozilgan, – dedi. (Luqo 4:8).

ADABIYOT DARSIDA insho yozish unchalik ham oson emas. Buning uchun qachonlardir yashab o‘tgan va g‘alati tillarda gapirishgan odamlar haqida yozilgan yuzlab sahifalarni o‘qib chiqishga to‘g‘ri keladi. Aksariyat hollarda gap nima haqda borayotganini tushunmay qolasan.

Tasavvur qilgin-a, senga “Devid Kopperfild” asari bo‘yicha insho yozishni topshirishdi. Agar unda Ozodlik Haykalini g‘oyib bo‘lishga majbur qilgan sehrgar haqida gap bormaganida, asar unchalik qo‘rqinchli tus olmagan bo‘lardi (tashvishlanma, sehrgar uni joyiga qaytarib qo‘ygan). Yo‘q, hozir gap boshqa Devid Kopperfild haqida bormoqda. O‘sha yigit Angliyada yashagan bo‘lib, bu haqda Skrudj, Oliver Tvist va boshqalar haqida qalam tebratgan adib Charlz Dikkens yozib qoldirgan.

Ammo shoshmay tur! Bu asar bo‘yicha bir qancha filmlar suratga olingan. Sen shunchaki ushbu filmlardan birini tomosha qilib, so‘ngra insho yozishing mumkin. Shunda katta va zerikarli kitobni o‘qib chiqishingga aslo hojat qolmasdi, to‘g‘rimi?

Noto‘g‘ri. Senga bu yaxshi fikr bo‘lib tuyulishi mumkin, biroq muammo shundaki, senga film asosida emas, balki kitob asosida insho yozish topshirilgan, agar sen shunday yo‘l tutsang, demak, aldagan bo‘lasan (hattoki o‘z yolg‘oningni qog‘ozga ham tushirasan!), yolg‘on esa gunohdir. Odatda kinoda ko‘plab tafsilotlarni qoldirib ketishadi, sen biror bir muhim masalani tashlab o‘tishing mumkin (va bu eng so‘ngida ma’lum bo‘ladi).

Bu vasvasa bo‘lgan bo‘lardi, to‘g‘rimi? Gap ana shunda. Ko‘pgina hollarda vasvasa “eng yaxshi yo‘l” kabi namoyon bo‘ladi. U bizga shunday deydi: shunday qilginki: oson bo‘lsin, tez bo‘lsin, arzon bo‘lsin.

Mana iblis sahroda Isoga nimani singdirmoqchi bo‘lgan (Matto 4:6-8). Iblis mabodo Iso unga bo‘ysunsa, shonu shuhrat va hukmronlikni va’da qilgan. Biroq Iso bu tuzoqqa ilinmadi. U O‘zining xochga mixlanishi va o‘limidan so‘ng barcha shonu shavkat va hukmronlikka ega bo‘lishini bilgan. U qisqa yo‘ldan borishga undaydigan vasvasaga qarshilik ko‘rsatgan.

Senda qisqa yo‘ldan borish vasvasasi uyg‘onishi mumkin. Balki, sen inshoni ko‘chirib (o‘qib o‘rganish o‘rniga), yaxshi baho olishni istab qolarsan. Ehtimol, senda onangni hamyonidan yuz so‘mni o‘g‘irlab olib (o‘zing pul yig‘ish o‘rniga) yangi kompakt-disk sotib olish vasvasasi qo‘zg‘ab qolar.

Iblis senga shunday deb shivirlaydi: “Bo‘laqol, mana shu osonroq!” yoki “Bu holda tezroq bo‘lasan!”, “Shunday qilsang arzon bo‘ladi!” Biroq o‘zingni aldashingga yo‘l qo‘yma. Mabodo shunday qilsang, yutqazib qo‘yasan.

MULOHAZA QILGIN: Senda qachonlardir biror masalani osonroq, tezroq yoki arzonroq tarzda hal etishga vasvasa bo‘lganmi? Iso shunday deydi: “Halokatga olib boradigan darvoza enli, yo‘li ham kengdir. Bu yo‘ldan yurayotganlar ko‘p. Hayotga olib boradigan eshik esa juda tor, yo‘li ensizdir. Bu yo‘lni topadiganlar oz” (Matto 7:13-14). Boshqacha qilib aytganda, ko‘pchilik odamlar oson yo‘lni qisqa yo‘lni tanlashadi, biroq bu yo‘l jahannamga olib boradi. Ushbu haftada (va hamisha) qisqa yo‘ldan borish vasvasasidan qochish uchun e’tiborli bo‘lgin.

IBODAT: “Rabbim, vasvasa hattoki qisqa yo‘lni ko‘rsatganida ham unga qarshilik ko‘rsatishim uchun yordam ber”.

19 IYUL. MASHQ QIL
Kalomdan o‘qish: Luqo 4:9-14
Iblisga qarshilik ko‘rsatinglar, shunda u sizlardan qochadi (Yoqub 4:7).

SENGA QACHONLARDIR o‘zing ocholmaydigan bankaning qopqog‘ini ochishingga to‘g‘ri kelganmi? Sen oxirgi marotaba qachon biror og‘ir narsani ko‘tarishga urinib ko‘rgansan, misol uchun, xonangdagi axlat qutisini ko‘targanmisan? Biz senga foydali maslahat berishimiz mumkin.

Charlz Atlas bodibilding bo‘yicha mashhur chempion edi. U mushaklarni rivojlanishiga yordam beradigan, ya’ni izometrik mashqlar deb ataladigan mashqlar tizimini ishlab chiqqan. Ular kuchni oshirish uchun nihoyatda foydali. Sen izometrik qoidalar asosida ishlaydigan trenajerlarni sotib olishing mumkin, biroq bu mashqlarning yaxshi jihati shundaki, sen ularni uyingda bemalol bajarishing mumkin.

Sen o‘zing sura oladigan, torta oladigan yoki ko‘tarib ko‘rishga urinsa bo‘ladigan, biroq joyidan qo‘zg‘ata bo‘lmaydigan biror nimani topgin. So‘ngra esa o‘shani surishga, tortishga yoki ko‘tarishga urinib ko‘rgin. G‘alati eshitiladi, to‘g‘rimi? Biroq amalda bu ish beradi. Misol uchun, sen qo‘llaringni kuchini oshirmoqchisan. Mana senga bu maqsadga erishmog‘ing uchun yordam beradigan ikkita izometrik mashqlar.

1. Ko‘kraging balandligida kaftlaringni birlashtirgin. Ilojing boricha qo‘llaringni qattiq siq (sen qo‘llaringni ajratmagan holda qarama-qarshi qisqa itarishing yoki uzoq vaqt tirab turishing mumkin).
2. Eshik kesakisi tomonida tur. Eshik kesakisiga qo‘lingni yelka kengligida qo‘ygin va itargin. (Buni ham siltab yoki qo‘lingni eshikdan uzmagan holda qilishing mumkin.)

Agar sen ushbu mashqlarni bir necha marotaba bajarsang (uzoq vaqt emas) mushaklaring og‘riyotganini his qilasan. Garchi sening qo‘llaring harakatlanmagan bo‘lsada, bilaklaring mashq qilishdi.

Agar sen bu mashqlarni bir necha kun davomida bajarsang va shundan so‘ng bankani ochishga urinsang (yoki xonadagi axlatni olib chiqmoqchi bo‘lsang), bu izometrik mashqlar qanchalik foydali ekanligini bilib hayron qolasan. Qarshilikdan foydalanib, sen mushaklaringni chiniqtirasan.

Demak, vasvasa izometrik mashqlarga o‘xshaydi, faqat ular ruhiy mushaklar uchun kerak bo‘ladi. Sen qarshilik qiladigan har bir vasvasada tobora kuchga to‘lasan. Qarshilik sening jismoniy va ruhiy mushaklaringni mashq qildiradi. Sen jismoniy mushaklaringni mashq qildirganingda, bankalarni ochish va qutilarni ko‘tarishing oson kechadi. Sening mushaklaring qanchalik baquvvat bo‘lsa, vasvasaga qarshi turishing shunchalik yengil bo‘ladi.

Nima uchun buni hozirning o‘zida boshlamaslik kerak? O‘z ruhiy mushaklaringni mashq qildirgin; bugun vasvasaga duch kelganingda e’tiborli bo‘lgin va (Xudoning yordami bilan) yana va yanada kuchliroq bo‘lasan.

MULOHAZA QILGIN: Hozir qaysi bir vasvasaga qarshi turishing hammasidan qiyin kechmoqda? Nima deb o‘ylaysan, sen bugun bu vasvasalardan har biriga bir marotabadan qarshilik qila olasanmi? Vasvasaga ilk bora duch kelganingda, unga (Xudoning yordami bilan) qarshilik ko‘rsatishga urin, shunda keyingi safar bu senga oson bo‘ladi.

IBODAT: “Rabbim, o‘tinaman, bugun vasvasaga qarshi turishim uchun yordam ber. Marhamatingni darig‘ tutmay, men duch keladigan yangi vasvasalar qarshisida meni kuchli qilishing uchun har bir yutuq, har bir g‘alabadan foydalangin”.

20 IYUL. SEN – SHIMSHO‘N KABISAN
Kalomdan o‘qish: Hakamlar 16:6, 16-21
Bir kuni Dalila Shimsho‘nga yalinib: Iltimos, buyuk kuchingiz sirini menga aytib bering, dedi (Hakamlar 16:6).

SEN Shimsho‘n haqidagi voqeani eshitgansan, to‘g‘rimi? U birinchi kulturist, birinchi superyulduz-sportchi bo‘lgan. Uning mushaklari Silvestr Stallone kabi, tabassumi Tom Kruzniki singari, sochlari esa Fabioniki kabi bo‘lgan.

Shimsho‘n hali tug‘ilmasidan avval uning onasiga farishta namoyon bo‘lib, u o‘g‘il ko‘rishini va “boshiga ustara” tegmasligini, negaki u “Xudoga nazr” qilinishini aytadi (Hakamlar 13:5). Shimsho‘n ulg‘ayib, o‘zining Xudoga bag‘ishlanganligi haqidagi alohida bir maqsadidan xabar topadi va Muqaddas Kitobda aytilishicha, “Egamizning Ruhi uni boshqara boshladi” (Hakamlar 13:25). Shimsho‘n tez orada o‘z xalqi orasida amalga oshirgan ko‘plab qahramonliklari bois mashhur bo‘lib qoldi; o‘zining jismoniy kuch-quvvati va filistlar (bizdagi voqeada ular “yomon bolalar” deb atalgan) ustidan qozongan talaygina g‘alabalari tufayli dovruq qozondi.

Biroq Shimsho‘nning ham bir kattagina zaifligi bor edi: unga go‘zal ayollar yoqardi. Kunlardan birida u Dalila ismli ayolni yoqtirib qoldi, filistlar esa Shimsho‘n nihoyatda kuchli bo‘lganligi tufayli uni ushlay olmasdilar va endi o‘sha ayol Shimsho‘n qudratining sirini bilib olishi uchun uni o‘zlariga og‘dirib oldilar. Qisqacha qilib aytganda, Shimsho‘n o‘shanda Dalilaga shunday dedi: “Biron marta ham ustara boshimga tegmagan. Chunki onamning qornidayoq Xudoga nazr qilinganman. Agar sochimni oldirsam, kuchim yo‘q bo‘ladi va men el qatori

kuchsiz bo‘lib qolaman” (Hakamlar 16:17). Shimsho‘n uxlab qolganida esa, Dalila shu zahotiyoq uning sochini olib tashladi! Filistlar kelib Shimsho‘nni bog‘ladilar, ko‘zlarini o‘yib, asir qilib olib ketdilar.

Ko‘plab odamlar Shimsho‘nning tarixini o‘qib, uning kuchi sochida bo‘lgan, deya xato fikrlashadi. Biroq kuch uning sochida emasdi; bu kuch Xudodan kelib turardi! Sochlari shunchaki uning Xudoga bo‘lgan sadoqati ramzi edi. Filistlar uni qo‘lga olishdi, zero u “Egamiz uni tark etgan”idan bexabar edi.

Sen ham xuddi Shimsho‘nga o‘xshaysan. Ha albatta, sening baquvvat mushaklaring yo‘q, biroq sen mana nima masalada unga o‘xshaysan: sendagi kuch Xudodan kelib turadi. Bu esa sening vasvasaga qarshi tura olish layoqating Xudodan hosil bo‘lishini anglatadi. Sen o‘zing hech qachon vasvasaga qarshi turolmaysan. Sen vasvasa va gunohni faqat Xudoning kuch-qudrati va Uning Ruhining ishtiroki bilangina yengib chiqishing mumkin.

MULOHAZA QILGIN: Xudoning madadi bilan vasvasaga qarshi tura olishing uchun sen ibodat qilishing va Unga ishonishing kerak. Quyidagi satrlarni ovoz chiqarib o‘qigin, so‘ngra esa Xudoning qudratini izlaganingda ularga amal qil:

- **Vasvasaga duchor bo‘lishdan avval men ibodat qilaman (Xudoning kuch-qudrati menga kun davomida hamroh bo‘lishi uchun men shu qudratni izlayman).**
- **Vasvasaga duch kelganimda ibodat qilaman (shu paytda Xudoning kuch quvvatini izlayman).**
- **Vasvasani yengib chiqib, ibodat qilaman (Xudoga g‘olib chiqqanim uchun minnatdorchilik bildiraman).**

IBODAT: “Rabbim, vasvasaga qarshi chiqishim uchun men yetarli darajada kuchli emasman, biroq men Sening har narsaga qodir ekanligingni bilaman. Bugun menga iblisning hujum qilishiga qarshilik ko‘rsatishim uchun yordam ber”.

21 IYUL. SEN MENING ONAM EMASSAN!
Kalomdan o‘qish: Chiqish 20:1-7
Men ... Egangiz Xudoman (Chiqish 20:2).

“DINOZAVRLAR” DEB NOMLANGAN BIR TELEVIZION SHOUDA dinozavrlar oilasi ko‘rsatiladi: ona, ota, o‘g‘il va go‘dak. Ba’zan kimdir go‘dakni gapga unatishga urinadi. Biroq go‘dak odatda o‘sha dinozavrning boshiga tova bilan urib shunday deya baqiradi: “Sen mening onam emassan!”

Taxminan ushbu shouni ko‘rsatishgan paytda bitta qizaloq ham qayerdadir yashardi. Uning ammasi qizaloqqa turli ko‘rsatmalarni yumshoqlik bilan berishga urinardi: “Azizam, iltimos, bu itchani duxovkaga solmagin!” Lekin qizaloq xuddi dinozavr kabi qovog‘ini uyib qat’iy ohangda javob qilardi: “Siz mening onam emassiz!”

Ehtimol, sen shunday javoblarni boshqa odamlardan ham eshitgandirsan. Balki, sen kimgadir yordam berishga yoki yumshoqroq tarzda e’tiroz bildirishga uringandirsan: “Menga qarangin-a, balki o‘qituvchini dam olish kunlarida muzlatgichga tiqib qo‘yishning hojati yo‘qdir?” va sen javoban ushbu so‘zlarni eshitgandirsan: “Sen menga boshliq emassan!”

Dinozavr bolasi va qizaloq ham boshqalarning nima qilish lozimligi haqida ko‘rsatma berish huquqini tan olmaganlari uchun shunday javob qaytarishgandi; ular faqat o‘z onalarini tan olishardi. “Sen menga boshliq emassan!” deb aytadigan odam ham deyarli shu tariqa fikrlaydi.

Bu kabi e’tirozlarni biz tez-tez eshitib turamiz, negaki ko‘pchiligimizga kimdir nima qilishni aytsa yoqmaydi, ayniqsa bu bizning onamiz bo‘lmasa! Biz o‘zimiz qaror qabul qilishni istaymiz.

Biz hattoki o‘zimiz nima yaxshiyu, nima yomon ekanligini hal qilishga urinamiz. Biz Xudo nima deganini unutamiz (yoki e’tibor bermaymiz) va o‘z shaxsiy qoidalarimizni o‘rnatamiz. “Shunday qilsa bo‘ladi, negaki hamma shunday yo‘l tutadi” deymiz. Yoki aytamizki: “Bir marta shunday qilib ko‘rish mumkin”.

Biroq biz qanchalik o‘zimiz uchun boshliq bo‘lishga urinmaylik, bu ish bermaydi. Xudo nima yaxshiyu, nima yomon ekanligini aytgan, U esa bizning Rabbimiz. Bizlardan hech kim Uning ishini bajarolmaydi. U - osmon va zaminda “boshliq”, U nima yaxshiyu, nima yomon ekanligini hal etishimiz uchun emas, balki tushunib olishimiz uchun yordam beradi. Bizning vazifamiz Unga itoat etish va Uning yordami bilan Uning aytganlarini bajarishdan iborat. Va agarda biz shunday yo‘l tutsak, bu holda Xudo eng yaxshi “boshliq” ekanligini anglab yetamiz.

MULOHAZA QILGIN: Sening qancha “boshliq”laring bor? Sen qachonlardir o‘zing uchun boshliq bo‘lishga uringanmisan? Sen o‘z shaxsiy qoidalaringni o‘rnatish uchun Xudoning aytganlarini unutib qo‘yganmisan? Sen qachonlardir shunday deganmisan: “Hamma ham shunaqa qiladi” va hokazo? Agar shunday bo‘lsa, bu so‘zlarni tez-tez aytasanmi? Agar keyingi kunlarda tag‘in shunday desang, Xudo osmon va zaminning “boshlig‘i” ekanligini va U senga nima yaxshiyu, nima yomon ekanligini tushunib olishing uchun yordam berishini yodingga ol.

IBODAT: “Mehribon Xudoyim, men ba’zan Sen ezgulik va yovuzlik haqida aytganlaringni unutib qo‘yishimni tan olaman. Ba’zan men o‘z shaxsiy qoidalarimni o‘rnatishga urinaman. Sening so‘zlaringni yaxshiroq eslab qolishim va ularni bajarishim uchun yordam ber”.

22 IYUL. NUHGA QILINGAN TELEFON QO‘NG‘IROG‘I
Kalomdan o‘qish: Ibtido 6:9-22

Nuh hamma narsani Xudo amr etganday qildi (Ibtido 6:22).

Nuh ustaxonasida ishlayotganida o‘g‘li Xom qo‘lida mobil telefoni bilan oldiga kirib keldi. (Ha albatta, o‘sha davrlarda mobil telefonlari bo‘lmagan, biz shunchaki hazillashyapmiz, maylimi?)

– Allo? – deydi Nuh. U bir muddat telefon orqali gapirayotgan kimningdir so‘zlarini jim turib eshitdi. – Bu kim o‘zi? ...Nima, mening ustimdan kulyapsizmi?... Yo‘q, yo‘q... yo‘q, ey Xudoyim, go‘shakni qo‘yib qo‘yma! Men Senga ishonaman... Shunchaki... bilasanmi, axir har kuni ham Yaratguvchi bilan telefon orqali gaplashishga to‘g‘ri kelmaydi.

Nuh tag‘in jim qolib diqqat bilan tinglay boshladi.

– Ha, to‘g‘ri, Xudoyim, Sen haqsan. Hammasi juda yomon. Men har kuni ertalab hovlida o‘n va hattoki yigirmatalab bo‘sh pivo idishlari yotganini nazarda tutyapman.

Nuhning ko‘zlari Xudoning keyingi so‘zlarini eshitganida yanada kengayib ketdi:

– Nima... Sen... rostdan ham ...

U yutinib olib qat’iy ohangda so‘radi:

– Sen shunday qilishingga ishonching komilmi, Xudoyim? Men aytmoqchi edimki, biz hammamiz albatta gunohkorlarmiz, ammo balki Muqaddas Kitob saboqlaridan dars berishimiz yoki shunga o‘xshash... Eh, men unutib qo‘yibman-ku! Muqaddas Kitobni hali yozishmagan, axir.

Nuh to‘satdan qalamini chiqarib bir parcha qog‘ozga telefon orqali berilgan ko‘rsatmalarni tez yoza boshladi.

– Xo‘p, – dedi u, – uzunasiga bir yuz o‘ttiz yetti metr... xo‘sh... yigirma uch metr eniga va balandligi o‘n to‘rt metr. – U taajjub bilan raqamlarga qarab chiqdi. – Biroq bu juda katta kema-ku, Xudoyim, – u hayqirib yubordi. – Nihoyatda katta!

U yozishni bas qilib, tag‘in diqqat bilan tinglay boshladi. U eshitganlariga ishona olmasdi:

– Xudoyim, Sen nima so‘rayotganingni tushunayapsanmi? – dedi u nihoyat. – Aytmoqchimanki, tanishlarim meni aqldan ozib qolgan deb o‘ylashadi! Va buning yog‘ochiga oilamiz to‘plagan hamma pulni sarf qilishimizga to‘g‘ri keladi, biz esa bu pulga Furot daryosi bo‘yida ta’tilni o‘tkazmoqchi edik. Xotinimga endi nima deyman?

U yana bir muddat tinglab turdi, yana gapira boshlaganida esa uning ovozi xotirjam va qat’iy edi:

– Ha Hudoyim, Sen haqsan. Men buni bilaman. Men buning oson bo‘lmasligini bilaman, lekin men buni amalga oshiraman... Yaxshi. Qo‘ng‘iroq qilganing uchun rahmat.

“Bu nodonlik bo‘ldi, – deya o‘yladi u go‘shakni qo‘yar ekan. – Borliqning Yaratuvchisi senga qo‘ng‘iroq qildi, sen esa Unga buning uchun minnatdorchilik bildirayapsan!”

MULOHAZA QILGIN: Nima deb o‘ylaysan, Nuh uchun “Xudo unga buyurganidek barchasini bajarish” oson kechganmidi? Nima uchun “ha” va nima uchun “yo‘q”? Nima deb o‘ylaysan, Nuhda hammasidan voz kechish va u kemani qurgan yillarida bu haqdagi fikrini o‘zgartirish uchun vasvasa bo‘lganmi? Nuh uchun bir qarorga kelish qiyin bo‘lganmi yoki oson yoxud bunday qarorga kelish sen uchun ham odatda qiyin kechadimi? Nima uchun to‘g‘ri qarorga kelish qiyin bo‘lsada baribir to‘g‘ri qaror qabul qilish muhim hisoblanadi?

IBODAT: “Rabbim, ba’zan men odamlar ustimdan kulishlaridan qo‘rqib to‘g‘ri yo‘l tutishdan qo‘rqaman. Marhamat qilib, Sen haqingda va to‘g‘ri qarorning muhimligi haqida yodda tutishim uchun yordam ber”.

23 IYUL. O‘YIN MAYDONI ATROFIDAGI TO‘SINLAR

Kalomdan o‘qish: Galatiyaliklar 3:23-24

Ey Egam, qoidalaring menga, O‘z qulingga o‘git beradi, Qoidalaringga itoat etganlar buyuk mukofot oladi (Zabur 18:12).

KO‘PLAB BAXTIYOR BOLALAR O‘YNAYOTGAN O‘YIN MAYDONCHASINI tasavvur qilib ko‘rgin. Ular zinachalardan o‘rmalab chiqishadi, o‘tish joylari, quvurlarga tirmashadilar, tepalikdan pastga sirpanib tushishadi, qal’ani olish uchun qaroqchilar o‘yinini o‘ynashadi. Kimdir arg‘imchoqda uchadi. Ular kulishadi, shamol ularning sochlarini hilpiratadi. Bolakaylar qumdonga o‘rmalab kirib, iliq qumni qazishadi va undan uylar yasashadi. Kimdir arg‘imchoqda uchadi.

Xo‘sh, agar o‘yin maydoni to‘rt tarafdan baland to‘sinlar bilan o‘rab olinganida nima bo‘lardi? Bundan uning ko‘rinishi jozibasiz tus olgan bo‘larmidi? Bolalar xohlagan paytlarida to‘sin tashqarisiga chiqishlari mumkin, lekin ular o‘yinni istashsa ichkarida qolgan bo‘lishardi.

Maydonni devor bilan o‘rab olish qattiqqo‘llik emasmi? Yo‘qmi? Nima uchun yo‘q?

“Xo‘sh, – deysan sen, – ba’zan maydon atrofini to‘sinlar bilan o‘rab olishadi, negaki u shundoqqina ko‘chaning yonida joylashgan bo‘ladi. Mabodo to‘sinlar bo‘lmasa, bolalar ko‘chaning o‘tish joyiga yugurib chiqib mashina ostiga tushib qolishlari mumkin. Balki maydon ko‘l yoki hovuzning yonginasida bo‘lib, bolalarning cho‘kib ketish xavfi bordir. Ehtimol, bolalarning o‘ynashiga o‘tkinchilar xalal bermasliklari uchun to‘sinlar qurishgandir”.

Va sen haqsan. Biz bilamizki, maydonlar atrofidagi to‘sinlar borligi yaxshi; ular bolalarni himoya qiladi va ularning o‘z istaganlaricha xursandchilik qilishlariga yordam beradi.

Xudoning amrlari ham shu kabi ishlaydi. Ular - qandaydir qattiqqo‘l cheklovlar emas. U bizga erkinlikdan zavq olishimiz va ayni paytda xatardan himoyalanishimiz uchun amrlar (“O‘g‘irlik qilma”, “Yaqiningni sevgin” va “Ota-onangni hurmat qilgin”) bergan. Uning amrlari xuddi o‘yin maydoni atrofidagi to‘sinlarga o‘xshaydi: ular bizni himoya qilishadi va xavfsizlikda xursandchilik qilishimizga imkon beradi.

MULOHAZA QILGIN: Muqaddas Kitobdan bugun o‘qiladigan oyatda Pavlus Xudoning qonunlari haqida nima deydi? Xudoning amrlari o‘yin maydoni atrofidagi to‘sinlarga nimasi bilan o‘xshaydi? Nima deb o‘ylaysan, Xudoning amrlari (“O‘g‘irlik qilma”, “Yaqiningni sevgin” va “Ota-onangni hurmat qilgin” kabilar)bizni haqiqatdan ham xatardan himoya qilishi mumkinmi? Qaysi xatardan?

IBODAT: “Rabbim, meni yaxshilikka undayotganing va zarardan asrayotganing uchun Sendan minnatdorman. Amrlaring himoyasi chizig‘i ichida qolishim uchun yordam ber”.

24 IYUL. KICHKINA MURUVVAT

Kalomdan o‘qish: 1 Salonikaliklar 5:15-24

Har doim bir-biringizga va hammaga yaxshilik qilishga intiling (1 Salonikaliklar 5:15).

KO‘P YILLAR AVVAL YASHAB O‘TGAN Martin ismli odam haqidagi voqeani eshitgin-a. U hozirgi Vengriya hududida joylashgan Pannoniyada tug‘ilgan. U o‘n besh yoshga to‘lganida, otasi (rim qo‘shinining zobiti) Martinning askar bo‘lishiga qaror qildi.

Oradan besh yoki olti yil o‘tib, Martin askarlarning kichik bir guruhi bilan birgalikda fransuz shahri Amen ko‘chalarida ot yugurtirib borardi. Uning yarog‘-aslahalari quyosh nurida yarqirar, shahar aholisi esa chavandozlar va ularning otlarini tomosha qilish uchun ko‘chalarga chiqishardi.

To‘satdan ularning yo‘llarida uvadaga o‘rangan va sovuqdan qaltirab turgan gadoy paydo bo‘lib qoldi. Martin uni ko‘rib, otining jilovidan tortib to‘xtatdi. Bir muddat u gadoyga ikkilanib qarab turdi. Uning yonida puli yo‘q edi, biroq o‘zining nazarida shu gadoyga qandaydir yordam berishi kerakdek tuyuldi.

Martin banogoh qurol-yarog‘lari ustidan yelkasi osha tashlangan sifatli ustki kiyimini yechib oldi. So‘ngra u qilichini qinidan chiqardi. Gadoy qilichga qo‘rquv bilan qarab turardi, lekin Martin uni qo‘rqitmoqchi emasdi. Kiyimni bir qo‘lida, qilichni esa boshqa bir qo‘lida ushlab u libosni teng o‘rtasidan kesa boshladi. U libosning yarmini gadoyning qaltirab turgan yelkasiga tashladi, qolgan yarmini esa o‘zining ustiga yopdi. So‘ngra u qilichini qiniga solib, yo‘lida davom etdi.

Bu ajoyib, to‘g‘rimi? Mana o‘n olti asr bo‘libdiki, odamlar Martinning gadoyga qilgan muruvvatidan hayratlanishadi, negaki ular tushunishadi: ezgulik yo‘lidagi ish, garchi u kichik bo‘lsa ham, yaxshi va hayratga sazovordir. Bu voqea bundan deyarli o‘n olti asr avval yuz bergandi va Martin o‘limidan so‘ng, ya’ni eramizning 397 yilidan boshlab avliyolar qatorida hisoblanadi. Aslida *kichkina* xayrli ishlar bo‘lmaydi va avliyo Martin buni o‘sha gadoyga muruvvat ko‘rsatganidan so‘ng bilib oldi. U o‘sha tunda tush ko‘rdi: Iso samoda farishtalar qurshovida o‘tirardi. Tushda Isoning yelkasiga rim askarining yarimga bo‘lingan libosi tashlangan edi.

MULOHAZA QILGIN: Nima deb o‘ylaysan, avliyo Martinning tushi nimani anglatgan? Sen yaxshi ishlarning kichigi bo‘lmasligiga ishonasanmi? Nima uchun “ha” va nima uchun “yo‘q”? Sen bugun qanday xayrli ish qilishing mumkin?

IBODAT: “Mehribon va sevuvchi Ota, Sen menga ezgulikni o‘rgatganing uchun rahmat: ezgulik hatto arzimas bo‘lib tuyulsa ham - u yaxshi. Men hamisha odamlarga nisbatan mehribon bo‘lishim uchun yordam ber”.

25 IYUL. GOL BO‘LGANINI KIM HAL QILADI?

Kalomdan o‘qish: Luqo 6:32-35

Lekin siz dushmanlaringizni seving, ularga yaxshilik qiling, qaytarib berishini o‘ylamay, qarz bering (Luqo 6:35).

Futbolda gol hisobga olinganligi yoki olinmaganligini kim qayd etadi? Hakam (referi), to‘g‘rimi? Sportning boshqa turlaridachi? Misol uchun, tennis bo‘yicha musobaqalarda kim g‘olibni aniqlaydi? Boks musobaqasidachi?

Sportning barcha turlarida golni hisobga oladigan yoki olmaydigan, “yaxshi” yoki “yomon” baho qo‘yadigan odam (yoki bir necha odam) bo‘ladi. Sportchilarning o‘zlari bunday qaror qabul qilisholmaydi, qarorni hakam qabul qiladi.

Hayotda ham xuddi shunday holat hukm suradi. Biz biror narsaning yaxshi yoki yomon ekanligini hal qilmaymiz. Misol uchun, ezgulikni olaylik. Sen shunday deyishing mumkin: “Mehribon bo‘lish yomon”, “Ezgulikning turishi bema’nilik”, “Yaxshi bo‘lishni istamayman”. Biroq mehribon bo‘lish baribir yaxshi. Nima uchun? Negaki sen buni hal qilmaysan, buni – Xudo hal qiladi. U aniq qilib – hatto dushmanlarga ham – mehribon bo‘lish yaxshi ekanligini aytgan!

MULOHAZA QILGIN: Boshqa odamlarga nisbatan mehribon bo‘lish yaxshi ekanligini sen qayoqdan bilasan? Nima deb o‘ylaysan, dushmanlarga va notanish odamlarga nisbatan mehribon bo‘lish yaxshimi? Nima uchun? (Senga maslahat: Muqaddas Kitobdan bugun o‘qiladigan parchani qarab chiq). Nima deb o‘ylaysan, nega Xudo sen bilan yomon munosabatda bo‘ladigan odamlarga nisbatan mehribon bo‘lishingni buyuradi?

IBODAT: “Rabbim, har doim ham boshqa odamlarga nisbatan mehribon bo‘lishim oson emas. Bu to‘g‘ri ekanligini doimo yodda saqlashimga yordam ber. O‘zim bilmaydigan odamlarga va menga nisbatan yaxshi munosabatda bo‘lmagan odamlarga mehribon bo‘lishim uchun yordam ber, ayniqsa _____”.

26 IYUL. O‘ZGA SAYYORALIKLARNING HUJUMI

Kalomdan o‘qish: Kolossaliklar 3:12-15

Sizlar Xudoning tanlangan, aziz va suyukli xalqisizlar. Shunga ko‘ra, rahm shafqat ... va sabr-toqatni zeb-ziynat qilib taqib olinglar (Kolossaliklar 3:12).

SEN UYQUSIRAB, nonushta qilish uchun alanglab kelasan. Stol atrofiga o‘tirib, g‘o‘ldiragancha tezda ibodat qilib olasan: “Rabbim, bergan rizqing uchun Senga rahmat, bu-bu-bu...”. Nihoyat ko‘zlaringni ochasan – qarshingda likopchada o‘zing yoqtiradigan bo‘tqani, ikkita sariyog‘ surtilgan nonni va apelsinli sharbat to‘ldirilgan bokalni ko‘rasan. Uyqudan uyg‘onganingga to‘la ishonch hosil qilish uchun ko‘zlaringni ishqalaysan. “Kim bularni tayyorlab qo‘ydi?” – deya o‘zingcha buni topishga urinasan. So‘ngra esa pastdan akangning ovozini eshitasan:

– Umid qilamanki, men tayyorlagan nonushta senga yoqsa kerak?

Sen kafting bilan peshonangga urasan. Bu *haqiqatdan ham* yuz beryaptimi? U hattoki sen yoqtirganingdek, bo‘tqani shirin qilib tayyorlabdi. Hech narsani e’tibordan chetda qoldirmabdi. Nimalar ro‘y beryapti? Sen bo‘tqada zahar yoki o‘rgimchak yo‘q ekanligiga ishonch hosil qilishing uchun uni qoshiq bilan aralashtirasan. “Ehtimol, unga mendan biror narsa kerakdir?” – deya xayolga tolasan.

Nonushtani yakunlab, sen o‘z xonangga qaytasan va karavoting yig‘ishtirib qo‘yilganini, unda sen yaxshi ko‘radigan kiyimlar taxlab qo‘yilganini ko‘rasan. Sen hozir musiqa yangrashini kutasan. Yashirin kameralarni izlaysan. So‘ngra esa miyangga uriladi: o‘zga sayyoraliklar kelib, akangning tanasiga joylashib olishgan! Agar sen hushyorlikni yo‘qotsang, ular tezda sening ham vujudingga kirib olishadi!

Biroq, g‘aroyibot bu bilan yakunlanmaydi. Sen xonaga kirasan, akang esa televizor ko‘rib o‘tiribdi va senga o‘zing xohlagan teleshouni tomosha qilishingni taklif etadi! Sen tomog‘ingni ho‘llab olmoqchisan, u esa senga kokteyl tayyorlab beradi! U hattoki sening ortingdan narsalarni yig‘ishtirib qo‘yadi va shunday deydi: “Menga bu ishlarni qilish yoqadi!”

Bu juda ajoyib bo‘lardi, to‘g‘rimi? G‘alati, ammo ajoyib. Agar ukang yoki singling butun kun bo‘yi senga nisbatan shunday mehribon bo‘lishsa hayoting qanday bo‘lishini tasavvur qil. Bu nihoyatda ajoyib bo‘lardi, shundaymi?

Mana nima uchun Xudo bizga mehribon bo‘lishni buyuradi; U odamlar bir-birlariga nisbatan g‘amxo‘r bo‘lganlarida buning mo’jizali ekanligini biladi. Xudo, agar biz bir-birimizga nisbatan mehribon bo‘lsak, hayotimiz yanada yaxshiroq bo‘lishini biladi. Mana nima uchun Uning Kalomida shunday yozilgan: “Sizlar Xudoning tanlangan, aziz va suyukli xalqisizlar. Shunga ko‘ra, rahm-shafqat, mehribonlik, kamtarlik, muloyimlik va sabr-toqatni zeb ziynat qilib taqib olinglar” (Kolossaliklar 3:12).

Mehribonlik ajoyibdir, negaki Xudo bizga mehribon bo‘lishimizni amr etgan. Bundan tashqari, mehribon bo‘lish aslida ham qoyilmaqom xususiyatdir.

MULOHAZA QILGIN: Nima deb o‘ylaysan, agar sen har bir vaziyatdan boshqalarga nisbatan mehribon bo‘lish uchun foydalansang, hayoting yanada yaxshiroq bo‘larmidi? Mabodo hamma ham mehribon bo‘lganida, maktabda, jamoatda, qo‘shnilar bilan munosabatda vaziyat qay tariqa o‘zgargan bo‘lardi? Agar sen hammaga mehribon bo‘lsangchi?

IBODAT: “Mehribon Xudoyim, men g‘amxo‘r bo‘lish yaxshi ekanligini bilaman, negaki, Sen shuni buyurasan. Bugun mehribon bo‘lib odamlarni, hattoki ota-onamni hayron qoldirishim uchun menga yordam ber, ayniqsa ayniqsa _____”.

27 IYUL. XUDODA QANDAY QILIB TABASSUM UYG‘OTISH MUMKIN

Kalomdan o‘qish: Yeremiyo 9:23-24

Men Egangizman. Men mehr shafqat ko‘rsataman, yer yuzida adolatu haqiqat ila ish tutaman. Bunday qilishdan Men zavqlanaman (Yeremiyo 9:24).

SEN XAYOLINGDA Xudoni qanday tasavvur qilasan? Ulkan, soqolli, oppoq sochli qariya sifatidami? Oppoq kiyimdami? Sening fikringcha, Uning bo‘yi balandmi?

Uning yuzi qanday? Ajin bosganmi? Jiddiymi? Qovog‘i uyilganmi? Kulib turadigan chehrami?

Sening Xudo haqidagi tasavvuring, harqalay, nimanidir aks ettiradi, negaki bu siymolar bizning tasavvurimizga taalluqli. Aslida Xudo qanday ko‘rinishda ekanligini hech kim bilmaydi. Harholda, U biz avval ko‘rganlarimizdan hech biriga o‘xshamaydi.

Mana men senga nima deyman: sen Xudoda tabassum uyg‘otishing mumkin. Sen qachonki o‘zingni muayyan bir tartibda tutsang, Uning qiyofasi xursandchilikni aks ettiradi. Seni Mavlud sovg‘alari xursand qilgani kabi, ayrim narsalar Uni ham mamnun etadi.

Bilasanmi, Uni nima xursand qiladi? Sen haqiqatdan ham Xudoda tabassum uyg‘otmoqchimisan? Bu narsa Muqaddas Kitobdan bugun o‘qiladigan oyatda ham eslatib o‘tiladi: “unday qilishdan Men zavqlanaman” (Yeremiyo 9:24). Boshqacha qilib aytganda, Xudo yaxshi ishlarni ko‘rganida mamnun bo‘ladi. Sen ukang yoki sinlingga nisbatan mehribon bo‘lganingni ko‘rganida U xursand bo‘ladi. Sen yig‘layotgan go‘dakni ovutayotganingni ko‘rsa, U tabassum qiladi.

Nima uchun? Negaki Xudo yaxshilikni qadrlaydi. Unga yaxshilik yoqadi. Yaxshilik – Uning eng yoqtirgan narsalaridan biridir.

Albatta, biz bu haqda bilardik, to‘g‘rimi? Chunki Xudo hamisha “bir-biringizga va hammaga” yaxshilikni izlashni buyuradi (1 Salonikaliklar 5:15). Va biz Xudoning amrlari Uning qadriyatini aks ettirishini ham bilamiz.

Xullas, keyingi safar yaxshilik qilishing uchun imkoniyat bo‘lganida, bundan foydalan, o‘shanda sen Xudoda tabassum uyg‘ota olasan.

MULOHAZA QILGIN: “Ezgulikka manzur” degani nima o‘zi? Senga nima yaxshi va manzur? Xudoni yaxshilik quvontirishini sen qayoqdan bilasan? Seni yaxshilik xursand qiladimi? Seni qachonlardir yomon ishlar mamnun qilganmi? Yaxshilik haqidagi tasavvuringni sening harakatlaring qay tariqa aks ettiradi? Sen kimgadir mehribon bo‘lganingda, Xudo O‘zini qanday his qiladi, deb o‘ylaysan? Bugun qanday yaxshilik qilishing mumkinligi haqida o‘ylab ko‘r. Buni kun oxirigacha amalga oshir.

IBODAT: “Mening Samoviy Otam, Seni bugun kulishga undashim uchun menga yordam ber, boshqa odamlarga nisbatan mehribon bo‘lishim va ular uchun qandaydir yaxshiliklar qilishim uchun ko‘maklash”.

28 IYUL. SAHRODAGI KASHFIYOT

Kalomdan o‘qish: Zabur 144:17-21

Egamiz hamma yo‘llarida adolat qilar, Hamma ishlarida sevgisini ko‘rsatar (Zabur 144:17).

DEYLIK, SEN ERTALAB radioni yoqib, yangiliklar orqali sahroda qadimiy hujjatlar topilganligi haqida eshitib qolding. Aytaylik, bu hujjatlarda Xudo haqida, Uning yerdagi ishlari haqida nimadir yangi xabarlar yozilgan. Agar unda quyidagilar yozilganida, sen nimalar deb o‘ylagan bo‘larding:

- Xudo uzun bo‘yinlarining ustidan kulish uchungina jirafalarni yaratganmi?
- Xudo *aslida* O‘zi yolg‘iz qolishi uchungina Odam Ato va Momo Havoni Adan bog‘idan haydab yuborganmi?
- Eramizdan avval 4040 yilda Xudo Kis shahri ko‘chalaridan birini kesib o‘tayotgan kampirni ko‘rib uni nima uchun chaqmoq bilan urgan?
- Xudo kunlardan birida itni *shunchaki* urganmi?
- Dovud ilk marotaba Zaburning 22-sanosini kuylaganida, Xudo unga aynigan pomidor otib, shunday deganmi: “Ket bu yerdan! Seni eshitishga toqatim yo‘q! Avval musiqadan ta’lim olsang bo‘lardi!”?

Bunday kashfiyot haqida eshitib, sen nima degan bo‘larding? “Bu gaplarni qayoqdan oldingiz?” – degan bo‘larmiding? Yoki shunday dermiding: “Qanday bema’nilik! Xudo bunday yo‘l tutmagan bo‘lardi!”?

Harholda, sen bu hujjatlarga ishonmagan bo‘larding, to‘g‘rimi? Biroq nima uchun? Negaki sen bu haqda yaxshiroq bilasan.

Oxir-oqibat, sen Xudo kampirni chaqmoq bilan urmasligini va itni kaltaklamasligini bilasan. U jirafaning ustidan kulmagan bo‘lardi yoki Dovudga aynigan pomidorlar otmasdi, to‘g‘rimi? Nega? Negaki bu Xudoning tabiatiga teskari xususiyatdir, bu Unga o‘xshamaydi, negaki Xudo mehribondir.

Muqaddas Kitobda shunday yozilgan: “Egamiz hamma yo‘llarida adolat qilar, *Hamma ishlarida sevgisini ko‘rsatar*” (Zabur 144:17, *kursiv* muallifniki). Yaxshilik – Uning bir qismidir. Oxir-oqibat, mehribonlik yaxshi, negaki Xudoning O‘zi mehribon. U bizga mehribon bo‘lishimizni buyuradi, negaki U rahm shafqatni qadrlaydi. Zero, bizning Samoviy Otamiz mehribon ekan, biz ham mehribon bo‘lishimiz kerak.

MULOHAZA QILGIN: Nima deb o‘ylaysan, Xudo mehribonmi? Sen buni qayoqdan bilasan? Xudo senga nisbatan g‘amxo‘r bo‘lganmi? Agar shunday bo‘lsa, bu qanday namoyon bo‘lgan? Nima uchun ezgulik yaxshi, noxolis harakatlar esa yomon? Xudoning mehribonligi bugun senga qanday namoyon bo‘lganini sanab chiq.

IBODAT: “Mening Samoviy Otam, men Seni ulug‘layman, negaki Sen mehribonsan, Sen menga nisbatan g‘amxo‘r bo‘lganing uchun Senga minnatdorchilik bildiraman. Bugun va har kuni boshqa odamlarga nisbatan mehribon bo‘lishim uchun menga yordam ber”.

29 IYUL. QIRQILGAN MAYSAZOR HAQIDA

Kalomdan o‘qish: 2 Shohlar 10:1-2

Dovud: “Naxosh menga sodiq edi, men ham uning o‘g‘li Xanunga sodiq bo‘layin”, deb ko‘nglidan o‘tkazdi. (2 Shohlar 10:2).

Ivan va Pyotrning dala-hovlilari yonma-yon joylashgan edi. Kunlardan birida Ivan uyi oldidagi maysazorda o‘t o‘rayotgandi. U o‘z hududini Pyotrning hovlisidan ajratib turadigan uncha baland bo‘lmagan daraxtlar oldigacha o‘rib bordi va qo‘shnining maysazori ham chiroyli ko‘rinishi uchun o‘tlarini o‘rishga qaror qildi. Va u Pyotrning maysazoridagi o‘tlarni o‘rib tashladi!

Oradan bir necha kun o‘tib, Pyotr o‘z tomorqasini o‘g‘itlab chiqdi. U ishini yakunlay deb qolganida, Ivanning yaqinda nimalar qilgani yodiga tushdi. Va Ivanning tomorqasini o‘g‘itladi.

Ivan uyga qaytganida, xotini unga Pyotrning qilgan ishini aytib berdi. “Xmm, – o‘yga toldi Ivan, – Pyotr chindan ham yaxshi ish qilibdi. Vaholanki, o‘tni o‘rish men uchun hech og‘irlik qilmagandi. O‘g‘it esa pulga sotib olinadi”.

Keyingi dam olish kunlarida Ivan o‘z hovlisini to‘planib qolgan axlat va to‘kilgan barglardan tozalashga ahd qildi. O‘z hududini tozalab bo‘lgach, qilgan yaxshiligi uchun minnatdorchilik tariqasida Pyotrning hovlisini ham tozalab chiqdi.

Bundan so‘ng Pyotr daraxtlarni butab, gullar ekdi. Unda ortiqcha urug‘lar qoldi va o‘z hududidagi ishlarni tugatgach, Ivanning hovlisiga ham gullar ekib qo‘ydi.

Shu tariqa, Pyotr va Ivan bir-birlariga yillar mobaynida yaxshiliklar qilishdi. Ular haqiqiy do‘stlarga aylanishdi. Ularning dala-hovlilari esa o‘sha joydagi eng chiroyli va sarishta uylar bo‘lib qoldi.

So‘ngra esa qiziq hodisalar yuz berdi. Boshqa dala-hovlilarning egalari ham Ivandan o‘rnak olib, o‘ylari oldidagi o‘tlarni tekislay boshladilar. Ular Ivan va Pyotrdan ibrat olib, qo‘shnilariga ham yordam berishardi. Tez orada ushbu bog‘dorchilik xo‘jaligi toza, chiroyli va hamjihat bo‘lib qoldi.

Pyotr va Ivan hanuzgacha bir-birlariga xayrli ishlar qilishadi va harholda, umrlarining oxirigacha shunday yo‘l tutishsa kerak. Oxir-oqibat, ular hech qayoqqa ko‘chib ketishni istashmaydi, negaki, ularga qo‘shnilari juda yoqadi.

MULOHAZA QILGIN: Bugun Muqaddas Kitobdan o‘qiladigan oyatda Dovudning Xanunga nisbatan munosabatida Naxoshning yaxshiligi qay tariqa o‘z aksini topgan? Nima deb o‘ylaysan, Nima uchun Dovud o‘zini bunday tutgan? Yaxshilik Ivan va Pyotrning munosabatlariga qanday ta’sir o‘tkazgan? Yaxshilik ularning hayotlarini qanday o‘zgartirgan? Nima deb o‘ylaysan, har qanday qo‘shni ham xuddi Pyotr kabi munosabat bildirgan ibo‘larmidi? Nima deb o‘ylaysan, yaxshilik ko‘proq nimaga o‘xshaydi: devorga ursa yopishib qoladigan saqich bo‘lagigami yoki orqaga sapchib ketadigan rezina to‘pgami? Atrofdagilarga mehribon bo‘lish kerakligini eslatib turishi uchun bugun cho‘ntagingda rezina to‘p olib yur.

IBODAT: “Rabbim, bugun atrofimdagilarga mehribon bo‘lishim uchun yordam ber, ayniqsa _____ men (maktabga borganimda, musiqa to‘garagida mashq qilganimda, sayr qilganimda va hokazo)”.

30 IYUL. KICHKINA MALIKA

Kalomdan o‘qish: Hikmatlar 11:16-17

Mehribon xotin izzat-hurmat topadi, zo‘ravon esa boylikdan boshqa hech narsaga erishmaydi. Shafqatli inson o‘z joniga manfaat keltiradi, bag‘ri tosh esa o‘ziga zarar yetkazadi (Hikmatlar 11:16-17).

Qachonlardir kichkina bir baxtsiz malika bo‘lgan ekan, negaki u malika bo‘lsada, chiroyli emas ekan.

Kunlardan birida kichkina malika o‘z saroyining oldida o‘tirib achchiq ko‘z yoshi to‘kayotganida yonginasidan bir kampir o‘tib qolibdi. Kampirning yelkasi bukchaygan, sochlari oppoq, barmoqlari qiyshaygan ekan. U malikadan nega yig‘layotganini so‘rabdi.

– Negaki men juda yolg‘izman. Men hech qachon chiroyli bo‘lolmayman!

Kampir qo‘lini malikaning yelkasiga qo‘yibdi:

– Nega endi seni chiroyli qiladigan kimnidir izlab ko‘rmayapsan?

Kampir, shunday deb maslahat berganicha, ketib qolibdi.

Kichkina malika bu maslahatga amal qilib, uni chiroyli qilishga qodir biror kishini izlay boshlabdi. Tez orada u, o‘rnidan turishga urinayotgan yerga yiqilgan bolakayni ko‘rib qolibdi. Malika uning oldiga yugurib kelib, bolakayning o‘rnidan turishiga yordam beribdi. Malika to‘satdan bolaning so‘qir ekanligini payqab qolibdi.

– Sen qayoqqa ketyapsan? – deb so‘rabdi malika. Bola uyga ketayotganini aytibdi va malika uni kuzatib qo‘yishga qaror qilibdi.

So‘ngra malika tag‘in yo‘lida davom etibdi. Endi uning yo‘lida yig‘layotgan qizaloq duch kelibdi. Malika undan nima yuz berganini so‘rabdi.

– Mening onam kasal, u meni sut va tuxum sotib olib kelgani jo‘natdi. Biroq men pullarni yo‘qotib qo‘ydim va endi sotib ololmayman, – deb g‘o‘ldirabdi qizaloq hayajonga to‘lib.

Malika o‘z hamyoniga qarabdi. Uning faqatgina ikkita oltin tangalari bo‘lib, onasi kasal bo‘lib yotgan qizaloqqa shu pullarni beribdi.

– Ushla, – debdi u. – Endi sen onangga sut va tuxum sotib olishing mumkin.

Qizaloq ko‘z yoshlarini artib, malikaga minnatdorchilik bildiribdi. U quvonch bilan tabassum qilganicha, do‘konga qarab yuguribdi.

Malika yo‘lda davom etib, tag‘in o‘sha kampirni uchratibdi.

– Men o‘zimni chiroyli qila oladigan hech kimni topolmadim, – debdi u.

– Buyoqqa qara-chi! – deya javob qaytaribdi kampir. U malikaning yuziga oyna tutibdi. – Sening mehribonliging seni chiroyli qildi, nafaqat sen yordam bergan bolalar uchun, balki boshqa barcha uchun ham sen chiroyli bo‘lib qolding!

Va kichkina malika kampirning haq ekanligiga o‘zi ham ishonch hosil qilibdi.

MULOHAZA QILGIN: Malika qanday yaxshilik qildi? Nima deb o‘ylaysan, yaxshilik chindan ham odamlarni dilga yaqin qiladimi? Nima uchun “ha” va nima uchun “yo‘q”? Sening mehribonliging nafaqat boshqaga, balki o‘zing uchun ham foydali. Yaxshilik qay tariqa senga foydali bo‘lishi mumkin?

IBODAT: “Mehribon va sevuvchi Xudo, atrofimdagilarga mehribon bo‘lishga uringanimda menga bugun yaxshilikning marhamatini namoyon etgin”.

31 IYUL. KICHKINA YEVA

Kalomdan o‘qish: Hikmatlar 14:21, 31

Qo‘shnisini xor qilgan – gunohkor, muhtojga marhamat qilgan esa baxtlidir... Kambag‘alga zulm qilgan Yaratuvchini tahqirlagan bo‘ladi, muhtojga yordam bergan esa Xudoni ulug‘lagan bo‘ladi (Hikmatlar 14:21, 31).

GARRIYET BICHER STOUNING MASHHUR “Tom tog‘aning kulbasi” nomli asarida Amerikadagi fuqarolar urushi davrigacha bo‘lgan zamonlarda Janubda yashagan Tom, Eliza va boshqa qullarning hayoti hikoya qilinadi. Bu asardagi qahramonlardan biri – Yeva ismli kichkina qizaloq bo‘lib, uning onasi muttasil o‘z kasalligidan nolib yuradi. Kitobdagi boblardan birida Yevaning onasi cho‘risi Mammining ustidan shikoyat qilib, shunday deydi:

– U nihoyatda xudbin: kechasi juda qattiq uxlaydi. U mening har soatda e’tiborga muhtojligimni, menga juda yomon ekanligini biladi, shunday bo‘lsada, uni ertalab uyg‘otish juda qiyin. Kechasi uni uyg‘otishimga to‘g‘ri kelganidan ertalab men o‘zimni yanada noxush his qilaman.

– Ona, men kechasi siz bilan yoningizda o‘tirsam maylimi, hech bo‘lmasa bir martagina? – deb so‘radi Yeva

– Naqadar bema’nilik, bolaginam! – deya javob qaytaradi ona.

– Iltimos, onajon? O‘ylashimcha, – deya gapida davom etadi qizaloq. – Mammi o‘zini noxush his qilmoqda. O‘zining aytishicha, keyingi paytlarda uning boshi og‘riyotganmish.

Kitobxon tez orada Yevaning mehribon qizaloq ekanligini, uning onasi esa befarq va xudbin ekanligini tushunib oladi. Kichkina Yeva hattoki cho‘ri Mammiga o‘zi bilan to‘shagida yotishga taklif qilib, shunday deydi: “Negaki senga g‘amxo‘rlik qilishim menga osonroq bo‘ladi, to‘shagim ham sening to‘shagingdan yaxshiroq”.

Mehribonlikning qanday ajoyib namunasi! Bu – bolalar, kattalarga qaraganda mehribonroq ekanligi haqidagi eslatmadir. Bu – Muqaddas Kitobning so‘zlariga qanday ajoyib misoldir: “Muhtojga marhamat qilgan esa baxtlidir... muhtojga yordam bergan esa Xudoni ulug‘lagan bo‘ladi” (Hikmatlar 14:21, 31). *Baxtlidir* so‘zi Hikmatlar 14:21-oyatiga ko‘ra “Xudoning xohishi ila baxtli va hurmatli” ma’nosini anglatadi. Aytish joizki, mehribon odam Xudoni ulug‘laydi, Xudo esa mehribon odamni sharaflaydi.

MULOHAZA QILGIN: Kim senga ko‘proq yoqadi: Yevami yoki uning onasi? Atrofingda “muhtojlar” bormi? (Bu gadoy yoki uysiz bo‘lishi shart emas; barcha odamlar sevgiga, e’tiborga va taskinga muhtoj bo‘lishlari mumkin.) Sen bugun muhtojlarga o‘z mehribonligingni qanday namoyon etasan?

IBODAT: “Xudoyim, men Sening Kalomingdagi ushbu so‘zlarga ishonaman: “muhtojga marhamat qilgan esa baxtlidir”, “muhtojga yordam bergan esa Xudoni ulug‘lagan bo‘ladi”. Men bugun _____ ga mehribon bo‘lib, Seni ulug‘lamoqchiman. Mehribon bo‘lishim uchun yordam ber”.

1 AVGUST. SUPERQAHRAMON VA SEN
Kalomdan o‘qish: Hikmatlar 3:5-8
O‘z aql-idrokingga suyanma, butun qalbing bilan Egamizga ishon (Hikmatlar 3:5).

SUPERQAHRAMON QACHONKI: “Mening qo‘limdan keladi!” deb hayqirsa, hech kim undan aynan nimaga qodir ekanligini so‘rab o‘tirmaydi. Axir uning baquvvat mushaklari bor, shu bois, u hamma narsaga qodir. Bundan tashqari, unga bunday savollar berish xatarli. Biroq, bu odilona savol va uni faqat superqahramonga berish mumkin, senga emas.

Sinab ko‘raylikchi, sen superqahramon bo‘lishga loyiqmikansan? Senga to‘g‘ri keladigan bandlarni qayd etib qo‘ygin.

Mening qo‘limdan keladi...

- □ boshim bilan tura olaman
- □ nimani xohlasam, o‘shani yeyman
- □ bir sakrash bilan eng yuqori binolarga chiqa olaman
- □ yuzgacha sanay olaman
- □ barmoqlarimni qisirlata olaman
- □ hamisha to‘g‘ri qaror qabul qilaman
- □ uchaman
- □ besh yuz kilogrammlik yukni bir qo‘limda ko‘tara olaman
- □ maktabda yaxshi baholar olaman
- □ oltmish soniya nafas olmay turaman
- □ singlimning karavoti yonida axlat chelagini to‘kaman.

Xo‘sh, nimalarni qayd etding? (Agar sen bir qo‘lingda besh yuz kilogramm yukni ko‘tara olsang, darhol Olimpiya qo‘mitasiga qo‘ng‘iroq qil!)

“Hamisha to‘g‘ri qaror qabul qilish” masalasi nima bo‘ldi? Sen uni qayd etdingmi?

Agar rostiga ko‘chsak, buni hech kim uddalay olmaydi. Bizdan hech kim hamisha ham to‘g‘ri qaror qabul qila olmaydi, negaki, biz barchamiz gunohkorlarmiz. Ehtimol, biz yaxshi ishlar qilishni istab qolarmiz. Biz hattoki yaxshi bo‘lishga urinishimiz mumkin. Biroq, ezgulikka va to‘g‘ri qaror sari yo‘l intilishda emas, balki Xudoning qudratiga tayanishimizga bog‘liq.

Xudoning amrlariga itoat qilish uchun Uni bilish lozim, Unga yaqin bo‘lmoq kerak (misol uchun, ibodat qilish, sajda qilish va Muqaddas Kitobni o‘qish), kundan-kun (har bir lahza) U senga to‘g‘ri qaror qabul qilishingga yordam berishiga ishonmoq zarur. Shuningdek, singlingning karavoti yoniga axlat chelagini to‘kmaslik kerak. (Har ehtimolga qarshi, agar sen bizning maslahatimizga amal qilib bu haqda fikrlay boshlasang yaxshi bo‘lardi!)

MULOHAZA QILGIN: Sen notanish odamga ishonasanmi? Xudoga ko‘proq ishonishing uchun Uni qay tariqa yaqinroq bilib olishing mumkin? Sen hamisha ham to‘g‘ri qaror qabul qila olasanmi? Bu kimning qo‘lidan keladi? Sen Undan qanday qilib yordam olishing mumkin?

HARAKAT QIL: Bugun har safar chiroqni yoqib o‘chirganingda Kim bizga to‘g‘ri qaror qabul qilishimizga kuch quvvat berishi haqida o‘ylab ko‘r.

IBODAT: “Rabbim, men bugun va hamisha to‘g‘ri yo‘l tutishimga Sen yordam berishingga ishonaman”.

2 AVGUST. YERIXODAN TO‘G‘RIDAN-TO‘G‘RI EFIR
Kalomdan o‘qish: Yoshua 6:1-20
O‘z aql idrokingga suyanma, butun qalbing bilan Egamizga ishon (Hikmatlar 3:5).

MUXBIR QO‘LIDA MIKROFON BILAN tutab yotgan vayronalar oldida paydo bo‘ladi.

– Siz bilan Kan’onlik Dan, hozirgina qudratli shahar Yerixo – Nun o‘g‘li Yoshua qo‘mondonligi ostida zabt etildi.

Kamera muxbir bilan yonma-yon turgan bir kishini ko‘rsatadi.

– Hozir Nun o‘g‘li Yoshua sizlarga o‘zining hayratomuz harbiy g‘alabasi haqida shaxsan intervyu beradi, – Dan o‘girilib mikrofonni Yoshuaga tutadi. – Nun o‘g‘li Yoshua, bizning savollarimizga javob berishga rozi bo‘lganingiz uchun sizga rahmat.

– Rahmat, Dan, biroq bu mening g‘alabam emas. Bu g‘alabani menga Xudo yubordi.

– Ajoyib! – Dan yo‘talib oladi. – Sizning g‘alabangiz haqida turli g‘alati gaplar yuribdi. Aytishlaricha, go‘yo Yerixoning devorlari... qichqiriqdan qulab tushganmish, – u asabiy tarzda kulimsiraydi.

– Bu mutlaqo to‘g‘ri, Dan. Xudo bizga olti kun mobaynida har kuni bir martadan shaharning atrofini aylanib chiqishimizni buyurdi. Yettinchi kuni bizning qo‘shin Yerixoni yetti marta aylanib chiqdi. Yettinchi marotabada ruhoniylar burg‘ularni chalishdi, xalq qichqirdi va shaharning devorlari changga aylanib ketdi.

– Ammo bu... hayratomuz voqea! – Dan ko‘zlarini katta ochdi. – Xudoning ko‘rsatmasi sizga ...ah... ahmoqona bo‘lib tuyulmadimi?

– Ular sizga ahmoqona bo‘lib tuyulishi mumkin, Dan, lekin siz bir narsani tushunmayapsiz. Men qirq yil sahroda Muso bilan vaqt o‘tkazib, Xudoni tingladik va Uning ishlarini ko‘rdik. Men Xudoning so‘zlarini

tushunmasam-da, Uning aytganlarini bajarish yaxshiroq ekanligini bilib oldim. Agar biz o‘z aqlimizga tayansak, – Yoshua o‘girilib Yerixo vayronalarini ko‘rsatadi, – Yerixo devorlari qilt etmay turavergan bo‘lardi.

Dan jilmayadi:

– Bu Xudo haqida va Yerixoning buzilgan devorlari haqidagi aql bovar qilmas hikoya edi.

MULOHAZA QILGIN: Yerixoni zabt etish haqidagi Xudoning ko‘rsatmasi Yoshua Kitobining 6:2-5 oyatlarida bayon etilgan. Nima deb o‘ylaysan, Nun o‘g‘li Yoshua va isroilliklar uchun Xudoning ko‘rsatmasiga shunchaki amal qilish yetarli edimi? Nima deb o‘ylaysan, agar ular bu ko‘rsatmaga amal qilmaganlarida, Yerixoni zabt etgan bo‘lisharmidi? Nima uchun “ha” va nima uchun “yo‘q”? Sen hamisha ham Xudoning amrlarini tushunasanmi? Nima deb o‘ylaysan, sen bu amrlarni tushunmaganingda ham, ularga amal qilishing kerakmi? Nima uchun “ha” va nima uchun “yo‘q”?

HARAKAT QIL: Xonang bo‘ylab yurib ular qanday tuzilganini bilmasangda o‘zing foydalanadigan buyumlarga e’tibor ber (misol uchun, elektr asboblari, radio va televizor, maishiy texnika).

IBODAT: “Rabbim, hattoki Sening amrlaringni tushunishim qiyin bo‘lganida ham Senga ishonishim uchun yordam ber”.

3 AVGUST. VA’DANING KUCHI

Kalomdan o‘qish: 2 Timo‘tiy 1:8-12

O‘z aql idrokingga suyanma, butun qalbing bilan Egamizga ishon. Har ishingda Egamizni e’tirof et, shunda U yo‘llaringni to‘g‘rilaydi (Hikmatlar 3:5-6).

QUYIDAGILARDA QANDAY UMUMIYLIK BOR?

- futbolchining shartnomasi
- nikoh qasamyodi
- tish shifokori qabuli uchun ro‘yxatdan o‘tish
- bank krediti

Ushbu barcha holatlarda ham kimdir va’da bermoqda.

Futbolchi ma’lum bir jamoada muayyan bir belgilangan davr oralig‘ida o‘ynash uchun va’da beradi, aytaylik, milliard dollar evaziga.

Kuyov va kelin bir-birlariga “quvonch va qayg‘uda ham, boylik va yo‘qchilikda ham, salomatlik va xastalikda ham” sodiq bo‘lish uchun va’da berishadi.

Tish shifokori muayyan bir kun va aniq belgilangan vaqtda mijozining katta hajmdagi yiringlagan milkini davolash muolajasini o‘tkazishga va’da beradi.

Bank muntazam ravishda foizi bilan qaytarishga va’da bergan kishiga pul qarz berishga va’da qiladi.

Nima uchun bank hujjatlarsiz qarzga pul bermaydi? Nima uchun mijoz tish shifokorining oldiga shunchaki kelavermaydi? Nega kuyov va kelin bir-birlariga va’da berishadi? Nima uchun sportchilar shartnomasiz o‘ynashmaydi? Negaki va’da – muhim masaladir. U muayyan bir kuchga ega. Sen kimgadir biror narsani va’da qilayotganingda shunday demaysan: “Agar xohlasam, shuni qilishim mumkin” yoki “To‘g‘ri kelsa, men buni bajaraman”. Sen esa shunday deysan: “Bu menga yoqadimi yo‘qmi, baribir bajaraman”; “ Bu qiyin bo‘lsada, ammo shu ishni qilaman”.

Mana nima uchun to‘g‘ri va’da berish muhim. Mana nima uchun ko‘plab yoshlar giyohvand moddalar qabul qilmaslik va’dasiga imzo chekishadi. Mana nima uchun ko‘pchilik nikohgacha pokizalikni saqlashga va’da berishadi. Va’dani bajarish kerak, negaki ular muhim hisoblanadi.

Ushbu va’da senga vasvasani yengishingga yordam beradi. Qanday yo‘l tutishingni hal qilishing uchun fol ochishing shart emas; nima va’da berganingni yodingda tut, vaholanki sen qaror qabul qilib bo‘lgansan.

MULOHAZA QILGIN: Va’da nima o‘zi? Nima uchun va’da muhim hisoblanadi? Sen qachonlardir to‘g‘ri qaror qabul qilishing uchun va’da berganmisan? Xudoni va ota-onangni aldamaslik uchun va’da berganmisan? O‘g‘irlamaslik haqidachi? Giyohvand moddalar qabul qilmaslik haqidachi? Agar shunday bo‘lsa, kimgadir o‘z va’dang haqida so‘zlab berganmisan?

IBODAT: “Ibodat vaqtida Xudoga va’da ber, Uning irodasini bajarishga va’da ber. Imkon qadar aniq qilib gapir. (Misol uchun, sen shunday ibodat qilishing mumkin: “Rabbim, men Sening irodangni har taraflama bajarishni istayman. Men hattoki, bu og‘ir bo‘lganida ham, haqiqatni gapirishga va’da beraman. Men hatto xohlamagan paytlarimda ham ota-onamga itoat qilishga va’da beraman”).

4 AVGUST. SO‘QIR VA YETAKLOVCHI O‘YINI

Kalomdan o‘qish: Ishayo 26:3-7

O‘z aql idrokingga suyanma, butun qalbing bilan Egamizga ishon. Har ishingda Egamizni e’tirof et, shunda U yo‘llaringni to‘g‘rilaydi (Hikmatlar 3:5-6).

Ehtimol, sen maktabda, jamoatda yoki yoki boshqa biror joyda shunga o‘xshash o‘yinni o‘ynagandirsan. Sen hech nimani ko‘rmasliging uchun ko‘zlaringni bog‘lab qo‘yishadi. Kimdir senga yetaklovchi bo‘ladi. U seni belgilangan joyga barcha to‘siqlar yonidan bexatar olib o‘tib, senga ko‘rsatma berishi kerak:

- “Chapga burilgin”.
- “To‘rt qadam oldinga, keyin o‘ngga”.
- “Suyanchiqni ushlab tepaga ko‘taril – uchta, yo‘q, to‘rtta zinapoya yuqoriga”.
- “Sakra”.
- “Shaldiroq ilondan sakrab o‘t”.
- “Bir qadam oldinga, bir qadam orqaga, bir qadam oldinga, burilish”.

Mayli, mayli, keyingisi bu operadan emas. Biroq buning mohiyatini sen tushunib olding. O‘yinning mazmuni (maktabda bundan ba’zan o‘quvchilar so‘qirlar qanday holatda bo‘lishlarini tushunishlariga yordam berish va ularni kuzatib qo‘yishni o‘rgatish uchun foydalanishadi) o‘zining yetakchisiga ishonish va uning ko‘rsatmalariga amal qilishdan iboratdir. Agar sen ularga amal qilmasang, devorga urilishing, zinapoyadan yiqilib tushishing va hattoki shaldiroq ilonni bosib olishing mumkin (yoqimsiz holat...)!

Masihiyning hayoti ham taxminan shunday. Xudo aniq ko‘rsatmalar beradi. U abadiy hayotga ega bo‘lishimiz va Unga manzur bo‘ladigan hayotga erishishimiz uchun bizga to‘g‘ri yo‘lni ko‘rsatadi. Muhimi – Xudoning ko‘rsatmalariga itoat etishdir.

Xudoning amrlarini bajarish xuddi yetaklovchining ko‘rsatmalariga amal qilishga o‘xshaydi. Sen “o‘zingcha yo‘l tutishing” mumkin, biroq yangi g‘urralar, jarohat va shish ortirib olishing turgan gap. Balki bundan ham yomoni bo‘lar.

Ammo agar sen Xudoga butun qalbing bilan ishonsang va Unga o‘zingni da’vat etishiga izn bersang, U seni ko‘plab xatarlardan xavfsiz olib o‘tadi va belgilangan manzilga yetkazadi.

MULOHAZA QILGIN: Nima deb o‘ylaysan, “so‘qir va yetaklovchi” o‘yinida yetaklovchi qanday bo‘lishi kerak? Sen unga ishonishing kerakmi? Bu ishonchga sazovor odam bo‘lishi kerakmi? Nima uchun “ha” va nima uchun “yo‘q”? Xudo sening ishonchingga loyiqmi? U sen abadiy hayotga erishmog‘ing va taqvodor hayot kechirishing uchun aniq ko‘rsatmalar berganmi? Sen Uning ko‘rsatmalariga amal qilganmisan?

HARAKAT QIL: Do‘sting bilan shu haftada “so‘qir va yetaklovchi” o‘yinini o‘ynashga urinib ko‘r. Navbati bilan so‘qir va yetaklovchi bo‘linglar.

IBODAT: “Mehribon Xudoyim, men Senga har kuni tayanaman. Senga ma’qul bo‘lgan tarafga meni boshlagin”.

5 AVGUST. AHMOQ VA YANADA AHMOQROQ

Kalomdan o‘qish: Hikmatlar 13:14-20

Donoga hamroh bo‘lgan dono bo‘ladi, ahmoqqa yo‘ldosh bo‘lgan esa halok bo‘ladi (Hikmatlar 13:20).

Jim Kerri va Jeff Deniels “Ahmoq va yanada ahmoqroq” nomli mashhur komediyada o‘ynashgan. Jim Kerrining qahramoni ahmoq edi, Jeff Denielsning qahramoni esa yanada ahmoqroq bo‘lgan.

Qahramonlari o‘zlarini ahmoqona tutgan ko‘plab filmlar mavjud va barchamizda ham shunga o‘xshash do‘stlarimiz bor. Ko‘raylikchi, kim qaysi bilan do‘stlashganini sen topa olarmikansan.

Ueyn	Garri
Ja’far	Bart
Shensi	Yago
Liza	Flit
Lloyd	Gart
Miko	Ed

Xo‘sh, qalay? Balki, sen Ueyn va Gart “Ueynning olami” serialining qahramonlari ekanligini, Bart va Liza “Simpsonlar” serialidagi aka-singil ekanligini, Bill va Ted esa Aleks Uinter va Kianu Rivz bosh rollarda o‘ynaydigan “Bill va Tedning g‘aroyib sarguzashtlari” filmining qahramonlari ekanligini bilarsan. Miko va Flit “Pokaxontas” multfilmidagi yenot va kolibri qushi bo‘lsalar, Shensi va Ed “Qirol Sher” multfilmidagi sirtlonlar bo‘lishadi. Ja’far esa “Oloviddin va sehrli chiroq” kinoasaridagi yovuz sehrgar bo‘lsa, Yago uning qanotli do‘sti. Nihoyat, Lloyd va Garri “Ahmoq va yanada ahmoqroq” filmidagi personajlardir.

Ehtimol, senda “Ahmoq va yanada ahmoqroq” filmidagi Garri kabi yoki “Ueynning olami” serialidagi Gartga o‘xshagan do‘stlaring yo‘q bo‘lsa kerak (yo‘q ekanligiga umid qilaman!). Biroq sening do‘stlaring aqlli, uddaburon va xushchaqchaq bo‘lishsa ham, baribir noxush vaziyatlarga tushib qolishlari mumkin.

Muqaddas Kitobda shunday yozilgan: “Donoga hamroh bo‘lgan dono bo‘ladi, ahmoqqa yo‘ldosh bo‘lgan esa halok bo‘ladi” (Hikmatlar 13:20). Boshqacha qilib aytganda, shunchaki to‘g‘ri qaror qabul qilish muhim emas; to‘g‘ri qaror qabul qiladigan do‘stlarga ega bo‘lish ham muhim. Dono bo‘lmoq uchun, do‘stlarni ham donolik bilan tanlash lozim.

MULOHAZA QILGIN: Yuqorida keltirilgan ro‘yxatda sen munosabat o‘rnatishni istaydigan “do‘stlar” bormi? Ehtimol, ulardan ba’zilari bilan aloqani uzishni istarsan? Sening to‘g‘ri qaror qabul qilishingga yordam beradigan do‘stlaring bormi? Seni noto‘g‘ri yo‘lga undaydiganlarichi? (Ikkala holatda

ham mard bo‘lgin!) Sen qachonlardir Xudodan dono do‘stlar bilan mustahkam va uzoq davom etadigan munosabatlar o‘rnatishni so‘raganmisan? Agar shunday bo‘lmasa, nima uchun buni hozir qilmaysan? Ushbu haftada do‘stlaring senga qanday ta’sir o‘tkazayotganini va... sen ularga qanday ta’sir ko‘rsatayotganingga e’tibor qarat.

IBODAT: “Rabbim, do‘stlarim menga yaxshi ta’sir ko‘rsatishlari uchun men ularga o‘zim yaxshi ta’sir o‘tkazishni istayman. Men donolik bilan do‘stlar tanlashimga yordam ber”.

6 AVGUST. AQL BOVAR QILMAYDIGAN SEVGI

Kalomdan o‘qish: Levilar 19:16-18

Qasos olmang, yurtdoshingizga qarshi kek saqlamang. Aksincha, o‘zgani o‘zingizni sevganday seving. Men Egangizman (Levilar 19:18).

Mana shunday bir vaziyatni tasavvur qilib ko‘rgin.

Sen o‘rtoqlaring bilan birgalikda maktab kafesida o‘tirganlaringda oldilaringga o‘qituvchi keladi. Ko‘rayapsanki, o‘rtoqlaringdan biri u bilan gaplashib seni barmog‘i bilan ko‘rsatyapti. O‘qituvchi sening yoqangdan tutadi.

– Men nima qildim? – deb so‘raysan sen.

– Nima qilganingni o‘zing bilasan! – deb qichqiradi o‘qituvchi va seni direktorning xonasi tomon tortadi. Sen o‘rtoqlaring yordam berishini kutasan, ammo ular qayoqqadir g‘oyib bo‘lishadi.

Seni direktorning xonasiga olib kiritishadi va o‘rindiqqa o‘tirg‘izib qo‘yishadi. Sen hayron qolib o‘zing hatto tanimaydigan bolalar birin-ketin direktorga maktab oldidagi mashinalar turar joyida barcha avtomobillarning oynasini sen urib sindirganingni aytayotganlarini eshitib turasan.

Sen direktorga aybdor emasligingni, hech qachon bunday qilmasligingni, senda aybsiz ekanligingni isbotlaydigan dalil borligini aytishga urinasan. Biroq hech kim seni eshitmaydi. Nihoyat sening ko‘zlaringni bog‘lashadi, maktab hovlisidagi ustunga bog‘lab qo‘yishadi, maktabdagilar hammasi seni barmoqlari bilan ko‘rsatib, kulishadi va haqorat qilishadi. So‘ngra esa hamma uyiga ketadi, qorong‘i tushib havo sovuydi va sen zulmatda qaltiragan, yolg‘iz ahvolda qolasan. Va sen hech narsada aybdor bo‘lmagansan.

Sen o‘zingni bunday vaziyatda qanday tutgan bo‘larding? G‘azabdan aqlu hushingni yo‘qotgan bo‘larding, to‘g‘rimi? Agar seni o‘qituvchi emas, diniy hokimiyat vakillari ushlab olishganida nima bo‘lardi? Agar seni oynani sindirishda emas, qo‘zg‘olon ko‘tarishga tayyorgarlikda ayblashsachi? Agar seni direktorning xonasiga olib bormay, chalajon bo‘lguningcha azob berishsa va urishsa nima bo‘lardi? Agar seni ustunga bog‘lamasdan, xochga mixlasalarchi? O‘shanda sen nimalar degan bo‘larding?

Sen, Iso O‘zini qanday tutganini bilasan. Do‘stlari Unga xiyonat qilishdi. Uni adolatsiz ravishda aybdor qilishdi. Uning ustidan masxara qilib kulishdi, Unga tupurishdi. Unga nisbatan shafqatsiz va tuban munosabatda bo‘lishdi. Biroq U shunday deb ibodat qildi: “Ey Ota! Ularni kechirgin, ular nima qilayotganlarini bilmaydilar” (Luqo 23:34).

Nima uchun? Axir U samodan olov chaqirishi va bu odamlarga saboq berib qo‘yishi mumkin edi. Ammo U bunday qilmadi. Odamlar Unga xiyonat qilishdi, U esa baribir odamlarni sevdi. Hattoki ular Isoni beshafqatlarcha urganlarida ham ularni sevdi. Uni o‘ldirishgan bo‘lishsa ham baribir U odamlarni sevdi.

Bu hayratomuz, to‘g‘rimi? Deyarli ishonib bo‘lmaydi. Lekin bu aynan shunday bo‘lgan.

Mana buni esa sevgi deydilar.

MULOHAZA QILGIN: Nima deb o‘ylaysan, kimnidir sevish va shu bilan birga undan qasos olish mumkinmi? Nima uchun “ha” va nima uchun “yo‘q”? Sen hozirning o‘zidayoq kimnidir kechirishing kerakmi? Agar shunday bo‘lsa, nima uchun buni bugunning o‘zidayoq amalga oshirmaslik kerak?

HARAKAT QIL: Keyingi safar ustun yonidan o‘tayotganingda, Iso Uni xochga mixlaganlarni kechirganini va sevganini eslab qo‘ygin.

IBODAT: Agar sen kimdandir o‘ch olmoqchi bo‘lsang, Xudodan senga kim ziyon yetkazgan bo‘lsa uni sevishing va kechirishing uchun yordam berishini so‘ragin.

7 AVGUST. O‘ZIMIZNI OQLASHGA URINISH

Kalomdan o‘qish: Rimliklar 12:17-21

Bir-biringizga bo‘lgan mehr-muhabbatingiz samimiy bo‘lsin (Rimliklar 12:9).

Odamlar o‘zlarini oqlashning turlicha yo‘llarini o‘ylab topishadi:

- “Mening daftarimni it yeb qo‘ydi”.
- “Menga nimadir bo‘ldi”.
- “Men sachratqichda bo‘yoq borligini bilmagandim”.
- “Bu gap shunchaki og‘zimdan chiqib ketdi”.
- “Shayton yo‘ldan urdi”.
- “Men qurol o‘qlanganini bilmagandim”.

- “Meni itarib yuborishdi”.
- “U birinchi bo‘lib boshladi”.

Sen bunga o‘xshash gaplarni avval ham eshitgansan. Ehtimol, o‘zing ham shunday degandirsan (bu haqda mard bo‘lib o‘zing tan ol!).

Odamlar hali Odam Ato va Momo Havo Adan bog‘ida ta’qiqlangan mevani yegan paytlaridayoq o‘zlarini oqlay boshlashgandi: Odam Ato uni bunga xotin undaganini aytgan: xotin unga mevani bergan; Momo Havo esa bu uning aybi emasligini aytgan: uni bunga ilon majbur qilgandi.

Shundan buyon ming yilliklar o‘tdi, biz baribir hech narsani o‘rgana olmadik. Biz o‘z harakatlarimizni, ayniqsa, unda sevgi bo‘lmaganida, oqlashda davom etyapmiz. “Bunga o‘zi aybdor”, deymiz. “Unga shunday jazo berilishi kerak edi”, “U meni birinchi bo‘lib urdi”, “U men bilan ham xuddi shunday qilgan bo‘lardi”, “Agar u meni yaxshi ko‘rmasa, nega men uni sevishim kerak?” Sen buning qanday bo‘lishini yaxshi bilasan.

Biroq biz o‘zimizni oqlashga qanchalik urinmaylik, o‘zimizni berahmlarcha tutganimizda bizni oqlab bo‘lmaydi. Albatta, biz uchun hamisha kimdir aybdordek tuyuladi. Albatta, u bizning sevgimizga arzimaydi. Biroq Muqaddas Kitobda shunday deb yozilgan:

> “Bir-biringizga bo‘lgan mehr-muhabbatingiz samimiy bo‘lsin... hech kimga yomonlik evaziga yomonlik qaytarmanglar... o‘zingiz uchun qasos olmang, balki Xudoning g‘azabiga yo‘l qo‘yib bering. Axir Muqaddas bitiklarda Egamiz shunday deb aytgan-ku: “Men O‘zim qasos va o‘ch olaman”. Zero, dushmaning och bo‘lsa, ovqat ber, chanqagan bo‘lsa, suv ichir, Shunda uning boshiga yonayotgan cho‘g‘ yiqqanday bo‘lasan. Yomonlik sizni mag‘lub qilmasin, aksincha, siz yomonlikni yaxshilik bilan mag‘lub eting” (Rimliklar 12:9, 17-21).

Albatta, bu juda qiyin. O‘zini oqlashga urinish anchayin oson. Biroq sevgi bu ezgulikdir. Sevgi hamisha yaxshi.

MULOHAZA QILGIN: Biz hammamiz o‘zimizning noto‘g‘ri ishlarimizni oqlashga urinamiz. Biror kishi bilan keskinlashib qolganingda o‘zingni qay tariqa oqlaysan? Sen hozir o‘z harakatingni qandaydir tarzda oqlash yo‘llarini o‘ylab ko‘ryapsanmi? Agar shunday bo‘lsa, sen qanday yo‘l tutishing lozim?

IBODAT: “Mehribon Xudo, menga o‘zimning nojoiz harakatlarimni oqlash yo‘llarini o‘ylab topmasligim uchun yordam ber, misol uchun, men ..... hattoki qiyin bo‘lganida ham to‘g‘ri yo‘l tutishimga yordam ber”.

8 AVGUST. MEL, MERAYYA VA MEDDEN

Kalomdan o‘qish: 1 Korinfliklar 13:1-13

Sevgi sabr-toqatli va mehribondir. Sevgi hasad qilmaydi, maqtanmaydi, kekkaymaydi. Sevgi odobsizlik qilmaydi, achchiqlanmaydi, kek saqlamaydi (1 Korinfliklar 13:4-5).

HECH KIMGA SIR EMAS, Shakil O’Nil basketbolni yoqtiradi.

Sen, Bill Geyts kompyuterlarni yaxshi ko‘rishini bilib, ajablanmaysan.

Yoki Mel Gibson kinoda o‘ynashni yaxshi ko‘rishini ham.

Yoki Merayya Keri qo‘shiq kuylashni yaxshi ko‘rishini bilsang ham.

Yoki Jon Medden futbolni yoqtirishini bilganingda ham.

Yoki Yekaterina Gordeyeva konkida uchishni yaxshi ko‘rishini bilsang ham hayron qolmaysan.

Bu axir yaqqol ma’lum-ku, to‘g‘rimi? O’Nil ko‘p vaqtini basketbol o‘yiniga bag‘ishlaydi. Bill Geyts Windows va boshqa kompyuter dasturlarini sotib, yirik mablag‘ to‘pladi. Mel Gibson har yili yangi filmda suratga tushadi. Agar Merayya Keriga qo‘shiq kuylash yoqmaganida, u kuylashni yig‘ishtirib, boshqa biror ish bilan shug‘ullangan bo‘lardi.

Sen odatda odamlar nima qilayotganlari va gapirayotganlariga qarab, ularga nima yoqishi haqida aytishing mumkin. Xudo ham sevgi tuyg‘usini juda muhim deya hisoblashi shu kabi ayon. U bu haqda muntazam gapiradi. U, biz yaqinlarimizni, bir-birimizni, Xudoni yana va yana sevishimiz lozimligini aytadi. Muqaddas Kitobda ham shu haqda yozilgan: “Mana bu uch narsa bor: ishonch, umid va sevgi. Sevgi esa eng a’losidir” (1 Korinfliklar 13:13).

Albatta, biz uning amrlaridan Xudoning sevgiga nisbatan munosabati qanday ekanligini, Uni va bir-birlarimizni, hattoki dushmanlarimizni sevishimiz kerakligini ko‘rishimiz mumkin. Uning amrlaridan ayonki, sevgi bu yaxshi. Xudoni sevish to‘g‘ri. Yaqinlarni sevish to‘g‘ri. Hattoki dushmanlarni sevish ham to‘g‘ri, negaki Xudo shunday degan.

MULOHAZA QILGIN: Xudo sevgiga nisbatan qanday munosabatda bo‘ladi? Sen bu haqda qayoqdan bilasan? U O‘z sevgisini senga qay tariqa namoyon etgan? Sening harakatlaringdan sevgini qadrlashingni bilsa bo‘ladimi? Nima uchun “ha” va nima uchun “yo‘q”? Sening harakatlaring ezgulik va yovuzlik haqidagi tasavvurlaringni qay tariqa aks ettiradi? Sen Xudoni sevish haqidagi Uning amrlarini bajarasanmi? Atrofingdagilarni sevish haqidagi amrinichi? O‘Z dushmanlaringni sevish haqidagi amrni sen ado etasanmi?

HARAKAT QIL: 1 Korinfliklarga maktubning 13:4-5 oyatlarini o‘z so‘zlaring bilan qayta yozib, uni shunday jumlalar bilan yakunlagin:

Sevgi bu...

Sevgi bu...

U ..... emas.
U ..... emas.
U ..... emas.
U ..... emas.
U ..... emas.
U ..... emas.

IBODAT: “Sevuvchi Xudoyim, menga yaqinlarimni qanday sevishni ko‘rsatganing uchun Senga rahmat. Sening amrlaringni bajarishim uchun menga yordam ber”.

9 AVGUST. ENG QADRLI

Kalomdan o‘qish: 1 Yuhanno 4:7-11

Azizlarim, Xudo bizni shu qadar sevgani uchun ham biz bir-birimizni yaxshi ko‘rishimiz kerak (1 Yuhanno 4:11).

Tasavvur qilgin, sizlarning uyingiz yonib, barcha oila-a’zolaringiz (shuningdek, uy hayvonlaringiz ham) xavfsiz joyga o‘tib olishdi. To‘satdan sening oldingda farishta namoyon bo‘lib, sen yonayotgan uylaringga qaytishing va undan bittagina yagona buyumni eson-omon olib chiqishing mumkinligini aytadi.

Xo‘sh, sen nimani olib chiqqan bo‘larding?

Yig‘ib qo‘ygan jamg‘armangnimi? Magnitofonnimi? Ehtimol, sevimli o‘yinchog‘ing timsohni olib chiqarsan? Yoki do‘sting senga sovg‘a qilgan o‘sha xotira sifatida qadrli ryukzaknimi? Biror bir suratnimi? Oilaviy albomnimi?

Bu nima bo‘lgan bo‘lardi? O‘qishni davom ettirishingdan avval biror qarorga kelgin. Xo‘sh, qaror qildingmi? Yaxshi, o‘qishda davom et.

Nima uchun sen aynan o‘shani tanlading? Birgina sabab tufayli: bu sen uchun eng qadrli buyum. Balki, u qiymati bo‘yicha eng qimmat emasdir. Ehtimol, odamlar nazarida u hech nimaga arzimas. Biroq sen uni qutqarib qolishga ahd qilibsanmi, demak, u qanday sabab bo‘lmasin sen uchun eng qadrli ekanini anglatadi.

Bilasanmi nima? Agar Xudoni shunday tanlov qilishga undaganlarida edi, U nimani tanlagan bo‘lardi? Seni. U shunday qaror qilgan. Olamga gunoh kirib kelganida Xudo yaratgan borliqdagi barcha narsalar halokatga mahkum bo‘lgandek tuyulgandi. Samo va zamin yo‘q qilinishi va o‘rniga yangisi paydo bo‘lishi kerak edi. Biroq Xudo o‘zining eng qadrli ijodini, ya’ni, seni qutqarish uchun O‘z O‘g‘lini yubordi. U seni qutqarishi uchun azob chekishi va o‘lishiga to‘g‘ri keldi, ammo U buni bajardi. Bilasanmi, nima uchun U shunday qildi? Negaki, U seni sevadi. U seni shu darajada sevadiki, seni tanladi, sen uchun azob chekdi va jonini berdi.

“Azizlarim - deb yozilgan Kalomda, - Xudo bizni shu qadar sevgani uchun ham bir-birimizni yaxshi ko‘rishimiz kerak” (1 Yuhanno 4:11). Xudo “...bizga hayot berish uchun yagona O‘g‘lini dunyoga yubordi” (1 Yuhanno 4:9), ya’ni U seni qanchalik kuchli sevishini hamda sevgini qanday qadrlashini ko‘rsatdi.

MULOHAZA QILGIN: Sen Xudoning Kalomidan Uning nimani qadrlashini tushuna olasanmi? Sen Xudoning xazinasi qandayligini Uning harakatlaridan tushuna olasanmi? Sen Xudo nimani qutqarishiga qarab U nimani qadrlashini ayta olasanmi? Agar shunday bo‘lsa, qanday qilib? Xudo O‘z sevgisini senga qay tariqa namoyon etgan? Xudo seni nihoyatda kuchli sevadi bu tuyg‘u senga qanday ta’sir qiladi? Xudo seni sevar ekan, sen nimani qadrlashing lozim? Xudo seni sevar ekan, sen nimalar qilishing kerak?

HARAKAT QIL: O‘zingdagi eng qadrli buyumni stol ustiga yoki ko‘rinadigan biror joyga qo‘ygin, zero, bu Xudo seni qanchalik sevishini, U senga sevgi bilan yondashishini va sen boshqa odamlarga qanday munosabatda bo‘lishing kerakligini eslatib tursin.

IBODAT: “Rabbim, Sen meni qadrlaganing uchun minnatdorman. Men sevgini qadrlashimni ko‘rsatmoqchiman” ..... (boshqa odamlarni yaxshi ko‘rib; ota-onamni yaxshi ko‘rib va hokazo)”.

10 AVGUST. O‘RDAKCHALAR VA MUSHUKCHALAR

Kalomdan o‘qish: 1 Yuhanno 4:16-19

Xudo sevgidir. Sevgini diliga jo qilgan kishi Xudo bilan birga yashaydi va Xudo u bilan birga yashaydi (1 Yuhanno 4:16).

Sen kuchukchalar nima ekanligini bilasan-a? Mushuklar mushukchalarni dunyoga keltirishlarini ham bilasan-ku. Xo‘sh, boshqa hayvonlarning bolalarini ham bilasanmi?

1.	Qurbaqa	A.	Jo‘ja
2.	Suv qunduzi	B.	Bug‘u bolasi
3.	Tovuq	V.	Tuyaqush bolasi
4.	Ot	G.	Tulki bolasi
5.	Kit	D.	Buzoqcha
6.	Bug‘u	E.	Itbaliq
7.	Kenguru	J.	Toychoq

8.	Tuyaqush	Z.	Qunduz bolasi
9.	Sigir	I.	Kit bolasi
10.	Tulki	K.	Kenguru bolasi

Javoblarni tekshirishga tayyormisan?

Mana ular: 1 E; 2 Z; 3 A; 4 J; 5 I; 6 B; 7 K; 8 V; 9 D; 10 G.

To‘g‘ri, jo‘ja tovuqdan dunyoga keladi, bug‘uchalar esa – ona bug‘udan. Itbaliqlarni qurbaqalar tug‘ishadi.

Bilasanmi, yana nima? Xudo sevgini hosil qiladi.

Albatta, sen bu haqda bilasan, biroq takror va takror qaytarib aytishga to‘g‘ri keladi. Xudo sevgini hosil qiladi. Hamma ham sevgi yaxshi ekanligini, nafrat esa yomon ekanligini biladi. Biroq ko‘pchilik odamlar sevgi *nima uchun* to‘g‘ri ekanligini bilshmaydi: negaki Xudoning O‘zi sevgidir. Sevgi – Xudo tabiatining bir qismi; bundan kelib chiqadiki, sevish to‘g‘ridir.

Odamlar yana bir narsa haqida unutib qo‘yishadi; biz qanchalik ko‘p darajada “Xudoda yashasak”, ibodat qilsak, Muqaddas Kitobni o‘qisak va Unga sajda qilsak hamda shu kabilarni ado etsak, shunchalik darajada boshqalarni sevamiz, hattoki sevishimiz qiyin bo‘lganlarga ham sevgi ko‘rsata olamiz. Hattoki, *sevib bo‘lmaydiganlarni* ham sevamiz! Negaki, “Xudo sevgidir. Sevgini diliga jo qilgan kishi Xudo bilan birga yashaydi va Xudo u bilan birga yashaydi” (1 Yuhanno 4:16).

MULOHAZA QILGIN: Hamma yaxshi narsalar kabi, sevgi ham Xudodan hosil bo‘ladi. Sen Xudo sevgi ekanligini qayoqdan bilasan? Agar Muqaddas Kitobda aytilganidek, “Xudoning O‘zi sevgi” bo‘lmasa, nimalar bo‘lgan bo‘lardi? Sen bu haqda baribir bilgan bo‘larmiding? Qayoqdan? Sen kimnidir sevib qolishing uchun Xudoning yordami senga zarurmi? (To‘g‘risini ayt!) Agar shunday bo‘lsa, bu odam kim? Agar unga nisbatan sevgini his qilmayotgan bo‘lsang, nima qilish kerak? Bu odamga nisbatan sevgingni qay tariqa mukammallashtirish mumkin? (Maslahat: 1 Yuhanno 4:16-17 oyatlarga qaragin).

HARAKAT QIL: Ushbu haftada kuchukchalarga, mushukchalarga va boshqa hayvonlarning bolalariga e’tibor qarat. Ularga boqib, sevgi Xudodan hosil bo‘lishi haqida eslagin, negaki Xudoning O‘zi sevgidir.

IBODAT: “Rabbim, men ..... sevishim uchun Sening yordaming kerak (ismini yozgin). Boshqa odamlarni seva olishim uchun Sendan minnatdorman”.

11 AVGUST. BARCHA SEVGINI ISTAYDI

Kalomdan o‘qish: Ibroniylar 13:1-3

Bir-biringizni birodarlarday yaxshi ko‘rishni davom ettiringlar (Ibroniylar 13:1).

SEN RADIONI YOQASAN va elektrogitaraning tovushini hamda shunday deb kuylayotgan ovozni eshitasan: “Bu aslo qiyin bo‘lmas, bu – sevgi tufayli...”.

Sen sozlash ushlagichini buraysan. Ayol ovozi yangraydi: “Nega, ey qizlar, xushro‘ylarni sevasiz...”. Yo‘q, bu sening ta’bingga to‘g‘ri kelmaydi!

Sen boshqa to‘lqinga o‘tkazasan, retro qo‘shiqni eshitasan: “Men shumtoldan so‘radim, sevgilim qayda ekan”. Sen xayolga botasan: “Otam esa *zamonaviy* musiqa zerikarli ekanligini aytadi-ya!”

Keyingi to‘lqinda odatda rok-musiqasini qo‘yishadi. Unda Soy shunday kuylaydi: “Yashash uchun hayot kerak, kutish uchun sevgi kerak”.

Nihoyat sen yoqtirgan radio to‘lqingacha yetib kelasan. “Bulutlar sari uchamiz, samoda o‘zaro sevmoq uchun...” “Mana, bu haqiqiy musiqa!” – deb o‘ylaysan sen.

Hamma sevgi haqida kuylaydi, to‘g‘rimi? Rok–musiqa, pop–musiqa, xalq qo‘shiqlari, hattoki masihiylik qo‘shiqlari ham aksariyat hollarda sevgi haqida kuylaydi. Hamma sevishni va sevilishni istaydi. Hamma “sevishmoq”ni xohlaydi. Nima uchun? Chunki hamma biladi: sevish – yaxshidir. Nafaqat *yaxshi*, balki *ajoyib* hamdir. Sevgi – Xudoning in’omi. Sevgining barcha ko‘rinishlari – nafaqat romantik sevgi – Xudodan hosil bo‘ladi. Sevgi odamlarga qoniqish baxsh etadi.

Biroq odamlar sevgi haqida qanchalik kuylamasinlar, unga qanchalik intilishmasin va u haqda qanchalik orzu qilishmasin, ular baribir o‘zaro nizoga borishadi. Ular bir-birlari bilan urishishadi, bir-birlari bilan gaplashishmaydi, bir-birlaridan g‘azablanishadi. Ular bir-birlariga og‘riq berishadi. Ular bir-birlaridan nafratlanishadi.

Bu axir bema’nilik-ku, to‘g‘rimi? Agar o‘ylab ko‘rsangiz, sevish va sevilish qanchalik quvonchli va kimdandir nafratlanish va unga azob berish naqadar yoqimsiz. Agar sen qachonlardir yig‘layotgan go‘dakni ovuntirgan bo‘lsang sevish qanchalik yoqimli ekanligini bilasan. Agar sen qachonlardir onang yoki otang qo‘lida uxlab qolgan bo‘lsang, sevimli bo‘lish naqadar yoqimli ekanligini bilasan. Agar sen qachonlardir kattalar qo‘lidan shirinlik olayotgan bolaning yuz ifodasini ko‘rgan bo‘lsang, sevgining naqadar ajoyibligini bilasan.

Sevgi to‘g‘rilikdir. U nafratga nisbatan o‘ta yoqimlidir.

MULOHAZA QILGIN: Bu borada mushohada etishga arziydigan masalalar bor. Agar sen nafratlansang, o‘zingni yanada ko‘proq darajada zaif qilasan; agar sevsang, bu holda javob tariqasida yanada ko‘proq sevgi olasan.

HARAKAT QIL: Bugun radioni tinglab, qancha qo‘shiq sevgiga bag‘ishlanganiga e’tiboringni qarat.

IBODAT: “Mehribon Iso, men bugun boshqa odamlarni samimiy tarzda sevishim uchun yordam ber”.

12 AVGUST. OHANRABONING XUSUSIYATI

Kalomdan o‘qish: Galatiyaliklar 5:13-15

Ey birodarlr, sizlar ozod hayot kechirishga da’vat qilingansizlar. Lekin bu o‘zingizning xudbin istaklaringizga erk berish degani emas, aksincha, bir-biringizga muhabbat bilan xizmat qilinglar, deganidir (Galatiyaliklar 5:13).

QACHONLARDIR BIR BOLA temirchining shogirdi bo‘lib ishlagan ekan. Temirchi qattiqqo‘l bo‘lib, ustaxonani toza tutishni yaxshi ko‘rar ekan.

Temirchi bir kuni shogirdiga metall qirindilari solingan kattagina qutini berib, uni temir eritadigan va turli asboblar hamda bezaklar yasaydigan o‘choq yoniga olib borishini buyuribdi. Bolakay ustaning aytganini qilib, yo‘lda borayotganida qoqilib ketibdi. Uning qo‘lidan quti tushib ketib, temir qirindilari yerga sochilib ketibdi.

– Faqat shunisi yetmay turgandi! – deya hayqiribdi bolakay. – Endi nima qilaman?

Temirchi hali bu yerga kelgunicha va no‘noq shogirdidan jahli chiqmagunicha temir qirindilarini tezroq yig‘ib olish kerak edi. Shogird tizzalab o‘tirganicha o‘tkir qirindilarni qo‘li bilan yig‘ib olavergani uchun barmoqlarini kesib olibdi. So‘ngra u qo‘liga supurgi olibdi va supurgi ham bu o‘rinda unga yordam berolmasligini tushunibdi, negaki qirindilar chiviqlar orasida tiqilib qolgandi. Ko‘pgina bo‘lakchalar pol yoriqlari orasida qisilib qolgan bo‘lib, ularni chiqarib olishning imkoni yo‘q edi.

– Nima qilsam ekan? – deya takrorlayveribdi bolakay.

Xo‘sh, sen nima qilgan bo‘larding? Qo‘l bilan yig‘ib bo‘lmaydi. Supurgi bilan sidirib olishning iloji yo‘q. Bolakayning yonida chang yutgich bo‘lganida ham, u baribir yordam berolmasdi: zero, u nafaqat qirindilarni poldan yig‘ib olishi, balki o‘choq oldiga olib borishi kerak edi. Ehtimol, sen ham bu o‘rinda bolakay o‘ylaganidek ish tutgan bo‘larding. U nihoyat o‘ziga kerak bo‘lgan narsani topdi – ohanrabo! Ohanrabo barcha metall qirindilarni o‘ziga tortib oldi polda yotganlarini ham, teshikda qisilib qolganlarini ham.

Sen masihiylik sevgisi ham xuddi ohanrabo kabi xususiyatga ega ekanligini bilasanmi? Yo‘q, u poldan metall qirindilarini yig‘maydi. Biroq u xuddi ohanrabo temirni o‘ziga tortganidek, atrofdagilar sevgisini o‘ziga tortadi. Sen qachonki sevganingda, javoban sevgini qabul qilasan. Haqiqiy masihiylik sevgisi xuddi ohanrabo kabi sening hayotingga yangi va yangi sevgini olib kiradi. Muqaddas Kitobda sevgining bunday xususiyatiga taalluqli ko‘plab voqealar keltirilgan: misol uchun, Bo‘azning Rutga bo‘lgan, Isoning Lazarga bo‘lgan, Pavlusning Timo‘tiyga bo‘lgan sevgisini aytishimiz mumkin.

Nafrat va berahmlik boshqalarda g‘azab uyg‘otadi va baxtsizlik olib keladi, sevgi esa xuddi ohanrabo metallni o‘ziga tortgani kabi sevgini o‘ziga jalb etadi.

MULOHAZA QILGIN: Masihiylik sevgisi nimasi bilan ohanraboga o‘xshaydi? Sen kimni chinakam masihiylik sevgisi bilan yaxshi ko‘rasan? Sen kimni yaxshi ko‘rishing lozim bo‘lsada sevmaysan? Bugun atrofingdagilarga haqiqiy masihiylik sevgisini ko‘rsatishing uchun nimalar qilmog‘ing kerak?

HARAKAT QIL: Agar ilojing bo‘lsa, ushbu haftada nafrat nafratni uyg‘otishi, sevgi esa sevgini jalb etishi haqida eslatib turishi uchun cho‘ntagingda ohanrabo solib yurgin.

IBODAT: “Samoviy Ota, atrofdagilarga nisbatan sevgining ustunligini ko‘rishim va his qilishim uchun menga yordam ber”.

13 AVGUST. SEVGI GUNOHLARNI KECHIRADI

Kalomdan o‘qish: Hikmatlar 10:11-12

Nafrat janjal qo‘zg‘aydi, sevgi-muhabbat esa hamma gunohlarni kechiradi (Hikmatlar 10:12).

SEN NIMANI TANLAGAN BO‘LARDING?

Nima deb o‘ylaysan, qaysi mamlakat urushga jalb qilinishi mumkin:

- Qo‘shni mamlakatlardan neft o‘g‘irlayotgan mamlakat?
- Boshqa mamlakatlarga oziq-ovqat va dori-darmonlar jo‘natayotgan mamlakat?

Nima deb o‘ylaysan, qaysi qo‘shni ustidan militsiyaga shikoyat qilishlari mumkin:

- Ro‘paradagi qo‘shni uyning derazasiga axlat uloqtirayotgan qo‘shni ustidan?
- Butun atrofdagilarga pechene ulashayotgan qo‘shni ustidan?

Nima deb o‘ylaysan, kim maktabdagi janjalga aralashib qolishi mumkin:

1. Hammaning g‘azabini qo‘zg‘atadigan bola?
2. Hammaga yaxshi munosabatda bo‘ladigan bola?

Bu savollarga javoblar aniq, to‘g‘rimi? Barchaning g‘azabini qo‘zg‘atadigan bola boshqalarni yaxshi ko‘radigan bolaga nisbatan janjalga aralashib qolishini tasavvur qilish qiyin emas. Va hammaga pechene ulashadigan qo‘shniga nisbatan axlatni qo‘shni uyning derazasiga uloqtiradigan qo‘shni ustidan militsiyaga shikoyat qilishlari ham turgan gap. Shuningdek, qo‘shni mamlakatlarga oziq-ovqat va dori-darmonlar yuborayotgan mamlakat emas, balki qo‘shni yurtlardan neft o‘g‘irlayotgan mamlakat urushga tortiladi.

Muqaddas Kitob ushbu so‘zlarni aytayotganida, mana, nimani nazarda tutadi: “Nafrat janjal qo‘zg‘aydi, sevgi-muhabbat esa hamma gunohlarni kechiradi” (Hikmatlar 10:12). Sevgining yo‘qligi va nafratlanish – nafaqat nafratga uchragan odamlar uchun, balki o‘zi nafratlanayotganlar uchun ham murosasozlik va janjallarni keltirib chiqaradi. Sevgi bularning hammasidan seni himoya qiladi. Sevgi nafaqat sening boshqalar bilan munosabatingni yengillashtiradi, u sening xatolaringni va noo‘rin ishlaringni ham kechirishga yordam beradi. Sevgi sening hayotingni yanada yoqimli va halovatli qiladi.

Sevgi bilan bo‘lgan vaziyatlar yana bir bora Xudoning amrlarini bajarish biz uchun xayrli ekanligini ko‘rsatadi: u bizni janjal va to‘polonlardan asraydi, hayotimizga tinchlik va baxt olib keladi.

MULOHAZA QILGIN: Xudoning amrlari bizning baxt-saodatimiz uchun berilgan. Uning bir-birimizni sevish haqidagi amri bizni biror narsadan asraydimi? Agar shunday bo‘lsa, nimadan? Uning bir-birimizni sevish haqidagi amri bizga biror narsa beradimi? Agar shunday bo‘lsa, aynan nimani?

IBODAT: “Rabbim, Sen meni sevganing uchun minnatdorman. Sen menga O‘z amrlaringni berganing uchun rahmat. Bu amrlar mening baxt saodatim uchun berilganini yodda tutishim uchun yordam ber. Boshqalarni yanada ko‘proq yaxshi ko‘rishim uchun menga ko‘maklash, ayniqsa .....”.

14 AVGUST. KATTA VA KICHIK MATRYOSHKALAR

Kalomdan o‘qish: Yoqub 2:1, 8-13

Ey birodarlarim, ulug‘vor Rabbimiz Iso Masihga ishonar ekansiz, yuz xotirchilik qilmanglar (Yoqub 2:1).

SENING UYINGDA matryoshkalar bormi? Sen buni bilasan: katta matryoshkani ochasan va unda yana bir kichikroq matryoshkani ko‘rasan, unisini ochsang yanada kichikroq matryoshka bor va shu tariqa davom etaveradi. Ba’zan sakkiz-o‘nta matryoshkalar bir-birining ichida joylashtiriladi va har biri oldingisidan kichikroq bo‘ladi.

Ayrim odamlarning hayoti shu qoidaga asosan qurilgan. Misol uchun, bizning ko‘plab tanishlarimiz bor, sinfdoshlar, qo‘shnilar, jamoatdagi kishilar va shu kabi odamlar. Ana shu ko‘plab odamlarn orasidan biz o‘zimizga do‘stlar tanlaymiz.

Biroq ayrim odamlar o‘z tanlov doiralarini qisqartirishadi. “Men u bilan hech qachon do‘st bo‘lolmayman! - deyishadi ular. - U juda g‘alati”. Va yaqin do‘stlarni tanlash doirasi qisqarib boradi.

Kimdir bu doirani yanada tor qiladi. “Men u bilan bir stol atrofida o‘tirolmayman, - deydi ular. - Uning ota-onasi qashshoq!” Shu tariqa ular o‘z doiralarini yanada tor qilib olishadi.

Kimdir esa bu bilan ham cheklanmaydi. “Agar xohlasang, sen u bilan o‘rtoqlashishing mumkin, -deyishadi ular, -biroq men har qanday churvaqa bilan munosabat o‘rnatmayman!”

Kimdir boshqalarning terisi rangi, kiyimining rangi yoki oyoq lakining rangi bois ular bilan do‘stlashishni istashmaydi. Kimdir o‘z do‘stlarini eng kichkina matryoshkaga joylashtirmoqchi bo‘ladi. “Axir meni u bilan birga ko‘rib qolishlari mumkinmi? Uning maktabda obro‘si yo‘q!”

Oxir-oqibat, kim biladi deysiz, o‘sha “obro‘siz” qiz dunyodagi eng yaxshi dugona bo‘lishi mumkin emasmi? “Churvaqa” esa olamdagi eng quvnoq yigit bo‘lishi mumkin, albatta, u bilan yaqinroq tanishsang agar. “Qashshoq” oiladan chiqqan bolakay darsdan so‘ng sen bilan birga qolishi va seni velosiped haydashga o‘rgatishi mumkin.

Albatta, agar o‘z imkoniyatlaring doirasini qisqartirsang, bu haqda hech qachon bilolmaysan. Sen nafaqat taniqli bolalarga, nafaqat boylarga va uddaburon bolalarga, balki hammaga sevgi bilan yondashishing lozim. Negaki, kim biladi deysan, qachonlardir ulardan biri nihoyatda yaxshi do‘st bo‘lib chiqishi mumkin.

MULOHAZA QILGIN: Yaqin do‘stlar topish uchun sening imkoniyatlaring qanchalik keng darajada? Sen kimnidir bundan mustasno etyapsanmi? Sen o‘z tanlovingni qanday qilib kengaytirishing mumkin? Bugundan boshlab bu imkoniyatlaringni kengaytirish uchun nimalar qilmoq kerak?

HARAKAT QIL: Imkoning bo‘lsa, eng kichkina matryoshkani topgin. U senga bugun va hamisha barchani sevish nihoyatda muhim ekanligini eslatib turishi uchun stol ustiga qo‘yib qo‘ygin.

IBODAT: “Rabbim, menga yaqin do‘stlarim doirasini kengaytirishim uchun yordam ber. Men odatda pisand qilmaydigan va muloqot doirasidan soqit qiladigan odamlarni yaxshi ko‘rishim uchun menga jasorat ato qilgin”.

15 AVGUST. DALILLAR VA HIS-TUYG‘ULAR

Kalomdan o‘qish: 1 Korinfliklar 13:4-13

Sevgi nohaqlikdan sevinmaydi, aksincha, haqiqat qaror topganida shodlanadi (1 Korinfliklar 13:6).

Tasavvur qilgin: bir shved bolasi onasining oldiga keladi.

– Ona, – deydi u, – men shved bo‘lishni boshqa xohlamayman.

Yoki bobo nevarasiga shunday deganini tasavvur qil:

– Endi sening bobong bo‘lish *menga yoqmaydi*.

Yoki kambag‘al shunday deb qoladi:

– Bu yil men kambag‘al *bo‘lmoqchi emasman*!

Yoki to‘rtinchi sinf o‘quvchisi shu tariqa e’lon qiladi:

– Men o‘ninchi sinfga o‘tishni istayman!

Yoki parashyutchi shunaqa deydi:

– Men bugun parashyut taqishni istamayman, men *balandga* uchmoqchiman!

Sen bu odamlarga nima deb javob bergan bo‘larding?

Ehtimol, shunga o‘xshash javob qilgan bo‘larding: “Sen shved bo‘lishni xohlaysanmi yoki yo‘qmi, baribir shvedsan, gap tamom!” Yoki: “Balki sen o‘ninchi sinfga o‘tishni istarsan, ammo hozir to‘rtinchi sinfda o‘qiyapsan!” Boshqacha qilib aytganda, odamlarning his-tuyg‘ulari dalillar bilan aslo kelisha olmaydi. His-tuyg‘ular dalillarni o‘zgartirmaydi, to‘g‘rimi?

Odamlar to‘g‘ri qaror qabul qilishga uringanlarida ham xuddi shunday holat yuz beradi. Ehtimol, sen bilan ham shunday holat yuz berar. Sen Xudoning shunday deganini bilasan: “Bir-biringizni seving” (1 Yuhanno 4:11); “o‘zingizni sevgandek yaqinlaringizni seving” (Levilar 19:18); va hattoki “o‘z dushmanlaringizni seving” (Matto 5:44). Sen sevgining yaxshi ekanligini, nafrat (yoki befarqlik) yomon ekanligini bilasan.

– Lekin men mana bu yigitga toqat qilolmayman! – deysan sen.

– Siz uning qanchalik surbet va qo‘pol ekanligini tasavvur ham qilolmaysiz.

– Hech kim uni yaxshi ko‘rmaydi.

– Mening baribir undan jahlim chiqqan.

Biroq insonning his-tuyg‘ulari dalillarga hech qanday ta’sir ko‘rsatmaydi. Sen o‘zingni qanday his qilmagin, baribir dalillarni o‘zgartirolmaysan, to‘g‘rimi?

Sening tuyg‘ularing tushunarli bo‘lishi mumkin. Ular mutlaqo to‘g‘ri bo‘lishi mumkin. Ular o‘zini oqlagan bo‘lishi mumkin. Biroq bu bilan ezgulik va yovuzlik o‘zgarib qolmaydi. Xudo shunday degan: “Bir-birlaringizni sevinglar” (Ibroniylar 13:11). Sen nimani his qilmagin, men nimani his qilmay, yana kimdir nimani his qilmasin – bu to‘g‘ri. Negaki bizning *tuyg‘ularimiz dalillarga* ta’sir ko‘rsatolmaydi.

MULOHAZA QILGIN: Sen qachonlardir ezgulik va yovuzlik go‘yo senga bog‘liq bo‘lgani singari o‘zingni tutganmisan? Agar shunday bo‘lsa, qay tariqa? Nima (yoki kim) aslida ezgulik va yovuzlikning qanday ekanligini hal qiladi?

HARAKAT QIL: Ehtimol, sen o‘z xonangda quyidagi oyatlar bitilgan plakatlarni osib qo‘ymoqchidirsan: “Ey Egam! Senga hamon umid bog‘laymiz, Sodiq sevging bizga yor bo‘lsin” (Zabur 32:22).

IBODAT: “Rabbim, men hamisha ham boshqa odamlarni sevishni istamasligimni tan olaman, shu bois menga eslatib tur: ezgulik va yovuzlik mening his-tuyg‘ularimga bog‘liq emas. Men kimnidir yaxshi ko‘rishni istamagan chog‘imda Senga itoat qilishimga yordam ber. Hattoki sevish og‘ir bo‘lgan kishilarni ham sevishimga ko‘maklashgin”.

16 AVGUST. ShAYTONNING STRATEGIYASI

Kalomdan o‘qish: Yahudo 1:1-3

Ammo buning o‘rniga sizlarni: “Imonimizni himoya qilaylik”, deb undamoqchiman (Yahudo 1:3).

TASAVVUR QIL, sen – iblissan. Sening vazifang – odamlarni yo‘ldan urish va ularning to‘g‘ri qarorga kelishlariga xalaqit berish. Sen odamlar baxtsiz bo‘lishini xohlaysan, ularning qalblari oxir-oqibat nihoyatda yomon joyga tushishini istaysan. Xo‘sh, sen nima qilgan bo‘larding?

Ehtimol, sen odamlarga ezgulik va yovuzlik mavjud emasligini uqtirishga uringan bo‘larding, to‘g‘rimi? Agar ular ezgulik va yovuzlikka ishonmasalar, ularni yomonlikka undash osonroq bo‘lardi, to‘g‘rimi?

Biroq, baribir ezgulik va yovuzlik mavjud ekanligiga ishonadigan odamlar qolgan bo‘lardi. Sen ularning yaxshi yo‘l tutishlariga xalaqit berishingga to‘g‘ri kelardi, shunday emasmi? Agar ular aynan nima yaxshi ekanligini bilmasalar, ularni yomon ish qilishga undash osonroq bo‘lardi, to‘g‘rimi?

Endi esa kimlardir nima yaxshiyu, nima yomonligini biladi deb tasavvur qilaylik. Agar sen iblis bo‘lsang, harqalay, baribir ularning harakatlari noto‘g‘ri ekanligiga ishontirishga urinib ko‘rgan bo‘larding.

Hattoki ayrim odamlar ezgulik va yovuzlikka ishongan va nima yaxshiyu, nima yomonligini bilgan taqdirlarida ham sen bor kuching bilan ular o‘z bilganlarini boshqalar bilan baham ko‘rishlariga xalaqit berish uchun uringan bo‘larding, to‘g‘rimi?

Agar sen iblis bo‘lsang, shunday yo‘l tutgan bo‘lmasmiding? Axir iblis shunday ish tutmaydimi? U odamlarni ezgulik va yovuzlik mavjud emasligiga ishontirmoqchi bo‘ladi. U odamlar nima yaxshiligini tushunishlariga xalaqit berishga urinadi. U odamlar hattoki qay tariqa to‘g‘ri yo‘l tutishni bilganlarida ham ularni nojoiz ishlar qilishga undaydi. U kim to‘g‘ri ish tutayotgan bo‘lsa, o‘sha kishi boshqa odamlar bilan o‘z bilimlarini baham ko‘rmoqchi bo‘lganida xalaqit berishga harakat qiladi.

Afsuski, iblisning strategiyasi ko‘p hollarda muvaffaqiyatli chiqadi. Biroq endi u nimalar qilayotganini bilgach, iblisning o‘z istaklariga erishishiga ijozat berolmaysan, to‘g‘rimi? Sen axir “imonimizni himoya” qilasan (Yahudo 1:3), to‘g‘rimi? “Umidingiz haqida sizdan so‘ragan har bir kishiga javob berishga doimo tayyor bo‘linglar” (1 Butrus 3:15). Sen ezgulik va yovuzlik haqida “muloyimlik va hurmat bilan” (1 Butrus 3:15) o‘z bilganlaringni boshqalar bilan baham ko‘rasanmi?

Albatta, sen xuddi shunday qilasan.

MULOHAZA QILGIN: Iblis nimaga erishmoqchi? U sen bilan o‘z maqsadiga erishganmi?

HARAKAT QIL: Ota-onangdan yoki cho‘pondan sen uchun K.S.Lyuis qalamiga mansub “G‘alamisning maktublari” kitobini topib berishlarini so‘ragin. Unda iblisning strategiyasi batafsil bayon etiladi (ikkinchi bobga alohida e’tiboringni qarat).

IBODAT: “Iso, ezgulik va yovuzlikni bilishimni boshqalar bilan muloyimlik va hurmat ila baham ko‘rishim uchun yordam ber”.

17 AVGUST. BARBOD BO‘LGAN TAJRIBA

Kalomdan o‘qish: Chiqish 37:1-3, 10-24

Bazazilning ko‘rsatmasi bilan akas yog‘ochidan Sandiq yasadilar ...Sandiqning ichkariyu tashqarisini toza oltin bilan qoplab, aylanasi bo‘ylab oltin gulchambar qildilar (Chiqish 37:1-2)

– HAMMASI TAMOM BO‘LDI! Hammasi barbod bo‘ldi! – olim go‘yo sochini yulib olmoqchi bo‘lgandek qo‘llari bilan boshiga yopishdi.

– Nima bo‘ldi? – deb so‘radi yangi yordamchi-talaba.

– Tajriba barbod bo‘ldi! Mening ko‘p yillik mehnat va izlanishlarim hammasi behuda ketdi.

Yordamchi nigohini olimdan uzib, endi qarshisidagi stol ustida naychalar va hujayralardan iborat murakkab tuzilmaga qaradi.

Olim g‘azab bilan yordamchiga boqdi:

– Negaki bu ... – u oppoq metall qutichani ko‘rsatdi, – sovutgich emas!

Yordamchi vahima bilan qutichaga qarab qoldi:

– R-rostdanmi?

– Rostdan ham! – deya qichqirdi olim. – Bu... – u bor kuchi bilan o‘zini tutishga urinardi, – germetik yopiq muhit bo‘lib, bizga keksayish jarayonini nazorat qilishimiz va ehtimol bu jarayonni orqaga qaytarish imkonini berardi.

U qutichani ochib, undan go‘sht solingan sariyog‘li nonni oldi va yordamchi-talabaning yuzi oldida uni silkita boshladi:

– Hammasi sen tufayli bo‘ldi! Bu quticha o‘n uch yil yopiq edi, sen esa qandaydir bemaza saryog‘li noning bilan o‘n uch yillik tajribani barbod qilding!

Yordamchi-talaba qo‘rquv bilan ko‘zlarini pirpiratib g‘o‘ldiradi:

– Men axir atayin qilmadim-ku...

Xo‘sh, agar go‘sht solingan sariyog‘li nonni germetik yopiq qutichaga qo‘ysa, buning nimasi yomon ekan? Olim nihoyatda g‘azablandi va tajriba barbod bo‘ldi, negaki *tajribaning tozaligi buzilgan edi*. Tajribaning tozaligi esa bag‘oyat muhim.

Ammo bu faqatgina ilmiy tajribalarga taalluqli emas: bu ko‘p narsalarga daxldor. Toza oltin boshqa metallar qo‘shilgan oltindan qimmat turadi; mana nima uchun Bazazil va uning yordamchilari Muqaddas chodirni qurishayotganda Ahd sandig‘i va boshqa buyumlarni toza oltindan yasashga uringanlar. Negaki tozalik yaxshidir.

Mana nima uchun Xudo bizning toza bo‘lishimizni istaydi. U gunoh bizning hayotimizni xarob qilishini istamaydi. Albatta, biz o‘z holimizcha poklanishimiz va tozalikni saqlashimizning iloji yo‘q, faqat Xudo buni amalga oshirishi mumkin. U bizni kechirishi va bizlarni gunoh hamda yolg‘ondan poklashi mumkin (1 Yuhanno 1:9). Sen poklikda yashashing uchun Xudoning yordam berishiga ishonasanmi?

MULOHAZA QILGIN: Nima deb o‘ylaysan, nega Muqaddas chodirning asbob-jihozlarini aynan toza oltindan yasash muhim bo‘lgan? Sen o‘zingni pokiza (gunohlarsiz) saqlay olasanmi? Nima deb o‘ylaysan, nima uchun hayotdagi pokizalikda Xudoning yordami zarur?

HARAKAT QIL: Oshxonadan etiketkasiga “toza” deb yozilgan biror narsani topgin. O‘sha buyumni u senga shuni eslatib turishi uchun ko‘rinadigan joyga qo‘ygin: sen pokizalikda yashashing uchun Xudoning yordamiga tayanishing kerak.

IBODAT: “Rabbim, tozalik yaxshi va to‘g‘ri ekanligini, hamda bu nafaqat oltinga, balki o‘zimga ham taalluqli ekanligini menga eslatib turgin”.

18 AVGUST. QOIDALARNI KIM O‘RNATADI

Kalomdan o‘qish: Chiqish 25:1-9

Ey azizlarim, sizlar yangi dunyoni kutar ekansiz, Xudo nazarida benuqson va beg‘ubor bo‘lishga, U bilan totuv yashashga jon kuydiringlar (2 Butrus 3:14).

NIMA DEB O‘YLAYSAN, Xudo ushbu so‘zlarni aytganida, Muso nima deb javob qaytargan: “Isroil xalqiga, Egamizga nazr keltiringlar, deb ayt. Menga chin ko‘ngildan nazr qilmoqchi bo‘lgan odamning nazrini qabul qil. Sen ulardan qabul qilib oladigan nazrlar quyidagilardir: oltin, kumush, bronza, shuningdek, ko‘k, safsar va qirmizi rangli iplar, mayin zig‘ir matosi, echki juni, qizilga bo‘yalgan qo‘chqor terisi, yumshoq teri, akas yog‘ochi, moychiroqlar uchun zaytun moyi, muqaddas qiladigan moy uchun ziravorlar, efod va ko‘krakpechga taqiladigan aqiq hamda qimmatbaho toshlar” (Chiqish 25: 2-7)?

Ehtimol, Muso o‘shanda shunday javob qaytargandir:

– Rabbim, bir daqiqa shoshmay tur-chi. Mis topishda muammo bo‘lmaydi, biroq oltin va kumushni qayoqdan olamiz? Bilmadim. Biz, agar Sen banogoh e’tibor qaratmagan bo‘lsang, xuddi quvg‘inda yurgandek yashayapmiz. Qalay va o‘ymakorlik mahsulotini nazr qilsak qanday bo‘larkan?

Balki u shunday javob qilgan bo‘lishi mumkin:

– Bilasanmi, teri topishimiz ham muammo bo‘lib turibdi. Keyingi paytlarda qizil va qirmizi rangl terilar bizda unchalik ko‘p tayyorlanmayapti.

Mabodo Muso shu tariqa javob berganida edi, Xudoning unga batafsil keltirib o‘tganlaridan u sal bo‘lmasa aqldan ozib qolardi: toza oltindan yasalgan Ahd sandig‘i, sandiqni ko‘tarish uchun sof oltindan qoplangan xodalar, sandiqning toza oltindan tayyorlangan qopqog‘i – bularning hammasi sof bo‘lishi lozim edi! Biroq, Muso o‘rtoqlari bilan birgalikda sahroda chodirlarda yashagan edi! Harholda, ularda nega bularning hammasi sof bo‘lishi lozimligini so‘rashlari uchun yuzlab sabablar topilardi.

Ammo Muso aslo bu kabi so‘zlarni gapirmadi. U qarshilik bildirmadi. Nima uchun? Negaki u, Xudo – Muso va xalq emas – qoidalarni o‘rnatishini bilardi. Xudo esa soflik yaxshi ekanligini aytadi. Sen chodir yasaganingda ham, inson uchun ham bu yaxshi.

Bizda (do‘stlarimizda, o‘qituvchilarimizda, sevimli teleqahramonlarda) pokizalikni talab qilish haddan ziyod ekanligi haqida o‘ylashimiz uchun yuzlab sabablar bo‘lishi mumkin. Biroq qoidalarni biz o‘rnatmaymiz. Ularni Xudo o‘rnatadi. Nima yaxshi va nima yomon ekanligini biz hal qilmaymiz. Biz yaxshi yoki yomon harakatlar qilishni, Xudoga itoat qilish kerakmi yoki yo‘qligini tanlashimiz mumkin. Biz “benuqson va beg‘ubor” (2 Butrus 3:14) yashay olishimiz haqida qaror qabul qilishimiz mumkin.

Xo‘sh, sen nimani tanlaysan?

MULOHAZA QILGIN: Nima deb o‘ylaysan, Xudo sendan pokizalikni talab qilganida, haddan ziyod narsalarni xohlaydimi? Nima uchun “ha” va nima uchun “yo‘q”? Sening fikringcha, soflikni saqlashing uchun senga yordam kerakmi? Agar kerak bo‘lsa, bu qanday yordam bo‘lishi kerak? Sen bu yordamni qay tariqa olishing mumkin?

HARAKAT QIL: Do‘sting bilan birga tadqiqot o‘tkaz. Sen oltindan tayyorlangan, ko‘kish, qizg‘ish va qizil yungli, zig‘irdan tayyorlangan, teridan yasalgan, yog‘ochdan qilingan nimanidir, zaytun yog‘ini, xushbo‘y narsalarni, qimmatbaho toshlarni topishga harakat qilgin. Bulardan birortasini topganingda, eslab ko‘r: Xudo chodir qurishga yaroqli narsalarni qanday tanlagan bo‘lsa, qaysi xulq-atvor ma’qul (to‘g‘ri), qaysisi esa nomaqbul (noto‘g‘ri) ekanligini Uning O‘zi hal qilgan.

IBODAT: “Rabbim, nima to‘g‘riligini faqat Sen hal qilasan. Nimaniki qilsam, barchasini Sening qoidalaring asosida qabul qilishim va bajarishim uchun yordam ber”.

19 AVGUST. QARG‘A VA KANARYEYKA

Kalomdan o‘qish: Efesliklar 5: 1-4

Og‘zingizdan hech qanday yaramas so‘z chiqmasin. lekin tinglovchilarning ehtiyojiga ko‘ra, kerakli gaplarni aytib, ularga dalda bering, shunda so‘zlaringiz ularga foyda keltiradi (Efesliklar 4:29).

O‘tgan zamonlarda bitta daraxtda qarg‘a va kanareyka birgalikda yashashgan ekan. Daraxtning yonginasida bir eski uy joylashgan bo‘lib, bu uyda bir aka-singil onalari bilan hayot kechirishardi.

Kunlardan birida qarg‘a kanareykaga shunday debdi:

– Men uchib anavi ochiq derazaga qo‘naman, - deb u tumshug‘i bilan uy tomonga ishora qilibdi. – Odamlar meni ko‘rishganida bir bo‘lak non berishadi va men bugun qornimni to‘qlab uxlayman.

Kanareyka qarg‘aning uy derazasiga qanday uchib borganini kuzatib turardi. Qarg‘a bo‘ynini cho‘zib, qag‘illay boshlabdi (barcha qarg‘alar qilgani kabi). U yurakni ezadigan tarzda qag‘illayveribdi. Nihoyat uy bekasi unga e’tibor qaratibdi: deraza oldiga kelib, qarg‘aga shippakni ko‘tarib otibdi.

Ta’zirini yegan qarg‘a daraxtga zo‘rg‘a kelib qo‘nganida, kanareyka shunchalik kulibdiki, butoqdan ag‘darilib ketishiga oz qolibdi.

– Ko‘ramiz, sen buni uddalay olarmikansan, - deya g‘o‘ldirabdi qarg‘a kanareykaning ohangdor kulgisiga javoban. – Hech bo‘lmaganda ham, unda yana bir dona shippak qolgan.

Kanareyka hech nima demasdan derazaga uchib boribdi. U qanotlarini yig‘ishtirib, yoqimli qo‘shiq kuylay boshlabdi. Qarg‘a o‘sha ayolning o‘zi kanareykaga o‘z qo‘llari bilan non ushoqlarini berayotganini hayron bo‘lib kuzatibdi.

Kanareyka qornini to‘qlab, uni hurpaygan qarg‘a kutib turgan daraxtga qaytib uchib kelibdi.

– U seni to‘yg‘azdi, – debdi qarg‘a, – negaki sen chiroylisan, men esa yo‘q.

– Sen haq emassan, – javob qaytaribdi kanareyka.

– Nega bo‘lmasa u menga shippak ko‘tarib tashlandi?

Kanareyka ko‘zlarini yumgan holda javob qaytaribdi:

– Negaki men uning uchun kuyladim. Sen esa faqat qag‘illading.

Ko‘rayapsanmi, bundagi farq ularning qaysi tilda gaplashganlarida. Albatta, qarg‘a kanareyka kabi sayrolmaydi. Kanareyka uchun esa kuylashni o‘rganishiga hojat yo‘q. Biroq biz ham sen bilan birga qarg‘aga ham, kanareykaga ham o‘xshashimiz mumkin. Biz iflos gaplarni ham, yoqimli so‘zlarni ham aytishimiz mumkin. Biz so‘kinishimiz yoki aytayotgan gapimizda toza bo‘lishimiz ham mumkin.

Albatta, Xudo bizni pokiza bo‘lishimizni amr etgan. Xudo bizga aniq tushuncha berganki, “orangizda beadablik, nojo‘ya so‘zlaru qo‘pol hazillar ham bo‘lmasin, chunki bunday qiliqlar sizga to‘g‘ri kelmaydi. Yaxshisi, Xudoga shukur qilinglar” (Efesliklar 5:4). Boshqacha qilib aytganda, Xudo bizga shunday deb buyuradi: “Qarg‘a emas, kanareyka bo‘lgin”.

MULOHAZA QILGIN: Sen ko‘proq kimga o‘xshaysan – qarg‘agami yoki kanareykagami (faqat to‘g‘risini ayt)? Quyida qayd etilganlardan qaysi biri sen uchun muammo ekanligini qayd et (bunda ham to‘g‘riso‘z bo‘l!):

- **o‘ylamasdan aytilgan gap**
- **bema’ni nutqlar**
- **haqorat**
- **yoqimsiz o‘tmish**
- **qo‘pol (iflos) hazillar**
- **nafratomuz so‘zlar**

IBODAT: “Qadrli Xudoyim, Sen menga pokiza bo‘lishimni, shuningdek, gapirayotgan so‘zlarimda ham pok bo‘lishimni amr etganingni bilaman. Iltimos qilaman, Sening Amrlaringni bajarishim uchun yordam ber”.

20 AVGUST. ASLIDA NIMA MUHIM?

Kalomdan o‘qish: Filippiliklar 1:9-11

...chunki men sizlarning a’lo narsalarni tanlashingizni, Masih keladigan kunda pok va aybsiz bo‘lishingizni istayman (Filippiliklar 1:10).

Sen jamoat fikrini so‘rash nima ekanligini bilasan? Kimdir eshigingizni taqillatib shunday deydi: “Biz mamlakatimizda ovqatlanish tartibi haqida so‘rov o‘tkazyapmiz, shu masalada sizga bir qancha savollar bermoqchimiz”. Keyin esa senga shu kabi savollar berishadi: “Qaysi taomni yoqtirasiz?” va “Siz qachondir namchil qurbaqani tatib ko‘rganmisiz?”

Keling, biz ham so‘rov o‘tkazaylik. Shunchaki quyidagi savollarga imkon qadar batafsil javob qaytar (javoblarni bu yerda yozib qo‘y):

Qaysi teledasturlarni muntazam ko‘rib borasan?

_____

_____

Qaysi xonandalarni yoki guruhlarni doimo eshitib borasan?

_____

_____

Qaysi jurnallarni muntazam o‘qiysan?

_____

_____

Mana, teledasturlar, qo‘shiqchilar va jurnallar haqida o‘ylab ko‘rishing uchun senga bir necha daqiqa muhlat. Bulardan qaysi biri senga tozalikni saqlashingga yordam beradi? Bulardan qaysi biri seni nopok fikrlarga, gaplarga yoki harakatlarga undaydi?

Bu muhim masala, negaki Xudo, O‘z amrlariga ko‘ra, poklikni qadrlaydi. Agar biz musaffolikni qadrlasak, nopok narsalarni ko‘rmaymiz, o‘qimaymiz yoki tinglamaymiz. Aslidv biror serialni oxirigacha ko‘rishing muhim emas; sening fikrlaring, so‘zlaring va harakatlaring pok bo‘lib qolishi muhim.

MULOHAZA QILGIN: Pavlus Filippiliklarga maktubning 1-bob, 10-oyatida o‘z istaklari haqida yozadi: “Chunki men sizlarning a’lo narsalarni tanlashingizni, Masih keladigan kunda pok va aybsiz bo‘lishingizni istayman”. Nima deb o‘ylaysan, chindan ham muhim narsa nima? Agar bunga ishonching komil bo‘lmasa, Filippiliklarga maktubning 1-bob, 9-11-oyatlarini o‘qib ko‘r. Sen pokizalikni qadrlaysanmi? Nima uchun “ha” va nima uchun “yo‘q”? Sen uchun aslida nima muhim?

HARAKAT QIL: O‘zingdagi teledasturlar, qo‘shiqchilar va jurnallar ro‘yxatiga yana bir bora qarab chiq. Seni nopok fikrlarga, so‘zlarga va harakatlarga undaydigan hamma narsani undan chiqarib tashla hamda vaqtni o‘tkazishning yaxshi yo‘llarini izla.

IBODAT: “Rabbim, Sen poklikni asrashni buyurganingni bilaman, negaki pokizalikni qadrlaysan. Tozalik men uchun muhim ekanligi ko‘rinib turadigan harakatlar qilishim uchun menga yordam ber”.

21 AVGUST. TIRIK MURDA

Kalomdan o‘qish: Ishayo 6: 1-7

Muqaddasdir, muqaddasdir, Muqaddasdir Sarvari Olam! Uning ulug‘vorligi Butun olamni to‘ldirgan! (Ishayo 6:3).

FARAZ QILAYLIK, sen futbolchisan va murabbiy ertaga shaharning barcha yaxshi o‘yinchilari yig‘iladigan tadbirda ishtirok etishing uchun taklif etilganingni aytadi.

Sen ertasi kuni kalta shim, futbolka, paypoq va butsini kiyasan. Ko‘pgina qiyin o‘yinlardan so‘ng ularda dog‘ va qon izlari bor, biroq sen bu eskirgan va kir kiyimlarni g‘urur bilan kiyib yurasan.

Sen murabbiying aytganidek, o‘yingohga yetib kelasan, biroq maydonda hech kim yo‘q. So‘ngra esa maydon yaqinidagi binoda chiroq yonib turganini ko‘rasan. Sen eshikni ochib ichkariga kirasan.

Ichkarida esa jamoadosh o‘rtoqlaringni va raqib o‘yinchilarini oqshomgi toza kiyimlarda ko‘rib, hayron qolasan. Shunda murabbiyning so‘zlarini noto‘g‘ri tushunganingni anglab olasan: bu yerda o‘yin emas, balki ziyofat bo‘ladi. Endi o‘z kiyimingga avvalgidek mag‘rurlik bilan yondashmaysan; boshqalarniki bilan taqqoslaganda, kiyimlaring iflos va g‘ijim. Maydonda o‘z-o‘zingga iflos bo‘lib tuyulmaganding, endi esa shunday bo‘lib tuyulmoqda.

Xo‘sh, endi bu tuyg‘uni milliard darajada kuchaytirgin – sen Ishayo payg‘ambar Quddusdagi ma’badda Xudoning vahiysini ko‘rganida nimani his qilganini tushunasan. Ishayo Xudoni taxtda shohona kiyimlarda o‘tirganini ko‘rdi. U bir-birlariga jo‘r bo‘lib uchayotgan farishtalarni ko‘rdi. U ma’badning silkinib tutunga to‘layotganini ko‘rdi.

Ishayo nima qildi? Kulib Xudoga qo‘l siltadimi? Yo‘q.

Ishayo to‘satdan, Xudo bilan taqqoslaganda, o‘zining qanchalik iflos ekanligini angladi. U Xudoni butun pokligi va muqaddasligi bilan ko‘rib shunday dedi: “Men ado bo‘ldim! Men bunga chiday olmayman! Men – iflos, gunohkor odamman va pok, muqaddas Shoh, Xudoning qarshisida turibman!”

Albatta, voqea shu bilan yakunlanib qolmaydi, lekin buning mohiyati mana nimada: Ishayo Xudoni ko‘rgan zahotiyoq nopokligini angladi. Nega? Negaki Xudo pokiza. U mutlaqo pok. Unda hech qanday nopoklik yo‘q.

Mana nima uchun Xudo tozalikni qadrlaydi va bizga pok bo‘lishimizni amr etadi. Mana nima uchun tozalik yaxshi – negaki Xudo pokizadir.

MULOHAZA QILGIN: Ishayo Xudoning qanchalik pok ekanligini ko‘rish uchun ma’badga kirdi; biz bu haqda Xudoning Kalomini o‘qib bilishimiz mumkin. Xudo nima uchun bizlarga pok bo‘lishimizni amr etgan? Xudo nima uchun pokizalikni qadrlaydi? Pokizalik nima uchun yaxshi? Farishta Ishayoni poklash uchun nima qildi? Nima deb o‘ylaysan, Xudo seni poklay oladimi? Agar shunday bo‘lsa, qanday qilib?

IBODAT: “Rabbim, Sen pok ekanligingni, o‘zimni esa pokiza emasligimni bilaman. Biroq barcha gunohlarimni kechirib, Senga har kuni itoat qilishimga yordam bergan holda meni poklashingni bilaman. O‘tinaman, fikrlarimda, aytgan gaplarimda va qilayotgan barcha ishlarimda pok bo‘lib qolishimga yordam ber”.

22 AVGUST. POKLIKKA SADOQAT

Kalomdan o‘qish: Zabur 118:9-16

Buyruqlaring haqida chuqur fikr yuritaman, Sening yo‘llaringga diqqat qilaman, Farmonlaringdan lazzat olaman, Kalomingni men unutmasman (Zabur 118:15-16).

ODAMLAR NIMA UCHUN va’da berishadi? Nima uchun ular o‘z xohishlarini bajarishmaydi, shuningdek, o‘z istaklariga zid harakatlarga jazm etisholmaydi. Nima uchun ular shartnomalarga, kelishuvlarga imzo qo‘yishadi, va’da berib javobgarlikni o‘z zimmalariga olishadi? Oy avvalida (3 avgustda) biz va’da muayyan kuchga ega ekanligi haqida aytib o‘tgandik. Bugun esa va’da – nimanidir avvaldan bajarish (yoki bajarmaslik) uchun qilingan qaror va boshqa odamlarga berilgan va’da – senga bu qarorda turishing uchun – yordam berishi haqida so‘z yuritamiz.

Misol uchun, sen masihiy sifatida fikrlaring, gaplaring va ishlaring pokligini saqlashni istaysan. Ammo agarda bir-ikkita do‘sting seni o‘zlari bilan birga chekib olishga chaqirishsa nima bo‘ladi? Mabodo seni sinfda uddaburon va mashhur qiladigan iflos hazillarni eslab qolsang qanday bo‘ladi? Agar do‘sting seni nopok lavhalari bo‘lgan filmni tomosha qilishga chaqirsa, nima bo‘ladi?

Mabodo sen o‘zingga poklikni asrash uchun va’da bergan bo‘lsang, bunday vaziyatlarda to‘g‘ri qarorga kelishing anchayin oson bo‘ladi. Misol uchun, agar sen o‘z oilangga va Xudoga yomon so‘zlarni aytmaslikka va’da bergan bo‘lsang, vasvasani yengishing oson kechadi. Sen bu masalada bir qarorga kelganingni yodga olasan. Bir

tanlovga kelish vaziyati yuzaga kelganida, avvaldan qilgan qaroring senga to‘g‘ri yo‘lni ko‘rsatadi. Va baribir, senga ham barchamizga bo‘lgani kabi yordam zarur bo‘ladi.

MULOHAZA QILGIN: Zaburchi Muqaddas Kitobdan bugun o‘qiladigan oyatlarda nimani va’da qiladi? Bunday va’da poklikni saqlashing uchun yordam beradimi? Zabur kitobining 118-bob, 9-oyatida nimalar deyilgani haqida mulohaza qilgin: “Yigit qanday qilib yo‘llarini pok saqlaydi? Kaloming bo‘yicha yashab, shunga erishadi”.

HARAKAT QIL: Xudoga va qarindoshlaringgga fikrda, so‘zda va ishda pok bo‘lishing uchun va’da ber. va’dalaringni qog‘ozga yozib ota-onangga, do‘stlaringga yoki qavmboshingga ko‘rsatgin. (Sen biror-bir aniq va’dalarni o‘zingdan ham qo‘shishing mumkin):

- **Men hech qanday bema’ni, iflos va haqoratomuz gaplar aytmayman.**
- **Men (sigaret, giyoh va h.k.z.) chekmayman va mabodo kimdir buni taklif etsa, rad qilaman.**
- **Mabodo kimdir menga spirtli ichimliklar (vino, pivo va h.k.z.) taklif etsa, ularni rad qilaman.**
- **Men giyohvand moddalarni iste’mol qilishning har qanday usulini va mabodo kimdir taklif etsa rad etaman.**
- **Men iflos jinsiy aloqalar tasvirlangan film, jurnal va kitoblarni sotib olmayman hamda tomosha qilmayman.**

Men bunga bugun va’da beraman, ... (sana).

Imzo: .....

IBODAT: “Qadrli Xudoyim, men Sening Amrlaringga sodiq bo‘lmoqchiman. Men Senga va’da beraman”.

23 AVGUST. LISTERNING SABOG‘I

Kalomdan o‘qish: Zabur 23:3-6

Kim turishi mumkin Egamizning muqaddas makonida? Kim chiqishi mumkin Uning tepaligiga? Qo‘li halol, qalbi toza insonlar, Soxta narsalarga ko‘ngil qo‘ymaganlar, Yolg‘ondakam ont ichmaganlar (Zabur 23:2-4).

JOZYEF LISTERGACHA agar biror insonni operatsiya – har qanday operatsiya – qilgan bo‘lsalar va u hattoki muvaffaqiyatli chiqqan taqdirda ham, o‘sha inson ellik foiz holatlarda hayotdan ko‘z yumardi.

Ingliz jarrohi Lister bemorlar bilan operatsiyadan so‘ng nimalar bo‘lishini tadqiq qildi. O‘sha davrlarda (1860 yillar atrofida) tabiblar iflos joylarda operatsiya qilishardi. Bemorlar yotgan operatsiya stolini, qonni to‘xtatish uchun bintlar va choyshablarni butunlay toza deb bo‘lmasdi. Ba’zan tabiblar o‘sha bir xil iflos asboblar bilan bir qancha bemorlarni operatsiya qilishardi.

Lister hammasini o‘zgartirdi. U operatsiya xonasi toza bo‘lishini, asboblarni esa har doimo foydalanganlaridan so‘ng tozalash kerakligini qat’iy talab qildi. U asboblarni, jarohat va kiyimlarni tozalashda karbola kislotasidan foydalana boshladi.

Lister tozalikning qanchalik muhim ekanligini payqadi. Ko‘rayapsanmi, agar gigiyena qoidalariga amal qilinmasa, bemor organizmiga infeksiya yuqib, buning oqibatida u hayotdan ko‘z yumishi mumkin. Ammo Lister operatsiya xonasi va asboblar tozalikda saqlansa, operatsiyadan so‘ng o‘ladigan odamlarning soni qisqarishini tushundi. Haqiqatdan ham uning kasalxonasida 85 foiz mijozlar tirik qolishgandi.

Lister aniqlagan operatsiyaga taalluqli tozalik boshqa masalalarga ham to‘g‘ri keladi. Agar ifloslik (mikrobga o‘xshab) sening vujudingga kirib olsa, kasallanishing mumkin; bu hattoki seni o‘ldirishi mumkin. Nopoklik sening ruhing va qalbingga kirib olganida ham shunday bo‘ladi. Mana nima uchun Xudo sening pok bo‘lishingni xohlaydi. U tozalik seni aybdorlik va uyat hissini qo‘zg‘aydigan noxushliklardan asrashini biladi. U poklik seni ko‘plab qayg‘ulardan asrashini biladi.

Tozalik seni nafaqat yovuzlikdan himoya qiladi, u shuningdek foydali ham. Zaburchi uqtiradiki, odamlar pokiza bo‘lishsa, “Egamiz ularga baraka beradi, Najotkor Xudo ularni oqlaydi. Egamizga yuz burgan jamoa o‘shandaydir. Ha, Xudoga intilgan Yoqub nasli shundaydir” (Zabur 23:5-6). Poklik bizga Xudoning halovatini beradi va agar hayoting nopok bo‘lganida bera olmaydigan marhamatni senga yo‘llaydi.

Operatsiya stoli va asboblarining tozaligi Jozef Listerning bemorlarini sog‘lom etganidek, toza qalb va pokiza hayot seni sog‘lomroq va baxtliroq qiladi.

MULOHAZA QILGIN: Nima uchun qalbda va hayotda tozalikni saqlash bunchalik muhim? Sening qalbing pokmi? Agar toza bo‘lmasa, sen buni qanday o‘zgartirishing mumkin? Agar shunday bo‘lsa, nima deb o‘ylaysan, Xudo undagi pokizalikni saqlashda senga yordam beradimi?

HARAKAT QIL: Ushbu haftada har safar qo‘lingni yuvganingda, toza qo‘llar - toza qalblarga ega bo‘lish qanchalik muhimligini yodingda tui.

IBODAT: “Rabbim, tozalik meni himoya qilishini va menga ko‘plab yaxshiliklar keltirishini bilaman. Sening sevuvchi himoyangni va g‘amxo‘rligingni tozalikka amal qilgan holda his qilishim uchun yordam ber”.

24 AVGUST. HIDLANGAN BALIQ VA SEN

Kalomdan o‘qish: Titus 1:15-16

Qalbi pok odamlar uchun hamma narsa haloldir. Buzuq va imonsizlarning nazarida esa hamma narsa haromdir. Bundaylarning aqli ham, vijdoni ham bulg‘angan (Titus 1:15).

TAXMIN QILAYLIK, sening muzlatgichingda ko‘p oylardan buyon katta bir sasigan baliq yotibdi.

Sen muzlatgichni ochasan, undan paketli sutni chiqarib, qo‘lansa hid butun uyga tarqalmasligi uchun shu zahotiyoq eshigini yopasan. Sen sutni myusliga quyib aralashtirasan va tatib ko‘rasan.

– Tuf! – deysan sen tupurgancha. – Xuddi sasigan baliqning mazasiga o‘xshaydi!

Demak, sen endi nonushta qilishdan bosh tortasan. Tushlik vaqtida esa chindan ham juda ochqagan bo‘lasan. Sen muzlatgichning oldiga borib, undan tezda biroz vetchinani tushlik uchun chiqarasan. Vetchinani non bo‘lagi ustiga qo‘yib og‘zingga olib borasan. Biroq tish botirishdan avval buterbrodingni hidlab ko‘rasan.

– Fuu! – deysan sen. – Sasigan baliqning hidi kelyapti!

Endi sen tushlikdan ham voz kechasan. Oqshom paytida ochlikdan o‘lay deb turibsan. Muzlatgichni ochib, undan uch kun burun sotib olgan pitssaning qoldig‘ini chiqarasan, uni mikroto‘lqinli pechga qo‘yib oltmish soniya qizitasan. Pitssani chiqarish uchun mikroto‘lqinli pechni ochasan.

– O‘ta jirkanch bu! – deysan sen. – Endi mikroto‘lqinli pechdan ham aynigan baliqning hidi kelyapti!

Sen ota-onangga keskin talab qo‘yishga qat’iy qaror qilib, oshxonadan ketasan: ular yoki sasigan baliqni yo‘q qilishadi yoki sen dengiz piyoda qo‘shinlariga xizmatga ketasan – u yoqda seni harqalay ovqatlantirishadi!

Ammo shoshma-chi! Muammo nimada o‘zi? Nima uchun birgina baliq atrofdagi hamma narsani buzmoqda? Xo‘sh, agar sening muzlatgichingda qachonlardir sasigan baliq yotgan bo‘lsa, sen bunday savolni bermagan bo‘larding. Birgina sasigan baliq (yoki aynigan tuxum deylik) muzlatgichdagi hamma narsani buzishi uchun yetarli.

Senga ham xuddi shu narsa taalluqli. Yo‘q, sendan sasigan baliqning hidi kelmayapti, biroq qalbing nopok bo‘lsa, bu fikrlaringga, gaplaringga va qilayotgan ishingga ta’sir qiladi. Nopok qalbing do‘stlaringdan shubhalanishga undaydi. Iflos xayollaring hamma narsani qayg‘uli ranglarda ko‘rishga majburlaydi. Sening buzuq tasavvuring yaxshi, sog‘lom narsalarni barbod qiladi va ular sasigan baliqdek ta’sir qila boshlaydi.

Boshqa tomondan olganda, agar sen qalban pokiza bo‘lsang, hayotdan zavq olasan, negaki sen unga nopok odam singari qaramaysan. Sen hech kimdan shubhalanmaysan. Sen qayoqqa qaramagin, hech qayoqda ifloslikni ko‘rmaysan. Sen yaxshi, sog‘lom narsalardan lazzatlanishing mumkin va ular xuddi sen kabi ajoyib va pokiza bo‘lishadi.

MULOHAZA QILGIN: Sen o‘zi uchun “hammasi toza” bo‘lgan odamni bilasanmi? “Hech qanday poklik yo‘q” deydigan odamni-chi? Sen ko‘proq kimga o‘xshaysan?

IBODAT: Sening hayotingda qandaydir nopoklik mavjudmi? Agar shunday bo‘lsa, Xudoning oldida bunga iqror bo‘l, Undan kechirim so‘ra va Uning yordami bilan pokizalikni tiklashga urin.

25 AVGUST. YURAKDAGI MUAMMO

Kalomdan o‘qish: Zabur: 50:12-14

Ey Xudo, menda toza yurak yaratgin, Sodiq qalbni menga yana bir bor bergin (Zabur 50: 12).

TEMIR O‘TINCHI uzoq yillardan buyon Ellini, Totoshkani, qo‘rqoq Sherni va Mahluqni ko‘rmagandi. U ular bilan nimalar yuz berayotganini bilmasdi. Ammo o‘ziga nima bo‘lganini bilardi. Sirli Zumrad shaharga qilgan sayohatidan so‘ng, u yurakka ega bo‘lgandi. Lekin u tashvishga tushgandi. Uning yuragi qandaydir boshqacha ishlardi.

– Uning nimasidir noto‘g‘ri, – dedi u temir xonadagi temir stolda yotganida shifokorga qarab. – U kerak bo‘lganidek ishlamayapti. U o‘zini noto‘g‘ri tutyapti. – Temir O‘tinchi yelkasini qisdi. Uning yelkalari va tirsaklari g‘ijirladi. – Ba’zan do‘stlarim bilan gaplashayotganimda bexos yomon gaplarni aytib yuboraman. Ba’zan televizor ko‘rib o‘tirganimda, kimdir yomon so‘zlar aytib, yomon ishlar qilayotganini ko‘rganimda, kulgidan o‘zimni to‘xtatolmayman! – U go‘yo kimdir uni eshitib qolishlaridan cho‘chigandek atrofiga qarab qo‘ydi. – Gohida esa, – shivirladi u, – bundan ham battar bo‘ladi...

– Hammasi tushunarli, – javob qaytardi shifokor. – Bu haqiqatdan ham yurakka tegishli muammo. Lekin men sizga yordam berolmayman.

– Yordam berolmaysizmi? – Temir O‘tinchining ta’bi xira bo‘ldi.

Shifokor boshini qimirlatdi.

– Bilasizmi, bunday kasallikka davo yo‘q. Buning yagona iloji – yurakni almashtirish.

– Almashtirish?

Shifokor bosh irg‘adi:

– Sizga yangi yurak kerak. Toza yurak. Biroq xavotirim shundaki, uni faqat birgina joydan topish mumkin.

Shifokor haq edi. Temir O‘tinchining muammosini hal qilishning yagona yo‘li – unga yangi, toza yurakni o‘rnatish. Eskini tuzatishning iloji yo‘q. Yurakni ko‘chirib o‘tkazish kerak, bu borada esa faqat Xudo yordam berishi mumkin.

Shoh Dovudda ham shunday muammo bo‘lgan. Uning yuragida muammo bo‘lgan. Shu bois u tiz cho‘kib, Xudodan yuragini yangilashini so‘ragan. Dovud Xudo oldida o‘zining dahshatli gunohlari uchun tavba qilgan. U

gunohkor ekanligini va Xudoga muhtoj ekanligini tan olgan. U Xudodan kechirim so‘ragan. Keyin Dovud shunday degan: “Ey Xudo, menda toza yurak yaratgin, Sodiq qalbni menga yana bir bora bergin” (Zabur 50:12).

Ehtimol, sen ham o‘zingni o‘ylab topilgan Temir O‘tinchi va haqiqiy shoh Dovud kabi his qilgandirsan. Balki sening yuraging lozim bo‘lganidek ishlamayotgandir. Sen shoh Dovud kabi nopok qalbingdan xalos bo‘lishing mumkin: gunohlaringga tavba qilib, nohaq ekanligingni tan olishing kerak. Sen Xudoga muhtoj ekanligingni tan olib, Undan kechirim so‘rashing mumkin. Sen Xudoga o‘z xohish-istaklaringdan voz kechib, Unga itoat etishga tayyor ekanligingni aytishing mumkin. Agar sen shunday qilsang va U har kuni sening yuragingni toza saqlashiga ishonishda davom etsang, Xudo bu haqda g‘amxo‘rlik ko‘rsatadi – bir lahzaning o‘zidayoq!

MULOHAZA QILGIN: Sen qachondir “yurakni ko‘chirish” haqida ibodat qilganmisan? Agar shunday qilmagan bo‘lsang, nima uchun buni hoziroq amalga oshirish mumkin emas? Agar shu tariqa ibodat qilgan bo‘lsang, Xudo seni kechirib, yangi qalb ato etdimi? Sen pokizalikni qanday qilib asrashing mumkin?

IBODAT: “Rabbim, menga toza qalb ato et va botinimdagi ezgulik ruhini yangilagin”.

26 AVGUST. “NAJOT” OPERASIYASI

Kalomdan o‘qish: Galatiyaliklar 3: 10-14

Shunday ekan, ko‘rinib turibdiki, qonunga amal qilish bilan hech kim o‘zini Xudo oldida oqlay olmaydi, zotan, solih inson imon tufayli hayotga ega bo‘ladi (Galatiyaliklar 3:11).

SEN OPERASIYA STOLI USTIDA YOTIBSAN. Senga yurak ko‘chirib o‘tkazishmoqchi. Atrofda shifokor va hamshiralar turishibdi. Qandaydir asboblar yonib o‘chadi va guvillaydi. Kimdir jundor qo‘llari bilan burningga niqobni tutmoqchi bo‘ladi, sen ohista pishillashni eshitasan.

Sen niqobni burningdan nari qilasan va jundor qo‘l uni senga taqishiga izn bermaysan.

– Shoshmang! – deysan sen. – Nima qilyapsiz?

Shifokor va hamshiralar senga hayron bo‘lib qarashadi.

– Nima, meni uxlatmoqchi bo‘lyapsizlarmi? – ayblovchi ohangda so‘raysan sen.

– Ha albatta, – javob qaytaradi bosh shifokor. – Bu odatda shunday qilinadi. Men sizni operatsiya qilib bo‘lgunimcha, uyquda bo‘lishingiz kerak.

– Siz meni operatsiya qilasizmi? – sen hayratga tushasan. – Aslo! Men buni o‘zim qilaman.

– Siz-a? – shifokor taajjub bilan savolini takrorlaydi.

– Albatta, – deysan sen. – Yana kim bo‘lishi mumkin?

U yelkangga qo‘lini ohista qo‘yadi:

– Bilasizmi, bu yerda shifokor menman. Siz esa mijozsiz. Siz hattoki yangi yurakka ega bo‘lishni juda xohlaganingizda ham, buni o‘zingiz uddalay olmaysiz. Menga ishonishingizga to‘g‘ri keladi. Siz menga ishonishingiz kerak.

Sen yengil tin olasan:

– Xayriyat. Men esa barcha qon tomirlarimni tezda o‘z joyiga qo‘ya olmasligimdan cho‘chib turgandim.

Albatta, axir sen hech qachon o‘zingga yurakni ko‘chirib o‘tkazishga urinib ko‘rmagan bo‘larding, to‘g‘rimi? Ammo ko‘pchiligimiz shu kabi xatoliklar sodir etamiz. Biz yaxshi ishlar qilib, to‘g‘ri yo‘l tutganimizda masihiylarga aylanib, jannatga tushamiz, deya o‘ylaymiz. Biroq jannatga tushish amalda bunday bo‘lmaydi.

Jannatga tushishning yagona yo‘li – Iso Masihga ishonish va Undan gunohlarimiz uchun kechirim so‘rash. Biz shunday qilganimizda, Muqaddas Ruh qalbimizga o‘rnashadi. Keyin esa U to‘g‘ri qaror qabul qilishimizga yordam beradi. Yoki, xuddi shifokor aytganidek, biz Isodan “yurakni operatsiya qilish”ini so‘raganimizda, o‘zimizni Uning g‘amxo‘rligiga topshiramiz, endi Unga ishonch bildirishimiz qoladi, xolos. Operatsiya shu tariqa amalga oshiriladi.

MULOHAZA QILGIN: Sen Xudo amrlariga shunchaki itoat etib, hech qachon Uning oldida pok bo‘lolmaysan; sen bunga faqatgina Iso Masihga imon keltiribgina erishmog‘ing mumkin. Bu endi to‘g‘ri qaror qabul qilish haqida o‘ylashga hojat qolmaganini bildiradimi? Nima uchun “ha” va nima uchun “yo‘q”? Seni to‘g‘ri qaror masihiyga aylantiradimi? Sening masihiy ekanliging to‘g‘ri qaror qabul qilishingga yordam beradimi? Buning qanday farqi bor?

HARAKAT QIL: Imonni xuddi samoga qadar bo‘y cho‘zgan apelsin daraxti deya tasavvur qil. Undagi har bir apelsin – sen qabul qiladigan to‘g‘ri qaror. Apelsinlar sen uchun samoga yo‘l ochmaydi; sen faqat daraxt orqali unga ko‘tarilishing mumkin. Ammo daraxt ham hosil bergani kabi imoning ham senga to‘g‘ri qarorlar qabul qilishingga yordam beradi.

IBODAT: Agar sen hech qachon Isodan hayotingga kirib kelishini so‘ramagan bo‘lsang, buni hoziroq amalga oshir. Shunday ibodat qil: “Rabbim Ota, men gunohkor ekanligimni tan olaman. Sen mening gunohlarimga tovon to‘lashi uchun Isoni yubording. Men Uni o‘z hayotimga taklif etaman. Men Muqaddas Ruhning in’omini qabul qilaman. Menga abadiy hayot ato etganing uchun sendan minnatdorman, Rabbim”.

27 AVGUST. IBODATNING KUCHI

Kalomdan o‘qish: 2 Salonikaliklar 1:3-12

Shunday ekan, Xudoyimiz sizni O‘z chaqirig‘iga loyiq deb topsin, O‘z qudrati bilan sizlarning barcha yaxshi niyatlaringizni ro‘yobga chiqarsin, imon bilan qilgan ishlaringizni amalga oshirsin, deb biz doim sizlar uchun ibodat qilamiz. Rabbimiz Isoning nomi orangizda ulug‘lansin (2 Salonikaliklar 1:11-12).

SEN HECH QACHON ibodatsiz to‘g‘ri qaror qabul qilolmaysan. Muntazam ibodatsiz. Haqiqiy ibodatsiz.

Shoshma-chi! Vahimaga tushma. Balki bu senga juda qiyin ishdek tuyulayotgandir. Ibodat horitadigan va zerikarlidek bo‘lib tuyuladi. Balki bolaligingda yoki katta yoshlilar Xudo haqida eskicha qo‘pol so‘zlarni aytganlarida shunday tasavvur hosil qilgandirsan.

Yengil tin olaver. Ibodat – bu Xudo bilan fikrlaring, his-tuyg‘ularing va ehtiyojlaring haqida shunchaki bir suhbat. Xudo zamonaviy tilni juda yaxshi tushunadi (hatto sen aka-ukang yoki opa-singling bilan bilan gaplashadigan o‘sha g‘alati lahjani ham). Sen ibodat qilganingda Xudo seni eshitishiga to‘la ishonch hosil qilishing mumkin. Xudo sening Unga ibodat qilishingni sabrsizlik bilan kutmoqda. Sen – Uning farzandisan va U sen bilan birgalikda o‘tkaziladigan har bir daqiqani qadrlaydi.

Xo‘sh. Ibodat nima uchun bunchalik muhim?

1. *Ibodat senga Xudo haqida o‘ylashingga yordam beradi*. Ibodat Xudoni yaxshiroq bilishingga yordam beradi. Zaburchi shunday deb yozgan: “Qudratli Egamizga yuz buring! Uning huzurida bo‘lishga intiling” (Zabur 104:4). Sen ibodat qilganingda televizor va pleyerdan diqqatingni uzib, e’tiboringni Xudoga qaratasan.
2. *Ibodat – bu Xudo bilan yaqinlikdir*. Ibodat qilganingda, Xudo bilan yaqinlik nima ekanligini anglab yetasan. Muqaddas Kitobda bayon etilganki, Muso Muqaddas chodirga kirganida, “birortasi do‘sti bilan gaplashganday, Egamiz ham Muso bilan yuzma-yuz gaplashardi” (Chiqish 33:11). Mana ibodat vaqtida nimalar yuz beradi. Sen Xudoning do‘stiga aylanasan. U nimaiki bo‘lmasin hamisha seni sevadigan eng yaqin do‘stingga aylanadi.
3. *Ibodat to‘g‘ri qaror qabul qilishga yordam beradi*. Agar sen yolg‘on gapirishdan voz kechmoqchi bo‘lsang, ibodat qil; ibodat istaklaring ro‘yobga chiqishi uchun senga ilohiy kuch ato etadi. Agar sen aka-ukangni ko‘proq sevmoqchi bo‘lsang, ibodat qil: Xudoning qudrati sening ezgu-niyatlaringni mustahkamlaydi. Agar yanada sabrli, yanada shafqatli bo‘lishing yoki o‘zingni ko‘proq nazorat qilishing lozim bo‘lsa, ibodat qil: Xudoning qudrati senga kuch bag‘ishlaydi.

Biz ibodat qilganimizda, Xudo harakat qiladi! Xullas, ibodat qil. O‘zing uchun ibodat qil. Oilang uchun ibodat qil. Do‘stlaring uchun ibodat qil. Va ana shunda Xudo qanday harakat qilayotganini kuzatgin.

MULOHAZA QILGIN: Sen tez-tez ibodat qilasanmi (ovqatlanish oldidagi ibodatni hisoblamagan holda)? Sening fikringcha, tez-tez qanday ibodat qilib turish kerak? Qaysi paytda ibodat qilishni afzal ko‘rasan? (Ertalabmi? Maktabdan keyinmi? Uyqu oldidanmi?) Har kuni ibodat qilish uchun qancha vaqt ajratasan? (Besh daqiqami? O‘n daqiqami? O‘n beshmi? Bundan ham ko‘pmi?) Biror kishiga endi qancha vaqt ibodat qilishing haqida so‘zlab ber.

IBODAT: O‘zing tez-tez qiladigan to‘rt yoki beshta to‘g‘ri qarorlar ro‘yxatini tuzib chiq (misol uchun, o‘zini to‘g‘ri boshqarish, mehr-shafqat ko‘rsatish, sadoqatli bo‘lish, adolatli bo‘lish va h.k.z.). Ushbu bandlardan hech bo‘lmaganda bittasi senda rivojlanishi uchun Xudodan so‘rab, ibodat qil.

28 AVGUST. TINGLA VA O‘RGAN

Kalomdan o‘qish: Qonunlar 31:9-13

...Ular eshitib o‘rganishsin, Egangiz Xudodan qo‘rqishsin. Mana shu qonunning barcha so‘zlarini bitta qoldirmay bajarishsin (Qonunlar 31:12).

QAY TARIQA OSONROQ O‘RGANISHING MUMKIN?

Ayrimlar *eshitganlarida* yaxshi uqib olishadi. Ular o‘qituvchi nima deganini eshitishadi, so‘ngra esa uning aytganlarini esga olishadi.

Boshqalarda esa *ko‘rish xotirasi* rivojlangan. Ular o‘qituvchini eshitishadi, ammo so‘zlarni qog‘ozda ko‘rganlarida yaxshiroq eslab qolishadi. (Mana nima uchun talabalar ma’ruzalarni yozib olishadi: ular ular ma’lumotlarni *ko‘rib eshitganlarida* darsni xotiralarida yaxshi saqlab qolishadi.

Ayrim yoshlar darsni eslab qolishlari uchun ularga *ovoz chiqarib o‘qib berish* kerak. Agar ular darsni o‘zlari takrorlab ayta olsalar, yodda saqlab qolishlari oson kechadi.

Ba’zilar *amaliyot*da ko‘proq o‘rganishadi. Ular bilimlardan foydalangan holda mustaqil nimadir qilishlari kerak.Ular doimo harakatda bo‘lishadi va bilimlarni tajribadan o‘tkazishga sabrlari yetmasligi mumkin.

Bilasanmi nima? Sen qay tarzda o‘qimagin, Muqaddas Kitob sen uchun yaratilgan. Xudo Musoga O‘z amrlarini berganida, shuni buyurdi: “Isroil xalqiga bu qonunni baland ovoz bilan o‘qib beringlar” (Qonunlar 31:11); bu *eshituvchilar* uchun amr etilgandi. Biroq Xudo Musoga shuni ham buyurdi: “Bu so‘zlarni yozib ol” (Chiqish 34:27); bu *o‘qiydiganlar* uchun edi. So‘ngra esa isroilliklar va’da qilingan zaminga kirganlarida, Xudo ularga ikkita tog‘ yonbag‘rida yig‘ilib, Uning amrlarini qayta va qayta takrorlashlarini buyurdi (Yoshua 8:30-35); bu esa kimlardir *gapirishi* kerak bo‘lgani uchun buyurilgandi. *Biz barchamiz* – eshitamizmi, o‘qiymizmi, takrorlaymizmi yoki nimadir qilamizmi – Xudoning qonunlarini *amalda* bajarishimiz kerak. U aytadiki, “...Ular eshitib o‘rganishsin. Egangiz Xudodan qo‘rqishsin. Mana shu qonunning barcha so‘zlarini bitta qoldirmay bajarishsin” (Qonunlar 31:12).

Qanday o‘qishing muhim emas. Xudo biz barchamiz Uning Kalomini eshitishimizni istaydi. U biz barchamiz Uning Kalomini o‘qishimizni xohlaydi. U barchamiz Uning Kalomini takrorlashimizni istaydi. Biroq eng muhimi mana nima: Xudo barcha Uning Kalomini *bajarishini* istaydi – bu nafaqat xotirada yaxshiroq saqlashlari uchun, balki shuni e’tiborda tutgan holda yaxshi yashashlarini xohlaydi, ya’ni, odamlar “Egangiz Xudodan qo‘rqishsin. Mana shu qonunning barcha so‘zlarini bitta qoldirmay bajarishsin” (Qonunlar 31:12). Xudo shunday va’da qiladi: “Ularga doim yaxshilik qilishdan qochmayman. Mendan yuz o‘girib ketmasliklari uchun ularning yuraklariga Mendan qo‘rqish hissini solib qo‘yaman” (Yeremiyo 32:40).

MULOHAZA QILGIN: Sen Xudoning Kalomini e’tibor bilan *tinglaysanmi*? Sen o‘zing Kalomni *o‘qiysanmi*? Sen Kalomni *takrorlab*, muhim oyatlarni o‘rganasanmi? Sen Kalomda barcha aytilganlarni *bajarasanmi*? Xudoning Kalomini yaxshiroq o‘qish va undagilarni bajarish uchun nimalar qilishing mumkin?

IBODAT: “ Rabbim, men Sening Kalomingga amal qilmoqchiman. Meni bunga undayotganing uchun Sendan minnatdorman”.

29 AVGUST. BO‘RI UCHUN TUZOQ

Kalomdan o‘qish: Yoqub 1:12-16

Har kim o‘z ehtirosi dastidan vasvasaga duchor bo‘lib, nafs tuzog‘iga ilinadi. Keyin ehtiros homilador bo‘lib gunohni tug‘adi, gunoh esa yetilib, o‘limga olib boradi.Ey aziz birodarlarim, aldanmanglar (Yoqub 1:14-16).

BILASANMI, ESKIMOSLAR bo‘rini qanday ovlashadi?

Dastlab eskimos tig‘i nihoyatda o‘tkirlashmagunicha pichog‘ini qayraydi. So‘ngra esa tig‘ni hayvon qoniga botirib, qonni sovuqda muzlatadi. U pichoq toki qotgan qonning bir qancha qatlami bilan qoplanmagunicha bu ishni qayta-qayta qiladi.

Keyin esa u bo‘rini yoki uning izini ko‘rgan joyga boradi. U pichoqni qorga shunday ko‘madiki, faqat uning qon bilan qoplangan tig‘i tashqariga chiqib turadi. Shundan so‘ng bu yerdan ketadi. Mana shu xolos.

Bo‘ri pichoqdagi qon hidini sezib, yoqimli hid sari keladi. Pichoqni topib, qotib qolgan qonni yalay boshlaydi. Ishtaha ovqat paytida ochiladi, bo‘ri muz erib o‘tkir tig‘ ko‘rinmagunicha yanada tezroq yalay boshlaydi. Och bo‘ri tilini yaralayotganini va endi u yalayotgan qon – o‘zining qoni ekanligini payqamaydi. U qon ketishi tufayli holdan toyib, o‘lib qolmagunicha yalayveradi.

Vasvasa bizni shu kuyga soladi. Biz xuddi bo‘ri kabi biror gunohni boshlaganimizda – aldaganimizda yoki o‘g‘irlaganimizda, giyohvand moddalar iste’mol qilganimizda yoki chekkanimizda – nimadir yoqimli va xavfsiz ish qilayotganimiz haqida o‘ylaymiz. Biz gunohkorona istaklarimiz gunohkorona harakatlarga, ular esa xavf-xatar va hattoki o‘limga olib borayotganligini anglab yetmaymiz.

Seni vasvasa aldashiga yo‘l qo‘ymagin. Noto‘g‘ri qaror yoqimli va hatto jozibador ko‘rinishi mumkin, biroq u oxir-oqibat seni xarob etadi.

MULOHAZA QILGIN: Muqaddas Kitobdan bugun o‘qiladigan parchalarda o‘limga olib boradigan qanday qadamlar haqida aytiladi? Xudo gunoh qilishing uchun vasvasaga soladimi? Vasvasa qayoqdan paydo bo‘ladi? Nima deb o‘ylaysan, vasvasaga yon berib, sen biror-bir samarali natijaga erishishing mumkinmi? Nima uchun “ha” va nima uchun “yo‘q”? Vasvasaga qarshi turish uchun nima qilish kerak?

HARAKAT QIL: Vasvasaning xavfli ekanligi haqida senga eslatib turishi uchun ko‘rinadigan joyga pichoq (o‘tkir bo‘lmasin) qo‘yib qo‘ygin.

IBODAT: “Rabbim, vasvasaga qarshi turishim uchun va gunoh jozibasidan bosh tortishimga Sen yordam berishingga ishonaman”.

30 AVGUST. NOTO‘G‘RI TANLOVGA QARSHI TO‘G‘RI JAVOB

Kalomdan o‘qish: 1 Yuhanno 1: 8-2:3

Agar gunohimiz yo‘q desak, o‘zimizni o‘zimiz aldagan bo‘lamiz va bizda haqiqat bo‘lmaydi. Bordi-yu, gunohlarimizni e’tirof etsak, sodiq va adolatli bo‘lgan Xudo gunohlarimizni kechirib, bizni har qanday yomonlikdan forig‘ qiladi (1 Yuhanno 1:8-9).

YAQINDA BIR O‘SMIR do‘sti bilan mashinada sayr qildi. Ular yaqin do‘stlar bo‘lib, vaqtni birgalikda ajoyib o‘tkazishdi. To‘satdan haydovchi orqa oynadan militsiya mashinasining chirog‘ini ko‘rib qoldi. U spidometrga qaradi va yuqori tezlikda ketayotganlariga birinchi marotoba e’tibor qaratdi. U agarda o‘ziga jarima solishsa, ota-onasi bilan o‘rtasida katta muammo kelib chiqishini bilardi, shu bois, to‘xtash o‘rniga yanada tezroq hayday boshladi. Militsiya ortidan kelardi. U mashinani yon ko‘chaga burganida yana bir militsiya mashinasi turganligini ko‘rdi – endi u o‘zini jiddiy ko‘ngilsizliklar kutayotganligini tushundi.

O‘smir katta ko‘l yoniga mashinani haydab bordi-da, sakrab chiqib, suvg‘a irg‘idi. Do‘sti ham shunday qildi. Ikkalasi ham sovuq suvga sho‘ng‘ishdi. Oradan bir muddat o‘tib, do‘sti qirg‘oqqa yetib oldi, militsionerlar uni suvdan chiqarib, odeyalga o‘rashdi. Mashinani boshqargan bola esa g‘oyib bo‘ldi.

Militsiya uch kun davomida ko‘lda uning jasadini izladi. To‘rtinchi kuni uni topishdi. Har kuni bolani qidirishda qatnashgan xolasi shunday dedi: bolaning suvga o‘zini tashlashiga sabab, u o‘zining hurmati yo‘qolishini istamagan.

– Biz hamisha uning noxush vaziyatlarga tushishi kerak emasligi haqida gapirardik, – dedi ayol, – bu uning kelajagiga ta’sir qilishini aytardik. U avval hech qachon bunday noxush ahvolga tushmagandi.

Qanchalik qayg‘uli: agar bu o‘smir o‘z nohaqligini tan olib, jazoni qabul qilganida cho‘kib ketmagan bo‘lardi.

Ba’zan o‘z gunohlarimizdan qochib ketgimiz keladi. Biz noto‘g‘ri qarorga kelganimizni tan olishni xohlamaymiz, biz jazodan qo‘rqamiz. Biroq Xudo biz shu narsani bilishimizni istaydi: biz noto‘g‘ri qaror qilganimizda, Undan qochishimiz kerak emas. U shunday deydi: “Bordi-yu, gunohlarimizni e’tirof etsak, sodiq va adolatli bo‘lgan Xudo gunohlarimizni kechirib, bizni har qanday yomonlikdan forig‘ qiladi” (1 Yuhanno 1:9).

Xudo bizni kechiradi. U noto‘g‘ri qarorlarimiz hamisha javobsiz qolishiga va’da bermagan, ammo doimo bizni kechirishi va poklashini va’da qilgan.

Biz noto‘g‘ri ishlar qilganimizda, undan qochish emas, yaxshisi tavba qilish, o‘z gunohni tan olish va Xudoning kechirimini izlash lozim.

MULOHAZA QILGIN: Mabodo noto‘g‘ri ish qilib qo‘ygan bo‘lsang, bunga qanday yondashmaslik kerak? Qanday yondashish kerak? Agar biror ish qilib qo‘ygan bo‘lsang, unga javob berishdan qutulib qolgan paytlaring bo‘lganmi? Va nima yuz berdi?

IBODAT: “Rabbim, agar men o‘z gunohlarimga tavba qilsam, Sen meni har qanday nopoklikdan tozalashga va’da berganing uchun minnatdorman. Iltimos, to‘g‘ri yo‘l tutishimga yordam ber. Ammo biror noto‘g‘ri ish qilsam, Senga tezda yuzlanib, qilmishlarimni tan olish va Sendan kechirim so‘rashimga yordam ber”.

31 AVGUST. SO‘ZMA-SO‘Z

Kalomdan o‘qish: Zabur 118: 57-64

So‘zlaringni yuragimda asrayman, Toki Senga qarshi gunoh qilmayin (Zabur 118:11).

“MUQADDAS KITOB OYATLARINI O‘QISH – juda zerikarli!”

“Bu juda murakkab”.

“Men Yuhanno 3:16 bilaman, chunki bu eng asosiy oyat”.

Sening shunday gapirishingga (yoki o‘ylashingga) to‘g‘ri kelganmi? Shunday bo‘lgan, to‘g‘rimi? Kalomni o‘rganish qiyin. Buni faqat “supermasihiylar” amalga oshira oladi, to‘g‘rimi?

Bir daqiqa shoshmay tur. Quyidagi savollarga javob qaytarishga urinib ko‘rgin:

1. Sen qancha qo‘shiqni yoddan bilasan? (Kerakli javoblarni ko‘rib chiq)
   1 2 3 4 va 5 tadan ko‘p

2. Sevimli teleseriallardagi bosh qahramonlarni aytgin:

3. Qancha telefon raqamlarini yoddan bilasan (kerakli javoblarni ko‘rib chiq)?
   1 2 3 4 va 5 tadan ko‘p

Ajoyib! Bu oson savollar edi, to‘g‘rimi? Biroq nima uchun ular bunchalik oson? Negaki sen bularning hammasini yodingda tutasan!

Biror nimani yodda saqlab qolish sen o‘ylaganingdan ko‘ra oson. Sen gapirishni o‘rganishingdan avval yodlay boshlagansan. Axir aytadigan har bitta gapingni eslab qolishingga to‘g‘ri kelgan. Ehtimol, sen maktabga borishingdan avval bir necha to‘plam ertaklarni yod olgandirsan.

Nima uchun Muqaddas Kitob oyatlarini yodda saqlab qolish shunchalik qiyin? Bu ham juda oddiy. Sen do‘stingning telefon raqamini yodingda saqlab qolasan, negaki unga har kuni qo‘ng‘iroq qilasan, to‘g‘rimi? Va qo‘shiq so‘zlarini yodingda saqlaysan, negaki ularni tez-tez kuylab turasan. Agar sen bir yoki ikki hafta mobaynida har kuni qaysidir oyatni o‘qiydigan bo‘lsang, uni tezda yodlab olasan. Nima uchun bugunning o‘zida yodlab qolish uchun Muqaddas Kitobdan biror oyatni o‘zimizning kuyimizga moslab kuylashimiz mumkin emas ekan?

Xudoning Kalomini yurakda saqlab qolish sen o‘ylaganingdan ko‘ra ancha oson. Bu juda qiziqarli bo‘lishi mumkin. Yanada muhimi esa, Muqaddas Kitobni yodlash senga nima to‘g‘ri ekanligini bilish va kerakli xulosa chiqarishingga yordam beradi. Zaburchi shunday degan: “So‘zlaringni yuragimda asrayman, Toki Senga qarshi gunoh qilmayin” (Zabur 118:11).

MULOHAZA QILGIN: Sen Muqaddas Kitobdagi qancha oyatni yoddan bilasan? Ovoz chiqarib ularni takrorlagin. Muqaddas Kitobni o‘rganib olish gunoh qilmasliging uchun senga qay tariqa yordam beradi? Nima deb o‘ylaysan, sen har haftada Muqaddas Kitobdan bitta oyatni yodlay olasanmi? Nima uchun bugunning o‘zida boshlay olmaysan?

HARAKAT QIL: Bugungi oyatni yodlab qolishning oddiygina yo‘li: oyatni qog‘ozga katta harflar bilan yozgin. Oyatni toki yodlab bo‘lmaguningcha har kuni uchta so‘zdan bo‘lib-bo‘lib, hafta mobaynida har kuni ovoz chiqarib o‘qigin.

IBODAT: “Rabbim, men Sening Kalomingni o‘qib, o‘z qalbimga jo etmoqchiman. Buni qilishim uchun menga yordam ber”.

1 SENTYABR. CHUMOLIBEK VA CHUMOLIBONU

Kalomdan o‘qish: Hikmatlar 6:6-11

Ey tanbal, chumolilarga bir qara, ularning hatti-harakatlarini ko‘rib dono bo‘l (Hikmatlar 6:6)

QISH BOSHLANGANIDA Chumolibek va uning xotini, Chumolibonu o‘z omborlarida don-dunni saralab turganlarida, oldilariga chigirtka kelibdi.

– Salom, muhtaram Chumolilar, – debdi u. U hurmat ma’nosida shlyapasini ham yechgan bo‘lardi-yu, ammo chigirtkalar bosh kiyimi kiyishmasdi. – Men qanchalik qattiq ishlayotganlaringizni ko‘rayapman; balki, sizlarda ortiqcha bir qancha don qolgandir-a? – Chigirtka yo‘talgancha, tan olibdi:

– Men ochimdan o‘lay deyapman.

Er-xotin Chumolilar bir daqiqa ishdan to‘xtashibdi.

– Axir senda bizda bor kabi zahiralaring yo‘qmi – so‘rabdi Chumoli erkak.

Chigirtka ayanchli jilmayibdi:

– Bilasizmi, men yoz bo‘yi o‘tloqda kuylab yurdim. Ishlashga vaqtim yo‘q edi.

Er-xotin Chumolilar tushungan ma’noda bosh irg‘ashibdi.

– Hammasi tushunarli, – debdi Chumolibek. – Sen yoz bo‘yi kuylab yurgansan, shuning uchun qishda yeyishga hech narsang yo‘q.

Er-xotin Chumolilar endi chigirtkaga e’tibor bermay, yana o‘z ishlari bilan mashg‘ul bo‘lishibdi.

Mashhur masal asosidagi bu voqea, ishlash dangasalikdan afzal ekanligini ko‘rsatadi. Ishlash istagi – bu yaxshi. Ishlashni xohlamagan odamga qoyil qolmaslik kerak; u faqat achinishga va nafratga loyiq. Muqaddas Kitobda shunday deyilgan: “Ey tanbal, chumolilarga bir qara, ularning hatti-harakatini ko‘rib dono bo‘l. Ularning na rahbari, na nazoratchisi, na hukmdori bor. Lekin ular yozda oziq to‘plashadi, o‘rim paytida don-dun yig‘ishadi. Sen-chi, tanbal, qachongacha uxlaysan?! Qachon o‘rningdan turasan? Bir oz uxlay, bir mizg‘ib olay, yonboshlab birpas dam olay”, deysan. Shuning uchun qashshoqlik yo‘lto‘sarday, muhtojlik qaroqchiday ustingga keladi” (Hikmatlar 6:6-11).

Qattiq mehnat qilgan odam – maktabda, uyda, ishda – hurmatga va hayratlanishga munosib, negaki, Muqaddas Kitobda aniq aytilgan: ishlash – yaxshi, mehnatkash bo‘lish – to‘g‘ri va haqqoniydir.

MULOHAZA QILGIN: Sening tanishlaringdan eng mehnatkashi kim? Sen unga qoyil qolasanmi? Agar shunday bo‘lsa, nima uchun? Agar unga qoyil bo‘lmasang, buning sababi nima? Sen ko‘proq kimga o‘xshaysan (ishga munosabatda): chumoliga, chigirtkaga, shilliq qurtga yoki yo‘l o‘rtasidagi nimjon chuvalchangga? Nima uchun?

HARAKAT QIL: Bugun g‘ayrat bilan ishlaydigan biror kishini kuzatgin. Vaqt topib, senga berayotgan ibrati uchun unga minnatdorchilik bildirgin.

IBODAT: “Rabbim, mehnatsevarlikni qadrlashim va yalqovlikka berilmasligim uchun menga yordam ber”.

2 SENTYABR. OSHPAZMI, DURADGORMI YOKI BANK XODIMI?

Kalomdan o‘qish: 1 Salonikaliklar 4:11-12

...osoyishta hayot kechirishni, o‘z ishingiz bilan mashg‘ul bo‘lishni, qo‘llaringiz mehnati bilan tirikchilik qilishni o‘z oldingizga maqsad qilib qo‘ying (1 Salonikaliklar 4:11).

SENGA QACHONLARDIR shunday savol berishganmi: “Ulg‘ayganingda kim bo‘lmoqchisan?”

Harqalay, ko‘p bora eshitgansan, to‘g‘rimi? Sen tez-tez bu savolni eshitganingda, o‘ylab o‘tirmasdan javob qaytargansan: “Katta odam bo‘laman!” yoki “Bo‘yi ikki metr amaki bo‘laman!”

Harholda, ulg‘ayganingda kim bo‘lib ishlashing haqida ham o‘ylab ko‘rgansan. Ehtimol, shifokor yoki pop-musiqa yulduzi bo‘lishni orzu qilgandirsan. Balki, uchuvchi, poygachi yoki yer tekislovchi mashinaning haydovchisi bo‘lging kelgandir. Balki, mashhur futbol jamoasida o‘ynashni yoki razvedkada ishlashni xohlagandirsan. Ehtimol, fermer bo‘lishni yoki ilon o‘rgatuvchi (morboz) bo‘lish istaging bordir. Balki, kinoyulduz bo‘lishni o‘z oldingga maqsad qilib qo‘ygandirsan.

Biroq hattoki sen kim bo‘lmoqchi ekanligingni aniq bilganingda ham, o‘zingga bir muhim savolni berishing kerk: *“Men ishlashni bilamanmi?”*

Ko‘plab yoshlar vaqtlarini ulg‘ayganlarida kim bo‘lishlari haqidagi orzularga berilgan holda o‘tkazishadi, ammo buning uchun hech nima qilishmaydi. Ha, ularga onalari buyruq bersa, chiqindini chiqarib tashlashadi, lekin maktabda va hattoki oliygohda o‘qib yurganlarida ham tirishqoqlik bilan izlanish va ishni oxirigacha bajarish ko‘nikmasini o‘zlashtirisholmaydi.

Albatta, yaqin kelajakda o‘z ta’minoting uchun ishlash tashvishi sening yelkangga tushmaydi. Hozircha senda saboq olish uchun vaqting bor – maktabda, uyda va hattoki jamoatda. Ishlashni o‘rganishing uchun bu vaqtdan foydalan. Xudoning amrlarini halol va qunt bilan bajargin. (Qarang: Efesliklar 4:28; 1 Salonikaliklar 4:11; 2 Salonikaliklar 3:12.) Keyingi safar uy vazifasini bajarganingda yoki onangga uy ishlarida yordam berganingda bu haqda yodingda tut.

MULOHAZA QILGIN: Yuqorida qayd etilgan kasblardan qaysi biri seni qiziqtiradi? Ular orasida bo‘lmasa, qaysi kasb senga yoqadi? Nima deb o‘ylaysan, bu haqda o‘ylab ko‘rishning vaqti kelmadimi?

“Ishda dangasa bo‘lgan odam buzg‘unchiga og‘aynidir” (Hikmatlar 18:9) deganlariga ishonasanmi? Nima uchun “ha” va nima uchun “yo‘q”? Sen ishlashni bilasanmi? Nima uchun “ha” va nima uchun “yo‘q”? Sen o‘zingni mehnatkash deya hisoblaysanmi? Nima uchun “ha” va nima uchun “yo‘q”? Sen oxirgi marta qachon chindan ham zo‘r berib mehnat qilgansan? Mehnat qilishni qanday o‘rganishing mumkin?

HARAKAT QIL: Ota-onang yoki do‘stlaringdan seni mehnatkashliging haqidagi fikrlarini so‘rab ko‘r. Bu borada o‘zingni rivojlantirish uchun ularning maslahatlarini so‘ra.

IBODAT: “Rabbim, meni O‘zing amr etganingdek, yaxshi mehnatkash bo‘lishga o‘rgat. Agar boshqalar yomon mehnatchi ekanligimni aytishsa, xafa bo‘lishimga yo‘l qo‘yma. Ishlashni o‘rganishimga yordam ber”.

3 SENTYABR. YALQOV MASIHIYLAR

Kalomdan o‘qish: 2 Salonikaliklar 3:6-12

Mana shunday odamlarga Iso Masih nomi bilan buyurib aytamizki, tinchgina o‘z ishlaringiz bilan mashg‘ul bo‘ling, nonni peshona teringiz bilan topib yeng (2 Salonikaliklar 3:12).

HAVORIY PAVLUS HAYOT BO‘LGAN QADIM DAVRLARDA Salonika nomli shahar bor edi. Biz bilamizki, Pavlus bu shahardagi masihiylarga kamida ikkita maktub yozgan, negaki ular Yangi Ahdda bayon etilgan – Salonikaliklarga Birinchi va Ikkinchi maktublar.

Salonikaliklarning jamoatida dangasalar ko‘p bo‘lganga o‘xshaydi. Ehtimol, ular hech nima qilmay, divanda o‘tirgancha seriallar tomosha qilishgan, pochta orqali turli mahsulotlarni buyurtma qilishgan yoki pishiriqlar yeyishgan. Boshqalari esa ayvonda yengil kursiga o‘tirib olib, kokteyl ichishgan, qo‘shnilari haqida g‘iybatlashishgan va yerga tuflashgan.

“Siz qayoqdan bilasiz?” – deb so‘rashing mumkin. Salonikaliklarga 2 maktubning 3-bob, 6-12-oyatlarini o‘zing o‘qib ko‘rgin.

Pavlus bu oyatlarni salonikaliklar jamoatidagi vaziyatni o‘nglash uchun yozgan. U hattoki shunday yozadi: “Birodarlar, Rabbimiz Iso Masih nomi bilan sizlarga buyuramiz: dangasalik qilayotgan, biz bergan ta’limotlarga ko‘ra yashamayotgan birodarlardan uzoqroq yuring” (2 Salonikaliklar 3:6). U so‘ngra masihiylar ushbu qoidalarga amal qilishlarini taklif etadi: “Ishlamagan tishlamaydi” (2 Salonikaliklar 3:10). Havoriy o‘z maktubidagi bu mavzuni yaqqol amr bilan yakunlaydi, ya’ni “...tinchgina o‘z ishlaringiz bilan mashg‘ul bo‘ling, nonni peshona teringiz bilan topib yeng” (2 Salonikaliklar 3:12).

Sen satrlar orasidagi ma’noni uqiy olasan, to‘g‘rimi? Bu jamoatda yalqovlik qilib, ishlamaydigan odamlar (masihiylar!) bor edi. Salonika jamoati dangasa masihiylarga to‘lib ketgandi. Pavlus shunday deydi: “Bizga bundaylar kerak emas!” Nima uchun? Negaki Xudo ishlashni amr etgan. Nega U buni buyurgan? Negaki U xayrli, halol, astoydil mehnatni qadrlaydi. Xudo tirishqoqlik bilan bajariladigan ishni qadrlar ekan, biz ham shunday bo‘lishimiz kerak, to‘g‘rimi?

MULOHAZA QILGIN: Nima deb o‘ylaysan, Pavlus nega salonikaliklarga ishlashlarini amr etadi? Senga mehnat qilishing uchun maslahat berishganmi? Nima uchun? Agar sen salonikalik masihiylardan biri bo‘lib, senga ishlashni buyurganlarida, qanday munosabat bildirgan bo‘larding? Nima uchun?

IBODAT: “Ota, men yalqovligi va bekorchiligi bilan tanilgan salonikalik masihiylardek bo‘lishni istamayman. Men mehnatkash sifatida tanilishni istayman. Sen mehnatni qanday qadrlaganing kabi, menga ishlashni va mehnatni qadrlashni o‘rgat”.

4 SENTYABR. HARAKATDAGI XUDO

Kalomdan o‘qish: Yuhanno 5:1-9, 16-17

Ular esa, Isoni Shabbat kunida bunday ishlar qilib yurgani uchun quvg‘in qila boshladilar. Ammo Iso ularga shunday dedi: - Mening Otam shu kungacha O‘z ishini qilib kelyapti, Men ham O‘z ishimni qilaman (Yuhanno 5:16-17).

ISO YASHAGAN DAVRDA din arboblari Uni va shogirdlarini shanba qoidalariga amal qilmaslikda ayblaganlarida, Iso shunday degan: “Mening Otam shu kungacha o‘z ishini qilib kelyapti, Men ham O‘z ishimni qilaman” (Yuhanno 5:17).

Ehtimol, sen bu haqda o‘ylab ko‘rmagandirsan, ammo ko‘pchilik odamlar Xudoni *ishlovchi* tariqasida tasavvur qilisholmaydi. Uni samolar uzra bulutlar ustida turganligini tasavvur qilishadi. Yoki ulkan samoviy qasrdagi taxtda o‘tirib, nima xohlasa bir barmoq qisirlatishi bilan muhayyo etadigan holatda ko‘z oldilariga keltirishadi. Yoxud yuqori qavatda yashab, pastda g‘imirlayotgan odamlarga va qayoqqadir shoshilayotgan mashinalarga yuqoridan erinchoqlik bilan nazar tashlayotgan odamga qiyoslashadi.

Umuman olganda, Xudo nima uchun ishlashi kerak ekan? Bu unga mutlaqo shart emas; Unda har qanday topshiriqlarini bajaradigan turli farishtalar bor. U doimiy ta’tilga ketishi mumkin. U barmog‘ini qisirlatib, Karib orollarida O‘ziga shaxsiy jannat yaratishi va hech nima qilmasdan umrining oxirigacha (ya’ni, juda uzoq vaqt, negaki, U abadiy!) faqat kivi yeb, limonad ichib o‘tirishi mumkin.

Ammo Iso Xudoning *ishlayotganini* aytgan. U shunday degan: “Mening Otam mehnat qilishdan to‘xtamaydi; Xudo hamisha O‘z majburiyatlarini bajaradi!” U hamisha mehnat qiladi. U – harakat Xudosi. U hattoki hech qachon uxlamaydi (qarang: Zabur 120:4).

Xudo ishlaydi, negaki Uning tabiati shunday. U – harakat Xudosi. U yalqovlikni bilmaydi. Demak, Xudo – harakat Xudosi, mehnat qiladigan Xudo ekan, ishlash – bu yaxshi; astoydil qattiq mehnat – bu yaxshi. Sening osmono‘par binolar qurishing, mashina yuvishing, ko‘cha harakatlarini boshqarishing, kompyuter dasturlarini ishlab chiqishing, gamburgerlar tayyorlashing yoki ma’ruzalar yozishing muhim emas! Xudo har qanday mehnatni qo‘llab-quvvatlaydi, negaki Uning O‘zi ham mehnat qiladi.

MULOHAZA QILGIN: Sen Xudoni biz yuqorida keltirganimiz kabi tasavvur qilganmisan (bulutlar ustida dam olayotgan, taxtda o‘tirgan va h.k.z.)? Bugungi mutolaamizdan so‘ng Xudo haqidagi tasavvuring o‘zgardimi? Nima uchun “ha” va nima uchun “yo‘q”? Nima deb o‘ylaysan, Xudoga qanday mehnat afzal?

IBODAT: “Ota, hamisha mehnat qilayotganing uchun Senga rahmat. Doimo mening ibodatlarimni eshitishga tayyor bo‘lganing va ularga javob berganing uchun Sendan minnatdorman. Iltimos, *mening* mehnatimni Senga manzur bo‘lganidek qilishim uchun menga yordam ber”.

5 SENTYABR. DONONING UZUMZORI
Kalomdan o‘qish: Hikmatlar 24:30-34
Dangasa qo‘llar qashshoqlik keltiradi, tirishqoq qo‘llar esa boylik (Hikmatlar 10:4).

KO‘P YILLAR MUQADDAM bir dono yashab o‘tgan ekan. U yerga ishlov bergan. U o‘limi arafasida oldiga uchta o‘g‘lini chaqiribdi

- O‘g‘illarim, - debdi u. – Men yaqinda o‘laman, shu bois sizlarga ba’zi gaplarni aytmoqchiman.

U bir nafas jim qolibdi. Uchta o‘g‘il diqqat bilan eshitish uchun engashibdilar.

- Uzumzorim hududida, - shivirlabdi yer egasi, - xazina ko‘mib qo‘yilgan. Chuqurroq kavlanglar, ana o‘shanda uni topasizlar.

Ota tez orada vafot etibdi, farzandlari esa qo‘llariga cho‘kich va belkurak olib, bog‘ga qarab yugurishibdi.

- Tasavvur qiling-a, biz xazinani topib olganimizda nima bo‘ladi! – deyishibdi ular bir-birlariga. – Biz nima xohlasak sotib olishimiz, ishlamasligimiz va umrimizning oxirigacha hashamatda betashvish yashashimiz mumkin.

Ular uzumzorni kavlay boshlashibdi. Ular yana va yana har kuni qazishaveribdi, qazishaveribdi. Biroq xazinani topa olishmabdi. Nihoyat, ular umidlarini uzib, qazishni to‘xtatishibdi. Ammo hafsala bilan qazilgan uzumzor shunaqangi hosib beribdiki, aka-ukalar tezda mamlakatdagi eng yaxshi uzumzorning badavlat egalariga aylanishibdi.

Ezopning ushbu masali Muqaddas Kitobdan bugun o‘qiladigan oyatlarga namuna bo‘lib xizmat qiladi: “Men dangasaning dalasidan, nodonning uzumzori yonidan o‘tdim. Ana, hamma yoq tikanzor, hamma yerda qichitqi o‘t, tosh devor ham qulab, yer bilan bitta bo‘lib yotibdi. Qarab, o‘ylab ko‘rdim, uni ko‘rib saboq oldim. “Bir oz uxlay, bir mizg‘ib olay, yonboshlab birpas dam olay”, - deydi. Shuning uchun qashshoqlik yo‘lto‘sarday, muhtojlik esa qaroqchiday ustiga keladi” (Hikmatlar 24: 30-34).

Dono mulkdorning o‘g‘illari xazina chindan ham uzumzor hududida ko‘milganini bilishdi, ammo uni qo‘lga kiritish uchun mehnat qilishlariga to‘g‘ri keldi. Shuningdek, ular halol va zo‘r berib ishlash nafaqat moddiy jabhada, balki fe’l-atvorni tarbiyalash va rohat-farog‘at borasida ham boylik keltirishini tushunib olishdi. Ehtimol, sen ham bu aka-ukalar kabi qachondir “boyib ketishni, xazina topishni” orzu qilarsan, lekin uni tayyor holida topganingdan ko‘ra, o‘z xazinangni ishlab topish, uni yaratish ko‘proq yoqimli bo‘ladi.

MULOHAZA QILGIN: Nima deb o‘ylaysan, keksa yer egasi donolarcha yo‘l tutganmi? Nima uchun “ha” va nima uchun “yo‘q”? Seningcha, o‘g‘illar oltin to‘la sandiqni topib olishsa ular uchun yaxshi bo‘larmidi? Nima uchun “ha” va nima uchun “yo‘q”? Yuqorida keltirilgan parchaga ko‘ra, zo‘r berib qilingan halol mehnat qanday boylik keltiradi?

IBODAT: “Xudoyim, men ham boshqalar qatori xazina topib, boyishni istayman”. Menga shunchaki topilgan boylikdan ko‘ra, halol va mashaqqatli mehnat bilan topilgan boylik yoqimli va foydali ekanligini tushunishim uchun yordam ber”.

6 SENTYABR. BELKURAK, SIMBA VA CHANG‘ILAR
Kalomdan o‘qish: Hikmatlar 14:20-23
Har bir mehnatdan foyda bor, quruq gap esa kambag‘allik keltiradi (Hikmatlar 14:23).

SHUNDAY O‘YIN BOR: ortiqchasini olib tashla. (Esingdami, 23 fevral kuni biz bu o‘yinni o‘ynagandik?). O‘yinchiga bir qator so‘zlar orasidan ortiqchasini olib tashlashni taklif etishadi. Tayyormisan? Kel, o‘ynaymiz.

Bu yerda nima ortiqcha?

Pichoq belkurak sanchqi qoshiq

Agar sen *belkurak* deb javob qaytargan bo‘lsang, bu holda haqsan, negaki boshqa uchta narsalar bilan sen ovqatlanasan. Albatta, mabodo sen belkurak bilan yeydigan bo‘lsang, olamdagi eng katta og‘izli bola tariqasida Ginnesning rekordlar kitobiga kirishing mumkin. Kel, yana o‘ynay qolamiz!

Bu yerda nima ortiqcha?

Matto Mark Luqo Simba

Agar sen *Simbani* tanlagan bo‘lsang, negaki u – Muqaddas Kitob Xushxabarining mualliflaridan biri emas, sen zo‘rsan! Kel, yana bir o‘ynab ko‘raylik!

Bu yerda nima ortiqcha?

Chang‘ilar suzish basketbol ish

Xo‘sh, *bu* savolga qanday javob qaytarding? Ko‘pchilik odamlar *ish* so‘zini tanlashgan bo‘lardi, ularning fikricha, boshqa qayd etilgan mashg‘ulotlar – bu ko‘ngilxushlik, ish esa – yo‘q. Biroq aslida hammasi ham shunday emas.

Ko‘rayapsanmi, *mehnat* – o‘yinga qarama-qarshi. Ish zerikarli bo‘lishi shart emas. Ko‘plab odamlar *ish vaqtida* ko‘ngil yozishadi. Ko‘plab odamlarga o‘zlarining ishlari yoqadi. Mana nima uchun Muqaddas Kitobda shunday deb yozilgan: “Har bir mehnatdan foyda bor” (Hikmatlar 14:23). Bu har qanday ish seni boy qiladi, degani emas. Bu har qanday ishdan biror-bir foyda bor, xususan, ishning o‘zidan qoniqish hissi ham bo‘ladi degan ma’noni bildiradi. Agar sen oxirgi ro‘yxatda *ish*ni belgilab qo‘ygan bo‘lsang, bu haqda yana bir bora o‘ylab, o‘z tanlovingni o‘zgartirgin.

MULOHAZA QILGIN: Sen o‘zingga huzur bag‘ishlagan biror ishni qachonlardir qilganmisan? Bu qanday ish bo‘lgandi? Hozirgi ishingni sen qay tarzda yanada qiziqarli qilishing mumkin?

IBODAT: “Rabbim, meni ishlashga o‘rgatayotganing uchun Senga rahmat. Menga “har bir mehnatdan foyda bor”ligini tushunishim uchun yordam ber. Men ..... bo‘lganimda, Senga manzur bo‘lishim uchun yordam ber”.

7 SENTYABR. IKKITA ZARUR BIRIKMA

Kalomdan o‘qish: Zabur: 31:1-6

Endi oldingda gunohimni e’tirof etdim, Aybimni yashirmay, o‘zim aytdim (Zabur 31:5).

TASAVVUR QIL, sen ko‘chadan ketib boryapsan. To‘satdan bir do‘sting uyidan zing‘illab chiqib, senga to‘qnashadi va sen yerga yiqilasan, u – esa shunday deydi:

– Men aybdor emasman. Mening o‘rnimda bo‘lganingda sen ham shunday qilgan bo‘larding.

Bu kabi izohni eshitish senga yoqqan bo‘larmidi? Jahling chiqqan bo‘lardi, to‘g‘rimi?

Taxmin qilaylikki, do‘sting shunday deydi:

– Men buni xohlamagandim.

Xo‘sh, o‘zingni bunday paytda qanday his qilasan? Bundan qoniqish hosil qilasanmi?

Harholda bunday bo‘lmasa kerak, to‘g‘rimi?

Biz xatoga yo‘l qo‘yganimizda yoki biror ishni noto‘g‘ri qilganimizda bu Xudoga yoqmaydi. Nima uchun? Negaki, bu jumlalarda, tavba qilishning ikkita zarur birikmalari yo‘q. Bilasanmi, tavbadagi bu ikkita zaruriy birikma qanaqa? Tavba qilish va kechirim.

Boshqacha qilib aytganda, agar sen nimanidir noto‘g‘ri qilib qo‘ygan bo‘lsang, o‘z harakatlaringni oqlashing kerak emas: “Men aybdor emasman!”, “U bunga loyiq edi!”. Yaxshisi, o‘z gunohiga iqror bo‘lib, shunchaki aytish kerak:

- “Men aybdorman”.
- “Men kechirim so‘rayman”.

Dovud Zabur kitobining 31-bobida mana nimalar deydi: “Endi oldingda gunohimni e’tirof etdim, Aybimni yashirmay, o‘zim aytdim: “Egam oldida itoatsizligimni bo‘ynimga olaman”. Sen esa mening gunohlarimni kechirding” (Zabur 31:5). U nimadir qilganini tushuntirishga yoki oqlashga urinmaydi. U buni yashirishga harakat qilmaydi. U nohaq ekanligini tan oladi va Xudo oldida o‘z gunohlari uchun tavba qiladi.

Bu Xudoning va shuningdek, har qanday odamning ham kechirish yo‘lidir. Oxir-oqibat, biz hammamiz adashamiz. Biz hammamiz gunoh qilganmiz. Ammo noto‘g‘ri qarorga kelganingda, yaxshisi shunday deyish lozim: “Men aybdorman. Men kechirim so‘rayman”. Sen shunday yo‘l tutganingda, kechirim uchun imkoniyat yaratasan.

MULOHAZA QILGIN: Sen qachonlardir shunday deyishing qiyin bo‘lganmi: “Men aybdorman”, “Men kechirim so‘rayman”? Nima uchun “ha” va nima uchun “yo‘q”? Keyingi safar nimadir noo‘rin ish qilmoqchi bo‘lganingda, o‘zingni qanday tutmoqchisan?

IBODAT: “Rabbim Ota, ba’zan gunohlarimni tan olib, kechirim so‘ragim kelmaydi. Iltimos, gunohlarim uchun Sendan va o‘zim zarar yetkazgan kishilardan kechirim so‘rashim va tavba qilishim uchun yordam ber”.

8 SENTYABR. BILIM VA HARAKAT

Kalomdan o‘qish: 1 Yuhanno 1:5-7

Agar biz Xudo bilan yashayapmiz deb turib, oldingiday zulmatda yashasak, yolg‘on gapirib, haqiqatga xilof ish qilgan bo‘lamiz (1 Yuhanno 1:6).

SEN MAKTABGA KELASAN, senga sinflar raqami yozilgan darslar jadvalini berishadi.

– Yo‘q, rahmat, – deysan sen o‘qituvchiga jadvalni qaytarib. – Men sinfimni o‘zim topaman.

Yoki yilning eng asosiy o‘yinini ko‘rish uchun bekatda o‘n yettinchi raqamli avtobusni kutasan. Sen yoningda o‘tirgan ayoldan so‘raysan:

– O‘n yettinchi avtobus shu yerda to‘xtaydimi?

– Yo‘q, – deydi u va ko‘chaning narigi tarafidagi bekatni ko‘rsatadi. – U o‘sha yerda to‘xtaydi.

– Rahmat, – deysan va o‘n yettinchi avtobusni shu yerda kutishda davom etaverasan.

Yoki deylik, do‘sting senga yangi bir qoyilmaqom saytni topganini aytib beradi.

– Bu MRBning mutlaqo maxfiy ta’qiqlangan sayti, – deydi u. – Sen unda qanchalik qiziqarli narsalar borligini tasavvur ham qilolmaysan! Xohlaysanmi, senga ham manzilini beraman?

Sen boshingni chayqaysan:

– Yo‘q, kerak emas! Men o‘zim o‘sha saytni topaman.

Mabodo sen o‘zingni shunaqa tutganingda g‘alati bo‘lardi, to‘g‘rimi? Sen o‘z sinfingni izlab maktab bo‘ylab yugurganingda ko‘p vaqtingni ketkazgan bo‘larding. Sen boshqa bekatda o‘n yettinchi avtobusni kutganingda, o‘yingohga bora olmasding. Va “MRBning sirli sayti”ni osongina topishing ham amri mahol. Nega? Negaki agar amal qilmasang haqiqat befoyda bo‘lib qoladi. Agar dars jadvalidan foydalanmasang, undan nima ma’no bor? Odamlardan avtobus qayerda to‘xtashini so‘rab, ularning javobiga e’tibor bermaslik bema’nilik. Va mabodo sen bu bilimlarni ishlatmasang, Xudo va Uning amrlari haqida bilishdan hech qanday foyda yo‘q.

Xudo nafaqat haqiqatni *bilishimiz*, balki unga *amal qilishimiz* uchun ham bizga nima yaxshi-yu, nima yomon ekanligi haqida xabar bergan. Agar sen nima to‘g‘riligini bilib, unga amal qilmasang, bu haqda umuman bilmaganing ma’qul. (Aslida, bu gap barcha munosabatlarga taaalluqli!) Ammo nima to‘g‘ri ekanligini bilib, unga amal qilsang, bu sening hayotingda Xudoning marhamatlari uchun joy borligidan dalolatdir.

MULOHAZA QILGIN: Haqiqatni bilish biz to‘g‘ri yo‘l tutishimizni kafolatlamaydi. Sen to‘g‘ri yo‘lni bilgan holda, baribir noto‘g‘ri ishlar qilgan vaziyatlaringni eslay olasanmi? Xudo aytadiki, biz haqiqatni bilishimiz va unga muvofiq amal qilmog‘imiz kerak.

IBODAT: “Qadrli Xudoyim, menga yaxshidan yomonni ajratishimga yordam berayotganing uchun Sendan minnatdorman. Menga nafaqat nima to‘g‘ri ekanligini bilishim uchun, balki to‘g‘ri yo‘l tutishim uchun ham yordam ber”.

9 SENTYABR. O‘Z YO‘LING

Kalomdan o‘qish: Ibtido 4:1-7

Agar sen to‘g‘ri ish qilsang, seni qabul qilmasmidim?! Bilginki, yomon ish qilsang, eshigingda gunoh poylab turadi, sherga o‘xshab tashlanib, seni o‘lja qilmoqchi bo‘ladi. Gunoh sening ustingdan hukmron bo‘lishni istaydi. Lekin sen gunohni mag‘lub qilishing kerak (Ibtido 4:7).

AYRIM QO‘SHIQLAR MASHHUR BO‘LIB KETADI va o‘z ijrochilari nomi bilan shunchalik qo‘shilib ketadiki, biz qo‘shiqni eshitganimizda darhol ular haqida gapiramiz. Misol uchun, Elvis Preslining ko‘plab mashhur qo‘shiqlari bor, ammo u bilan ko‘proq Hound Dog bog‘liq bo‘lsa kerak.

Bir qancha o‘n yillar avval Bob Xoum uchun Thank for the memories, Arita Franklin uchun esa R-E-S-P-E-C-T hamisha asosiy qo‘shiq bo‘lgan. Bizning davrlarda Boyz II Men ongimizga ko‘proq Motown Philly bilan muhrlanib qolgan. Agar Sheril Krou haqida gapirsak, ko‘pchilik darhol All I Wanna Do qo‘shig‘ini eslashadi.

Mashhur bo‘lib ketgan El Shaddai qo‘shig‘i Emi Grant nomi bilan uzviy bog‘liq. Awesome God hamisha Rich Mallinzning, Friends esa – Maykl U.Smitning asl qo‘shig‘i bo‘lib qoladi.

Barcha davrlarning va barcha xalqlarning eng mashhur xonandalaridan biri Frenk Sinatraning My Way qo‘shig‘ini hamma sevib tinglardi. Garchi u bungacha ham dong taratgan ko‘plab qo‘shiqlar kuylagan bo‘lsada, bu uning asosiy qo‘shig‘iga aylandi, negaki unda xuddi Sinatraning hayotiga xulosa qilingandi: “Men buni o‘z bilganimdek qildim! Men o‘z yo‘limdan bordim!”

Bu “Mening yo‘lim” qo‘shig‘i har bir hayotdagi bosh mavzu bo‘lishi mumkin. Biz barchamiz o‘z bilganimizdek ish tutib, o‘z yo‘limizdan borishni xohlaymiz. Hech kim bo‘ysunishni istamaydi. Biz o‘z yo‘limizdan boramiz!

Albatta, qadim qadimda aynan shunday yondashuv Qobilni noxushlikka yo‘liqtirgandi. U Xudoga o‘z bilganicha sajda qilmoqchi bo‘ldi. Xudo Hobilning qurbonligini qabul qilib, uning qurbonligini qabul qilmaganida, Qobilning jahli chiqdi. Xudo shunday dedi: “Agar sen to‘g‘ri ish qilsang, seni qabul qilmasmidim?! Bilginki, yomon ish qilsang, eshigingda gunoh poylab turadi” (Ibtido 4:7). Biroq Qobil o‘shanda Xudoni tinglab, Unga itoat etishdan bosh tortdi; u g‘azabdan ukasi Hobilni o‘ldirib qo‘ydi!

Albatta, Qobil o‘ylamay, o‘z holicha ish tutishni istagan. Va biz ham xuddi shunday qilyapmiz. Odatda biz to‘g‘ri yo‘l tutishni bilmaganimiz bois, noto‘g‘ri ishlar qilib qo‘yamiz; biz Xudoning yo‘li bilan emas, o‘z yo‘limiz bilan borishga qaror qilamiz.

Balki, My Way – Frenk Sinatraga mashhurlik olib kelgan chiroyli qo‘shiqdir, lekin u masihiyning hayotidagi bosh mavzu bo‘lolmaydi.

MULOHAZA QILGIN: O‘zing qilgan noo‘rin qarorlarni eslagin. Sen buni nima to‘g‘ri ekanligini bilmaganing uchunmi yoki o‘z bilganingcha ish tutmoqchi bo‘lganing uchun qilganmisan? Nima sababdan? Sening qaroring qayg‘uli oqibatlarga olib keldimi? Nima uchun “ha” va nima uchun “yo‘q”? Endi sen qanday yo‘ldan borasan: o‘z yo‘lingdanmi yoki Xudoning yo‘lidan?

IBODAT: “Rabbim, Sen menga to‘g‘ri yo‘lni ko‘rsatganingni bilaman, lekin ba’zan o‘z yo‘limdan yurgim keladi. Iltimos, sening yo‘lingdan yurishim uchun yordam ber, ayniqsa menda ..... vasvasa bo‘lganida”.

10 SENTYABR. PREZIDENT VA ASKAR

Kalomdan o‘qish: Luqo 16:10-12

Bizdan talab qilingan narsa ishonchli bo‘lishdir (1 Korinfliklar 4:2).

AMERIKADAGI FUQAROLAR URUSHI DAVRIDA ittifoqchilar qo‘shini askari Uilyam Skott Potomak daryosidagi muhim ko‘prikni qo‘riqlashi kerak edi. Zero, konfederatlar qo‘shini daryo sohilidagi tepaliklarda joylashgan bo‘lib, qo‘riqchilikda uxlab qolganlarni otib tashlash haqida buyruq berilgandi.

Uilyam Skott bir kecha o‘zi uchun qo‘riqchilik qilgan bo‘lsa, yana bir kechani kasal bo‘lib qolgan askar o‘rnida turdi. So‘ngra tag‘in o‘zining navbati keldi va u shu tariqa uchinchi kecha ketma-ket navbatchilikda turdi. Ertalab boshqa askar uni almashtirish uchun kelganida Uilyamninng postda uxlab yotganini ko‘rishdi – uni shu zahotiyoq otishga hukm qilishdi.

Bu askarning do‘stlari Oq Uyga borib, prezident Avraam Linkoln bilan uchrashishga erishdilar. Linkoln askar bilan bog‘liq voqeani eshitdi. Do‘stlar prezidentdan uni qutqarishini o‘tinib so‘rashdi. Prezident Skott bilan uchrashish uchun Oq Uydan chiqib ketdi.

Prezident Uilyam Skottga uni otmasliklarini aytdi; askarga o‘z polkiga qaytishiga ruxsat berildi. Shundan so‘ng Avraam Linkoln so‘ziga qo‘shimcha qildi:

– Ammo men buning evaziga menga qanday to‘lov bilan javob qaytarishingni bilmoqchiman. Men senga katta xizmat ko‘rsatdim, buning uchun faqat o‘zing to‘lov qilishing mumkin. Agar shu bugundan boshlab o‘z harbiy majburiyatlaringni lozim bo‘lganidek bajarsang, men seni bu qarzdan qutulgan deya hisoblayman.

Skott sadoqat bilan xizmat qilishga va’da berib, prezidentga kechirimi uchun minnatdorchilik bildirdi. Shundan so‘ng tez orada Uilyam Skottning polki Konfederatsiya qo‘shinlari bilan jangda ishtirok etdi va Skott og‘ir yarador bo‘ldi. Do‘stlari uni jang maydonidan olib chiqqanlarida, Skott qonga botgan holda zo‘rg‘a nafas olardi.

– Prezidentga ayting, – deya shivirladi u, – men sodiq askar bo‘lishga harakat qildim.

U Avraam Linkoln uchun ibodat qilib hayotdan ko‘z yumdi.

Linkolnning o‘zi ishtirok etgan Amerika Senati yig‘ilishida, nazmiy shaklda bayon etilgan bu voqea, bir askarning minnatdorchiligi va sadoqatini ochib beradi. Biroq bu yanada kengroq doirada sadoqatli bo‘lish qanchalik yaxshi va munosib ekanligini ko‘rsatadi.

O‘z rahbariyati tomonidan kechirilgan Uilyam Skott yalqov va majburiyatiga befarq askar bo‘lganida, bu o‘ta yomon holatga aylanardi. Nima uchun? Negaki, sadoqatning yo‘qligi – yomon. Lekin Skott o‘zini to‘g‘ri tutdi. Biz insonning sadoqatidan va o‘zini bag‘ishlagan ishlaridan xursand bo‘lamiz, negaki sadoqat askarga yoki bizga taaluqli bo‘lmasin, u yaxshi va olqishga munosibdir.

MULOHAZA QILGIN: Sen sadoqat yaxshi, xiyonat esa yomonligiga ishonasanmi? Nima uchun? Senga (xuddi Uilyam Skott kabi) ikkinchi imkoniyat berishganmi? Agar shunday bo‘lsa, sen shundan so‘ng sadoqatli va ishonchga munosib bo‘lishga uringanmisan? Nega?

IBODAT: “Ota, menga sadoqat qanchalik yaxshi ekanligini eslatib turganing uchun Sendan minnatdorman. Senga va menga tayanadigan odamlarga sadoqatli bo‘lishim uchun yordam ber”.

11 SENTYABR. TUYANI YUTIB YUBORGAN

Kalomdan o‘qish: Matto 23:23-24, 37

Holingizga voy... qonunning adolat, shafqat va imon kabi eng muhim ta’limotlarini pisand qilmaysizlar (Matto 23:23).

Iso Uni tinglamoqchi bo‘lgan olomonga qaradi. U olomon orasida popuk kiyimli, toshdek qiyofali odamlarni ko‘rdi. Iso bu odamlarni bilardi; ular turli diniy qonunlar va qarorlarni bajarishidan o‘ta mag‘rurlanib yuradigan farziylar, nufuzli ruhoniylar edi. Ular bexos mayda pashshalarni yutib yubormaslik va shu tariqa tirik mavjudotlar uchun harom taomlar to‘g‘risidagi yahudiylar qonunini buzmaslik uchun suvni qultumlab ichishardi.

Biroq Isoga ularning harakatlari ta’sir qilmadi. Aksincha, Uning farziylardan jahli chiqdi, negaki, garchi ular ovqatlanishdan avval va shanba kunida mayda-chuyda qoidalarga rioya etishsada, bag‘ritosh, yomon kishilar bo‘lib, boshqa gunohlar sodir etishgandi.

– Holingizga voy, – dedi Iso bevosita farziylarga murojaat qilib. U farziylarga hattoki eng kichik foydaning ham Xudoga berish haqidagi qoidasini eslatdi, ayni vaqtda esa ular odamlar bilan adolatsiz, ikkiyuzlamachilik bilan,

imon-e’tiqodsiz tarzda munosabatda bo‘lishardi. “Ey ulamoyu farziylar, siz munofiqlarning holiga voy! Sizlar yalpiz, arpabodiyon va zira qatori oshko‘kdan ushr berib turasiz-u, lekin Ilohiy Buyruqning nihoyatda muhim amrlari bo‘lgan haqqoniyat, marhamat va sadoqatga esa e’tibor bermay qo‘ydingizlar. Bularning birini bajara turib, ikkinchisini ham tashlab qo‘ymasligingiz kerak edi” (Matto 23:23). Boshqacha qilib aytganda, Iso ushbuni nazarda tutgan: “Agar sen Xudoning adolat, mehr-shafqat va imon kabi muhim qoidalariga amal qilmasang, Unga mayda-chuydalar masalasida itoat qilishing hech qanday ma’noga ega emas”.

Iso Xudo eng avvalo O‘z halqidan sadoqatni kutishi haqida aniq qilib aytgan. U bizning sadoqatli bo‘lishimizni istaydi; U bizga buni amr etgan. U bizning Unga, oilamizga, do‘stlarimizga va masihiy birodarlarimizga sadoqatni saqlashimizni xohlaydi. U kimki bizga tayansa, o‘shanga sodiq bo‘lishimizni istaydi. Nega? Negaki, sadoqat, Iso aytganidek “eng muhim qonundir”. Agar biz sadoqatsiz bo‘lsak, Xudoga bo‘ysunmaymiz. Mana shu bois Xudo bizga sodiq bo‘lishimizni amr etgan.

MULOHAZA QILGIN: Sen o‘zingni sadoqatli inson deya hisoblaysanmi? Sen Xudoga sodiqmisan? O‘z oilanggachi? Boshqa masihiylarga sadoqatlimisan? Sening sadoqating harakatlaringda aks etadimi? Agar sen biror masalada sadoqatsizlik qilgan bo‘lsang, Xudodan va xiyonating jabrlagan yoki umidsizlikka tushirgan o‘sha odamdan kechirim so‘raganmisan?

IBODAT: “Rabbim, Sen menga sadoqatli bo‘lishni buyurasan, ammo men hamisha ham sodiq bo‘lmaganman. Men o‘z sadoqatsizligim uchun sendan kechirim so‘rayman. O‘z yordaming bilan yanada sodiq bo‘lishimga ko‘maklashgin”.

12 SENTYABR. VAFODOR KOSTYA

Kalomdan o‘qish: 1 Shohlar 2:27-35

Mening xohish-irodamni amalga oshiradigan sadoqatli bir ruhoniyni O‘zim uchun tayin etaman, u ko‘nglimdagiday xizmat qiladi (1 Shohlar 2:35).

KOSTYA YOSH BOLA EDI va bobosini yaxshi ko‘rardi. Ayniqsa, bobosi uy ishlarida yordamlashishi uchun ruxsat berganida mehri yanada ortib ketardi. Bir kuni Kostya bobosi bilan garajda ishladi. Ular bobosi asbob-uskunalarni ilishi uchun devorga ilmoqli taxtani qotirishdi.

Ular devorga taxtani o‘rnatayotgan paytda bobosi nima kerakligini eslab qoldi.

- Kostya, sen uni biroz ushlab turolasanmi? – deb so‘radi u. – Men oshxonadagi stol ustida parmadastani unutib qoldiribman.

- Albatta, -dedi Kostya jilmayib, - men ushlab turaman.

Bobosi Kostyaga im qoqib, uy sari shoshildi. U mehmonxona orqali o‘tib, oshxona stoli ustidan elektrparmalagichni oldi. U qaytayotib, futbol o‘yini berilayotgan televizorga qarab qoldi. Ayni shu vaqtda bobosining sevimli jamoasi hujumga o‘tayotgandi. Bobosi tabassum bilan hujumchi ishonch bilan himoyachilarni birin-ketin aldab o‘tib, darvozaga yaqinlashayotganini kuzatib turdi. U to‘satdan Kostyani og‘ir taxtani ko‘targan holda tashlab kelganini eslab qoldi.

Bobo imkon qadar tezlik bilan garajga yugurib keldi. Kostya og‘irlikdan bukchaygan holda ikki qo‘li bilan taxtani ushlab turardi. Yonoqlaridan ko‘z yoshlari oqardi, negaki charchagan qo‘llari zirqirab og‘rirdi.

- Kostya!- hayqirdi bobo bolaning qo‘lidan taxtani ola turib. – Ushlanib qolganim uchun kechir.

Kostya ko‘z yoshlari orasidan jilmaydi:

- Hammasi joyida, bobojon, - u taxtani qo‘yvorib, qotib qolgan mushaklarini harakatlantira boshladi. – Axir, men uni tushirib yubormadimmi? Men uni tushirib yubormadim!

- Eh, Kostya, - bobo futbol o‘yiniga chalg‘ib ketgani uchun o‘zini xayolan tergagan holda, mayin ovozda gapirdi. - Sen uni tashlab yuborsang ham bo‘lardi, hech qanday yomon tomoni yo‘q edi buni.

- Men uni tushirib yuborishni istamadim, bobojon, - dedi Kostya. – Va men uni ushlab turdim, to‘g‘rimi?

- To‘g‘ri, - dedi bobo taxtani bir chetga qo‘yib, nevarasini bag‘riga bosgancha. – Sen uni ushlab turding.

MULOHAZA QILGIN: Kostyaning harakati hurmat uyg‘otadi, to‘g‘rimi? Nima uchun? Nima deb o‘ylaysan, bobo Kostyaning sadoqatini qadrladimi? Nima uchun “ha” va nima uchun “yo‘q”? Nima deb o‘ylaysan, Xudo sadoqatni qadrlaydimi? Nima uchun “ha” va nima uchun “yo‘q”? Nima deb o‘ylaysan, Muqaddas Kitobdan bugun o‘qiladigan oyatlar Xudo sadoqatni sevishini qayd etadimi? Agar javobing ha bo‘lsa, aynan nimadan?

IBODAT: “Rabbim, Kostyaning bobosi nevarasining sadoqatini qadrlagani kabi, Sen ham sadoqatni qadrlashingni bilaman. Menga Muqaddas Kitobdan bugun o‘qiladigan oyatlardagi sadoqatsiz ruhoniylar kabi emas, balki xuddi Kostya kabi bo‘lishimga yordam ber”,

13 SENTYABR. IZLAR

Kalomdan o‘qish: Zabur 145:1-6

Yoqubning Xudosini madadkorim deb aytganlar baxtlidir. O‘zlarining Egasi Xudodan umid qilganlar baxtlidir. Ha, Yoqubning Xudosi Osmonni, yerni hamda dengizni yaratgan. Dengizu undagi hamma jonzotni U yaratgan, U to abad sodiq bo‘lib qoladi (Zabur 145:5-6).

EHTIMOL, siz “Izlar” nomli she’rni o‘qigandirsiz yoki eshitgandirsiz. U minglab odamlar uchun marhamat bo‘lgan, balki Yigirma ikkinchi oyatdan boshqa har qanday ijod asaridan ortiqroq ham bo‘lsa kerak.

“Izlar” – bu, o‘z hayoti haqida tush ko‘radigan bir inson haqidagi voqeadir. U tushida qumli sohil bo‘ylab yurib, qumda izlarini qoldiradi. U tez-tez o‘zining izlari bilan yonma-yon boshqa bir izlar zanjirini ham payqab qoladi. U ikkinchi izlar zanjiri Xudoga tegishli ekanligini tushunadi.

U diqqat bilan qarab, ba’zan izlar zanjiri faqat bitta ekanligini ko‘radi. Shuningdek, u hayotining og‘ir va dilgir davrlari aynan shu tariqa o‘tganligiga e’tibor qaratadi.

U sohilda bu izlarga qarab turgancha, yuragida qayg‘uni his etadi.

- Rabbim, - deydi u, - Sen hamisha men bilan birga bo‘lishni va’da qilganding. Sen hech qachon meni tashlab ketmasligingni aytganding. Biroq hayotimning eng og‘ir paytlarida yolg‘iz bo‘lganligimni ko‘rib turibman! Tushunmayman, nega Sen menga aynan ko‘proq kerak bo‘lganingda, meni tashlab ketding!

Xudo shunday javob qaytaradi:

- Bolaginam, Men seni yaxshi ko‘raman va seni hech qachon tashlab ketmaganman. Ayrim joylarda izlar zanjiri faqat bitta, negaki eng og‘ir damlarda Men seni qo‘limda ko‘tarib borganman!

Xudoning sadoqati haqida qanday ajoyib tasvir! U – “to abad sodiq” (Zabur 145:6) Xudo. U shunday deydi: “Seni tark etmayman, hech qachon tashlab ketmayman” (Yoshua 1:5). Uning barcha ishlari ishonchlidir” (Zabur 32:4).

Mana nima uchun Xudo sadoqatni qadrlaydi va bizga sadoqatli bo‘lishimizni amr etadi – negaki, Uning O‘zi sadoqatlidir. U – sadoqatli Xudo. U – sodiq do‘st. U – sadoqatli Ota, negaki, sadoqat – Xudo tabiatining bir qismidir.

Va nihoyat, mana nima uchun sadoqat yaxshi, xiyonat esa yomon: negaki Xudo sadoqatlidir. Sen sadoqatli bo‘lganingda, to‘g‘ri harakat qilasan va Xudoning siymosini aks ettirasan.

MULOHAZA QILGIN: Xudo nima uchun sadoqatli bo‘lishni buyurgan? Xudo nima uchun sadoqatni qadrlaydi? Nima uchun sadoqatli bo‘lish yaxshi? Yahudiylarga maktubning 13-bob, 5-oyatida Xudoning va’dasi keltirilgan: “Sizlarni tashlab ketmayman, sizlarni tark etmayman”. Ushbu va’da sen uchun nimani anglatadi?

HARAKAT QIL: Yahudiylarga maktubning 13-bob, 5-oyatini o‘qib, yozib olgin. Bu oyatni yodlab olishga harakat qil. Sen qachonlardir “Izlar” she’rini o‘qiganmisan? Agar o‘qimagan bo‘lsang, topib o‘qigin.

IBODAT: “Sadoqatli Xudo, hech qachon meni tashlab ketmaslik haqida va’dang uchun Senga rahmat. Sadoqating uchun Sendan minnatdorman. Men nimaiki qilmay, barcha masalada Sen kabi sadoqatli bo‘lishim uchun menga yordam ber”.

14 SENTYABR. KICHKINA QAHRAMON

Kalomdan o‘qish: Hikmatlar 28:14-20

Sodiq kishi ko‘p baraka topadi, boyishga shoshilgan jazosiz qolmaydi (Hikmatlar 28:20).

QACHONLARDIR GOLLANDIYADA Peter ismli bolakay yashagandi. Gollandiya – ko‘plab kanal va daryolar mamlakati. Bu mamlakat odamlari Shimoliy dengiz ularning dala va uylarini suv bosmasligi uchun katta to‘g‘onlar qurishadi.

Kunlardan birida Peterning onasi uni tanishlariga pirog eltib berishi uchun jo‘natdi.

– Agar sen o‘ynash uchun to‘xtab, chalg‘ib qolmasang, kech tushmasdan uyga qaytasan, - dedi onasi.

Peter pirogni eltib berib, uyiga qayta boshladi. U qaytayotib bir dahshatli hodisaga ko‘zi tushdi: to‘g‘onlardan birida yoriq paydo bo‘lgandi. Undan suv sizib oqardi. Agar suvni to‘xtatmasa, u yoriqni yuvib o‘tib, tashqariga chiqishi va uy hamda ekinlarni bosib ketishi mumkin edi.

Peter to‘g‘onga chiqib olib, barmog‘i bilan kichkina yoriqni berkitdi. Suv sizib o‘tishdan to‘xtadi. Lekin endi nima qilish kerak? Peter suv tag‘in sizib oqmasligi uchun barmog‘ini chiqarib olmasdi. U yordam so‘rashga urindi, biroq bolaning ovozini hech kim eshitmadi. Qorong‘i tusha boshladi, Peter sovuqdan qaltiray boshladi. U yana yordamga chaqirdi, ammo hech kim uning ovozini bu safar ham eshitmadi.

“Agar qorong‘i tushguncha uyga qaytmasam, - dedi u o‘z-o‘ziga, - onam meni izlab keladi”. Biroq Peterning onasi uni tanishining uyida qolgan degan xayolga bordi va uyga qaytmagani uchun ertalab boplab so‘kmoqchi bo‘ldi.

Sovuq tobora zo‘rayib borardi, Peterning qo‘li og‘riy boshladi. Avval u yig‘ladi va so‘ngra yig‘ini bas qildi. “Men suvni to‘xtatib turishim kerak, - deya o‘ylardi u. – Men ota-onamni va do‘stlarimni qutqarishim kerak. Hattoki butun tun bo‘yi shu yerda qolishimga to‘g‘ri kelsa ham, suvni o‘tkazmasligim kerak”.

Peter butun tun bo‘yi barmog‘ini yoriqqa tiqqanicha turdi. Tong saharda bir kishi shu yerdan ishga shoshilib o‘tayotgandi. U ingragan tovushni eshitib to‘xtadi.

- Sen bu yerda nima qilyapsan? – deya so‘radi u Peterdan.
- Dambada yoriq bor! – dedi Peter. – Iltimos, yordam chaqiring! Tezroq!

O‘sha odam odamlarni yordamga chaqirdi, Peterning qo‘shnilari belkurak va loy keltirib, yoriqni yamadilar. Butun shahar Peterga odamlarni va uylarini qutqargani uchun minnatdorchilik bildirdi. Shu tunda xavfsiz issiqqina ko‘rpalarda uxlagan boshqa bolalar esa Peter qilgan ishni bajarishni istashardi. Ana shundan buyon Peterni Gollandiyada qahramon deya hisoblaydilar.

MULOHAZA QILGIN: Peter ota-onasi va do‘stlariga qanday foyda keltirdi? Sen Peter kabi sodiq bo‘lishing mumkinmi? Qay tariqa? Nima deb o‘ylaysan, Xudoga va boshqa odamlarga sadoqat senga marhamat olib keladimi? Nima uchun “ha” va nima uchun “yo‘q”?

IBODAT: “Rabbim, sadoqatli odam marhamatlanishini eslashimga yordam ber. Har kuni ana shunday inson bo‘lishim uchun ko‘maklash”.

15 SENTYABR. ISHONCH SINOVI

Kalomdan o‘qish: Naximiyo 13:11-14

Sen yaxshi va ishonchli xizmatkorsan!... Kichik ishda ishonchimni oqlaganing uchun senga katta ishlarni ishonib topshiraman. Kel, mening xursandchiligimga sherik bo‘l (Matto 25:21).

AYTAYLIK, sen dam olish kunlari do‘stingning uyiga mehmonga borishing uchun singlingdan iguanaga qarab turishini so‘ragansan. Uyga qaytganingda esa, iguananing qafasi bo‘sh bo‘ladi, singling esa barcha savollaringga shunday javob qaytaradi: “Bilmayman!” Sen:

A) singlingdan ikki haftaga lagerga ketayotganingda, noyob kaltakesaging uchun qarashib turishini so‘raysanmi?
B) unga boshqa hech qachon o‘z jonivorlaringni ishonib topshirmaysanmi?
V) militsiyaga qo‘ng‘iroq qilib, iguanangni o‘g‘irlaganlikda singlingni ayblaysanmi?

Deylik, sen do‘stingga kichkintoylik davringda tushirilgan fotosuratni ko‘rsatasan (unda sen butunlay yalang‘och tushgansan). Oradan uch kun vaqt o‘tib, sen uni maktabdagi barcha e’lon taxtalariga osib tashlaganini ko‘rasan. Sen:

A) do‘stingga bundan ham ko‘proq uyatli holatda tushgan fotosuratingni ko‘rsatasanmi?
B) unga boshqa hech qachon o‘z fotosuratlaringni ko‘rsatmaysanmi?
V) uning yelkasiga bildirmay “Orqamga tep!” degan yozuvni ilib qo‘yasanmi?

Aytaylik, sen do‘stingga asrab turishi uchun yuz so‘m pul berding. Lekin u bu pullarni konfetlarga sarf qilib yuboribdi. Sen:

A) unga asrab turishi uchun boshqa pul bermaysanmi?
B) asrab turishi uchun yana pul berasanmi?
V) do‘stingga: “Xo‘sh, menga yuz so‘mimni foizlari bilan qaytar!” - deb aytasanmi?

Agar sen “B” javobini tanlagan bo‘lsang, demak, kelajakda o‘sha insonga - opa-singil, aka-uka yoki kimki bo‘lmasin – ishonching yo‘lida sadoqat senga hamrohing bo‘ladi. Mabodo sen barcha holatlarda “V” javobini tanlagan bo‘lsang, o‘z zararli fe’l-atvoringni o‘zgartirishingga to‘g‘ri keladi. Sadoqatsiz odamga esa sen o‘z kelajagingni ishonib topshirib qo‘ymaysan.

Buni bizga sog‘lom aqlimiz aytib turadi, to‘g‘rimi? Inson ishonchli bo‘lganida, unga osongina tayanish mumkin; ishonchsiz bo‘lganida esa bu juda qiyin. Xudoning amrlari ham Unga biz haqimizda g‘amxo‘rlik qilishiga va bizni himoya etishiga yordam beradi. U bizga sodiq bo‘lishimizni buyurgan, negaki vafodorlik yaxshi; biz sadoqatli bo‘lganimizda, boshqa odamlar bizga ishonib, hurmat qilishadi. Mana nima uchun – xuddi Xudo kabi – sadoqatli bo‘lish yaxshi!

MULOHAZA QILGIN: Muqaddas Kitobdan bugun o‘qiladigan oyatlarda (Naximiyo 13:11-14) Naximiyo ma’bad omborxonalarini qo‘riqlash uchun nega Shalamiyoni, Zodo‘xni, Podiyoni va Xanonni tanlab olgani hikoya qilinadi. Nega u bu odamlarni tanladi? Sen sadoqat ko‘rsatib, kimningdir ishonchini qozonganmisan? Agar shunday bo‘lmasa, nima uchun? Agar shunday bo‘lsa, o‘tmishdagi sadoqating uchun senga ishonadigan odamlarni sanab o‘t.

IBODAT: “Samoviy Ota, odamlar menga ishonishlarini va men ularning ishonchiga munosib ekanligimni bilishlarini istayman. Senga va boshqalarga sadoqatli bo‘lishim uchun yordam ber”.

16 SENTYABR. LONDONNING SABOG‘I

Kalomdan o‘qish: Zabur 30:22-25

Ey Egamizning taqvodorlari, Uni seving!
Unga sodiq bo‘lganlarni Egamiz himoya qiladi,
Takabburlarga to‘liq jazo beradi.
Bardam bo‘ling, dadil bo‘lsin yuragingiz,
Ey siz, Egamizdan umid qilganlar (Zabur 30: 24-25).

Londondagi MUQADDAS PAVLUS SOBORI 1710 yilda qurilgan. Bu dunyodagi eng ajoyib va eng go‘zal jamoatlardan biri bo‘lib, ingliz markaziy sobori hisoblanadi.

Ikkinchi jahon urushi davrida Adolf Gitler va natsistlar Germaniyasi Yevropaning katta qismini zabt etganlarida, London german aviatsiyasi – Lyuftvaffe samolyotlarining doimiy hujumlari ostida “qamalda qolgan

shaharday” (Zabur 30:22) edi. 1940-yilning may oyidan toki 1941-yilning may oyiga qadar nemis samolyotlari Londonni va boshqa ingliz shaharlarini deyarli har kecha bombardimon qilishardi.

Londonning katta qismi bu oylar mobaynida goh bombalar, goh yong‘inlar oqibatida vayronaga aylangandi. Nemislar Londonning Siti deb nomlanuvchi hududini ko‘proq bombardimon qilishdi. Muqaddas Pavlus sobori Siti markazining yaqinida joylashgandi.

Gitlerchilar aviatsiyasining Londonda uyushtirgan vayronalari orasida soborning vazmin qubbalari yarqirab ko‘rinardi. Chor-atrofda portlashlar va yong‘in quturardi, Muqaddas Pavlus sobori esa (garchi shikastlangan bo‘lsada) vayronaga aylanmagandi. Mabodo sen Londonga borsang, uning mag‘rur aholisi senga sobor devorlaridagi oskolkalar izini ko‘rsatishadi – bombalar soborning yonginasida portlasada, uni vayron qilolmagan.

Pavlus soborining qirg‘inbarot urushda ham saqlanib qolganligi Xudo O‘ziga ishonganlar uchun qanchalik ko‘p iishlar qilishi mumkinligini ko‘rsatadi. Atrofingda, hatto *ichingda* ham urush avj olishi mumkin. U senda chandiqlar qoldirishi mumkin. Sen yong‘inlar va bo‘ronlarga duch kelishing mumkin. Biroq Muqaddas Kitob bizga aytadiki, “Egamiz Unga sodiq bo‘lganlarni himoya qiladi... Bardam bo‘ling, dadil bo‘lsin yuragingiz, Ey siz, Egamizdan umid qilganlar” (Zabur 30:24-25). Unga hamisha sadoqatli bo‘ling, negaki U sizga doimo sadoqatli bo‘ladi.

MULOHAZA QILGIN: Muqaddas Kitobdan bugun o‘qiladigan oyatlarlda Xudo “Unga sodiq bo‘lganlarni himoya qiladi”, deyilgan. Nima deb o‘ylaysan, agar sen Unga sodiq bo‘lsang, bu senda hech qachon muammo bo‘lmasligini anglatadimi? Bu sen hech qachon qayg‘uga botmasligingni anglatadimi? Agar bu ikkala savolga ham “yo‘q” deb javob bergan bo‘lsang, bu holda ushbu jumlalar qanday ma’noga ega? Xudoning sadoqati senda Unga nisbatan sadoqatli bo‘lish hissini uyg‘otadimi? Nima uchun?

IBODAT:”Rabbim, menga sadoqatli bo‘lishga va’da berganing uchun Sendan minnatdorman. Menga sadoqatning marhamatini his qilishim uchun yordam ber. Iltimos, vasvasalar va mashaqqatlarga qaramay, sadoqatni asrashim uchun menga ko‘mak bergin”.

17 SENTYABR. GULXAN YOQ
Kalomdan o‘qish: 2 Timo‘tiy 1:3-6
Ichingdagi... Muqaddas Ruh in’omini alangalatib tur (2 Timo‘tiy 1:6).

Daraxt, buta, quruq o‘t va yonishi mumkin bo‘lgan boshqa narsalardan ancha uzoqlikdagi ochiq yerda, qumda yoki shag‘al ustida joy tanlagin... Gulxan yoqiladigan joyni quruq yergacha tozala, atrofdagi yonishi mumkin bo‘lgan hamma narsani yo‘qot...

Senga *shox-shabbalar* kerak bo‘ladi. Gulxan yoqish uchun tez yonadigan biror narsadan foydalan: daraxt ildizining bo‘lagini, quruq ignabarglarni, quruq o‘tni, ayrim urug‘larning po‘stlog‘ini... Shuningdek, senga qalamdan yo‘g‘on bo‘lmagan quruq butoqlar kerak bo‘ladi. Ularni bosh kiyimingga ikki marta to‘ladigan darajada yig‘ib ol. Bundan tashqari, barmoqdan kichik bo‘lmagan va qo‘ldan katta bo‘lmagan darajadagi quruq butoqchalarni to‘pla. Ularni yer bo‘ylab izla...

Barcha bu yonuvchilarni gulxan yoqishdan avval to‘plagin... Gulxan yoqiladigan joy markazida ildizlar, ignabarglar yoki o‘tlar uyumini hosil qilgin. Uning atrofida butoqchalarni yoyib chiq. Ular atrofida esa yanada qalinroq butoqlar bo‘lsin. Butoqlar shu tariqa qo‘yilsinki, olovga har tomondan havo o‘tadigan bo‘lsin. Gulxan markaziga o‘tadigan yoriqlik bo‘lishi kerak.

Olov yoqish uchun bu yoriqning qarama qarshisida turib gugurtni chaqib yubor. Gugurt yonganida to‘plangan uyumning o‘rtasiga olib bor. Avval quruq ildizlar yona boshlaydi, so‘ngra esa olov butoqchalarga o‘tadi”. (Bu “Yosh qidiruvchining darsligi”dagi gulxan yoqish bo‘yicha qo‘llanmadan olingan).

Oddiygina lager gulxanini yoqish unchalik ham oson emas, to‘g‘rimi? Biroq bilasanmi nima? Bu qo‘llanmalarning barchasiga amal qilish zarur. Agar sen qo‘l kattaligidagi xoda bilan gulxan yoqmoqchi bo‘lsang, tezda hafsalang pir bo‘lishi aniq. Ammo sen “Yosh skautning darsligi”da aytilganidek yo‘l tutsang, keyinchalik gulxanga kattaroq o‘tinlarni, hattoki daraxtning quruq tanasini ham tashlashing mumkin.

Sen ezgulikni yovuzlikdan ajratishni o‘rganayotganingda ham, xuddi shunday bo‘ladi. Birinchi qadamlar muhim. Quruq butoqchalar va ildizlarni to‘g‘ri tanlab olish – bu Muqaddas Kitobni o‘qish va ibodatdir. Agar sen Muqaddas Kitobni o‘qimay va Xudo bilan birgalikda vaqt o‘tkazmay to‘g‘ri yo‘l tutmoqchi bo‘lsang, sening gulxaning yonmay qoladi. Biroq sen har kuni Xudo bilan (ibodat orqali) muloqotda bo‘lsang va Uning sen bilan (Muqaddas Kitob orqali) gaplashishiga ijozat bersang, bu holda xuddi yonilg‘i gulxanni o‘t oldirganidek, sen ham o‘z ruhingni quvvatlantirishing mumkin. Shunda sen hayotda to‘g‘ri yo‘l tutgan bo‘lasan – gulxan yonadi!

MULOHAZA QILGIN: Nima deb o‘ylaysan, Muqaddas Kitobni o‘qimagan holda va Xudo bilan muloqot qilmay turib to‘g‘ri qaror qabul qilish mumkinmi? Agar shunday bo‘lsa, qanday qilib? Agar yo‘q bo‘lsa, nima uchun? Sen Muqaddas Kitobni o‘qish va har kunlik ibodatlaring chog‘ida ko‘nikmalar ortirishga tayyormisan? Agar shunday bo‘lsa, sen kunning qaysi pallasini Muqaddas Kitobni o‘qish va ibodat qilish uchun ajratasan? Sen buni qayerda amalga oshirasan? (Seni bezovta qilishmaydigan sokin, tanho biror joyni tanlagin).

IBODAT: “Haqgo‘y Rabbim, shox-shabbalar gulxanni o‘t oldirganidek, ruhimni quvvatlanishi uchun yordam ber, toki men Sening yordaming bilan to‘g‘ri qaror qabul qilay va nimaiki qilmay, barchasida Senga manzur bo‘layin”.

18 SENTYABR. SASHANING TAKTIKASI

Kalomdan o‘qish: 1 Butrus 3:8-12

Xullas, o‘zaro hamfikr, hamdard bo‘linglar, bir-biringizni birodarlarcha yaxshi ko‘ringlar, mehr-shafqatli va kamtar bo‘linglar (1 Butrus 3:8).

Bir vaqtlar Sasha ismli bolakay yashagandi. Kunlardan birida o‘qituvchisi uni matematikadan vazifani bajarish uchun doskaga chiqardi: 2 + 2 = ___. Sasha qo‘liga bo‘rni olib yozdi: 5. O‘qituvchi javobning noto‘g‘ri ekanligini aytdi, Lekin Sasha boshini baland ko‘tarib shunday dedi:

- Balki siz uchun bu noto‘g‘ridir, ammo men uchun – to‘g‘ri! Men ikkiga ikkini qo‘shsa besh bo‘ladi, deb aytaman.

Shundan so‘ng Sasha tanaffus paytida o‘ynadi. Kichkina qizaloq katta tepalikdan pastga sirg‘anib tushish uchun undan oldinda navbatda turardi. Sasha qizaloqni shunday turtib yubordiki, u loyga yiqilib tushdi, Sasha esa uning o‘rnini egalladi.

- Sasha, - dedi o‘qituvchisi, - sen mehribonroq bo‘lishing kerak. Axir bag‘ritoshlik yomon ekanligini bilmaysanmi?

Lekin Sasha faqat kulib qo‘ydi:

- Ehtimol, siz uchun yomondir, ammo men uchun yaxshi. Men mehribon bo‘lish noto‘g‘ri, qahri qattiq bo‘lish to‘g‘ri ekanligini aytaman.

Sasha chorakning oxirigacha o‘zini shunday tutdi, mashg‘ulotlarning oxirgi kunida esa o‘qituvchi ayol uni bir chetga tortdi.

- Men senga bu chorakdagi baholaringni ko‘rsatmoqchiman.

Muallima jilmaygan holda Sashaga baholar qo‘yilgan varaqni uzatdi – unda barcha fanlar bo‘yicha faqat ikki bahosi turardi.

Sashani hayajon bosdi:

- Hammasi ikkimi? – deb so‘radi u. – Ammo nima uchun? Bu axir adolatsizlik!

Muallima tag‘in jilmaydi:

- Balki senga adolatsizlik bo‘lib tuyulishi mumkin, menimcha esa bu nihoyatda adolatlidir!

Sasha o‘z qilmishiga yarasha oldi, to‘g‘rimi? Mana bunday so‘zning xavfli tarafi nimada: “Ehtimol, bu sizga noto‘g‘ri bo‘lib tuyulishi mumkin, menimcha esa bu to‘ppa-to‘g‘ri!” Barchamiz ham bizga nisbatan adolatli, halol, ishtiyoq, sevgi va hamdardlik bilan yondashishlarini istaymiz. Biz nima deb gapirmaylik, bu to‘g‘ri. Sasha nima deb gapirmasin, to‘g‘ri. Hattoki kimdir buning shunday emasligini uqtirsa ham bu to‘g‘ri. Bilasanmi, nima uchun? Negaki nima yaxshiyu, nima yomonligini biz hal qilmaymiz; buni Xudo hal etadi, faqat Xudo. Sasha o‘zlashtirib olishi kerak bo‘lgan saboq mana shu edi; biz ham bu saboqni o‘zlashtirishimiz kerak.

MULOHAZA QILGIN: Sen o‘zingni qachondir Sasha kabi tutganmisan? Nima uchun “ha” va nima uchun “yo‘q”? Sen qachondir nima to‘g‘riligini o‘zing hal etishga yoki noto‘g‘ri harakatlaringni oqlashga uringanmisan? Nima to‘g‘ri ekanligini kim hal etadi? Muqaddas Kitobdan bugun o‘qiladigan oyatlar orqali biz ezgulik va yovuzlik haqida nimalarni bilib olamiz?

IBODAT: “Rabbim, nima yaxshiyu, nima yomon ekanligini hal etishga haqqim yo‘q ekanligini eslab turishimga yordam ber, negaki qaror qabul qilish huquqi Senga tegishli. Sen to‘g‘ri deb aytayotganlaringni hamisha qilishim va Sen noto‘g‘ri deb bilgan narsalardan o‘zimni saqlashim uchun menga yordam ber”.

19 SENTYABR. XUDO IRODASINING SO‘Z KALITINI TOPGIN

Kalomdan o‘qish: Efesliklar 4:32-5:2

Bir-biringizga nisbatan ko‘ngilchan va mehr-shafqatli bo‘linglar (Efesliklar 4:32).

Xudo bizga ko‘pgina amrlar bergan. Xudo isroilliklarga nima deganini barcha biladi: “O‘zlaringizga hech qanday butni yasamang” (Chiqish 20:4). Ko‘pchilik odamlar Isoning ushbu so‘zlarini biladi: “Sizlarga yangi amr beryapman: bir-biringizni sevinglar” (Yuhanno 13:34). Biroq Uning ayrim amrlari haqida kamroq bilamiz – misol uchun, bugun ana shunday amrlar haqida so‘z yuritamiz.

Quyidagi savollarga yetishmayotgan so‘zlarni yozib, javob qaytar. So‘ngra esa raqamlangan harflardan Xudo amrlaridan birini hosil qilgin.

1. Iordan daryosi Jalila ko'li va ___ ___ ___ ___ ___ ___ ___ ko'li oralig'ida oqadi.
9 11 2 4 11

2. Iso mehribon ___ ___ ___ ___ ___ ___ ___ ___ ___ ___ haqidagi masalni aytib berdi.
6 1 6 4 11 10 11

3. ___ ___ ___ ___ Yusufga beqasam chopon olib berdi.
8 12

4. Xudo ___ ___ ___ ___ ___ haqida ogohlantirib, ___ ___ ___ ga kema qurishni buyurdi.
9 15 7 14 14 3

5. Dovud ___ ___ ___ ___ ___ ___ ni palaxmonu bitta ___ ___ ___ bilan mag'lub qildi.
13 15 10 11 9 9 5

6. ___ ___ ___ ___ ___ malika edi va o'z xalqini qutqardi.
9 2 4

-

___ ___ ___ ___ ___ ___ ___ ___ ___ ___ ___ ___ ___ ___ ___ ___ ___ ___
1 2 3 4 5 6 7 8 6 9 10 11 12 15 10 11 14 13

Xo‘sh, nima hosil bo‘ldi? Agar senga yordam kerak bo‘lsa, ushbu oyatlarga qaragin: 1) Yuhanno 21: 1; 2) Luqo 10: 25-37; 3) Ibtido 37:3; 4) Ibtido 6: 13-14; 5) 1 Shohlar 17: 48-50; 6) Ester 8:3.

Muqaddas Kitobning bugungi sabog‘ida Xudoning amrlaridan biri keltirilgan bo‘lib, u Muqaddas Kitobda bir necha bora takrorlanadi. U O‘zining Kalomida bu amrni ko‘p bora takrorlagan, negaki U, biz ushbu amrni yodimizda saqlab qolib, uni bajarishimizni istaydi.

Savollarning javoblari:

A) 1) Tiveriya; 2) Samariyalik; 3) Yoqub; 4) To‘fon, Nuh; 5) Go‘liyot, tosh; 6) Ester.

B) Kalit so‘z: ***Mehr-shafqatli bo‘linglar***

MULOHAZA QILGIN: O‘zing anglaganlaringdan hayratga tushayapsanmi? Nima uchun “ha” va nima uchun “yo‘q”? Sen Xudo bizga mehr-shafqatli bo‘lishimizni amr etganini bildingmi? Sen bugun ushbu amrni bajardingmi? Agar bajargan bo‘lsang, qay tarzda? Ehtimol, sen bugun bu amrga itoat etmagandirsan? Agar itoat etmagan bo‘lsang, qay tariqa? Sen ertaga kimgadir mehribonlik ko‘rsatishing uchun nimalar qila olasan?

IBODAT: “Xudoyim Otam, Sen menga mehr-shafqatli bo‘lishimni amr etgansan. Bu har doim ham oson kechmaydi, biroq bugun baribir Senga itoat etishim, mehribon va rahmdil bo‘lishim uchun yordam ber”.

20 SENTYABR. ETIKDO‘Z HAQIDA ERTAK

Kalomdan o‘qish: Matto 25: 31-40

Sizlarga chinini aytayin: sizlar eng kichik birodarimga qilgan har qanday yaxshiligingizni Menga qilgan bo‘lasiz (Matto 25:40).

ETIKDO‘Z HAQIDA KO‘HNA ERTAK BOR. U qish tonglaridan birida uyg‘onib, o‘zidagi e’tiqod sustlashib borayotganini his qilgan. Shu bois u ibodat qilgan: “Rabbim, bugun oldimga kelgin!” U Xudo o‘zining ibodatiga javob berishiga va Iso uning ustaxonasiga kirib kelishiga ishongan holda ibodatini yakunlabdi.

Etikdo‘z ustaxonasini ochib, Xudo har qanday vaqtda kirib kelishini kutgan holda tez-tez derazadan qaray boshlabdi. U derazadan belkurakka suyangan holda sovuqdan qaltirab turgan qo‘shnisini, keksa ishchini ko‘rib qolibdi. Etikdo‘z eshikni ochib, ishchini chaqiribdi:

- Ichkariga kirib isinib ol! Men senga bir kosa sho‘rva va bir piyola choy beraman!

Ishchi ovqatlanib, choyni ichibdi va o‘z ishiga yangi kuch bilan qaytibdi – bu hammasi etikdo‘zning mehribonligi bois yuz beribdi.

Etikdo‘z keyinroq shu yerdan o‘tib ketayotgan ayolni payqab qolibdi. Ayol qo‘lida yupqa adyolga o‘ralgan chaqaloqni ko‘tarib ketayotgandi. Go‘dak sovqotib yig‘lardi. Etikdo‘z eshikni ochib ayolni chaqiribdi:

- Marhamat qilib ichkariga kiring! Chaqaloq bilan birga isinib oling.

Ayol ichkariga kiribdi, etikdo‘z esa unga qalinroq adyol beribdi. So‘ngra esa ayol etikdo‘zning sovg‘asi va mehribonligidan isigan holda yo‘lida davom etibdi.

Bunga o‘xshash holatlar kun davomida bir necha bora takrorlanibdi, etikdo‘z esa uning faqirona ustaxonasiga Xudo qachon kelishini kutaveribdi. Oqshom tusha boshlabdi, etikdo‘z esa hamon kutib o‘tirardi. Nihoyat kech tushibdi. Hafsalasi pir bo‘lgan etikdo‘z eshikni yopib shamchiroqni yoqibdi.

- Xudoyim, - debdi u, - men Sening bugun ustaxonamga kelishingni so‘ragandim, Sen esa kelmading.

Etikdo‘zning xonasi to‘satdan yorishib ketibdi, bu esa shamchiroqdan taralayotgan nur emasdi. U yangrayotgan ovozni eshitib, bu Xudo ekanligini tushunibdi:

- Men keldim, etikdo‘z, - debdi ovoz, - va sen Meni to‘ydirding. Men chanqagan edim, sen Menga choy berding. Men charchagandim, sen Meni o‘z uyingga taklif etding. Men sovqotgan edim, sen Meni isitding – negaki, sen Mening birodarlarim va opa-singillarimga bu kabi mehribonliklarni qilganingda, bularni Men uchun qilgan bo‘lasan!

Etikdo‘z haqidagi voqea – bor-yo‘g‘i ertak, albatta. Lekin u muhim haqiqatni ajoyib tarzda tasvirlab beradi: yaqinlarimizga ko‘rsatayotgan g‘amxo‘rliklarimiz Xudo uchun Uning O‘ziga ko‘rsatilgan mehribonlikdir. Mana nima uchun U, bizga g‘amxo‘r bo‘lishimizni buyuradi: U mehribonlikni qadrlaydi.

MULOHAZA QILGIN: Muqaddas Kitobdan bugun o‘qiladigan oyatlarda Iso g‘amxo‘rlikning turlicha ko‘rinishlarining qanchasini eslatib o‘tadi? Sen kimdir uchun shunday qilolasanmi? Agar shunday bo‘lsa, qay tarzda, Agar yo‘q bo‘lsa, sen bugun kimgadir boshqacha tarzda mehribonlik ko‘rsatishing mumkinmi? Agar shunday bo‘lsa, qanday qilib?

IBODAT: “Rabbim, bugun (va har kuni) Sen rahm-shafqatni qadrlashingni menga eslatib tur. Atrofdagilarga mehribon va g‘amxo‘r bo‘lishim uchun yordam ber, ayniqsa .....”.

21 SENTYABR. SAMODAGI KO‘Z YOSHLAR

Kalomdan o‘qish: Zabur 102:8-13

Egamiz rahmdil, inoyatlidir, Jahli tez chiqmaydi, sodiq sevgisi mo‘ldir (Zabur 102:8).

IKKITA FARISHTA “Somon yo‘li” kafesida o‘tirishardi. Ular choy ichib, tort yeyishar (ular rostdan ham tort yeyishadi!) va bir-birlariga turli voqealarni so‘zlab berishardi.

- Mana eshit! – dedi Kail, choy ho‘play turib. – Bu voqea senga yoqadi. Men amaliyot o‘tashim uchun zaminda bo‘lgandim va menga bir qizaloqni kuzatib yurish topshirilgandi. Qizaloq uch oyoqli velosiped haydab yurganida, yo‘l chetiga urilib yiqilib tushdi.

U choy ho‘plash uchun so‘zidan to‘xtadi.

Ra-Adonoy hikoyaning oxirini eshitish uchun boshini engashtirdi.

Kail uning e’tiborini tortgan holda, qo‘lini ko‘tardi:

- Men qizaloq sari uchib bordim, uning tirnoqlari, tizzasi, iyagi shikastlangandi. Qizaloq yig‘laganida Men Xudoni his qildim.

- Muqaddas Xudonimi?

- Albatta, - bosh irg‘adi Kail. – U o‘sha yerda edi. Tushunayapsanmi, bu faqatgina tizzasini shikastlab qo‘ygan qizaloq edi, biroq shunday bo‘lsada U o‘sha yerda edi.

- U sening qanday ishlayotganingni tekshirib ko‘rgandir? – taxmin qildi Ra- Adonoy.

Kail bosh chayqadi:

- Yo‘q. U men uchun o‘sha yerda emasdi. U qizaloq uchun o‘sha yerda edi. Va bilasanmi nima? Men ko‘rdimki ...- Kail bir daqiqa jim qolib, so‘zida davom etdi. – Men Uning yonoqlaridan oqayotgan ko‘z yoshlarini ko‘rib qoldim.

Ra-Adonoy bosh irg‘ab, jilmaydi.

- U bor-yo‘g‘i velosipeddagi kichkina qizaloq edi, - dedi Kail, - lekin nazarimda, U qizaloqning bir qism og‘rig‘ini O‘ziga oldi.

- Ha albatta, - dedi Ra-Adonoy bir daqiqa sukut saqlab. – Bunga ishonaman, negaki bu Braziliyada, Passo-Fundoda men bilan bo‘lib o‘tgan voqeaga o‘xshaydi...

Albatta, bu o‘ylab topilgan voqea; aslida bunday bo‘lmagan. Ammo bo‘lishi ham mumkin edi. Zero biz Xudoning Kalomidan bilamizki, bizning Rabbimiz – mehribonlik Xudosidir. Biz bilamizki, U bizning qayg‘ularimizni baham ko‘radi va og‘irliklarimizni O‘ziga oladi. “Ota bolalariga shafqat qilganday, Egamiz O‘zidan qo‘rqqanlarga rahm qiladi” (Zabur 102:13).

Biz bilamizki, boshqalarga g‘amxo‘r bo‘lish yaxshi, negaki ularga mehr-shafqat ko‘rsatganimizda,“rahmdil, inoyatli... jahli tez chiqmaydi, sodiq sevgisi mo‘l” (Zabur 102:8) Xudo kabi yo‘l tutamiz.

MULOHAZA QILGIN: Nima uchun mehr-shafqat yaxshi (nima uni to‘g‘ri etadi)? Kecha yoki bugun mehribonlik ko‘rsatishing uchun senda imkoniyat bo‘ldimi? Sen bu imkoniyatdan foydalandingmi? Sen ertaga qay tariqa mehr-shafqat ko‘rsatishing mumkin?

IBODAT: “Sevuvchi va hamdard Rabbim, men rahm-shafqat ko‘rsatish yaxshi ekanligini bilaman, negaki Sen shunday qilasan. Iltimos, meni O‘zingga o‘xshatgin. Atrofdagilarga g‘amxo‘rlik qilish imkoniyatidan foydalanishimga yordam ber”.

22 SENTYABR. QO‘NG‘IROQLAR OVOZI

Kalomdan o‘qish: Chiqish 1: 8-21

Sizlar Xudoning tanlangan, aziz va suyukli xalqisizlar. Shunga ko‘ra, rahm-shafqat, mehribonlik, kamtarlik, muloyimlik va sabr-toqatni zeb-ziynat qilib taqib olinglar (Kolossaliklar 3:12).

QADIM ZAMONDA UZOQ BIR MAMLAKATDAGI shahar aholisi Mavlud bayramida jamoatga chaqaloq Masih uchun sovg‘alar keltirishibdi.

Ushbu jamoatda juda baland qo‘ng‘iroqxona bor edi. Qariyalarning aytishicha, jamoat mehrobiga barcha sovg‘alar orasida eng qimmmatbahosini qo‘yganlarida, qo‘ng‘iroq bag‘oyat chiroyli kuy taratarkan. Kimningdir aytishicha, qo‘ng‘iroqni Xudoning O‘zi chalarkan. Kimdir esa, bu, yer yuziga tushgan farishtalarning ishi ekanligini aytarkan. Ammo uzoq yillar mobaynida qo‘ng‘iroq ovozi eshitilmay qolibdi, endi bu haqdagi suhbatlar chiroyli ertak tariqasida qabul qilinadigan bo‘libdi.

Kunlardan birida ikkita kichkina bolakay shaharning barcha aholisi o‘zlarining eng yaxshi kiyimlarida yig‘iladigan serzavq Mavlud bayramiga bormoqchi bo‘lishibdi.

Ular jamoatga kelganlarida, bolalardan biri shahar darvozasi yaqinida qorda cho‘zilib yotgan bir kampirni ko‘rib qolishibdi. U yiqilib tushgach - kasal va o‘ta bemajol bo‘lgani uchun - o‘rnidan turolmay qolgan va yordamga chaqirayotgandi. Bola uning oldiga borib, o‘rnidan turg‘azmoqchi bo‘libdi. U cho‘ntagidan kumush tanga olib ukasiga beribdi:

- Buni olib men nomimdan go‘dak Masih uchun mehrobga qo‘ygin!
- Lekin sen bayramni o‘tkazib yuborasan! – hayqiribdi unisi. – Qo‘shiqchilar chiqishini o‘tkazib yuborasan...

Bola boshini chayqabdi:

- Agar men yordam bermasam, bu bechora kampir sovuqdan o‘lib qoladi. Borgin, – u jilmayishga urinibdi. – Men aslida unchalik ko‘p narsani o‘tkazib yubormayman.

Ukasi avval ikkilanibdi, ammo keyin bolani kasal kampir bilan yolg‘iz qoldirib ketibdi. U shaharning barcha aholisi go‘dak Masihga o‘z sovg‘alarini eltgan jamoatga qarab ketibdi. Ko‘pchilik tilla uzuk va kumush taqinchoqlar keltirishgandi. Bir qancha kishilar qimmatbaho toshlar olib kelibdi. Bir ayol mehrobga ajoyib kashtagulli ko‘ylak qo‘yibdi. Bir buyuk jangchi mehrobga yarqiroq kumush qilich keltiribdi. Bolaning ukasi olomon orasidan o‘tib, boshqa sovg‘alar orasida bilintirmay kumush tangani qo‘yibdi.

Ana shunda jamoat qo‘ng‘iroqlari jaranglay boshlabdi! Bu ilohiy ovoz bo‘lib, bunaqasini hech kim hech qachon eshitmagandi. Jamoat xizmatchisi qo‘llarini osmonga ko‘taribdi, yig‘ilganlar esa sovg‘alardan qaysi biri qo‘ng‘iroqni jaranglashga undaganini bilish uchun mehrobga qarab qolishibdi. Va ular qarashsaki: bu, kampirni qutqarish uchun qolib ketgan bolaning kumush tangasi ekan.

MULOHAZA QILGIN: Nima deb o‘ylaysan, bolaning sovg‘asi Xudoga manzur bo‘lganmi? Agar shunday bo‘lsa, nima uchun? Sen agar shu bolaning o‘rnida bo‘lsang, o‘zingni qanday his qilgan bo‘larding? Muqaddas Kitobdan bugun o‘qiladigan oyatlarda Xudo yahudiy doyalarini Misrdagi isroillik go‘daklarga nisbatan mehr-shafqati uchun taqdirladimi? Agar shunday bo‘lsa, qanday qilib?

IBODAT: “Ota, men hattoki buning mukofotlarini payqamaganimda ham, rahm-shafqat ko‘rsatish qanchalik foydali ekanligini tushunishim uchun yordam ber”.

23 SENTYABR. RAHM-SHAFQATLI BO‘LMOQ JUDA ZO‘R

Kalomdan o‘qish: Zabur 111:1-4

Hatto zulmatda ham to‘g‘ri insonga nur yog‘iladi, Rahmdil, mehribon, solih odamga yog‘du sochiladi (Zabur 111:4).

ERIN YAQINDAN BUYON otasining ishlariga yordam bera boshladi. Ko‘pgina bolalar shunday qilishadi. Erin Hindistonga borishiga to‘g‘ri keldi, negaki uning otasi o‘sha yoqda masihiylikning rahm-shafqat xizmatiga asos solgan bo‘lib, faoliyat yuritayotgandi.

Erin Hindistonda bir hafta bo‘ldi. U bolalar kasalxonasida bo‘lib, ularga pufaklarni shishirib berar, saqichlar sovg‘a qilar va alla aytardi. U moxov kasalligiga chalingan qizaloq bilan birga ibodat qildi. U bemorlarning ichki kiyimlarini yuvishga yordamlashdi. U so‘qir kampirni qoshiq tutgan kuyi ovqatlantirib, unga ovqatdan ko‘ra e’tibor ko‘proq muhim ekanligini tushundi. Erin shu bois qoshiqni nari qo‘yib, kunning qolgan qismini kampirning boshini qo‘llari bilan tutgan holda o‘tkaza boshladi.

Xo‘sh, seningcha, Erin bir haftalik mehnat va qayg‘uli holatlardan so‘ng nimani his qildi? “Meni bu yerdan olib ketinglar!” deya yolvorib so‘raganligini xayolingga keltirdingmi? Yoki: “Yana big-makni katta porsiyali kartoshka-fri bilan yeyishga sabrim chidamayapti” deganmikan? O‘ylaysanki, u, “men juda charchadim, uyda televizor tomosha qilib o‘tirishni istayman”, deganmikan?

Aslo bunday emas. Aksincha, qashshoqlar va kasallar bilan o‘tkazgan ish haftasidan so‘ng Erin shunday dedi: “Bu juda zo‘r!”

Juda zo‘r deydimi? Ichki kiyimlarni yuvish – juda zo‘rmikan? So‘qir kampirni qoshiq bilan ovqatlantirish – juda zo‘rmi? Tashlandiq kasal bolalarning holidan xabar olish – juda zo‘rmikan?

Ha! Bu haqiqatdan ham juda zo‘r, negaki boshqalarga mehr-shafqat ko‘rsatish yoqimli mashg‘ulot bo‘lishi mumkin. Bu nafaqat boshqalar uchun, balki o‘zing uchun ham yoqimlidir. Rahm-shafqatli bo‘lish hattoki eng noxush va qayg‘uli vaziyatlarda ham mamnunlik tuyg‘usini baxsh etishi mumkin.

Bu Xudo rahmdil kishilarni taqdirlaydigan usullardan biridir. U bizning rahm-shafqatimiz uchun emas, balki O‘zi rahmdil bo‘lganligi bois bizga quvonch ulashadi. Sen biror insonga rahm-shafqat ko‘rsatganingda, ikki kishini baxtiyor etgan bo‘lasan – ulardan biri esa sening o‘zingsan.

MULOHAZA QILGIN: Rahm-shafqatli bo‘lishing uchun sening Hindistonga borishing shart emas. Chap tarafga aynan hozir g‘amgin va yomon ahvolda bo‘lishi mumkin bo‘lgan uch yoki to‘rt kishining ismini yoz. Boshqa tarafida esa bu odamlarga rahm-shafqat ko‘rsatishing uchun nimalar qila olishing haqida yozib qo‘ygin:

..... **.....**
..... **.....**
..... **.....**
..... **.....**

IBODAT: “Rabbim, men rahm-shafqatli bo‘lgan holda Senga manzur bo‘lmoqchiman. Rahm-shafqat qanchalik yoqimli ekanligini boshqalar ham tushunishi uchun ularga yordam bermoqchiman. Men yuqorida yozganim kabi boshqalarga rahm-shafqatli bo‘lishimga yordam ber”.

24 SENTYABR. BADAVLAT KISHINING MEHMONI
Kalomdan o‘qish: Rimliklar 15:1-3
Har birimiz o‘zganing manfaatini ko‘zlab, unga dalda berish niyatida uni mamnun qilishga harakat qilaylik (Rimliklar 15:2).

KUNLARDAN BIRIDA BADAVLAT KIShINING OLDIGA mehmonga kelgan mashhur bir ravvin haqida ko‘hna yahudiy ertagi bor. Boy mashhur mehmon uchun katta ziyofat uyushtiribdi. Stol turli noz-ne’matlar ko‘pligidan sinib ketguday bo‘lib turardi.

Yahudiylarda ovqatlanish oldidan qo‘lni yaxshilab yuvish odati bor edi. Qo‘l yuvish marosimi ba’zan bir necha daqiqani olardi.

Biroq, bu safar, ravvin qo‘lini faqat chayqab qo‘ydi, xolos.

- Ustoz, - dedi boy. – Men tushunmadim. Sen qo‘llaringni kerakli tarzda yuvmading. Uyalma, menda suv mo‘l! Istaganingcha sarflayver.

Ravvin bir so‘z demasdan katta deraza oldiga bordi. Boy ham uning yoniga kelib, quduqdan tepalikka ko‘tarilgan kichkina xizmatkoriga ko‘zi tushdi. Xizmatkor qiz yelkasidagi shayinda ikkita katta chelakning og‘irligidan qiyshayib ketardi.

- Mana shu bechora qizning mashaqqati evaziga men qo‘l yuvishim kerakmi? – deya so‘radi ravvin. – Balki, men tejab qolgan suv uni yana bir marta quduqqa borishidan xalos etar.

Bu ravvin rahm-shafqat nima ekanligini bilardi. Mabodo boy hech nima demaganida, hech kim uning mehribonligiga e’tibor qaratmagan bo‘lardi. Biroq Xudo e’tibor qaratgan bo‘lardi. Va ravvin ham cho‘ri qizga garchi sezilarsiz bo‘lsada, qandaydir yordam berish kerakligini bilardi.

Havoriy Pavlus bunday harakat haqida yozgan: “Har birimiz o‘zganing manfaaatini ko‘zlab, unga dalda berish niyatida uni mamnun qilishga harakat qilaylik” (Rimliklar 15:2). Yordam ko‘zga tashlanadigan va ulkan miqyosda bo‘lishi shart emas. Ba’zan eng bilinmaydigan tarzda mehr-shafqat ko‘rsatish juda ajoyib bo‘ladi.

MULOHAZA QILGIN: Sen o‘zing guvoh bo‘lgan mehr-shafqatning qanday namoyon bo‘lishi eng ajoyibi bo‘lgan? Nima deb o‘ylaysan, agar har bir kishi “o‘z yaqinini mamnun etsa” nima bo‘ladi? Sen o‘zing shunday qilasanmi? Bugundan boshlashga urinib ko‘r.

IBODAT: “Mehribon Xudo, mehr-shafqatning go‘zalligini ko‘rishim va nimaiki qilmay va gapirmay, uni namoyon etishim uchun menga yordam ber”.

25 SENTYABR. BILIMDONNING MASLAHATI
Kalomdan o‘qish: Zabur 118:65-68
Naqadar yaxshisan, ezgulik qilasan, farmonlaringni menga o‘rgatgin (Zabur 118:68).

AYTAYLIK, SEN mohir basketbolchi bo‘lishni istab qolding. Senda tanlov bor: sen mashhur basketbolchi Maykl Jordandan yoki har kuni markaziy maydonda kaptarlarni oziqlantiradigan Garvi Klibnitsdan bu borada saboq olishing mumkin. Sen qaysi birini tanlagan bo‘larding?

Yoki sen mashhur xonanda bo‘lmoqchisan va ota-onang sen vokal hamda gitaradan tahsil olishing uchun to‘lov qilishga qaror etdilar, deylik. Ular, kim senga tahsil berishini istashingni so‘rashadi: ko‘p yillardan buyon musiqali disklari millionlab nusxada sotilayotgan qo‘shiqchimi yoki qishloq yarmarkasidagi xonandalar bellashuvida bir marotaba g‘olib chiqqan qiz bolami? Qaysi birini tanlaysan?

Ehtimol, ulg‘ayganingda kompterlar bilan ishlashni xohlarsan? Bir tarafdagi qo‘shning – “Maykrosoft” (bu o‘sha, Windows ixtirochisi) korporatsiyasi asoschisi Bill Geyts, boshqa tomondagi qo‘shning esa, monitor – bu, Fuqarolar urushi davridagi harbiy kemaga o‘xshagan narsa, deb o‘ylaydigan amaki Vasya Sidorov. Sen ularning qaysi biridan maslahat so‘ragan bo‘larding?

Endi esa tasavvur qil, sen hayotda to‘g‘ri qaror qabul qilishga o‘rganmoqchisan. Sen chindan ham nima yaxshiyu, nima yomonligini bilishni istaysan, biror yomon ish qilib, kimgadir zarar yetkazishni esa xohlamaysan. Senda hamisha haq va behad yaxshi (Muqaddas Kitobda shunday deyilgan) Xudoning Kalomi – nima yaxshiyu,

nima yomonligini bildiradigan Qodir Xudoning Kalomi – bor. Deylik, senda boshqacha fikrlar ham bor: Kolya Pirojkov “agar hech kimga ziyon keltirmasa, yolg‘on gapirish yaxshi” ekanligini aytadi. Masha Svetkova esa, “nima yaxshiyu, nima yomon ekanligini hech kim aytolmaydi, buni sen o‘zing hal qilishing lozim”, deya hisoblaydi. Sen qaysi fikrni afzal ko‘rasan?

Albatta, agar sen aqlli bo‘lsang basketbol bo‘yicha Maykl Jordan qo‘lida saboq olishni, vokal borasida esa mashhur xonandadan tahsil olishni afzal ko‘rasan. Kompyuterlar borasida amaki Vasya Sidorovdan emas, balki Bill Geytsdan maslahat so‘raysan. Yaxshi va yomonlik masalasida esa osmon va yerni yaratgan Xudodan maslahat so‘raysan, to‘g‘rimi? Sen Muqaddas Kitobda aytilganlarga itoat etasan, shunday emasmi?

Albatta, sen aynan shunday qilasan, negaki sen yaxshilik va yomonlik masalasida o‘zing hal etolmaysan – ammo Kim buni hal qilishini bilasan, to‘g‘rimi?

MULOHAZA QILGIN: Seningcha, to‘g‘ri qarorga kelishing uchun sen yaxshilik va yomonlik borasida bilimdon bo‘lishing kerakmi? Nima uchun “ha” va nima uchun “yo‘q”? Nima deb o‘ylaysan, bunday bilimdon bilan tanishish senga yordam beradimi? Nima yaxshiyu, nima yomon ekanligi borasida bizning eng katta mutaxassisimiz kim? Sen Undan qay tarzda maslahat so‘rashing mumkin?

IBODAT: “Rabbim, Sen hamisha mehribonsan. Iltimos, meni O‘z qoidalaringga o‘rgat va atrofdagilar gapirayotganiga emas, Sen aytayotganlarga amal qilishimga o‘rgat”.

26 SENTYABR. TASLIM BO‘LMA!

Kalomdan o‘qish: Galatiyaliklar 6:7-10

Shunday ekan, yaxshilik qilishdan charchamaylik. Agar holdan toyib qolmasak, o‘z vaqtida buning hosilini o‘rib olamiz (Galatiyaliklar 6:9).

HECH QANDAY SUPERMARKETLAR. Uyga hech qanday pitssalar. Hech qanday do‘konlar. Hech qanday “ Makdonaldlar”. Hech qanday kafe va restoranlar.

Havoriy Pavlus Galatiya jamoatiga o‘z Maktubini yozganida, ahvol ana shunday edi. Ko‘rayapsanmi, o‘sha davrlarda odamlar pitssani o‘z dalalarida yetishtirishardi.

Ular bahorda urug‘ sepish uchun yerni uzoq va mashaqqat bilan ag‘darib chiqishardi. Butun yoz davomida ekinlarini parvarish qilishardi: o‘toq qilishar, sug‘orishar, yovvoyi hayvonlar ekinlarini payhon qilib, yeb ketishiga yo‘l qo‘yishmasdi. Kuzda ular hosilni yig‘ib olib, qishga ozuqani zahira qilib qo‘yishardi.

Agar biror inson yoki oila ekish, o‘toq qilish va hosilni yig‘ishdan bezib qolib, bu ishini tashlasa, uni katta noxushliklar qarshi olardi. Ular qishda oziqlanishlari uchun yilning boshqa barcha fasllarida mehnat qilishardi. Ularda ovqatni supermarketdan sotib olish imkoni bo‘lmagan. Ular o‘zlariga pitssa buyurtma qila olishmagan. Agar ular bahorda, yozda va kuzda qattiq mehnat qilmaganlarida edi, qishda och qolib ketgan bo‘lishardi.

Biz bilan ham xuddi shunday bo‘ladi. Vasvasadan qochish va to‘g‘ri qaror qabul qilish qiyin bo‘lishi mumkin. Ba’zan oilada (sinfda, mahallada) to‘g‘ri yo‘l tutayotgan yagona kishi bo‘lib qolish azobli kechadi. Mana nima uchun Pavlus Muqaddas Kitobdan bugun o‘qiladigan oyatda quyidagicha deydi: “Shunday ekan, yaxshilik qilishdan charchamaylik. Agar holdan toyib qolmasak, o‘z vaqtida buning hosilini o‘rib olamiz” (Galatiyaliklar 6:9).

Senga qanchalik qiyin bo‘lmasin, hech qachon taslim bo‘lma. Ustingdan kulishsa ham, umidsizlikka tushma. Hatto senga og‘ir bo‘lsa ham charchab qolmagin. Xudoga umid qilishda davom etaver. Undan yordam so‘ra. To‘g‘ri qaror qabul qilishda davom etaver.

Bu oson bo‘lmasligi mumkin, ammo bu shunga *arziydi*. Xudoning Kalomi bizni ishontirib aytadiki, barqaror kishilar marhamatni “o‘z vaqtida yig‘ib olishadi”.

MULOHAZA QILGIN: Sen qachondir vasvasaga qarshi kurash va to‘g‘ri qaror qabul qilishdan charchaganmisan? Sen qachondir umidsizlikka tushib, taslim bo‘lishga hozirlanganmisan? Agar Xudoga itoat etishda davom etib, Uning Kalomiga rioya qilsang, Xudoning Kalomi senga nimani va’da qiladi?

IBODAT: “Ota, men ba’zan vasvasaga qarshi kurashishdan va to‘g‘ri qaror qabul qilishdan charchayman. Meni qo‘llab-quvvatlayotganing va Senga itoat etishda davom etayotganim uchun – agar men taslim bo‘lmasam marhamat hosilini yig‘ib olishim haqidagi va’dang uchun Senga Rahmat. Senga itoat qilishda davom etishim va nimaiki qilmay barchasida Senga manzur bo‘lishim uchun menga yordam ber”.

27 SENTYABR. O‘NINCHI MOXOV

Kalomdan o‘qish: Luqo 17:11-19

O‘zini Isoning oyoqlari ostiga tashlab, Unga minnatdorchilik bildirdi (Luqo 17:16).

MUQADDAS KITOBDAGI NOMSIZ QAHRAMONLARDAN BIRI – bu, Isoni uzoqdan ko‘rib: “Ey Iso! Ustoz! Bizga rahm qiling!” deb qichqirgan o‘nta moxovdan biridir. Ulardan faqat bittasi Isoga minnatdorchilik bildirish uchun qaytib keldi. Axir vaqt bo‘ylab sayohat qilish va o‘sha moxov kishi bilan gaplashish ajoyib ish bo‘larmidi?

– Ha, – harholda u shunday javob bergan bo‘lardi, – bu aslida juda o‘zgacha bo‘ldi! Iso bizga ruhoniylarga ko‘rinishimiz kerakligini aytdi. Shu bois, garchi biz hech nimani sezmagan bo‘lsakda, o‘sha yoqqa bordik. Men to‘satdan o‘z qo‘limga qaradim – u endi oqarmay qo‘ygandi! Moxovlik yo‘qolgandi! Men o‘zimni chimchiladim – og‘riq sezildi! Qo‘limga yana sezgi qaytgandi. Bu men qachondir his qilgan eng ajoyib og‘riq edi.

Qariya navbatdagi savolni eshitish uchun biz tomon engashadi.

– Ha, men shu yerda to‘xtadim. Ruhoniyning meni sog‘lom deya e’tirof etishi menga kerak emasdi; men buni *bilardim*! Menda shubha yo‘q edi. Men hozirgina moxov edim, bir lahza o‘tmayoq sog‘lom odamga aylandim! – u barmoqlarini qarsillatadi. – Ana shunaqa.

U qayrilma barmoqlari bilan qulog‘ini artadi:

– Men shunda Isoni topish uchun orqamga qaytdim. Men qishloqqa qaytib yugurdim, U deyarli hozir ham o‘sha yerda turardi. Men olomon orasidan o‘tib Uning oyoqlari ostiga yiqildim. Men shu qadar xursand edimki, zo‘rg‘a gapira olardim, lekin Unga rahmat aytishga harakat qilardim.

U boshini chayqaydi:

– Men, boshqalar ham men bilan birga borishadi, deb o‘ylagandim. Men hattoki, Iso atrofga qarab shu gaplarni aytmagunicha, bir o‘zim qaytganimni tushunmagandim: “Men axir o‘n kishini davolamadimmi? Qolgan to‘qqiztasi qani?” Faqat ana shundagina men boshqalar men bilan birga kelishmaganini tushundim. Ammo bu meni bezovta qilgani yo‘q. Men shuni nazarda tutyapmanki, boshqalar nimaiki qilishmasin, U meni shifolaganidan so‘ng Unga minnatdorchilik bildirishim kerak edi, tushunyapsizmi? Axir siz ham shunday yo‘l tutmagan bo‘lardingizmi?

Mana bu yaxshi savol! Oxir-oqibat, Xudo sen uchun nimalar qilganini eslab ko‘r; axir U senga shuncha marhamatlarni yubormadimi? Axir U yuz – *ming* – martalab turli masalalarda senga mehribonlik ko‘rsatmadimi? Boshqalar nimaiki qilmasin, bunday mehribon Xudo sen minnatdorchilik bildirishingga va olqishga munosibdir – sen esa bunga boshqacha fikrdamisan?

MULOHAZA QILGIN: Sen ko‘proq kimga o‘xshaysan: o‘ninchi moxovgami (Isoga minnatdorlik bildirganiga) yoki boshqa to‘qqiztasigami (Unga mutlaqo minnatdorchilik ko‘rsatmaganlarigami)? Agar Xudo senga ko‘rsatgan barcha yaxshiliklari uchun Unga minnatdorchilik bildirishingga to‘g‘ri kelganida, seningcha, bu qancha vaqtni olardi? Mana shu damdan boshlab o‘ninchi moxovga ko‘proq o‘xshashing uchun nimalar qilishing mumkin?

HARAKAT QIL: Bir varaq qog‘oz ol. Xudoga bugun minnatdorchilik bildirishing kerak bo‘lgan uch yoki to‘rt narsani qayd etgin. Toki varaq to‘lmagunicha har kuni uch-to‘rt bandni qo‘shaver.

IBODAT: “Rabbim, Sen men uchun shunchalik ko‘p narsalar qilding va ko‘p narsalar berding! Ayniqsa, Senga bugun .....uchun minnatdorchilik bildiraman”.

28 SENTYABR. BIR KISHI HAMMAGA QARSHI

Kalomdan o‘qish: Doniyor 3:1-12

Bu odamlar xudolaringizga sig‘inmaydilar, ular hatto siz o‘rnatgan oltin haykalga sajda qilishni ham o‘zlariga ep ko‘rmadilar (Doniyor 3:12).

KATTA BARMOQ BOSHQALARIDAN ALOHIDA FARQ QILISHI HAQIDA ko‘hna Afrika ertagi bor.

Bir kuni beshta barmoq stolda yonma-yon yotganlarida chiroyli tilla uzukni ko‘rib qolishibdi.

– Ey, - debdi barmoqlardan biri, – kelinglar, uni o‘zimizga olamiz!

– U aynan menga to‘g‘ri kelarkan, – debdi nomsiz barmoq.

U tilla uzukka yaqin surilganida, katta barmoq qarshilik ko‘rsatibdi:

– Shoshmanglar! – debdi u. – Sizlar bunday qilolmaysizlar.

– Nima uchun? – jo‘r bo‘lib hayqirishibdi boshqalar.

– Negaki bu noto‘g‘ri bo‘lardi.

– Qo‘ysangchi! – debdi barmoqlardan biri. – Hech kim buni ko‘rmaydi.

– Bu o‘g‘irlik, – e’tiroz bildiribdi bosh barmoq.

– Bizga aql o‘rgatishing yetmay turuvdi! – hayqiribdi ko‘rsatgich barmoq.

– Rostdan ham, bu jonga tegdi! – ming‘irlabdi jimjiloq.

– Agar sen shunday davom etsang, – qo‘shimcha qilibdi o‘rta barmoq, – biz sen bilan boshqa birga bo‘lmaymiz.

– Xuddi shunday! – debdi boshqalar ham. – Ket bu yerdan! Sen bizga boshqa kerak emassan.

Ana shunday qilib, boshqa barmoqlar bosh barmoqdan ajralishibdi va u yolg‘iz o‘zi qolibdi. Ular bosh barmoq tutgan yo‘lidan qaytib, o‘zlariga qo‘shiladi deya o‘ylashibdi, biroq u noto‘g‘ri ish qilishdan voz kechib, bir o‘zi qolaveribdi.

Mabodo boshqalar bizni qandaydir yomon ishlarga undashsa, Xudo bizning bosh barmoq kabi yo‘l tutishimizni istaydi. Yolg‘iz qolish oson emas, ammo Xudoning ixlosini so‘ndirgandan ko‘ra do‘stlar bilan kelishmovchilikka borgan afzal.

MULOHAZA QILGIN: Sen qachondir shu barmoqlar kabi o‘zingni tutib, boshqa birovni noto‘g‘ri ish qilishga undaganmisan? Bu voqeadagi katta barmoq kabi o‘zingni his qilgan damlar bo‘lganmi? Sen nima qilgansan? Muqaddas Kitobdan bugun o‘qiladigan oyat ertakdagi barmoq bilan qay tariqa bog‘liq? Keyingi safar kimdir seni vasvasaga solganida, katta barmoqqa ko‘proq o‘xshashing uchun nimalar qilishing mumkin?

HARAKAT QIL: Seni vasvasaga solmoqchi bo‘lgan odamlarga qarshilik ko‘rsatish qanchalik muhimligini yodda tutgan holda, bugun kun davomida bosh barmog‘ingga nazar tashlab tur.

IBODAT: “Rabbim, barcha meni noto‘g‘ri yo‘l tutishga undayotganida, to‘g‘ri yo‘l tutishim qiyin. Iltimos, hattoki yolg‘iz qolgan taqdirimda ham keyingi safar meni vasvasaga solganlarida, kuchli bo‘lishimga yordam ber”.

29 SENTYABR. DYUNKERKDAN MAKTUB

Kalomdan o‘qish: Doniyor 3:13-18

Biz sig‘inadigan Xudo bizni olovli chuqurlikdan ...qutqarishga qodir. Ammo U bizni qutqarmagan taqdirda ham, bilib qo‘yingki, ey shoh hazratlari, biz hech qachon xudolaringizga sig‘inmaymiz, siz o‘rnatgan oltin haykalga ham sajda qilmaymiz (Doniyor 3:17-18).

1940 YIL MAY OYINING OXIRLARIDA, Ikkinchi jahon urushi paytida, nemis armiyasi Yevropadagi kichik davlat – Belgiyaga bostirib kirdi. Gitlerchilarning tank va qo‘shinlari mamlakat bo‘ylab himoyachilarni – inglizlarni, fransuzlarni va belgiyaliklarni – dengizgacha surib keldi.

Oxir-oqibat Buyuk Britaniya, Fransiya va Belgiyaning birlashgan qo‘shinlari shimoliy-fransuz porti Dyunkerkda qurshovda qolib ketishdi. Ular jami 338000 kishi bo‘lib, yaqinlashib kelayotgan nemis armiyasi ularni yer yuzidan supurib tashlaydigandek tuyulardi.

Jangning qanday hal bo‘lishini intiq kutayotgan inglizlar banogoh Dyunkerkdagi halokatga mahkum qo‘shindan qisqacha xabar olishdi:

Buyuk Britaniya to‘satdan harakatga tushib qoldi. Barcha harbiy kemalar, katerlar, baliqchi qayiqlar, motorli qayiqlar, yaxtalar – hattoki kichik qayiqlar – Dyunkerkdagi qo‘shinni saqlab qolish va uni Angliya hududiga o‘tkazish uchun La-Manshni kesib o‘tishdi.

Bu qisqacha xabar nimani anglatgandi? Bir nechagina so‘z qanday qilib bu kabi ishlar qilishi mumkin?

Dyunkerk mo’jizasi shu bois ham sodir bo‘ldiki, Britaniya ahli Muqaddas Kitobdagi so‘zni bilib olishdi. Britaniyaliklar, garchi butga sajda qilishdan bosh tortganlari uchun shoh ularni qizigan pechga tashlash bilan qo‘rqitgan bo‘lsada, Xudoga ishongan Sedrax, Misax va Avdenago voqeasidagi jumlani payqab olishgandi. Mazkur jumla shuni anglatardi: “Hattoki o‘lishga to‘g‘ri kelsa ham, biz taslim bo‘lmaymiz”.

Harholda, seni qachonlardir qizigan pechga tashlab yubormasalar kerak. Ko‘p minglik qo‘shin va tanklar qurshovida ham qolib ketishing dargumon. Biroq hayotingda ko‘p bora to‘g‘ri harakat va gunoh o‘rtasida tanlov qilishingga to‘g‘ri keladi. Ba’zan bu qiyin kechadi.

Mana shunday damlarda to‘g‘ri harakat doimo maqbul bo‘lib qolishi haqida o‘ylagin, bu hattoki senga qiyin tuyulib, buning uchun taqdirlanmasang ham. To‘g‘ri yo‘l tutish hamisha to‘g‘ri, bu hatto seni ajablantirsa yoki noxushliklar xavf solganida ham. Xudo seni bulardan xalos etishi mumkin, U seni to‘g‘ri harakat uchun taqdirlashi mumkin – nimaiki bo‘lgan taqdirda ham – baribir yaxshilik hamisha yaxshilik bo‘lib qolaveradi.

MULOHAZA QILGIN: Sen to‘g‘ri yo‘l tutib, bundan afsuslangan paytlaring bo‘lganmi? To‘g‘ri yo‘l tutib, buning uchun noxush vaziyatlarga tushib qolganmisan? To‘g‘ri yo‘l tutib, buning uchun taqdirlanmay qolgan vaziyatlaring bo‘lganmi? Agar sen bu javoblardan birortasiga “ha” deb javob bergan bo‘lsang, to‘g‘ri ish qilganing uchun afsuslanganmisan? Shu haqda hozirgacha afsus qilasanmi? Nima deb o‘ylaysan, hattoki og‘ir bo‘lganida ham biz to‘g‘ri yo‘l tutishimiz kerakmi? Hatto buning uchun taqdirlanmay qolganimizda hammi? Nima uchun “ha” va nima uchun “yo‘q”?

IBODAT: “Rabbim, men hatto og‘ir bo‘lganida ham to‘g‘ri yo‘l tutmoqchiman. Iltimos, hatto qiyin bo‘lsa ham va buning uchun taqdirlanmasamda, bugun to‘g‘ri qaror qilishim uchun yordam ber”.

30 SENTYABR. OLOVLI O‘CHOQDA

Kalomdan o‘qish: Doniyor 3:19-27

Suvlardan o‘tganingda, Men sen bilan birga bo‘laman (Ishayo 43:2).

BOLAKAY BEXOSDAN katta va o‘ta qimmatbaho oynani sindirib qo‘ydi va ota-onasiga bor haqiiqatni aytdi. Ular endi bolani sayr qilib kelishiga ruxsat berishmayapti.

Qizaloq spirtli ichimliklar ichiladigan va giyohvand moddalar iste’mol qilinadigan ziyofatga borishdan bosh tortdi. Dugonalari endi unga e’tibor berishmayapti.

Bir erkak restoranda qo‘shni stoldagi kishining ahvoli og‘irlashib, bo‘g‘ilib qolayotganini ko‘rdi. U yugurib borib, o‘sha odamning orqasiga urib, bo‘g‘ziga tiqilib qolgan ovqatni chiqarib tashladi. Oradan bir necha kun o‘tgach uni sudga topshirishdi, negaki u haligi odamning qovurg‘asini sindirib qo‘ygandi.

Bunaqa vaziyatlar chindan ham uchrab turadi. Odamlar to‘g‘ri yo‘l tutishadi – so‘ngra esa ularni e’tirof etishmaydi yoki jarima solishadi.

Bu qanday yuz berishi mumkin? Zero to‘g‘ri yo‘l tutganimizda bizga yaxshiroq bo‘lishi kerak emasmi? Axir biz to‘g‘ri ish qilganimizda, Xudo bizni himoya qilib g‘amxo‘rlik ko‘rsatmaydimi?

Ha, bu shunday. Agar sen to‘g‘ri yo‘l tutsang, senga yaxshi bo‘ladi. Agar sen Uning qoidalariga amal qilsang, Xudoning himoyasi va g‘amxo‘rligidan bahramand bo‘lasan. Biroq Xudo sen to‘g‘ri yo‘l tutganingda hamisha azob va mashaqqatlardan xoli bo‘lishing uchun kafolat bermaydi. U to‘g‘ri ish qiladiganlar aslo kulguga,

befarqlikka va hatto jarimaga tushib qolmasliklari haqida va’da bermagan. Lekin U sen bilan birga bo‘lishga va mabodo to‘g‘ri yo‘l tutganing bois azoblanganingda senga yordam berishini va’da qilgan.

Yodingdami, Shadrax, Meshax va Abednaxu shoh Navuxadnazarning xudosiga sajda qilishdan bosh tortishgandi? Bu to‘g‘ri edi. Ammo bu haqda shohga xabar yetkazishdi (saroydagilar orasida hamisha g‘iybatchilar bo‘ladi!) Ularni shoh oldiga keltirib, olovli o‘choqqa tashlashdi.

Biroq shoh o‘choqqa qaraganida, yigitlar hali ham tirik ekanligini ko‘rdi – ular bilan birgalikda yana kimdir, “ilohiy zot” (Doniyor 3:25) bor edi. Ko‘ryapsanmi, garchi Shadrax, Meshax va Abednaxu olovli o‘choqda bo‘lishlariga to‘g‘ri kelgan bo‘lsada, Xudo hamisha ular bilan birga edi! Bu yigitlarning biror joyi ham kuymagandi!

Demak, sen ham to‘g‘ri yo‘l tutishdan qo‘rqmagin. Sening ustingdan kulishlari, seni tashlab ketishlari va yana shu kabi vaziyatlar yuz berishi mumkin. Lekin Xudo hamisha sen bilan birga bo‘ladi. Xudo senga yordam beradi. U seni shu kabi yoki boshqacha tarzda qutqaradi.

MULOHAZA QILGIN: Sen qachonlardir to‘g‘ri yo‘l tutishdan cho‘chiganmisan? Agar qo‘rqmagan bo‘lsang, nima uchun? Agar shunday bo‘lsa, nega? Nima deb o‘ylaysan, Xudo sening qo‘rquvlaringni tushunadimi? Yomon yo‘l tutish uchun qo‘rquv yetarli oqlov bo‘lishi mumkinmi? Nima uchun “ha” va nima uchun “yo‘q”? Agar sen to‘g‘ri ish qilsang, Xudo senda muammolar bo‘lmasligini va’da qilganmi? U senga nimani va’da qilgan?

IBODAT: “Rabbim, Sening Kalomingda shunday deyilgan: “Suvlardan o‘tganingda, Men sen bilan birga bo‘laman” (Ishayo 43:2). Bu va’dang uchun Senga rahmat. Men to‘g‘ri ish qilganim uchun azoblanmoqchi emasman, lekin shunday bo‘lib qolsa, Sen men bilan birga ekanligingni va menga yordam berishingni eslashimga yordam ber”.

1 OKTYABR. XUDONING MARHAMATIDAN SHUBHALANISH

Kalomdan o‘qish: Ibtido 3:1-6

Ey Egam, to‘g‘ri yurganlardan ne’matingni darig‘ tutmaysan (Zabur 83:12).

MUQADDAS KITOBDAN bugungi o‘qishda birinchi gunoh haqida, ilon Momo Havoga nima degani va Momo Havo ilonga nimalar degani haqida hikoya qilinadi. Ammo sen uchun qachonlardir vasvasaga soluvchi va Momo Havo o‘rtasidagi suhbat davomida ularning nima haqda *o‘ylaganlari* qiziqish uyg‘otganmi? Harholda, ular shunday fikrlagan bo‘lishsa kerak.

– Nahotki? – ilon ayoldan so‘radi. *(Ko‘raylik-chi: men hozir uni chalg‘ita boshlayman, u esa Xudoning aytganlariga shubha qila boshlaydi)* – Xudo chindan ham bog‘dagi barcha daraxtlarning mevasidan yeyishni ta’qiqlab qo‘ydimi?

– Nimalar deyapsan, albatta, biz barchasidan iste’mol qilishimiz mumkin, – dedi ayol. *(Bu ilon mening ustimdan kulyapti; o‘zini go‘yo hammadan ko‘p biladigandek ko‘rsatyapti. Hozir men unga ko‘rsatib qo‘yaman!)* – Biz mevasini yeyishimiz mumkin bo‘lmagan yagona daraxt bog‘ning o‘rtasida. (*Shoshma, Xudo bizga aynan nima degandi? Hozir men Uning so‘zini eslashga urinayotganimda, bu xuddi qachonlardir aytilgandek tuyuladi*.) Xudo bizga uning mevasidan yemasligimiz va unga yaqinlashmasligimiz kerakligini aytgan, aks holda biz o‘lamiz. *(Harholda, shunga yaqin gaplar bo‘lgan!)*

(A-ha, ayol daraxt haqida shubhalana boshladi!)

– Sizlar o‘lmaysizlar, – shivirladi ilon. (*Bir ozgina hasad halaqit bermaydi*.) – Xudo bu mevadan yeganlaringizda ko‘zlaringiz ochilishini biladi. (*Mana bu to‘g‘ri qaror: Xudo nimanidir undan yashirayotgani haqida ayol o‘ylay boshlasin!*) Siz shunchaki Xudoga o‘xshab qolasiz, hammasini – nima yaxshiyu, nima yomonligini bilasiz.

Ayolga bu gaplar ta’sir qildi. (*Ehtimol, Xudo mendan nimanidir yashirishga urinayotgandir. Balki U men bundan bahra olishimga xalaqit berish uchun bu haqda buyurgandir!*) Meva nihoyatda yangi va mazali tuyular hamda ayolni aqlliroq qilishi kerak edi! Xullas, ayol bu mevadan tatib ko‘rdi.

Ehtimol, hammasi aynan shunday bo‘lgandir, balki bunaqa bo‘lmagandir. Ammo Xudoning marhamatiga bo‘lgan shubha odatda noto‘g‘ri tanlov sari birinchi qadam bo‘ladi.

Odamlar tez-tez o‘zlarini go‘yo Xudo ularning quvonchdan bahra olishlariga xalaqit berish uchun O‘z amrlarini bizga bergandek. Ular faqat Xudoning amrlarini buzibgina, o‘z istaklariga yetishishlari va zavqlanishdan bahramand bo‘lishlari haqida o‘ylashadi. Lekin Muqaddas Kitobda shunday deb yozilgan: “Ey Egam, to‘g‘ri yurganlardan ne’matingni darig‘ tutmaysan” (Zabur 83:12).

Ko‘ryapsanmi, Xudo mehribon. U bizda hammasi yaxshi bo‘lishini istaydi! Buning murakkabligi shundaki, biz odatda Xudo “nimanidir qilishni” yoki “nimanidir qilmaslikni” buyurib, nimadandir bizni mahrum etayotgani haqida o‘ylaymiz. Biroq aslida bunday emas. U to‘g‘ri yo‘ldan yurganlarni yaxshiliklardan mahrum etmaydi. Agar biz haqiqatdan ham shunday deb o‘ylasak, bu holda noto‘g‘ri qarorimiz bizni u qadar vasavasaga solmaydi.

MULOHAZA QILGIN: Xudoning amrlari qachonlardir seni quvonchdan mahrum etish maqsadida tuzilgandek tuyulganmi? Nima deb o‘ylaysan, mabodo sen Zabur 83:12 ga chindan ishonganingda, Xudoga itoat etishing oson bo‘larmidi? Nima uchun «ha» va nima uchun «yo‘q»?

IBODAT: “Rabbim, bilaman, Sen mehribonsan va to‘g‘ri yo‘l tutganlarni O‘z ezguliklaringdan mahrum etmoqchi emasman. Shu daqiqadan boshlab va hamisha Sening marhamatingga ishonishim, noto‘g‘ri ish qilib hech qanday yaxshilikka erisha olmasligim haqida eslab turishim uchun yordam ber”.

2 OKTYABR. POKIZA VA MUQADDAS HAYOT

Kalomdan o‘qish: Ibroniylar 12:14-17

Hamma bilan tinch-totuv yashashga harakat qilinglar. Halol hayot kechirishga tirishinglar, Aks holda, Egamizni ko‘ra olmaysizlar (Ibroniylar 12:14).

Agar sen Iso gunohlaringni kechirishiga va seni tubdan yangi insonga aylantirishiga ishonsang, demak, sen – masihiysan. Bu esa gunohlaring kechirilganini va jannatga tushishingni anglatadi.

Ammo sen hozircha samoda emassan va sinovlarga to‘qnash kelishda davom etaverasan. Sen gunoh qilish vasvasasiga kchraysan. Va ba’zan noto‘g‘ri ishlar qilib qo‘yasan. Bu sen jannatga tushmaysan degani emas, lekin baribir muammo hisoblanadi. Nima qilish kerak? Masihiy bo‘lgan holda, to‘g‘ri va noto‘g‘ri qarorlarga qanday yondashish mumkin? Ko‘raylikchi, quyidagi test senga yordam berarmikan. Bunda qayd etilgan fikrlardan haqiqat yoki yolg‘onni tanlab ol.

1.	Gunoh qilsa bo‘ladi	H	Y
2.	Gunoh qilsa bo‘ladi, agar shundan keyin sen Xudodan kechirim so‘rasang.	H	Y
3.	Masihiy to‘g‘ri yoki noto‘g‘ri qaror qilishi mumkin; oxir-oqibat buning ahamiyati yo‘q.	H	Y
4.	Masihiy pokiza va begunoh bo‘lib yashay olmaydi	H	Y
5.	To‘g‘ri qaror qabul qilish hayotiy muhim	H	Y

6. Agar sen o‘zingni masihiy hisoblab, gunoh qilishda davom etsang, haqiqat bilan yasholmaysan H Y
7. Masihiy pokiza va begunoh bo‘lib yashashi mumkin H Y
8. Muqaddas bo‘lmaganlar Xudoni ko‘rmaydilar H Y

Tugatdingmi? Birinchi to‘rtta fikr yolg‘on: ikkinchi to‘rtlikdagilari esa haqiqat. Ayrim savollarga javob berish anchayin qiyin, to‘g‘rimi? Bu masalalarga hayotda to‘qnash kelish esa yanada qiyinroq.

Muqaddas Kitobdan bugun o‘qiladigan oyatlarda ana shular haqida so‘z yuritiladi. Ibroniylarga maktubda aytilgan: “ Hamma bilan tinch-totuv yashashga harakat qilinglar” (Ibroniylar 12:14). Boshqacha aytganda, to‘g‘ri qaror – muhim masala; sen mabodo o‘zingni masihiy hisoblab, gunoh qilishda davom etsang, haqiqat bilan yasholmaysan (1 Yuhanno 1:6). Shuningdek, ibroniylarga 12:14 aytiladiki, sizlar pokiza bo‘lmay turib “Egamizni ko‘ra olmaysizlar”. Bu esa agar sen masihiy bo‘lsang Xudoning madadi bilan to‘g‘ri qaror qilib, pokiza va begunoh bo‘lib yashashga intilishing lozimligini anglatadi.

Aslida masihiy bo‘lish (hamda Xudoning Muqaddas Ruhiga hayotingni boshqarishiga ijozat berish) – bizni toza va muqaddas hayotga boshlaydigan yagona yo‘ldir. Bu Xudoni ko‘rishning yagona usulidir.

MULOHAZA QILGIN: Sen 1-4 bandlar go‘yoki to‘g‘ridek o‘zingni qachonlardir shunday tutganmisan? Sen shu damdan boshlab qay tarzda pokiza va muqaddas holda yashashga urinmoqchisan? Bunga o‘z kuching bilan erisha olasanmi? Agar yo‘q bo‘lsa, bunga qanday qilib erishishing mumkin? (Ko‘mak uchun yo‘riq: avvalgi satr boshini qayta o‘qib chiq.

IBODAT: “Rabbim, men ba’zan noto‘g‘ri qaror hech qanday ahamiyatsizdek o‘zimni tutaman, ammo to‘g‘ri qaror qilishni istayman. Men pokiza va begunoh bo‘lib yashashni istayman. Men Seni ko‘rmoqchiman. Iltimos, Senga ishonishimga va to‘g‘ri qaror qilishim uchun Sening Muqaddas Ruhing hayotimni boshqarishiga izn berishim uchun yordam ber”.

3 OKTYABR. YANGI SO‘ZNI O‘RGAN

Kalomdan o‘qish: Rimliklar 2:6-8

Sizlar esa, birodarlar, hech qachon yaxshilik qilishdan charchamanglar (2 Salonikaliklar 3:13).

KIMDIR SEN BILAN GAPLASHAYOTGANIDA, tushunib bo‘lmaydigan so‘zlarni qo‘llagan holatlar bo‘lganmi? Ehtimol, sen bosh irg‘ab, o‘zingni go‘yo bu so‘zlarni biladigandek tutgandirsan, to‘g‘rimi? Balki do‘stlaring va ota-onangda zo‘r tasavvur qoldirish uchun turli noodatiy so‘zlarni bilishni istarsan?

Sening istaging bajo bo‘ldi. Mana senga shunday so‘zlar ro‘yxati:

Bo‘sa – “o‘pich” so‘zining eskirgan varianti (“Ona, ota, qachon o‘z “*bo‘sa*ngizni bas qilasizlar?”)

Qo‘l siltash – qayerdadir bo‘lib qolishdan voz kechish, e’tiborsizlik qilish (“Opam uch kundirki maktabdagi mashg‘ulotlarga *qo‘l siltamoqda*”)

Meteorizm – agar kimdir haddan ziyod qovurilgan loviyalarni yeb qo‘yganida yuz beradigan holat (“Kim bu mashinada *meteorizm* uyushtirdi?”)

Panoktikum – mumdan yasalgan shakllar va boshqa antiqiy narsalar muzeyi, g‘ayrioddiy buyumlarni yig‘ish (“Ularning uyi haqiqiy panoktikum!”)

Amplua – muayyan mashg‘ulotlar va majburiyatlar doirasi (Xo‘sh, bilasizlarki, u o‘zining ampluasida!”)

Sen mazkur so‘zlarni qo‘llab, o‘z ko‘nglingni xushlagandek bo‘lasan, to‘g‘rimi?

Darvoqe, yana bitta so‘zni o‘rgana qolaylik:

Sabr-toqat – qiyin vaziyat va charchoqlarga qaramay, qat’iyatli bo‘lish va mustahkam turib nimanidir qilish (Sening sabr-toqatingga qoyilman!”)

Biz qayd etgan so‘zlar orasida, sabr-toqat – eng foydalisi, negaki ushbu fazilat to‘g‘ri qaror qabul qilishga nihoyatda yordam beradi – hattoki bu og‘ir bo‘lganida va sen charchaganingda ham. Mana nima uchun Pavlus Salonika jamoatiga shunday deb yozadi: “Sizlar esa, birodarlar, hech qachon yaxshilik qilishdan charchamanglar” (2 Salonikaliklar 3:12). U bizga qat’iy bo‘lishimizni maslahat bergan, negaki “yaxshi ishda qunt qilib, sharaf, hurmat-ehtirom va mangulikka intilganlarga Xudo abadiy hayot ato qiladi” (Rimliklar 2:7). Qiyin bo‘lganida, yo‘lda davom etavergan afzal.

MULOHAZA QILGIN: Sabr-toqat nima o‘zi? Sen o‘z bardoshing bilan boshqalardan farq qilasanmi yoki tezda taslim bo‘lasanmi? Charchaganingda yoki vaziyat qiyinlashib qolganida barchasidan voz kechish istagi senda bo‘ladimi? “Qanday qilib “umidsizlikka tushmasdan, yaxshilik qilish” mumkin? Nima deb o‘ylaysan, Xudo bizga yordam beradimi? Agar shunday bo‘lsa, qay tariqa?

HARAKAT QIL: Bugungi suhbatlaring davomida *sabr-toqat* so‘zini hech bo‘lmasa bir marotaba ishlatishga urinib ko‘r.

IBODAT: “Ota, yaxshilik qilish hamisha ham oson kechmaydi. Iltimos, men hattoki charchaganimda yoki taslim bo‘lishga tayyor bo‘lganimda ham sabr-toqatli bo‘lishimga yordam ber”.

4 OKTYABR. IMONDAGI QAT’IYAT

Kalomdan o‘qish: Havoriylar faoliyati 4:1-20
Biz insonga emas, Xudoga itoat etishimiz kerak (Havoriylar faoliyati 5:29).

SENDA SHUNDAY HOLATLAR bo‘lganmi, ya’ni

- Xudo haqida aytganing uchun qamoqqa tushganmisan?
- masihiy bo‘lganing uchun sudya qarshisida turganmisan?
- Iso haqida odamlar bilan gaplashganing uchun kaltaklanish va dabdala bo‘lish holatiga tushganmisan?
- o‘likdan tirilgan Iso haqida aytganing uchun tahdidlarga uchraganmisan?

Harqalay, sen bilan bunday holatlar yuz bermagandir? Butrus va Yuhanno bilan esa shunday holatlar yuzaga kelgan.

Butrus va Yuhanno Isoning shogirdlari bo‘lishgandi. Iso o‘lib, tirilgach osmonga ko‘tarilib ketganidan so‘ng, Butrus va Yuhanno nimalar sodir bo‘lganini ayta boshladilar. Ular odamlarga Iso ularning gunohlarini kechirib, kechirim va abadiy hayot berish uchun kelganini aytishardi. Biroq (Butrus va Yuhanno yashagan) Quddusdagi nufuzli odamlarga ularning aytganlari ma’qul emasdi. Shu bois ularni hibsga olib hukm qilishdi. So‘ngra esa hattoki kaltaklab, Iso haqida boshqa gapirmasliklarini buyurishdi.

Mabodo senga kimdir shunday so‘zlarni aytsa nima qilgan bo‘larding: Iso haqida yana bir og‘iz gapirsang, adabingni beraman”? Agar boshqalarga Iso haqida gapirayotganing uchun qamoqqa tashlash xavfi bilan tahdid solishsa – yoki hattoki o‘ldirmoqchi bo‘lishsa – qanday yo‘l tutgan bo‘larding?

Biroq Butrus va Yuhanno avval nima qilgan bo‘lsalar, shu tariqa davom etaverishdi. Ular Iso ta’limotini yoyishda davom etishdi. Ular Iso qay tariqa o‘lib o‘likdan tirilganini hikoya qilib, odamlarga Isoga imon keltirib qay tariqa najot topishlari mumkinligini aytishardi. Boshqalar ularga tahdid qilib, ta’qib etishganida *mustahkam* turishdi.

Bu biz uchun ulug‘ ibrat. Butrus va Yuhanno o‘z harakatlarini izohlab shunday deyishdi: “Biz insonga emas, Xudoga itoat etishimiz kerak” (Havoriylar 5:29). Biz ham shunday yo‘l tutishimiz lozim. Hattoki do‘stlarimiz bizni xo‘rlab,jig‘imizga tegishsa ham, biz Xudoga itoat etishimiz kerak. Biz hattoki to‘g‘ri yo‘l tutib, o‘zimizni kulgi ostiga qoldirsakda, Xudoga bo‘ysunishimiz kerak. Hattoki to‘g‘ri ishlarimiz bizni – yoki do‘stlarimizni – noxush vaziyatlarga tushirsa ham, biz Xudoga itoat etishimiz lozim. Boshqalar nimaiki demasin yoki nima qilishmasin, Xudoga itoat etishda davom etaverishimiz lozim. Mustahkam turish ana shunday bo‘ladi. Ana shu tarzda qat’iy turish esa to‘g‘ridir.

MULOHAZA QILGIN: Ehtimol, sen Butrus va Yuhanno bo‘lgan vaziyatlarga hech qachon tushmagandirsan, lekin atrofdagilarning bosimiga bo‘ysunish vasvasasi bo‘lgan bo‘lishi mumkin. Agar shunday bo‘lsa, sen o‘shanda qanday yo‘l tutgansan? Sen siquvlarga qaramasdan, qat’iy turdingmi yoki taslim bo‘lganmisan? Keyingi safar boshqalar seni taslim bo‘lishga (yoki noto‘g‘ri yo‘l tutishga) majburlasalar, nima qilasan?

IBODAT: “Mehribon Xudo, odamlar meni taslim bo‘lishga majburlasalar yoki bosim ostiga tushganimda, Butrus va Yuhannodek bo‘lishim uchun yordam ber”.

5 OKTYABR. QUDRAT MANBAI
Kalomdan o‘qish: Ishayo 40:27-31
Nahotki bilmaysan? Nahotki eshitmagansan? Egamizning O‘zi abadiy Xudo-ku! Butun olamni U yaratgan-ku! ...U toliqqanga kuch beradi (Ishayo 40:28-29).

MABODO SEN aksariyat odamlarga o‘xshasang, kuniga uch marta ovqatlanasan, to‘g‘rimi? Sen biror marta bu ovqatlarni chaynash uchun qayoqdan kuch olishing mumkinligi haqida o‘ylaganmisan? Bu kuch asosan lotinchasiga orbicularis oris ataladigan jag‘ mushaklaridan hosil bo‘ladi. Sen bu haqda bilarding, to‘g‘rimi?

Albatta, ba’zan derazani ochishingga to‘g‘ri keladi. Sen buning uchun kuchni qayerdan olasan? Asosan bitseps (elka bilan tirsakni harakatlantiradigan mushak) deb ataladigan qo‘l muskullaridan sen bu kuchni olasan.

Zinapoyadan ko‘tarilganmisan? Buning uchun kuch oyoq muskullaridan hosil bo‘ladi, rectus femoris va biceps femoris**.**

O‘tirish uchun esa qorin muskullaridan foydalanasan (rectus abdominus), og‘irlikni ko‘tarish uchun – barcha muskullar kuchi talab etiladi (deltasimon, ko‘krak muskullari, bitsepslar).

Bu hayratomuz, to‘g‘rimi? Sen buni uzoq yillardan buyon qilasan, biroq bu kuchning manbai qayerda ekanligi haqida o‘ylab ko‘rmagan bo‘lsang kerak.

Agar sen masihiy bo‘lsang, senda sabr-bardosh kuchi ham bor. Hattoki og‘ir vaziyat bo‘lganida ham, senda to‘g‘ri yo‘l tutish kuchi bor. Hattoki charchaganingda ham borayotgan yo‘lingda davom etish kuchi bor. Hatto barchasidan voz kechishni istaganingda ham, mehnat qilish kuchi bor. Ammo mustahkam turish kuchi sening muskullaringdan hosil bo‘lmaydi – bu kuch faqatgina Xudodan kelib chiqadi.

Ishayo ismli payg‘ambar shunday deb yozgandi: “ Nahotki eshitmagansan? Egamizning O‘zi abadiy Xudo-ku! Butun olamni U yaratgan-ku! U charchamaydi, holdan toymaydi... U toliqqanga kuch beradi, zaifning kuchiga kuch qo‘shadi. Hatto yoshlar charchaydi, holdan toyadi, yigitlar qoqilib yiqiladi. Egamizdan umid qilganlar esa yangidan kuch oladi, burgut singari parvoz qiladi. Ular yugurib charchamaydi, yurib ham hech toliqmaydi” (Ishayo 40:28-31).

Bu haqiqat. Sen holdan toyib, tinka-madoring quriganida, senga kerak bo‘lgan kuch Xudoda topiladi. Agar zaif bo‘lsang, Xudo yo‘lingda davom etishing uchun kuch beradi. Sen charchab, taslim bo‘lishni istab qolganingda, Xudo qat’iy turishing uchun yordam beradi. Undan shunchaki yordam so‘ragin, xolos. Ishon, hatto sen zaif bo‘lganingda ham, U qudratli. Va U nimaiki qilayotgan bo‘lsang, barchasida barqaror turishing uchun senga yordam beradi.

MULOHAZA QILGIN: Muqaddas Kitobdan bugun o‘qilayotgan oyatlarga ko‘ra, kuch qayoqdan hosil bo‘ladi? Senga hozirning o‘zidayoq mustahkam turishingga to‘g‘ri kelyaptimi? (Aytaylik, do‘stingga rad javobini berishing, vasvasaga “yo‘q” deyishing yoki qandaydir ish qilishing kerak – misol uchun, tozalik ishlari.) Xudo bilan gaplashib, Undan yordam so‘ra.

IBODAT: “Rabbim, bilaman, Sen hech qachon charchamaysan va zaiflashmaysan, Sen charchaganlarga va ojizlarga kuch berasan. Iltimos, qat’iyatli bo‘lishim uchun kuchga ega bo‘lishimga yordam ber”

6 OKTYABR. HECH QACHON TASLIM BO‘LMA

Kalomdan o‘qish: Ibroniylar 12:1-3

Taqdirimizdagi musobaqada sabr-toqat bilan chopaylik (Ibroniylar 12:1).

UINSTON CHERCHILL Ikkinchi jahon urushi davrida Buyuk Britaniyaning bosh vaziri bo‘lgan. U ingliz xalqini o‘ta qayg‘uli davrlarda boshqargan. Fransiya 1940 yil IYUNida Germaniyaga taslim bo‘lgach, Angliyaning tanho o‘zi nemislarga qarshilik ko‘rsatishda davom etdi. Nemis aviatsiyasi britaniyaliklarnidan ko‘p bora ustun bo‘lib, doimo bu orolga hujum qilardi. Biroq hattoki mag‘lubiyatdan qutulishning imkoni yo‘qdek tuyulganida ham, Cherchill taslim bo‘lmadi. Oradan besh yil o‘tib Germaniya taslim bo‘ldi va Yevropada yana tinchlik hukm sura boshladi.

1941 yilning 29 OKTYABRida Cherchill ingliz maktabi Xerrouda o‘quvchilar oldida nutq so‘zladi. Binoga sukunat cho‘mgandi. Barcha aytilgan birorta so‘zni ham o‘tkazib yubormaslik uchun diqqat bilan buyuk yo‘lboshchiga qarab qolgandi.

Cherchill mushti bilan minbarga urdi.

– Hech qachon taslim bo‘lmang! – dedi u. – Hech qachon taslim bo‘lmang. Hech qachon, hech qachon, hech qachon, hech qachon – hech narsada, u katta yoki kichik bo‘lmasin, muhim yoki ahamiyatsiz bo‘lmasin – maslak, nomus va sog‘lom fikrdan boshqa hech bir narsaga hech qachon taslim bo‘lmang.

Shundan so‘ng u o‘tirdi. Uning nutqi tugagandi. Ehtimol, bu o‘quvchilar qachondir eshitgan eng qisqa nutq bo‘lgandir – ular boshqa nutqlardan ko‘ra aynan mana shu nutqni xotiralarida saqlab qoldilar.

Bu qisqa va oddiygina nutq Uinston Cherchillning ruhiyatini aks ettirgandi. Ammo u shuningdek, masihiylarga tegishli bo‘lgan Xudoning irodasini ham aks ettiradi.

Ko‘rayapsanmi, Cherchill Xerrou maktabi o‘quvchilariga bu gaplarni aytib ajoyib maslahat berdi: “Hech qachon taslim bo‘lmang”. Lekin Xudo bizga maslahat bermaydi: U *amr qiladi*! Xudoning Kalomida biz “taqdirimizdagi musobaqada sabr-toqat bilan” (Ibroniylar 12:1) chopishimiz kerakligi aytilgan. U bizga buyuradi: “Hech qachon yaxshilik qilishdan charchamanglar” (2 Salonikaliklar 3:13). U deydi: “Shunday ekan, yaxshilik qilishdan charchamaylik” (Galatiyaliklar 6:9).

Sen ba’zan “yaxshi” bo‘lishdan charchaysanmi? Xudo aytadi: “Hech qachon taslim bo‘lmang!” Keyingi paytlarda shunchalik ko‘p vasvasaga uchradingki, kuchsizlanib, qarshilik ko‘rsatishga holing qolmagandek tuyulyaptimi? Xudo aytadi: “Hech qachon taslim bo‘lma!” Har doimo to‘g‘ri qarorlar qabul qilish joningga tegdimi? Xudo aytadi: “Hech qachon, hech qachon, hech qachon, hech qachon, hech qachon! Hech qachon taslim bo‘lma!”

Xudo bizga qat’iyatli bo‘lishimizni buyuradi. U, biz o‘z ishimizni qat’iy turib bajarishimizni istaydi. U, biz charchab, umidsizlanib qolganimizda, intilishimizni xohlaydi. U bizning to‘g‘ri qarorlar qabul qilishdan hech qachon voz kechmasligimizni istaydi. “Hech qachon taslim bo‘lma! – deydi U. – hech qachon, hech qachon, hech qachon, hech qachon, hech qachon! Hech qachon! Hech qachon taslim bo‘lma!”

MULOHAZA QILGIN: Nima deb o‘ylaysan, agar Uinston Cherchill (va Buyuk Britaniya) Ikkinchi jahon urushi davrida natsistlarga taslim bo‘lishsa, nimalar yuz bergan bo‘lardi? Agar sen taslim bo‘lsang, charchasang yoki senga og‘ir kelganida taslim bo‘lsang, nimalar sodir bo‘lishi mumkin edi? Mabodo sen to‘g‘ri qaror qabul qilishga urinmay qo‘ysang, nima bo‘lishi mumkin?

IBODAT: “Rabbim, bilaman, Sening Kaloming qat’iyatli bo‘lishimni buyuradi. Sen meni matonatli bo‘lishga o‘rgatishingni xohlayman. Bilaman, men charchaganimda yoki umidsizlanganimda ham intilishga o‘rganishimni istaysan. Bilaman, men to‘g‘ri qarorlar qilishdan voz kechishimni istamaysan. Iltimos, “hech qachon, hech qachon, hech qachon, hech qachon, hech qachon taslim bo‘lmaslik” uchun menga yordam ber”.

7 OKTYABR. QAT’IYATLIK NAMUNASI

Kalomdan o‘qish: Vahiy 2:1-3

Ha, bardoshlisan. Mening nomim uchun ko‘p qiyinchiliklarni boshdan kechirib, holdan toymading (Vahiy 2:3).

SEN UNI TELEVIZORDA KO‘RGANSAN.

- U hamisha sukut saqlaydi.
- U pushti rang va mayin.
- Uning quloqlari uzun.
- Uning qo‘lida baraban va baraban tayoqchalari bor.
- U harakatlanadi... harakatlanadi... va harakatlanadi.

Albatta, sen buning “Enerdjayzer” batareyalari reklamasidagi quyon – keyingi yillarda ekran orqali sayohat qilib, kutilmagan joylarda paydo bo‘ladigan va hech qachon to‘xtamaydigan o‘yinchoq – ekanligini tushunding.

Bu quyon mashhur bo‘lib ketdi, negaki biz batareyadan kutishimiz mumkin bo‘lgan barcha narsada ibrat ko‘rsatmoqda: uzoq vaqt xizmat qilish, qat’iyat, uzoq bardosh berish.

Odamlar batareyada qadrlaydigan sifatlarni Xudo odamlarda qadrlaydi. Aynan shunday. Xudo qat’iyatni qadrlaydi. U odamlar to‘g‘ri qaror qabul qilishga urinishdan voz kechmagan holda oldinga... oldinga... oldinga borishlarini ajoyib deya hisoblaydi.

Mana nima uchun Xudo bizga matonatli bo‘lishni buyurgan. Mana nima uchun Uning Kalomida shunday deyiladi: “Hech qachon yaxshilik qilishdan charchamanglar” (Salonikaliklar 3:13) va “Shunday ekan, yaxshilik qilishdan charchamaylik. Agar holdan toyib qolmasak, o‘z vaqtida buning hosilini o‘rib olamiz” (Galatiyaliklar 6:9). Mana nima uchun Xudo Efes jamoatini maqtaydi: “Ha, bardoshlisan. Mening nomim uchun ko‘p qiyinchiliklarni boshdan kechirib, holdan toymading” (Vahiy 2:3).

Xudo odamlar matonat ko‘rsatish o‘rniga to‘g‘ri yo‘l tutishdan voz kechib taslim bo‘lganlarida, ulardan umidsizlanadi. Ammo, agar mashaqqatlar odamlarni zo‘r berib urinishga va mehnat qilishga undasa, bu Unga yoqadi. Mashaqqatlar odamlarni qat’iy qilsa, bu Unga maqbul bo‘ladi. Odamlar qanchalik qiyin bo‘lmasin, qanchalik charchashmasin, bu ularning qanchalik vaqtini olmasin qat’iylik bilan ezgulikni tanlab oldinga... oldinga... oldinga boraverishlari Unga manzur bo‘ladi. Negaki Xudo matonatni qadrlaydi.

MULOHAZA QILGIN: Muqaddas Kitobdan bugun o‘qiladigan oyatlardan Xudo matonatni qadrlashi ayon bo‘ladimi? Agar shunday bo‘lsa, aynan nimadan? Nima deb o‘ylaysan, sen sinovlar va qiyinchiliklar qarshisida mustahkam turishing kerakmi? Agar shunday bo‘lsa, sen buni qanday amalga oshirishing mumkin?

HARAKAT QIL: Keyingi safar “Enerdjayzer” reklamasini ko‘rganingda, Xudo matonatni qadrlashini eslagin.

IBODAT: “Mehribon Xudo, men oldinga... oldinga... va oldinga boraverishni, Senga bo‘ysunishga urinishni va to‘g‘ri qaror qilishni xohlayman. Iltimos, qanchalik qiyin bo‘lmasin, qanchalik charchagan bo‘lmay, bu qancha vaqtni olmasin matonatli bo‘lishimga yordam ber”.

8 OKTYABR. TA’TIL BEKOR QILINADI

Kalomdan o‘qish: Qonunlar 31:1-6

Egangiz Xudoning O‘zi sizlar bilan birga boradi, Sizlarni tashlab ketmaydi, sizlarni tark etmaydi (Qonunlar 31:6).

BIR ODAM tush ko‘ribdi: u samoda Xudoning taxti qarshisida turganmish. O‘sha odam qo‘lini ko‘ksiga qovushtirib, Xudoga murojaat qilibdi.

– Rabbim, – debdi u, – boshqa ilojim yo‘q. Ba’zan masihiy bo‘lish juda murakkab bo‘lyapti, holim qolmadi. Bir muddatga ta’til olib, masihiylik hayotidan dam olsam bo‘ladimi?

Xudo bosh irg‘abdi:

– Tushunaman, – debdi U. – Sen ta’tilda bo‘lganingda Men har doimgidek quyoshni ertalab chiqishiga undashimni xohlaysanmi? Men har tongda har bir qushning tomog‘iga qo‘shiqlar joylashtirishda davom etishim kerakmi? Sening yuraging urib turishiga ko‘maklashishimni istaysanmi? Har tongda ko‘zlaringni ochib, hayotning yangi kuni uchun seni uyg‘otishga majbur qilishimni xohlayapsanmi?

Seni nimadir bezovta qilganida, Men sening ibodatlaringni eshitishda davom etishimni istayapsanmi? Sening ruhingni kaftimda tutib, gunohlaringni kechirishim kerakmi? Quyosh kechqurun botib, tungi osmonda oy va yulduzlar paydo bo‘lishini istaysanmi? Sen uxlayotganingda, ko‘zlaring uyqu uchun yumilishiga yordam berishim kerak bo‘ladimi? Yoki men ham ta’tilga ketsammikan?

Odam og‘ir tin olib, bir muddat jim qolibdi.

– Darvoqe... Men, harholda, fikrimni o‘zgartirdim, – debdi u so‘ngra Xudoga. – Ta’tilga chiqmay qo‘ya qolaman.

Ko‘pchiligimiz vaqti-vaqti bilan o‘zimizni shu odamdek his qilamiz. Biz tozalik ishlaridan charchaymiz. Yoki ish faoliyatimizdan charchoq sezamiz. Yoxud to‘g‘ri qaror qilishdan charchaymiz. Biz hattoki masihiy ekanligimizdan charchab qolamiz.

Biroq bunday damlarda Xudo bizga matonatli bo‘lishni buyurganini eslashimiz lozim. Xudo bizni qat’iyatli bo‘lishga buyurganini eslashimiz kerak, negaki Xudo matonatni qadrlaydi. Xudo matonatni qadrlashini tushunishimiz zarur, negaki Xudo matonatni qadrlaydi, negaki Uning O‘zi matonatli, U bizga har dam, har soniya sodiq.

Mana nima uchun barqarorlik yaxshi – negaki Xudoning O‘zi shunday. U hech qachon bizni tashlab ketmaslikni va’da qilgan. Demak, U hamisha biz bilan birga ekan, biz ham qilayotgan ishlarimizda matonatli bo‘lishimiz kerak.

MULOHAZA QILGIN: Nima deb o‘ylaysan, Xudo qachonlardir seni tark etganmi? Nima uchun «ha» va nima uchun «yo‘q»? Nima deb o‘ylaysan, Xudo seni qachonlardir tark etadimi? Nima uchun «ha» va nima uchun «yo‘q»? Xudoning senga sodiqligi haqida o‘ylaganingda nimalarni his qilasan? Bundan xursandmisan? Senga baribirmi? Sen bundan minnatdormisan? Bundan afsuslanasanmi? Xafa bo‘lasanmi? Bu senga umid baxsh etadimi? Yana nimadir bormi?

HARAKAT QIL: Bir varaq qog‘ozga Xudo sen uchun har kuni nimalar qilayotganini yozgin. (Yuqorida qayd etilganlardan boshlashing mumkin.) Ro‘yxatdagilar Xudoning barqarorligini senga eslatib turishi uchun uni stol ustiga qo‘ygin.

IBODAT: “Rabbim, men uchun har kuni nimaiki qilayotgan bo‘lsang, hammasi uchun rahmat. Bilaman, hech qachon meni tashlab ketmaysan. Iltimos, Sen kabi barqaror bo‘lishim uchun yordam ber”.

9 OKTYABR. BRUKLINDA O‘SGAN DARAXT

Kalomdan o‘qish: Yoqub 162-4, 12

Ey birodarlarim, turli sinovlarga duchor bo‘lganingizda o‘zingizni baxtli deb bilinglar. Axir, imoningiz sinalganda, sizlar sabr-toqat qilishni o‘rganasizlar. Bu o‘zingizga ham ayon. Har qanday vaziyatda sabr qilishni o‘rganinglar, shunda yetuk, bekamu ko‘st, komil inson bo‘lasizlar (Yoqub 1:2-4).

DARAXT Frensi Nolanning hovlisida o‘sgandi. Yozuvchi Betti Smit o‘zining mashhur “Bruklinda o‘sgan daraxt” kitobida shunday deb yozadi:

> “Frensi hovlisida o‘sgan daraxtning barglari qarag‘ayga ham, tsikutga ham o‘xshamasdi. Ular aylana bo‘lib o‘sgan butoqlardagi yashil qalamchalardan o‘tkir barglar yozar, bu esa daraxtni ko‘plab ochiq yashil soyabon ko‘rinishiga olib kelardi. Ayrimlar uni Samo Daraxti deb nomlashgandi. Uning urug‘lari qayerga tushmasin, o‘sha yerdan o‘sgan nihollar osmona qadar bo‘y cho‘zardi. Ular plitkalar orasidan ham o‘sib chiqqandi, bu esa beton tagidan qad ko‘targan yagona daraxt edi”.

Bu daraxt g‘amxo‘r qo‘llar bilan yashil bog‘da o‘stirilmagan. Hech kim uni to‘g‘ri o‘sib chiqsin deya qoziqchalarga bog‘lamagan. Ammo u baribir o‘sdi. Uning nozik nihollari beton orasidan yorib bo‘y cho‘zgandi. U kurashdi va quyosh nuriga intildi. U ildizlari bilan yer osti suvlariga intildi. Va hamisha, har doimo samoga intildi. U toki baland ko‘tarilmagunicha kurashda davom etdi.

Bruklinda o‘sgan daraxt – bu qat’iyat nimalar qilishi mumkinligidan dalolat beradi. Daraxt o‘zining o‘sishi uchun kurashdi, bu kurash esa uni mustahkamladi. Kurash sen uchun ham foydali bo‘lishi mumkin. Muqaddas Kitobda shunday deyilgan: “Ey birodarlarim, turli sinovlarga duchor bo‘lganingizda o‘zingizni baxtli deb bilinglar. Axir, imoningiz sinalganda, sizlar sabr-toqat qilishni o‘rganasizlar. Bu o‘zingizga ham ayon. Har qanday vaziyatda sabr qilishni o‘rganinglar, shunda yetuk, bekamu-ko‘st, komil inson bo‘lasizlar” (Yoqub 1:2-4).

Boshqacha aytganda, barqarorlik seni Bruklindagi daraxtga monand qiladi: kuchli, baland, yetuk, mukammal, to‘laqonli. Agar sen hattoki og‘ir bo‘lganida ham, hatto charchaganingda ham, hattoki hamma senga qarshi turgandek tuyulsa ham barqaror bo‘lishni o‘rgansang, sen yuksakroq, kuchliroq, yanada yetukroq bo‘lasan – sening sabr-qanoating “mutlaqo amalda” bo‘ladi.

MULOHAZA QILGIN: Muqaddas Kitobdan bugun o‘qiladigan oyatlarga ko‘ra, sinov bizga nima beradi? Sabr-toqat sen uchun nimasi bilan foydali? Sening ishonching qachondir sinovlarga uchraganmi? Qay tariqa?

IBODAT: “Samoviy Ota, men ulg‘ayishga urinishim va qachondir” hech qanday kamchiliksiz, har taraflama to‘laqonli mukammal” bo‘lishim uchun, iltimos, meni Bruklindagi daraxtga monand etgin”.

10 OKTYABR. CHEMPIONLIK FE’L-ATVORI

Kalomdan o‘qish: Rimliklar 5:1-5

Azob-uqubatlarimiz bilan ham faxrlanamiz, chunki azob-uqubatlar sabr-toqat hosil qilishini bilamiz. Sabr-toqat Xudoga ma’qul fe’l-atvorni, bunday fe’l-atvor esa umidni hosil qiladi (Rimliklar 5:3-4).

HAR KIMDA QANDAYDIR ISTE’DOD BOR. Balki sen matematikada kuchli emasdirsan, ammo yerda boshing bilan turishni uddalaysan. Yoki tilingni burning uchiga tekkaza olmassan, lekin oilada hammadan yaxshiroq kuylaysan. Aksariyat odamlarda bir qancha iste’dodlar bo‘ladi.

Quyidagi ro‘yxatda keltirilganlaridan sen o‘zing yaxshi uddalay oladiganlaringni qayd etgin:

- □ Futbol o‘ynash
- □ Spagetti yeyish
- □ Kompyuterda o‘ynash
- □ Kuylash
- □ Yangi do‘stlar topish
- □ To‘shakni yig‘ishtirish

- □ Odamlar bilan munosabat o‘rnatish
- □ Topishmoqlarni bajarish
- □ A’lo darajada yozish
- □ Chizish
- □ O‘qituvchilarni kalaka qalish
- □ Musiqa asbobini chalish
- □ O‘qish
- □ Tinglash
- □ Ko‘rsatmalarga amal qilish
- □ Yugurish
- □ Yodlab qolish
- □ Skeytbordda uchish
- □ Yomon harakatlardan voz kechish
- □ Yaxshilik qilish

Harqalay, sen bitta banddan ko‘pini qayd etding, to‘g‘rimi? Oxirgi ikkitasini (“yomon harakatlardan voz kechish” va “yaxshilik qilish”) qayd etdingmi? Bu ro‘yxatdagi eng muhim bandlar, negaki, agar unisi ham, bunisi ham senda bir tekis kechayotgan bo‘lsa, sen albatta yaxshi inson bo‘lib yetishasan.

To‘g‘ri fe’l-atvor – bu yomonlikka “yo‘q” va yaxshilikka “ha” deb aytishdir. Bilasanmi, odamlar bu fazilatni qanday qilib rivojlantirishadi? Sabr-toqat tufayli.

Ko‘ryapsanmi, Muqaddas Kitobda “azob-uqubatlar sabr-toqat hosil qilishini” bilishimiz, sabr-toqat esa fe’l-atvorni hosil qilishi aytilgan. Boshqacha aytganda, hattoki bu og‘ir bo‘lganida va bu javobing seni noxushlikka duchor qilishini bilganingda ham, yomon harakatlarga “yo‘q” deyishni o‘rganasan. Sen hattoki buni qilishni istamaganingda ham, agar boshqa bolalar ustingdan kulishsa ham, to‘g‘ri harakatlarga “ha” deyishni o‘rganasan. Sen shunday yo‘l tutganingda, hammasini yanada yaxshiroq eplaysan. Sen asta-sekin o‘zingda kuchli fe’l-atvorni rivojlantirasan – sen ezgulik *chempioni* bo‘lasan!

Mana nima uchun sabr-toqat shunchalik yaxshi; u chempionlik fe’l-atvorini rivojlantiradi. Bu esa har birimiz uchun foydalidir.

MULOHAZA QILGIN: Noto‘g‘ri harakatlarga “yo‘q” deyishing uchun bu borada mashq qilishing kerakmi? To‘g‘ri harakatlarga “ha”deyishga o‘zingni o‘rgatishing zarurmi? Muqaddas Kitob oyatlariga ko‘ra, sen buni qay tariqa amalga oshirishing mumkin?

IBODAT: “Rabbim, bilaman, sabr-toqat – bu yaxshi. Sabrli va ezgulik chempioni bo‘lishimga yordam ber”.

11 OKTYABR. TAKRORLASH – SABOQLAR ONASI
Kalomdan o‘qish: Ibroniylar 11:24-27
Go‘yo ko‘rinmas Xudoni ko‘rgandek, tanlagan yo‘lidan qaytmadi (Ibroniylar 11:27).

OTA-ONANG maktabga endi borganlarida, ular alifbo asosida o‘qishni o‘rganishgan. Ular bu kabi jumlalarni o‘qishgan: “Onam deraza romini yuvdi”. Qiziq, to‘g‘rimi?

Zamonaviy amerikalik bolalarning bobolari (yoki hattoki bobokalonlari) odatda “Mak-Gaffi darsliklari” deb nomlangan kitoblar to‘plami asosida bilim olishgan. Bu oddiy kitobchalar 1836 va 1857 yillar oralig‘ida nashr etilgan bo‘lib, amerikalik bir qancha avlod bolalarini o‘qitish uchun foydalanilgan.

Bu kitoblar bolalarni o‘qishga o‘rgatibgina qolmay, boshqa muhim saboqlarni ham berishdi. Misol uchun, sabr-toqat – foydali fazilat ekanligini o‘rgatishdi.

- Yoyma to‘rni tez yig‘ib oladigan baliqchi – baliq tutolmaydi.
- Kitobni juda tez yopib qo‘yadigan bola – darsni yaxshi o‘zlashtirolmaydi.
- O‘qiyotganingda shoshilma, sabrli bo‘l.
- Har kuni bir necha kilometr yuradigan inson – butun yer yuzini aylanib chiqishi mumkin.

Bu oddiygina ko‘rsatmalar sabr-toqat (baliq ovida, o‘qishda yoki sayohatda) muvaffaqiyatga olib borishini ko‘rsatadi. O‘z maqsadiga qat’iy intiladigan inson odatda ertami-kechmi muvaffaqiyatga erishadi. Pianino chalishni o‘rganishga zo‘r berib astoydil kirishsang, buni tobora yaxshiroq qilaverasan. Uy yumushlarini diqqat bilan bajarib, bu haqda yanada ko‘proq narsalarni bilib olasan. Mashq qilishda davom etib, sen yanada kuchliroq bo‘lib boraverasan.

Bir qarorga kelganingda, sabr-toqat ham juda foydali. Agar sen Masihga ishonsang va qaror qilishingda Uning yordam berishiga ijozat etsang, buni tobora yaxshiroq bajaraverasan. Oxir-oqibat, xoh bu pianino chalishni o‘rganish bo‘lsin, xoh to‘g‘ri qaror qabul qilish bo‘lsin takrorlash – saboq olishning onasi ekanligini anglab yetasan.

MULOHAZA QILGIN: Sening ko‘p vaqtingni oladigan biror og‘ir ishni qilishingga to‘g‘ri kelganmi? Bu ishni tugallaganingdan so‘ng o‘zingni qanday his qilgansan? O‘zing uzoq vaqt shug‘ullanib, muvaffaqiyatga erishgan (misol uchun, o‘qish yoki pianino chalishni o‘rganish kabi) biror ishni ayta olasanmi? Bu muvaffaqiyat to‘g‘ri qaroringni amalga oshirishda seni yanada sabr-toqatli bo‘lishingga yordam berdimi? Nima uchun «ha» va nima uchun «yo‘q»?

IBODAT: “Ota, biror ish ayniqsa og‘ir va uzoq vaqtni talab etganida , muvaffaqiyatga erishish juda yoqimli. Sabr-toqatning foydasini his qilishim va tushunishimga yordam ber”.

12 OKTYABR. BOBO–XUDO

Kalomdan o‘qish: 1 Shohlar 12:1, 14-18, 24

Faqat Egamizdan qo‘rqinglar, Unga butun qalbingiz bilan ishonib xizmatda bo‘linglar. Qarang, U sizlar uchun qanday ajoyib ishlar qilgan (1 Shohlar 12:24).

OLTI YOSHLI Kirill Xudoni shunday tasvirladi: “U keksa. U allaqachondan buyon bola emas”.

Uning yetti yoshli opasi Anya aniqlik kiritdi: “Uning yoshi yetmish-etmish ikkida. U butun dunyoning umumiy bobosi. – Anya fikrga botgancha qo‘shimcha qildi: – Faqat U – bobo emas, balki Ota”.

Ko‘pgina bolalar (shuningdek, kattaroq yoshdagilari ham) Xudoni xuddi Kirill va Anya kabi tasavvur qilishadi: keksa, sochi oppoq va soqolli. Ular Xudoni bolalarning boshini siypalab sovg‘a ulashadigan qizil yuzli boboga o‘xshatishadi. Ko‘pchilik bobolarga o‘xshagan bu qariya hech kimni tarbiyalamaydi va jazolamaydi; yo‘q, u bolalarni istirohat bog‘iga olib boradi va ular uchun muzqaymoq sotib oladi.

Xudoni bobo qiyofasida tasavvur qilishlarini mutlaqo tushunsa bo‘ladi. Oxir-oqibat, U azaliy! Qadimgi Ahddagi Doniyorning vahiysida Xudo “Azaliy Nuroniy”deb atalgan, Uning sochlari xuddi oq yung kabi oppoq edi (qaragin: Doniyor 7:9).

Bundan tashqari, U chindan ham sevuvchi va mehribon. Yeremiyo payg‘ambar shunday deb yozgan: “Egamiz qadimda Isroilga zohir bo‘lib, shunday degan edi: “Seni mangu sevgi bilan sevdim, Senga sodiq bo‘lib keldim” (Yeremiyo 31:3).

Lekin Xudo – parvonayu girgitton bo‘ladigan qariya emas. U samolarda to‘n va maxsi kiyib izg‘ib yurmaydi. U oqshomlari yasama jag‘ini chiqarib qo‘ymaydi. U – “O‘lmas, ko‘rinmas, yagona Xudo” (1 Timo‘tiy 1:17).

Bu muhim, negaki biz tushunishimiz kerak: Xudo haddan ziyod sho‘xlik qilgan nevaralarining boshini silab qo‘yadigan boboga o‘xshab, O‘z bolalarining gunohiga ko‘z yummaydi. U ilk odamlarni Adan bog‘idan quvib yubordi, negaki ular gunoh qilishgandi. U to‘fonni yubordi, negaki odamlar gunohkor edi. U Sado‘m va G‘amo‘rani gunohlari uchun vayron qildi. U bizning gunohlarimiz uchun O‘zining yagona O‘g‘lini xochda o‘limga yubordi.

Xudo sevgi va ezgulikka to‘la, lekin U gunohlarimizni oqlamaydi. U gunohga jiddiy yondashuvini bizga ko‘p bora isbotlab bergan.

Demak, Xudo gunohga jiddiy yondashar ekan, biz ham shunday yo‘l tutishimiz lozim. Biz noto‘g‘ri ish qilganimizda U bizning boshimizni silashini kutmasligimiz kerak; yo‘q, biz kechirim va “bundan keyin boshqa gunoh qilmaslik” (Yuhanno 8:11) kerak. Biz Xudoni nafaqat sevishimiz, balki Uni hurmat ham qilishimiz kerak. Zero, “Faqat Egamizdan qo‘rqinglar, Unga butun qalbingiz bilan ishonib xizmatda bo‘linglar. Qarang, U sizlar uchun qanday ajoyib ishlar qilgan” (1 Shohlar 12:24).

MULOHAZA QILGIN: Sen Xudoni qanday tasavvur qilasan? U sen uchun – “bobo”mi? Nima uchun «ha» va nima uchun «yo‘q»? Sen Xudoni sevib, hurmat qilasanmi? Agar shunday bo‘lsa, u holda nima uchun? Xudo sen uchun qanday “buyuk ishlar”ni qilgan?

IBODAT: “Rabbim, Sen – “O‘lmas, ko‘rinmas, yagona Xudo”. Men Seni sevaman, Xudoyim. Men Sendan qo‘rqaman va hurmat qilaman. Toki tirik ekanman, Senga sadoqat bilan xizmat qilmoqchiman”.

13 OKTYABR. ISHON VA ITOAT QIL

Kalomdan o‘qish: Zabur 77:1-7

...Bolalari ham umidini bog‘lasin Xudoga,
Xudoning ishlarini unutib qo‘ymay,
Rioya etsin Uning amrlariga (Zabur 77:7).

SEN YUGURGANINGCHA SAKRAB, xonadagi divanga o‘zingni uloqtirgan paytlar bo‘lganmi? Shunday bo‘lganmi? Bu divan seni ko‘tara olishini qayoqdan bilarding?

Sen yuz kilometrlab uzoq masofada yashaydigan biror kishi uchun konvertga marka yopishtirib xat jo‘natganmisan? Albatta! Ammo nima uchun sen xat belgilangan manzilga yetib boradi deb o‘ylading?

Sen do‘stingga qo‘ng‘iroq qilib uning kvartirasida kimdir go‘shakni ko‘tarishini kutib turishingga to‘g‘ri kelganmi? Nega sen aynan o‘sha yoqqa qo‘ng‘iroq qilayotganingga ishongansan?

“Qanday bema’ni savollar? – deysan sen. – Bilamanki, divan meni ko‘taradi, negaki unga bir necha bora o‘zimni tashlaganman. Xat ham ko‘zlangan manzilga yetib boradi, negaki ko‘p marotaba o‘sha yoqqa maktub yuborganman. Nega qo‘ng‘irog‘im do‘stimning kvartirasiga bog‘lanmas ekan, albatta, agar ular telefon raqamini o‘zgartirgan bo‘lishmasa?”

Sen mutlaqo haqsan. Sen bunday ishlarni har kuni qilasan. Bilasanki, divan seni ko‘taradi, negaki unda ko‘p bora o‘tirgansan va u hech qachon sinmagan, shunday emasmi? Xat va telefon qo‘ng‘irog‘iga ham bu gaplar taalluqli; sen biror hodisa yuz berishini kutasan, negaki doimo shunday bo‘lgan, to‘g‘rimi? Sen bularga ishonishingni aytishing mumkin?

Demak, sen divan hech qachon sinmagani uchun uning mustahkamligiga ishonsang, unda Xudoga aniq ishonsa bo‘ladi. Divan vaqt o‘tib sinishi mumkin; mana u to‘satdan qulab tushadi – eskiligi tufayli! Xudo esa hech qachon qarimaydi. U aslo o‘zgarmaydi. U hech qachon taslim bo‘lmaydi. U hamisha ishonchga loyiq.

Agar sen Xudoga ishonsang, bu holda Uning amrlariga ham ishonishing mumkin. Xudo nimadir qilishni (yoki nimadir qilmaslikni) aytganida, Unga ishonishing mumkin, Uning amrlari yaxshi bo‘lgani uchun ham yaxshi natija beradi. “Ota-onangni hurmat qil”, – senga bundan hech bir yomonlik kelib chiqmasligiga ishonganing uchun bu amrga ishonishing mumkin. Xudo, “Yolg‘on gapirma” deb aytganida, bu zararli emasligini, balki haqiqat ekanligini bilganing uchun bu amrga ishonasan.

Biror amrning yaxshi yoki yomon ekanligi haqida o‘ylab o‘tirishingga hojat yo‘q! Shunchaki o‘ylab o‘tirmasdan tavba qil. Mabodo sen Xudoga ishona olsang (sen esa bunga qodirsan), bu holda Uning amrlariga ham ishonishing mumkin.

MULOHAZA QILGIN: Muqaddas Kitobdan bugun o‘qiladigan oyatlarning ma’nosini anglagin va biz Xudoga ishonishimiz mumkin bo‘lgan to‘rtta sababni bandning ochiq qolgan joylariga yozib chiq.

- **bosalaqri O‘tmishning _____**
- **yubuk Xudoning _____ ishlari**
- **ratiduq Xudoning _____**
- **larajoytibo U qilgan _____***

IBODAT: “Rabbim, Sening amrlaringga ishonish mumkinligini bilaman, negaki Senga ishonish mumkinligini bilaman. Sening ajoyib mo’jizalaringni eslab turishim va Sening amrlaringni har kuni bajarishim uchun menga yordam ber”.

_____

*Javoblar: saboqlari; buyuk; qudrati; ajoyibotlar

14 OKTYABR. CHIKAGOGA YO‘L OLGAN IKKI KALONDIMOG‘

Kalomdan o‘qish: Rimliklar 12:14-16

Takabburlik qilmay, bechora hamda past tabaqali odamlar bilan do‘st bo‘linglar (Rimliklar 12:16).

IKKITA ODAM YO‘LDA mashina to‘xtatishmoqda.

– Sen qayoqqa ketyapsan? – deb so‘raydi birovi.

– Chikagoga, – deb javob qaytaradi boshqasi.

– Men ham o‘sha yoqqa ketyapman!

– Xo‘sh, biz qaysi tarafga borishimiz kerak, bilasanmi?

Birinchi odam shundoqqiqa boshlarining tepasidagi yo‘l belgisini ko‘rsatibdi:

– Belgiga ko‘ra, Chikago u tarafda! – U qo‘li bilan shimol tomonni ko‘rsatibdi.

Ikkinchi kishi belgiga qarab, bosh silkibdi:

– Shunaqaga o‘xshaydi, – u boshqasining yuziga tikilib qarabdi. – Ammo bunga to‘liq ishonchim yo‘q. Ehtimol, u qarama-qarshi tarafdadir? – U qo‘li bilan janub tomonga ishora qilibdi.

Ular bir muddat mashinalar oqimiga qarab qolishibdi. So‘ngra ikkinchi kishi yelkasini qisib, yo‘l xaltasini qattiq tortib bog‘labdi.

– Ba’zan tezda tushunolmay qolasan, to‘g‘rimi?

Va ular yo‘lning mashinalar janubga... Chikagodan *qarama-qarshi tarafiga* boradigan tomoniga o‘tib olishibdi.

Bu aqlli ish emas, to‘g‘rimi? Ular to‘g‘ri yo‘lni ko‘rsatib turgan belgining naq ostida turishgandi, lekin ular go‘yo qaysi yo‘l to‘g‘ri ekanligini bilmagandek harakat qilishdi.

Albatta, odamlar ayniqsa gap yaxshilik va yomonlikdan birini tanlash haqida ketganida, o‘zlarini doimo shunday tutishadi. Misol uchun, Xudo O‘z Kalomida mutlaqo aniq qilib, mag‘rur va dimog‘dorlar uchun yomon bo‘lishini aytgan; ammo odamlar baribir o‘zlarini go‘yo boshqalardek afzaldek tutishadi.

Biz uchun mag‘rur bo‘lish yaxshi yoki yomon ekanligini aniqlashtirib olishga hojat yo‘q. Rimliklarga maktubning 12-bob, 16-oyatida Xudo (havoriy Pavlus orqali) shunday deydi: “O‘zaro hamfikr bo‘linglar. Takabburlik qilmay, bechora hamda past tabaqali odamlar bilan do‘st bo‘linglar”. Va har ehtimolga qarshi, agar biz bu so‘zlarning ma’nosini tushunmay qolishimizni nazarda tutib, boshqa so‘zlar bilan yana qayd etadi: “O‘zbilarmonlik qilmanglar”. Bu xuddi yo‘l belgisi kabi aniqdir.

MULOHAZA QILGIN: Nima deb o‘ylaysan, “o‘zbilarmonlik qilish” nimani anglatadi? (Mabodo bilmasang, bu haqda ota-onangdan so‘ra). Itoatkor bo‘lishning ma’nosi nima? Mag‘rur bo‘lish yaxshi yoki yomon ekanligi haqida qaror qabul qilishing kerakmi? Nima uchun «ha» va nima uchun «yo‘q»?

HARAKAT QIL: Qattiq qog‘ozdan yo‘l belgisini yasab, unga “o‘zbilarmonlik qilish” deb yozgin va buni o‘chirib tashla (xuddi yo‘l belgilarida qilingani kabi: qizil aylana va burchak shaklida). Bu senga mag‘rurlikka “yo‘q” deb aytish qanchalik muhim ekanligini senga eslatib tursin.

IBODAT: “Mehribon Samoviy Ota, men hikoyada keltirilgan bu ikkala odamga o‘xshashni istamayman. Sening amrlaringni esda tutishim va ularga itoat etishim, mag‘rur bo‘lmasligim uchun, o‘zbilarmonlik qilmaslik va go‘yo men boshqalardan afzal ekanligim haqida o‘ylamasligim uchun menga yordam ber”.

15 OKTYABR. YETTI MARTA O‘LCHAGIN

Kalomdan o‘qish: Efesliklar 4:1-3

Doimo kamtar va muloyim bo‘linglar, mehr-muhabbat bilan bir-biringizga nisbatan sabr-toqatli bo‘linglar (Efesliklar 4:2).

KO‘PCHILIK ODAMLAR MUQADDAS KALOM amrlarini Kalomda uchramaydigan masallar va mashhur bo‘lgan so‘zlar bilan adashtirishadi. Misol uchun, bir tanishim, “Tozalik – sog‘lik garovi” so‘zini Kalomdan olingan deya hisoblaydi. Lekin aslida bunday emas.

Ko‘raylikchi, sen Muqaddas Kitob amlarini farqlay olarmikansan. Muqaddas Kitobda bor deya hisoblaydigan iboralaringni qayd etgin. (Agar bunga ishonching komil bo‘lmasa, “Simfoniya”dan foydalan).

1. “Bo‘lmoq yoki bo‘lmaslik – mana gap qayerda”.
2. “O‘zingizni kamtar tutib, bir-biringizga xizmat qilinglar. Zero, “Xudo mag‘rurlarga qarshi chiqadi, kamtarlarga esa inoyat ko‘rsatadi”.
3. “Agar biror narsa boshqacha bo‘lishi kerak bo‘lsa, aynan o‘shandek bo‘ladi”.
4. “Biz qo‘rquvning o‘zidan boshqa hech nimadan qo‘rqmaymiz”.
5. “Mag‘rurlikning ortidan halokat keladi”.
6. “Takabburlik qilmay, bechora hamda past tabaqali odamlar bilan do‘st bo‘linglar”.
7. “Muhabbat va ayriliq ikki qadrdon dugonalar kabi doimo birga yurishadi”
8. “Otdan oldin aravani qo‘yma”.
9. “Yetti marta o‘lchab, bir marta kes”.
10. “Takabburlar bilan o‘lja bo‘lishgandan ko‘ra, kamtarin bo‘lib kambag‘allar orasida yashash yaxshiroq”.

Xo‘sh, bu oson ekanmi? Yoki juda murakkabmi? Sen o‘z javoblaringni tekshirib ko‘rdingmi? Ehtimol, sen birinchi jumla – Shekspirning “Gamlet”idagi mashhur iqtibos ekanligini tushungandirsan. Uchinchi raqamli – bu Myorfi qonuni deb aytiladiganlaridan biri. To‘rtinchi raqam – prezident Franklin D.Ruzveltning so‘zi. Yettinchi raqam – bu qo‘shiqdagi so‘zlar. Sakkizinchi va to‘qqizinchi esa – maqollar. Boshqalari (2, 5, 6, 10) – Muqaddas Kitob oyatlari.

Muqaddas Kitobning ushbu ro‘yxatga kirgan oyatlari mag‘rur emas, balki kamtar bo‘lishimiz kerakligini ko‘rsatadi.

Albatta, “etti marta o‘lchab, bir kes” va “aravani otdan oldin qo‘yma” – bu ham dono maslahatlar. Biroq kamtar bo‘lish haqidagi Xudoning amrini bajarish yanada muhimroqdir.

MULOHAZA QILGIN: Sen qachondir o‘zingni boshqalardan afzalroq hisoblab, maqtanganmisan? Sen qachonlardir mag‘rur bo‘lib, o‘zbilarmonlik qilganmisan? Kamtarlik yaxshi, mag‘rurlik esa yomonligini qayoqdan bilasan? Sen Xudoning kamtar bo‘lish kerakligi haqidagi amrini qanday bajarasan a) hech qachonmi? b) ba’zanmi? v) aksariyat hollardami? g) hamishami?

IBODAT: “Rabbim, Sening amrlaringga ko‘ra, men kamtar bo‘lish yaxshi ekanligini bilaman. Amrlaring yaxshilik bilan yomonlikni farqlab olishimga yordam berayotgani uchun Sendan minnatdorman. Sening Ruhing qalbimda yashab menga yaxshilikni tanlashimga yordam berayotgani uchun Senga rahmat aytaman”.

16 OKTYABR. KAMTARLIK UCHUN MUKOFOT

Kalomdan o‘qish: Ishayo 66:1-2

Egamiz shunday aytmoqda... kamtar, mo‘min bo‘lgan odamga, Kalomim oldida titraydiganlarga Men e’tibor bilan qarayman (Ishayo 66:1-2).

AMERIKADA HAR YILI TAXMINAN MANA SHU PAYTLARDA beysbol ligasi yakunlanadi va har ikkala liga (“Amerika ligasi” va “Milliy liga”) o‘zlarining eng yaxshi o‘yinchilarini e’lon qilishadi.

MVP (“Eng qimmatli o‘yinchi”) ilk mukofoti 1911 yilda topshirilgan. Avtomobil kompaniyasining egasi Xyu Chelmers, “o‘yin darajasi va xizmatlari bo‘yicha o‘z klubi va liga uchun eng foydali bo‘lgan” o‘yinchiga o‘zining kompaniyasida ishlab chiqarilgan mashinalardan birini sovg‘a qilmoqchi ekanligini e’lon qildi. Beysbol qo‘mitasining ovoz berishidan so‘ng, MVP ilk mukofotlari “Deytroyt Taygers” jamoasidan Tay Kobbiga va “Chikago Kabs”dan Frenk Shultuga topshirildi.

O‘shandan buyon yutuqlar ko‘p bora topshirilgan. O‘yinchilarning ko‘rsatgan xizmatlari turlicha edi. Lekin ular yilning eng qimmatli o‘yinchilariga aylanib qolishdi.

Xudoda ham O‘zining MVP mukofotlari borligini bilasanmi? Kamtarlik uchun. Harholda, kamtarlik – majburiy talablardan biri hisoblanadi. Muqaddas Kitobdan bugun o‘qiladigan oyatda Xudo shunday deydi: “Kamtar, mo‘min bo‘lgan odamga, Kalomim oldida titraydiganlarga Men e’tibor bilan qarayman” (Ishayo 66:2) Boshqacha aytganda, Xudo kamtarlikni qadrlaydi. U kamtarlikni – ajoyib deya hisoblaydi.

Albatta, Xudo “Eng qimmatli o‘yinchi” mukofotini topshirmaydi; U barcha odamlarni qadrlaydi. Ammo Unda “Eng qimmatli *qoida*” mukofoti bor, kamtarlik qoidasi esa Uning eng sevimli qoidalaridan biridir. Mana nima uchun Xudo bizga kamtar bo‘lishni buyuradi; U kamtarlikni beysboldagi muvaffaqiyatdan ham ortiqroq qadrlaydi.

MULOHAZA QILGIN: Agarda Xudo kamtarlik uchun mukofot berganida, sen uni olishga erisharmiding? Uni olishni istaysanmi? Sen bunday mukofotdan mag‘rurlangan bo‘larmiding? Sen shunday qilsang o‘zingga pand berishingni payqadingmi: o‘z kamtarligi bilan mag‘rurlanish aslida kamtarlik emas, to‘g‘rimi? Nima deb o‘ylaysan, kamtar bo‘lgan yaxshimi yoki mag‘rur? Nega?

IBODAT: “Rabbim, Sen kamtarlikni qadrlashingni bilaman; Sen beozor va ruhan kamtar odamlarni hurmat qilasan. Sen bilan va boshqa odamlar bilan hamisha kamtar bo‘lishim uchun yordam ber”.

17 OKTYABR. OTDAN TUSH

Kalomdan o‘qish: Ibroniylar 11:24-27

Mening bo‘yinturug‘imni taqib olinglar, mendan o‘rganinglar. Chunki men yumshoq ko‘ngil va kamtarinman. Shunda sizlarning jonlaringiz orom topadi (Matto 11:29).

AMERIKADAGI MUSTAQILLIK URUSHI DAVRIDA askarlarga daryoga ko‘prik solish uchun bir qancha daraxtlarni kesishni buyurishibdi. Bu o‘ta og‘ir bo‘lgan ish juda sekin siljirdi. Askarlar ming‘irlashib ko‘zlaridan yosh oqardi. Shu payt ularning oldiga bir otliq keldi.

U ishlamay, boshqalarga ko‘rsatma berib turgan askarga murojaat qildi.

– Sizga odamlar yetishmayaptimi? – deb so‘radi u.

– Yetishmayapti, – dedi ko‘rsatma berib turgan odam.

– Nega o‘zingiz yordam bermayapsiz? – deya bilmoqchi bo‘ldi otliq.

– Men-a? – taajjublandi askar. – Janob, men kapralman!

– A-ha, – dedi otliq go‘yo bu javobdan hammasini tushungandek. U otdan tushib askarlarga yordam bera boshladi. Daraxtlar kesib bo‘linib, ko‘prik o‘rnatilganida u yana otiga minib kapralga harbiychasiga ishora berdi.

– Keyingi safar biror narsa qilish kerak bo‘lganida odamlaringiz yetishmasa, bosh qo‘mondonni chaqiring, men yana tezda yetib kelaman, – dedi u.

Bu otliq Jorj Vashington edi.

Bu voqea Jorj Vashingtonning qanday buyuk inson bo‘lganligini ko‘rsatadi. U garchi urush paytida general va Amerika barcha qo‘shinlarining bosh qo‘mondoni bo‘lsada, oddiy kapral qilishni istamagan ishni bajarishdan uyalib o‘tirmadi.

Ushbu voqeaga ko‘ra Jorj Vashington qanchalik ulug‘ inson bo‘lgan bo‘lsa, bizning Rabbimiz Iso Masih bundanda buyukdir! Garchi, U Xudo, butun olamning Yaratguvchisi bo‘lsada, O‘zini pastga urib, – biz barchamiz uchun – gunohsiz yashab dahshatli o‘lim topish uchun bu olamga keldi.

Isoning ibrati beozorlik to‘g‘ri va yaxshi ekanligini ko‘rsatadi, negaki Qodir Xudo O‘zini biz uchun pastga urdi. Agar Xudoning O‘zi “yumshoq ko‘ngil va kamtarin” (Matto 11:29) bo‘lsa, biz Uning ibratidan yuvoshlik va muloyimlikni o‘rganishimiz kerak.

MULOHAZA QILGIN: Nima deb o‘ylaysan, o‘sha kapral o‘z oldida general Jorj Vashington bo‘lganini tushunganida, o‘zini qanday his qilgan? Iso, “Mendan o‘rganinglar. Chunki men yumshoq ko‘ngil va kamtarinman”, deganida nimani nazarda tutgan? Sen Isodan bugun yumshoq fe’l va muloyim bo‘lishni qay tariqa o‘rganishing mumkin?

IBODAT: “Iso, mening gunohlarim uchun o‘lish maqsadida odamga aylanib, O‘zingni xo‘rlaganing uchun Senga rahmat. Iltimos, kimniki uchratmay, bugun yuvosh va yumshoq fe’l bo‘lishimga meni o‘rgatgin”.

18 OKTYABR. G‘OLIBLARNING REAKSIYASI

Kalomdan o‘qish: Qonunlar 8:6-14

Gerdayib ketmanglar. Sizlarni Misrdagi qullikdan olib chiqqan Egangiz Xudoni esingizdan chiqarmanglar (Qonunlar 8:14).

NATASHA OLDINGA YUGURIB to‘pni bor kuchi bilan tepdi. U taajjub bilan havoda uchayotgan to‘pning darvozaga kirib ketganiga qarab turdi. U gol urdi! U quvonchdan qiyqirib kulganicha sakrardi. Jamoadosh o‘rtoqlari uni o‘rab olishdi, u baxtiyor bo‘lib o‘zidan faxrlanardi.

Lyosha sahnaga chiqib, direktorning qo‘lidan faxriy yorliqni qabul qildi. U o‘girilib, zalda o‘tirgan ota-onasiga qaradi. Ular Lyoshani olqishlashardi, onasi yig‘lardi. Lyosha mag‘rurlikdan o‘ziga sig‘masdi.

Kichkintoy Jenya mehmonxonaga onasining oldiga yugurib keldida, o‘zi chizgan suratni ko‘rsatdi. Onasi uning qo‘lchalaridan suratni olib maqtab qo‘ydi. Jenya mag‘rurona tabassum qilgan holda o‘z xonasiga qaytib ketdi.

Nima deb o‘ylaysan, Natasha, Lesha va Jenya o‘zlaridan faxrlanganlarida nohaq edilarmi? Ular yomon ish qilishdimi?

Yo‘q. Ularning harakatlari mutlaqo tabiiy va to‘g‘ri. Natasha o‘z harakatlari bilan jamoadosh do‘stlarini xursand qilganidan mamnun edi. Lyosha uchun direktorning qo‘lidan mukofot olib, ota-onasini quvontirganidan yoqimli bo‘lgandi. Kichkintoy Jenya onasi uning “san’at”ini maqtagani uchun quvonchdan qalbi yorishib ketgandi. Ular o‘z yutuqlaridan faxrlanishga haqli edilar.

Ko‘rayapsanmi, gunohkorona mag‘rurlik va o‘z yutuqlariga halol, sog‘lom munosabat o‘rtasida farq bor. G‘alabadan quvonish – gunoh emas, ammo Natasha o‘zini jamoadagi “eng yaxshi o‘yinchi” hisoblab, boshqalarni xafa qilsa, bu gunohkorona mag‘rurlik bo‘lardi. Mukofotdan mag‘rurlanish – gunoh emas, lekin agarda Lyosha o‘zini maktabdagi eng aqlli bola kabi tutganida, bu kalondimog‘lik bo‘lardi. Ota-onalarning maqtovidan quvonish gunoh emas, biroq agarda Jenya doimo qanday yaxshi chizishini aytaversa, bu maqtanchoqlik bo‘lardi.

Farqni sezyapsanmi? Sen kamtar bo‘lgan holda o‘z muvaffaqiyatlaringdan faxrlanishing mumkin. Lekin o‘z yutuqlaringdan faxrlangan holda ham kamtar bo‘lib qolishing mumkin. Ammo mag‘rur, maqtanchoq va kalondimog‘ bo‘lganingda, kamtarlik namoyon etmaysan. Senga yoqqan narsalardan quvongin, lekin dimog‘dor emas, balki muloyim va minnatdor inson bo‘lishga harakat qil.

MULOHAZA QILGIN: Nima deb o‘ylaysan, inson bir vaqtning o‘zida mag‘rur va olijanob bo‘lib qolishi mumkinmi? Nima uchun «ha» va nima uchun «yo‘q»? Nima deb o‘ylaysan, odam muloyim va olijanob bo‘lishi mumkinmi? Nima uchun «ha» va nima uchun «yo‘q»? Sening yaxshi fazilatlaring va yutuqlaring evaziga hosil bo‘ladigan tabiiy mag‘rurlik hamda gunohkorona mag‘rurlik, maqtanchoqlik va dimog‘dorlik o‘rtasida qanday farq bor?

IBODAT: “Samoviy Ota, o‘zimga yoqadigan, yaxshi natija beradigan sog‘lom va imonli munosabatlarni shakllantirishim uchun yordam ber. Iltimos, meni gunohkorona mag‘rurlikdan himoya qil”.

19 OKTYABR. XITOY DEVORI UNCHALIK HAM BUYUK EMAS

Kalomdan o‘qish: 2 Solnomalar 7:11-14

Mening nomim bilan atalgan xalqim tavba qilib, Menga iltijo qilsa, Menga yuz burib qabih yo‘llaridan qaytsa, Men osmondan turib ularning iltijolarini eshitaman, gunohlarini kechirib, yurtiga shifo beraman (2 Solnomalar 7:14).

KOINOTDAN KO‘RISH MUMKIN BO‘LGAN odamzotning yer yuzida yaratgan birgina inshooti bor. Bu inson qo‘li bilan yer yuzida yaratilgan eng uzun qurilish bo‘lib, uzunligi deyarli 6500 kilometrni tashkil etadi. Bu Buyuk Xitoy devoridir.

Buyuk Xitoy devorini Masih tug‘ilmasidan to‘rt yuz yil avval qurishni boshlashgan va bu taxminan ikki ming yil mobaynida davom etgan. Garchi uning ayrim joylari qo‘porilib tushgan bo‘lsada, lekin u Tinch ummoni sohillaridan toki mamlakatning shimoligacha cho‘zilib ketgan. Xitoyliklar bu devorni boshqa xalqlar o‘z yurtlariga hujum qilmasliklari uchun barpo etishgan. Ular hanuzgacha bu bilan nihoyatda faxrlanishadi. Uni sayohatchilarga ko‘rsatishadi. Olimlar zilzila sabablarini o‘rganish uchun bu devordan foydalanishadi.

Biroq, ayrim olimlar, Buyuk devori (Xitoy faxri) mamlakat tarixiga salbiy ta’sir ko‘rsatgan deb hisoblashadi. U Xitoyni ko‘plab hujumlardan asrab qolgan bo‘lsada, ayni vaqtda ko‘plab ijobiy ta’sirlardan to‘sib qo‘ygan. Asrlar davomida dunyo xalqlariga o‘z ta’sirini ko‘rsatgan kashfiyot va taraqqiyot Xitoyni chetlab o‘tdi. Buyuk xalq orqada qolib ketdi, buning sabablaridan bittasi Buyuk devor yangi g‘oyalarning Xitoyga kirib kelishiga to‘sqinlik qildi.

Mag‘rurlik bilan ham xuddi shunday bo‘ladi. Ayrim kishilar mag‘rurlik go‘yo ularni himoya qiladigandek yoki atrofdagilarga nisbatan nufuzli etadigandek o‘zlarini tutishadi. Lekin mag‘rurlar shu tariqa yo‘l tutib, Xudoning marhamati o‘zlariga kelishiga to‘sqinlik qilishadi. Xudo (va boshqa odamlar)ning ularga yordam berib, marhamat qilishlari yanada og‘irroq bo‘ladi.

Boshqa tarafdan olganda, muloyimlik marhamat uchun yo‘l ochadi. Yumshoqlik Xudoga sen bilan gaplashishiga, senga yordam berishiga va marhamatlashiga yordam beradi. Muloyimlik boshqa odamlarning seni sevib, yoningda bo‘lishlariga ko‘maklashadi. Mag‘rurlik – bu ko‘plab yaxshiliklarni sening hayotingga qo‘ymaydigan devorlir; muloyimlik sening hayotingga ko‘p ezguliklar kirib kelishiga yo‘l ochib beradi.

MULOHAZA QILGIN: Muqaddas Kitobdan bugun o‘qiladigan oyatlarda Xudo O‘z xalqiga xabar bergan to‘rt narsa bor. Xudo ularni kechirishi va yurtlarini marhamatlashi uchun bu odamlar nima qilishlari kerak? Nima deb o‘ylaysan, Xudo kamtarlarni mag‘rurlardan ko‘ra ortiqroq marhamatlaydimi? Nima uchun «ha» va nima uchun «yo‘q»? Xudoning seni kechirishi oson bo‘lishi va bugun seni marhamatlashi uchun nimalar qilishing mumkin?

IBODAT: “Rabbim, Sen menga shunchalik ko‘p marhamat bag‘ishlab, shuncha ko‘p inoyatlar berdingki, men Senga minnatdorchilik bildirishim kerak, misol uchun ..... Iltimos, Sening yordaming va marhamating uchun ochiq bo‘lib qolishim, mag‘rur emas, balki muloyim bo‘lib qolishim uchun yordam ber”.

20 OKTYABR. BOBILDAGI YIG‘IN

Kalomdan o‘qish: Ibtido 11:1-9

Mag‘rurlikning ortidan halokat keladi, takabburlikdan so‘ng esa odam qoqiladi (Hikmatlar 16:18).

TASAVVUR QILGIN-A, sen Shinar tekisliklarida bundan minglab yillar avval yashamoqdasan. Sen chodiringda, bir chetda o‘tirib, radio eshityapsan. (Albatta, o‘sha paytda radio bo‘lmagan, lekin bir tasavvur qilib ko‘raylik, maylimi?)

– Xayrli tong, Shinar vodiysi! Biz Bobil minorasi qurilayotgan joydan to‘g‘ridan-to‘g‘ri eshittirish olib boryapmiz! – deb e’lon qiladi boshlovchi. – Biz bugun rassom Arpaxshod, shoh Amrafel va Shinarlik Tupak bilan uchrashamiz, lekin eng avvalo, men sizlarga ajoyib minoramizning quruvchilaridan biri Nimro‘dni tanishtirmoqchiman. Nimro‘d, biz bilan suhbatlashishga rozi bo‘lganingiz uchun sizga rahmat!

– Biz nihoyat ushbu loyihani amalga oshira olishimizdan g‘oyat xursandmiz, – deydi boshqa ovoz. – Biz ushbu ishni tugatganimizda, barcha Xudoga va Yaratguvchiga ishonch – bor-yo‘g‘i xurofot ekanligiga ishonch hosil qiladi. Biz samoga xuddi zinapoyadan ko‘tarilgandek ko‘tarilamiz. Bu minora insonning ulug‘ligi, mening – Nimro‘dning ulug‘ligi sifatida abadiy turadi! Va tag‘in, razel frazel boboli babel!

Sen radioga hayron bo‘lib qaraysan. Bu yigit shu so‘zlarni aytganini noto‘g‘ri eshitgandek bo‘lasan: “razel frazel boboli babel”. Sen radio sozlanmasi adashib ketmaganini tekshirish uchun dastakni burasan. Lekin shu zahoti boshlovchining tanish ovozini eshitasan:

– Gu. Mungu piki botaxaxa gu!

Sen radioni o‘chirib, ota-onangni uyg‘otish uchun ularning yelkasiga turtasan:

– Ona, ota, men ulg‘ayganimda kim bo‘lishimni bildim! Tarjimon bo‘laman!

Ha albatta, bu shunday bo‘lmagan. Biroq Bobil minorasi mag‘rurlik va quruvchilarning jizzakiligi tufayli to‘xtab qolgan (qaragin: Ibtido 11:1-9). Ular o‘zlariga va o‘z imkoniyatlariga yodgorlik o‘rnatmoqchi bo‘lishdi, ammo Bobil minorasi axlat uyumiga aylanib qoldi.

Hayotda ham shunday bo‘ladi. Muqaddas Kitobda yozilgan: “Mag‘rurlikning ortidan halokat keladi, takabburlikdan so‘ng esa odam qoqiladi” (Hikmatlar 16:18). Muqaddas Kitobda – va umuman tarixda – mag‘rurlik halokatga olib kelgan odamlar haqida ko‘plab voqealar bor (Go‘liyot, Xomon, Navuxadnazar, Belshazar ulardan ayrimlari, xolos). Mana nima uchun Xudo bizning kamtar bo‘lishimizni istaydi: U bizni mag‘rurlik olib keladigan halokat va umidsizlikdan himoya qiladi, kamtarlik ortidan keladigan marhamat va donolik bilan bizni to‘ldiradi.

Bu esa axlat uyumi orasida bo‘lib qolishdan ancha afzaldir.

MULOHAZA QILGIN: Mag‘rurlik odatda halokat va umidsizlikka olib kelishi haqidagi fikrga qo‘shilasanmi? Agar bu fikrga qo‘shilsang, nima uchun? Nima deb o‘ylaysan, mag‘rurlik odamlar qalbini ko‘r qilib, aqlli maslahatlarga quloq solmaydigan darajaga keltirib bema’ni harakatlar qilishlariga undaydimi? Nima uchun «ha» va nima uchun «yo‘q»?

IBODAT: “Dono va sevuvchi Rabbim, meni muloyimlikka o‘rgatib, mag‘rurlik xavfidan himoya qilayotganing uchun Senga rahmat. Iltimos, meni O‘g‘ling, Iso kabi muloyim va kamtar bo‘lishga o‘rgatgin”.

21 OKTYABR. MO‘LJAL OLISHNI O‘RGAN

Kalomdan o‘qish: Yuhanno 14:15-17

Men osmondagi Otaga murojaat qilaman va U sizlar bilan to abad qoladigan boshqa Homiyni yuboradi. Bu Homiy – Haqiqat Ruhidir (Yuhanno 14:16-17).

SPORTNING QANCHA TURLARINI bilasan? Sanab o‘tgin.

Sen qanchasini eslashing mumkin? Ehtimol, sen futbol deb aytarsan, to‘g‘rimi? Shuningdek, basketbol, voleybol va tennisni aytishing mumkin. Balki, xokkey, avtopoyga va velopoyga senga yoqar. Biroq sen harholda aytib o‘tmagan bir sport turi bor. Bu mo‘ljal olishni aniqlash sporti.

U tobora ommabop bo‘lib bormoqda. Musobaqa ishtirokchilari o‘zlari bilan xarita va kompas olib biror xilvat joyga (sahroga, o‘rmonga, dalaga va h.k.) borishadi. Xarita, kompas va mo‘ljal olish bilimlari bilan muayyan bir maqsadga yetishishlari kerak. Odamlarga ushbu sport turi yoqadi, negaki u topishmoq yechish va labirintda yo‘l izlashga o‘xshaydi.

Aslida biz hammamiz xuddi shu narsa bilan muntazam shug‘ullanamiz. Ehtimol, biz hech qachon o‘rmonda va dalada bo‘lmagandirmiz, lekin biz tez-tez avval bo‘lmagan vaziyatlarga tushib qolamiz: “Xolamning torti menga yoqmasada, unga tort mazali ekan aytishim yolg‘on bo‘ladimi?” “Akamga aytmagan holda, uning yig‘ib qo‘ygan pulidan “qarz” olishim to‘g‘rimi?” “Singlimga soqol olish uchun ishlatiladigan krem sovg‘a qilib, bu quruq teri uchun tungi krem desam ma’qul bo‘larmikan?”

Notanish vaziyatda mo‘ljalni olish anchayin qiyin bo‘ladi. Bizga tez-tez yo‘nalishni topib olishimiz kerakdek tuyuladi. Ammo bizga bunday tuyulmasligi kerak – agarda bunga muvofiq asbob-uskunalar bo‘lsa, albatta.

Iso O‘z shogirdlariga ularni tark etib, samoga ketayotganini aytganida, Ota “sizlar bilan to abad qoladigan boshqa Homiyni yuboradi. Bu Homiy – Haqiqat Ruhidir” (Yuhanno 14:16-17), deya va’da qilgan. U O‘zining izdoshlari ba’zan o‘zlarini adashib qolgandek his qilishlarini aytgan. Iso ularning gohida qanday yo‘l tutishni bilmay qolishlarini tushungan. Shu bois Iso ularning qalblarida yashab haqiqatga undaydigan Muqaddas Ruh bo‘lishini aytgan.

Mo‘ljal olishning asoslaridan biri – to‘g‘ri yo‘l izlash uchun kompasdan foydalanishdir. To‘g‘ri tanlovning asoslaridan biri – bizga yo‘l ko‘rsatadigan Muqaddas Ruhni tinglash. Biz Uni ibodat orqali, Muqaddas Kitobni

o‘qish va amrlarni bajarish orqali tinglaymiz. Biz Uni tinglaganimizda, vaziyat u qadar notanish bo‘lib tuyulmaydi va biz yo‘lni aniqroq farqlaymiz.

MULOHAZA QILGIN: Nima deb o‘ylaysan, masihiylar (ichlarida Muqaddas Ruh yashayotganlari) e’tiqodsiz kishilarga nisbatan ezgulik va yovuzlikni yaxshiroq farqlay olishadimi? Nima uchun «ha» va nima uchun «yo‘q»? Muqaddas Ruhning ko‘rsatmalari xarita yoki kompasga nimasi bilan o‘xshash? Ular nimada farqlanishadi? Ruh senga ko‘rsatmaga berishiga ijozat etasanmi? Agar yo‘q bo‘lsa, nima uchun? Agar ijozat etsang, qay tarzda?

IBODAT: “Mehribon Xudo, har bir masihiyning ichida yashayotgan, Sen in’om etgan Muqaddas Ruh uchun rahmat. Iltimos, Uning ovozini eshitishimga va Uni ko‘rsatmalariga amal qilishimga yordam ber”.

22 OKTYABR. SEVGIDA IQROR BO‘LISHNING O‘N UCH USLUBI
Kalomdan o‘qish: Yuhanno 14:18-21
Mening amrlarimni bilib, ularga amal qilgan kishi Meni sevadi (Yuhanno14:21).

KIMGADIR SEVGI IZHOR QILISHNING KO‘PLAB USLUBLARI BOR. Sen quyidagilarni qilishing mumkin:

- “Men seni sevaman!” deyishing
- “Men seni sevaman!” deb yozishing
- uning ismini qorda yozishing
- unga hikoya aytib berishing
- havo orqali o‘pich yo‘llashing
- uning xonasini tozalab qo‘yishing
- qo‘shiq kuylashing
- quchoqlashing
- valentinka yuborishing
- pirojnoye pishirishing
- gullar sovg‘a qilishing
- uning stoli ustida yurak shaklidagi gul marjon ilishing
- bu insonga ko‘rsatma berishing

Oxirgi band seni hayron qoldirdi, to‘g‘rimi? Oxir-oqibat, kim ham sevgi izhor etib, ko‘rsatma berishi mumkin?

Ko‘pchilik aslida shunday qiladi. Ehtimol, ota-onang buni har doim qilishar. Ular shunday deyishadi: “Katta yo‘lda skeytbordda uchmagin”, “Kamaringni taqib ol”, “Yelkangga feyerverkdan katta raketa osib olib Oyga uchib ketishga urinma”. Ular senga toqat qila olmaganlaridan shunaqa deyishmaydi. Sening hayotingni buzmoqchi ham emaslar. Ular seni sevganlari bois shunday ko‘rsatmalar berishadi. Misol uchun, ular katta yo‘lda skeytbordda uchmasligingni buyurishadi, negaki mashina tagiga tushib qolishingni istashmaydi. Ularning ko‘rsatmasi – sevgi izhorining uslubidir.

Xudo ham shunday yo‘l tutadi. U bizni sevgani bois mana bunday amrlarni beradi: “Yolg‘on gapirma”, “O‘g‘irlama”, “Zino qilma”. U bizni himoya qilishni va bizning xayru-barakalarimiz uchun g‘amxo‘rlik qiladi. Misol uchun, U bizga fikrlar, so‘zlarimiz va harakatlarimizda tozalikni asrashni buyuradi, U bizni zararli odatlardan, kasallik va boshqa yomon vaziyatlardan asraydi. Uning amrlari – sevgi izhorining uslubidir.

Bilasanmi, biz Unga qanday qilib sevgi izhor etishimiz mumkin? Iso aytgan: “Mening amrlarimni bilib, ularga amal qilgan kishi Meni sevadi...” (Yuhanno 14:21). Uning amrlariga itoat etgan holda, biz Isoga Uni sevishimizni ko‘rsatamiz. Unga go‘yo shunday degandek bo‘lamiz: “Men Seni sevaman, Iso”.

MULOHAZA QILGIN: Sen Xudoning sevgisi bizga ta’kidlanmagan biror bir amrini ko‘rsata olasanmi? Nima uchun ko‘rsatolmaysan? Xudoning amrlari – U bizga O‘zining sevgisini xabar qiladigan *yagona* usulmi? U buni yana qay tariqa amalga oshiradi? Amrlarni bajarish – biz Xudoga sevgimizni bildiradigan yagona usulmi? Yana qanday usullar bilan biz buni amalga oshirishimiz mumkin? Isoga bo‘lgan sevgingni bugun Unga qay tariqa aytishing mumkin?

HARAKAT QIL: Bugun qog‘ozdan yurak shaklidagi gul marjon yasab, biror kishiga sevgi izhori tariqasida uning stoli ustiga osib qo‘y.

IBODAT: “Rabbim, O‘z sevgingni barcha Amrlaringda izhor etayotganing uchun Senga rahmat. Men bugun nimaiki qilmay, gapirmay yoki qilmay sevgimni Senga izhor qilishim uchun menga yordam ber”.

23 OKTYABR. “ENG AQLLI BOLA”
Kalomdan o‘qish: Hikmatlar 9:9-12
Dono bo‘lsang o‘zingga foyda, mazax qilsang o‘zing jabr tortasan (Hikmatlar 9:12).

UCH KISHI – xizmatchi va ikkita bola – to‘rt o‘rindiqli kichkina samolyotda uchishdi. Bolalardan biri yaqinda “Eng aqlli bola” unvoniga erishgan bo‘lib, u haqda jurnallarda yozishgandi.

To‘satdan uchuvchi, motor ovozidan ham balandroq holda, passajirlarga qichqirdi:

– Bizda halokatli vaziyat! Bak yorilgan, ikki daqiqadan so‘ng barcha yonilg‘i oqib ketadi. Samolyotni tark etishimiz kerak!

– Bu unchalik ham yomon emas, – dedi xizmatchi asabiy jilmayib. – Hamisha parashyutdan sakrashni orzu qilardim!

Uchuvchi bosh chayqadi:

– Bizning faqat uchta parashyutimiz bor. Kimdir qutulmay qolishi mumkin! Mening oilam bor. Men bolalarimni yetim qilib ketolmayman.

– Men esa – eng aqlli bolaman, – debdi bolalardan biri. – Ehtimol, men saraton, OITS yoki shunga o‘xshash boshqa kasalliklarga qarshi dori kashf etadigan yagona odamdirman! Bu muammoni o‘zaro hal qilib olinglar.

Bola shunday deb parashyutni olibdida samolyotdan sakrabdi.

Xizmatchi boshqa bolaga va uchuvchiga o‘girilibdi:

– Qolgan parashyutlarni olinglar, – debdi u. – Men o‘limdan qo‘rqmayman.

– Rahmat, – debdi bola. – Ammo muammo hal bo‘ldi. “Eng aqlli bola” parashyut o‘rniga mening yo‘l xaltamni olib sakradi.

Bundan kelib chiqadiki, “eng aqlli bola” unchalik aqlli emas ekan. U parashyut o‘rniga yo‘l xaltasini olibgina qolmay, balki xudbin bo‘lgani uchun ham bema’ni qaror qabul qildi. Va buning uchun jazosini ham oldi.

Balki sen bu bola kabi ahmoq va xudbin emasdirsan, ammo noto‘g‘ri qaror uchun odatda og‘ir to‘lov qilishga (mabodo hali bunday to‘lov qilmagan bo‘lsang) to‘g‘ri keladi. Yolg‘on noxush oqibatlarga olib kelishi mumkin. Yolg‘on uchun maktabda past baho olishing va hattoki o‘qishdan haydalib ketishing mumkin. Boshqa odamlarga zarar keltirishga urinish o‘zingga ko‘proq ziyon keltirishi mumkin.

Muqaddas Kitobda shunday deyilgan: “Dono bo‘lsang o‘zingga foyda, mazax qilsang o‘zing jabr tortasan” (Hikmatlar 9:12). Boshqacha aytganda, taqvodorona donolik va to‘g‘ri tanlov albatta taqdirlanadi, balki bu – shu zahoti ro‘y bermas va uzoq davom etmas. Biroq sen to‘g‘ri qaror qabul qilishga o‘rgansang, bu sen uchun juda foydali bo‘ladi. Agar shunday bo‘lmasa... baribir samolyotdan o‘zingni tashlab yuborma.

MULOHAZA QILGIN: Nima deb o‘ylaysan, kimning hayoti qiziqarliroq: hamisha noxush vaziyatga tushib qoladigan odamningmi yoki qoidalarga amal qiladigan insonningmi? Sen to‘g‘ri qaror qabul qilganing uchun qachonlardir afsuslanganmisan? Qachonlardir to‘g‘ri qaror qilganing uchun berilgan mukofotdan xursand bo‘lganmisan? Sen kimsan: donolikka o‘rgangan insonmi yoki donolik ustidan kuladigan kishimi?

IBODAT: “Rabbim, men dono bo‘lishni va to‘g‘ri qaror qabul qilishni istayman. Iltimos, dono bo‘lishimga va bugun aqlli qarorlar qabul qilishni o‘rganishimga yordam ber”.

24 OKTYABR. TOPGIN-CHI!

Kalomdan o‘qish: Ishayo 46:3-10

Meni kimga o‘xshatasan?! Kimga tenglashtirasan?! Meni kimga taqqoslaysan?! Nima, Men o‘shalar bilan teng bo‘lib qoldimmi?! (Ishayo 46:5)

TO‘G‘RI JAVOBNI TOPISHNI ISTAYSANMI? Kel, urinib ko‘ramiz.

Sen ko‘p narsalar muayyan namuna asosida qilinishini bilasan. Misol uchun, libos tikish uchun andaza kerak. Pechene pishirish uchun uning shaklidan foydalaniladi. To‘g‘rimi? Kel, quyidagi holatlarda nima namuna bo‘lishi haqida o‘ylab ko‘raylik.

1. Samolyotni tayyorlash uchun nima namuna bo‘lgan?
   a) ummon kemasining shakli
   b) inson tanasi
   v) qushning tanasi
2. O‘rdak ovlash uchun nima xo‘rak namunasi bo‘lgan?
   a) o‘rdak Donald
   b) Kulrang bo‘yin
   v) haqiqiy o‘rdak
3. Ezgulik va yovuzlikni farqlash uchun nima namuna hisoblanadi?
   a) shaxsiy fikr
   b) an’ana
   v) Xudoning tabiati va fe’l-atvori

Ehtimol, samolyot qush tanasiga asoslangan holda, ov xo‘ragi esa haqiqiy o‘rdak shaklida qilinganini javob tariqasida aytish senga qiyin bo‘lmagandir. Shu tariqa, ezgulik va yovuzlikni farqlash namunasi – Xudoning tabiati va Uning fe’l-atvori hisoblanadi.

Boshqacha aytganda, biz yaxshi yoki yomon ish qilayotganimizni tushunish uchun o‘z harakatlarimizni do‘stlarimiz harakatlari bilan taqqoslamasligimiz kerak. Biz o‘z harakatlarimizni davlat qonunlari bilan solishtirmasligimiz lozim. Ezgulik va yovuzlikni anglashning yagona haqiqiy namunasi – bu Xudodir. Biz aynan U bilan o‘z harakatlarimizni solishtirib ko‘rishimiz kerak, negaki Uning marhamati va odilligi bizga nima yaxshi va to‘g‘ri ekanligini ko‘rsatadi.

Bu oddiy. Agar nimadir Xudoga o‘xshash bo‘lsa, o‘sha narsa to‘g‘ri. Mabodo, u Xudoga o‘xshamasa, bu holda noto‘g‘ri. Toki sen o‘z harakatlaringni Xudo bilan tekshirib turarkansan, noto‘g‘ri ish qilishing mumkin emas. To‘g‘rimi? To‘g‘ri.

MULOHAZA QILGIN: Sen qachonlardir yaxshilik va yomonlikni Xudodan boshqa biror namuna bilan farqlashga uringanmisan? Sen qachondir o‘z tuyg‘ularing bilan o‘zingni boshqarishga harakat qilganmisan? “Boshqa qolganlari” bilanchi? Do‘stlaring va o‘qituvchilaring aytganlari bo‘yicha ish tutganmisan? Yana biror narsa bilanmi? Bulardan qaysi birini Xudo bilan taqqoslash mumkin?

IBODAT: “Mehribon Xudo, iltimos, Sen ezgulikni anglashning yagona haqiqiy namunasi ekanligingni yodda tutishimga yordam ber. Sen bilan nimaniki o‘ylamay, gapirmay yoki qilmay, har kuni tobora ko‘proq Senga o‘xshab borishimga ishonishim uchun yordam ber, bunda Sening Ruhing menga yordam bersin”

25 OKTYABR. “AMAKI, SEN XUDOMISAN?”

Kalomdan o‘qish: Zabur 144:8-13

Sening saltanating abadiy shohlikdir,
Hukmronliging nasllar osha davom etar (Zabur 144:13)

YOSHLAR XIZMATCHISI va yozuvchi Dag Filds Ikkinchi jahon urushi davrida ro‘y bergan bir voqeani hikoya qiladi.

Bu vayronakor urushning oxirida Yevropaning katta qismi xarobaga aylangandi. Binolar bomba va yong‘indan zararlangan, ko‘chalarda kul va axlat uyulib yotar, ular orasida kiyim va yegulik izlagan ko‘plab yetim bolalar izg‘ib yurishardi.

Kunlardan birida amerikalik askar Londonning urush tufayli bo‘shab qolgan ko‘chalaridan djip mashinasida ketib borardi. U burchakka burilganida juldur kiyimdagi bolakayni ko‘rib qoldi. Bola burnini shirinlik do‘koniga tiraganicha turib qolgandi. Ichkarida oshpaz pirojkalar pishirayotgandi.

Askar djipni to‘xtatdi. U do‘konga kirib bir qancha pirojkalar sotib oldi. Keyin esa chiqib pirojkalarni bolaga uzatdi.

– Mana, – dedi u, – bu senga.

Bola askarga ko‘zlarini katta ochgancha qarab, paketni oldi. Lekin askar burilib djip sari yura boshlaganida, kimdir uning shineli etagidan tortdi. Askar orqaga o‘girilib bolani ko‘rdi.

– Amaki, – deb so‘radi bolakay ko‘zlari hamon katta ochgancha, – sen Xudomisan?

Bola nima uchun bunday savol berdi? U nima uchun djipdagi amerikalikni Xudo o‘rnida qabul qildi? Buni tushunish qiyin emas. Askarning harakatidagi nimadir bolaga Xudoni eslatdi. Bu “qaysidir ma’noda” sevgi edi.

Askar bolaga pirojkalar sotib olganida qandaydir yaxshi va to‘g‘ri ish qildi. Bu sevgi va g‘amxo‘rlikka yo‘g‘rilgan harakat edi. U oddiy sabab tufayli to‘g‘ri edi: Xudo shunday yo‘l tutgan. Bola askarni Xudo o‘rnida qabul qildi, negaki Xudodan sevgi taraladi. Mana nima uchun sevgi yaxshi (nafrat esa yomon) – negaki Xudo bizni sevadi. Muqaddas Kitobda Xudo O‘zining barcha va’dalariga sodiq ekanligi va O‘zi yaratgan barcha ijodini sevishi aytilgan. “Sening saltanating abadiy shohlikdir, Hukmronliging nasllar osha davom etar” (Zabur 144:13). Sen sevganingda to‘g‘ri yo‘l tutasan, negaki sevgi Xudoga o‘xshaydi.

MULOHAZA QILGIN: Sen bugun kimgadir munosabatda o‘z sevgingni ko‘rsatdingmi? Nafratnichi? Bulardan qaysi biri to‘g‘ri, qaysi noto‘g‘ri? Nega? Biror kishiga nisbatan munosabatingni o‘zgartirishing kerakmi?

HARAKAT QIL: Keyingi safar pirojka yeganingda, askar va och bolakay haqida, shuningdek, sevgi haq ekanligi, negaki Xudo sevgi ekanligi xususida eslagin.

IBODAT: “Rabbim, bilaman, sevgi to‘g‘ri, negaki Sen sevasan. Xuddi Sen kabi boshqalarni sevishimga yordam ber”.

26 OKTYABR. PATEFONGA YO‘L

Kalomdan o‘qish: Yoqub 1:19-25

Xudoning kalomiga rioya qilinglar! Kalomni eshitsam bas, deb o‘zingizni o‘zingiz aldamanglar (Yoqub 1:22).

SEN DAM OLISH KUNINI ota-onang bilan birgalikda o‘tkazasan. Sen attraksion parkiga borgan bo‘larding, lekin ota-onang boshqacha fikrda. Ular buning o‘rniga patefonlar Muzeyiga bormoqchi bo‘lishadi.

Sen ota-onang va singilchang bilan birgalikda mashinada ketyapsan, agar singling yana bir marta “O‘rmonda archa tug‘ildi” qo‘shig‘ini aytsa, mashina oynasidan hushsiz holda tushib ketgudek bo‘lib turibsan. Otang mashinani to‘xtatgan zahoti sen tashqariga boshingni chiqarasan, otang esa shu paytning o‘zida aytib qoladi: “Uch daqiqadan keyin jo‘naymiz!” Nihoyat sizlar o‘tib borayotgan bu joylar senga tanish ekanligini payqaysan.

– Biz adashib qoldikmi? – deb so‘raysan.

– Yo‘q, – deydi otang charchagan ohangda. – Biz deyarli yetib keldik.

– Ota, men hojatga bormoqchiman! – hiqillaydi singling.

– Nega biz yo‘l qayoqqa borishini so‘ramayapmiz? – deydi onang.

– Menga buning keragi yo‘q. Qayoqqa borishni bilaman.

– Bu holda, – deydi onang oynani ko‘rsatib, – nega biz to‘rtinchi marta bu bog‘ yonidan o‘tib ketayotganimiz tushunarli.

– Mayli, mayli, – deya otang nihoyat yon beradi. U yoqilg‘i shoxobchasiga borib ishchidan patefonlar Muzeyiga qanday borish mumkinligini so‘raydi.

– Svetofordan o‘ng tomonda, – deydi ishchi saqich chaynaganicha. – Ikki kilometrdan so‘ng pivo zavodi bor, o‘shandan chapga buriling. Keyingi chorrahadan chapda patefonlar Muzeyi joylashgan.

Otang ishchiga rahmat aytib, shoxobchadan mashinani haydab chiqaradi va svetofordan chapga qayriladi.

– Azizim, – deydi onang, - lekin u o‘ngga burilishni aytgandi.

– Bilaman.

– Lekin sen chapga burilding! Sen boshqa yoqqa ketyapsan – deydi onang.

– Men kerakli joyga ketyapman, – deb javob qaytaradi otang. – Men baribir o‘sha yoqqa boraman. Faqat *o‘z* yo‘lim orqali boraman.

Sen o‘zingni mashina o‘rindig‘iga tashlaysan. Singling tag‘in kuylashni boshlaydi. Sen oynaga qarab, bosh bilan qanchalik qattiq urilsa odam hushidan ketishi mumkinligi haqida o‘ylaysan.

G‘aroyib manzara, to‘g‘rimi? Yo‘l haqida so‘rab, keyin esa maslahatga teskari ish tutishda ma’no yo‘q.

Lekin biz baribir shunday qilamiz. Xudo bizga ko‘rsatmalar – ko‘plab ko‘rsatmalar bergan. U qay tarzda begunoh va quvonchli yashash haqida aytgan. Ammo biz odatda yo‘lni biladigan Zotning ko‘rsatmalariga amal qilishdan ko‘ra, o‘z yo‘limizdan borishni afzal ko‘ramiz. Ezgulik va yomonlikni farqlashning o‘zi yetarli emas; sen ezgulikni *tanlashing* kerak, aks holda sening bilimlaring befoydadir.

MULOHAZA QILGIN: Sen oxirgi marta qachon qanday to‘g‘ri yo‘l tutish kerakligini bilgan holda baribir noto‘g‘ri ish qilgansan? Nega sen shunday qilding? Keyingi safar qay tariqa to‘g‘ri qaror qabul qilishing mumkin?

IBODAT: “Rabbim, nafaqat Sening Kalomingni eshitish, balki unda aytilganlarni qilishim uchun menga yordam ber”.

27 OKTYABR. BOBNING SIRI

Kalomdan o‘qish: Zabur 43:2-9

Sen tufayli dushmanlarimizni yiqitamiz,
Noming ila g‘animlarimizni ezamiz (Zabur 43:6).

“BOB HAQIDA NIMA DEYSIZ?” deb nomlangan film bor, unda Bill Myurrey va Richard Dreyfus o‘ynashadi. Bu ruhshunos shifokor va uning dunyodagi hamma narsadan qo‘rqadigan bir mijozi haqida. Mijoz Bob ruhshunos ortidan o‘zi ham ta’tilga jo‘naydi. Ruhshunosning jahli chiqadi, lekin shifokorning oilasiga Bob yoqib qoladi. Ular hattoki uni o‘zlari bilan yaxtada suzish uchun birga olib ketishadi – hayotda birinchi marotaba – va Bob suvga tushib ketmasligi uchun uni machtaga bog‘lab qo‘yishadi.

Bob sohilga qaytganida ruhshunosni ko‘rib quvonchdan qichqira boshlaydi:

– Men suzdim! Men yelkan ostida suzdim! Men dengizchiman! Men chindan ham suzdim!

Bob keyinroq tinchlanib olgach shifokorning o‘g‘liga (u ham qandaydir qo‘rquvlardan azob chekadi) shunday deb tushuntiradi:

– Men bor-yo‘g‘i kemaga nima qilishi mumkin bo‘lsa, shunga ruxsat berdim ... Bu mening sirim.

Ko‘ryapsanmi, ko‘plab odamlar – Xudoni sevadigan va Unga xizmat qilishni istaydigan odamlar – yaxshilik qilish va yomonlikdan qochish, bu *o‘zlarning* ishlari deya hisoblashadi. Ular to‘g‘ri qaror uchun tishni tishga qo‘yib vasvasa va gunohga qarshi kurashish kerak, bu urushda faqat kuchlilar g‘olib chiqadi, deya hisoblashadi.

Ular “Bobning siri”ni o‘rganishlariga to‘g‘ri keldi. O‘z kuchi bilan mo‘minlarcha yashab to‘g‘ri qaror qilishga urinish xuddi yelkanda yelib, yaxtada suzishga urinishga o‘xshaydi. Senda hammasini mustaqil qilish va butun yo‘l davomida yelkanni shishirish uchun kuch yetmaydi. Sen *urinmagan holda*, balki *imon bilan* to‘g‘ri qaror qabul qilishing mumkin. Oxir-oqibat, sen taqvodorona yashashing mumkin, “Qudrat bilan emas, kuch bilan emas, Mening Ruhim ila muvaffaqiyatga erishasan, – deydi Sarvari Olam” (Zakariyo 4:6).

Sening vazifang – ibodat qilish va imkon qadar Xudoga yaqin bo‘lishdir. Xudoning ishi (Muqaddas Ruh orqali) – Uning amrlarini bajarishingga yordam berish (qaragin: Hizqiyol 36:26-27). Mabodo sen Muqaddas Ruhga o‘z yelkaning uchun shamol bo‘lishiga ijozat etsang, to‘g‘ri qaror qilishing mumkin.

MULOHAZA QILGIN: Zabur 43:2-4-oyatlariga asosan, Isroil xalqi uchun kim orzu qilingan yerni zabt etdi? Zabur 43:5-9-oyatlariga ko‘ra, kim g‘alabani yo‘llaydi? Agar sening ishing Xudoga imkon qadar yaqin bo‘lish uchun ibodat qilish va Uning amrlarini bajarishingga yordam berishi uchun imon keltirish bo‘lsa, sen hali qilmagan nimanidir hozir boshlashing kerakmi? Ehtimol, aksincha bo‘lishi kerakmi – nimanidir qilmay qo‘yish kerakmikan? Sen har kuni Xudoga qanday qilib tobora ko‘proq ishonishing mumkin? Xudoga ishongan holda noo‘rin ish qilsa bo‘ladimi? Nima uchun «ha» va nima uchun «yo‘q»?

IBODAT: Zabur 43:2-9-oyatlarini ibodat kabi o‘qib chiq. Uni o‘z so‘zlaring bilan takrorlashing va hattoki Zaburni daftarga xohlagan talqinda yozishing mumkin.

28 OKTYABR. QUDRATNING IKKI USTUNI

Kalomdan o‘qish: Yahudo 1:20-24

Sizlar esa, ey azizlarim, qutlug‘ imoningizga tayanib hayot kechiringlar. Muqaddas Ruh ilhomi bilan ibodat qilinglar (Yahudo 1:20).

OLTIN DARVOZA KO‘PRIGI Kaliforniyadagi San-Fransisko ko‘rfazini kesib o‘tadi. Ehtimol, bu dunyodagi eng mashhur ko‘prik bo‘lib, uning qurilishi 1937 yilda yakunlangan. Dunyodagi eng uzun bu osma ko‘prik 2710 metrga cho‘zilgan bo‘lib, bu deyarli o‘ttizta futbol maydonining o‘rniga teng keladi.

Ko‘prik uzra juda qattiq shamol esadi. Bu joyda uylarni qulatib, temir yo‘llarni shikastlaydigan darajadagi kuchli zilzilalar bo‘lib turadi. Ammo Oltin darvoza ko‘prigi bu sinovlarning barchasiga bardosh berib, qurilgan paytidagidek mustahkamligicha qolmoqda.

Ayni vaqtda boshqa qurilishlar darz ketib qulab tushayotganida, bu ko‘prik qay tarzda mustahkam bo‘lib qolavermoqda?

Buning sabablaridan biri uning asosi qanday qurilganidadir. Ko‘ryapsanmi, ko‘prik quruvchilari bu joyda tez-tez zilzila bo‘lib turishini bilishgan. (Ko‘prik qurilishidan o‘ttiz bir yil avval, ya’ni 1906 yilda yuz bergan o‘ta kuchli zilzila San-Fransiskoning katta qismini vayron qilgandi.) Shu bois ular ko‘prikning baquvvat to‘sinlar bilan mustahkamlangan ikkita katta tayanchini yirik sement bloklariga qo‘yishdi. Shunday bloklardan biri shahar kvartalidan hajman katta bo‘lib, deyarli qirq ming tonna og‘irlikni tashkil etadi! Bunday tayanchga ega bo‘lgan ko‘prik zilziladan qo‘rqmasa ham bo‘ladi.

Xuddi shu narsa senga ham taalluqli. Ehtimol, sen zilzilani boshdan kechirmagandirsan, ammo do‘stlaring chekish yoki giyohvand moddadan tatib ko‘rishingga undashgandir. Ba’zan ota-onangni yoki o‘qituvchilaringni aldaging kelib qoladi. Yomon ishlar qilishga undaydigan ko‘pgina vasvasalarga to‘qnash kelasan va ba’zan to‘g‘ri qaror qilishing qiyin kechadi.

Mana nima uchun Oltin darvoza ko‘prigi kabi senga ham mustahkam asos kerak. Bu mustahkam asos to‘g‘ri qaror uchun qalbingda va ongingda bo‘lishi kerak. Qalbingda ikkita mustahkam “ustun”–asoslar bo‘lganida, do‘stlaring seni noo‘rin ish qilishga undaganlarida ular yordam beradi. Bu ustunlar nima o‘zi? *Ibodat va Muqaddas Kitobni o‘qish.*

Sen balki bu haqda eshitgandirsan, ammo sen ixlos ila ibodat qilib, Muqaddas Kitobni har kuni o‘qisang, bu ustunlar ongingda va qalbingda tobora mustahkam bo‘lib boraveradi. Va keyingi safar katta vasvasa kelganida, sen mustahkam turishga tayyor bo‘lasan.

MULOHAZA QILGIN: To‘g‘ri qaror qilish sen uchun qiyinmi? Nima deb o‘ylaysan, sen har kuni Xudo bilan vaqt o‘tkazganingda (ibodat qilib va Muqaddas Kitobni o‘qigan holda) to‘g‘ri qaror qabul qilishing osonroq kechadimi? Sening imoning ibodatga va Muqaddas Kitobni o‘qishga asoslanganmi? O‘zingni ibodatga va Muqaddas Kitobni o‘qishga bag‘ishlashing uchun senga yordam kerakmi?

IBODAT: “Rabbim, iltimos, to‘g‘ri qaror qilishim uchun har kuni ixlos ila ibodat qilishim va Muqaddas Kitobni o‘qishimga yordam ber”.

29 OKTYABR. EHTIYoT BO‘LIB HAYDA!

Kalomdan o‘qish: Hikmatlar 4:14-15

Fosiqning so‘qmoqlariga oyoq bosma, yovuzlar yo‘lidan yurma. Hatto nazar solma, yonidan ham o‘tma, qayrilib uzoqdan yurgin (Hikmatlar 4:14-15).

BIR BADAVLAT ODAM o‘z limuzini uchun haydovchi izlab qolibdi. Nomzodlar ko‘p bo‘lib, millioner oxirgi sinovda faqat uchtasini tanlab olibdi.

Millioner limuzinga yaxshilab o‘rnashib olibdida, birinchi nomzodga mashinani haydashni buyuribdi. Ular tog‘ning tor yo‘llaridan ketayotganlarida millioner haydovchiga aytibdi:

– Ko‘raylikchi, sen tik qiyalik yaqinidan qanday o‘tib ketarkansan.

O‘z mahoratini ko‘rsatishga tayyor bo‘lgan haydovchi xavfli qiyalikning chekkasidan mashinani haydabdi. U jarlikning bir necha metr yonidan mashinani haydab o‘tibdi. Ular qaytganlarida, millioner unga aytibdi:

– Rahmat. Men qarorim haqida sizni keyinroq xabardor qilaman.

Mashinani boshqarishga ikkinchi haydovchi o‘tiribdi. Unga ham millioner shunday debdi:

– Ko‘raylikchi, qiyalik yonginasidan pastga qulamay qanday o‘tib ketarkansan.

Birinchi nomzodga nisbatan yanada yuqori mahorat ko‘rsatishga tayyor turgan haydovchi qiyalikning bir necha santimetr narisidan mashinani haydab o‘tibdi! Millioner unga ham shunday debdi:

– Rahmat. Qarorimni sizga keyinroq aytaman.

Mashina ruliga uchinchi haydovchi o‘tirganida, millioner undan ham shuni so‘rabdi. Lekin u darhol shunday javob qilibdi:

– Aslo! Siz qancha pul taklif qilmang, jar yoqasi bo‘ylab mashinani haydamayman!

Millioner jilmayib aytibdi:

– Men seni ishga olaman!

Millioner haydovchilarning mahoratini emas, balki ularning aql-farosatini sinovdan o‘tkazibdi. Agar u ishini yo‘qotishiga to‘g‘ri kelgan taqdirda ham, xatardan nari yurishni istaydigan haydovchi – ehtiyotkor bo‘lishini tushungandi.

Xudo ham ehtiyot bo‘lib yuradigan yigit-qizlarni izlaydi, negaki U to‘g‘ri qaror uchun birinchi qadam – vasvasadan qochish ekanligini biladi. U O‘z bolalarining gunoh qilmagan holda nopoklikka yaqin borishlari mumkinligini tushuntirib o‘tirishlarini xohlamaydi. U biz vasvasaga qarab, shunday deyishimizni istaydi: “Aslo! Buning yaqiniga ham bormayman!”

Agar ehtiyot bo‘lib vasvasadan nari yursak noto‘g‘ri qarordan odatda himoyalansak bo‘ladi. Muqaddas Kitobda shunday deyilgan: “Ey Xudoning quli Timo‘tiy, sen esa o‘zingni bu illatlardan olib qoch. Solihlik... payida bo‘l” (1 Timo‘tiy 6:11). Mabodo senda pirojkalar o‘g‘irlash vasvasasi uyg‘onsa, oshxonaga borma! Agar do‘stlaring seni chekishga undashmoqchi bo‘lishsa, ulardan nari yur! Boshqacha aytganda, agar vasvasa seni o‘z komiga tortmasidan avval undan nari bo‘lsang, uni yengishing oson kechadi. Va to‘g‘ri qaror qilishing ham yengil kechadi.

MULOHAZA QILGIN: Sen odatda vasvasadan nari bo‘lishga harakat qilasanmi yoki uning yonidan o‘tib ketish imkoniyatlarini qarab chiqasanmi? Eng kuchli uchta vasvasani esga ol. Ulardan qay tariqa nari bo‘lish mumkin?

IBODAT: “Xudoyim, menga yovuzlikdan qochish hamda ezgulik va haqiqat yo‘liga amal qilishim uchun yordam ber”.

30 OKTYABR. ZULMAT OSTIDA

Kalomdan o‘qish: Yuhanno 3:16-21

Haqiqat yo‘lini tutgan odam esa nurga keladi. Bunday odamning ishlari Xudo orqali qilinganligini nur hammaga ayon qiladi (Yuhanno 3:21).

NIMA DEB O‘YLAYSAN, eng dahshatli jinoyatlar qachon amalga oshiriladi: kunduzimi yoki tunda?

Talonchilar qachon o‘z ishlariga kirishadi: yorug‘likdami yoki qorong‘ulikda?

Vandalizm (derazalarni sindirish, jihozlarni buzish va h.k.z.) bilan ko‘proq qaysi vaqtda mashg‘ul bo‘lishadi: kunduzimi yoki kechasi?

O‘t qo‘yuvchilar qachon harakat qilishadi: yorug‘likdami yoki zulmatda?

Agar sen barcha savollarga “kechasi”, “zulmatda” deb javob bergan bo‘lsang, haqsan. Nima uchun? Nega qanchalab qotillik va jinoyatlar tunda sodir etiladi? Nega odamlar deraza sindirish yoki o‘t qo‘yish uchun qorong‘ulikni kutishadi?

Negaki *zulmat ana shunaqa*, ha albatta! Odamlar biror yomon ish qilayotganlarida qo‘lga tushib qolishni istashmaydi, qorong‘ulik esa ularning qilmishlarini berkitadi. Iso ushbu so‘zlarni aytganida mana nimani nazarda tutgan: “Ammo odamlar nurdan ko‘ra, zulmatni yaxshi ko‘rdilar, chunki ularning qilmishlari yovuz edi. Qabihlik qilgan odam nurdan nafratlanadi. Qilmishlari fosh bo‘lmasligi uchun u nurdan qochadi” (Yuhanno 3:19-20).

Isoning so‘zlarida mujassamlashgan haqiqatni tushunish senga to‘g‘ri qaror qabul qilishing uchun yordam beradi. Mabodo sen ota-onangga aytishni istamaydigan nimadir qilmoqchi bo‘lsang, harqalay, bu yaxshi bo‘lmasa kerak (agar, albatta, ular uchun qandaydir sovg‘a tayyorlamayotgan bo‘lsang!). Agar biror nimani yashirishga urinayotgan bo‘lsang, bu yaxshilik belgisi emas, zero, “Haqiqat yo‘lini tutgan odam esa nurga keladi. Bunday odamlarning ishlari Xudo orqali qilinganligini nur hammaga ayon qiladi” (Yuhanno 3:21).

Xullas, yodingda tut: mabodo biror ishni yashirincha qilmoqchi bo‘lsang, yaxshisi buni qilmay qo‘ya qol. Hammasini go‘yo Xudo ko‘rib turayotgandek bajar – zero U chindan ham ko‘rib turadi!

MULOHAZA QILGIN: Atrofingdagilardan yashirishga to‘g‘ri kelgan biror narsa senda bo‘lganmi? Agar shunday bo‘lsa, u nima edi? Noto‘g‘ri ish qilishing uchun senda qanday fikrlar bo‘lishi kerak? Agar qilayotgan ishlaring Xudoga manzur bo‘lsa, buni yashirishga urinmaysanmi?

IBODAT: “Yorug‘lik Xudosi, to‘g‘ri ish qilayotganlar orasida bo‘lishimga, o‘z qilmishlarini zulmat ostida saqlaydiganlar bilan esa birga bo‘lmasligim uchun yordam ber”.

31 OKTYABR. HOZIRMI YOKI KEYIN?

Kalomdan o‘qish: Ibroniylar 10:32-36

Shunday ekan, oldingiday imonda qat’iyatli bo‘linglar! Shunda buyuk mukofot olasizlar. Sabr-toqatli bo‘lib, Xudoning irodasini bajaringlar. Shunda Xudoning va’dasiga erishasizlar (Ibroniylar 10:35-36).

BIZNING DAVRIMIZDA tez olishimiz mumkin bo‘lgan ko‘p narsalar bor: eriydigan qahva, tez tayyorlanadigan lapsha, bir lahzalik lotereya. Ammo tez qo‘lga kiritilmaydigan narsalar ham bor. Sen bir oqshomning o‘zida yetuklik attestatini ololmaysan. Bir necha daqiqa ichida gul o‘stirolmaysan. Bir lahzaning o‘zida (reklamalarda nima deb yozishmasin) oriqlay olmaysan. Hattoki eriydigan qahvani eritishing uchun suv qaynatish kerak, buning uchun esa qanchadir vaqt talab etiladi.

Muammo shundaki, biz nimalarnidir qanchalik tez olganimiz sayin, boshqalarini olish uchun kutishimiz shunchalik qiyin bo‘lmoqda. Biz “fast-fud”ga, ya’ni bir zumda tayyorlanadigan ovqatlarga shunchalik o‘rgandikki, kafeda bir necha daqiqadan ortiq kutolmaymiz (agar bundan ortiq kutishimizga to‘g‘ri kelsa, xizmat ko‘rsatish

darajasidan shikoyat qilamiz!) Biz tayyor narsalarni olishga shunchalik o‘rgandikki, bizga yig‘ma o‘yinchoqlar sovg‘a qilishsa bu yoqmaydi. Biz hammasiga *hozir* erishishni istaymiz, istaganimizga erishish uchun tejash, reja qilish, kutish biz uchun og‘irlik qilmoqda.

Dushmanimiz shayton esa, biz barchasini bir zumda va tez qo‘lga kiritishni istashimizni biladi. U bizni noto‘g‘ri qarorlar qilishga ishtiyoq uyg‘otish uchun bu istagimizdan foydalanadi. U bizning ko‘pchiligimiz xohlagan narsamizni istalgan paytda qo‘lga kiritishga o‘rganganimizni biladi. U shu tariqa bizga istagimiz shu zahotiyoq xursandchilik keltirishini va’da qilib, noto‘g‘ri ishlar qilishga vasvasa uyg‘otadi.

– Bilaman, bugun kinoga borish uchun chiptaga puling yo‘q, – deydi u, – lekin do‘stlaring *bugun* o‘sha yoqqa borishadi. Onangni hamyonidan pul olaqol; u hech nimani payqamaydi.

– Borib, do‘stingni masxara qil; *hozir* stol atrofida o‘tirganlar kulib, seni zo‘r bola deb o‘ylashadi. Sen hamisha – keyinroq – kechirim so‘rashing mumkin.

To‘g‘ri qaror qabul qilish va bundan yanada mustahkam natijalariga erishish uchun bir lahzalik quvonchlarga “yo‘q” deb aytishni bilish kerak.

Boshqacha aytganda, odatda noo‘rin ishlar qilish vasvasasi xuddi shaytonning bir bo‘lak shirinligidan hoziroq va o‘z oshxonangdan keyinroq shirinlik yeyish o‘rtasidagi tanlovga o‘xshaydi. Agar sen hozir “yo‘q” deb ayta olsang, keyinroq buning uchun taqdirlanasan. Bu odatda *hoziroq* va *keyinroq* o‘rtasidagi tanlov bo‘ladi.

MULOHAZA QILGIN: Oxirgi marotaba qachon qaror qilganingni eslab ko‘r. “Bir lahzadayoq” mamnun bo‘lish istagi senda noo‘rin ishlar qilishga undaganmi? Agar shunday bo‘lsa, bu holda sen qanday qilib kelgusi safar to‘g‘ri qarorga kelmoqchisan?

HARAKAT QIL: Bir paket pishiriq sotib olgin. Uni iste’mol qilayotgan paytingda ushbu oyatni eslagin: “Sabr-toqatli bo‘lib, Xudoning irodasini bajaringlar. Shunda Xudoning va’dasiga erishasizlar” (Ibroniylar 10:36).

IBODAT: “Rabbim, shaytonning nayranglari va vasvasaga qarshi “yo‘q” deb aytishim uchun yordam ber. To‘g‘ri ishlar uchun mukofot ulug‘ bo‘lishi va uzoq davom etishini ko‘rishim uchun menga yordam ber”.

1 NOYABR. YORITGIN!

Kalomdan o‘qish: Filippiliklar 2:12-15

Mana shu buzuq va egri nasl orasida Xudoning nuqsonsiz, aybsiz va pok farzandlari bo‘lishingiz uchun hamma narsani nolimay, bahslashmay qilinglar (Filippiliklar 2:15).

BIR BADAVLAT HIND SAVDOGARI narigi dunyoga ketishga hozirlanibdi. U o‘g‘illarini oldiga chaqirib, o‘zining maqsadini ayon qilibdi.

– Siz ikkalangiz ham ajoyib o‘g‘lonlar va qobiliyatli insonlarsiz, – debdi u. – Qaysi biringizga o‘z ishimni va boyligimni qoldirishni bilmay turibman. Shu bois ikkalangizni sinovdan o‘tkazishga qaror qildim.

U o‘g‘illariga bir tangadan beribdi.

– Butun uyni to‘ldirish mumkin bo‘lgan biror nima sotib olinglar.

Tangalar kichkina, uy esa katta edi. Ikkala o‘g‘il ham vazifa og‘ir ekanligini tushunishibdi.

To‘ng‘ich o‘g‘il vaqtni behuda ketkazmabdi. U bozorga shoshilib borib, narxlarni o‘rgana boshlabdi. Tezda u, eng arzon va katta hajmli mahsulot poxol ekan, degan xulosaga kelibdi. Shu tariqa imkon qadar ko‘proq poxol sotib olib uyga keltiribdi. Biroq sotib olgani faqat polning bir qismini yopishga yetibdi, xolos.

Kenja o‘g‘il otasining topshirig‘i haqida uzoq o‘ylabdi. U xarid qiladigani g‘ayrioddiy narsa bo‘lishi kerakligini tushunibdi.

Kenja o‘g‘il uyga qaytib kelganida qo‘lida kichikroq paket bor ekan. To‘ng‘ich o‘g‘il kulibdi:

– Sen *mana shu* bilan uyni to‘ldirmoqchimisan? – debdi u paketni ko‘rsatib.

Kenja o‘g‘il hech nima demabdi. U paketni ochib ko‘pgina kichik shamlarni chiqaribdi. U har bir xonaga sham qo‘yib chiqibdi. U barcha shamlarni yoqqanida, butun uy... yorug‘likka to‘libdi!

Sen ham shu aka-ukalar singari har kuni tanlov qilishingga to‘g‘ri keladi. Har tongda sen yangi kun uchun kurashga kirishasan. Sen kunni o‘zingni zulmat va umidsizlikka olib boradigan noto‘g‘ri qarorlar, xudbinona harakatlar bilan to‘ldirishing mumkin. Yoki butun atrofingni yoritadigan olijanob ishlar, to‘g‘ri harakatlar bilan to‘ldirishing ham mumkin.

Hayotingni to‘g‘ri ishlar bilan to‘ldirishni bugun – va har kuni – o‘z vazifang deb bil, shunday bo‘lsinki, sening nuring zulmat dunyosining o‘rtasida porlab tursin.

MULOHAZA QILGIN: Kechagi kuning nima bilan to‘lgandi – nur bilanmi yoki zulmat bilan? To‘g‘ri qarorlar bilanmi yoki noto‘g‘ri qarorlar bilan? Nima deb o‘ylaysan, agar odamlar to‘g‘ri ishlar qilayotganingni ko‘rishsa nima bo‘ladi? Bugun atrofingdagilar uchun qanday qilib “nur” bo‘lishing mumkin?

HARAKAT QIL: Ota-onangdan to‘g‘ri qarorning zarurligini va atrofingdagilar uchun nur bo‘lishing kerakligini eslatib turishi uchun bugun nonushtani sham yorug‘ida o‘tkazishga ruxsat berishlarini so‘ragin.

IBODAT: “Ota, iltimos, bu rutubatli olamda pokiza va begunoh yashashim uchun yordam ber. Atrofimdagilarga yorug‘lik taratishim uchun to‘g‘ri qaror qilishimga ko‘maklash”.

2 NOYABR. HAYOT O‘YINI

Kalomdan o‘qish: Ishayo 64:4-5

Quvonch bilan to‘g‘ri yo‘ldan yurganlarga, Sening amrlaringni bajarganlarga Sen peshvoz chiqasan (Ishayo 64:5).

BIROR YANGI O‘YIN o‘ylab topganingni tasavvur qilgin. Sen o‘zing o‘yin maydonini chizding, hovlidan yig‘ib olgan bo‘sh tunuka idishlardan soqqalar yasading. Sen hattoki qoidalar tuzib chiqding.

Oldingga mehmon bo‘lib ikkita o‘rtog‘ing kelishadi. Sen o‘yin maydonini polda tasvirlab, ularga qoidalarni qunt bilan o‘rgatasan. So‘ngra esa do‘stlaringga olijanoblik ila birinchi yurishni taklif etasan.

Bir muddat hammasi yaxshi ketadi. O‘yin sen o‘ylaganingdan ham ko‘ra qiziqroq tuyuladi. Lekin keyinroq do‘stlaringdan biri ta’qiqlangan yurish qiladi.

– Bu mumkin emas, – deysan sen. – Qoidalar esingdami?

– Men sening qoidalaringga rozi emasman. Menimcha, o‘z qoidalarimga amal qilganim afzal.

– Ey, – deydi ikkinchi o‘rtog‘ing, – agar sen o‘z qoidalaringni o‘rnatsang, men ham shunday qilaman!

– Ammo men sizlarga qoidani tushuntirgandim! – sen taajjubga tushasan.

Endi juda kech. Do‘stlaring senga quloq solishmayapti. Ular o‘z qoidalari asosida o‘ynashmoqda. Bu esa aslo yoqimli emas. Kun yarmiga kelib ular o‘zaro bir necha marta janjallashgan bo‘lishadi. Ketayotganlarida esa hattoki bir-birlari bilan gaplashishmaydi.

Xo‘sh, sen o‘zingni qanday his qilgan bo‘larding? Unchalik yoqimli bo‘lmasdi, to‘g‘rimi? Sen o‘zingni mana shunday vaziyatda qanday his qilishingni tasavvur qila olsang, demak, Xudoning O‘zini qanday his qilishini ham tasavvur qilishing mumkin. Oxir-oqibat, U borliqni va undaki jami narsani yaratdi. U odamlarni bu olamga joylab yashash uchun barcha kerakli narsalarni berdi. U hattoki odamlarni “o‘yin qoidalari”dan xabardor etdi. Lekin ayrimlar bu qoidalarni tan olishmaydi. Ular o‘z qoidalarini o‘ylab topishlari mumkin deya hisoblashadi. Boshqalar esa U hech qanday qoidalar bermagan, deya o‘zlarini ishontirishga urinishadi. Kimlardir esa Uning qoidalariga hech qanday e’tibor qaratishmaydi.

Biroq bu odamlar nohaq. Bundan tashqari – ular o‘zlarini aldashadi. Agar ular shunchaki qoida asosida o‘ynaganlarida, o‘zlariga ancha oson bo‘lardi – bizga ham quvonchliroq bo‘lardi. Barchamizga ham bu xursandchilik bag‘ishlardi.

MULOHAZA QILGIN: Seningcha, odamlar Xudoning amrlariga e’tibor bermay o‘z qoidalarini o‘ylab topishga urinishganda, Xudo nimani his etadi? Nima deb o‘ylaysan, odamlar Xudoning qoidalari asosida yashaganlarida, ularga yaxshiroq (quvonchliroq) bo‘larmidi? Nima uchun «ha» va nima uchun «yo‘q»?

HARAKAT QIL: Oilang yoki do‘stlaring bilan biror o‘yinni o‘ynagin va unda hech qanday qoidalar bo‘lmaganida nimalar bo‘lishi mumkinligini tasavvur qil.

IBODAT: “Rabbim, Sen – mo’jizakor Xudosan. Kim ezgulik qilsa va imon yo‘liga amal qilsa, Sen uni marhamat ila qarshi olasan. O‘shalar kabi bo‘lishimga, lekin Sening amrlaringga e’tibor bermay, ularga quloq solmaydigan odamlarga o‘xshamasligim uchun yordam ber”.

3 NOYABR. YOMON TA’SIR

Kalomdan o‘qish: Zabur 1:1-6

Shunday insonlar saodatlidir:
Ular fosiqlar maslahatiga yurmaydi,
Gunohkorlar yo‘lida ular turmaydi,
Mazaxchilar orasida o‘tirmaydi (Zabur 1:1).

BIR YOSH AYOL chuqur bir konga tomosha qilish uchun kelibdi. Boshqa sayohatchilarning bari jinsi shimda va ko‘ylayda bo‘lib, u esa qordek oppoq libos kiyib olgan ekan.

Guruh chuqurlikka tushish uchun lift oldiga kelganlarida, yo‘l boshlovchi ayolning yaqiniga kelibdi.

– Siz chindan ham pastga tushmoqchimisiz? – deya so‘rabdi u.

Ayol unga xafa bo‘lib qarabdi:

– Nega tushmas ekanman?

Yo‘l boshlovchi yo‘talib qo‘yibdi:

– Buni qarang-a, siz oq libos kiygan ekansiz.

– Nima bo‘pti? – debdi ayol. – agar o‘zim xohlasam, konga oq libos kiyib tusholmaymanmi?

– Albatta, tushishingiz mumkin, - deya rozilik bildirdi yo‘l boshlovchi uni boshqalar bilan birgalikda liftga o‘tkazayotib. Eshikni yopayotganida esa shu so‘zlarni qo‘shib qo‘ydi:

– Ammo kondan oq libosda chiqishingiz amri mahol.

Bu odam ayol kondan chiqqanida libos mana shunday oppoq holatda bo‘lmasligini bilardi. U yerda yig‘ilib qoladigan ko‘mir changi kiyimga o‘rnashib qoladi. Xuddi shu narsani ko‘nikmalar haqida ham aytish mumkin.

Agar sen ko‘pchilik bolalar kabi bo‘lsang, demak, doimo ham to‘g‘ri ish qilmaydigan do‘stlaring ham bor. Hattoki *hech qachon* to‘g‘ri yo‘l tutmaydigan do‘stlaring ham bo‘lishi mumkin. Sen esa o‘sha ayol kabi fikrlashing mumkin:”Mabodo o‘zim shuni istasam, bu odam bilan muloqot qilolmaymanmi?”

Sen harqalay, haqsan. Bu odam bilan munosabat o‘rnatishing mumkin. Oxir-oqibat, sen barchani, hattoki, tez-tez noto‘g‘ri ish tutayotganlarni ham sevishing lozim. Biroq yodingda tut: ko‘nikmalar ko‘mir changiga o‘xshab senga o‘rnashib qoladi. Sen “oq libos”dagi – toza fikrli va yaxshi niyatli - odam bilan do‘stlikni boshlashing mumkin. Lekin sening “libos”ing uzoq vaqt oppoq holida qolmaydi.

Muqaddas Kitobda aytilganki, “Ular fosiqlar maslahatiga yurmaydi, Gunohkorlar yo‘lida ular turmaydi” (Zabur 1:1). Bu esa odatda noo‘rin ish qiladigan kishilar bilan qo‘pol va nojoiz munosabatda bo‘lish kerakligini anglatmaydi. Bu shunchaki ko‘mir changi va bema’ni ta’sirlardan nari yurish kerak deganidir. Nima uchun? Negaki ko‘mir changi o‘rnashib qoladi.

MULOHAZA QILGIN: Sening tez-tez noo‘rin ishlar qiladigan do‘stlaring bormi? Nima deb o‘ylaysan, sen ularning ko‘nikmalariga taqlid qilishga urinmayapsanmi? Agar shunday bo‘lmasa, bu holda nima uchun? Ularning senga ta’sirini kamaytirish uchun nima qilishing mumkin?

IBODAT: “Ota, men Zabur 1-bobda yozilganidek inson bo‘lishni va boshqalar menga yomon ta’sir ko‘rsatishlariga yo‘l qo‘ymaslikni xohlayman. O‘z qonunlaringdan lazzatlanishim va menga bema’ni ta’sir ko‘rsatadigan odamlardan nari bo‘lishim uchun yordam ber”.

4 NOYABR. DEVOR TIRQISHIDAN TASHLANGAN NAZAR

Kalomdan o‘qish: Rimliklar 8:28-30

Biz bilamizki, Xudoni yaxshi ko‘rganlarga hamma narsa yaxshilikka xizmat qiladi, chunki Xudo ularni O‘zining maqsadiga ko‘ra da’vat etgan (Rimliklar 8:28).

NORMAN ROKUELL – amerikalik mashhur rassom. Uning ko‘plab ijodiy ishlari dastlab jurnal muqovalari uchun o‘ylab topilgan, keyinchalik esa Rokuell o‘z davrining taniqli musavvirlaridan biriga aylandi.

Rokuellning mashhur kartinalaridan birida beysbol o‘yiniga devor tirqishidan qarab turgan bolakay tasvirlangan. U tirqishga ko‘zi bilan yopishib olgan, ammo baribir faqat to‘g‘risidagini ko‘rishi mumkin, xolos.

Ayni vaqtda o‘yinchilar, hakam va tomoshabinlar o‘yingohdagi hamma narsani ko‘rib turgan bir vaqtda bolakay maydon chetlarida, devor yaqinida nimalar bo‘layotganini ko‘rolmaydi. Tirqishga ko‘z tikib turgan bola bundagi manzaraning faqat bir qismini ko‘radi.

Biz ham tirqishdan termulib turgan shu bolaga o‘xshaymiz. Bizning hayot haqidagi tasavvurimiz bolaning beysbol o‘yini haqidagi tasavvuriga o‘xshaydi. Mabodo to‘g‘ri qarorlar qilsak, qanday yaxshiliklar hosil bo‘lishini bilmaymiz. Agar noo‘rin ishlar qilsak, qanday yomon oqibatlar yuz berishini bilmaymiz. Ba’zan to‘g‘ri qaror go‘yo yoqimsizdek, noo‘rin ishlar esa juda oddiy va vaziyatdan chiqishning eng maqbul yo‘li bo‘lib tuyuladi. Lekin buning sababi, biz holatni to‘lig‘icha ko‘ra olmasligimizdir.

Xudo barcha “o‘yin”ni bor butunligicha ko‘radi. U nimalar bo‘layotganini va sodir bo‘ladiganlarnining barchasini ko‘rib turibdi. U agar noo‘rin ishlardan o‘zimizni tiyib, to‘g‘ri qarorlar qilsak, natija yaxshi bo‘lishi haqida aytadi. U O‘zini sevib Uning maqsadiga amal qilganlarga marhamat yo‘llaydi (Rimliklar 8:28).

Demak, noto‘g‘ri qaror senga to‘g‘ri tanlovingdan ko‘ra yoqimli bo‘lib tuyulganida, devordagi tirqishdan qarab turgan bolakayga o‘xshashingni yodingga ol. Noto‘g‘ri qaror oddiy, to‘g‘ri tanlov esa murakkab bo‘lib tuyulganida, butun o‘yin maydonini to‘liq ko‘ra olmayotganingni esga ol. Noto‘g‘ri qaror tez foyda keltirib, to‘g‘ri tanlovlarning natijasi kechikkanida, Xudo barchasini ko‘rib turganligi yodingda bo‘lsin. U senga aytadiki, agar sen to‘g‘ri yo‘l tutsang, natijada o‘zing uchun yaxshi bo‘ladi.

Sen kimga ko‘proq ishonasan: devordagi tirqishdan qarab turgan bolagami yoki butun o‘yinni kuzatib turgan kishigami?

MULOHAZA QILGIN: Sen qachonlardir noto‘g‘ri qaror oddiy, to‘g‘ri qaror esa murakkab ekanligi haqida o‘ylaganmisan? Senga ba’zan noto‘g‘ri qaror tezda natija keltiradigandek, to‘g‘ri qaror esa natijasiz qoladigandek bo‘lib tuyulganmi? Agar shunday bo‘lsa, bu kabi holatlarda sen odatda qanday yo‘l tutasan? Sen kimga ko‘proq ishonasan: devordagi tirqishdan qarab turgangami (bu sen) yoki o‘yinni to‘liq ko‘rayotgangami (bu Xudo)? Agar Xudoga ishonsang, sen qanday qarorga kelishing kerak?

IBODAT: “Rabbim, Sen mendan ko‘ra yaxshiroq ko‘rishingni bilaman. Iltimos, noto‘g‘ri qaror to‘g‘ri tanlovga nisbatan jozibador, oson va qiziqarli bo‘lib ko‘ringanida, bu haqda eslashimga yordam ber. Senga ishonishim mumkinligini bilaman va Sen menga to‘g‘ri yo‘lni ko‘rsatasan”.

5 NOYABR. KO‘ZGUDAGI BOLA

Kalomdan o‘qish: Efesliklar 4:26-32

Hatto g‘azablanganingizda ham gunoh qilmang,
Tunda yotganingizda o‘ylang, sukut saqlang (Zabur 4:5).

BIR KO‘HNA XITOY ERTAGI BOR. Unda hech qachon ko‘zguni ko‘rmagan bolakay haqida so‘z boradi. Bolakay kunlardan birida hovlida o‘ynab yurganida, otasi ko‘zgu keltirib, uyidagi devorga ilib qo‘yibdi. So‘ngra otasi ishga ketibdi, bola esa uyga qaytibdi.

U devordagi ko‘zguni ko‘rib, buning nima ekanligini tushunmabdi. U taajjub bilan ko‘zgudagi bolaga qarab qolibdi. U, bu bola o‘zi bilan o‘ynagani kelgan, degan xayolga boribdi. U qo‘lini silkitibdi, ko‘zgudagi bola ham qo‘lini silkibdi. U jilmayibdi, ko‘zgudagi bola ham javoban jilmayibdi. U aytibdi: “Kel, o‘ynaymiz!” – ko‘zgudagi tasvir ham u bilan birgalikda jo‘r bo‘libdi: “Kel, o‘ynaymiz!”

Bolakay uydan yugurib chiqib tashqarida yangi do‘stini kutib turibdi. Ammo ko‘zgudagi bola uning orqasidan chiqmabdi. U kutib turibdi – lekin ko‘zgudagi bola kelavermabdi. Nihoyat, kutish uning joniga tegibdi. Bola uyga qaytibdi va o‘z aksini qayerda qoldirgan bo‘lsa, o‘sha yerda turganini ko‘ribdi!

– Nega sen o‘ynashga chiqmading? – debdi u, ko‘zgudagi bola ham uning so‘zlariga jo‘r bo‘libdi. Shunda bolakayning chindan jahli chiqibdi. “U meni masxara qilyapti! – degan fikrga kelibdi bolakay. – Mening gaplarimni takrorlayapti!” U jahldan qovog‘ini solibdi – ko‘zgudagi bola ham xo‘mrayibdi. U mushtini ko‘rsatibdi – o‘zining ko‘zgudagi aksi ham musht ko‘taribdi. Nihoyat, o‘z g‘azabini bosolmagan bolakay ko‘zguga musht ko‘tarib tashlanibdi. U ko‘zguni sindirib, qo‘lini kesib olibdi.

Ushbu ertak bizni nihoyatda muhim qoidaga o‘rgatadi. Bizning g‘azabimiz jahlimiz chiqqan odamga nisbatan o‘zimizga ko‘proq zarar yetkazadi. Qahr, alam, nafrat va keskin gaplarni kimgadir yo‘llaganimizda, odatda o‘zimizga ko‘proq ziyon keltiramiz. Agar sen kimdandir g‘azablansang, bundan o‘zing azob chekasan. Mabodo sen qalbingning tub-tubida kimdandir xafa bo‘lsang, unda o‘sha odam emas, balki o‘zing yomon uxlaysan va oshqozoningdagi muammodan aziyat chekasan.

Mana nima uchun Xudo biz o‘zimizni nazorat qilib turishimizni xohlaydi. G‘azab seni boshqarganidan ko‘ra, sen g‘azabni nazorat qilganing afzal. Bu esa g‘azab hamisha yomon degani emas (misol uchun, yovuzlik namoyon bo‘lganida g‘azablanish to‘g‘ri). Ammo bu inson o‘zini hamisha nazorat qilib turishi afzal ekanligini anglatadi.

MULOHAZA QILGIN: Sen o‘zingni nazorat qilishing qiyinmi? Sening g‘azabing goho nazorat ostidan chiqib ketadimi? “Har qanday gina-kudrat, qahru-g‘azab, janjalkashlik, g‘iybatchilikni hamda boshqa har xil yomonliklarni” (Efesliklar 4:31) o‘zingdan soqit qila olganmisan? Agar yo‘q bo‘lsa, Xudodan bu jabhada o‘zingni yuksaltirish uchun yordam so‘rashga tayyormisan?

IBODAT: “Mehribon Xudo, iltimos, Muqaddas Ruh qudrati bilan g‘azabimni nazorat qilishim va u meni boshqarishiga izn bermasligim uchun yordam ber. Sen munosabatda men bilan qanday bo‘lgan bo‘lsang, meni ham O‘zingdek mehribon, itoatkor va kechirimli etgin”.

6 NOYABR. OTNING MUAMMOSI

Kalomdan o‘qish: 1 Butrus 1:13-16

Xullas, es-hushingizni yig‘ib olinglar, hushyor bo‘linglar. Butun umidingizni Xudoning inoyatiga bog‘langlar. Axir, Iso Masih oxiratda kelganda Xudo sizlarga inoyat ko‘rsatib, najot beradi (1 Butrus 1:13).

QACHONLARDIR YORILIB KETGUDEK DARAJADA ko‘p ovqatlanishingga to‘g‘ri kelganmi? Ko‘pchiligimiz bilan shunday holat yuz bergan (yorilish emas, balki me’yoridan ortiq ovqatlanish). Sen ayrim jonivorlar uchun haddan ziyod yeyish jiddiy xavf ekanligini bilasanmi?

Masalan, otlar sulini yoqtirishadi. Mabodo ot ko‘proq quruq sulidan yeb qo‘ysa, chanqab qoladi. Suliga qornini to‘yg‘azib olgan ot suv ichishni boshlaydi. Oshqozondagi suli suvdan shishadi. Otning ahvoli og‘irlashib, hattoki yurolmay qolishi mumkin. Unga shu paytda yordam berilmasa o‘lib qolishi ham mumkin.

Yoqimsiz holat, to‘g‘rimi? Onang seni keyingi safar suli yormasi bilan ovqatlantirmoqchi bo‘lganida, bu haqda aytib ber (ammo biz maslahat berganimizni aytmay qo‘ya qol!). Agar jiddiy ma’noda aytsak, bu o‘rinda eng muhimi shu: biz o‘z ishtahamizni nazorat qilmasak, u xavfli tus oladi.

Albatta, sen hech qachon tonnalab suli yeb, toki ahvoling yomonlashmagunicha suv ichavermaysan. Lekin senda agar nazorat qilib turmasang, o‘zingga ziyon keltirishi mumkin bo‘lgan istaklaring bor.

– Misol uchun, qanday istaklar? – deya so‘raysan.

Masalan, mashhur bo‘lish istagi. Barchaning qo‘llab-quvvatlashiga erishish istagi. Sevimli bo‘lish istagi. O‘zi xohlaganidek ish tutish istagi.

Bu kabi ishtaha va istaklar hamisha ham yomon emas, lekin agarda sen ularni boshqarishni o‘rganmasang, ko‘pgina noxushliklar keltirishi mumkin. Xudo o‘zingni nazorat qilishni o‘rganishingni istaydi, negaki ishtahang va istaklaring senga zarar yetkazishi va hattoki nobud qilishi mumkin.

Ko‘pgina bolalar o‘g‘irlik qilishadi, negaki o‘z xohishlarini boshqara olishmaydi. Talaygina o‘smirlar spirtli ichimliklar ichib, giyohvand moddalar iste’mol qilishadi, negaki o‘z istaklarini jilovlay olishmaydi. Ko‘pchilikda shu sababga ko‘ra jinsiy aloqalar borasida muammolar kelib chiqadi.

Sen Xudoning nimalar deganini eshit. U, “es-hushingizni yig‘ib olinglar”, (1 Butrus 1:13) deydi. O‘z havas va istaklaringga “yo‘q” deyishni o‘rgan. Ularni nazorat qilishni va istaklaring seni boshqarishlariga izn bermaslikni o‘rgan.

MULOHAZA QILGIN: Quyida keltirilgan havas va istaklardan qaysilarini boshqarish sen uchun qiyin? (Sen uchun katta qiyinchilik tug‘diradiganlarini qayd etgin).

- **E’tirof etilish istagi**
- **Sevimli bo‘lish istagi**
- **O‘z xohlaganidek ish tutish istagi**
- **Jismoniy ishtaha (taomlarga nisbatan)**

Bu istaklarga “yo‘q”deb aytishni qanday o‘rganish mumkin? Sen Xudodan bu jabhalardan birortasida o‘zingni boshqarishing uchun yordam so‘radingmi? Agar yo‘q bo‘lsa, nima uchun?

IBODAT: “Xudoyim, iltimos, ishtaha va istaklarim meni boshqarishiga izn bermay, ularni boshqarishni o‘rganishim uchun menga yordam ber. Iltimos, meni pokiza va O‘z Muqaddas Ruhing qudrati ila o‘zimni boshqara oladigan insonga aylantirgin”.

7 NOYABR. FOBIAFOBIYA

Kalomdan o‘qish: Mark 4:35-41

Qo‘rqqanimda Senga umid bog‘layman (Zabur 55:4).

SEN NIMADAN QO‘RQASAN? Ayrim odamlar o‘zlarini go‘yo hech nimadan qo‘rqmaydigandek tutishadi. Ayrimlar esa – xuddi hamma narsadan qo‘rqadigandek. Sen dunyodagi barcha qo‘rquvlarning o‘z atamasi borligini bilasanmi? Mana ulardan ba’zilari:

Akrofobiya – balandlikdan qo‘rqish
Agorafobiya – ochiq hududdan qo‘rqish
Araxnofobiya – o‘rgimchaklardan qo‘rqish
Klaustrofobiya – yopiq hududdan qo‘rqish
Gidrofobiya – suvdan qo‘rqish
Mizofobiya – ifloslik va mikroblardan qo‘rqish
Niktofobiya – qorong‘ilikdan qo‘rqish
Oxlofobiya – olomondan qo‘rqish
Sxolafobiya – o‘qishdan qo‘rqish
Triskaidekafobiya – 13 raqamidan qo‘rqish (mana u, men ham!)

Ehtimol, sen shuncha narsalardan qo‘rqish mumkinligini bilmagansan? Tag‘in *fobiafobiya* – qo‘rquvdan qo‘rqish hissiyoti ham bor!

Biz hammamiz ham nimadandir qo‘rqamiz. Biroq o‘zini boshqarish – bu xavotir va qo‘rquvlar bizni boshqarishiga yo‘l qo‘ymay, bu hissiyotlarni o‘zimiz boshqarishimiz demakdir. Albatta, biror ishni bajarishdan ko‘ra gapirish osonroq, lekin Xudo bizdan aynan shuni kutadi. Va U buni biz uchun qilishi mumkin.

Iso quturgan Jalila ko‘lini qanday tinchlantirgan bo‘lsa (qaragin: Mark 4:35-41), bizning qalbimiz va ongimizni ham shunday tinchlantirishi mumkin. U o‘sha tunda O‘z shogirdlarini qanday xotirjam qilgan bo‘lsa, sening ham qo‘rquvlaringni tinchlantirib, xavotirdan xalos etadi. Zaburchi bu so‘zlarni yozganida notinchlik va qo‘rquv ustidan hukmronlik qilish sirini bilgan: “Qo‘rqqanimda Senga umid bog‘layman” (Zabur 55:4).

Mana sir nimada. Shunday bo‘lsinki, Xudoning huzuri qo‘rquvingni yo‘qotsin... va qo‘rquv seni boshqara olmasin.

MULOHAZA QILGIN: Isoning shogirdlari (Muqaddas Kitobdan bugun o‘qiladigan oyatlarda) o‘z qo‘rquvlariga qanday yondashganlar? Iso ko‘lni tinchlantirganida ular o‘zlarini qanday tutishdi? Sen qachonlardir qo‘rquvga tushganmisan? Agar shunday bo‘lsa, ko‘proq nimadan? Nima deb o‘ylaysan, qo‘rquvni boshqargan yaxshimi yoki qo‘rquv seni boshqargani afzalmi? Nima uchun? Sen o‘z qo‘rquvingni qanday boshqarishing mumkin?

IBODAT: “Xudoyim, men ba’zan qo‘rqaman yoki tashvishga tushaman, ayniqsa _____. Iltimos, Senga hayotimda ishtirok etib, qo‘rquvimni bosishinggga izn berishimga, qo‘rquvga taslim bo‘lmaslikka meni o‘rgat”.

8 NOYABR. QARSILLATIB HUZUR QILASAN!

Kalomdan o‘qish: 1 Butrus 4:7-11

Oxirzamon yaqinlashib qoldi. Aqlingizni yig‘ib, doim hushyorlik bilan ibodat qilinglar (1 Butrus 4:7).

ALBATTA, sen “Leyz” chipsilarining reklama iborasini eshitgansan: “Qarsillatib huzur qilasan!” Uchta so‘z. Nihoyatda oddiy ibora.

“Leyz” chipslari shunchalik mazali, shunaqangi qarsildoq, shunaqangi ajoyibki, bir bo‘lak kartoshkani yesang bo‘ldi, keyin... ikkinchisini... va yana.. yana yeging kelaveradi. Barcha reklama kampaniyasi ana shunga asoslangan. Bu o‘rinda gap o‘zini boshqarish mahorati haqida bormoqda.

Biroq bu dunyoda bardoshli odamlar bor. Dunyoda qanchalik mazali bo‘lmasin, “Leyz” chipsilarining ikkinchi bo‘lagini bir chetga surib qo‘ya oladigan odamlar bor. Bu odamlar yanada jiddiyroq vasvasalarga qarshilik ko‘rsatishga qodir. Ular ovqatlanayotganida, sport bilan shug‘ullanayotganida, saboq olayotganlarida, gapirayotganlarida va mehnat qilayotganlarida o‘zlarini boshqara olishadi. Ehtimol, sen shunday odamlar bilan tanishdirsan. Mabodo tanish bo‘lsang, ularga qoyil qolishing aniq.

Va bilasanmi, nima? Xudo ham ularga qoyil qoladi. Odamlarning o‘zlarini boshqarishlari Xudoga yoqadi. U o‘zini boshqarish – qoyilmaqom ish deya hisoblaydi.

Aslida aynan Xudo bizga o‘zimizni boshqarishni amr etgan. Uning Kalomida shunday deyilgan:” Aqlingizni yig‘ib, doim hushyorlik bilan ibodat qilinglar”, – U buni hisob-kitob qilish kerak bo‘lgani uchun shunchaki aytib qo‘yaqolmagan. Unga O‘zining ovozini eshitish yoqqani uchun bizga o‘z nafratimizni, ishtiyoqimizni, istak va qo‘rquvlarimizni boshqarishimizni buyurmagan. Yo‘q, U bularning hammasini o‘z-o‘zini boshqarishni qadrlagani bois buyurgan. Axir, Xudo o‘z-o‘zini boshqarishni qadrlar ekan, biz ham uni qadrlashimiz kerak emasmi?

Axir sen o‘zini boshqarishni qadrlashing kerak emasmi?

MULOHAZA QILGIN: Sen o‘zini boshqaradigan odamlarga qoyilmisan? Ular kimlar? Sen o‘z-o‘zini boshqarish yaxshi deb o‘ylaysanmi? Agar yo‘q bo‘lsa, nima uchun? Agar ha deb javob qilsang, bu holda nima uchun? Sen o‘zingni qandaydir vaziyatlarda yaxshiroq boshqarishni o‘rganishing kerakmi? Agar ha deb javob bersang, qayday vaziyatlarda? Sen bu jabhalarda o‘zini boshqarish mahoratini qanday oshirishing mumkin? Sen Xudodan yordam so‘radingmi? Agar so‘ramagan bo‘lsang, nima uchun? Agar so‘ragan bo‘lsang, U senga yordam berishiga ishonasanmi?

HARAKAT QIL: “Leys” chipslarini biror qarindoshing yoki do‘sting bilan baham ko‘r, undan sen uchun ibodat qilishini va o‘zingni boshqarishingda yordam berishini so‘ragin.

IBODAT: “Rabbim, men mulohazakor va o‘zimni boshqaradigan inson bo‘lmoqchiman, ayniqsa _____ (fikr-xayolda, ishtiyoqlarimda, istaklarda va h.k.z.z.) Iltimos, har kuni Sening qudratingdan umid qilishim uchun yordam ber”.

9 NOYABR. YO‘LDA

Kalomdan o‘qish: Luqo 9:51-56

Men, Egangizning jahli tez emas, sodiq sevgim mo‘ldir. Fosiqlikni, isyonni kechiraman (Sahroda 14:18)

SEN HAQIQIY CHARCHOQ NIMA EKANLIGINI BILASANMI?

Shogirdlar Iso bilan birgalikda butun tevarak-atrofni aylanib chiqishdi, minglab odamlarni ovqatlantirishdi, Isoni Muso va Ilyos yonida ko‘rishdi, jinga chalingan odamni davolashdi. Hafta behalovat o‘tdi.

Xullas, Samariya qishlog‘ining aholisi bu yerda yo‘lovchilar dam olishi uchun *birorta ham* xona yo‘qligini aytishganida, shogirdlar o‘ta norozi bo‘lishdi.

– Rabbiy, balki samodan olov chorlab ularni kulga aylantirib yuborish kerakdir? – taklif bildirishdi Yoqub va Yuhanno. Ular samariyaliklarni mutlaqo yoqtirishmasdi. (Samariya oliygohi ko‘p yillar davomida mamlakat kubogi bahslarida ularning ashaddiy raqiblari bo‘lgandi.)

– Albatta! – ularni quvvatladi yana kimdir. – Ularni bug‘ga aylantirib tashlaymiz!

Iso hech qanday javob bermadi. Uning qiyofasidagi ifodaga ko‘ra, mabodo U kimnidir bug‘ga aylantirib yuborishi kerak bo‘lsa, bu holda O‘zining qasoskor shogirdlaridan boshlashi sezilib turardi. U burilib navbatdagi qishloq sari yo‘l oldi.

Oradan bir muddat o‘tib, Yuhanno birodari Yoqubning yelkasiga turtdi:

– Samodan olov yog‘dirish! – dedi u norozi ohangda. – Bu qanday ahmoqona fikr bo‘ldi!

– Ey! – taajjublandi Yoqub. – Bu taklifni sen aytding!

– Buni men aytmadim! – dedi Yuhanno.

– Sen aytding! – gapida turib oldi birodari.

Mayli, balki bu aynan shunday sodir bo‘lmagandir, ammo shunga o‘xshash bo‘lgan. (Bu aslida qanday bo‘lganligini Muqaddas Kitobdan bugun o‘qiladigan parchadan, Luqo 9:51-56 oyatlaridan o‘qib chiq.) Bir masala to‘g‘ri: shogirdlar Isoning qudratini to‘g‘ri tasavvur etishdi – U samariyaliklarning bu qishlog‘ini kulga aylantirib yuborishi *mumkin edi*. Biroq ular Iso O‘z qudratini va qishloqni yakson qilib tashlash haqidagi O‘z istagini qanday boshqarishini yaxshi tasavvur etolmagandilar.

Bu voqea shuni ko‘rsatadiki, Xudo nafaqat o‘z-o‘zini boshqarishni qadrlagani uchun, balki Uning *O‘zi* ham shunday bo‘lgani bois bizga o‘zimizni boshqarishimizni amr etgan. Xudo O‘z hissiyotlariga berilmaydi. U tashqi ta’sirlarga yon bermaydi. U vaziyatlarga bo‘ysunmaydi. U *O‘zini boshqaradi*.

Biz ham buning uchun xursand bo‘lishimiz lozim. Mabodo Xudo O‘zini boshqara olmaganida, *bizni* allaqachon kulga aylantirib yuborgan bo‘lardi! Xudo hattoki kimnidir kulga aylantirib yuborish vasvasasi bizda uyg‘onganida ham o‘zini boshqarish – yaxshi ekanligini tushunib olishimizga yordam berayotgani uchun Undan minnatdor bo‘lishimiz kerak.

MULOHAZA QILGIN: O‘z-o‘zini boshqarish nima uchun yaxshi? Sen Xudo O‘zini boshqarishini namoyon etgan boshqa vaziyatlarni eslay olasanmi? Nima deb o‘ylaysan, U ba’zan senga nisbatan toqatlimi? Agar shunday bo‘lsa, bu vaziyatni tasvirlab ber. Sen o‘zini boshqarishga o‘rgana olasanmi? Agar ha deb javob bersang, qanday qilib?

IBODAT: “Xudoyim, iltimos, har tomonlama, ayniqsa o‘zini boshqarish borasida Senga o‘xshashim uchun menga yordam ber”.

10 NOYABR. PITNING QAHRAMONLIGI

Kalomdan o‘qish: 1 Korinfliklar9:24-27

Axir, musobaqada qatnashadigan odam o‘z nafsini tiyib, tartib-intizom bilan mashq qiladi-ku! Ular so‘lib qoladigan gul toj olish uchun, biz esa boqiy toj olish uchun harakat qilamiz (1 Korinfliklar 9:25).

PIT YETTI YOSHLI BO‘LGANIDA, otasi u bilan yurakdan gaplashib olmoqchi bo‘ldi.

– Pit, – dedi u, – agar gaplarimga quloq solsang va senga basketbol o‘ynashni o‘rgatishimga rozi bo‘lsang, vaqti kelib, maktab jamoasida o‘ynaysan. Agar sen u yerda yaxshi o‘ynasang, so‘zlarimga quloq solsang va harakat qilsang, ehtimol, bir kun kelib mohir o‘yinchi bo‘lasan. Hatto NBAda o‘ynashing mumkin. NBAda o‘ynaganingda esa, *senga* o‘ynaganing uchun haq to‘lashadi.

O‘sha paytda – hali yetti yoshda bo‘lganida – Pit uch yildan buyon basketbol o‘ynardi. Ammo o‘sha kundan boshlab o‘yinga jiddiyroq yondasha boshladi. Yozda u kuniga olti-to‘qqiz soatlab basketbol o‘ynardi. Boshqa bolalar sayr qilib, cho‘milishayotganlarida, Pit sport zalida shug‘ullanayotgan bo‘lardi. U tongda o‘rnidan turib, uyidan uch kilometr narida bo‘lgan Janubiy Karolinadagi Klemson shahriga butun yo‘l davomida basketbol to‘pi bilan mashq qilgan holda yugurib borardi. Pitga velosiped sovg‘a qilishganida, u haydab ketayotgan holatda to‘p bilan mashq qilishga o‘tdi.

Uzoq yillik mashqlar va tinimsiz mehnatlardan so‘ng Pit Maravich kollejga o‘qishga kirdi. U kollej tarixida eng yaxshi basketbolchi bo‘ldi va oltmishta rekord o‘rnatdi. U barcha davrlarning eng buyuk basketbolchilaridan biriga aylanib, NBAning besh karra yulduzi bo‘ldi va uning yulduzi 1987 yilda basketbol shavkati Zalidan o‘rin oldi.

Barcha ham Pit Maravich kabi bo‘lolmaydi. Lekin o‘zini boshqarish bag‘oyat foydali ekanligini anglash uchun Pit Maravich bo‘lish shart emas. Sen bu xususiyatga ega bo‘lib, mohir sportchiga aylanishing mumkin. Sen yaxshiroq o‘qishing mumkin. Sen odamlarni diqqatliroq tinglashing, yaxshiroq chizishing, saksofonda yaxshiroq o‘ynashing mumkin. Sen yaxshi do‘st bo‘lishing mumkin. Sen yaxshi inson bo‘lishing mumkin.

O‘z-o‘zini boshqarish xususiyati seni gunohdan asramaydi: buni faqat Iso qilishi mumkin. Bu xususiyat seni samoga eltmaydi: faqat Iso buni bajarishi mumkin. Biroq o‘zini boshqarish vasvasaga qarshi turishingga

yordam berishi mumkin. U to‘g‘ri qarorga kelishingga yordam berishi mumkin. U boqiy tojga erishishingga ko‘mak berishi mumkin.

MULOHAZA QILGIN: Muqaddas Kitobdan bugun o‘qiladigan oyatlarda Pavlus o‘zini boshqara oladiganlar muyassar bo‘ladigan ikki xil mukofotni eslatib o‘tadi. Bu qanday mukofotlar? Ulardan biri yomon, boshqasi esa yaxshi deb aytish mumkinmi? Yoki birovi yaxshi, boshqasi esa yanada yaxshiroqmi? O‘zini boshqara olish mahorati senga foyda keltirgan holatlar bo‘lganmi? Bu qanday foyda edi?

IBODAT: “Iso, hayotimda Sening qudrating borligi uchun Sendan minnatdorman. Senga ishonganimda, o‘zimni boshqarishimga yordam berayotganing uchun Senga rahmat”.

11 NOYABR. BETO‘XTOV KICHRAYADIGAN QURT

Kalomdan o‘qish: Hikmatlar 25:26-28

O‘zini tuta olmaydigan odam devorsiz vayrona shahar kabidir (Hikmatlar 25:28).

ENN DILLARD o‘zining “Tinker daryosi bo‘yidagi ziyoratchi” kitobida ayrim qurtlardagi g‘alati odatlar haqida yozadi. Qurtlar tullaydi. Ular tanalarini qoplagan terilarini tashlashadi. Tullashdan so‘ng ularning tanasi shu zahotiyoq kattara boshlaydi va yangi terini hosil qilishadi. Ular oziqlanib o‘sayotganlarida eski terilarini yigirma martagacha – ayrimlari undan ham ko‘proq – tashlashlari mumkin.

Ammo ba’zan yetarli ozuqa olmasdan qurtning jussasi kichrayishni boshlaydi. U takror va takror tullab, yanada kichrayaveradi. Dillardning yozishicha, bu jarayon “ abadiy davom etishini tasavvur qilish mumkin: bu mavjudot kichrayadi, kichrayadi va molekula darajasiga, so‘ngra esa elektron qadar kichrayib boradi, biroq hech qachon yo‘q bo‘lib ketolmaydi va o‘z ochligini qondirolmaydi”.

Albatta, bunday bo‘lishi mumkin emas. Qaysidir vaqtda qurt tullaydi va o‘lib ketadi.

“Beto‘xtov kichrayadigan qurt” – bu, o‘zini boshqara olmaydiganlar bilan yuz berishi mumkin bo‘lgan holatga ajoyib misoldir. Qurtlar tullashi shart. Tullash qurt uchun foydali. Lekin bu jarayon nazorat ostidan chiqqanida, u mitti mavjudotni nobud qilishi mumkin.

O‘zini boshqarishni bilmaslik insonni nobud qiladi. U zararsiz (hattoki foydali) narsani ham zararliga aylantiradi. Misol uchun, sen sog‘lom bo‘lish uchun doimo ovqatlanib turishing kerak. Lekin hamisha me’yoridan ortiq ovqatlanib yursang, bu zararli bo‘lishi mumkin.

Yoki boshqa bir misolni olaylik: jismoniy mashg‘ulotlar – foydali. Vujuding bunga ehtiyoj sezadi. Ammo sog‘lom, kuchli va tik qomat bo‘lish haqidagi xohishing nazoratdan chiqib ketsa, sen mashqlar va parhezlar bilan o‘zingga ziyon yetkazib qo‘yishing mumkin.

Muqaddas Kitobda bu haqda shunday deyilgan: “O‘zini tuta olmaydigan odam devorsiz vayrona shahar kabidir” (Hikmatlar 25:28). Xudo bizning o‘zimizni boshqarishimizni istaydi, negaki U biz bundan yanada sog‘lom va baxtiyor, kuchli va xotirjam bo‘lishimizni biladi. U bizni sevadi, shu bois hayotimiz baxtli, sog‘lom va to‘laqonli bo‘lishi uchun “hushyor” (1 Butrus 1:13; 4:7; 5:8) bo‘lishimizni amr etgan.

MULOHAZA QILGIN: Sen o‘zingni qachonlardir “beto‘xtov kichrayadigan qurt” kabi his qilganmisan? Qachonlardir hayoting nazorat ostidan chiqib ketayotgandek bo‘lib tuyulganmi? Agar shunday bo‘lsa, bu haqda biror kishiga aytganmisan? Nima uchun «ha» va nima uchun «yo‘q»? Nima deb o‘ylaysan, sening tuyg‘ularing haqida kimdir xabar topsa, o‘zini boshqarish xususiyati senga yordam beradimi? Bu haqda Xudo bilan gaplashish senga osonmi? Ota-onang bilanchi? Do‘stlaring bilan? Qavmboshi bilan? Agar shunday bo‘lsa, u holda buni bugun qilishingning iloji yo‘qmi?

IBODAT: “Rabbim, men ba’zan o‘zimni devorsiz shahar kabi his qilaman. Biroq Sen meni baxtli, sog‘lom va kuchliroq qilishing uchun chindan ham o‘zimni boshqarishni o‘rganishni istayman. Iltimos, qaysi jabhalarda Sening sevging va e’tiboringga ko‘proq muhtoj ekanligimni menga ayon etgin”.

12 NOYABR. HURMATGA YO‘L

Kalomdan o‘qish: Titus 2:11-14

...bu o‘tkinchi hayotimizda nafsni tiyishimiz, to‘g‘ri va taqvodor hayot kechirishimiz lozim (Titus 2:12).

SEN KIMNI KO‘PROQ HURMAT QILASAN: “Senimi, shoshmay tur!”dagi Bo‘rinimi yoki Quyonni? Donovoynimi yoki Mamontchanimi? Shreknimi yoki Simbani? G‘alati savollar, to‘g‘rimi? Oxir-oqibat, ular bor-yo‘g‘i multfilm qahramonlari. Kim ularni hurmat qilishi kerak? Mayli, bu holda savolni boshqacha tarzda qo‘yamiz.

Sen kimni ko‘proq hurmat qilasan:

- boshqa o‘quvchi maktab xiyobonida oyog‘idan chalib yiqitganida, o‘rnidan turib yelkasini qisib qo‘yadigan bolanimi?
- agar kimdir maktab xiyobonida oyog‘idan chalib yiqitganida, baqirib so‘kinishni boshlab, militsiya chaqirib, BMTga shikoyat qilishi bilan do‘q urayotgan bolanimi?

Sen kimga ko‘proq qoyil qolasan:

- uch baho olganida bo‘kirib yig‘laydigan odamgami?

- uch baho olganida o‘qituvchining oldiga xotirjam borib, keyingi safar qanday qilib yaxshiroq baho olishini mumkinligini so‘raydigan odamgami?

Sen kimni ko‘proq hurmat qilasan?

- pivo ichishni taklif etishganida, “Rahmat, men ichmayman”, deydigan yigitnimi?
- pivoni olib, toki mastlikdan uxlab qolmagunicha ichadigan yigitnimi?

Xo‘sh, bu savollarga qanday javob berding? Har qanday holatda ham, sen o‘zini boshqara oladigan odamni ko‘proq hurmat qilasan, to‘g‘rimi? Bu tabiiy. Zero, o‘zini boshqarish atrofdagilarda hurmat va hayrat uyg‘otadi. O‘zini boshqara olmaydigan odamlarni e’tirof etishlari, ulardan qo‘rqishlari va hatto sevib qolishlari mumkin – biroq ularni kamdan-kam hollarda hurmat qilishadi.

Mana nima uchun Xudo bizning o‘zimizni boshqarishimizni xohlaydi. U biz nimani ba’zan unutib qo‘yishimizni biladi: o‘z-o‘zini boshqarish atrofdagilarning hurmat va hayratiga sazovor etadi.

MULOHAZA QILGIN: Sen biror kishi o‘zini boshqarish mahoratini ko‘rsatganida uni hurmat qila boshlagan holatlaringni eslay olasanmi? Sen o‘zingni tuta bilganingda seni boshqa birov hurmat qila boshlaganmi? Nima deb o‘ylaysan, Xudo sen o‘zingni yaxshiroq boshqara olishingga o‘rgatishi mumkinmi? Agar yo‘q bo‘lsa, nima uchun? Agar Xudo o‘rgata olsa, qay tarzda?

IBODAT: “Ota, bilaman, o‘zini boshqara olish – bu to‘g‘ri va men agarda Senga bo‘ysunsam, meni marhamatlaysan. Bu gunohkor dunyoda o‘zimni boshqargan tarzda, to‘g‘ri yo‘l tutib Senga ishongan holda yashashim uchun yordam ber”.

13 NOYABR. QO‘L VA QO‘LQOP

Kalomdan o‘qish: Rimliklar 8:5-14

Agar Xudoning Ruhi haqiqatan ham sizlarning qalbingizda makon qilgan bo‘lsa, sizlar endi bashariy tabiat amri bilan emas, balki Ruh amri bilan yashayapsizlar (Rimliklar 8:9).

QO‘LQOP - AJOYIB BUYUM. Ehtimol, sen bu haqda o‘ylab ko‘rmagandirsan, lekin u ko‘p ishga qodir. U eshik tutqichini burashi yoki mashinaning yon oynasini ochishi mumkin. U xayrlashuv ishorasini berib silkinishi yoki futboldagi ajoyib to‘p tepishni olqishlashi mumkin. U kimningdir yelkasiga qoqib qo‘yishi yoki yuziga urishi mumkin. U ko‘rsatishi mumkin. U ma’qullash ishorasi tarzida katta barmoqni yuqoriga ko‘tarishi mumkin.

– Shoshmang-chi! – deysan sen. – Bas! Buni qo‘lqop qilmaydi: qo‘l bajaradi.

Albatta. Buning ma’nosi ham shunda. Qo‘lqop biror harakatni faqat uning ichida qo‘l bo‘lganidagina qilishi mumkin. Aks holda u yotaveradi va qimirlamaydi. Shu bois qo‘lqopning xususiyati uni to‘ldirib turgan narsadan hosil bo‘ladi.

Xuddi shu holat sen bilan ham sodir bo‘lmoqda.

Sen o‘zingni boshqarishni juda-juda xohlashing mumkin. Sen o‘z g‘azabingni, ishtiyoqingni, istaklaringni va qo‘rquvlaringni boshqarishni istashing mumkin. Lekin sen qanchalik istamagin, bunga erisha olmaysan. Albatta, sen bu borada qanchadir vaqt yaxshiroq natijaga erishmog‘ing mumkin. Ammo sen qanchalik urinmagin, mustaqil holda o‘zingni boshqarishga o‘rgana olmaysan. Negaki, boshqa har qanday yaxshi fazilat kabi o‘zini boshqarish xususiyati Xudodan hosil bo‘ladi.

Boshqacha aytganda, o‘zingni boshqarish mahorating seni nima to‘ldirayotgan bo‘lsa – agar to‘ldirayotgan bo‘lsa – ana o‘shanga bog‘liq. “Bashariy tabiat yetakchiligida yashaydiganlar Xudoni mamnun qila olmaydi. Agar Xudoning Ruhi haqiqatan ham qalbingizda makon qilgan bo‘lsa, sizlar endi bashariy tabiat amri bilan emas, balki Ruh amri bilan yashayapsizlar” (Rimliklar 8:8-9).

Agar sen – masihiy bo‘lsang, o‘zingni boshqarish kuchi – Muqaddas Ruh – senda yashamoqda. Asosiysi – zo‘riqib, ingrab va tishni g‘ijirlatib bor kuch bilan harakat qilmaslik, balki Ruhga kunma-kun, lahzama-lahza – xuddi qo‘lqop o‘zini kiygan qo‘lga “itoat” etganidek – bo‘ysunmoqlik lozim.

MULOHAZA QILGIN: Agar sen Isoga Qutqaruvchi sifatida ishongan bo‘lsang va gunohlar kechirimini qabul qilgan bo‘lsang, Xudoning Ruhi senda yashamoqdami? Sen buni qilganmisan? Agar yo‘q bo‘lsa, ushbu oddiy ibodatni o‘qib buni hoziroq bajara olasanmi: “Rabbiy Iso, men Seni shaxsan bilmoqchiman. Mening gunohlarim uchun xochda o‘lganing uchun Sendan minnatdorman. Men hayotim eshigini Sen uchun ochaman va Seni Xudo hamda Qutqaruvchi sifatida qabul qilaman. Gunohlarimni kechirib, menga abadiy hayot berganing uchun Senga rahmat. Hayotimni O‘zing boshqar va meni qay tarzda ko‘rishni istasang, o‘shanday qilgin. Omin”.

IBODAT: “Ruhga bo‘ysunishning usullaridan biri – har tongda astoydil ibodat qilmoqlikdir: “Xudoyim, men bugun to‘g‘ri ishlar qilmoqchiman, lekin buni Sening yordamingsiz hech qachon amalga oshira olmayman. Men shu daqiqadan boshlab kun davomida o‘zimni Sening Muqaddas Ruhing boshqarishi uchun bo‘ysundiraman. Iltimos, bu haqda unutmasligim va Uning meni boshqarishiga xalaqit bermasligim uchun yordam ber”.

14 NOYABR. BEFOYDA XARIDLAR

Kalomdan o‘qish: Efesliklar 5:10-16

Zulmatning besamara ishlarida ishtirok etmanglar, aksincha, ularni fosh etinglar (Efesliklar 5:11).

SEN O‘Z FIKRLARING BILAN ko‘cha bo‘ylab ketayotganingda, to‘satdan oldingga uzun palto kiygan sochlari to‘zg‘igan g‘alati bir odam keladi.

– Tss! – shivirlaydi u. – Menda bir foydali taklif bor.

Sen uni chetlab o‘tmoqchi bo‘lasan, lekin u oldingni to‘sib paltosining oldini ochib yuboradi.

– Menda siniq soatlarning o‘n yetti xili bor, – deydi u jilmayib.

Sen soatlarga qaraysan:

– Siz, siniq soatlar, dedingizmi? – sen takror so‘raysan. U bosh irg‘aydi. Lekin menga siniq soatlarning nima keragi bor? Menga vaqtni ko‘rsatadigan soatlar kerak.

Sen uni aylanib o‘tasan, biroq u shu zahotiyoq seni to‘xtatadi:

– Bir daqiqa shoshmang! – deb so‘raydi u xuddi dahshatli sirni ochishga tayyordek bir qiyofada. – Bu hali hammasi emas.

U cho‘ntagidan konvert chiqarib, undan ko‘pgina pochta markalarini sug‘urib oladi.

– Menda tag‘in muzlatib tashlaydigan markalar bor, har xilidan bor!

U senga markalarni ko‘rsatadi.” Bu yigitning aqli joyida emas”, – deb o‘ylaysan.

– Qarangki, – deysan sen sabr bilan, – meni siniq soatlar va muzlatib qo‘yadigan markalar qiziqtirmaydi, tushunarlimi? Siz sotayotgan narsalarning menga keragi yo‘q. Xullas, meni kechirasiz, iltimos... – sen nihoyat g‘alati nusxani aylanib o‘tib ketasan va ko‘z qiring bilan u yana kimgadir xiralik qilayotganini ko‘rasan.

G‘alati vaziyat, to‘g‘rimi? Yo‘q, harholda keng tarqalgan holat. Balki, sen hech qachon siniq soatlarni sotayotgan kimsani uchratmagandirsan, biroq shayton doimo qandaydir befoyda narsani senga tiqishtirmoqchi bo‘ladi. U siniq soatlarga nisbatan yanada behuda bo‘lgan nimalardir qilmoqchi yoki sendan o‘g‘irlamoqchi, aldamoqchi, laqillatmoqchi bo‘ladi.

Albatta, shayton barcha bu narsalarni jozibador qilib ko‘rsatmoqchi bo‘ladi. Ammo siniq soatlar qanchalik yarqiramasin, ular baribir siniq. Shaytonning ishlari va zulmat g‘aroyib va qiziqarli tuyulishi mumkin, lekin oxir-oqibat sen shuni tushunib yetasan: gunohdan hech qanday yaxshilik hosil bo‘lmaydi. U hamisha foydasiz.

Xullas, shayton senga keyingi safar nimadir behuda narsani sotishga urinsa, yodingda bo‘lsin: “Zulmatning besamara ishlarida ishtirok etmanglar, aksincha, ularni fosh etinglar” (Efesliklar 5:11).

MULOHAZA QILGIN: Sen noto‘g‘ri qaror foydali bo‘lib seni yaxshiroq qilgan biror vaziyatni eslay olasanmi? Noto‘g‘ri qaror seni Xudoga yaqinlashtirgan vaziyat bo‘lganmi? Noto‘g‘ri qaror seni o‘zingdan faxrlanish tuyg‘usini uyg‘otgan damlarni eslay olasanmi? Shayton keyingi safar senga biror befoyda narsani sotishga uringanida nimalar qilasan?

HARAKAT QIL: Biror befoyda narsani olib – siniq soat, eshik tutqichining buzuq o‘zagi va h.k.z. – u senga “zulmatning besamara ishlarida ishtirok” etmasligingni eslatib turishi uchun stol ustiga qo‘yib qo‘y.

IBODAT: “Rabbim, shaytonning va zulmatning ishlari besamara ekanligini yodda saqlashimga yordam ber. Bunday behuda ishlarda qatnashmasligim, balki fosh etishim uchun yordam ber”.

15 NOYABR. EZGULIK VA YOVUZLIK 3-D FORMATIDA

Kalomdan o‘qish: Zabur 118:129-133

So‘zingga ko‘ra, qadamimni O‘zing boshqargin,
Hech qachon ustimdan gunoh hukmron bo‘lmasin (Zabur 118:133).

SEN QACHONDIR stereosurat yoki yanada yaxshisi, 3-D formatida kino ko‘rganmisan?

Bu holda sen plastmassali ko‘zoynak yoki qog‘oz gardish orqali kino ko‘rish nima ekanligini bilasan. Sen ko‘zoynak taqqaningda, ekranda yuz berayotgan barcha voqealar xuddi haqiqiy hayotdagi kabi kengroq ko‘rinadi. Bundan tashqari, ba’zan u-bu narsalar ekrandan to‘g‘ri senga qarab “sakragan”dek bo‘ladi! Poyezd ekranda harakatlanadi – va to‘satdan to‘g‘ridan-to‘g‘ri tashqariga, sening qo‘ling ustida yurib ketadi! Qush atrofda uchib yuribdi, lekin to‘satdan burilib naq sening burning ustiga qarab keladi! Kinodagi kimdir to‘p tepadi, sening nazaringda esa uni osongina ushlab oladigandek tuyuladi!

Ammo ko‘zoynakni yechganingda, sen tekis – hatto biroz xira – ekranni ko‘rasan. Ko‘zoynak harakatni jonlantiradi. Ko‘zoynaksiz barcha tasvir yo‘qoladi.

Xudoning Kalomi ham ezgulikni yovuzlikdan ajratmoqchi bo‘lganlar uchun shu tariqa ta’sir ko‘rsatadi. Kalomni o‘qish hayotni jonlantiradi.

Muqaddas Kitob ham stereofilm ko‘zoynaklari kabi ish tutadi: uning yordami bilan to‘g‘rini noto‘g‘ridan ajratish sen uchun oson kechadi. Agar sen Muqaddas Kitobni har kuni o‘qisang, hayotni avval o‘qimagan paytlaringdan ko‘ra yaxshiroq anglay boshlaysan. Mabodo Muqaddas Kitobni har kuni o‘qimasang, ezgulikni yovuzlikdan ajratishing yengil kechmaydi.

Mana shu bois zaburchi shunday ibodat qilgan: “Sening shartlaring ajoyibdir, shu bois ularga itoat etaman... Kalomingning ta’limoti ziyo sochadi, soddalarga aql-idrok beradi... So‘zingga ko‘ra, qadamimni O‘zing boshqargin, hech qachon ustimdan gunoh hukmron bo‘lmasin” (Zabur 118:129-120, 133).

Agar sen chindan ham ezgulikni yovuzlikdan farqlamoqchi bo‘lsang, agar sen chindan ham to‘g‘ri qaror qilmoqchi bo‘lsang – Muqaddas Kitobni o‘qigin. U hayotni chindan ham jonlantiradi.

MULOHAZA QILGIN: Nima deb o‘ylaysan, nima to‘g‘ri ekanligini bilmay turib, to‘g‘ri qarorga kelish mumkinmi? Nima uchun «ha» va nima uchun «yo‘q»? Sen nima to‘g‘ri ekanligi haqida Muqaddas Kitobda yozilganlarni bilmay turib, nima to‘g‘ri ekanligini bilishing mumkinmi? Nima uchun «ha» va nima uchun «yo‘q»? Kalomni o‘qish to‘g‘ri qarorga kelishingda senga yordam beradimi? Agar yo‘q bo‘lsa, nima uchun? Agar javobing ha bo‘lsa, qanday qilib?

HARAKAT QIL: Agar sen Muqaddas Kitobni har kuni o‘qish odatini hali o‘zlashtirmagan bo‘lsang, ushbu kitobda keltirilgan oyatlarni hech bo‘lmaganda bir marta ovoz chiqarib o‘qishdan boshlagin.

IBODAT: “Rabbim, Sening Kalomingni o‘qishimga yordam ber. Itoatsizlik meni egallab olishiga yo‘l qo‘ymagin”.

16 NOYABR. VAHIY

Kalomdan o‘qish: Kolosaliklar 3:12-13

Egamiz sizlarni kechirgani kabi, sizlar ham boshqalarni kechiringlar (Kolosaliklar 3:13).

Kunlardan birida ruhoniyning oldiga bir ayol kelibdi.

– Menga doimo vahiy ko‘rinadi, – debdi u. – Lekin ularning haqiqiy ekanligini bilmayman. Ishonishimni ham, ruhshunosga borishni ham bilmayapman.

– Ular haqida aytib bering, – iltimos qilibdi ruhoniy.

– Men Isoni ko‘raman, – debdi ayol, – xuddi sizni hozir ko‘rib turganimdek. U men bilan gaplashadi.

– Nima haqida? – qoshini chimiribdi ruhoniy.

– U meni sevishini, ibodatlarimni eshitishini va Unga o‘z vaqtimni bag‘ishlaganimda sevishini aytadi.

– Tushunarli, – g‘o‘ldirabdi ruhoniy.

– Bu vahiy haqiqiy ekanligini men qanday bilishim mumkin? – deb so‘rabdi ayol.

– Mana nima, – o‘z qarorini bildiribdi ruhoniy, – Rabbiy keyingi safar sizga namoyon bo‘lganida, Unga o‘sha tongda qaysi gunohlarga tavba qilganingiz haqida O‘zidan so‘rang. U javob qilganidan so‘ng, oldimga keling, o‘shanda biz bu chindan ham Xudomi yoki yo‘qmi, bilamiz.

Ayol rozi bo‘lib uyiga qaytibdi. Ertasi kuni u ruhoniyning oldiga tag‘in kelibdi.

Ruhoniy uni ko‘rib ajablanibdi:

– Demak, – so‘rabdi u, – siz Rabbimizdan bugun ertalab qaysi gunohingiz uchun tavba qilganingizni so‘radingizmi?

Ayol bosh irg‘abdi.

– Xo‘sh, U nima dedi?

Ayol boshini ko‘tarib, ruhoniyga qarabdi:

– U shunday dedi: “Men buni allaqachon unutganman!”

Ruhoniy ayolning yelkasiga qo‘lini qo‘yib jilmayibdi:

– U Xudo ekan!

Bu voqea balki bo‘lgandir, ehtimol bo‘lmagandir ham. Ammo uning ma’nosi tushunarli: Iso garchi hamma yoqda hozir bo‘lsada, bir vaqtning o‘zida va butunlay kechiradi, Uning kechirimi qat’iy, U gunohlarimizni unutib yuboradi! Biz ham aynan shu tariqa bir-birimizni kechirmog‘imiz kerak.

Muqaddas Kitobda shunday deyilgan: “Egamiz sizlarni kechirgani kabi, sizlar ham boshqalarni kechiringlar” (Kolosaliklar 3:13). Biz bilamizki, Xudo bizga kechirimni buyurgani uchungina emas, balki Xudo bizni kechirgani uchun ham kechirim to‘g‘ri. Demak, biz bir-birimizni tez va to‘liq kechirishimiz lozim.

MULOHAZA QILGIN: Nima uchun boshqalarni kechirish to‘g‘ri? Muqaddas Kitobdan bugun o‘qiladigan oyatlarga ko‘ra, biz boshqalarni qanday kechirishimiz kerak? Sen kimnidir bugun kechirishing kerakmi? Ehtimol, sen kimdandir kechirim so‘rashing kerakdir? Agar shunday bo‘lsa, nima uchun buni hoziroq qilish mumkin emas?

IBODAT: “Xudoyim, mening gunohlarimni kechirib, ularni unutib yuborganing uchun Senga rahmat. Iltimos, to‘g‘ri yo‘l tutishim va boshqalarni xuddi Sen kabi tezda kechirib yuborishim uchun yordam ber”.

17 NOYABR. YANGI BOLA

Kalomdan o‘qish: Voiz 12:1, 13-14

Xudodan qo‘rq, Uning amrlarini bajar, chunki bu hammaning burchidir (Voiz 12:13).

– HOY! – SENI ENG YAQIN DO‘STING CHAQIRIB QOLADI. – Men seni birov bilan tanishtirmoqchiman.

Sen uning oldiga borganingda shunday deydi:

– Bu Seryoja. U yangi kelgan, – og‘ayning yonida turgan bolaga ishora qiladi.

Sen jilmayib, yangi kelgan bolaga bosh irg‘aysan:

– Salom!

U ham jilmayib salomlashadi. Og‘ayning yangi bolaning yelkasiga qoqib qo‘yadi:

– Sen buning nimaga qodirligini bilmaysan! U to‘xtamasdan besh yuz marta o‘tirib-turishi mumkin!

– *Besh yuzta o‘tirib-turish*? – qayta so‘raysan sen. Seryoja buning aslo qoyil qoladigan joyi yo‘qdek yelkasini qisib qo‘yadi.

– Tag‘in, – deydi do‘sting, – u yuz ellik kiloli shtangani ko‘tara oladi!

– Nahotki! –deb yuborasan. Seryoja tag‘in yelkasini qisadi. Sen endi do‘stingga qamroq qarab, e’tiboringni ko‘proq Seryojaga qaratasan.

– U tag‘in o‘n metrga sakrashi mumkin.

– Qo‘ysang-chi! – deysan sen. – O‘ynatishni bas qil...

Ana shunda yangi bola havoga ko‘tarilib boshing ustidan sakrab o‘tadi. Do‘sting esa egilib qulog‘ingga shivirlaydi:

– Bilasanmi, u tag‘in tabiatni boshqarib, o‘liklarni tiriltiradi.

Albatta, bunaqasi bo‘lishi mumkin emas. Faqat birgina Zot bularning bariga qodir. Faraz qilaylik, sen ana shularning hammasini uddalaydigan bolani uchratib qolding. Xo‘sh, o‘zingni qanday tutgan bo‘larding? Sen chindan ham bu bolani hurmat qilib, unga qoyil qolgan bo‘larding, to‘g‘rimi? Oxir-oqibat, besh yuz marta o‘tirib-turish va 150 kilogrammlik shtangani ko‘tarish hayrat uyg‘otadi.

Xudo esa hurmatga yanada ko‘proq munosib. U chindan ham tabiatni boshqarib, o‘liklarni tiriltiradi. U hech nimadan nimadir yaratishi mumkin. U davolashi mumkin. U ibodatlarga javob qaytaradi. U xalqlarni yo‘q qilib, quyosh tizimini yaratadi. Lekin yanada muhimrog‘i shuki, U seni yaratgan. Agar sen masihiy bo‘lsang, gunohlaring bois beriladigan gunohlardan seni qutqargan. U sen uchun abadiy hayot tayyorlab qo‘ygan. Mana shuning uchun – va boshqa ko‘plab sabablarga ko‘ra – Xudo sening hurmatingga munosib.

Mana nima uchun Xudoni hurmat qilish to‘g‘ri. Aslida, Xudoga hurmat – barcha hurmat va to‘g‘riliklarning asosidir. Shoh Sulaymon bir vaqtlar shunday yozgandi: “Xudodan qo‘rq, Uning amrlarini bajar, chunki bu hammaning burchidir” (Voiz 12:13).

MULOHAZA QILGIN: Nima deb o‘ylaysan, Xudo hurmatga munosibmi? Nima uchun «ha» va nima uchun «yo‘q»? Sen Xudoni hurmat qilasanmi? Mabodo xususiy detektiv Sening Xudoga hurmatingga oid dalillar izlasa, qaysilarini topgan bo‘lardi? Sen Xudoga bo‘lgan hurmatingni bugun qay tariqa namoyon etasan?

IBODAT: “Rabbim, Sen muqaddas va mukammalsan, Sen mening hurmatim va sajda qilishimga munosibsan. Iltimos, men bugun nimaiki qilmay, barchasida Senga hurmatimni namoyon etishim uchun yordam ber”

18 NOYABR. ISO OTA-ONASIGA QULOQ SOLGANMI?
Kalomdan o‘qish: Luqo 2:41-52
Iso ular bilan Nosiraga qaytib ketdi. Doim ota-onasiga itoat etdi (Luqo 2:51).

NIMA DEB O‘YLAYSAN, Isoda qachondir ota-onasi bilan noxush vaziyatlar ro‘y berganmi? Bo‘lgan. Sen Muqaddas Kitobdan bugun o‘qiladigan oyatlar orqali (Luqo 2:41-52) Iso o‘n ikki yoshda bo‘lganida qanday “yo‘qolib” qolgani haqida bilib olasan.

Biroq, Iso ota-onasining gapiga quloq solmagan paytlar bo‘lganmi? Yo‘q, negaki Muqaddas Kitobda: Iso hech qachon gunoh qilmagan deyilgan (1 Butrus 2:22), ota-onaga itoat etmaslik esa – gunohdir.

Nima deb o‘ylaysan, Isoning ota-onasiga quloq solishi oson bo‘lganmi? Bu haqda o‘ylab ko‘r! Iso – Xudo edi! U borliqni yaratgan (Kolosaliklar 1:16). U samoviy farishtalarga buyruq bergan (Matto 13:41; 16:27). Ayonki, U yosh bolalik paytidayoq Ota Uni qandaydir g‘aroyib ishlar qilish uchun yuborganini bilgan (qaragin: Luqo 2:49). Ehtimol, borliqning Xudosiga bir duradgor va dehqonga itoat etishi qiyin bo‘lgandir! Lekin Muqaddas Kitobga ko‘ra, U aynan shunday yo‘l tutgan. U hamisha ota-onasiga itoat etgan va ularni hurmat qilgan (Luqo 2:51; Yuhanno 19:26-27).

Xususan, mana biz qayoqdan ota-onani hurmat qilish yaxshi ekanligini bilamiz. Albatta, buni tushunish qiyin emas, zero Muqaddas Kitobda aniq yozilgan: “Ota-onangizni hurmat qiling” (Chiqish 20:12) va “Ey farzandlar, Rabbimiz Isoga tegishli bo‘lganingiz uchun ota-onangizga itoat qilinglar, chunki shunday qilish to‘g‘ridir” (Efesliklar 6:1). Biroq ota-onani hurmat qilish faqat Xudo shunday buyurgani uchungina emas, balki Iso O‘z ota-onasini hurmat qilgani uchun ham to‘g‘ridir. Hurmat ko‘rsatish – bu Xudoning O‘ziga monand bo‘lmoqlikdir.

Albatta, ota-onalar bilan ba’zan qiyin kechadi; hatto Isoda ham shunday bo‘lgan! Lekin sen o‘z oldingga maqsad qo‘ymog‘ing kerak: xuddi Iso kabi ota-onaga itoat etish va hurmat ko‘rsatish. Bu Xudoga manzur bo‘lishi aniq – va ota-onani hayratda qoldirish ham yoqimli bo‘ladi.

MULOHAZA QILGIN: Ota-onani hurmat qilish to‘g‘rimi? Nima uchun «ha» va nima uchun «yo‘q»? Nima deb o‘ylaysan, Isoning ota-onasiga quloq solib, hurmat ko‘rsatishi qiyin kechganmi? Ota-onangni hurmat qilib, itoat etish sen uchun qiyinmi? Nima uchun «ha» va nima uchun «yo‘q»? Sen ota-onangga hurmat ko‘rsatasanmi? Agar yo‘q bo‘lsa, nima uchun? Agar ha deb javob bersang, qanday qilib?

IBODAT: “Iso, Sen O‘z ota-onangni hurmat qilganing kabi, men ham ota-onamni hurmat qilib, Senga manzur bo‘lishim uchun yordam ber”.

19 NOYABR. TA’ZIM QILISHNI O‘RGAN

Kalomdan o‘qish: 1 Timo‘tiy 5:1-2

Mo‘ysafidni ko‘rganingizda o‘rningizdan turing, qariyaning hurmatini joyiga qo‘ying. Men, Xudoyingizdan qo‘rqing. Men Egangizman. (Levilar 19:32).

SEN DO‘STINGNI UCHRATGANINGDA, qo‘lingni silkib: “Salom!” deb aytishing mumkin. Yoki yelkasiga qoqib qo‘yasan. Biror kishi bilan tanishganingda, qo‘l berib ko‘rishasan. Buving yoki xolang ko‘rishganingda, quchoqlashib ko‘rishishing mumkin.

Yaponiyada esa odamlar bir-birlari bilan boshqacha ko‘rishadilar – balki sen buni ko‘rgandirsan. Yaponlar qo‘llarini silkitmaydi, qo‘l siqishmaydi va quchoqlashmaydilar. Ular ta’zim qilishadi.

Ba’zan ular bir marta ta’zim qilishadi; gohida esa bir necha marotabalab. Ba’zan bu yengil ta’zim bo‘ladi, goho esa yergacha bukilib ta’zim qilishadi. Barchasi ko‘pgina vaziyatlarga bog‘liq. Shuningdek, odamning yoshi qanchalik katta bo‘lsa, unga shu darajada egilib ta’zim qilishadi. Yaponlar qariyalarni hurmat qilish kerak deya hisoblashadi, shu bois yoshlar keksalar bilan salomlashayotganlarida bu hurmatni ta’zim asosida bildirishlari kerak.

Biz bobo-buvingga ta’zim qilishni boshlashing kerak, demoqchi emasmiz. Biroq kel, yaponlardan ayrim narsalarni o‘rgana qolaylik! Ko‘rayapsanki, ko‘plab yoshlar keksalarni hurmat qilishmaydi. Ularning fikricha, bobo-buvilar, ota-onalar go‘yo hech nimani tushunishmaydi, hurmatga esa faqat yoshlar va yoqimtoylar munosibdek. Qariyalar esa u qadar yoqimtoy, aqlli va qadrli emaslar. Ammo yaponlar bunday deya hisoblashmaydi. Xudo ham bunday deb hisoblamaydi.

Xudo bizga (nafaqat yaponlarga) keksalarga hurmat bilan yondashish kerakligini aytadi. U aytadiki, “Mo‘ysafidni ko‘rganingizda, o‘rningizdan turing, qariyaning hurmatini joyiga qo‘ying” (Levilar 19:32).

Xudoning Kalomida keksalarni hurmat qilish – to‘g‘ri ekanligi aniq aytilgan. Pavlus Timo‘tiyga shunday deb yozadi: “Yoshi katta odamga qattiq gapirma, uni otang o‘rnida ko‘rib, hurmat bilan nasihat qil... kampirlarga onalaringdek munosabatda bo‘l” (1 Timo‘tiy 5:1-2). Sen hatto yapon bo‘lmaganingda ham – keksalarga hurmat ko‘rsatish to‘g‘ridir.

MULOHAZA QILGIN: Nima deb o‘ylaysan, keksalarni hurmat qilish yaxshimi? Agar ha deb javob bersang, nima uchun? Oilangizda kimning yoshi katta? Sen unga nisbatan hurmatingni qanday ko‘rsatasan?

HARAKAT QIL: Ota-onangni, bobo-buvingni yoki qo‘shningga ta’zim qilib, hurmat ko‘rsatgan holda ularni hayratga solgin. (Sen ular uchun nimadir pishirgin; ular albatta lol bo‘lishadi!)

IBODAT: “Ota, bilaman, keksalarni hurmat qilish yaxshi, Sening Kalomingda hattoki men qariyalarni hurmat qilsam, Senga hurmat ko‘rsatgan bo‘lishim aytilgan. Iltimos, Sening Kalomingni ado etib, keksalarni hurmat qilishim – Seni hurmat qilishim ekanligini yodda tutishimga yordam ber”.

20 NOYABR. DOVUD VA MOLIYAVIY NAZORATCHILAR

Kalomdan o‘qish: Titus 3:1-8

Sen jamoatdagilarga eslatib tur: ular davlat boshliqlariyu hokimlarga bo‘ysunsinlar, itoat etib, har qanday xayrli ishga tayyor bo‘lsinlar (Titus 3:1).

Bir gazetaning mushtariylari tahririyatga farzandlarining Muqaddas Kitob haqida aytgan gaplarini tez-tez jo‘natib turishadi. Mana ulardan ayrimlari:

- “Lutning xotini kunduzi tuzli ustunga va kechasi olovli bulutga aylandi”.
- “Muso Sian tog‘ining tepasiga o‘nta amrni olish uchun ko‘tarildi”.
- “Dovud moliyaviy nazoratchilar bilan kurashdi”.
- “Masihiyning faqat bitta xotini bo‘lishi kerak. Bunday nikoh *monotonli* nikoh deb ataladi”

Ko‘rayapsanki, barcha aytilgan bu gaplar haqiqatga yaqin. Ammo ulardan har biri tushunmovchilik oqibatida noto‘g‘ri. Muso o‘nta amrni Sian tog‘ida emas, balki *Sinay* tog‘ida olgan. Dovud moliyaviy nazoratchilar bilan emas, balki filistlar bilan kurashgan. Insonda bitta xotini bo‘lsa, bu *monogamiya* deb ataladi.

Bu bolalar nimanidir yaxshi tushunishmagan, bor gap shu. Bizlardan ko‘pchiligimiz ham masala jamiyatda o‘zimizdan yuqori turganlar haqida borganida, nimanidir tushunmaymiz.

Ko‘rayapsanmi, hukumat vakillari (militsionerlar, o‘qituvchilar, prezidentlar, jamoat rahbarlari va h.k.z.) bizning hurmatimizga *erishishlari* kerak. Bizga yangi o‘qituvchi, cho‘pon yoki prezident kelganida toki u hurmatimizga sazovor bo‘lmagunicha yoki o‘zini hurmat qilishga *majbur etmagunicha* biz uni hurmat qilmaymiz. Biroq Muqaddas Kitob biz bunday yo‘l tutmasligimiz kerakligini aytadi.

Muqaddas Kitob biz hukumat tepasida o‘tirganlarni hurmat qilib, ularga quloq solishimiz kerakligini aytadi. Ular bizning hurmatimizga erishishga urinishlari shart emas – biz ularni hurmat qilishga burchlimiz. Masihiylar hukumatga e’tiroz bildirib, qarshilik qilishlari kerak bo‘ladigan vaqtlar uchraydi (qaragin: Havoriylar 5:17-42). Biroq hukumatga itoat etish Xudoga itoat etishga xalaqit bermasa, Muqaddas Kitobda aniq aytilgan: hukumatni hurmat qilish va bo‘ysunish – to‘g‘ridir.

MULOHAZA QILGIN: Sen quyidagilarga qanday hurmat ko‘rsatishingni qayd etib qo‘ygin:

o‘qituvchilarga _____

keksalarga _____

militsiyaga _____
hukumatga _____
cho‘ponlarga _____
boshqa hokimiyatlarga (aniq belgila) _____

IBODAT: “Rabbim, men Senga manzur bo‘lmoqchiman va Senga itoat etmoqchiman. Iltimos, hukumatni va davlatni hurmat qilishim kerakligini, ularga itoat etib, yaxshilik qilishga tayyor ekanligimni menga eslatib turgin”.

21 NOYABR. BARMOQLARNI QARSILLATUVCHI VA QULOQLARINI QIMIRLATUVCHI

Kalomdan o‘qish: 1 Butrus 2:12-17

Hamma odamlarni hurmat qilinglar. Imonli birodarlaringizni yaxshi ko‘ringlar. Xudodan qo‘rqinglar, davlat rahbariga izzat-ehtirom ko‘rsatinglar (1 Butrus 2:17).

SEN BARMOQLARINGNI QISIRLATA OLASANMI? Quloqlaringni qimirlatishni bilasanmi (qo‘lning yordamisiz, albatta)? Tilingni burninggacha tekkiza olasanmi?

Agar keyingi ikkita savolga tasdiq javobini bersang, bu holda kamchilik odamlar toifasiga mansub ekansan. Qo‘shma Shtatlarda yaqinda o‘tkazilgan tadqiqotlarga ko‘ra, so‘rovda qatnashganlarning 68 foizi barmoqni qisirlatishni biladi, quloqlarni esa faqat 13 foiz ishtirokchilar qimirlata olarkan. Va bundan ham kamroq odamlar – bor-yo‘g‘i 10 foiz – tilining uchini burnilariga tekkiza olishar ekan.

Endi esa barmoqni qisirlatishni biladigan odamlar buni eplolmaydigan 32 foiz kishilarni masxara etmoqchi bo‘lganlarini tasavvur qil. Yoki quloqni qimirlatadigan odamlar buni uddalay olmaydigan odamlarni ikkinchi toifa deya hisoblashlarini ko‘z oldingga keltir. Yoki tilining uchini burniga tekkiza oladiganlar bunga layoqatsiz kishilarni hech qachon hurmat qilmasliklarini e’lon qilib qolishadi.

Bu juda g‘alati bo‘lardi, to‘g‘rimi?

Ammo bundoq o‘ylab qarasak, bu, odamlar terisining rangi tufayli boshqalardan hazar qiladigan vaziyatdan unchalik farq qilmaydi. Yoki erkaklar ayollarni hurmat qilmagan holatlardan (yoki aksincha). Yoxud odamlar qariyalardan (bolalardan) hazar qiladigan vaziyatlardan katta farq qilmaydi.

Ko‘rayapsanmi, Xudoning Kalomida aytilgan: “Hammani hurmat qiling” (1 Butrus 2:17). Bu esa garchi u sendan farqli ravishda oq tanli yoki qora tanli, osiyolik yoki lotinamerikalik, erkak yoki ayol, yosh yoki keksa, boy yoki kambag‘al, barmoqlarini qisirlatadigan yoki quloqlarini qimirlatadigan bo‘lmasin, sening hurmatingga munosib ekanligini anglatadi.

Zero, Xudo, “Sizga o‘xshagan barchani hurmat qiling”, demagan. U aytadi: “*Hamma* odamlarni hurmat qilinglar”, – hattoki tilining uchini burniga *tekkiza olmaydiganlarni* ham.

MULOHAZA QILGIN: Muqaddas Kitobdan bugun o‘qiladigan oyatlarda turli toifadagi odamlarni hurmat qilish (yoki qabul qilish) zarurligi aytilgan. Ulardan eng kamida to‘rtasini keltirgin. Seni millating, jinsing yoki yoshing tufayli hurmat qilishmagan paytlar bo‘lganmi? Yoki boshqa sabablar bo‘lganmi? Sen o‘shanda o‘zingni qanday his qilgansan? Sen o‘zing boshqalarga shu kabi sabablarga ko‘ra behurmatlik qilganmisan?

HARAKAT QIL: Do‘stlaring orasida kim barmoqlarini qisirlatishi, quloqlarini qimirlatib, tilining uchini burniga tekkiza olishi bo‘yicha so‘rov o‘tkaz. O‘z natijalaringni Amerikadagi so‘rov natijalari bilan taqqosla (68, 13, 10 foizlar).

IBODAT: “Rabbim, ba’zan men faqat o‘zimga o‘xshagan kishilarga hurmat ko‘rsataman. Iltimos, Sen buyurganingdek, barchani hurmat qilishim uchun yordam ber”.

22 NOYABR. O‘ZINGNI HURMAT QIL!

Kalomdan o‘qish: 1 Yuhanno 3:1-2

Qaranglar, Otamiz Xudo bizni farzandlarim deb, qanday buyuk bir sevgini ko‘rsatdi (1 Yuhanno 3:1).

1970-YILLARDA STAPLES SINGERS GURUHI Lyuter Ingrem va Meyk Rays yaratgan xit qo‘shig‘ini ijro etdi. Yaqinda “Buyuk chodirning uyg‘onishi” masihiy guruhi ushbu qo‘shiqni o‘zining birinchi albomiga kiritdi.

“O‘zingni hurmat qil” deb nomlangan qo‘shiqda shunday so‘zlar bor: “Agar sen o‘zingni hurmat qilmasang, hech kim senga yaxshi ga-hoo bermaydi!”

Sen yaxshi ga-hoo nima ekan deb so‘rayapsanmi? Ajoyib savol. Bu haqda tasavvurga ham ega emasman! Hattoki “yomon ga-hoo” nima ekanligini ham bilmayman. Biroq gap bunda emas.

Gap shundaki, bu qo‘shiqdagi g‘oya to‘g‘ri, Muqaddas Kitobga monand. Muqaddas Kitobga ko‘ra, o‘zini hurmat qilish-to‘g‘ri.

Zero, Muqaddas Kitobda shunday deyilgan: “Qaranglar, Otamiz Xudo bizni farzandlarimdeb, qanday buyuk bir sevgini ko‘rsatdi! Haqiqatan ham, biz Uning farzandlarimiz. Dunyo Otamizni hech qachon tan olmagan, shuning uchun bizni ham Xudoning farzandlari deb tan olmayapti. Ha, azizlarim, hozir biz Xudoning

farzandlarimiz. Ammo kelajakda kim bo‘lishimiz bizga hanuz ochilmagan. Faqat shuni bilamizki, o‘sha payt kelganda, biz Xudo singari bo‘lamiz, chunki Xudoning O‘zini ko‘ramiz” (1 Yuhanno 3:1-2).

Bu o‘rinda o‘zimizni hurmat qilishimiz uchun bir qancha yaxshi sabablar keltiriladi. Birinchidan, sen nafaqat Xudo tomonidan yaratilgansan, sen – Uning farzandisan! Bundan tashqari, Masih qaytganida sen shu darajada Unga yaqin bo‘lasanki, bunaqasini hatto tasavvur ham qilolmaysan! Albatta, shu asosga ko‘ra, sen hozir – (boshqalar kabi) gunohkor ekanligingni, yoki mag‘rurlanishni yoxud o‘zingni boshqalardan yaxshiroq, deya hisoblamasligingni unutmasliging lozim. Bu sen o‘zingni ikkita sababga ko‘ra hurmat qilishing kerakligini bildiradi: *kim ekanliging* uchun va *kim bo‘la olishing* uchun!

Xullasi kalom, Ingrem va Rays to‘g‘ri yozishgan: o‘zingni hurmat qil. Lekin ular shunday yozgani uchungina emas; balki Xudoning Kalomi shunday degani uchun: o‘zini hurmat qilish – yaxshi.

MULOHAZA QILGIN: Muqaddas Kitobdan bugun o‘qiladigan oyatlarda o‘zini hurmat qilishning qaysi ikkita sabablari ko‘rsatilgan? Sen o‘zingni hurmat qilasanmi? Agar ha deb javob bersang, qay tarzda? Agar yo‘q bo‘lsa, bu holda sen o‘zingni hurmat qilishni boshlaganingda, harakatlaring qanday o‘zgaradi? Kelajakda seni ko‘proq hurmat qilishlari uchun nimalar qilishing mumkin?

IBODAT: “Ota, ba’zan boshqalarni hurmat qilishdan ko‘ra, o‘zimni hurmat qilishim qiyin kechadi. Ammo men – Sening o‘g‘ling bo‘lganim hamda Sening O‘g‘ling qaytganida U kabi bo‘lishim uchun Sendan minnatdorman. Xudo O‘g‘liga monand bo‘lishim uchun menga yordam ber”.

23 NOYABR. SURAT – BU HAMMASI
Kalomdan o‘qish: Ibtido 1:26-31
Xudo O‘z suratiday qilib yaratdi inson zotini, erkagu ayol qilib yaratdi ularni (Ibtido 1:27).

TASAVVUR QILGIN, shaharning markaziy maydonida senga yodgorlik o‘rnatishgan, kimdir esa undan nishon sifatida foydalanib, sening tasviringga aynigan pomidor va olmalarni otadi.

Tasavvur qil, sen – kompaniya prezidentisan, kompaniyaning katta zalida sening moybo‘yoqda chizilgan ulkan portreting turibdi, kimdir esa undagi tasviringga ahmoqona mo‘ylov chizib qo‘yibdi.

Tasavvur qil, sening suratingni yilning eng chiroyli ellikta odamiga bag‘ishlangan mashhur jurnalda chop etishdi; sen barcha tirajni sotib olish uchun do‘konga qarab yugurasan, biroq kimdir har bir jurnaldagi suratingga marker bilan yozib qo‘ygan: “Bu tasqaraning o‘zginasi!”

Xo‘sh, ko‘nglingdan nima kechdi? Sen xafa bo‘larmiding? Jahling chiqarmidi?Ta’sirlangan bo‘larmiding?

Ammo bir daqiqa shoshma. Axir bu odamlar sening o‘zingga tashlanayotganlari yo‘q, to‘g‘rimi? Ular sening *suratingga* tashlanishmoqda. Yodgorlik, portret, fotosuratlar – bu hammasi tasvir, xolos. Lekin baribir bu holat yoqimsiz, shunday emasmi? Kimdir sening suratinga ko‘ra yaratilgan biror nimani haqorat qilsa yoki hurmat qilmasa – bu baribir xuddi sen bilan yuz berayotgandek bo‘ladi, to‘g‘rimi?

Mana endi sen odamlar boshqa odamlarga hamla qilganlarida yoki ularni hurmat qilmaganlarida, Xudo O‘zini qanday his qilishini tushunasan. Zero borliqdagi barcha odam Uning siymosi bo‘yicha yaratilgan. Har bir erkak va har bir ayol Xudoning siymosiga monand qilib yaratilgan. Axir Uning siymosiga ega bo‘lgan boshqalarni biz hurmat qilmaganimizda, bu Xudoga yoqishi mumkinmi?

Mana nima uchun odamlarni hurmat qilish yaxshi, behurmatlik esa – noto‘g‘ri: biz barchamiz Xudoning suratiga monand yaratilganmiz. Har bir kishi Xudo suratiga asosan yaratilgan – yosh yoki keksa, qora tanli yoki oq tanli, erkak yoki ayol, sog‘lom yoki nogiron, kuchli yoki zaif, uddaburon yoki oddiygina inson.

Har bir kishi Xudoning nazarida o‘z qiymatiga ega. Va har bir odam Xudoning noyob va bebaho farzandiga qanday munosabat qilishlari lozim bo‘lsa, aynan shunday munosabatga munosibdir.

MULOHAZA QILGIN: Muqaddas Kitobdan bugun o‘qiladigan oyatlarda odamlar haqida nimalar deyiladi? Boshqalarni hurmat qilish nima uchun to‘g‘ri? Sen Xudoning suratiga monand yaratilmagan biror kishini bilasanmi? Sen Xudoning noyob va bebaho farzandi bo‘lishdek hurmatga sazovor bo‘lmagan odamni bilasanmi? Nima deb o‘ylaysan, odamning qilgan ishlariga ma’qullamagan holda uni hurmat qilish mumkinmi? Agar ha deb javob bersang, qanday qilib? Sen bugun o‘zing uchratadigan har bir kishiga qay tariqa hurmat ko‘rsatishing mumkin?

IBODAT: “Xudoyim, menga eslatib turganing uchun Senga rahmat: men olamdagi boshqa odamlar kabi Sening suratingga monand yaratilganman. Boshqa odamlarni hurmat qilishim va ularga munosib ravishda munosabatda bo‘lishim uchun yordam ber”.

24 NOYABR. CHIP VA DEYL
Kalomdan o‘qish: Rimliklar 12:9-10
Bir-biringizni hurmat qilib, o‘zingizdan yuqori qo‘ying (Rimliklar 12:10).

CHIP VA DEYL – multfilmdagi bir juft burundiqlardir.

Ular aqlli va yoqimtoy kichkintoylar. Ular kulib xursandchilik qilishadi. Ular noxush vaziyatlarga tushib qolishadi. Ular bir-birlaridan xafa bo‘lib, so‘ngra yarashib olishadi. Ular – ajoyib do‘stlar.

Mabodo sen ularning bir-birlariga qanday yondashayotganlariga e’tibor qaratsang, nega ular bizga bu qadar yaqin ekanliklarini tushunasan.

Sen ularning eshikdan qanday kirishlariga e’tibor berdingmi? Chip bir chekkada to‘xtab shunga o‘xshash gap aytadi:

– Sendan keyin.

Deyl jilmayib javob qaytaradi:

– Yo‘q, avval sen o‘tgin.

– Yo‘q-yo‘q-yo‘q! – e’tiroz bildiradi Chip ta’zim qilib. – Avval sen o‘taqol.

Va bu shu tariqa davom etadi, negaki ularga bir-birlarini hurmat qilib, o‘zidan yuqori qo‘yish yoqadi.

Biz ham Chip va Deylga o‘xshashimiz kerak. Bir qancha sabablarga ko‘ra. Birinchidan, negaki Muqaddas Kitobda: biz Chip va Deylga o‘xshashimiz kerakligi haqida aytilgan. Albatta so‘zma-so‘z shunday deyilmagan; Muqaddas Kitob multfilmlarni o‘ylab topmaslaridan ancha avval yozilgan. Biroq Muqaddas Kitobda: “Barcha odamlarni hurmat qilinglar” (1 Butrus 2:17) va “Bir-biringizni hurmat qilib, o‘zingizdan yuqori qo‘ying” (Rimliklar 12:10) deb aytilgan.

Buning yana bir sababi bor: bir-biriga hurmat sog‘lom munosabatlarning rivojlanishiga imkon yaratadi. Agar Chip va Deyl bir-birlarini hurmat qilishmaganida, ular bunchalik yoqimtoy mavjudotlar bo‘lisholmasdi. Agar ular bir-birlariga mehr va hurmat bilan yondashmaganlarida, o‘zaro bunchalik ahil bo‘lishmasdi.

Shu haqda o‘ylab ko‘r. Sen kim bilan do‘st bo‘lishni afzal ko‘rgan bo‘larding: yomon gaplar aytadiganlar bilanmi yoki iltifotli insonlar bilanmi? Kim bilan birga ko‘proq vaqt o‘tkazgan bo‘larding: senga iflos munosabatda bo‘layotgan bilanmi yoki seni hurmat qiladigan inson bilanmi? Kim sening do‘stingga aylanishi mumkin: doimo sendan birinchi o‘tadiganmi yoki senga yo‘l berib bu gapni aytadiganmi: “Sendan keyin”?

O‘rtada hurmat bo‘lmasa, do‘stlik uzoq davom etmaydi, negaki hurmat – yaxshi munosabatlarning shartli asosidir. Hurmat mustahkam, sog‘lom munosabatlarni qurishga yordam beradi; behurmatlik odatda munosabatlarni buzib yuboradi.

Sen Muqaddas Kitobga amal qilgan holda, Chip va Deyldan ibrat ol: “Bir-biringizni hurmat qilib, o‘zingizdan yuqori qo‘ying” (Rimliklar 12:10).

MULOHAZA QILGIN: Seni hurmat qilmaydigan odamlar bilan munosabatda bo‘lish senga yoqadimi? Nima uchun «ha» va nima uchun «yo‘q»? Senga hurmatsizlik bilan munosabatda bo‘ladigan “do‘st”laring bormi? Sen o‘z do‘stlaringdan kimgadir behurmatlik bilan munosabatda bo‘lasanmi? Nima uchun «ha» va nima uchun «yo‘q»? Sen hurmat do‘stligingning asosi bo‘lishini istaysanmi? Agar ha deb javob bersang, sen buning uchun nimalar qilishing mumkin?

IBODAT: “Rabbim, men barcha do‘stlarimga va yaqinlarimga hurmat bilan munosabatda bo‘lmoqchiman. Menga ... bilan o‘z munosabatlarimni o‘zgartirishim va hurmatni do‘stligimning zarur qismiga aylantirishim uchun yordam ber”.

25 NOYABR. YO‘LOVCHI VA ROHIBLAR

Kalomdan o‘qish: Matto 5:14-16

Imonsizlar orasida Xudoga munosib hayot kechiringlar. Ular sizlarni yomonlikda ayblasalar-da, ezgu ishlaringizni ko‘rib, kim bilsin, balki tavba qilishar va qiyomat kuni Xudoni ulug‘lashar (1 Butrus 2:12).

AYTISHLARICHA, KUNLARDAN BIRIDA sirli bir yo‘lovchi eski ibodatxonaga kelibdi. Ushbu ibodatxona qachonlardir gullab-yashnagandi: u rohiblarining taqvodorligi bilan nom qozongandi. Yoshlar uzoq-uzoqlardan bu ibodatxonadagi rohiblar safiga qo‘shilish uchun kelishardi.

Ammo yo‘lovchi kelgan paytda, vaqtlar osha bu yer avvalgidek emas edi. Bor-yo‘g‘i bir to‘da rohiblar qolgan bo‘lib, ular doimo o‘zaro janjal qilishardi. Qachonlardir ajoyib ko‘rinishda bo‘lgan imoratlar buzila boshlagan, rohiblarning ibodati esa o‘z samimiyligini yo‘qotgandi.

Rohiblar yo‘lovchiga ibodatxonaning qayg‘uli tarixini so‘zlab berib, undan shu yerda qolib, imoratni tiklashda yordam berishini so‘rashibdi, negaki, biror chora ko‘rilmasa, rohiblar va ibodatxona tezda halokatga yuz tutishini aytishibdi. Lekin yo‘lovchi qolishni istamabdi.

– Men ibodatxonani qayta qurishda va imoningizni tiklashda yordam berolmayman. Biroq, ayta oladiganim shuki, oralaringizda Xudoning haqiqiy havoriysi bor.

Sirli yo‘lovchi shu gaplarni aytib, o‘sha yerni tark etibdi.

Rohiblar uning so‘zidan hayron bo‘lib, har biri o‘zicha bu so‘zning ma’nosi haqida bosh qotira boshlabdi. “Bunday bo‘lishi mumkin emas? – deb o‘ylashibdi ular. – Nahotki bizning oramizda haqiqiy havoriy bo‘lsa? Balki, bu abbatdir? Mabodo abbat bo‘lmasa, kim bo‘lishi mumkin? Ehtimol, birodar Filippdir? Yoki birodar Faddeymikan? Balki ... men o‘zimdirman?”

Ibodatxona endi sekin-asta o‘zgara boshlabdi. Rohiblar bir-birlarini hurmat qila boshlashibdi, negaki ulardan kim – haqiqiy havoriy ekanligini bilishmabdi. Ular o‘zlariga ham boshqacha yondasha boshlabdilar, negaki har biri yo‘lovchi aynan uni nazarda tutganligi haqida o‘ylabdi. Shundan so‘ng ular ushbu ibodatxona Xudoning havoriysi yashaydigan joyga monand bo‘lishi uchun darz ketayotgan binoni tiklashga tushibdilar. Rohiblarning ibodatlari endi jo‘shqin va samimiy bo‘libdi, zero ularning orasida haqiqiy havoriy ham ibodat qilar ekan.

Vaqt o‘tib ibodatxonaga keluvchilar endi bu joyning avvalgidek emasligini payqashibdi. Rohiblar garchi kamchilik bo‘lishsada, ular bir-birlarini chindan sevib, hurmat qilisharkan. Tez orada odamlar rohiblar bilan birgalikda ibodat qilish uchun ibodatxonaga kela boshlabdilar. Yoshlar o‘zlarini qiziqtirgan savollar bilan kelishardi. Ko‘pchilik shu yerda qolib, jamoaga a’zo bo‘lib kiribdi. Oradan bir necha yillar o‘tib, ibodatxona avvalgidan ham gullab-yashnabdi, barcha rohiblar esa o‘zlari anglamagan holda Xudoning haqiqiy havoriylariga aylanishibdi.

MULOHAZA QILGIN: Yo‘lovchining so‘zlari qanday ta’sir ko‘rsatdi? Bu voqea Muqaddas Kitobdan bugun o‘qiladigan oyatlarga qay tariqa bog‘liq? Yo‘lovchi va rohiblar haqidagi voqea – ajoyib bir masal, lekin sen boshqalarga hurmat hamma narsani o‘zgartirib yuboradi, deb o‘ylaysanmi? Nima uchun «ha» va nima uchun «yo‘q»? Boshqalarga hurmat seni o‘zgartirishi mumkinmi? Oilangni-chi? Maktabni-chi? Jamoatni-chi? Agar shunday bo‘lsa, qay tariqa?

IBODAT: “Rabbim, men bugun Xudoning haqiqiy havoriysiga bo‘lgani kabi barchaga – shuningdek, o‘zimga ham – ongli tarzda munosabatda bo‘lishim uchun yordam ber”.

26 NOYABR. ISHON VA TAVBA QIL

Kalomdan o‘qish: Galatiyaliklar 3:10-14

Masih esa bizni qonun la’natidan xalos qildi (Galatiyaliklar 3:13).

– U YERDA JUDA KO‘PLAB QOIDALAR va amrlar bor! Hech kim ularni bajara olmaydi!

Sen qachondir shunga o‘xshash gaplarni eshitganmisan? Ehtimol, o‘zing haqingda shunday deb o‘ylagandirsan? Yoki shunday deb gapirgandirsan?

Qaysidir darajada bu bor gap. Muqaddas Kitobda – amrlar ko‘p: “Qotillik qilmang”, “O‘g‘irlik qilmang”, “Qo‘shningizning uyiga ko‘z olaytirmang”, “Xudoga kufr keltirmang”. Ularning barchasini bajarish u yoqda tursin, hattoki eslab qolish ham ilojsizdek bo‘lib tuyulishi mumkin!

Aslida, uzoq yillar mobaynida bu imkonsizdek bo‘lgan. Odamlar asrlar osha Xudoning amrlarini bajarishga urinishgan, lekin asrlar davomida buning uddasidan chiqa olishmagan. Hattoki dunyodagi eng taqvodor odamlar: Ibrohim, Muso, Dovud ham bunga erisha olmagan. Agarda ular Xudoning amrlarini bajarisha olmagan bo‘lsalar, bu kimning qo‘lidan kelishi mumkin?

Isodan boshqa hech kimning. Faqat Iso qonunning barcha talablarini bajarishga qodir. Faqat U hech qachon gunoh qilmagan.

Demak, sen mabodo Xudoning barcha amrlarini bajarishga kirishmoqchi bo‘lsang, bu haqda unut. Bu hech qachon amalga oshmaydi. Sen buni bajara olmaysan. Biroq Iso bajara oladi.

Ko‘rayapsanmi, bu Isoning mo’jizaviy xususiyatlaridan biri. U ikki ming yil avval to‘g‘ri yashabgina qolmay, hozirda ham to‘g‘ri yashamoqda. Agar sen masihiy bo‘lsang, U sening botiningda O‘z Muqaddas Ruhi orqali yashamoqda. Sen o‘z kuching bilan Xudoning barcha amrlarini bajarishga zo‘r bermasliging kerak. Sen shunchaki har kuni Iso Masihga bo‘ysunishing lozim. U sen uddalay olmaydigan darajada to‘g‘ri yashashda davom etadi.

Sen hech qachon Xudoning barcha amrlarini yodingda saqlab qololmaysan. Lekin bunga hojat yo‘q, mabodo sen Isoga ishonsang va har kuni Unga itoat etsang, Iso *botiningda* sen uchun bu vazifani bajaradi.

MULOHAZA QILGIN: Sening fikringcha, Xudoning barcha amrlarini bajara olasanmi? Nima uchun «ha» va nima uchun «yo‘q»? Xudoning amrlarini bajarishga urinish va Iso sen uchun botiningda buni bajarishi o‘rtasida qanday farq bor? Sen qanday yo‘l tutgansan? Iso har kuni senda to‘g‘ri yashashi uchun, Unga qay tariqa ishonch bildirishni boshlash kerak?

Ibodat:”Rabbim, meni gunohdan ozod etganing uchun Senga rahmat. Bugun har bir lahzada Sening Kalomingni ado etish va gunohdan poklanishim uchun menga yordam ber”.

27 NOYABR. HIMOYALOVCHI QALPOQ

Kalomdan o‘qish: Qonunlar 6:20-25

Egamiz Xudo: “Mana shu farmonlarning hammasiga rioya qilinglar, Mendan qo‘rqinglar, shunda bugungiday tirik bo‘lasiz, baxtli hayot kechirasiz” dedi (Qonunlar 6:24).

BEYSBOL JAMOASINING MURABBIYI yukxonadan bir quti yangi himoyalovchi qalpoqlarni chiqaradi. O‘yinchilar qalpoqning qanday ish berishini bilish uchun shu atrofda turishibdi. Ular qalpoqni qo‘llariga olib, diqqat bilan qaray boshlaydilar.

Har bir kishi bu qalpoqning avaalgilaridan farq qilishiga e’tiborini qaratadi. Bu yangilari og‘irroq. Ular yon tarafdan yaxshiroq himoyalangan. Har bir qalpoqning oldida – yuzni himoya qiladigan plastikali shaffof plastina.

Barcha o‘yinchilar bu yangi qalpoqlar o‘zlari ko‘nikib qolgan avvalgilariga o‘xshamasligini ko‘rib turibdi. Barcha yangi qalpoqlarni o‘rganmoqda. Ammo hech kim shikoyat qilgani yo‘q. Hech kim mana bunday gaplarni aytmayapti:

– Menga qarang, murabbiy, nahotki endi shunaqasini kiyib yurishimizga *to‘g‘ri kelsa*?

– Bu qalpoqlarda qizib ketsak kerak!

– Bizga bularning nima keragi bor?

– Ular xalaqit beradi?

– Bu qalpoqlarning bo‘lmagani yaxshi edi.

Hech kim bu kabi gaplarni gapirmaydi, negaki o‘tgan yozda ularning jamoadosh o‘rtoqlari jag‘ini sindirib olgandi va endi hayotining qolgan qismida eshitish va gapirish borasida muammolar bo‘ladi. Hech kim e’tiroz bildirmaydi, negaki ular do‘stlari bilan kechgan voqeadan xulosa chiqarishgan: qalpoqlar ularni himoya qilish uchun belgilangan.

Bu yarqiroq qalpoqlar Xudoning amrlariga o‘xshaydi. U bizga “yaqiningni sevish”, “o‘zini tuta bilish”, “zino qilmaslik” va boshqa shu kabi amrlarni beradi, negaki Xudo bizni sevadi. Uning amrlari bizni chegaralab, baxtsiz etmasligi kerak; ularga amal qilsangiz, “bugungiday tirik bo‘lasiz, baxtli hayot kechirasiz” (Qonunlar 6:24).

Qalpoq sportchini jag‘ sinishidan (ba’zan bundan ham battarrog‘idan) asrashi mumkin bo‘lganidek, Xudoning amrlari ham bizni gunoh va uyatdan, kasallik va umidsizlikdan, mashaqqat va azoblardan himoya qiladi. Xudoning amrlari bo‘yicha yashash bizda hech qachon muammolar bo‘lmasligini kafolatlamaydi, biroq ko‘plab munosabatlarda u bizga farovonlik va gullab-yashnashni olib keladi.

MULOHAZA QILGIN: Sen Xudoning amrlarini qachondir senga xalaqit beradigan va zerikarli deya qabul qilganmisan? Nima uchun «ha» va nima uchun «yo‘q»? Nima deb o‘ylaysan, Xudoning amrlari bizga yaxshilik maqsadida yaratilganmi yoki yomon maqsadlarda? Xudoning amrlariga binoan yashash senga yordam beradimi? Agar yo‘q deb javob bersang, nima uchun? Agar ha deb javob bersang, qay tarzda? Xudo bizga amrlarni bergani uchun biz Undan xafa bo‘lishimiz kerakmi yoki minnatdorchilik bildirish lozimmi? Nima uchun?

IBODAT: “Xudoyim, bilaman, Sening amrlaring meni himoya qilishi va yordam berishi lozim. Iltimos, Sening amrlaringni bajarishim va hamisha to‘g‘ri yo‘l tutishim uchun yordam ber”.

28 NOYABR. BEKINMACHOQ

Kalomdan o‘qish: Ishayo 65:1-2

Egam aytar: “Meni so‘ramaganlarga ko‘rindim; Meni izlamaganlar topdi (Ishayo 65:1).

HARQALAY, SO‘NGGI BORA BEKINMACHOQ O‘YNAGANINGDAN BUYON ko‘p vaqtlar o‘tgandir, lekin bu qanchalik zavqli bo‘lganligi yodingda bo‘lsa kerak? Hech kim topolmaydigan bir ajoyib joyni topish. Hech kim payqamasligi uchun qimir etmaslik. Va nihoyat, seni topib olganlaridagi his-hayajon oqimi.

Axtarayotganingda esa o‘zing qo‘llaydigan barcha ko‘nikma va mahoratlaring kerak bo‘ladi. Qilt etgan tovushni ilg‘ab olish uchun quloqlaringni dikkaytirasan. Boshqalar qayerda yashirinishlari mumkinligi haqida o‘ylaysan. Yashiringan kishining qayerdaligini bildiradigan nimalargadir qaraysan: eshikdan chiqib turgan kiyim chetiga, kiyimning turtib chiqqan qismiga, darparda ortidagi qimirlashga.

Bekinmachoq o‘ynaydigan ko‘plab odamlar o‘zlarini topib olmasliklarini istashadi, lekin Xudo bilan shunday o‘yin qilayotganingda, U xuddi o‘yin qoidalarini bilmadigandek tuyuladi senga. Xudo go‘yoki yaxshiroq berkinib olish o‘rniga, O‘z berkingan joyini bildirib qo‘yayotganga o‘xshaydi. Ba’zan esa Uni payqashning mutlaqo iloji yo‘qdek tuyuladi!

Ehtimol, sen Xudoni izlamayotgandirsan, biroq U doimo seni izlaydi va O‘zini senga ko‘rsatishga urinadi. Xudo takror va takror bizni sevishini aytadi. U takror va takror O‘z Kalomida bizga yaxshilikni tilashini aytadi. Xudoning sabr-bardoshi chegara bilmaydi. Uning biz bilan munosabatda bo‘lish istagi aslo tugamaydi.

Agar sen keyingi paytlarda Xudoni izlashdan ko‘ra, Undan yashirinishga ko‘proq urinayotgan bo‘lsang, nega bu vaziyatni o‘zgartirmaslik kerak? Muqaddas Kitobda shunday deyilgan: “Egangiz yoningizda ekan, Unga intiling, U yaqiningizda ekan, Uni chaqiring” (Ishayo 55:6). Xudoni ibodatda va Kalomni o‘qishdan izlagin. Sen Uni aniq topasan.

MULOHAZA QILGIN: Agar Xudo chindan ham bizdan bekinmoqchi bo‘lsa, nima deb o‘ylaysan, biz Uni topa olarmidik? Agar biz Undan yashirinishga urinsak, nima deb o‘ylaysan, biz buni eplay olarmidik? Sen hozirda Xudoni izlayapsanmi yoki Undan yashirinayapsanmi? Sen bugun Xudoni qay tarzda faolroq izlashing mumkin?

HARAKAT QIL: Do‘stlaring va yaqinlaring bilan sen Xudodan yashirinishing emas, balki Uni izlashing lozimligini yodda tutgan holda, bekinmachoq o‘ynagin.

IBODAT: “Samoviy Ota, Seni izlash uchun sarflaydigan barcha urinishlarimga Sen munosibsan. Seni topa olishim uchun Sendan minnatdorman”.

29 NOYABR. JOAN OSBORNGA MAKTUB

Kalomdan o‘qish: Filippiliklar 2:3-7

Fikr-zikringiz Iso Masihnikiday bo‘lsin: Iso Masih Xudoning tabiatiga ega edi, shunda ham U... ulug‘vorligidan voz kechib, qul tabiatiga kirdi, inson qiyofasiga kirdi (Filippiliklar 2:5-7).

QADRLI JOAN OSBORN,

Bilanman, “Xudo bizdan birimizmi?” qo‘shig‘ini yozganingizdan buyon ko‘p vaqtlar o‘tdi. Lekin Men bugun sizga yozishga va ajoyib yangiliklarni baham ko‘rishga qaror qildim.

Bilaman, bu qo‘shiqni, ayniqsa naqoratni eshitib, ko‘plab masihiylarning ta’bi xira bo‘lgan:

Xudo bizdan birimiz bo‘lsa agar,
Ayting, U kim bo‘lishi mumkin?
Bir sayoqmi olomon ichra?
Avtobusda uy tomon
Shoshayotgan notanishmikan?

Xo‘sh, sizga ayta qolay, Men hech qachon sayoq bo‘lmasdim. Men harqalay tartibsizlik emas, tartib Xudosiman (1 Korinfliklar 14:33). Lekin qo‘shig‘ingizda yozilganlari – haqiqat ekanligini eshitish sizga yoqimli bo‘lardi. Xudo sizlardan biringiz *bo‘ldi* (Yuhanno 1:14). Men shunday qilganman, faqat bundan ikki ming yil muqaddam. Men inson bolasining vujudida tug‘ilishim uchun samodagi O‘z taxtimni qoldirganman. Men o‘ttiz yildan ko‘proq yashab, so‘ngra gunohlaringiz uchun beriladigan jazodan *sizni* qutqarib, kechirimga erishishlaringiz uchun xochda jon berdim.

Ko‘rayapsizmi, Joan, Xudo *chindan ham* “bizlardan birimiz”! Sizning istagingiz – siz uni izhor etmasingizdan avval – bajo bo‘ldi. Men sizga yana ayrim narsalarni aytmoqchiman, Joan: Men samoni qoldirib va O‘zimni past tutib bu olamga tushganimda, barchaga taqvodorlik sifati – itoatkorlikni ko‘rsatdim. Men O‘zimni past tutdim, shu sababdan odamlar o‘z mag‘rurliklarini bir chetga surib, kamtar bo‘lganlari yaxshidir. Bugungi kunda ko‘pchilik odamlardagi eng katta muammo – Xudo nihoyatda kamtar va odam darajasiga tushib O‘zini past tutgani bois – imonining yo‘qligida emas, – yo‘q, muammo shundaki, ular Menga O‘z hayotlarini ishonib topshirishi uchun o‘zlarini past tutishmaydi. Bu ular uchun – Men uchun ham – katta muammo, negaki Men ularni sevaman. Men sizni ham sevaman, Joan. Men buni shunchaki bilib qo‘yishingizni istadim.

Sevgi ila,
Iso Masih.

MULOHAZA QILGIN: Sen qachonlardir Joan Osbornning ushbu qo‘shig‘ini eshitganmisan: “Xudo bizdan birimiz bo‘lsa, Ayting, U kim bo‘lishi mumkin”? Agar ha deb javob bersang, birinchi marotaba eshitganingda qanday xayollarga bording? Joan Isoning maktubiga qanday javob qaytargan bo‘lardi? Xo‘sh, sen Isoning maktubiga nima deb javob yozarding? Nega (Isoning maktubiga ko‘ra) itoatkorlik –yaxshi? Sen mag‘rurlikni bir chetga surib, kamtar bo‘lishing mumkinmi? Sen bugun masihiycha muloyimlikni qay tariqa ko‘rsatishing mumkin?

IBODAT: “Iso, men gunohlarim uchun jazodan qutulishim va kechirilishim uchun Sen o‘zingni past olib odam sifatida bu olamga kelganing uchun Senga rahmat. Iltimos, muloyimlik yaxshi ekanligini menga eslatib tur, negaki Sen O‘zing muloyimsan. Menga O‘zing kabi muloyim bo‘lishimga yordam ber”.

30 NOYABR. BALIQ HAVZASI

Kalomdan o‘qish: Filippiliklar 2:5-11

Shuhratparast bo‘lmang, aksincha kamtarlik bilan boshqalarni o‘zingizdan yuqori deb biling (Filippiliklar 2:3).

SEN QACHONLARDIR attraksion parkida bo‘lganmisan? U yerda quvnasa bo‘ladi, to‘g‘rimi? Qanchadan-qancha o‘yin va bellashuvlar bor o‘sha joyda!

Albatta, musobaqalarda hammasi omadga bog‘liq, to‘g‘rimi? Sen kattaligi o‘zingdek keladigan baxmal ayiqni yutib olish uchun sharni keglini urishga harakat qilasan. Afsuski, barcha kenglini urish uchun yagona imkoniyat berilgan – birinchi qatorning o‘rtasidagi keglining kichkina belgisiga sharni tushirish kerak.

Ehtimol, sen sharchani ikkita kichikroq do‘nglik oralig‘idagi tirqishga haydab tushirish uchun ularni metall ramkada aylantirarsan. Afsuski, shar soatiga 0,287904 kilometr tezlikda aylanib, zarba sharning to‘g‘risidan yo‘naltirilishi kerak, aks holda pullaring havoga uchib ketadi.

Odatda nimanidir yutib olishning yaxshi yo‘li – bu, “baliq havzasi”da ov qilmoqdir. Kichkina qarmoq yordamida sen baliqni basseynga tashlangan ohanrabo bilan ovlashga urinasan, ba’zan esa suvdan raqami yozilgan baliqni (yoki o‘rdakni) shunchaki tortib chiqarasan. Sen har qanday holatda ham qandaydir mukofot olasan: rezina chuvalchang, plastmassali uzuk yoki braslet. Bu katta narsa emas, biroq har holda yo‘qdan ko‘ra yaxshiroq, to‘g‘rimi?

Shunday odamlar borki, ular hatto parkdagi attraksionda bo‘lmasalar ham hayotlarida “suv havzasi” o‘yinini o‘ynaydilar. Ular olqish va maqtovlarni ovlashadi.

– Ko‘rdingmi, to‘pni qanday tashladim? Aniq nishonga urdim! Boshqa birovning bunday qilishi amri mahol! *Bu haqiqat*, shunday emasmi?

– U sochimni turmaklab bo‘lganida, oynaga qarab bunchalik go‘zal ko‘rinishimdan o‘zim hayron qoldim. *Shunday emasmi*?

– Albatta, sen hech qachon bunday gaplarni aytmaysan, to‘g‘rimi? Sen hech qachon maqtovlar ortidan quvmaysan. Sen bunday maqtanmagan bo‘larding, to‘g‘rimi?

Aslida, biz vaqti-vaqti bilan amalda o‘zimizni shunday tutamiz. Biroq Xudo aniq qilib, biz o‘zimizni maqtamasligimiz kerakligi haqida aytgan. U bizning itoatkor bo‘lishimizni istaydi. U bizning Iso Masihga o‘xshash bo‘lishimizni xohlaydi. Iso garchi Xudo bo‘lsada, bizning Xaloskorimiz bo‘lish uchun O‘zini past tutdi (Filippiliklar 2:5-8; Ibroniylar 12:2).

Xullas, keyingi safar biror nimada omading kelsa yoki yangi soch turmaging ajoyib koʻrinsa, maqtov soʻrama. Muqaddas Kitobda shunday deyilgan: “Seni oʻzing emas, boshqalar, oʻz ogʻzing emas, oʻzgalar maqtasin” (Hikmatlar 27:2).

MULOHAZA QILGIN: Sen qachonlardir oʻzingga olqish tilab, maqtanganmisan? Nima deb oʻylaysan, sen oʻzing soʻraganingda maqtaganlari yaxshimi yoki boshqalar oʻz tashabbuslari bilan maqtashlari afzalmi? Nima uchun? Muqaddas Kitobdan bugun oʻqiladigan amrlarni qanday bajarishing haqida oʻylab koʻr? (“shuhratparast boʻlmang”, “boshqalarni oʻzingizdan yuqori qoʻying”).

IBODAT: “Rabbim Iso, men oʻzimga maqtov soʻramasligim uchun yordam ber. Buning oʻrniga, atrofimdagilarni maqtashimga yordam ber”.

1 DEKABR. FERDINAND VA IZABELLANING ISHONCHI
Kalomdan o‘qish: Yoqub 2:14-20
...amalsiz imoning foydasiz... (Yoqub 2:20).

XRISTOFOR KOLUMB VA UKASI Varfolomey g‘arbga suzib, Yaponiya, Xitoy va Hindistonga bormoqchi bo‘lishgan. 1482 yilda Xristofor Portugaliya qiroli Ioann II ga pul va kemalar so‘rab murojaat qildi, biroq u Kolumbning iltimosini bajarishdan bosh tortdi. 1485 yilda aka-ukalar Angliya qiroli Genrix VII dan yordam olishga harakat qilishdi, ammo bu ham natija bermadi.

Nihoyat, 1492 yilda Ispaniya qiroli Ferdinand va qirolicha Izabella Ispanlar Kolumbning iltimosini qondirishdi. 3 avgust kuni u ispan bandargohi Palosdan chiqdi va Kolumb 12 OKTYABRda “Yangi dunyo”ga tushgan birinchi yevropalik bo‘ldi.

Faqatgina Ferdinand va Izabella Ispanlar Kolumb va uning o‘z zimmasiga olgan vazifaga ishonishdi. Portugaliya qiroli Ioann II, ma’lumki, bu odamga ishonmagan. Angliya qiroli Genrix VII ham. Biz buni qayerdan bilamiz? Ularning amalga oshirgan ishlari bo‘yicha. Yoki, Kolumb bilan bo‘lganidek, amalda ko‘rsatilgan ishning yo‘qligi bilan.

Mabodo Portugaliya va Angliya qirollari Kolumbga ishonganlarida, o‘zlarini boshqacha tutgan bo‘lishlarini tasavvur qilish qiyin emas, to‘g‘rimi? Agar ular Kolumbga ishonganlarida, xuddi Ferdinand va Izabellaga o‘xshab, Kolumbga pul, kemalar va unvon bergan bo‘lishardi, to‘g‘rimi?

Isoga bo‘lgan ishonch ham shunday ishlaydi. Muqaddas Kitobda Yoqub shunday yozgan: “Ey birodarlarim, agar biror kishi imonim bor, desa-yu, xayrli ishlar qilmasa, nima foydasi bor?! Bunday imon uni qutqararmidi?!... Shunga o‘xshab, quruq imonning o‘zi amalsiz o‘likdir” (Yoqub 2:14,17).

Ko‘rayapsanmi, biz yaxshi ishlar bilan va hattoki to‘g‘ri qarorlarimiz bilan qutulib ketolmaymiz. Biz inoyat bilan imon orqali xalos bo‘lamiz (Efesliklar 2:8). Biroq Masihdagi haqiqiy qutqaruvchi imon to‘g‘ri qarorni keltirib chiqaradi – bu xuddi Ferdinand va Izabellaning Kolumbga hamda uning vazifasiga bo‘lgan ishonchlari kemalarni, pullarni va butun bir Yangi Dunyoni ro‘yobga keltirganiga o‘xshaydi!

MULOHAZA QILGIN: Sen masihiymisan? Agar shunday bo‘lsa, qay tariqa masihiy bo‘lgansan: yaxshi ishlar qilibmi yoki Masih O‘z inoyati bilan qutqarishiga bo‘lgan ishonchmi? Sen masihiysan: bu sen xohlagan ishingni qilishing mumkinligini bildiradimi? Nima uchun «ha» va nima uchun «yo‘q»? Muqaddas Kitobdan bugun o‘qiladigan oyatlarga ko‘ra, qanday “ishlar” senda imon uyg‘otishi mumkin?

IBODAT: “Samoviy Ota, men imon orqali inoyat bilan qutqarilishimni bilaman. Iltimos, imonda ulg‘ayishimga va to‘g‘ri qaror qilishim hamda Senga itoat etgan holda har kuni yaxshi ishlar qilishim uchun yordam ber”

2 DEKABR. YOMON YANGILIKLAR VA YAXSHI YANGILIKLAR
Kalomdan o‘qish: Ibtido 40:1-5, 12-23
Egamning sodiq sevgisi bo‘lmaydi ado... Buyukdir Egamning sadoqati! (Marsiya 3:22-23).

TASAVVUR QILGIN, quyidagi vaziyatda *sen* o‘zingni qanday his qilasan.

Yusufni yolg‘ondakam ayblab, zindonga tashlashdi. Uning oldiga yana ikkita mahbusni – fir’avnning bosh soqiyini va bosh oshpazini – o‘tkazmagunlaricha u qanchadir vaqt bir o‘zi zindonda o‘tirdi. Bir kechasi bosh soqiy va nonvoy tush ko‘rib, bu haqda Yusufga aytishdi. Yusuf ularga bu tushlar nimani anglatishini izohlab berdi.

– Yaxshi yangiliklar, – dedi u soqiyga. – Fir’avn uch kundan so‘ng seni ozod qilib, vazifangni tiklaydi.

U xursand bo‘ldi.

– Iltimos, fir’avnning oldiga qaytganingda, men haqimda ham eslagin, - deya iltimos qildi Yusuf. – Undan meni ham ozod qilishini so‘ra.

Yusuf shundan so‘ng fir’avnning sobiq nonvoyiga yuzlandi.

– Yomon yangiliklar bor, – dedi u. – Fir’avn uch kundan so‘ng sening boshingni uzishga buyruq beradi.

Hammasi Yusuf aytganidek bo‘ldi. Uch kundan so‘ng fir’avn ziyofat uyushtirdi. U sobiq soqiyni ozod qilib, sobiq nonvoyni qatl etishni buyurdi. Biroq soqiy Yusufning iltimosi haqida tezda unutdi va Yusuf qorong‘i zindonda qolib ketaverdi.

Garchi soqiy Yusufga bergan va’dasining ustidan chiqmagan bo‘lsada, Xudo Yusufga sodiq edi. Oradan ikki yil o‘tib fir’avn tush ko‘rganida buning ma’nosini munajjim va donolar ham ochib bera olishmadi. Ana shunda bosh soqiy Yusufni eslab qoldi. U fir’avnga o‘zining va nonvoyning tushini ta’birini Yusuf aniq aytganini so‘zlab berdi. Fir’avn Yusufni chaqirib, o‘z tushini aytib berdi. Yusuf tinglab, Xudoning yordami bilan bu tush nimani anglatishini tushuntirdi.

Yusufning tarixi (Ibtido 40-41) odamlar sadoqatsiz bo‘lishlari mumkinligini ko‘rsatadi. Bu voqea, shuningdek, hattoki do‘stlar va qarindoshlar nosodiq bo‘lganlarida ham, Xudo hamisha sadoqatli ekanligini ko‘rsatadi. Yeremiyo payg‘ambar shunday degan: “Egamning sodiq sevgisi bo‘lmaydi ado, Buyukdir Egamning sadoqati!” (Marsiya 3:22-23).

Aslida, biz aynan shundan kelib chiqqan holda, sadoqat yaxshi ekanligini bilamiz, negaki Xudo sadoqatlidir. Xudo sodiq bo‘lishimizni buyuradi, negaki Uning O‘zi sodiqdir. U hech qachon bizni tark etmaydi. U

hech qachon bizni tashlab ketmaydi. U bizning ibodatlarimizni eshitmay qolmaydi. U sadoqatli. Demak, Xudo vafodor ekan, biz ham sadoqatli bo‘lishimiz lozim.

MULOHAZA QILGIN: Muqaddas Kitobdan bugun o‘qiladigan oyatlardagi soqiy to‘g‘ri ish qildimi? Nima uchun «ha» va nima uchun «yo‘q»? Nima uchun sadoqat yaxshi, xiyonat esa yomon? Sen o‘zingni qachonlardir soqiy singari tutganmisan? Agar shunday bo‘lsa, bu nimada o‘z ifodasini topgan? Sen Xudoga sodiqmisan? Oilanga-chi? Do‘stlaringga sodiqmisan?

IBODAT: “Xudoyim, Sening sevging abadiydir. Sening sadoqating buyuk. Iltimos, Senga, oilamga va do‘stlarimga sodiq bo‘lishim uchun yordam ber”.

3 DEKABR. UNING IZIDAN
Kalomdan o‘qish: 1 Butrus 2:19-25
Masih sizlar uchun azob chekib, namuna bo‘ldi. Unga taqlid qilinglar (1 Butrus 2:21).

1896 YILDA KANZAS SHTATIDAGI Topeki jamoatidan bo‘lgan bir qavmboshi kitob yozishni boshlab, o‘z jamoatida yakshanba oqshomlari yoshlar guruhiga (bir o‘qishda bittadan bobdan) o‘qib beraverdi. Birinchi bobda qachondir muvaffaqiyatli jamoatga oqshom chog‘i kirib kelgan – ishsiz va uysiz – bir darbadar haqida hikoya qilinadi. Darbadar bir necha so‘z aytib, behush yerga yiqilibdi. Uch kundan so‘ng bu odam qavmboshining uyida vafot etibdi. Lekin u o‘limi oldidan qavmboshiga shunday debdi:

– Siz menga mehribonlik ko‘rsatdingiz. Men Iso ham shunday qilgan bo‘lishini his qilyapman.

Darbadar kishining kelishi va aytgan so‘zlari qavmboshining hayotga bo‘lgan munosabatini o‘zgartiribdi, bunday o‘zgarish esa tezda qavm o‘rtasida tarqalibdi. Jamoat o‘z harakatini shunday savol bilan belgilaydigan bo‘libdi: “Iso qanday yo‘l tutgan bo‘lardi?” Tez orada jamoat a’zolari – ajoyib natijalar ko‘rsatgan holda – hayratomuz ishlar qila boshlashibdi, – buning boisi, barcha Iso kabi yo‘l tutishga uringanida ekan. Boshqacha aytganda, ular Isoning izdoshlariga aylanishibdi.

Qavmboshi Charlz M. Sheldonning “Uning izidan” nomli kitobi qachonlardir yozilgan eng mashhur kitoblardan biri hisoblanadi. Garchi u umumiy nashri bo‘yicha faqat Muqaddas Kitobdan ortda qolsada.

Havoriy Butrus bir vaqtlar Charlz Sheldonning kitobida keltirib o‘tilgani kabi qisqacha xabarini yo‘llagan. Butrus yozganki, “Masih sizlar uchun azob chekib, namuna bo‘ldi. Unga taqlid qilinglar” (1 Butrus 2:21).

Butrus masihiy bo‘lish – Isoga taqlid qilish demakdir, demagan; biz faqat Xudoning inoyati bilan, Iso Masihga imon keltirgan holda masihiy bo‘lamiz. Ammo Butrusning maktubida masihiycha yashash – bu Uning izidan bormoq demakdir, deyilgan. To‘g‘ri qaror qilish – bu, Isodan ibrat olmoq, demakdir. Isoga o‘xshash bo‘lish – bu, taqvodor bo‘lmoq, demakdir.

Agar biz o‘z harakatlarimizni Isoning harakatlari bilan taqqoslasak, bu holda ularning to‘g‘ri yoki noto‘g‘ri ekanligini bilamiz. Agar biz o‘zimizdan, – “Iso bu vaziyatda nima qilgan bo‘lardi?” – deb so‘rasak, nima to‘g‘ri ekanligini bilamiz. Isoga ergashgan holda esa, to‘g‘ri yo‘lni tutganimizga ishonch hosil qilishimiz mumkin.

MULOHAZA QILGIN: Muqaddas Kitobdan bugun o‘qiladigan oyatda, “Isoga o‘xshash bo‘lish – to‘g‘ri bo‘lish” ekanligi haqida aytiladi. Bu nega shunday? Agar sen bugun (yoki kecha) o‘zingga, “Iso nima qilgan bo‘lardi?” deb savol berganingda, o‘zingni boshqacha tutgan bo‘larmiding? Nima uchun «ha» va nima uchun «yo‘q»?

HARAKAT QIL: Mabodo sen “Uning izidan” kitobini hech qachon o‘qimagan bo‘lsang, hoziroq o‘qib chiq. Agar bu kitob uyingda bo‘lmasa, jamoatdan yoki kutubxonadan olgin.

IBODAT: “Rabbim, Sen Isoni mening gunohlarim bois o‘limga yuborganing uchun Senga rahmat. Barcha masalada Undan ibrat olishim uchun yordam ber. Iltimos, meni har kuni Unga yanada monand etgin”.

4 DEKABR. SEN QANCHALIK TUBAN KETISHING MUMKIN
Kalomdan o‘qish: Zabur 118:27-29
Soxta yo‘llardan meni saqlagin (Zabur 119:29)

KOMPANIYA PREZIDENTI kunlardan birida chek yozish va hisob-kitob to‘lovi uchun mas’ul bo‘lgan xodimlardan birini oldiga chaqiribdi.

– Smizers, – debdi u, – bizda murakkab vaziyat yuzaga keldi, o‘ylashimcha, sen bu muammoni hal qilishga qodirsan.

– Albatta, yordam berishga harakat qilaman, – deb javob beribdi Smizers.

– Menga ayt-chi, – so‘rabdi prezident, – deylik, men senga o‘n ming dollar bersam, biz soliq to‘lovlaridan pulni tejab qolishimiz uchun biror kishini alday olasanmi?

Smizers darrov javob qaytarmabdi. O‘n ming dollar – uning uchun katta pul edi. U bu pullarga nima sotib olish mumkinligi haqida o‘ylabdi. Nihoyat u prezidentga yaqin egilib ko‘zini qisibdi:

– O‘ylashimcha, men buni uddalayman, – debdi u tabassum bilan.

Kompaniyaning prezidenti javoban jilmayibdi:

– Rahmat, Smizers, – debdi u. – Men buni e’tiborga olaman.

Xodim o‘girilib eshik sari ketayotganida, kompaniyaning prezidenti uni to‘xtatibdi:

– Bir daqiqa, Smizers, – debdi u, – sen o‘n dollarga shu ishni qilgan bo‘larmiding?

– O‘n dollarga! – Smizers og‘zini katta ochibdi. – Siz meni kim deb o‘ylayapsiz?

– Sen menga kim ekanligingni aytib bo‘lding, – debdi prezident. – Men faqat sen qay darajada tuban ketishingni aniqlamoqchi edim.

Smizers o‘z boshlig‘iga agar unga to‘lashsa g‘irrom bo‘lishi mumkinligini bildirib qo‘ygandi. Prezident, agar bu odam o‘n ming dollarga aldashi mumkin bo‘lsa, bundan kam pulga ham aldashi mumkinligi haqida o‘ylagandi.

Ko‘rayapsanmi, senga buning uchun har qancha pul to‘lashmasin, g‘irrom bo‘lish yomon. Har qancha katta pul haqida gap ketmasin, g‘irrom bo‘lish yomon. Hech qanday katta pul yo‘qki, buning evaziga g‘irromlik “to‘g‘ri” (yoki kechirimli) bo‘lsa. Hattoki o‘n ming dollarga ham. Hatto o‘n millionga ham. Hattoki o‘n *milliard* evaziga ham!

MULOHAZA QILGIN: Sen o‘zing haqingda nima deysan? Qanday miqdordagi pul evaziga seni g‘irrom bo‘lishga ko‘ndirish mumkin? Seni bunga rozi qiladigan *eng kam miqdordagi* pul qancha? Nima deb o‘ylaysan, har qanday pul miqdori haqida gap ketmasin, halol bo‘lish yaxshimi? Nima uchun «ha» va nima uchun «yo‘q»? Hattoki mayda vaziyatlarda ham barchasida halol bo‘lish kerakmi? Nima uchun «ha» va nima uchun «yo‘q»?

IBODAT: “Xudoyim, iltimos, meni yolg‘on yo‘llardan asragin. Hatto bu qiyin bo‘lganida va vaziyat ahamiyatsiz bo‘lib tuyulganida ham, halol bo‘lishimga yordam ber”.

5 DEKABR. HALOL EYB

Kalomdan o‘qish: Levilar 19:35-37

Uzunlikni, og‘irlikni va miqdorni o‘lchaganda g‘irromlik qilmang (Levilar 19:35).

AVRAAM LINKOLN HAQIDA BIR VOQEA BOR. Bu voqea hali u yosh bo‘lganida va “halol Eyb” sifatida dong taratmagan paytlarda yuz bergan.

U bir do‘konda ishlagan. Kunlardan birida xarid uchun notanish ayol keladi. Eyb hisob-kitobni chiqarib, mahsulotning narxini qog‘oz parchasiga yozib, undan pulni oladi. Ayol ketganida esa uning nazarida hisob-kitob noto‘g‘ri chiqarilib, ayoldan ortiqcha pul olgandek bo‘lib tuyuladi. Bu yerda gap faqat bir necha sentlar ustida ketayotgandi, lekin Eyb o‘zini noqulay his qildi. Do‘kon yopilganidan so‘ng u xaridorning pulini qaytarish uchun uning uyiga (oraliq uch-to‘rt kilometr masofa) bordi.

Boshqa safar esa choyni tortganida, tarozida ortiqcha tosh turganligini ko‘rib qoldi: tosh choyning og‘irligini keragidan pastroqqa tortib turardi. Bu gal ham masala bir necha sentlarda edi, biroq Eyb xatosini to‘g‘rilab, yetishmayotgan miqdordagi choyni tarozida tortib, ayolga yetkazdi.

Linkolnni nega “halol Eyb” deya ataganlarini tushunish qiyin emas. Oxir-oqibat, u bu ikkala vaziyatlarda (va boshqa ko‘plab holatlarda ham) o‘z noqulayligiga qaramasdan, hech kimni aldamaslikka va begona narsani olmaslikka urindi. U o‘z harakatlarini oqlashga harakat qilmadi. U yelkasini qisgancha shunday demadi: “Men bu ayolning haqini tarozidan urmoqchi emasdim!” U, ortiqcha pulni olish mumkin, deya o‘ylamadi. Yo‘q, u qanday bo‘lish kerak bo‘lsa, o‘zini shunday – halol inson kabi tutdi.

Xudo ham bizning shunday yo‘l tutishimizni istaydi. U yolg‘onni oqlashimizga yoki unga bee’tibor bo‘lishimizga izn bermaydi. U bizning bu kabi gaplarni aytishimizni istamaydi: “Men duch kelgan vaziyatda bu to‘g‘ri yo‘l” yoki “Hozirgi paytda bu yomon emas”. Yo‘q, U bizga ezgulik va yovuzlik haqida aytganlarini yodda tutishimizni istaydi, U esa halollik – yaxshi, yolg‘on esa – yomon deb aniq qilib aytgan.

MULOHAZA QILGIN: Nima deb o‘ylaysan, yuqorida qayd etilgan vaziyatlarda Avraam Linkoln to‘g‘ri yo‘l tutganmi? Balki, u biroz “oshirib yuborgan” deb o‘ylayapsanmi? Sening fikringcha, u “halol Eyb” deb nomlashlariga munosibmi? Sen qachonlardir o‘z yolg‘oningni oqlashga uringanmisan? Sen qachondir nomaqbul nimanidir halol deb aytganmisan? Yoki sen Xudo aytganidek ish tutishga urinasanmi?

HARAKAT QIL: Keyingi safar do‘kondan biror nima sotib olayotganingda Avraam Linkolnning halolligi haqida eslagin va qaytimni diqqat bilan qayta hisoblab chiq.

IBODAT: “Bizning Samoviy Otamiz, menga nima to‘g‘ri, nima noto‘g‘ri ekanligini faqat Sen hal etishingni yodda tutishimga yordam ber. Menga Sen O‘zing amr etganingdek, halol yo‘l tutishimga yordam ber”.

6 DEKABR. VOIZ VA KUCHUK

Kalomdan o‘qish: Levilar 19:1-2, 11

O‘g‘irlik qilmang, aldamang, birovga yolg‘on gapirmang (Levilar 19:11).

BIR VOIZ KUNLARDAN BIRIDA kichkina paxmoq kuchukchani o‘rab olgan bolalarga ko‘zi tushibdi. Bir muddat u bolalarni kuzatib, ularning nima qilayotganlarini tushunmabdi. Nihoyat, u yaqin kelib, bolalarning nima bilan mashg‘ul ekanliklarini so‘rabdi.

– Bir-birimizni aldayapmiz, – deb javob qaytaribdi bolalardan biri.

– Ha, – qo‘shimcha qilibdi boshqasi. – Kim hammadan zo‘r aldasa, o‘sha kuchukchani oladi.

Voizning yuzida mahkum etishni bildiruvchi ifoda paydo bo‘libdi:

– Bilasizlarmi, – debdi u, – sizlarning yoshingizda men *hech qachon* aldamaganman!

Bolalar bir-birlariga g‘amgin qarab qo‘yishibdi. Nihoyat, birinchi bo‘lib gapirgan bola yelkasini qisibdi.

– Siz yutdingiz! – deb e’lon qilibdi u. – Kuchukchani olib ketavering!

Bu bolalar qachonki yolg‘on eshitishsa, buni bilishardi. Xudo ham buni biladi.

Xudo bizga halol bo‘lishimizni amr etgan. Qachonlardir Isroil halqi Misr qulligidan ozod bo‘lganida, Xudo ularga Muso orqali murojaat qilgan. Uning Sinay tog‘ida, sahroda bergan amrlaridan ko‘pchiligi halollikka taalluqli. U shunday degan: “O‘g‘irlik qilmang, aldamang, birovga yolg‘on gapirmang” (Levilar 19:11).

Bu amrlar juda oddiy, to‘g‘rimi? Ular mutlaqo tushunarli. Xudo bizga halol bo‘lishimizni buyurgan. U bizning aldashimizni istamaydi; bizning yolg‘on gapirishimizni istamaydi; o‘g‘irlik qilishimizni xohlamaydi, – negaki bularning bari nohalol harakatlar! G‘irrom bo‘lish esa – hatto voizlar uchun ham – yomon!

MULOHAZA QILGIN: Muqaddas Kitobdan bugun o‘qiladigan oyatlarda Xudo aldov, yolg‘on va o‘g‘irlik haqida nimalar deydi? Senda ular (aldov, yolg‘on, o‘g‘irlik) bilan qachonlardir muammo bo‘lganmi? Agar shunday bo‘lsa, aynan qanday? Nima deb o‘ylaysan, biror masalada halol bo‘lishning o‘zi yetarlimi yoki Xudo seni har taraflama halol bo‘lishingni ko‘rishni istaydimi? Sen buni qayoqdan bilasan?

IBODAT: “Mehribon Xudoyim, men nopok bo‘lganimda Senga itoat etmay Seni umidsizlantirganimni bilaman. Iltimos, Sening aldamaslik, yolg‘on gapirmaslik vv o‘g‘irlik qilmaslik haqidagi amringni bajarishimga yordam ber. Bugun va har kuni to‘g‘ri gapirishim va halol yo‘l tutishim uchun yordam ber”.

7 DEKABR. HAQIQIY QIYMAT

Kalomdan o‘qish: Zakariyo 8:14-17

bir-biringizga haqiqatni ayting... yolg‘on qasam ichmang. Men bulardan nafratlanaman. Sarvari Olamning Kalomi shudir (Zakariyo 8:16-17).

AGAR SENDA YIGIRMA SO‘M BO‘LSA, nimalar sotib olgan bo‘larding (qarab ko‘r):

- Shokoladmi *yoki* yangi gazetami?

Agar senda ellik so‘m bo‘lsa, nima sotib olgan bo‘larding:

- Gamburger va kola *yoki* telefon kartochkasimi?

Agar senda uch ming so‘m puling bo‘lsa, nima sotib olgan bo‘larding:

- Yangi krossovka *yoki* CD – pleyermi?

Agar senda million so‘m bo‘lsa, nima sotib olgan bo‘larding:

- Kvartirami *yoki* iguana egalari uchun jurnalga bir umrlik obunanimi?

Harqalay, oxirgi holatdagi tanlov tushunarli: axir iguana egalari jurnaliga bir umrlik obuna bo‘lishni *har kim* istaydi! Biroq boshqa savollarni ham ko‘rib chiqaylik. Nega sen aynan *shuni* tanlading? Senga tanlash qiyin kechdimi?

Sen bu buyumlarni qadrlaganing uchun tanlading. Sening tanloving sening qiymat tizimingga bog‘liq.

Xudoga ham xuddi narsa taalluqli. Uning tanlovi Xudoning qiymat tizimidan xabar beradi. Misol uchun, Muqaddas Kitobdan bugun o‘qiladigan oyatlarda Xudo nimani qadrlashi va nimani qadrlamasligi haqida so‘zlaydi! Buni tushunish qiyin emas. Xudo Quddus ahliga shunday buyuradi: “Bir-biringizga haqiqatni ayting”, negaki U haqiqatni qadrlaydi. U shunday buyuradi: “Yolg‘on qasam ichmang”, – negaki nopok harakatlarga toqat qilolmaydi (Zakariyo 8:16-17).

Agar biz Xudoni sevsak va Unga ergashishni xohlasak, bizning harakatlarimizdan (xuddi U kabi) halollikni qadrlashimiz ko‘rinib turishi kerak.

MULOHAZA QILGIN: Zakariyo 8:14-17 qayta o‘qib chiq. Quyida Xudo O‘z xalqiga nimalar deganini ikki qatorga yozib chiq, bunga ko‘ra Xudo nimani qadrlashi, nimadan esa nafratlanishi ayon bo‘lsin:

Xudo qadrlaydiganlar	**Xudo nafrat qiladiganlar**

Qani ko‘raylikchi, Xudoning qadriyatlari sening qadriyatlaring va harakatlaringda qanchalik namoyon bo‘larkan?

IBODAT: “Rabbim, Sen menga halol bo‘lishni amr etganingni bilaman, negaki Sen halollikni qadrlaysan. Iltimos, men ham halollikni qadrlashimni o‘z harakatlarim orqali ko‘rsatishimga yordam ber”.

8 DEKABR. IKKITA UY

Kalomdan o‘qish: Chiqish 34:1-6

Men Egangman! Men Egangman! Rahmdil va inoyatli, jahli tez chiqmaydigan Xudoman, sevgim va sadoqatim mo‘ldir (Chiqish 34:6)

KONNEKTIKUT SHTATI, XARTFORDDAGI YASHIL TEPALIKDA deyarli yuz yillar avval qurilgan ikkita uy turibdi. Ularni umumiy hovli ajratib turadi.

Uylardan biri – juda chiroyli, katta va g‘aroyib. Unda tom qismidagi deraza, qubbalar, uzun ayvonlar, ajoyib gullar va bezaklar bor. Qaysidir qismlarida u – misol uchun, peshayvon va zinopoya – Missisipi bo‘ylab suzadigan kemaga o‘xshaydi.

Boshqa uy anchayin kichikroq, ixcham va qulay. Undagi xonalar kichkina, zinopoyalari tor. U ajoyib ko‘rinadi, ammo g‘aroyib emas. Bu uyning javonlari Muqaddas Kitob va boshqa kitoblarga to‘la.

Agar sen Xartforddagi bu ikkala uyni ko‘rsang, bu yerda qanday odamlar yashaganini darhol tushunasan. Sen, birinchi uyni qurgan odam favqulodda va g‘ayrioddiy odam bo‘lgan, degan xayolga borasan. U Missisipidagi kemalarni yoqtirgani aniq. Sen bunda haqsan: birinchi uy “Tom Soyerning sarguzashtlari” va Geklberri Finning sarguzashtlari” asarlarining muallifi yozuvchi Mark Tven (Semyuel Klemens)ga tegishli bo‘lgan.

Shuningdek, sen, ikkinchi uy kamtarroq va bosiqroq kishiga, ehtimol, masihiyga tegishli bo‘lgan, deya xayol qilarsan. Bu fikrda haqsan, negaki qachonlardir ushbu mo’jazgina uyda qavmboshining qizi, “Tom tog‘aning kulbasi” asarini yozgan Garriyet Bicher-Stou yashagan.

Bu qiziq, to‘g‘rimi? Mazkur uylarga nazar tashlab, sen Mark Tven va Garriyet Bicher-Stou kim bo‘lganligini tushunasan. Sen Tvenning Missisipida lotsman bo‘lganligini tushunasan. Sen, Bicher-Stou masihiy bo‘lgan, deb aytishing mumkin.

Xudo va Uning amrlari bilan ham xuddi shunday bo‘ladi. Uning amrlari nafaqat Xudoning qadrlashini, balki Uning O‘zi ham *qanday* ekanligini ko‘rsatadi. Uning aldamaslik, yolg‘on gapirmaslik va o‘g‘irlamaslik haqidagi amrlari Xudoning tabiati va fe’l-atvorining qandayligini ko‘rsatadi. Muso qonunlarga ega bo‘lganida , Xudo shunday degandi: “Men Egangman! Men Egangman! Rahmdil va inoyatli, jahli tez chiqmaydigan Xudoman, sevgim va sadoqatim mo‘ldir” (Chiqish 34:6). Xudo halollikni qadrlaydi, negaki Uning O‘zi – haqiqiy. U – adolat va haqiqat Xudosi, shu bois aldash, yolg‘on gapirish va o‘g‘irlash – yomondir.

MULOHAZA QILGIN: Xudoning aldamaslik, yolg‘on gapirmaslik va o‘g‘irlamaslik haqidagi amrlari Uning tabiati va fe’l-atvorida qanday aks etadi? Halol bo‘lish nima uchun yaxshi? Nopok bo‘lish nima uchun yomon? Quyidagi jumlani davom ettir:

Xudo halol bo‘lishni buyuradi, negaki _____

Xudo halollikni qadrlaydi, negaki _____

IBODAT: “Rabbim Xudo, Sen ezgulik va haqiqatsan. Bilaman, halollik- yaxshi, negaki Sen to‘g‘riso‘z va haqiqat – Sening tabiatingdir. Iltimos, halol bo‘lishimga yordam ber, negaki halol bo‘lish Senga o‘xshash bo‘lish ekanligini bilaman”.

9 DEKABR. SEN KIMGA ISHONASAN?

Kalomdan o‘qish: Luqo 16:10-12

To‘g‘ri so‘z shohning quvonchidir, u rostgo‘ylarni yaxshi ko‘radi (Hikmatlar 16:13).

SEN KIMGA ISHONASAN? Harholda, sen bu dunyoda o‘z pullaringni kamdan-kam odamlarga ishonib topshirasan, to‘g‘rimi? Va bundan ham kamroq kishilarga eng maxfiy sirlaringni ishonishing mumkin. Quyida pul yoki sirlaringni ishonishing mumkin bo‘lgan ikki yoki uch kishining ismini keltirgin:

_____

_____

_____

_____

Endi esa kel, nega bu odamlarga ishonishing haqida o‘ylab ko‘r. Sen ularga ishonishingni tushuntiradigan jumlalar yoniga belgi qo‘ygin.

- □ Ular shu yerda yashayotgani uchun ishonaman.
- □ Ulardan har biri qachondir meni aldagani uchun ishonaman.
- □ Ular menga yoqqani uchun ishonaman.
- □ Ular yoqimtoy bo‘lgani uchun ishonaman.
- □ Ularning hech qachon biror nimani o‘g‘irlaganini ko‘rmaganim uchun ishonaman.
- □ Ular barcha mashhur qo‘shiqlarni bilgani uchun ishonaman.
- □ Ular loviyani yoqtirgani uchun ishonaman.
- □ Ular menga hech qachon yolg‘on aytmaganlari va aldamaganliklari uchun ishonaman.
- □ Ular burunlarini chuqilagani uchun ishonaman.

Sen harqalay, bitta yoki ikkita bandni tanlading. To‘g‘rimi? Nima uchun?

Negaki, sen barcha mashhur qo‘shiqlarni biladigan odamga ko‘p yoki kam ishonib qolmaysan. Sen burnini chuqilagani uchun kimgadir ishonch bildirmaysan. Seni qachondir aldagan odamga-ku ishonchingni ko‘rsatmasliging *aniq*.

Agar ishonchga shunday qilib erishilmasa, bu holda qanday qilib? Bu oddiy, to‘g‘rimi? Sen o‘zing bilan halol bo‘lgan odamga ishonasan. Sen avval senga to‘g‘ri gapni aytgan odamga ishonasan. Negaki halollik ishonch uyg‘otadi. Bu Xudoning amrlarini bajarayotgan va halol bo‘lgan insonlar uchun yana bir foydani hosil qiladi. Sen halol bo‘lsang, boshqalar senga ishonishga moyil; sen g‘irrom bo‘lganingda odamlar sendan shubha qilib, ishonishmaydi.

Sulaymonning hikmatlaridan biri shunday deydi: “To‘g‘ri so‘z shohning quvonchidir, u rostgo‘ylarni yaxshi ko‘radi” (Hikmatlar 16:13). Bu nafaqat shohlarga, balki barchaga ham tegishlidir. Odamlar halollikni qadrlashadi va to‘g‘riso‘z kishilarga ishonishadi.

MULOHAZA QILGIN: Agar sening do‘stlaring o‘zlari ishonadigan odamlar haqida ro‘yxat tuzishlarini (xuddi sen yuqorida qilganingdek) so‘rashsa, bu ro‘yxatda sening isming bo‘larmidi? Nima uchun «ha» va nima uchun «yo‘q»? Ota-onang, o‘qituvchilaring, oilangning boshqa a’zolari haqida nima deysan? Sening harakatlaring boshqalarni senga ishonishga undaydimi yoki aksincha – ishonmaslikkami? Sen buni qayoqdan bilasan?

Ibodat: “Ota Xudo, do‘stlarim, ota-onam va boshqa odamlar menga ishonishlarini xohlayman. To‘g‘ri gaplarim va harakatlarim bilan ishonchga sazovor bo‘lishimga yordam ber”.

10 DEKABR. BALIQCHINING XOTINI

Kalomdan o‘qish: Hikmatlar 11:1-6

To‘g‘rilarning sofdilligi yo‘l ko‘rsatsa, xoinlarning ikkiyuzlamachiligi halok qiladi (Hikmatlar 11:3).

ARABLARNING BALIQCHI HAQIDA ESKI BIR ERTAGI BOR. Kunlardan birida baliqchi ertalab baliq ovlagani ketibdi va ajoyib yarqiroq baliqni ushlabdi. Baliqning vazni uch kilogramm ekan.

Ovchi o‘ljasini ko‘rsatish uchun uyiga shoshilibdi.

– Bu axir ajoyib emasmi? – deb so‘rabdi u. – Hech qachon bunday chiroyli baliqni ko‘rmagandim! Bugun kechki ovqatga shuni tayyorlaymiz.

Baliqchi o‘ljasini oshxonada qoldirib, yana ov qilgani ketibdi. Vaqt o‘tibdi, xotinning esa ovqatlangisi kelibdi. U ochlikka (va katta baliqqa ham) e’tibor qilmaslikka urinibdi, biroq ochlik tobora kuchayaveribdi. Ayol baliq qanday shirin bo‘lishi haqida o‘ylay boshlabdi. Nihoyat, bu xotinning sabri chidamabdi, baliqni olib tovaga tashlab qovuribdi, stolga o‘tirib oxirgi bo‘lagigacha yeb qo‘yibdi.

Baliqchi uyga qaytib kelganida, baliqdan asar qolmagandi.

– Tasavvur qil-a, – debdi xotin taajjubli ohangda mushukka ishora qilib, – bu la’nati mushuk oshxonaga kirib, baliqning hammasini yeb qo‘yibdi!

Baliqchi mushukni ushlab olganida xotini, hozir erim bu jonivorni o‘ldirib qo‘yadi, deb o‘ylabdi. Ammo baliqchi mushukni oshxona tarozisiga qo‘yibdi. Mushukning vazni ikki yarim kilogramm chiqibdi.

– Balig‘imni yeb qo‘ygan mushuk, – debdi baliqchi yolg‘onchi-xotiniga, – olib kelgan balig‘imdan ko‘ra yengil bo‘lmas edi.

Xotini yolg‘on gapirganini er tushunibdi.

Ba’zan bizning nazarimizda vaziyatdan chiqishning yaxshi yo‘li – yolg‘on gapirish bo‘lib tuyuladi, lekin aslida bu tuzoq. Bitta yolg‘on ketidan ikkinchisini albatta boshlab keladi. Bitta nopok harakat – ikkinchisiga boshlaydi. Haqiqat esa baribir qachonlardir ma’lum bo‘ladi. Odatda haqiqat hamisha – yolg‘onchini hayron qoldirib – yuzaga chiqadi. Unga uyatli bo‘ladi. U o‘zini aybdor his qiladi. Odatdagidek, “xoinlarning ikkiyuzlamachiligi halok qiladi” (Hikmatlar 11:3).

Eski arab ertagida baliqchining xotini bilan ham shunday bo‘ldi. Agar bizni poklik boshqarmasa – xuddi shu holat biz bilan ham yuz beradi.

MULOHAZA QILGIN: Sen o‘z yolg‘oning to‘riga tushib qolgan paytlar bo‘lganmi? Agar shunday bo‘lsa, qay tariqa? Avvalgi yolg‘onni yashirish uchun yangi yolg‘on to‘qishga to‘g‘ri kelgan paytlaring bo‘lganmi? Bu shunga arzirmidi? Nima to‘g‘ri: to‘g‘riso‘zlikmi yoki yolg‘onmi? Nima donolik: to‘g‘riso‘z bo‘lishmi yoki aldashmi? Seni nima yaxshiroq himoya qiladi: halollikmi yoki yolg‘onmi?

IBODAT: “Ota, yolg‘on – tuzoq ekanligini bilaman. Iltimos, meni bu xatardan xalos et va nimaiki qilmay, barchasida halol bo‘lishim uchun yordam ber”.

11 DEKABR. OLOV, SUV VA YAXSHI NOM

Kalomdan o‘qish: Efesliklar 4:17-28

Yaxshi nom – eng katta boylikdan ortiq, marhamatga sazovor bo‘lish esa kumushu oltindan ham yaxshi (Hikmatlar 22:1)

BIR VAQTLAR UCHTA DO‘ST birgalikda sayohatga jo‘nashibdi. Ularni Olov, Suv va Yaxshi Nom deya atasharkan.

– Do‘stlarim, – debdi o‘rtoqlariga Olov, – biz uzoq yo‘lga jo‘nayapmiz, bizni oldinda ko‘pgina xavf-xatar kutib turibdi. Xo‘sh, agar bir-birimizni yo‘qotib qo‘ysak, nima qilamiz?

– Dono fikr, – debdi Suv. – Biz agar yo‘qolib qolsak, bir-birimizni qanday topishni kelishib olishimiz kerak.

Do‘stlar bir muddat jim qolishibdi. So‘ngra Olov shunday debdi:

– Mabodo meni yo‘qotib qo‘ysanglar, osmonga qaranglar. Qayerda tutun ko‘rsalaringiz, men o‘sha yerda bo‘laman.

– Agar men yo‘qolib qolsam, – debdi Suv, yerga qaranglar. Qayerda namlik, botqoq joy bo‘lsa, men o‘sha yerda bo‘laman.

Olov va Suv Yaxshi Nomning javobini kutishibdi. Lekin uning qiyofasi g‘amgin ekan.

– Agar meni yo‘qotib qo‘ysangizlar, – debdi Yaxshi Nom, – izlamasangiz ham bo‘ladi. Odatda meni yo‘qotib qo‘yishsa, topib olishlarining iloji yo‘q!

Bu esa to‘g‘ri. Yaxshi nom – juda qimmatli narsa; sen uni yo‘qotganingda, tag‘in topib olishing juda qiyin (odatda buning iloji yo‘q). Ko‘plab odamlar uni o‘zlarining nopok harakatlari bois yo‘qotib qo‘yishgan. Ko‘plab hayotlar nopok so‘zlar yoki harakatlar tufayli barbod bo‘lgan.

Mana nima uchun halollik – sening foydangga ishlaydi. Halollik – yaxshi siyosat hamdir, ya’nikim, Xudo seni himoya qilishga urinadi va senga yaxshilik bo‘lishi uchun g‘amxo‘rlik qiladi. Halollik yaxshi nomni asraydi; nopoklik uni xarob qiladi.

“Yaxshi nom – eng katta boylikdan ortiq, – deb yozadi shoh Sulaymon, – marhamatga sazovor bo‘lish esa kumushu oltindan ham yaxshi” (Hikmatlar 22:1). Boshqacha aytganda, yolg‘on gapirib va aldab yaxshi nomingni yo‘qotib qo‘ymagin – sen undan butunlay ajralib qolishing mumkin!

MULOHAZA QILGIN: Yaxshi nom – bu odamlarning sen haqingdagi yaxshi fikrlari. Misol uchun, ular seni halol – balki g‘irrom – deb hisoblashlari mumkin. Sen qaysi birini afzal ko‘rasan? Nima deb o‘ylaysan, hozir senda yaxshi nom bormi? Sen uni qanday qilib yaratishing (yoki asrashing) mumkin? Halollik yaxshi nomingni saqlashga qanday yordam beradi?

IBODAT: “Bizning Samoviy Otamiz, halol inson hurmatini qozonishim uchun yordam ber”.

12 DEKABR. GAZETANING SARLAVHASI

Kalomdan o‘qish: Levilar 26:3-12

Agar qonunlarimga amal qilib, amrlarimni bitta qoldirmay bajarsangiz... Men yurtingizga tinchlik ato etaman, yotganingizda hech kim sizni vahimaga solmaydi (Levilar 26:3, 6).

TASAVVUR QIL, sen ertalab gazeta sotib olib, unda shuni o‘qiyapsan:

- “Jinoyatchilik darajasi tezlik bilan pasaymoqda”.
- “Giyohvand odam axlat qutisidan topib olgan ming dollarni qaytarmoqda”.
- “Dunyoning yirik banki kechasi o‘z seyflarini ochiq qoldirmoqda”
- “Do‘kon egalari narxni pasaytirishgach, do‘kondagi o‘g‘irliklar barham topdi”
- “Yoqilg‘i quyish shoxobchalari haydovchining chin so‘ziga tayanishmoqda”
- “Qulf ishlab chiqarish korxonalari va xavfsizlik tizimi xonavayron bo‘ldi”.
- “Sug‘urta kompaniyalari surishtiruvni bekor qilib, barcha xohlovchilarga sug‘urta puli berishmoqda”
- “Aeroportlarda detektorlardan foydalanish bekor qilindi, endi ularga zarurat yo‘q”.

Bu g‘alati bo‘lardi, to‘g‘rimi? Biroq *mabodo* bu olamda barcha to‘g‘riso‘z bo‘lib qolsa, bu shunday bo‘lishi mumkin. O‘shanda aeroportlarda nazorat tizimidan o‘tishga hojat qolmasdi. O‘shanda do‘konlarda kiyimlarning o‘g‘irlanishiga to‘sqinlik qiladigan ohanraboli birkalar bo‘lmasdi. O‘shanda kvartiralarni, mashinalarni, buyumlarni saqlash kameralarini qulflashga ehtiyoj qolmasdi.

Bu ajoyib bo‘lardi, to‘g‘rimi? Endi bilayapsanmi, Xudoning amrlari qanchalik dono. Agar biz Xudoga itoat etganimizda, dunyo butunlay boshqacha va ancha yaxshi joyga aylangan bo‘lardi. Muqaddas Kitobda shunday deyilgan: “To‘g‘ri yurgan xavf-xatarni bilmaydi, yo‘ldan og‘gan esa jazo topadi” (Hikmatlar 10:9).

Albatta, dunyo bir kechada poklanib qolmaydi. U hattoki asta-sekin poklanib borishga ham qodir emas. Lekin sen bilan biz ham shundaymiz. Biz Xudoga itoat etishimiz va Uning aldamaslik, yolg‘on gapirmaslik va o‘g‘irlamaslik haqidagi amrlariga amal qilishimiz kerak. Bu olamni o‘zgartirmaydi, lekin seni (va atrofimizdagi odamlarni ham) o‘zgartiradi. Bu ham juda ajoyib!

MULOHAZA QILGIN: Agar barcha odamlar o‘zlarini halol tutganlarida, dunyo qanday bo‘lishini tasavvur etish qiziq. Biroq mana shu haqda bir o‘ylab ko‘r: agar sen har kuni o‘zingni halol insondek tutsang, *sening* olaming (oilang, do‘stlaring bilan munosabatlaring, maktabing va h.k.z.) qanday bo‘lgan bo‘lardi? Mabodo sen to‘g‘riso‘z bo‘lsang, oilang va do‘stlaring ham to‘g‘riso‘z bo‘lisharmidi?

HARAKAT QIL: Xudoning amrlarini bajarish hamda rostgo‘y bo‘lish foydali hamda donolik ekanligini senga har kuni eslatib turishi uchun stol ustiga gazeta qo‘ygin.

IBODAT: “Rabbim, Sen kimki pokiza bo‘lsa, bexatar yurishini aytasan, Iltimos, men har kuni poklikda xavfsiz bo‘lishim uchun yordam ber”.

13 DEKABR. AHMOQONA SAVOL

Kalomdan o‘qish: Yuhanno 14:1-6

Iso unga (To‘maga) aytdi: – Men yo‘l, haqiqat va hayotdirman. Otaning oldiga olib boradigan Mendan boshqa yo‘l yo‘q (Yuhanno 14:6).

SEN DARSDA O‘TIRIB, o‘qituvchini tinglayapsan. Tinglayapsan – ammo hech nimani tushunmayapsan. O‘qituvchi go‘yoki chet tilida gapirayotganga o‘xshaydi. Sen qo‘lingni ko‘tarib, so‘ramoqchi bo‘lasan: “Siz shu gapni qaytarib aytolmaysizmi? Men hech nimani tushunmadim”.

Lekin sen albatta bunday qilmaysan. Sen hech qachon bunday qilmaysan. Sen yaxshisi o‘zingga yog‘ni surtib, hayvonot bog‘idagi ayiqning oldiga kirishni afzal ko‘rasan. Zero maktabda hech kim ahmoqona savollar bermaydi, to‘g‘rimi?

Ammo bu qanchalik ahmoqona savol bo‘lmasin, u baribir olamdagi eng bema’ni savol bo‘lib qolmaydi. Bu o‘rinda bundan ikki ming yil avval yashagan Pilat ismli (kimdir uning bu boradagi ustunligiga shubha qilishi mumkinmi?) bir siyosatchi eng oldingi o‘rinda turibdi. U hashamatli kiyimda balandlik ustida turib so‘ramoqda: “Haqiqat nima o‘zi?”

“Bu savolning bema’niligi nimada ekan?” – deb so‘raysan sen. Mana gap nimada: javob uning shundoq ko‘z o‘ngida turgandi! Bu xuddi mashg‘ulotlarning birinchi kunida o‘z ismini doskaga yozgan o‘qituvchiga shunday savol berganga o‘xshaydi: “Sizning ismingiz nima?”

Ko‘rayapsanmi, Iso Masih Pilat oldida turib, O‘zi haqida aytgan: “Men yo‘l, haqiqat va hayotdirman” (Yuhanno 14:6). Pilat, “Haqiqat nima o‘zi?” – deb so‘raganida, Iso shunday javob berishi mumkin edi: “Haqiqat sening qarshingda”.

Ko‘rayapsanmi, biz haqiqatni odatda qandaydir o‘ziga xos tushuncha va g‘oya sifatida tasavvur qilamiz. Biz bu qoida yoki sifat deya o‘ylaymiz. Biroq haqiqat – shunchaki g‘oya emas. Bu Shaxs bo‘lib, uning ismi bor: Iso Masih.

Haqiqatni tushunish va uni o‘z hayotida qo‘llashning yagona uslubi – Iso Masih bilan haqiqiy, jonli munosabatlarni o‘rnatishdir, negaki Uning O‘zi haqiqatdir! U nafaqat haqiqatni aytadi. U nafaqat haqiqatni biladi! U – haqiqatning O‘zidir!

Bu demak, agar sen Iso Masih orqali qutqarilishga ishonsang, nafaqat haqiqat bilan tanishasan, balki Haqiqatning o‘zi sening botiningda yashaydi! Demak, to‘g‘ri qaror qilish hamisha ham bir qator qoidalarga amal qilish lozimligini anglatmaydi. Bu munosabat – Haqiqatning o‘zi bilan munosabatdir. Sen Unga qanchalik yaqin bo‘lsang, U shunchalik – O‘zining Muqaddas Ruhi orqali – senga haqiqatni anglashingga, haqiqatni bilib, shu asosda yashashingga yordam beradi.

MULOHAZA QILGIN: Sen Masih orqali qutqarilishga ishonasanmi? Sen shu so‘zlarni aytgan Zotga ishonasanmi: “Men yo‘l, haqiqat va hayotdirman”? Agar ishonmasang, nima uchun? Agar ishonsang, senda Haqiqat yashamoqda. Iso amrlarni bajarishing uchun senga yordam berishini qayoqdan bilasan?

IBODAT: “Rabbim Iso, Sen “yo‘l, haqiqat va hayotdir”san. Meni gunohdan qutqarib, botinimda yashayotganing uchun Sendan minnatdorman. Qoidalarga emas, Sen bilan munosabatlarga ko‘ra to‘g‘ri qaror qilishim uchun yordam ber”.

14 DEKABR. HALOL O‘YIN

Kalomdan o‘qish: Zabur 66:2-6

Elatlar orasida aytingki: “Egamiz Shohdir!
Olam mustahkam o‘rnashgan, hech qachon tebranmaydi,
U xalqlarni haqqoniy hukm qilar (Zabur 95:10).

SEN MAHSULOTLAR SOTIB OLADIGAN Universamning kirish joyida yangi o‘yin avtomati qo‘yishibdi. O‘yin, “Jangchining g‘azabi” deb nomlanadi. Sen cho‘ntagingdan mayda pul izlab, avtomatga ikkita tanga tashlaysan. Yovuzona ovoz yangraydi: “Salom! Sen o‘limga tayyormisan?”

– Boshladik! – deysan sen o‘ng tarafdagi qizil va ko‘k tugmachalarni bosib.

Ekranda oltita raqibing paydo bo‘ladi. Ularning hammasi bir vaqtning o‘zida senga tashlanishadi. Ajdarho olov purkaydi, uning qo‘llari o‘rnida esa – olovli shamshirlar. Nemezida o‘z dushmanlarini qiyratib, kattakon qilichini silkitadi. Malvant uzun dumini qudratli qurol kabi ishlatadi, uning qo‘llarida esa granatomyot bor. Qolgan uchtasi esa yanada dahshatliroq.

Sen peshonangdagi terni artib, qizil tugmachani bosasan. Ekranda yozuv paydo bo‘ladi: “Qurolni tanlagin”. Sen ekranga qarab, ko‘zlaringga ishonmaysan. Senga qo‘lga taqiladigan kalta pichoqlar to‘plamini yoki o‘nta rezina tayoqlarni taklif qilishmoqda. Hatto ikkalasini bir vaqtning o‘zida olish mumkin emas!

– Bu g‘irromlik! – deysan sen avtomatni tepib. – Bu mumkin emas!

Sen faqat pichoqlar bilan qurollangan holda o‘yinni davom ettirmoqchi bo‘lasan, ammo tez orada halok bo‘lasan.

– Menga pullarimni qaytaring! – deya hiqillaysan. – Bu g‘irrom o‘yin!

Bu axir nohaqlik bo‘lardi, to‘g‘rimi? Bu mutlaqo noto‘g‘ri bo‘lgan bo‘lardi? Ha! Axir halollik – bu to‘g‘ri, g‘irromlik esa – noto‘g‘ri, shundaymi? Shunday! Mana nima uchun senda yutish uchun umuman imkon bo‘lmagan

o‘yinga pul sarf qilib, ko‘ngling bunchalik buzilgan bo‘lardi. Biroq sen *nima uchun* halollik yaxshi, g‘irromlik esa yomon ekanligini bilasanmi?

To‘g‘ri. Negaki bizni yaratgan Xudo – to‘g‘riso‘z. U adolatli. U – Xudo, “Xalqlarni haqqoniy hukm qilar” (Zabur 95:10). Muqaddas Kitobda shunday deyilgan:: “Hamma yo‘llari adolatlidir” (Qonunlar 32:4).

Ko‘rayapsanmi, halollik yaxshi, negaki Xudo to‘g‘riso‘zdir. G‘irrom bo‘lish noto‘g‘ri, negaki Bu Xudoga xos emas. Biz boshqalar bilan to‘g‘riso‘z bo‘lganimizda, to‘g‘ri ish qilamiz, negaki Xudo hamisha to‘g‘riso‘zdir.

MULOHAZA QILGIN: Sen qachondir shunday deganmisan: “Bu g‘irromlik!”? Agar shunday bo‘lsa, oxirgi marotaba qachon aytding? Sen to‘g‘riso‘zlik yaxshi, yolg‘on esa yomon ekanligini bilasanmi? Sen shu haftada kimdir bilan g‘irromlarcha munosabatda bo‘ldingmi? Agar shunday bo‘lsa, sen bu holat bilan nima qilishing kerak? Agar g‘irromlikka yo‘l qo‘ymagan bo‘lsang, kelajakda to‘g‘riso‘z bo‘lib yashashni davom ettirishga munosabating qanday?

IBODAT: “Xudoyim, Sen barcha xalqlarni adolatli hukm qilishingni bilaman. Sen nimaiki qilmagin, barchasi to‘g‘ri va odil ekanligini bilaman. O‘zing kabi barcha bilan to‘g‘riso‘z bo‘lishimga yordam ber”.

15 DEKABR. MUSHUKNING MO‘YLOVI
Kalomdan o‘qish: Mark 14:32-38
Ko‘z-quloq bo‘lib turinglar, vasvasaga tushib qolmaylik, deb ibodat qilinglar (Mark 14:38).

- SEN TUYAQUSHNING KO‘ZI miyasidan katta ekanligini bilasanmi?
- Sen sigirning oshqozoni ikkita ekanligini bilasanmi?
- Sen qushlarning suyagi kovak ekanligini bilasanmi?
- Sen asalarilar o‘z g‘izillashini eshitmasliklarini bilasanmi? (Ularning qulog‘i yo‘q.)

Jonivorlarni kuzatish juda qiziq, to‘g‘rimi? Mana yana bir qiziqarli ma’lumot: sen mushuk mo‘ylovining uzunligi tanasining eng enli qismi bilan teng ekanligini bilasanmi? Shu bois mushuk mo‘ylovini tekkizib, torgina tirqishdan o‘tib ketishi mumkinligi biladi. Mabodo uning mo‘ylovlari devorga tegsa, bu yerdan o‘tib bo‘lmasligini tushunadi.

Sen bilan biz noxushliklarga tushib qolmasligimiz uchun shunga o‘xshash qurilmaga ega bo‘lsak foydali bo‘larmidi? Axir biror yoqqa borishdan avval, bu qarorimiz to‘g‘ri ekanligini bilish foydali bo‘lmasmidi?

Garchi bizda mushuklardagi kabi mo‘ylov bo‘lmasada (harholda ayrimlarning yuzida qandaydir mo‘ylar o‘sadi, to‘g‘rimi?), bu bizning mutlaqo himoyasiz ekanligimizni ko‘rsatmaydi. Bizda mushuk mo‘ylovidan ko‘ra yaxshiroq nimadir bor. Bu – *ibodat*dir.

Ko‘rayapsanmi, Iso hukmni va hochga mixlashlarini kutganida, bir qancha shogirdlarini O‘zi bilan birga olib, Getsemaniya bog‘iga ibodat qilish uchun bordi. U nimalar yuz berishini bilardi, shogirdlari esa bundan bexabarga o‘xshashardi. U shogirdlarini ogohlantirmoqchi bo‘ldi. U shunday dedi: “Ko‘z-quloq bo‘lib turinglar, vasvasaga tushib qolmaylik deb ibodat qilinglar” (Mark 14:38). Biroq afsuski, shogirdlari Unga quloq solishmadi. Ular ibodat qilish o‘rniga o‘zlarini bo‘sh qo‘yib uyquga ketdilar. Mabodo ular ibodat qilganlarida, keyingi bir necha kun mobaynida o‘zlari to‘qnash keladigan vasvasalarga qarshi yaxshiroq tayyorlangan bo‘lishardi. Kim biladi deysiz? Balki, Yoqub qochib ketmagan bo‘lardi. Ehtimol, Butrus Isodan yuz o‘girmasdi. Lekin biz bu haqda bilmaymiz, albatta, negaki ular ibodat qilishmadi va vasvasaga berilishdi.

Sizda mo‘ylov borligi muhim emas, ammo ibodat qilish – muhim. Mabodo, “Bizni vasvasaga duchor qilmagin” (Luqo 11:4), deb ibodat qilsak, Xudo bizni noto‘g‘ri yo‘l tutish vasvasasini uyg‘otadigan bir qancha vaziyatlardan ogohlantiradi va bizni yengib o‘tishimiz mumkin bo‘lgan vasvalardan olib o‘tadi. Ammo biz “ko‘z-quloq bo‘lib, ibodat qilish” muhim ekanligini unutmasligimiz lozim. Aks holda vasvasa bizdan kuchliroq bo‘lib chiqadi.

MULOHAZA QILGIN: Nima deb o‘ylaysan, agar Isoning shogirdlari Getsimaniya bog‘ida ibodat qilib, uxlab qolmaganlarida hammasi boshqacha bo‘lishi mumkinmidi? Agar yo‘q deb javob bersang, nima uchun? Agar ha deb javob bersang, qay tarzda? Xudo vasvasaga qarshi turishingda yordam berishi uchun har kuni ibodat qilasanmi? Xudodan seni vasvasadan qutqarishini qachon so‘rash sen uchun afzalroq: vasvasa paytida, undan keyinmi yoki avvalroqmi?

IBODAT: “Rabbim, vasvasaga qarshi turish kuchiga ega bo‘lishim uchun har kuni ibodat qilishimga va vasvasa meni g‘aflatda qoldirmasligi uchun to‘g‘ri yo‘l tutishimga yordam ber”.

16 DEKABR. NOTO‘G‘RI QADAMLAR
Kalomdan o‘qish: Zabur 102:1-8
Egamiz rahmdil, inoyatlidir,
Jahli tez chiqmaydi, sodiq sevgisi mo‘ldir (Zabur 102:8).

MUQADDAS KITOBDA odamlar qanday qilib noto‘g‘ri qaror qilganlari haqida ko‘pgina voqealar keltirilgan:

- Sora Xudoning va’dasini eshitib, kulib yubordi.

- Yoqub o‘z akasini aldadi.
- Shimsho‘n o‘z qudratining sirini birinchi uchragan yoqimtoy ayolga berib yuborishga tayyor edi.
- Dovud boshqa erkakning xotinini tortib oldi – hattoki o‘sha erkakni o‘limga yubordi!
- Yunus Xudoning Kalomini o‘zi yomon ko‘radigan xalqqa yetkazish o‘rniga, qochishga urindi.
- Butrus barchaning oldida Rabbiydan yuz o‘girdi.
- Mark Pavlus boshchiligidagi xizmatchilar jamoasini tark etib, uyiga qaytdi.

Bu bor-yo‘g‘i bir qancha misollar, xolos! Ayrimlar bundan battarini ham qilishgan!

Xo‘sh, Xudo barcha bu odamlarning harakatlariga qanday javob qaytardi? Aslida Xudo ularni Muqaddas Kitob sahifalaridan uloqtirib tashlab, shunday deyishi kerak edi: “Yo‘qollaring, men undan ko‘ra Xano‘xga butun boshli bobni bag‘ishlaganim afzal!” U hech nima demasdan, ularni to‘g‘ridan-to‘g‘ri zindonga jo‘natishi mumkin edi. Agar U xohlaganida, ularni kulga aylantirib yuborardi.

Biroq Xudo aslo bunday qilmadi. Aksincha, U Soraga bergan va’dasini bajardi. Sora o‘g‘lini “kulgi” ma’nosini anglatadigan Ishoq ismi bilan atadi. Xudo Yoqubning o‘g‘illaridan Isroil deb nomlanish sharafiga ega bo‘lgan butun bir xalqni yaratdi. Xudo Dovudni kechirdi. Xudo Butrusni kechirdi. Xudo Markka va Yunusga ikkinchi imkoniyatni berdi.

Xudo shunday yo‘l tutdi, negaki U rahmdil. Dovud shunday yozgandi: “Egamiz rahmdil, inoyatlidir, jahli tez chiqmaydi, sodiq sevgisi mo‘ldir” (Zabur 102:8). Xudo inoyatlidir, U Muqaddas Kitobdagi xato qilgan barcha qahramonlariga nisbatan inoyatlidir. Va U bugungi kunda ham adashayotganlarga inoyat ko‘rsatmoqda.

Mana nima uchun rahmdil bo‘lish – yaxshi. Ko‘rayapsanmi, sen uchun (boshqa har qanday kishi uchun ham) atrofidagilarga rahmdil bo‘lish yaxshi, negaki Xudo rahmdil va inoyatlidir. Uning tabiati va fe’l-atvori – shafqatlidir, negaki rahm-shafqat yaxshi; Xudoga nimaiki monand bo‘lsa, – yaxshi, Xudo hech qanday noto‘g‘ri ish qilmaydi.

MULOHAZA QILGIN: Muqaddas Kitobdan bugun o‘qiladigan oyatlarda Xudoning tabiati va fe’l-atvori haqida nimalar deyilgan? Zabur kitobining 102-bobini kim yozgan? Nima deb o‘ylaysan, Dovud Xudoning rahmdil ekanini qayoqdan bildi? Sen buni qayerdan bilasan? Mehribonlik yaxshi ekanligini qayoqdan bilasan? Sen atrofingdagilarga nisbatan yanada mehr-shafqatli bo‘lishing mumkinmi? Agar shunday bo‘lsa, qanday qilib?

IBODAT: “Rabbim Ota, Sen mehribon va sabr-bardoshlisan, Sen sevgiga to‘liqsan. Sen menga nisbatan ko‘p narsalarda mehribon bo‘lding, ayniqsa _____ (ayniqsa, Xudo senga nisbatan mehribon bo‘lgan vaziyatlarni yodingga ol). Rahmdil bo‘lish yaxshi ekanligini nafaqat yodda tutishim, balki atrofdagilarga rahm-shafqatli bo‘lishim uchun ham yordam ber”.

17 DEKABR. ZARARLI ODATLAR HAQIDA
Kalomdan o‘qish: Ibtido 25:29-34
Xudoning sevimli farzandlari ekansiz, endi Xudodan o‘rnak olinglar (Efesliklar 5:1).

SENDA ZARARLI ODATLAR BORMI? Quyida keltirilgan ro‘yxatni o‘qigin. Ehtimol, sen –

- □ qo‘llaringdagi tirnoqlarni tishlarsan?
- □ oyoqlaringdagi tirnoqlarni tishlarsan?
- □ mixlarni tishlarsan?
- □ boshqalar gapirayotganida so‘zini bo‘lib qo‘yarsan?
- □ boshqalarning sochidan tortarsan?
- □ tishlaringni g‘ijirlatarsan?
- □ odamlarni haqorat qilarsan?
- □ “rahmat” va “marhamat” so‘zlarini aytishni unutarsan?
- □ o‘zingni boshqara olmassan?
- □ hammasini keyinga surasanmi?
- □ ko‘p ovqatlanasanmi?
- □ kam ovqatlanasanmi?
- □ televizorni ko‘p ko‘rasanmi?
- □ burningni chuqilaysanmi?
- □ boshqalarning burnini chuqilaysanmi?
- □ sigareta chekasanmi?
- □ trubka chekasanmi?
- □ tashlandiq tamaki chekasanmi?
- □ g‘iybat qilasanmi?
- □ yana nimalardir qilasanmi? _____

Ehtimol, sen bu ro‘yxatda hech nimani qayd etmagandirsan. Balki, barcha bandlarni qayd etgandirsan! Har qanday holatda ham, hech bo‘lmasa bitta ahmoqona – yoqimsiz, noxush, bema’ni – odatning senda borligi aniq. Zararli odatlari umuman bo‘lmagan odamning o‘zi yo‘q. Ba’zan bunday odatlar gunohkorona bo‘ladi. Goho

shunchaki yoqimsiz. Ba’zan esa – Esov anglaganidek (Muqaddas Kitobdan bugun o‘qiladigan oyatlarda) – ular chindan ham zararli bo‘lib, o‘ta qimmatga tushishi mumkin.

Sening zararli odatlaring qanday bo‘lmasin, sen ularga yopishib olishing kerak emas. Balki bu oson bo‘lmasligi mumkin, ammo ulardan qutulish lozim. Mana nima uchun Xudo biz o‘zimizni boshqarish ustida izlanishimizni istaydi. Uning Kalomi bizga “doim hushyorlik bilan ibodat” (1 Butrus 4:7) qilishni buyuradi.

Xudo bizning Unga o‘xshashimizni istaydi. U hamisha O‘zini va O‘zi yaratgan borliqni boshqaradi. Zararli odatlaring qanchalik chuqur ildiz otgan bo‘lmasin, Xudo ularni yengib o‘tishni istaydi va bunga qodir. U O‘z Ruhi orqali o‘zini boshqarishni o‘rganishingda senga yordam beradi.

MULOHAZA QILGIN: Sen ro‘yxatimizdagi biror zararli odatni qayd etdingmi? O‘zing voz kechmoqchi bo‘lgan uchta zararli odatni qayd etib chiq _____. Ulardan birini tanlab, Xudodan bu muammolarni hal etish uchun o‘zingni boshqarishda mahorat va yordam so‘ragin.

IBODAT: “Ota, men zaif ekanligimni Sen bilasan. Biroq Sen kuchlisan. Iltimos, O‘z Qudrating ila mening zararli odatimni _____ yengib o‘tishimga yordam ber”.

18 DEKABR. BESHOVLONNI QUTQARISH

Kalomdan o‘qish: Matto 7:24-27

Kim Mening bu so‘zlarimni eshitib, ularga amal qilsa, uyini tosh ustiga qurgan dono odamga o‘xshaydi (Matto 7:24).

AYRIM ODAMLAR Xudoning amrlarini tushunmaganliklari uchun ham ularni bajarishmaydi.

“Men uchun buning hech qanday ma’nosi yo‘q”, – deb aytishlari mumkin.

“Bu amrlar menga noma’lumligi uchun bajarmay qolsam, Xudo meni ayblashi mumkin emas, shunday emasmi? – deb so‘rashlari mumkin.

“Men Muqaddas Kitobning faqat o‘zim ma’qullaydigan amrlarga amal qilaman” – degan qarorga kelishlari mumkin.

Ammo bunday fikrlar xavfli ekanligini quyida bayon etiladigan hayotiy bir voqea ham ko‘rsatib turadi.

Kunlardan birida britaniyalik beshta dengizchi kichik kemada o‘z ortidan katta kemani temir sim bilan tarang tortib, suzib borishardi. Dengiz notinch edi.

To‘satdan paluba ustida turgan dengizchilar kapitanning shamol va to‘lqinlar guvillashini bosib ketgudek qichqirig‘ini eshitishibdi:

– Yotinglar!

Ular shu zahoti palubaga yotib olishibdi va bir necha soniyadan keyin ularning boshi uzra havoda temir simning uzilgandagi hushtaksimon tovushi yangrabdi. Kapitan temir sim uzilganini ko‘rib, beshta dengizchining hayotini qutqaradigan buyruq beribdi. Kim agar shu tobda uzilgan temir simning yo‘lida uchrab qolsa, bir lahzadayoq o‘lishi aniq edi.

Beshta dengizchi buyruqqa so‘zsiz bo‘ysunganlari uchun tirik qolishibdi. Agar ular kapitan nega bunday buyruqni berganligi haqida o‘ylab o‘tirishganida, halok bo‘lishlari turgan gap edi. Agar ular kapitanning donoligiga shubha qilishganida, o‘lib ketishlari turgan gap edi. Agar ular, buyruqqa bo‘ysunish o‘zlari uchun ma’noga egami, yo‘qmi deb o‘ylab o‘tirganlarida edi, halok bo‘lishardi. Faqat bir lahzaning o‘zidayoq buyruqqa bo‘ysunish ularni qutqarib qoldi.

Iso shunday degan: “Kimki Mening so‘zlarimni eshitib, ularga amal qilsa, uyini tosh ustiga qurgan dono odamga o‘xshaydi” (Matto 7:24). Biz Xudoning barcha amrlarini tushunmasligimiz mumkin. Biz bu amrlar bizni aynan qanday himoya qilayotganini bilmasligimiz mumkin. Ammo biz bu amrlarni tinglab, ularga bo‘ysunganimizda, donolarcha ish tutgan bo‘lamiz.

MULOHAZA QILGIN: Muqaddas Kitobdagi bugungi oyatda Iso tasvirlagan uy – ummon yoki ko‘l sohilida emas – balki qumli o‘zanlardan (daryoning qurib qolgan o‘zani “vadi” deb ataladi) birida qurilgan bo‘lib, Iso shunday joyda yashagan. Bunday joyda qurilgan uy qurg‘oqchilik davrida xavfsiz bo‘ladi, lekin yomg‘ir mavsumida quturgan daryoga aylanadigan bu quruq o‘zanda qurilgan uy yuvilib ketadi. Sen Isoning sabog‘ini eshitayotgan kishiga o‘xshaysanmi yoki bu saboqlarga e’tibor bermayotgan odamgami, yoki tinglab, amal qilayotgan insongami? Iso (Muqaddas Kitobdan bugun o‘qiladigan oyatlarga ko‘ra) hech qanday hayotiy bo‘ronlar buzolmaydigan mustahkam va baquvvat asoslarda hayot qurishing haqida nimalar deydi?

IBODAT: “Xudoyim, men Sening saboqlaringni tinglab, amal qiladigan inson bo‘lmoqchiman. Sening Kalomingni o‘qigan va har kuni ibodat qilgan holda kuchli bo‘lishimga yordam ber”.

19 DEKABR. SABR-TOQAT SINOVI

Kalomdan o‘qish: 1 Timo‘tiy 1:15-17

Ammo Iso Masih menga rahm qildi. Menga o‘xshagan o‘taketgan gunohkorlarga nisbatan U Nihoyatda sabrli ekanini ko‘rsatdi, toki boshqalar ham mendan ibrat olib, Unga ishonsinlar, abadiy hayotga ega bo‘lsinlar (1 Timo‘tiy 1:16).

KOSTYA MUSIQA DO‘KONIDAN CHIQQANIDA, hayajondan o‘zini zo‘rg‘a bosib turardi. Nihoyat u allaqachondan buyon orzu qilgan kompakt-diskni sotib oldi!

U ko‘chada o‘rindiqqa o‘tirib, diskning muqovasini yechishga tushdi.

– Qani bo‘laqol! – deb g‘o‘ldiradi u. – Bo‘laqol!

U diskning ustki qismidagi plyonkani ochish uchun bor bilan harakat qilardi.

– Xayriyat! – Kostya yengil tin olib diskni tortdi. Plyonkaning kichkinagina yupqa qismi yulinib chiqdi. Muqova deyarli o‘z holicha qolaverdi.

Kostya tishlarini g‘ijirlatib diskni aylantirdi. U plyonkani tirnoqlari bilan bosib, yirtib tashlash maqsadida tirnalay boshladi. Lekin muqova o‘ta mustahkam bo‘lib chiqdi.

– Bo‘laqol endi! – deb qichqirdi u. U kompaktni tishlari bilan qisib, plyonkani g‘ajib tashlashga urindi. Bu naf bermadi. Shunda u cho‘ntagidan tanga chiqarib, plyonkani u bilan qirishga tushdi. Oxir-oqibat u kompaktni yerga otib, uni oyoqlari bilan ezg‘ilashga tushdi.

Korobka sinib, kompakt tirnalib qoldi va nihoyat plyonka chiqib keldi.

– Men BUNI UDDALADIM! – Kostya shu atrofdan o‘tayotganlarga qichqira boshladi. U xuddi telbadek kulardi. – Men BUNI UDDALADIM! Men UNI OCHDIM! Men G‘OLIB CHIQDIM! Men G‘OLIBMAN! XA-XA-XA!

Ehtimol, sen bilan bu kabi voqea yuz bermagandir. Balki sen kompaktdan plyonkani yechayotganingda umuman asabiylashmassan. Biroq nimadir seni to‘g‘ri holatdan chiqaradi, to‘g‘rimi? Balki, navbat kutayotganingda shunday bo‘lar. Yoki senga yarashmagan kiyim jahlingni chiqarar. Ehtimol, shovqin soladigan do‘stlaring yoki asossiz tergayveradigan ota-onang bunga sababchi bo‘lar.

Sening sabr-bardoshing qanday sinovdan o‘tmasin, yodingda tut, sabr-bardosh – yaxshi fazilat. Ya’ni, bu yaxshi. Agar sen sabrli bo‘lishga qaror qilgan bo‘lsang, bu holda to‘g‘ri qarorga kelibsan.

Ammo sabrli bo‘lishning *nimasi* yaxshi? Har holda, sen javobni bilsang kerak, to‘g‘rimi? (Ehtiyot bo‘l – sabr-bardosh haqida unutib qo‘yma!)

Sabr-toqat yaxshi, negaki Xudo sabrlidir. Havoriy Pavlus yozganki, Iso Masih “nihoyatda sabrli ekanini ko‘rsatdi” (1 Timo‘tiy 1:16). U sen bilan ham sabr-toqatli. U hech qachon seni tashlab ketmaydi. U hech qachon seni sevish va senga yordam berishini to‘xtatib qo‘ymaydi. Xullas, Xudo sabr-toqatli ekan, sen ham sabrli bo‘lishing kerak, negaki sabr – yaxshi fazilatdir.

MULOHAZA QILGIN: Nima deb o‘ylaysan, Xudo sen bilan sabrlimi? Agar shunday bo‘lmasa, nima uchun? Agar shunday bo‘lsa, qanday qilib? Nima (yoki kim) seni ko‘proq yaxshi holatingdan chiqaradi? Sen qanday qilib yanada sabrli bo‘lishing mumkin?

IBODAT: “Rabbim, men hattoki _____ bo‘lganimda ham Sen menga nisbatan sabrli bo‘lganing uchun Sendan minnatdorman. Bu jabhada Senga ko‘proq o‘xshashim uchun yordam ber. Yanada sabrli bo‘lishimga yordam ber, ayniqsa _____”.

20 DEKABR. BARCHA SIRLAR OSHKOR BO‘LADI

Kalomdan o‘qish: Ibtido 4:1-12

O‘z gunohlarini yashirgan yutuqqa erishmaydi, ularni tan olib, voz kechgan marhamat topadi (Hikmatlar 28:13).

KOLYA KICHKINTOY SONYAGA QARAB TURISHI KERAK EDI, ammo teleko‘rsatuvga shu qadar qiziqib ketdiki, singlisi haqida butunlay unutib qo‘ydi. Ko‘rsatuv tugaganida esa singlisini izlashga tushdi. Qizaloq oshxonada flomasterlar bilan devorga chizib o‘tirgan ekan!

– Yo‘q, faqat bu emas! – deya hayqirdi u Sonyaning qo‘lidan flomasterlarni yulqib olganicha. – Onam va otam bizni o‘ldirishadi!

– Men bunday qilmoqchi emasdim, – hiqilladi qizaloq. Uning lablari titrardi.

– Yig‘lama! – buyurdi Kolya. – Men hammasini to‘g‘rilayman.

U Sonyaning flomasterlarini olib, bu yerdan ketdi. So‘ngra oshxonaga bir chelakda bo‘yoq va mo‘yqalam olib keldi.

– Hozir xatoingni to‘g‘rilaymiz, – dedi u singlisiga. – Onam va otam hech nimani payqashmaydi!

U polga gazetani yozib, qunt bilan flomasterdan qolgan izlarni bo‘yashga tushdi. Biroq u har qanchayin urinmasin, devor bundan-da battar ahvolga kelardi. Baribir bo‘yoq orasidan turfa rangli chiziqlar bilinib turardi. Buning ustiga, yangi bo‘yoq ham avvalgisiga qaraganda to‘q rangli edi.

– Qurisa, yaxshi ko‘rinib qoladi, – dedi u Sonyaga, ammo yaxshi bo‘lmasligini bilib turardi. U o‘z ishiga uzoqdan qarash uchun orqaga tislandi va bo‘yoqli chelakni ag‘darib yubordi. Gazetalar jiqqa nam bo‘lib, bo‘yoq polga ham singidi. Ota-onalari uyga qaytganlarida, oshxona Sonya devorga bir qancha chiziqlar tortganiga nisbatan ancha yomon ko‘rinish olgandi!

Sen ham qachonlardir xato qilib, keyinchalik tan olish va kechirim so‘rash o‘rniga uni yashirishga uringanmisan? Agar shunday bo‘lsa, yolg‘iz emas ekansan. Odam Ato va Momo Havo Adan bog‘ida ta’qiqlangan mevani yeganlarida, shunday yo‘l tutishgandi: ular Xudodan barchasini yashirmoqchi bo‘lishdi. Qobil Hobilni o‘ldirganida shunday qildi. Xudo undan so‘radi:

“Ukang qani?”, Qobil esa shunday javob qildi: “Bilmayman... Nima, men har yerda uning ortidan yurishim kerakmi?”.

Biroq Odam Ato va Momo Havo ham, Qobil ham o‘z gunohlarini yashira olmasdilar. Bunga biz ham ojizmiz. Qachon noto‘g‘ri qaror qilganingda, uni yashirishga uringandan ko‘ra, bu haqda tan olib, kechirim so‘ragan afzal. Buni rad etishga urinma. Buni oqlashga urinma. Shunchaki tavba qilib, keyingi safar yaxshiroq yo‘l tutishga harakat qilgin.

MULOHAZA QILGIN: Agar noo‘rin ish qilsang, o‘zingni odatda qanday tutasan? Nima deb o‘ylaysan, qilmishni rad etish va yashirishga uringandan ko‘ra, barchasiga iqror bo‘lgan yaxshimi? Agar yo‘q deb aytsang, nima uchun? Agar ha deb javob bersang, nega?

IBODAT: “Rabbim, ba’zan menga noto‘g‘ri ishlarimni tan olish og‘ir bo‘lishini bilasan. Iltimos, bundan so‘ng o‘z gunohlarimni yashirishga urinmay, ularni tez “tan olib, voz kechgan” inson bo‘lishimga yordam ber”.

21 DEKABR. QARIYA JORJ

Kalomdan o‘qish: Sahroda 10:29-32

Egamiz bizga qilgan hamma yaxshiliklarni siz bilan baham ko‘ramiz (Sahroda 10:32).

JORJNING UYI YO‘Q EDI. U tez-tez uysizlar boshpanasida tunni o‘tkazardi. Unda kiyimidan boshqa hech nima yo‘q edi: ko‘ylak, shim, tagliklar tushib ketmasligi uchun rezina bog‘langan bir juft boshmoq va ungib ketgan palto. Qishda, ertalab sovuq bo‘lganida, Jorj yaqindagi politsiya mahkamasiga kirib, eski metall stulda o‘tirardi. Har holda, bu yerda issiqroq edi.

Ikkita politsiyachi Keksa Jorj bilan do‘stlashib qolishdi. Ba’zan ular unga qahva uchun ikki dollar berishardi. Ular, yaqindagi restoran egasi Billi, har kuni Keksa Jorjni bepul nonushta bilan ta’minlashini bilib qolishdi.

Politsiyachilar Keksa Jorjni uylariga Mavlud bayrami tushligiga taklif qilmoqchi bo‘ldilar. Unga hatto bir qancha sovg‘alar berishdi, qariya ularni ehtiyotlik bilan ochib qaradi. Kechqurun esa Jorjni mashinada boshpanaga olib borayotlarida, u zobitlardan avval Billining restoraniga kirib o‘tishni so‘radi.

Ular yetib kelganlarida, Jorj barcha sovg‘alarni ehtiyotlik bilan o‘rab chiqdi. U sovg‘alarni olib restoranga kirdi.

– Sen menga hamisha mehribonlik ko‘rsatding, Billi, – dedi u restoran egasiga. – Endi esa men senga mehribonlik qilmoqchiman.

U sovg‘alarni Billining stoli ustiga qo‘ydi:

– Mavlud bayraming muborak bo‘lsin!

Keksa Jorj o‘zining barcha Mavlud sovg‘alarini topshirdi.

Enn Kigenning “Chikago Tribyun” gazetasida chop etilgan ushbu hikoyasi – inson saxovati haqidagi haqiqiy tarixdir. Afsuski, biz o‘zimizni har doim ham Keksa Jorj kabi tutavermaymiz.

Keksa Jorj ikkita saxiy politsiyachidan sovg‘a olib, ularni darhol boshqalar bilan baham ko‘rdi. Biz Xudodan va boshqa odamlardan ko‘plab sovg‘alar olganmiz, ammo atrofdagilarga hamisha ham minnatdorchilik va saxovat ko‘rsatmaymiz.

Saxiylik nima o‘zi? Bu Xudo berganlarini boshqalar bilan baham ko‘rishni bildiradi. Muso o‘zining qaynag‘asi, Midiyonlik Yatro o‘g‘li Xo‘vovga Kalomdan bugun o‘qiladigan oyatlarda mana nimani taklif etadi. “Egamiz bizga qilgan hamma yaxshiliklarni siz bilan baham ko‘ramiz”, – degan u. (Sahroda 10:32). Xudo bizdan mana nimani istaydi – saxiy bo‘lish va U bizga nimaiki yaxshi narsalarni bermasin, barchasini baham ko‘rish.

MULOHAZA QILGIN: Xudo senga sovg‘a qilgan yaxshi narsalarni keltirib chiq:

Pul va boylik	**Iqtidorlar, qobiliyatlar, marhamatlar**
_____	_____
_____	_____
_____	_____

Sen bularni baham ko‘ra olasanmi? Agar yo‘q desang, nima uchun? Agar ha deb javob bersang, qanday qilib?

IBODAT: “Rabbim, menga bergan barcha yaxshi narsalaringni boshqalar bilan baham ko‘rishim haqida eslatgin, ayniqsa _____”.

22 DEKABR. YO‘LBARSDAN EHTIYOT BO‘L!

Kalomdan o‘qish: Efesliklar 5:3-7

Ehtiyot bo‘linglar, o‘zingizni har qanday ochko‘zlikdan saqlanglar. Zero, insonning umri mol-mulkining ko‘pligiga bog‘liq emas (Luqo 12:15).

QADIM ZAMONDA o‘rmonda bir qariya o‘g‘li bilan yasharkan. Qo‘shni qishloq ahli bu qariyaning nihoyatda ziqna ekanligini va uyida ko‘p pullarni yashirib qo‘yganligini aytishardi. Hattoki, bu qariya kumush tangalarni oltinga aylantira olishi haqidagi gap-so‘zlar yurardi.

Kunlardan birida qariya o‘tin chopayotganida, o‘rmondan yo‘lbars chiqib kelib, unga tashlandi. U qariyani tishlab tortib ketardi, chol esa bu hayvonning og‘zida xuddi sichqon kabi silkinardi.

O‘g‘li buni ko‘rib, qo‘liga qurol oldi. U yo‘lbarsni nishonga olib, otishga tayyor turardi.

– Shoshma! – deb qichqirdi chol. – Otma! Yaxshilab nishonga ol! Agar sen uning chiroyli terisiga shikast yetkazmay, yo‘lbarsni o‘ldira olsang, biz uni katta pulga sotishimiz mumkin! Yaxshilab nishonga ol, o‘g‘lim, biz foydasiz qolib ketmaylik, tag‘in!

O‘g‘il otasining aytganlarini eshitib nishonga olayotganida, yo‘lbars keksa ziqnani o‘zi bilan tortib o‘rmonga kirib ketibdi. O‘g‘il ortidan yuguribdi, ammo yirtqichni quvib yetolmabdi. U shundan so‘ng otasini boshqa hech qachon ko‘rmabdi.

Bu qadimgi masal ochko‘zlik qanday xavfli ekanligini ko‘rsatadi. Qariya faqat pul va foyda haqida o‘ylagandi – shu bois o‘lib ketdi. Mana nima uchun Iso shunday degan: “O‘zingizni har qanday ochko‘zlikdan saqlanglar. Zero, insonning umri mol-mulkining ko‘pligiga bog‘liq emas” (Luqo 12:15). Ochko‘zlik – bu gunoh, gunoh esa hech qachon baxt va to‘laqonli hayotni bermaydi, u faqat inson umrini xarob qiladi. Demak, ochko‘zlikdan ehtiyot bo‘lib, o‘zingda saxiylikni rivojlantir.

MULOHAZA QILGIN: Muqaddas Kitobdan bugun o‘qiladigan oyatlarga asosan tuzilgan jumlalarni to‘ldirish uchun yashirin so‘zlarning ma’nosini top.

- **Ochko‘z odam Iso Masihning shohligiga *aeg* bo‘lolmaydi.**
- **Ochko‘z odam – bu olamning narsalariga sajda qiladigan *tubaprast***
- **Bu odamlarning qilayotgan ishlarida *shitirok* etma*.**

IBODAT: “Mehribon Rabbim, mening hayotim va baxtim boylik miqdori bilan o‘lchanmasligini bilaman. Biroq bu haqda unutish va ochko‘zga aylanish oson. Ochko‘z bo‘lish qanday xavfli va yomon ekanligini, saxiy bo‘lish esa qanchalik yaxshi ekanligini menga eslatib tur”.

_____

*Javoblar: ega, butparast, ishtirok

23 DEKABR. AMRLARNI BAJARISH

Kalomdan o‘qish: Qonunlar 24:19-22

Yaxshilik qilishni va bir-birimizga yordam berishni unutmaylik, chunki bunday nazrlar Xudoga manzurdir (Ibroniylar 13:16).

XUDO AMRLARINING AYRIMLARI boshqalariga qaraganda ko‘proq mashhur. Misol uchun, hamma ham beshinchi amr haqida biladi: “Ota-onangni hurmat qil”. Va deyarli hamma Xudo “yaqiningni o‘zing kabi sevish lozimligi”ni buyurganini biladi, to‘g‘rimi? Ammo unchalik ham ma’lum bo‘lmagan amrlar ham bor. Quyidagi ro‘yxatga qarab, jumlalardagi noo‘rin so‘zlarni topib, kerakli so‘zlarga almashtirgin. (Bu o‘rinda ko‘chirma so‘z senkerakli so‘zni topishing uchun ishlatilgan.)

- Men sizlarga bu borada namuna bo‘lib, zaiflarni qanday qo‘llab-quvvatlashimiz kerakligini ko‘rsatdim. Rabbimiz Iso aytgan shu so‘zlarni eslaylik: “Xo‘mraygandan ko‘ra, tabassum qilmoq ko‘proq marhamat keltiradi” (Havoriylar 20:35).
- Muhtojlikda bo‘lgan Chukotkadagilarga yordam bering (Rimliklar 12:13).
- Demak, televizorda aytganlaridek... yaxshilik qilaveraylik (Galatiyaliklar 6:10).
- Ularga buyur, yaxshilik qilsinlar, sutli shokoladlarga boy bo‘lsinlar, saxiy, ochiq qo‘l bo‘lsinlar (1 Timo‘tiy 6:18).
- Yaxshilik qilishni va savzavotli parhezni unutmaylik, chunki bunday nazrlar Xudoga manzurdir (Ibroniylar 13:16).
- Agar qoshlarimiz qalin bo‘la turib, muhtojlikda yashayotgan birodarlarimizni ko‘rsak-u, unga yordam bermay yuragimizni tosh qilsak, qanday qilib bizda Xudoning sevgisi joy oladi?! (1 Yuhanno 3:17).

Albatta, Muqaddas Kitobdagi barcha bu oyatlar bizga saxiy bo‘lishimizni amr etganini tushunding, to‘g‘rimi? Ochig‘ini aytganda, bu fikr mashqi ham shuning uchun o‘ylab topilgan: Xudoga saxiylik manzur bo‘ladi.

Ko‘pchilik saxiylik yaxshi, ammo bu majburiyat, emas deya hisoblaydi. Lekin Xudoning Kalomida boshqacha aytilgan. Xudo O‘z Kalomida saxiylik yaxshi, ziqnalik esa noto‘g‘ri ekanligini aytgan. Mana nima uchun U bizga shunga o‘xshash amrlarga bo‘ysunishimizni tez-tez ta’kidlab turadi: “Muhtojlikda bo‘lgan Xudoning azizlariga yordam bering” (Rimliklar 12:13) yoki “Olmoqdan ko‘ra, bermoq ko‘proq marhamat keltiradi” (Havoriylar 20:35).

Oddiy qilib aytganda, agar sen saxiy bo‘lmasang Xudoga itoat etmagan bo‘lasan, negaki U bizga saxiy bo‘lishimizni amr etgan.

MULOHAZA QILGIN: Sen saxiy bo‘lish ko‘nikmasini o‘zlashtirdingmi? Sen boshqalar bilan baham ko‘rasanmi? Sen oilangning boshqa a’zolariga nisbatan saxiymisan? Sen muhtoj bo‘lganlar bilan baham ko‘rishasanmi? Sen o‘zing keyingi paytlarda saxiylik qilgan biror kishini ayta olasanmi? Keyingi bir necha kun va hafta davomida sen saxiylikni qanday namoyon etishing mumkin?

IBODAT: “Ota, iltimos, yaxshilik qilishni va borimni boshqalar bilan baham ko‘rishni unutmasligim uchun yordam ber”.

24 DEKABR. SEN AQLLI ODAMMISAN?

Kalomdan o‘qish: Matto 2:1-12

So‘ng xazinalar solingan qutichalarni ochib, Unga oltin, xushbo‘y tutatqilar va mirrani tortiq qildilar (Matto 2:11).

EHTIMOL, SEN KO‘P BORA Isoning tug‘ilishi haqidagi voqeani eshitgandirsan. Ammo sen bu voqeani chindan ham yaxshi bilasanmi? Navbatdagi savollarga javob ber, ana shunda biz sening rostdan ham – “dono odam” ekanligingni ko‘ramiz. (Har bir savolga to‘g‘ri keladigan javobni tanlagin.)

1. Isoning oldiga kelgan munajjimlar kim edi?
   a) munajjimlar
   b) shohlar
   v) masxarabozlar
2. Munajjimlar qancha edi?
   a) uchta
   b) bilmayman
   v) bilaman, ammo aytmayman
3. Munajjimlar Isoni Baytlahmda uchratganlarida, U:
   a) otxonada edi
   b) oxurda edi
   v) uyda edi
4. Munajjimlarning sovg‘alari orasida bor edi:
   a) oltin
   b) obakidandon
   v) mo‘yna

Ko‘rayapsanmi, sharqlik donolarning birinchi Mavlud munosabati bilan Iso oldiga tashriflari haqida ko‘plab bahslar yuritiladi. Aksariyat odamlar ularning shoh ekanliklarini aytishadi (ehtimol, uchta shoh haqidagi Mavlud bayrami madhiyasi bois bo‘lsa kerak); lekin har holda ular qandaydir sharq shaharidan bo‘lgan munajjimlar bo‘lishlari mumkin. Ko‘pchilik ularni uch kishi bo‘lgan, deya hisoblashadi, ammo Muqaddas Kitobning o‘zida qancha munajjimlar Isoning oldiga kelishgani aytilmagan. Garchi ko‘pgina otkritkalarda Xudo tug‘ilganida kelgan munajjimlar Isoni oxurda yotgan paytda ko‘rganlari tasvirlangan, bundan ko‘rinib turibdiki, ular Iso, Yusuf va Maryam qandaydir uyga o‘tganlarida Uning oldiga kelishgan (qara Matto 2:11). Albatta, ular sovg‘a tariqasida oltin, xushbo‘y moy (obakidandon emas) va xushbo‘y tutatqi (mo‘yna emas) keltirishdi. Demak, sen chindan ham dono inson bo‘lsang, javoblaring a), b), v) va a) bo‘lishi kerak.

Biroq munajjimlarning Iso oldiga qilgan tashriflari haqidagi voqea – shunchaki vaqtichog‘lik emas. U Mavlud bayrami – olish emas, balki sovg‘a qilish vaqti ekanligini eslatadi. Munajjimlar birinchi Mavlud bayramiga chaqaloq–Masihga saxiy sovg‘alar keltirishdi, ammo gap ularning qimmatbaho oltin, moy va xushbo‘y tutatqi keltirganlarida emas. Ular sovg‘a tariqasida o‘zlarini – hamda sajdalarini olib kelishdi.

Sen har holda, Mavlud arafasida qanday sovg‘alar olishing haqida o‘ylarsan. Lekin bundan ham muhim masala bor: *sen o‘zing nima sovg‘a qilasan*?

MULOHAZA QILGIN: Mavlud – ajoyib bayram, to‘g‘rimi? Sen ushbu yilda olgan sovg‘alaring haqida o‘ylamaslik qiyin. Ammo Mavlud bayramida boshqalarga qanday sovg‘a qilishing haqida o‘yla. Sen o‘z yaqinlaringga va Isoga ertaga (sovg‘alar bilan, vaqtingni ajratib, iltifot bilan, sajda bilan, munosabatlarda va h.k.z.) qay tariqa saxiylik ko‘rsatishing mumkin?

IBODAT: “Rabbim, Sen saxiylikni qadrlashingni bilaman. Men ushbu Mavlud bayramida nafaqat sovg‘alar *qabul qilishni*, balki *sovg‘a qilishni* ham o‘rganmoqchiman. Iltimos, ushbu Mavlud bayramida boshqalarga – va Senga – saxiylik ko‘rsatishim uchun yordam ber”.

25 DEKABR. ENG YAXSHI MAVLUD SOVG‘ASI

Kalomdan o‘qish: Luqo 2:1-7

Zero, Xudo olamni shunchalik sevdiki, O‘zining yagona O‘g‘lini berdi. Toki Unga ishonganlardan birortasi halok bo‘lmasin, balki abadiy hayotga Ega bo‘lsin (Yuhanno 3:16).

MAVLUD SOVG‘ALARIDAN sen olgan eng yaxshisi qaysi bo‘lgan?

Sovg‘alar orasida qo‘g‘irchoq yoki superqahramonning shakli bormidi? Konstruktor yoki yosh shifokor uchun to‘plammi? Kompyuter o‘yinlarimi yoki konki? U qimmatbaho edimi? Yoki qo‘lda yasalganmi? Senga sovg‘aning o‘zi muhim bo‘ldimi yoki uning ortida turgan e’tibormi?

Xo‘sh, o‘zing qilgan *sovg‘alardan* qaysi biri eng yaxshisi edi?

Sen buni o‘zing qildingmi yoki sotib olish uchun uzoq vaqt pul yig‘ganmiding? Bu o‘sha odamga to‘g‘ri keladigan sovg‘a bo‘lganmidi? Bu sovg‘a o‘zing o‘ylagan qandaydir fikr tufayli o‘ziga xoslik kasb etganmidi? U g‘aroyib bo‘lgani bois sovg‘angni olgan odam juda xursand bo‘lganmi? Yoki boshqa sababga ko‘ra quvonganmidi?

Ishonasanmi yoki yo‘qmi, lekin sen Mavlud bayramida olgan eng yaxshi sovg‘a bu – o‘yinchoq, o‘yin yoki kiyim-boshlar emas. Ko‘p asrlar muqaddam birinchi Mavlud tongida Xudo dunyodagi barcha pullardan qimmat turadigan sovg‘ani senga hadya qilgan. U agar samodagi barcha sayyora va yulduzlarni yulib olib, ostonang tagiga to‘shaganida, bu Uning uchun arzonga tushardi. U senga oltin, kumush va olmoslarni sovg‘a qilganida tejab qolgan bo‘lardi. Ammo U tejamadi. U senga hammasidan eng qimmat tuhfani – Isoni, O‘z O‘g‘lini hadya etdi.

Xudo Mavlud bayramida senga O‘z O‘g‘lini sovg‘a qilganida, shunday demoqchi bo‘lgan: birinchidan, U seni shu darajada sevadiki, bunga e’tiroz bildirolmaysan (1 Yuhanno 4:9); ikkinchidan, U Xudoning qanday saxiy ekanligini ko‘rsatgan. Seni qutqarish uchun U hech nimani ayamaydi. U senga abadiy hayot berish uchun har qanday qurbonlikka tayyor.

Xo‘sh, sen Xudoga qanday ajoyib sovg‘a qilishing mumkin? Unga o‘zingni sovg‘a qil. O‘z sevgingni. O‘z minnatdorligingni. O‘z sajdangni. O‘z sadoqatingni. O‘z hayotingni. *Bu* – sen tuhfa qilgan eng yaxshi sovg‘ang bo‘ladi.

MULOHAZA QILGIN: Sen Isoning tuhfasini qabul qilganmisan? Iso sening qalbingda yashamoqdami? Agar yo‘q bo‘lsa, nega sevuvchi Xudoning Mavlud bayrami sovg‘asini qabul qilmaslik va Isodan gunohlaringni kechirib, sening Xaloskoring bo‘lishini so‘ramayapsan? Sen quyida keltirilgan oddiygina oyatni o‘qib, buni qilishing mumkin. Agar Isoning sovg‘asini qabul qilgan bo‘lsang, Xudoga ajoyib sovg‘asi uchun minnatdorchilik bildirib, o‘z ibodatingni aytgin.

IBODAT: “Ota, O‘z O‘g‘lingni bu olamda tug‘ilib, yashashi va men uchun o‘lishga yuborganing uchun Sendan minnatdorman. Mening gunohlarim bois Uning xochdagi o‘limi uchun Senga rahmat. Uning o‘limi orqali barcha gunohlarim uchun tovon to‘laganingdan minnatdorman. Men o‘zimni Senga hadya etib, O‘g‘lingni Xaloskor va Xudo sifatida tan olaman. Iltimos, bundan so‘ng hayotimni boshqar, menda yashayotgan Muqaddas Ruh orqali Senga ma’qul bo‘ladigan odamga meni aylantirgin”.

26 DEKABR. AKA-UKA

Kalomdan o‘qish: Filimo‘n 1:4-6

Ibodatim shuki, birgalikda baham ko‘rayotgan imonimiz sening hayotingda Samara bersin. Iso Masih uchun qilishimiz kerak bo‘lgan yaxshiliklarni chuqurroq tushunishingga olib kelsin (Filimo‘n 1:6).

QAChONLARDIR AKA-UKALAR YaShAB O‘TGAN BO‘LIB, ularning fermalari yonma-yon joylashgan ekan. Akasi xotini va bolalari bilan tepalik yonbag‘rida yasharkan. Ukasi bo‘ydoq bo‘lib, boshqa tepalikda joylashgan ekan.

Bir kuni aka-ukalar mo‘l hosil olishibdi. Akasining ombori donga to‘lganida, ukasi haqida o‘ylabdi. “Xudo menga juda mehribon, – deya fikr yuritibdi u. – Nega u meni ukamdan ko‘ra ortiq marhamatlaydi? Mening suyukli xotinim va itoatkor farzandlarim bor, u esa yolg‘iz”. U qorong‘i tushib ukasi uyquga ketganida tepalik orqali o‘tib, bo‘ydoq ukasiga hosildan eltmoqchi bo‘libdi. “U o‘zidagi don ko‘proq bo‘lib qolganini sezmaydi”, – deb o‘ylabdi akasi.

Ayni vaqtda bo‘ydoq ukasi ham uyda o‘z xayollari bilan band bo‘lib o‘tirgan ekan: “Xudo menga juda mehribon. Lekin nega U menga bunchalik marhamat ko‘rsatadi? Akamga ko‘proq don kerak: uning xotin va bola-chaqalari bor, men esa faqat o‘zimga g‘amxo‘rlik qilsam yetadi”. U qorong‘i tushgach, imkor qadar ko‘proq donni akasiga eltmoqchi bo‘libdi.” U o‘zidagi donning ko‘proq bo‘lib qolganini sezmaydi”, – deb o‘ylabdi ukasi.

Shu tariqa, aka-ukalar qorong‘i tushishini kutishibdi. Keyin esa, boshqasining uxlab yotganliginii xayol qilib, ikkalasi ham bir-birlariga tepalik orqali don eltishibdi. Har biri o‘z ishini bajarib, uylariga qaytishibdi. Ertasi kuni esa omborlaridagi don kecha qancha bo‘lsa, bugun ham shunday ekanligini ko‘rib, hayratga tushishibdi!

Bir necha tun shu tarzda takrorlanibdi va ular nihoyat bir-birlariga don tashiyotganlarida tepalikda o‘zaro to‘qnash kelibdilar. Shunda ular nimalar bo‘layotganini tushunishibdi: har biri o‘zi haqida emas, boshqasi haqida o‘ylagandi. Ular yelkalaridan qoplarni tashlab yuborib, quvonch va sevgidan bir-birlarini quchoqlab olishibdi.

MULOHAZA QILGIN: Aka-ukalar voqeasi saxiylik bizning hayotimizga quvonch va marhamat olib kelishini ko‘rsatadimi? Agar aka-ukalar saxiy bo‘lmasdan, o‘z don-dunlariga yopishib olganlarida, nima bo‘lardi? Mana shu voqea asosida hikoya tuzib chiq.

IBODAT: “Rabbim, Sen juda mehribonsan, Sen menga ko‘plab marhamatlar bergansan. Iso Masih nomi bilan qanday yaxshiliklar bo‘lishini tushunishim uchun saxiy bo‘lishimga yordam ber”.

27 DEKABR. OCHKO‘Z KO‘PPAK

Kalomdan o‘qish: Voiz 5:9-14

Pulga ruju qo‘ygan hech qachon pulga, boylikni yaxshi ko‘rgan esa boylikka to‘ymaydi. Bu ham behudadir (Voiz 5:9).

KO‘PPAK QASSOBNING DO‘KONIDAN go‘sht qoldiqlari bor katta suyakni xursand bo‘lib tishlaganicha qochib qoldi.

U o‘ziga och holda qaragan boshqa kuchuklarga g‘irillaganicha, shahar ko‘chalaridan yugurib o‘tdi. Nihoyat u ko‘prikka yetib bordi. O‘sha yerda bir oz dam olish uchun to‘xtab, suvga tikildi.

Ko‘rganidan esa taajjubga tushdi: suvda boshqa ko‘ppak bor edi. U ham suyak tishlab turardi. Ko‘ppak jag‘larini biroz ochdi, ko‘zlari suzildi. Daryodagi ko‘ppak unchalik qo‘rqinchli tuyulmasdi, boz ustiga, undagi suyak kattaroq edi.

Ko‘ppaklar bir necha daqiqa bir-birlariga qarab qolishdi, so‘ngra birinchisi harakat qilishga tushdi. U suyakni tortib olish uchun jag‘ini ochib raqibiga tashlandi – va suvga tushib ketdi, axir, boshqa ko‘ppak bor-yo‘g‘i o‘zining aksi edi! Biroq u o‘z aksidagi suyakni tortib olishga urinib, o‘zidagi suyakdan ham ayrilib qoldi.

Ezopning masali asosida bayon etilgan ushbu voqea ochko‘zlik odatda nima oqibatlarga olib kelishini ko‘rsatadi: hech nimaga. Agar ko‘ppak o‘zidagi suyak bilan qanoatlanib, boshqasiga tashlanmaganida, huzur bilan ovqatlanib uyiga qaytgan bo‘lardi. Ammo u boshqasini egallashga uringanida o‘zidagi suyakdan ham ayrildi, ko‘rgan boshqa suyagi esa bor-yo‘g‘i o‘zidagi suyakning aksi edi.

Ochko‘zlik hech qanday yaxshi natijaga olib bormaydi, negaki ochko‘z odam hech qachon o‘z erishganlariga qanoat hosil qilmaydi. Lekin saxiy odam berganidan ko‘proq oladi, negaki saxiylik sovg‘a olayotgan kishiga nisbatan berayotgan kishini marhamatlaydi. G‘alati tuyuladi, to‘g‘rimi? Lekin aslida bu shunday – olgandan ko‘ra, bergan marhamatga erishadi.

MULOHAZA QILGIN: Muqaddas Kitobdan bugun o‘qiladigan oyatda shunday deyiladi: “Pulga ruju qo‘ygan hech qachon pulga, boylikni yaxshi ko‘rgan esa boylikka to‘ymaydi. Bu ham behudadir” (Voiz 5:9). Nima deb o‘ylaysan, bu to‘g‘rimi? “Yetarli” bo‘lishi uchun qancha pul kerak? Pul masalasida sen saxiymisan yoki ziqna? Buyumlar borasidachi? Vaqt masalasida nima deysan? Maqtovlardachi? Bugun qaysi jabhada saxiyroq bo‘lishingga to‘g‘ri keladi?

IBODAT: “Rabbim, olgandan ko‘ra bergan yaxshiroq ekanligini yodda tutishimga yordam ber, pullarimga, boyliklarimga, vaqtimga va so‘zlarimga nisbatan imonimni namoyon etishimga ko‘maklashgin”.

28 DEKABR. HIKOYA QILIB BERILMAGAN VOQEA

Kalomdan o‘qish: 2 Korinfliklar 6:14 – 7:1

Ey azizlarim, Xudo bizga shunday ajoyib va’dalar bergan ekan, badanimizni va ruhimizni bulg‘ovchi har qanday narsadan o‘zimizni poklaylik. Xudodan qo‘rqib yashab, butunlay Xudo uchun ajratilgan ekanligimizni ko‘rsataylik (2 Korinfliklar 7:1).

SEMYUEL LOGAN BRENGL “Xaloskorlik Armiyasi”ning targ‘ibchisi bo‘lgan va kitoblar yozgan. Ulardan birida u quyidagi voqeani hikoya qiladi:

“Qanchadir vaqt avval “Xaloskorlik Armiyasi”ning ikkita a’zosi poyezdga yo‘lga chiqishdi. Vagonda odam ko‘p bo‘lib, ular turli joylarda o‘tirishardi. Birovi keksa bir erkak yonida joylashgan bo‘lib, tezda ikkalasi ham ro‘paralarida o‘tirgan janobni ham suhbatga tortishdi:

– Oldimizda ayollar yo‘qmi? Men sizlarga bir voqeani aytib bermoqchiman.

“Xaloskorlik Armiyasi”ning a’zosi shu zahoti javob qildi:

– Janob, men “Xaloskorlik Armiyasi”danman, ayollarga to‘g‘ri kelmaydigan voqealarni eshitishni istamayman.

Keksa erkak uyalib qolgandek bo‘ldi, janob esa hayron qolgandek tuyulardi, shu tariqa iflos bir voqea aytilmay qoldi. Shubhasizki, “Xaloskorlik Armiyasi”dan bo‘lgan kishi katta bir vasvasadan nari bo‘ldi.

“Xaloskorlik Armiyasi”ning a’zosi bildirgan bu javob vagondagi boshqalarni ham hayron qoldirdi. Bu javob Xudoga manzur edi, negaki bu inson to‘g‘ri qaror qildi: u qalb va fikrlar tozaligini tanladi (quloqlar tozaligi haqida ham unutmaslik kerak!).

Tozalik – bu yaxshi. Bu to‘g‘ri, negaki Xudo bizga pok bo‘lishimizni buyuradi (Ishayo 52:11; Yoqub 4:8). Bu to‘g‘ri, negaki, Xudo poklikni qadrlaydi (Matto 5:8). Bu to‘g‘ri, negaki Xudo pokdir (Yuhanno 3:3).

Xudo bizning fikrlarda toza bo‘lishimizni istaydi. U bizning so‘zlarimizda pokiza bo‘lishimizni xohlaydi. U biz nimaiki eshitmaylik va nimaning ustidan kulmaylik, barchasida pok bo‘lishimizni istaydi. U bizning ovqatlanishimizda pokiza bo‘lishimizni istaydi. U biz nimagaki qaramaylik, o‘shanga munosabatda ham pok bo‘lishimizni istaydi. U bizning har jabhada pok bo‘lishimizni xohlaydi, negaki Uning O‘zi pokdir. Va fikrda, so‘zda va amalda pokiza bo‘lish – bu Unga monand bo‘lmoq demakdir.

MULOHAZA QILGIN: “Ruhimizni bulg‘ovchi har qanday narsadan” (2 Korinfliklar 7:1) o‘zimizni poklashning aniq va muayyan uslublari haqida o‘ylab ko‘r. Quyidagi jumlalarni yakunla:

- **“Men nimaiki o‘ylamay, barchasida pok bo‘lmoqchiman, shu bois _____”.**
- **“Men nimaiki gapirmay barchasida pok bo‘lmoqchiman, shu bois _____”.**
- **“Men nimaiki eshitmay yoki nimaning ustidan kulmay, barchasida pok bo‘lmoqchiman, shu bois _____”.**
- **“Men nimaiki iste’mol qilmay” barchasida pok bo‘lmoqchiman, shu bois _____”.**
- **Men nimagaki qaramay, barchasida pok bo‘lmoqchiman, shu bois _____”.**

IBODAT: “Rabbim, men Sen kabi pok bo‘lmoqchiman. Iltimos, menga (nopok narsalarga qaramaslik, so‘kinmaslik va h.k.z.) uchun yordam ber. Vujudimni va ruhimni bulg‘aydigan barcha narsadan poklanishimga ko‘maklash”.

29 DEKABR. ODAMNING ENG YAXSHI DO‘STI

Kalomdan o‘qish: Rimliklar 8:12-18

Ishonchim komilki, hozirgi azob-uqubatlarimiz bizga zohir qilinadigan ulug‘vorlik oldida hech narsa emas (Rimliklar 8:18).

NYU-YORK SHAHRINING POLISIYASI o‘rgatilgan itlardan foydalanishadi, ya’ni ular biror joyga politsiyachilar kirishidan avval o‘sha yoqni tekshirib chiqishadi. Itlarga maxsus kameralar o‘rnatilgan, negaki politsiyachilar shu tariqa ichkariga kirmay turib, uy ichidagi jinoyatchilarni ko‘rishlari mumkin.

Lekin ba’zan itlarni o‘ldirishadi. Yaqinda bir politsiyachida g‘oya paydo bo‘ldi. O‘n uchta politsiyachi itlar uchun xuddi odamlarda bo‘lgani kabi, o‘q o‘tmas nimchalar kiydirishdi. Har bir nimcha uch kilogrammdan iborat. Ularda, ehtimol, issiqlab ketishsa kerak, nimchalar og‘ir. Biroq zobitlar to‘rt oyoqli do‘stlarini bu nimchalar qutqarib qolishiga umid qilib, ularga kiygazishadi.

Balki itlar o‘zlaricha o‘ylashar: “Nega men bu og‘irlikni ko‘tarib yurishim kerak? It–do‘stlarimdan hech kim bunday nimcha kiymaydi-ku”.

Balki itlar odamlarga shunday demoqchi bo‘lishar: “Nega bu odamlar hamma vaqt itlar hayotini murakkablashtirishadi? Nega biz o‘z xohlaganimizdek ish tutolmaymiz? Nima uchun bizga bu og‘ir va noqulay narsalarni bog‘lab qo‘yishdi?”

Kim biladi deysiz? Balki, itlar aynan shunday o‘ylashayotgandir. Ammo *biz*, albatta, bilamiz, o‘q o‘tkazmaydigan nimchalar – foydali buyum bo‘lib, itlar hayotini qutqarishi mumkin. Agar itlar buni tushunganlarida edi, ular, albatta, nimchalar taqib yurishni afzal ko‘rgan bo‘lishardi.

Ba’zan masihiy-bolalar o‘zlarini ana shu itlardek tutishadi. Bu esa (opang bu haqda nima demasin) ularning uvilashlarini yoki sasib yurishlarini anglatmaydi. Bu, Xudoning amrlari bizga ba’zan malol kelishini anglatadi. Biz to‘g‘ri qaror haqida umuman bezovta bo‘lmasak, bizga oson bo‘ladi, deb o‘ylaymiz.

Ammo politsiyachilar o‘z itlariga issiq nimchalarni bejiz ilmaganlaridek, Xudo ham amrlarni bizga tasadifan bermagan. Uning amrlari bizga halaqit berishi emas, bizni himoya qilishi lozim. Ular o‘q o‘tkazmaydigan nimchaga o‘xshaydi: ular yetkazadigan noqulaylikdan ko‘ra foydasi *ancha ko‘p* (qaragin: Rimliklar 8:17; 2 Korinfliklar 4:17).

Xullas, Xudoning amrlari senga malol keladigandek bo‘lib tuyulsa, yodingda bo‘lsin, ular seni o‘q o‘tkazmaydigan nimcha kabi himoya qiladi. Ular seni nafaqat shikastlanishdan asraydi, balki hayotingni ham qutqarishi mumkin.

MULOHAZA QILGIN: Xudoning amrlari qachondir senga malol keladigandek tuyulganmi? Sen to‘g‘ri qaror haqida mutlaqo o‘ylab ko‘rmaslik afzal bo‘ladi, deya qachonlardir hisoblaganmisan? Nima uchun «ha» va nima uchun «yo‘q»? Muqaddas Kitobdan bugun o‘qiladigan oyatga ko‘ra, agar sen Xudoning amrlarini bajarmasang, gunohkor tabiating seni nimalarga boshlab borgan bo‘lardi? Gunohkor tabiatingdan va uning nopok qilmishlaridan voz kechish senga nimalar beradi? Qanday tanlov senga ma’qulroq ko‘rinadi?

IBODAT: “Ota, ba’zan Sening amrlaringga amal qilishim og‘ir kechadi. Iltimos, bu mashaqqatlarni kelgusidagi marhamatlar bilan taqqoslab bo‘lmasligini yodda tutishimga yordam ber”.

30 DEKABR. KVISLING BO‘LMA!

Kalomdan o‘qish: Zabur 88:2-9

Ey Parvardigori Olam – Egam,
Kim Senchalik qudratli, ey Egam?!
Sadoqating atrofingni o‘ragan (Zabur 88:9).

KVISLING KIM EKANLIGINI BILASANMI? (Bu haqiqatdan so‘z. Biz uni o‘ylab topmadik.)

Agar biror kishi seni “kvisling” deb atasa, xafa bo‘lishing kerak. Bu xuddi kimnidir Yahudo Ishqariyot deb ataganga o‘xshaydi.

Qarangki, Vidkun Kvisling Adolf Gitler Germaniyani boshqara boshlaganida, norvegiyalik siyosatchi bo‘lgan. Natsistlar 1940 yilda Norvegiyaga bostirib kirganlarida, Kvisling nemislar bilan hamkorlik qilgan, nemislar buning evaziga uni 1942 yilda Norvegiyaning bosh vaziri etib tayinlashdi. U o‘z qiroliga va vataniga xiyonat qildi. U nemislar bosqinidan keyin qirolga sodiq qolib, Angliyaga qochgan odamlarni qamoqqa tashlab, o‘ldirdi. Germaniya mag‘lub bo‘lganida esa Kvislingni qo‘lga olishdi, hukm chiqarib qatl etdilar. Shundan buyon “kvisling” so‘zi – “sotqin” so‘zining sinonimidir.

Agar *sening* isming sotqinning ismi bilan sinonim bo‘lsa, bu senga yoqarmidi? Senga yoqmagan bo‘lardi, to‘g‘rimi? Sen xoin sifatida nom qozonishni xohlamasding, to‘g‘rimi? Seni odamlar sodiq va haqqoniy deb hisoblashlarini istarmiding?

Albatta, xohlagan bo‘larding. Aksariyat odamlar shuni xohlashadi. Hech kim kvisling bo‘lib nom qozonishni istamaydi, negaki do‘stlaringga, oilangga, vataningga yoki Xudoga xiyonat qilish noto‘g‘ri. Biroq *nima uchun* noto‘g‘ri? Nega barcha Kvislingdan hazar qiladi? Nega Kvisling bo‘lish yomon? Nega do‘stlarga, oilaga, vatanga va Xudoga sodiq bo‘lish yaxshi?

Sadoqat yaxshi, negaki Xudo sadoqatlidir. Sadoqat to‘g‘ri, negaki sadoqatli bo‘lish – Xudoga monand bo‘lish demakdir. Zaburchi shunday yozadi: “Sening sodiq sevgingni, ey Egam, to abad kuylayman, Barcha nasllarga sadoqatingni o‘z og‘zim bilan e’lon qilaman... Sening sodiq sevging to abad mustahkamdir, Sening sadoqating samolarday barqarordir... Sadoqating atrofingni o‘ragan” (Zabur 88:2-3, 9). Mana nima uchun xiyonat yomon: u Xudoning fe’l-atvoriga zid keladi.

Xullas, kvisling bo‘lmagin. O‘z do‘stlaringga, oilangga, vataningga va Xudoga sodiq bo‘l.

MULOHAZA QILGIN: Sodiq bo‘lish nimani anglatadi? Bu va’daga vafo qilishni bildiradimi? Bu hech kimga ko‘z qiri solgani uchun yomon gapirmaslikni anglatadimi? Bu, boshqaga yomon bo‘lmasligi uchun hech narsa qilmaslikni bildiradimi? Yoki yana boshqa narsami? Sadoqat nima ekanligi haqida o‘ylab ko‘r va quyidagi jumlalarni yakunlagin:

- **Do‘stga sodiq bo‘lish, bu demak _____.**
- **Oilaga sodiq bo‘lish, bu demak _____.**
- **Vatanga sodiq bo‘lish, bu demak _____.**
- **Xudoga sodiq bo‘lish, bu demak _____.**

IBODAT: “Rabbim, Sening sadoqating samo kabi abadiy. Iltimos, Senga o‘xshashimga yordam ber. Meni Senga, vatanga, oilamga va do‘stlarimga sadoqatli etgin va shunday bo‘lib qolishimga yordam bergin”.

31 DEKABR. FOYDALI ORZULAR

Kalomdan o‘qish: Filippiliklar 4:8-9

Endi esa, ey birodarlarim, fikr-zikringiz haqiqiy, sharafli, to‘g‘ri, pok, yoqimli, tahsinga sazovor narsalarda bo‘lsin. Ha, olqishga loyiq, a’lo narsalar haqida fikr yuritinglar (Filippiliklar 4:8).

JEYMS TERBER “Uolter Mitti hayotining siri” nomli kitob yozgan. Kitobning bosh qahramoni – doimo orzu qiladigan oddiy bir odam. Uolter Mitti kun bo‘yi o‘zini qahramon sifatida tasavvur qiladi. U eski mashinasini o‘yiq joylardan haydayotganida, o‘zini eng dahshatli bo‘ron ichida qiruvchi samolyotni boshqarib ketayotgandek his qiladi. U kasalxona yaqinidan o‘tayotganida, o‘zini mashhur jarroh sifatida tasavvur etadi.

Balki senda Uolter Mittida bo‘lganidek muammolar yo‘qdir. Albatta, sen sevib qolishni yoki maktabdan barvaqt ketish haqida orzu qilasan. Biroq foydali orzular bor bo‘lib, ular to‘g‘ri qaror qilishingga, so‘ziga amal qiladigan va barqaror inson bo‘lishingga yordam beradi.

Pavlus ilk jamoatlarga yozganida, ana shunday orzularni nazarda tutgan. Havoriy imonlilarni hamisha haqiqiy, olijanob, halol, adolatli va shu kabi narsalarga ishonishga buyurgan. U imonlilarning xayoliga xavfli va halokatli g‘oyalar kirmasligi uchun ezgulik va adolat haqida o‘ylashlarini buyurgan.Agar sen o‘z aqlingni yaxshi fikrlar bilan to‘ldirsang, unda ahmoqona xayollar uchun joy qolmaydi!

Quyida keltirilgan narsalar haqida o‘ylab ko‘rishga nima deysan? Bu borada bir qancha uslublar bor, biz ulardan uchtasini eslab o‘tamiz:

1. *Kalomni yod olish.* Agar sening fikring Xudoning Kalomi bilan to‘liq bo‘lsa (deylik, sen haftasida bitta oyatdan yodlab borasan), vasvasaga qarshi turib, to‘g‘ri qarorga kelishing mumkin (qara Matto 4:4, 7, 10).

2. “Tinmay” ibodat qilish. Faqat ertalab bir marta ibodat qilish o‘rniga, kun davomida ibodat qilgin, mayli, bu qisqacha ibodatlar bo‘lsin (Rabbim, haqiqatni aytishim uchun yordam ber” yoki” Hozir menga yordam berganing uchun Senga rahmat, Xudoyim”; qaragin: 1 Salonikaliklar 5:17).

3. *O‘z fikrlarini boshqarish*. Mabodo televizion shouda nojo‘ya gaplarni aytishsa, sen bu shouni tomosha qilmagin. Agar do‘sting yomon ish qilishga undasa, bunday do‘stdan nari yurgin. Seni haqiqiy, pok va adolatli narsalardan chalg‘itishi mumkin bo‘lgan tomosha va joylardan avvalroq ketgin (qaragin: Zabur 100:3)

Bu harakatlar to‘g‘ri qarorga kelishni kafolatlamaydi. Ammo *bunday* orzular to‘g‘ri qarorga kelishingga – va so‘ziga amal qiladigan inson bo‘lishingga – yordam beradi.

MULOHAZA QILGIN: Agar Kalomni o‘qishni boshlasang, ushbu oyatlardan biridan boshlagin: Yuhanno 3:16; Yuhanno 14:6; Matto 7:7; Yuhanno 1:9 yoki Zabur 118:105. Agar har doim ibodat qilishni istasang, kun davomida o‘zingga bu haqda qanday eslatishing mumkinligi haqida o‘ylagin (misol uchun, barmog‘ingga ip bog‘lab ol). Agar o‘z fikrlaringni boshqarmoqchi bo‘lsang, qanday tomosha va joylardan o‘zingni chetga olishing kerak?

IBODAT: “Rabbim, iltimos, menga haqiqiy, halol, adolatli, pokiza, iltifotli, sharafli, ya’ni yaxshi fazilatlar va maqtovlar haqida o‘ylashimga yordam bergin”.